O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI

XO’JALIK (TADBIRKORLIK)

HUQUQI

DARSLIK

O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta`lim vazirligi qoshidagi Muvofiqlashtiruvchi Kengashning qarori bilan suquqshunoslik oliy o’quv yurtlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etildi.

Toshkent-2003

67. 404 Germaniya Texnik Hamkorlik Jamiyati (GTZ) ko'magida chop etildi.
X 98

Mas`ul muharrir: Otaxonov F.H. TDYuI «Xo'jalik va mehnat huquqi» kafedrasi mudiri, yuridik fanlari nomzodi

Mualliflar jamoasi:

Ibratov B.I.	Kirish, I, II boblar
Nasriev I.I., Burxanxodjaeva X.V.	*III, IV, XIII boblar*
Mansurov K.E. Isakov T.U.	*V bob*
Shukurullaev A.X.	*VI bob*
Otaxonov F.H.	*VII, IX boblar*
Nuriddinova A.M.	*VIII bob*
Xaytboev M.M.	*X bob*
Tursunov Y.T.	*XI, XV boblar*
Do'stov U.N.	*XII bob*
Oqyulov O.O., Nasriev I.I., Yuldashev J.	*XIV bob*
Rustambaev M.X., Tohirov F.T.	*XVI bob*
Ernazarov U.T., Nasriev I.I.	*XVII bob*
Rustambaev M.X., Oqyulov O.O.	XVIII bob

Taqrizchilar: Zokirov I.B. yuridik fanlari doktori, profesor
Egamberdiev E.E. yuridik fanlari nomzodi, dosent
Xamroev q. yuridik fanlari nomzodi, dosent

X 98 O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta`lim va-zirligi qoshidagi Muvofiqlashtiruvchi Kengashning qarori bilan hu-quqshunoslik oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik // Mual-liflar jamoasi: Ibratov B.I., Nasriev I.I., Burxanxodjaeva X.V. va boshq.: Mas`ul muharrir Otaxonov F.H. /.T.: Toshkent Davlat yuridik in-ti,2003.-435 b.

Sarlavhada: O'zR Adliya vazirligi Toshkent Davlat yuridik in-ti.

O'zbekiston Respublikasi bozor munosabatlariga o'tish davrida iqtisodiyotning turli sohalarini malakali yuristlar bilan ta`minlash talab etiladi. Shu o'rinda Xo'jalik huquqi fanidan 2002 yilda ishlab chiqilgan dastur asosida yozilgan ushbu darslik universitet yuridik fakul`tetlari, yuridik institut va huquq asoslari o'qitiladigan oliy o'quv yurtlari talabalariga tavsiya etiladi, shuningdek mazkur darslik xo'jalik sudlari, prokuratura, xo'jalik yurituvchi sub`ektlar yuridik xizmat xodimlari hamda tadbirkorlarga qo'llanma sifatida mo'l-jallangan.

№ 422-2003 yil **BBK 67.404ya73**
Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi

© Toshkent Davlat yuridik instituti, 2003 y

Ushbu darslikni yuridik fanlari doktori, professor B.I.Ibratov, katta o'qituvchi N.N.Ro'zmatovlar-ning yorqin xotirasiga bag'ishlaymiz.

KIRISH

Iqtisodiyotni markazlashtirilgan rejali tizimidan erkin bozor munosabatlariga o'tib borilayotgan bir davrda xo'jalik yurituvchi sub`ektlar huquqiy holati va ular o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar tabiati o'ziga xos tarzda o'zgarmoqda va bunday munosabatlar yangicha mazmun bilan boyimoqda. Bu esa o'z navbatida turli xo'jalik yuri-tuvchi sub`ektlar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan qonunlarni qabul qilish va ularni muntazam takomillashtirib bor-ishni taqozo qiladi.

Ma`lumki, O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilli-gini qo'lga kiritgandan so'ng qabul qilingan qonunlar-ning aksariyati mulkiy va mulk bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Xo'jalik (tadbirkorlik) sub`ektlari o'rtasida, qolaversa, iqtiso-diyotni boshqarishda xo'jalik (tadbirkorlik) sub`ektlari bilan davlat o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar aynan xo'jalik munosabatlari hisoblanib, uni tartibga so-lishning huquqiy jihatlarini tadqiq qilish va bu so-hadagi huquq normalarini takomillashtirib borish muam-molarini tadqiq qilish xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi fani zimmasiga tushadi.

Keng kitobxonlar e`tiboriga havola etiladigan mazkur «Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi» bo'yicha darslik yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishdek dolzarb masala va muammolarni yoritishga xizmat qiladi. Unda nazariyot va amaliyotda katta tajribaga ega bo'lgan mualliflar amaldagi qonun hujjatlari mazmunini tahlil etadilar, xo'jalik (tadbirkorlik) faoliyatini huquqiy tartibga solish aha-miyatini ochib bergan. qolaversa, darslikda foyda olishga qaratilgan faoliyat mazmunigina emas, balki iste`mol-chilarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyat mazmuni ham keng yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 53-moddasiga muvofiq, bozor munosabatlariga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste`molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Mazkur darslikning alohida ahamiyatga molik jihati shundaki, uning har bir mavzusi iqtisodiyot bilan huquq-ning aloqadorligi va mushtarakligi tamoyiliga tayangan holda ochib beriladi. Mualliflar faqatgina xo'jalik (tadbirkorlik) sohasidagi qonun hujjatlarini tahlil etib-gina qolmasdan, balki o'z echimini kutayotgan muammolarga ham to'xtalib o'tganlar. Bundan tashqari, tadbirkorlik hu-quqiy munosabatlari xo'jalik huquqiy munosabatlari-ning ajralmas tarkibiy qismi ekanligi ham nazariy, ham amaliy jihatdan darslik mavzulari mazmuniga singdi-rilgan va ularning o'zaro uyg'unligi har taraflama bayon qilingan.

Darslikning amaliy ahamiyati to’g’risida to’xtalar ekanmiz, uning tegishli paragraflarida xo’jalik (tadbir-korlik) faoliyatini huquqiy tartibga solishda davlatning roli, bunday tartibga solishning shakllari va usullari, kichik va o’rta biznesning rivojlantirishga ta`sir etish, iste`molchilarning huquqlarini turli usullar bilan himoya qilish masalalari batafsil ochib beriladi.

Iqtisodiyot va huquqning umumiy masalalari bilan bir qatorda darslikda xo’jalik faoliyatining yuridik shakli bo’lgan xo’jalik shartnomalarining roli va ahamiyati, qim-matli qog’ozlar muomalasi, raqobatni rivojlantirish, shuningdek monopolistik faoliyatni cheklashning huquqiy masalalari, investisiya faoliyatini huquqiy tartibga solish, xo’jalik nizolarini hal etish usullari kabi masalalar darslikdan salmoqli o’rin egallagan.

Fikrimizcha, iqtisodiy islohotlarni amalga oshi-rish borasida Parlamentimiz tomonidan qabul qilingan qonunlarni hayotga tadbiq etishdagi ba`zi xato va kamchi-liklar asosan iqtisodiy bilimlarni chuqur egallanmaganligi bois sodir bo’lmoqda. Shu sababli, huquqiy davlat qurishdek yuksak vazifani amalga oshirish bevosita kadr-larimizni iqtisodiy-huquqiy bilimlarini oshirish va-zifasini ham o’z ichiga qamrab olmog’i lozim.

Xo’jalik (tadbirkorlik) huquqi asoslari to’g’risidagi bilim nafaqat huquqshunoslik sohasida tahsil olayotgan talabalar uchun, balki ijtimoiy, texnik, qolaversa medisina kabi boshqa sohadagi oliy, o’rta-maxsus o’quv yurtlari talabalari uchun ham juda muhimdir. Chunki o’quv yurtini bitirgan mutaxassis bugungi kunda xohlasa-xohlamasa xo’jalik (tadbirkorlik) faoliyatiga daxldor bo’lib qoladi, chunonchi, uning shaxsan o’zi xo’jalik (tadbirkorlik) fao-liyati bilan shug’ullanishiga to’g’ri keladi yoki u o’z xizmat vazifasini bajarish jarayonida unga ro’baro’ keladi. Xulosa qilib aytganda, xo’jalik (tadbirkorlik)ning huquqiy asoslari bilan O’zbekiston Respublikasi fuqarolarining hayoti chambarchas bog’liqdir.

Qolaversa, xo’jalik (tadbirkorlik) huquqi asoslari bo’yicha bilimlar majmui nafaqat O’zbekiston Respubli-kasi xo’jalik yurituvchi sub`ektlari faoliyati uchun, balki chet el investorlarini O’zbekiston hududida faoliyat olib borishlarining huquqiy jihatlarini ham belgilab beradi.

Fikrimizcha, mazkur darslikdan xalq xo’jaligining turli sohalari mutaxassislari, turli o’quv yurtlari tala-balari va boshqa iqtisodiyot va huquq masalalariga qizi-quvchi shaxslar o’zlariga kerakli ma`lumotlarini va bi-limlarni topa oladilar.

XO’JALIK (TADBIRKORLIK) HUQUQI TUSHUNCHASI

Bozor iqtisodiyoti shakllanishi sharoitida xo’jalik (tadbirkorlik) huquqining roli.

Respublikamizning ijtimoiy iqtisodiy sohalarida bozor munosabatlarini tobora chuqurlashib borishi xo’ja-lik (tadbirkorlik) huquqining ham rivojlanishiga sabab bo’ladi. Chunki rejali taqsimot tizimi paytida barcha mu-nosabatlar, shu jumladan tovar ishlab chiqarish ham, yuqoridan berilgan buyruqlar, topshiriqlar, qarorlar asosida amalga oshirilar edi. Ushbu ma`muriy tizim tufayli respublikamizda halq

xo’jaligining faqat bir sohasi, ya`ni xom ashyo etkazib berish tuzilmasigina rivojlangan edi.

Shu sababli hozirgi kunda ham ayrim xom ashyolar: texnika vositalari, asbob-uskunalar, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari, sanoat mollari vaqtincha chetdan keltirilmoqda.

Respublikamizda aksariyat mavjud korxonalarning qo-loq texnika vositalari bilan ta`minlanganligi ular to-monidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifatsiz, bo-zor talabiga mos kelmay qolayotganligiga sabab bo’lmoqda.

Buning ustiga ilgarigi bir tomonlama qabul qilingan, puxta o’ylanmagan qarorlarga ko’ra amalga oshirish mo’ljal-langan qayta qurishning amalda barbod bo’lganligi oqi-batida sobiq respublikalarning barchasi iqtisodiy zarba-larga uchradi. Yoppasiga pulning qadrsizlanishi, tovar-larning qimmatlashuvi, bir vaqtlar yagona bo’lgan moliya, pul-kredit tizimining barbod bo’lishi, tarkib topgan xo’jalik aloqalarining buzilishi O’zbekistonning ham iqtisodiy holatiga ta`sir ko’rsatmay qolmadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so’ng ichki iqtisodiy munosabatlarimizni juda noqulay sharoitda boshlashga to’g’ri keldi. Ichki iqtisodiy siyosatning mohiyati inson manfaatlariga qaratilib, mehnatni rag’batlantirish, aholining ijtimoiy nochor qatlamlarini davlat yo’li bilan himoya qiladigan bozor iqtisodiyotini qurishdan iborat bo’ldi.

Tarixiy tajribadan ma`lumki, ko’pgina mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish va aholining turmush darajalarida tafovutlar bo’lishiga qaramay, ijtimoiy rivojlanishning hozirgi bosqichiga bozor iqtisodiyoti juda mos kelmoqda va samarali harakat qilmoqda.

Bozor munosabati haqida Prezidentimiz juda aniq ta`rif berganidek, faqat uyushgan bozorgina bugungi kunda halqning ijodiy va mehnat imkoniyatlarini ochib bera oladi, boqimandalikka xotima beradi, tashabbuskorlik va ishbilarmonlikni rivojlantira oladi, rag’batlantirishni va yo’qotilgan xo’jayinlik tuyg’usini qayta tiklaydi**.**

Ishlab chiqaruvchining hukmini sindirish, ishlab chi-qarishni iste`molchinining manfatlariga bo’ysundirish, mahsulotga bo’lgan talabni aniq hisobga olish, kon`yuktura o’zgarishlariga qarab tezlikda ish tutish imkonini beradi. Tejamli xo’jalik yuritishning kuchli oqilona jihatlarini yaratadi, harajatlarni kamaytiradi, talon-tarojga qarshi kurashadi.

Faqat bozorgina yangiliklarga sezgirlik qilib, fan va texnikaning eng so’nggi yutuqlarini dadil va g’ayrat bilan joriy etadi, o’z ishining ustasiga, kasb mahoratiga munosib baho beradi.[1]

Bozor munosabatlari Respublikamizda borgan sari chuqurlashib bormoqda. Moddiy ishlab chiqarish va ayri-
boshlash tobora rivojlanmoqda. Lekin uning o’ziga xos xususiyatlariga ham e`tibor berish lozim.

Bozor iqtisodiyotiga o’tish muammolariga tik ko’z bilan qarash kerak,-degan edi I.A. Karimov. Bozor iqtisodiyotining faqat ijobiy tomoninigina emas, balki uning

[1] Каримов И.А. Ызбекистоннинг ыз исти=лол ва тара=иёт йыли. Т. Ызбекистон, 24- бет.

salbiy tomonini ham ko'ra bilish kerak. Bozorga, ayniqsa uning shakllanish bosqichida uzoq va chuqur iqtisodiy in-qirozlar, ishsizlikning o'sishi, pulning qadrsizlanishi, ko'pgina korxonalarning sinishi va ishbilarmonlarning xonavayron bo'lishi, aholining moddiy ta`minot jihatidan keskin tabaqalashuvi, huquqqa zid xatti-harakatlar va jinoyatlarning o'sishi xosdir. Bozorning bu illatlarini bilish, ularga tayyor turish, ularni bartaraf etish yuzasidan to'g'ri echimlar topa bilish kerak. [2]

Demak, bozorga o'tish, bu hozirgi davrdagi muqarrar jarayondir. Ayni vaqtda bozor bu faqat maqsad emas, balki yangi qadriyatlarni shakllantirish, odamlar farovonligi-ning sifat jihatidan tubdan yuqori darajasiga erishish uslubi va vositasidir.

Shu sababli bozor munosabatlari korxona, tashkilot-larning va boshqa turdagi tovar, mahsulot ishlab chiqa-ruvchilarning o'zaro shartnomaviy munosabatlari bilan uz-viy bog'liqdir.

Bozor munosabatlari davridagi tovar ishlab chiqarish va uni iste`molchilarga etkazib berish bilan bog'liq jarayonlar respublikamizning bir qator qonunlarida, jum-ladan, Fuqarolik Kodeksi[3], «Mulkchilik to'g'risida"[4], «Ijara to'g'risida"[5], «qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida"[6], «Dehqon xo'jaligi to'g'ri-sida"[7], «Fermer xo'jaligi to'g'risida", Tadbirkorlik fao-liyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi[8] va boshqa bir qator qonunlar bilan huquqiy tartibga solinadi. Anashu va shunga o'xshash boshqa qonunlar bozor muno- sabatlarini tartibga soluvchi muhim huquqiy hujjatlar bo'lib hisoblanadi. Xo'jalik huquqi esa ushbu qonunlarga tayanib rivojlanadi, bozor iqtisodiyotining shakllanish jarayonida muhim huquqiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqining tushunchasi va uning predmeti

Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqiga ta`rif berishdan avval uning huquq tizimida tutgan o'rniga to'xtalib o'taylik. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqiga bir tomondan huquqning mustaqil sohasi sifatida, ikkinchi tomondan qonunchilik tarmog'i, uchinchidan fan, to'rtinchidan o'quv predmeti (fani) sifatida qaraladi.

Ammo ayrim olimlar xo'jalik huquqini qonunchilik tarmog'i, fan va o'quv predmeti deb tan olsada, huquq tarmog'i ekanligiga shubha bilan qaraydilar. Jumladan, Yu.K. Tolstoy xo'jalik huquqiga huquqlarning (kompleksi) yig'indi sohasi deb qaraydi. Bu fikr ayrim olimlar tomo-nidan quvvatlanadi. Buning isboti sifatida Alekseev S.S. fikrini keltiraylik. Uning qarashicha, xo'jalik huquqi "fuqarolik xo'jalik huquqi va ma`muriy xo'jalik huqu-qi"dan iborat bo'lib, huquq tizimida "ikkinchi darajali tuzilma" sifatida qaralmog'i kerak.

Ayrim olimlar esa xo'jalik huquqini huquqlarning (kompleks) yig'indisi sifatida tan olmasdan, balki xo'jalik munosabatlarini tartibga solib turuvchi huquqiy

---

[2] Каримов И.А. Ызбекистоннинг ыз исти=лол ва тара=иёт йыли. Т. Ызбекистон, 28- бет.
[3] Ызбекистон Республикаси Фу=аролик Кодекси. Т., Адолат, 1998 й.
[4] Ызбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси, 1990 й., 31-33-сон.
[5] Ызбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси, 1992 й., 1-сон, 45-модда.
[6] Ызбекистон Республикаси Олий мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 5,6-сон, 84-модда
[7] Ызбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси, 1998 й., 5,6 -сон, 88-модда.
[8] Ызбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 й., 5,6-сонлар, 140-модда

xujjatlarning bir butun yig'indisini tashkil etadi deb (Yakovlev V.F, Yakushev V.S.) hisoblaydilar.

Boshqa guruh mualliflarining, masalan I.E.Kras`ko-ning fikricha, xo'jalik huquqi davlat sektorida vujudga keladigan xo'jalik munosabatlarini tartibga soladi, O.A.Krasavchikov fikricha, xo'jalik huquqi funksiyalari o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan turli xil huquq sohasi qoidalari jamlangan huquqiy massivdir. Ushbu fik-rlarga qarshi o'laroq, o'tgan asrning oxirgi yillariga kelganda xo'jalik huquqini yagona, mustaqil huquq sohasi sifatida ilgari surgan yangi konsepsiya, qarashlar yuzaga keldi. Bu qarashlarga ko'ra, xo'jalik huquqi korxona, tashkilotlarning o'zaro va ularning bo'limlari bilan bo'ladigan xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda rahbarlik qilishda tashkil topadigan munosabatlarni tartibga soladi. Bunday qarashning asosiy vakili, tarafdori V.V. Laptev edi. Uning fikricha xo'jalik huquqi huquqning mustaqil sohasi sifatida o'zida huquqiy qoidalar yig'indisini ifoda etadi. Shu sababli u xo'jalik huquqiga shunday ta`rif beradi: xo'jalik huquqi xo'jalik yuritishning maqsadga muvo-fiqligini ta`minlash maqsadida, huquqiy boshqarishning turli xil usullaridan foydalanilgan holda korxona, tashkilotlar va ularning bo'limlari o'rtasidagi xo'jalik munosabatlarini tartibga soluvchi xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi va rahbarlik tartibini belgilovchi qoi-dalardan iboratdir.

Ma`lumki, xo'jalik faoliyati, sobiq tuzum sharoitida yagona mulkka va davlat rejasiga asoslangan xo'jalik munosabatlaridan iborat bo'lib. u gorizontal xo'jalik munosabatlarini xuddi shunday ularga rahbarlikdan kelib chi-qadigan vertikal munosabatlarini o'z ichiga qamrab olgan edi.

Xo'jalik huquqi xo'jalik munosabatlarining sub`ektlari o'rtasidagi vertikal va gorizontal aloqalarni tartibga soladi. Ammo hozirgi munosabatlar rejali taqsi-motdan, ma`muriy buyruqbozlikdan mutlaqo holi bo'la-digan iqtisodiy munosabtlardir. Bu munosabatda ishtirok etadigan sub`ektlar mutlaqo erkin bo'lib, faqat qonunga va tuzilgan shartnoma shartlariga qat`iy rioya etadilar.

Bozor munosabatlarini tobora rivojlanib borishi, yangi-yangi mulkdorlar guruhini - tadbirkorlarni kel-tirib chiqaradigan bu guruhlar xo'jalik munosabatlari-ning mustaqil sub`ekti bo'lib ishtirok etadi. Ular o'rtasidagi mulkiy munosabatlarning aksariyati xo'jalik qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Xo'jalik huquqiy munosabatlar doirasi, bozor iqtisodiyotining rivojlanib borishi bilan birga borgan sari kengayib boradi, xususan tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida korxo-nalar, tad-birkorlar, fermerlar, dehqon xo'jaliklari, banklar, bir-jalar va shunga o'xshash boshqa sub`ektlar o'ziga xos maxsus faoliyat ko'rsatadilar.

Shu tufayli xo'jalik huquqining tushunchasi, xo'jalik huquqining predmeti qanday? U mustaqil fan tarmog'imi? Yoki tadbirkorlikning turimi? Tadbirkorlik munosabat-lari ham xo'jalik munosabatlarini tashkil etadimi? kabi savollarning javoblarini aniqlashtirish lozim, shundan so'ng xo'jalik (tadbirkorlik) xuquqining o'ziga xos tamoyillariga to'liq tavsif berish mumkin. Xo'jalik xuquqi xuquq tarmog'i sifatida xo'jalik va iqtisodiyot sohasidagi faoliyatni tartibga soluvchi normalar yig'indisidan iborat. "Iqtisodiy faoliyat" termini O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 53-moddasida belgilangan. "Iqtisod" so'zi "ekonomika" grekcha "ekonomos"-so'zidan olingan bo'-lib, "xo'jalik" degan ma`noni anglatadi. Ushbu termin qonun chiqaruvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Ji-noyat kodeksining

“Xo’jalik faoliyati sohasidagi jino-yatlar“ deb nomlangan XSh bobida qo’llanilgan. Bundan tash-qari O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 69-moddasida “xo’jalik faoliyati“ O’zbekiston Respubli-kasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafo-latlari to’g’risida”gi qonunning 18-moddasida “iqtisodiy faoliyat“ iboralari qo’llanilganligini misol tariqasida ko’rsatib o’tish mumkin.

Iqtisodiy (xo’jalik) faoliyatni quyidagi bosqichla-rini:

- ishlab chiqarish (ekspluatasiya)gacha bo’lgan bosqich (ro’yxatdan o’tkazish, lisenziyalash, ruxsatnoma olish);
- ishlab chiqarish (ekspluatasion), (tovarlarni ishlab chiqarish, ularni topshirish, ishlarni bajarish, xizmat ko’rsatish);
- ishlab chiqarishdan (ekspluatasiyadan) keyingi bos-qich (soliq xizmati oldidagi, statistika organlari oldidagi majburiyatlarning vujudga kelishi);

iqtisodiy (xo’jalik) faoliyati manfaatlarining sub`ektlari sifatida:

- jamiyat va davlat;
- korxonalarning mehnat jamoalari;
- mahsulot iste`molchilari;
- korxona mulkdorlarini ajratish mumkin.

Xo’jalik faoliyati jarayonidagi manfaatlar hudud va milliy sifatlari bo’yicha tasniflanadi:

1. Milliy va xorijiy
2. Regional va mahalliy
3. Iqtisodiyot sohalari bo’yicha.

Jumladan, notijorat munosabatlarni, shuningdek davlat va jamiyat manfaatini ta`minlash maqsadida davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish bilan bog’liq munosabatlarni tartibga solib turuvchi qoidalar yig’indisini o’zida mujassamlashtiradi.[9]

Xo’jalik faoliyati faqat tovar ishlab chiqarishga oid munosabat emas, balki ishlab chiqarishni boshlash uchun bino olish yoki qurish, joy olish, yoqilg’i, xom ashyo, asbob- uskunalarga ega bo’lish bilan bog’liq munosabatlarni ham qamrab oladi. Ana shular xo’jalik huquqining predmetini tashkil etuvchi munosabatlar bo’lib, bevosita daromad (foyda) olishga qaratilmagan boshqa maqsadlar bilan ham bog’liq bo’ladi. Bular jumlasiga mulkni boshqarish, kor-xonani tuzish va tugatish bo’yicha tashkiliy-mulkiy tusdagi bog’liq barcha faoliyatlarni kiritishimiz mumkin.

Xo’jalik munosabatlarining asosiy qismini xo’jalik sub`ektlarining o’zaro vertikal va gorizontal munosa-batlari tashkil etadi. Xo’jalik huquqi fanida **xo’jalik munosabatlari asosan uch guruhga:** xo’jalik faoliyatini amalga oshirish bilan bog’liq munosabatlarga, xo’jalikka rahbarlik qilishdan kelib chiqadigan (xo’jalikni bosh-qarish) munosabatlarga hamda ichki munosabatlarga ajra-tiladi.

Xo’jalik munosabatlarining **birinchi guruhi** bevosita mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish, xizmat ko’rsatish bilan bog’liq xo’jalik faoliyatidir.

Xo’jalik munosabatlarining **ikkinchi guruhi** xo’jalik faoliyatiga rahbarlik qilishdan kelib chiqadi.

---

[9] Мартемьянов А.С. Хозяйственное право Т.1 Москва “БЕК“1994й 1-2бетлар

Ichki xo'jalik munosabatlari esa har bir korxona-ning, birlashmaning ishlab chiqarish tuzilmalari o'rtasi-dagi ichki munosabatlari shaklida namoyon bo'ladi.

Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqining o'ziga xos xusu-siyatlari uning sub`ektlari bilan ham bog'liqdir.

Ma`lumki, rejali iqtisodiyot sharoitida xo'jalik munosabatlari faqat korxona va tashkilotlar hamda ularning bo'limlari o'rtasida vujudga kelar edi. Xo'jalik faoliyatini alohida fuqaro emas, balki ularning jamoasi olib borar edi. Fuqaro xo'jalik faoliyatida tashkilot jamoasi tarkibida ishtirok etar edi. Ularning bu munosabatlari esa mehnat huquqi bilan tartibga solinar edi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tib, demokratik huquqiy davlat qurilayotgan hozirgi paytda yakka shaxsning xo'jalik faoliyati qanday? Tadbirkor shaxsning xo'jalik faoliyati xo'jalik huquqining predmetini tashkil etadimi?

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish, avvalo davlat mulkini, davlat tasarrufidan chiqarilib, xususiy mulkni shakllantirishdan boshlanadi. Alohida fuqaroning xususiy mulk egasi sifatida e`tirof etilishi uni tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun imkoniyat berdi va buning uchun etarli huquqiy asoslar yaratildi. Endilikda alohida fuqaro foyda olish maqsadida tavak-kalchilik asosida, tegishli tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan vaqtdan e`tiboran tadbirkor maqomiga ega bo'lgach, xo'jalik faoliyati bilan boshqa xo'jalik yurituvchi sub`-ektlar bilan teng huquqlilik asosida shug'ullanish huquqiga ega bo'ldi.

Respublikamizda bozor munosabatlarining bosqichma-bosqich shakllanib borishida tadbirkorlik faoliyatining, tadbirkorlik munosabatlari ishtirokchilarining ham roli, ta`siri tobora muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Jumladan, bu munosabatning o'ziga xos xususiyatlari, ya`ni ishlab chiqarishni tashkil etish, tadbirkorlikni ro'yxatga olish, uni korxona shaklida rasmiylashtirish, hisob-kitob olib borish, soliq to'lash, bozorga tovar, ish va xizmat bilan chiqish tartibini va qoidasini belgilash, boshqa korxona va tashkilotlar bilan bo'ladigan o'zaro munosa-batlarni huquqiy boshqarishni taqozo etadi. Agar muqaddam fuqaro bozorga chiqishi bizning iqtisodimiz uchun tasodifiy bir hol bo'lib va ma`muriy huquq qoidalari bilan boshqarilgan bo'lsa, hozirgi bozor munosabatlari sharoitida bu munosabatlar bir butun bo'lib, tovar ishlab chiqaruvchilar faoliyatini tartibga soluvchi yagona qoidalar bilan tartibga solinadi. Demak, korxona, tashkilotlarning tadbirkorlarning moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlari bir butun holda xo'jalik huquqiga oid qonunlar orqali tartibga solinib turiladigan xo'jalik munosabatlarining ***birinchi guruhini*** tashkil etadi.

Xo'jalik munosabatlari bevosita foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan holda ham mavjud bo'ladi. Bunday faoliyatga misol sifatida mulkni boshqarish, idora qilish, korxona tashkil etish, tugatish bilan bog'liq tashkiliy mulkiy xarakterdagi faoliyatlarni ko'rsatish mumkin. Ana shu munosabatlar ham bevosita xo'jalik huquqi qoidalari bilan tartibga solinib turiladi.

Xo'jalik sub`ektlari viloyat, shahar, tuman, mahalliy hokimiyat idoralari bilan tegishli xo'jalik faoliyatini tashkil etish va mulkni boshqarishda ishtirok etadi. Bunday xo'jalik munosabatlari foyda olish bilan bog'liq bo'lsa ham, xo'jalik boshqarishini o'z ichiga oladi.

Davlat byudjetidagi muassasalar, matlubot jamiyati, hayriya fondlari va vazifalarini hal etish uchun xo'jalik munosabatlariga kirishadigan boshqa muassasalar faoliyati foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat jumlasiga kiradi. Bu munosabat tadbirkorlik faoliyati bilan juda yaqin bo'lib, shakli jihatdan uni amalga oshirishdan deyarli farqlanmaydi va shu tufayli xo'jalik huquqi bilan bog'liq bo'ladi. Bu xo'jalik munosabatlarining ***ikkinchi guruhini*** tashkil etadi.

Davlat jamiyat manfaatini hisobga olgan holda xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi sub`ektlarga iqtisodiy ta`sir etadi, uning faoliyatini nazorat qiladi. Bu munosabat xo'jalik huquqi predmetining ***uchinchi guruhini*** tashkil etadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan munosabatlar guruhi bozor iqtisodiga oid bo'lgan va davlat tomonidan tartibga solinadigan xo'jalik sub`ektlarini ko'p qirrali faoliyatini ifodalaydi.

Boshqariladigan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish xo'jalik munosabatlari to'g'risidagi va tegishli xo'jalik huquqi predmeti haqidagi tushunchaning ham o'zgarishiga olib keladi. Chunki, ma`muriy buyruqbozlikka asoslangan xo'jalik huquqi tizimi muqaddam faqat davlatga tegishli bo'lgan korxona, tashkilotlarga doir xo'jalik munosabatlariga, shuningdek kooperativ va boshqa tashkilotlar bilan bog'liq xo'jalik munosabatlariga xizmat qil-gan edi. Hozirgi kunda esa mulk shakllarining ko'p xilligi, fuqaro mulklarining kichik korxona shaklida, dehqon xo'-jaligi, xususiy tadbirkorlik faoliyati shaklida ishlab chiqarishga jalb etilishi, xo'jalik munosabatlarining shakli, hajmi, xarakteri va mazmunini o'zgartirib yubormoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida hamma uchun majburiy rejali tartib o'z kuchini yo'qotadi. Ammo reja faqat alohida olingan holatlarga, ya`ni davlat ehtiyojlarini ta`minlashga qaratilgan topshiriqlarni bajarishga tadbiq etiladigan bo'ladi.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida xo'jalik mu-nosabatlarini huquqiy tartibga solish bozor uchun tovar (ish va xizmat) ishlab chiqarishga ixtisoslashgan faoliyati bilan bog'liq bo'ladi.

Shu sababli har qanday sub`ekt o'ziga tegishli mulk yuzasidan ishlab chiqarish faoliyatiga kirishadi va uni amalga oshirish jarayoni xo'jalik huquqi bilan tartibga solinadi.

Xo'jalik huquqi davlatning ishlab chiqarish faoliyatiga ta`sir etishi bo'yicha kelib chiqadigan munosabatlarga ham tadbiq etiladi. Bu davlat bilan boshqa sub`ektlarning o'zaro vertikal bo'yicha xo'jalik yuritish munosabatlaridir.

Hozirgi sharoitda rejalashtirish shaklidagi davlat rahbarligi, nazorat, idora etish o'z xarakterini va xususiyatini yo'qotdi. U ko'proq shartnoma asosida ta`sir etish usuliga o'tdi.

Masalan, korxonalarning o'z ichki bo'g'inlariga rahbar-lik qilishi ichki xo'jalik shartnomalariga asoslanadi. Biroq ozmi ko'pmi qabul qilingan rejali hujjat natijasida tashkil topadigan tegishli munosabatlar va rahbarlik, davlat ehtiyoji uchun davlat buyurtmasi ustidan mulk egasining nazorat qilish funksiyasi o'rnatilgan qoida va tartib yo'li bilan davlat ta`sir chorasini amalga oshirish (ijtimoiy, ekologik va shunga o'xshash) tartibga solishning ma`lum bir yig'indisini tashkil etadi, iqtisodga davlatning ta`sir etish choralarining yangi turlari: soliq, antimonopoliya nazorati va boshqalar kelib chiqadi.

Xo’jalik faoliyatini amalga oshirish yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlar qandaydir itoat etish yoki hukm-ronlik qilishga qaratilgan emas, balki tovar ayirbo-shlash, korxonalarning va regionlarning o’zaro tovar shaklida bo’lmagan harakatidir. Shuningdek, bu to’liq xo’jalik yuri-tish, operativ boshqarish munosabatlari bo’lib, ayirboshlash jarayonida aniq, o’zaro xatti-harakat sifatida namoyon bo’ladi. Masalan, korxona o’z fondini tashkil etadi, mehnatga haq to’lash tizimini ishlab chiqadi va tadbiq etadi, asbob-uskunalardan foydalanishni tashkil etadi va h.k. Fuqarolar xo’jalik faoliyatini amalga oshirishda ishlab chiqarish vositalari, materiallar, xom ashyoga ega bo’ladi va ularni belgilangan tartibda ishlab chiqarish, tovar ayriboshlash jarayonida qo’llaydi, harajat qiladi. Shundan bir savol paydo bo’ladi. Bozor iqtisodiyot munosabatlariga o’tish sharoitida bir tarmoqli boshqarishda vertikal va gorizontal aloqalarni birlashtirish maqsadga muvofiqmi? Yuridik adabiyotlarda hozir ham vertikal munosabat majburiy-huquqiy tartibga solishga doir, degan fikrlar mavjud. Bu fikrlar ularni har xil munosabat deb hisoblashga asos bo’lmaydi. Ular hammasi iqtisodiy mazmuni bilan birlashgan munosabatdir. Ma`lumki, tadbirkorlik faoliyati davlat ta`siri chorasi bilan ham rivojlanadi. Demak, yuqoridan quyiga (vertikal) va yon atrofdagi gorizontal munosabatlar bu yagona xo’jalik muomalasi, takroriy ishlab chiqarish jarayonidan tashkil topadigan iqtisodiy munosabatlar yig’indisidir.

Shunga ko’ra xo’jalik (tadbirkorlik) huquqi, huquq tizimi sohalaridan biri bo’lib, mamlakatimizda bozor iqtisodiy munosabatlariga bosqichma-bosqich borishda davlat va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan, xo’jalik sub`-ektlari o’rtasidagi yuqoridan quyiga (vertikal) va yon atrofga (gorizontal) bo’ladigan xo’jalik (tadbirkorlik) munosabatlarini tartibga soluvchi va bozor sharoitida davlatning iqtisodga rahbarlik qilish chora-tadbirlarini belgilovchi huquqiy qoidalar yig’indisidan iboratdir.

Xo’jalik (tadbirkorlik) huquqining asosiy tamoyillari

1. Huquq sohasining barcha tarmoqlari singari xo’jalik huquqining ham asosiy va eng muhim tamoyillari mustaqil O’zbekiston Respublikasi qonunlarida mujas-samlashgan **asosiy qoidalardir.** Ushbu xo’jalik huquqiga oid tamoyillar respublikamizda bozor munosabatlarini tashkil etishda barcha xo’jalik sub`ektlarining iqtisodiy faoliyatini ma`lum bir maqsad sari yo’naltirib, huquqiy tartibga solib turadi.

2. Xo’jalik huquqining asosiy tamoyillaridan biri xo’jalik (tadbirkorlik) sub`ektlarining **iqtisodiy faol-lik erkinligidir.** U Konstitusiyamizning 53-moddasida o’z ifodasini topgan. Bu tamoyilning bozor iqtisodiy munosabatlarini tashkil etishdagi ahamiyati shundan iboratki, muqaddam iqtisodiy munosabatlar faqat yuqori turuvchi davlat organlarining direktiv ko’rsatmalari asosida belgilangan edi. Bunday tartib ishchi, xizmatchi va ziyolilarning ishbilarmonligi, ijobiy tashabbuskorligi, qisqasi ijtimoiy faolliligiga to’sqinlik qilib qolgan edi. Bozor iqtisodiyotiga o’tib borish esa, jamiyat ehtiyojini hisobga olgan holda mulkiy munosabatlarning o’zgarib borishiga, moddiy ishlab chiqarishni rivojlantirib, mehnat unumdorligini oshirishga, erkin mehnatning qaror topishiga olib keldi. Natijada xo’jalik sub`ektlari yuqoridan beriladigan buyruq yoki ko’rsatmaga asoslanmasdan, balki ular iqtisodiy

qonuniyatlarga-bozor qonuniyatlariga tayangan holda moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda erkin bo'lib, faqat bozor talablariga rioya etgan holda iqtisodiy raqobatda mustaqil qatnasha oladigan bo'ldi.

**3. Xo'jalik (tadbirkolik) sub`ektlarining iqti-sodiy manfaatlarini himoya qilish tamoyili.** Bu tamoyilning mohiyati har bir moddiy tovar ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi ho'jalik sub`ektining iqtisodiy manfaati qonunlarda belgilangan tartibda tegishli organlar orqali himoya qilinadi. Eng avvalo iqtisodiy manfaatlarning himoyasi soliq munosabatlarida yorqin ko'zga tashlanadi. Jumladan, yangi tashkil etilgan korxonalar va tadbirkorlarga moddiy jihatdan o'z iqtisodini tiklab olishda imtiyozlar berilgan. Bank orqali ularga qarz berishda va soliq to'lashda ham ma`lum bir imtiyozlar yaratilgan. Xo'jalik sub`ektlarining mulkiy huquqlari bu-zilganda qonunga muvofiq himoya qilinadi. Jumladan, xo'-jalik sub`ektining mulkiga zarar etkazilganda, shu zarar to'la hajmda zarar etkzgan shaxsdan undirib olinadi. Agar mulk egasining xohishidan tashqari, qonunga zid holda boshqa shaxsga o'tkazilganida, bu mulkka da`vo qo'zg'atilib, egasiga (xo'jalikka) qaytariladi. (Fuqarolik Kodeksining 228-233 moddalari). Agar to'sqinlik qilinganida, unday to'sqinliklar bartaraf etiladi. Mulk egasining huquqlari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 231-moddasida belgilanganidek himoya qilinadi.

Bundan tashqari FKning 232-moddasida belgilan-ganidek, xo'jalik sub`ekti mulkdor bo'lmasa ham lekin mol-mulkka meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish, xo'jalik yuritish, operativ boshqarish huquqi asosida yoki qonun yoxud shartnomada nazarda tutilgan boshqa asosga ko'ra egalik qilayotgan bo'lsa ham uning shu mol-mulkka bo'lgan huquqlari FKning 228-231-moddalari qoidalariga muvofiq himoya qilinadi.

Xo'jalik sub`ektining iqtisodiy manfaatlari, hu-quqi ham qonun bilan himoya qilinadi. Jumladan, xo'ja-liklar boshqa shaxslar bilan shartnoma munosabatlariga kirishganida ularning manfaatlarini himoya qilishda mo-nopoliyadan himoyalash tamoyili muhim ahamiyatga ega bo'-ladi. Bu tamoyilning mazmuni tovar ishlab chiqaruv-chilarning va xizmat ko'rsatuvchilarning bozorlarda erkin harakat qilishini ta`minlash maqsadida monopolistik faoliyatni cheklashga, nosog'lom raqobatning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan chora-tadbirlar olib borili-shida namoyon bo'ladi. Bu sohada O'zbekiston Respublika-sining 1996 yil 27 dekabrda qabul qilingan "Tovar bozor-larida monopolistik faoliyatini cheklash va raqobat to'g'-risida"gi qonuni muhim ahamiyatiga ega.

Ana shu qonun orqali ayrim shaxslar tomonidan bo-zorni monopoliyalashtirib, o'z shaxsiy manfaatiga xizmat qiladigan joyga aylantirishiga qarshi kurash olib bo-rilayapdi. Erkin bozorning tobora keng rivoj topishiga shart-sharoit yaratilib, bozorning eshigi hamma uchun ochiq bo'lishi, narx-navo talab bilan taklif natijasida bel-gilanishi ta`minlanmoqda.

**4. Xo'jalik munosabatlariga iqtisodiy uslublarni qo'llash asosida davlatning ta`sir etish tamoyili.** Bu tamoyil mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishiga direktiva, buyruq orqali ta`sir etish usulining iqtisodiy usuliga, ya`ni mehnat jamoasining, yakka shaxsning tovar ishlab chiqarish, ish va xizmat ko'rsatish, uning assorti-mentini kengaytirish va sifatini oshirishda manfaatlarini hisobga olishga qaratilgani bilan izohlanadi. Bunga misol sifatida soliq undirishni olaylik. Muqaddam

soliqlar hamma tashkilotlardan olingan daromaddan bir xilda ushlab qolinmasdan, balki ilg'or korxonaning mab-lag'idan samarasi past korxona uchun ham olib qolinar edi. Hozir esa soliqlar tizimining aniq qo'yilishi har bir korxona va tashkilotlarning o'z rivojidan manfaatdor-ligi ta`minlanishi, kashfiyot, ixtiro va takomillashti-rish takliflari qilib foydalanishlariga imkoniyat yaratilgan. Davlatning korxona va tashkilotlarga ta`sir etishi beriladigan buyruqqa va ko'rsatmaga emas, balki iqtisodiy usulga asoslanadi.

Iqtisod siyosatdan holi bo'lgan holda rivojlanadi. Bu siyosat mutlaqo iqtisodga aloqasi yo'q ekan, degan, xulosa emas, albatta. Iqtisod bilan siyosat bir–biri bilan bog'lanmagan holda, biri ikkinchisiga ta`sir etgan holda bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, avval iqtisod rivojlanib boradi, so'ngra siyosat shunga yarasha shakllanadi.

5. Respublikamizning mustaqil taraqqiyotini belgi-lovchi asosiy tamoyillaridan biri narxlarni erkin-lashtirish va bozor infrastrukturasini shakllanti-rishdir. Bu, eng avvalo, bozorni tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirishga qaratilgan iqtisodiy omillardan biri-dir. Shu sababli davlatimiz narxlarni birdaniga o'z holicha qo'yib yubormasdan asta-sekinlik bilan erkin narxga o'tib borishni ta`minladi. Narx-navo talab bilan taklif o'r-tasida belgilana boshladi. Chinakam talab va taklif aso-sida vujudga keladigan erkin bozor narxlarning amal qilishi bozor iqtisodiyotining g'oyat muhim bo'g'ini bo'lib, bu bo'g'in mahsulot ishlab chiqaruvchilar bilan iste`molchilarni o'zaro jips ta`sirini ta`minlaydi. Ammo davlatning bo-zor bahosiga ta`sir etishi, ma`lum bir iqtisodiy usullar orqali olib boriladi, albatta.

Davlatning eng avvalo bozor va bahoga ta`siri uni kuzatish va nazorat qilish orqali amalga oshiriladi. Davlat xo'jalik munosabatlariga nisbatan bahoni nazorat qilish standart xizmati, soliq xizmati, sanitariya va ekologiya xizmati kabi usullar orqali faoliyat ko'rsatadi.

Bozor infrastrukturasi bu bevosita transport xiz-matini yo'lga qo'yish, yuk tashish, tushirish, saqlash va to-var-mahsulotlarini sotish bilan bog'liq xizmat turla-rining sifatini oshirish, bozorni o'rganish, bozordagi narx-navo haqida ma`lumot olib turish kabi xizmatlarni o'rniga qo'yish va shunga o'xshash bozor rivojiga ko'mak beruvchi boshqa xizmat turlarini samarali tashkil etish bilan bog'liq munosabatlardir.

6. Xo'jalik huquqining asosiy tamoyillaridan yana biri tovar ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi sub`ektlarning o'zaro raqobatidir. Bu tamoyilning aso-siy mazmuni va mohiyati shundan iboratki, bozor iqti-sodiyoti sharoitida kim kam mehnat va harajat sarf qilib, ko'p va yuqori sifatli mahsulot (ish va xizmat) ishlab chi-qara olsa, u ijtimoiy hamda iqtisodiy taraqqiyotda im-tiyozga ega bo'la oladi. Ma`lumki, bu tamoyil iqtisodi-yotning rivojida eng birinchi va hal qiluvchi vosita hi-soblanadi. Chunki, u raqobatbardoshlikni chiniqtiradi, yomon ishlovchi korxonani samaradorlikka olib chiqadi yoki uzoq muddat davomida tovarlariga talab yo'qligi sababli zarar ko'rib kelayotgan, to'lovga qobiliyatsiz korxonalarni qayta tashkil etish yoki kasodga uchragani sababli O'zbekiston Respublikasinig 2003 yil 24 apreldagi "Bankrotlik to'g'risidagi" qonuniga muvofiq mutlaqo tugatib yuborishga olib keladi.

7. Qonuniylik tamoyili barcha fanlarga doir bo'lgan umumiy tamoyil bo'lsa ham, xo'jalik huquqida u bozor munosabatlariga o'tish sharoitida o'ziga xos

xususiyatga ega bo’lib, bu tamoyil mazmunida xo’jalik sub`ektlarining qonun man etmagan har qanday faoliyat bilan shug’ulla-nishlari mumkinligi qoidasi yotadi. Demak, korxona hamda tashkilotlar davlat va jamiyatga foydali bo’lgan, qonun bilan ta`qiqlanmagan faoliyat bilan shug’ullanish ustuvorligini ta`minlashi shart. Bu esa bozor munosabatlariga o’tib borishimiz bilan bog’liq holda iqtisodni tashkil etish, samaradorlikka erishish, davlatimiz va xalqimizning buyuk kelajagini ta`minlashimizning asosiy vositala-ridan biri bo’ladi.

Xo’jalik (tadbirkorlik) huquqining boshqa huquqiy fanlardan farqi

Xo’jalik (tadbirkorlik) huquqi mustaqil fan tarmog’i sifatida boshqa huquqiy fanlardan o’ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Ana shu farqlarni eng avvalo Fuqarolik huquqi faniga nisbatan ko’rib chiqaylik. Chunki uzoq yil-lardan buyon olimlar o’rtasida bu ikki fanning farqi yuzasidan bahs ketadi. Olimlarning bir guruhi Xo’jalik huquqi mustaqil fan tarmog’i emas, u Fuqarolik huquqi-ning tarkibini tashkil etadi deb hisoblasa, ikkinchi guruhi esa Xo’jalik huquqini alohida fan, deb qarash kerak deydi. Bu haqda biz shu bobning 2-paragrafida bataf-silroq to’xtab o’tgan edik.

Xo’jalik huquqini huquq sohasining bir tarmog’i deb hisoblashga uning Fuqarolik huquqi va boshqa turdosh bo’l-gan huquqlardan farqi asos bo’ladi. **Uning o’ziga xos xu-susiyatlari quyidagilardan iborat:** ma`lumki Xo’jalik huquqi Fuqarolik huquqiga juda yaqin soha bo’lsada, u eng avvalo tushunchasi, predmeti, sub`ektlari orqali juda aniq farqlanadi.

Bu ikki fanning tushunchasidagi farqni olib ko’raylik. Fuqarolik huquqiga hozirgi davr talabini hisobga olgan holda professor I.B.Zokirov shunday ta`rif beradi: «Fuqarolik huquqi O’zbekiston Respublikasida amal qiluvchi huquq tizimi sohalaridan biri bo’lib, mamlakatimizda iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, bos-qichma-bosqich bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o’tish davrida fuqarolar va boshqa sub`ektlarning moddiy va ma`naviy ehtiyojlarini tobora to’liqroq qondirish maqsadida mulkiy munosabatlarni hamda mulkiy xarakterda bo’lmagan shaxsiy munosabatlarni tartibga solish va mustahkamlashga qaratilgan huquqiy normalar yig’indisidan iboratdir»[1].

Ana shu ta`rifdan ham aniq ko’rinib turibdiki, Fuqarolik huquqi sub`ektlar o’rtasidagi mulkiy munosabatlarni va mulk bilan bog’liq bo’lmagan shaxsiy munosa-batlarni tartibga solishga qaratilgan huquq sohasidir.

Xo’jalik huquqi ham Respublikamizdagi huquq sohalaridan biri bo’lib, mamlakatimizning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga bosqichma-bosqich o’tib borishida, davlat va jamiyat, xo’jalik manfaatlarini hisobga olgan holda, xo’jalik sub`ektlari o’rtasidagi yuqoridan quyi (vertikal) va yon atrofdagi sub`ektlarga gorizontal) bo’ladigan xo’jalik munosabatlarni tartibga soluvchi, bozor sharoitida davlatning iqtisodga rahbarlik qilish chora-tadbirlarini belgilovchi huquqiy qoidalar yig’indisidan iboratdir.

---

[1] +аранг. И.Б.Зокиров. Ызбекистон Республикаси Фу=аролик щу=у=и.1-=исм.Т.,«Адолат» 1996 й.

Ana shu yuqorida berilgan ta`riflarga ko'ra, bu Fuqa-rolik huquqi qoidalari aksariyat mulkiy munosabatlarni tartibga solib tursa, Xo'jalik huquqi qoidalari ham mulkiy munosabatlarga taalluqli.

Lekin Fuqarolik huquqida munosabatlar shu munosabat ishtirokchilarining o'zaro teng va ixtiyoriyligi asosida kelib chiqsa, Xo'jalik huquqida sub`ektlar teng huquqli bo'lishi bilan birga idora etish, davlatning iqtisodga rahbarlik qilishiga asoslangan munosabatlarni ham tartibga solishga qaratiladi.

Demak, bu ikki fan bir-biridan predmeti orqali ham tubdan farqlanadi. Jumladan, Fuqarolik huquqining predmeti taraflarning teng huquqliligiga asoslangan mulkiy munosabatlar bo'lsa, Xo'jalik huquqida ham mulk bilan bog'liq munosabatlar salmoqli hissani tashkil etadi. Lekin mulkiy munosabatlar shu munosabat ishtirokchilarining teng huquqliligi bilan birgalikda biri ikkinchisiga itoat etishi, davlatning iqtisodga rahbarlik qilishi orqali ham kelib chiqadi.

Fuqarolik huquqining sub`ektlari bo'lib barcha fu-qarolar hisoblansa, Xo'jalik huquqining sub`ekti faqat tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan fuqarolar bo'lishi mumkin.

Fuqarolik huquqining ham, xo'jalik huquqining ham sub`ekti bo'lib yuridik shaxslar hisoblanadi. Ammo yuridik shaxsning tashkil bo'lish, xo'jalik faoliyatini amalga oshirish va unga rahbarlik qilish jarayonlarida farqlanadi. Davlat fuqarolik munosabatlarida ikkinchi taraf bilan teng huquqli bo'lib qatnashsa, xo'jalik huquqida esa iqtisodga rahbarlikni amalga oshiruvchi sub`ekt bo'lib ishtirok etadi.

Fuqarolik huquqi bilan tartibga solinuvchi shartnoma munosabatlari asosan iste`molchilarning moddiy ehtiyojini ta`minlashga qaratilgan bo'lib, uni ishlab chiqarish bilan aloqasi bo'lmasa, Xo'jalik huquqi shu tovarlarni ishla

b chiqarish jarayonini ham tartibga solishda qo'l-laniladi.

Ana shu jihatlari bilan Xo'jalik huquqi Mehnat hu-quqiga ham juda yaqin bo'lib ko'rinadi. Ammo ular bir-biridan farqlanadi. Xo'jalik huquqi sub`ektlar o'rta-sidagi xo'jalik munosabatlarini tartibga solsa, mehnat huquqi esa ish beruvchi bilan xodimlarning mehnat shart-nomasi asosida munosabatlarini, ichki-tartib qoida-larini, ish rejimini va shunga o'xshash mehnat shartnomasi bilan bog'liq boshqa munosabatlarni tartibga soladi.

**Xo'jalik huquqining Ma`muriy huquq fanidan farqi shundaki,** Ma`muriy huquqning predmeti ma`mu-riyatning buyruq hamda ijro faoliyati bilan ya`ni hokimiyat va itoat etish sohasidagi faoliyat bilan bog'liq munosabatdir. Bunday munosabat itoat etuvchi quyi or-ganlarga va mansabdor shaxslarga o'z direktivalari orqali ta`sir etish, boshqarish, idora etish kabi hokimiyatni amalga oshirish bilan izohlanadi. Xo'jalik munosabat-larida esa buyruqbozlik faoliyatlari deyarli yo'q. Bor-lari ham bozor munosabatlari shakllanib borgani sari tobora uzoqlashib, barham topib, iqtisodiy munosabatlarga o'z o'rnini bo'shatib bermoqda. Shu sababli davlat iqtiso-diyotga o'zining tegishli organlari orqali (soliq, imtiyoz, iqtisodiy sanksiya va h.k.) iqtisodiy ta`sir etish usullari bilan rahbarlikni amalga oshiradi.

Xo'jalik huquqi Moliya huquqi fanidan tubdan farq-lanadi. Moliya huquqining predmetini moliya byudjeti ki-rim-chiqimi (davlat daromadini sarflash va tashkil

etish davlat rejasi) bilan bog'liq munosabatlar tashkil etsa, korxona va tadbirkorlarning daromad manbaini tartibga solish va ulardan qayta ishlab chiqarish muomalasida foy-dalanish kabilar Xo'jalik huquqining predmetini tashkil etadi. Tabiiyki, xo'jalik faoliyati ham daromadlarni tashkil etish va ularni sarf qilishning alohida qoi-dalaridan holi kelib chiqmaydi. Shu sababli, xo'jalik sub`ektlarining pul mablag'larining bir qismi harakatda bo'lishini ta`minlash Xo'jalik huquqi qoidalari bilan tartibga solinadi.

Xo'jalik sub`ektining daromadlaridan olinadigan soliqlarning byudjetga kelib tushadigan davlat daromadi Moliya huquqining predmetini tashkil etadi.

Shuningdek, Xo'jalik huquqi Konstitusiyaviy huquq, Ekologiya va qishloq xo'jaligi huquqi bilan bog'liq munosabatlarda ham o'ziga xos xususiyatlari orqali butunlay farqlanadi.

Nazorat savollari:

1. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi tushunchasiga ta`rif bering.
2. Bozor iqtisodiyotining shakllanishida xo'jalik (tad-birkorlik) huquqining ahamiyati qanday?
3. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqining predmeti nima-larni o'rgatadi?
4. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqining tamoyillarini tasniflang.
5. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqining boshqa huquqiy fanlardan farqini tushuntirib bering.

XO'JALIK (TADBIRKORLIK) HUqUqINING MANBAI

. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi manbai tushunchasi

O'zbekiston Respublikasidagi huquq tizimining manbai bu vakolatli organlar tomonidan belgilangan tartibda qa-bul qilinadigan qonunlar va chiqariladigan huquqiy huj-jatlardir. Ana shu qonunlar va huquqiy hujjatlar eng avvalo, O'zbekiston xalqining erkini, xohishini ifoda etadigan huquqiy qoidalar yig'indisidir. Har bir fan uchun ana shu qonunlarning va huquqiy hujjatlarning qaysi biri yoki uning qanday qoidasi manba ekanligini ajratib olish kerak bo'ladi. Ayniqsa, bu masala xo'jalik huquqi uchun muhimdir. Chunki, xo'jalik huquqiy normalarini yagona tizimga soluvchi alohida huquqiy hujjat hozircha yo'q. Lekin shunday bo'lsada, mustaqil respublikamizning vakolatli organlari tomonidan qabul qilingan qator qonunlar va huquqiy hujjatlar borki, ularning deyarli juda katta qismi bevosita xo'jalik huquqining manbai bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi barcha hu-quqlar qatori xo'jalik huquqining asosiy manbaidir. Eng avvalo, Konstitusiyaning 12-bobi jamiyatning iqti-sodiy negizlari xususida belgilangan qoidalari xo'jalik huquqining manbai bo'lib hisoblanadi. Jumladan, Kons-titusiyaning ana shu bobining 53-moddasida «Bozor muno-sabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iq-tisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste`molchilarning huquqi ustunli-

gini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-barobar muhofaza etilishini kafolatlaydi», - deb belgilangan.

Shu bilan birgalikda Konstitusiyada xususiy mulkning boshqa mulk shakllari bilan bir qatorda davlat himoyasida bo'lishi, mulkdorning mulkiga o'z xoxishicha egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishi (Konstitusiyaning 54-moddasi), er, er osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy zahiralarning umummilliy boylik bo'lishi (Konstitusiyaning 55-moddasi) kabi moddalari xo'jalik huquqiga bevosita manba bo'lib hisob-lanadi.

Bundan tashqari xo'jalik huquqining manbai bo'lib Respublikamiz Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan boshqa qonunlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mah-kamasining qarorlari hamda tegishli vakolatga ega bo'lgan idoralar tomonidan qabul qilingan huquqiy hujjatlar ham hisoblanadi. Xo'jalik huquqi manbai deb, xo'jalik sub`-ektlari o'rtasida kelib chiqadigan xo'jalik faoliyatiga oid munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi qonunchilik normalarining yig'indisiga aytiladi.

Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi manbalarining turlari

Xo'jalik huquqi manbalari turlari bo'lib Konstitusiyaga muvofiq qabul qilingan qonunlar va belgilangan tartibda chiqarilgan boshqa huquqiy hujjatlar hisoblanadi. Ular O'zbekistonning shu kecha-yu kunduzdagi iqti-sodiy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri, bozorni tashkil etish, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini rivojlantirish va uni qonun bilan kafolatlashga qara-tilgandir. qachonki bozor munosabatlari qonunlar bilan kafolatlanmas ekan, o'z-o'zidan ma`lumki tovar ishlab chi-qarish ham, xizmat ko'rsatish ham ko'ngildagiday rivoj-lanmaydi, buning natijasida undan moddiy manfaatdor bo'lishi ham susayadi, mulkdorlar sinfi shakllanmaydi. Bu o'z navbatida mustaqil davlatimizning iqtisodiy taraq-qiyotiga to'sqinlik qiladi. Aholining moddiy va maishiy farovonligi ta`minlanishini qiyinlashtiradi. Shu sa-babli respublikamizda bozor iqtisodiyoti munosabat-larini borgan sari rivojlantirib borishga va uning ta-raqqiyotini qonun bilan kafolatlashga alohida e`tibor berilayapti. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining Fu-qarolik Kodeksini qabul qilinishi amalga kiritilishi bu borada muhim voqea bo'ldi.[1]

Ma`lumki, Fuqarolik kodeksining mulk huquqi, majburiyat huquqi, mulkning bir shaxs egaligidan ikkinchi shaxs egaligiga o'tishiga qaratilgan shartnomalar xususidagi qoidalari bevosita bozorni tashkil etishga, uni tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirishga, xo'jalik sub`ektining bozor munosabatlarida erkin ishtirok etishini ta`minlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar, majburiyat huquqi bo'limlari bevosita xo'jalik huquqiga doir bo'lgan qoida-larni o'zida mujassamlashtirgan. Mulkning mulkdor qo'lida bo'lishining faqat o'zigina bozor iqtisodiy munosabatlarini to'liq shakllantirmaydi, albatta.

[1] Ызбекистон Республикаси Фу=аролик кодекси. Т. «Адолат» 1996 й.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari mulkdorlarning va mulkning bo'lishi bilan birga, shu mulkning ko'payishi bilan ularni ayribosh qilish bilan, mulkdorlarga xizmat ko'rsatish, bozor infrastrukturasining shakllanishi bilan birgalikda rivoj topadi. Ayniqsa Fuqarolik kodeksining majburiyatlarning ayrim turlarini tashkil etgan shartnomalarga oid qoidalari bu borada muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Jumladan, mahsulot etkazib berish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini xarid qilish–kontraktasiya shartnomalari respublikamizda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining bosqichma-bosqich shakllanib borishi bilan birga butunlay yangi munosabatga aylanadi. Bu shartnomalarni tuzish va ijro etish yuzasidan bo'ladigan davlat reja topshiriqlari, ma`muriy buyruqbozlik asosida tovarlarni taqsimlash kabi cheklashlar butunlay olib tashlanadi.

Ana shunga o'xshash mulk ijarasi, lizing, pudrat, qu-rilish pudrati, tashish, kredit, hisob-kitob va shunga o'x-shash xo'jalik sub`ektlari ishtirokida tuziladigan shart-nomalarga oid qoidalar bevosita xo'jalik huquqiga manba bo'ladigan qoidalardir.

Xo'jalik huquqining manbai bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksi[10], Xo'jalik prosessual kodeksi[11] ham hisoblanadi. Havo kodeksida aeroportlar, havo transporti orqali tashish, korxona, tashkilot, muassasa va fuqarolarga bir martalik buyurtma asosida shartnomaga muvofiq xizmat ko'rsatishga doir qoidalar belgilangan. Xo'jalik prosessual kodeksi esa bevosita xo'jalik sub`-ektlari o'rtasida va tadbirkorlar ishtirokidagi mulkiy nizolarni xo'jalik sudlari tomonidan hal qilishda qo'l-laniladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan bir qator qonunlar xo'jalik huquqining manbai hisoblanadi. Bu qonunlarning aksariyati bozor mu-nosabatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ulardan bir guruhi mulk bilan bog'liq munosabatlarga doirdir. Jum-ladan, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini qonuniy kafo-latlashga qaratilgan mulkchilik to'g'risida: «Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida», «Ijara to'g'risida», «Tadbirkorlik faoliyati erkinli-gining kafolatlari to'g'risida»[12] va boshqa shunga o'xshash bir qator qonunlar qabul qilingan.

qabul qilingan qonunlarning bir guruhi bozor iq-tisodiyoti sharoitida xo'jalik sub`ektlarining huquqiy holatiga bag'ishlangan. Bunga misol sifatida O'zbekiston Respublikasining «Mas`uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas`uliyatli jamiyatlar to'g'risida», «Bank va banklar faoliyati to'g'risida», «Dehqon xo'jaligi to'g'risida», «Fermer xo'jaligi to'g'risida», «Birja va birjalar faoliyati to'g'-risida» va boshqa qonunlarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Bundan tashqari bozor iqtisodiyoti munosabatlarini kafolatlashga qaratilgan: «Tovar bozorlarida faoliyatni cheklash to'g'risida»gi, «Tovar belgilari, tovar kelib chiqish joy nomi to'g'risida»gi, «Standartlashtirish to'g'risida»gi, «Meterologiya to'g'risida»gi, «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlash to'g'risida»gi, «Xo'jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'-risida»gi qonunlari bu sohada muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

---

[10] Ызбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 йил 6 сон 247-моддаси.
[11] Ызбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 йил 10 сон 371-моддаси.
[12] Хал= сызи. 2001 й. 22 январ.

Xo’jalik huquqi manbalari turlaridan birini O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan qabul qi-lingan qarorlar tashkil etadi. Bunga misol sifatida O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning 1995 yil 31 avgustidagi «Ayrim korxonalar va mol-mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning ba`zi masalalari haqida»gi qarorini keltirib o’tishimiz mumkin. Bu qaror bilan xususiylashtirilishi mumkin bo’lmaydigan mulk ob`ektlari sanab ko’rsatiladi. Ayniqsa, xo’jalik huquqining yangi sharoitlarda bozor iqtisodiyoti munosabatlari bilan birga rivojlanishida Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan Farmonlar ham muhim ahamiyatga ega bo’lib hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 94-moddasida, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitusiya va qonunlarga asoslanib, ularni ijro etish yuzasidan Respublikaning butun hududida majburiy kuchga ega bo’lgan Farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi, deb belgilangan. Bunga misol 1999 yil 28 iyundagi «Moliya xo’jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o’zlarining ustav jamg’armalarini shakllantirmagan korxonalarni tugatish tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi, 1999 yil 23 iyuldagi «Korxonalar bankrotligi va sanasiya mexanizmini takomillashtirish to’g’risida», 2000 yil 2 avgust «O’zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo’mitasini tashkil etish to’g’risida»gi Farmonlarni ko’rsatib o’tish mumkin.

Xo’jalik huquqining manbalaridan yana biri O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi chiqaradigan normativ hujjatlardir. O’zbekiston Respublika Konstitu-siyasining 98-moddasida belgilanganidek, Vazirlar Mahkamasi amaldagi qonunlarga muvofiq O’zbekiston Respublikasi hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo’lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi. Ushbu qarorlarda xo’jalik huquqi sub`ektlarining huquqiy holati, ularning mulk huquqi va bozorni tashkil etish, tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko’rsatish bilan bog’liq faoliyatlarni tashkil etish, rivojlantirishning chora-tadbirlari belgilanadi. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga misol tariqasida quyidagilarni ko’rsatish mumkin:

2000 yil 2 avgust «O’zbekiston Respublikasi monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo’-mitasi faoliyatini tashkil etish to’g’risida», 2000 yil 14 avgust «Ijtimoiy muhim oziq-ovqat tovarlarini import qilish va sotishni tartibga solish chora-tadbirlari to’g’-risida», 2002 yil 20 avgustdagi «Lisenziyalashni bekor qi-lish hamda iste`mol tovarlarni olib kelish va ularni ichki bozorda sotishni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’-risida»gi qarorlari.

Bundan tashqari, O’zbekiston Respublikasi vazirliklari va davlat qo’mitalari o’z vakolatlari doirasida qabul qilgan huquqiy hujjatlari ham xo’jalik huquqi manbasi sifatida ko’riladi. Ayniqsa, mahalliy hokimiyat va idora etish organlari o’z hududi doirasida kuchda bo’ladigan hu-quqiy hujjatlar ham bu borada muhim ahamiyatga ega bo’-ladi.

O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 111-moddasida mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, muassasa, tashkilotlar o’rtasidagi, shuningdek tabdirkorlar o’rtasidagi iqtisodiyot sohasida va uni bosh-qarish jarayonida vujudga keladigan xo’jalik nizolarini hal etish Oliy xo’jalik sudi va xo’jalik sudlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida amalga oshiriladi deb

ko’rsatilgan. Xo’jalik sudlarida ko’rilgan ishlarning to’g’ri va aniq hal etilishi yuzasidan sud amaliyotini umum-lashtirib Oliy xo’jalik sudi plenumida qarorlar qabul qilinadi. Bunday qarorlar xo’jalik huquqi uchun manba bo’lmasada, qonunlarni xo’jalik sudlari tomonidan to’g’ri tadbiq etib, xo’jalik nizolarini tez va to’g’ri hal etishda muhim qo’llanma vazifasini o’taydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, xo’jalik sohasida normativ hujjatlarni qabul qilish vakolati berilgan organlarning juda ko’pligiga ishonch hosil qilish mumkin. Bu organlar xo’jalik sohasida hozirgi kunda qabul qili-nayotgan normativ hujjatlar muayyan tizimiga ega emas. Shu bilan birga qabul qilinayotgan normativ hujjatlarda tak-rorlanish, birini ikkinchisiga nisbatan zid qoidalarini ham uchratish mumkin.

Bu esa bir xil xo’jalik munosabatini huquqiy tartibga solishda chalkashliklarni kelib chiqishiga sabab bo’ladi. Ushbu muammo echimi quyidagilarni talab etadi:

birinchidan, xo’jalik sohasidagi qonunchilikni muayyan tizimga keltirish qonunlarni qo’llashda qulaylik yaratadi;

ikkinchidan, bu sohadagi normativ xujjatlarning o’zaro bog’liqligini, ularni qo’llashda asosiy qonun bilan alohida normativ hujjatlarni aniq bir xildaligini ta`-minlaydi;

uchinchidan, quyi organlar tomonidan chiqarilgan normativ hujjatlarni yuqori turuvchi organlar tomonidan chiqarilgan normativ hujjatlarga muvofiqliligi ta`min-lanadi;

to’rtinchidan, xo’jalik qonunchiligida umumiy qism-ning ishlab chiqilishi xo’jalik qonunchiligi asosiy tamo-yillariga asoslangan holda maxsus qism qoidalari ishlab chiqiladi. Natijada asosiy va maxsus qismning yagonali-ligiga erishiladi, shuningdek normativ hujjatlarning behuda ko’payishining oldini oladi.

Yuqoridagi qayd etib o’tilgan muammolarning hal etilishi xo’jalik qonunchiligini yagona tizimga keltirib uni kodifikasiyalashtirish orqali o’z echimini topishi mumkin.

Bu kodeksning qanday nomlanishi masalasi asosiy mu-ammo emas. U «Xo’jalik kodeksi», «Tijorat kodeksi», «Tadbirkorlik kodeksi» yoki boshqacha nomlanishi mumkin.

Xo’jalik qonunchiligini kodifikasiyalashtirilishi xo’jalik munosabatlarini huquqiy tartibga solinishida alohida ahamiyatga ega bo’ladi. Xususan, bu xo’jalik munosabatlari sub`ektlariga qonunlardan foydalanishlarida qulaylik yaratadi. Shu bilan birga xo’jalik sudlari xo’jalik yurituvchi sub`ektlar o’rtasidagi xo’jalik nizolarini hal qilishlarida ham, qonunlarni ham bir yo’sinda qo’l-lanilishiga erishiladi.

Nazorat savollari:

1. Xo’jalik (tadbirkorlik) huquqi manbalarining qan-day turlarini bilasiz? Ularning ahamiyati qanday?
2. Xo’jalik faoliyati sohasida normativ hujjatlar qabul qilish vakolati berilgan organlarni ayting.

3. Oliy Xo’jalik sudi Plenumi qarorlari xo’jalik huquqi uchun manba bo’la oladimi?

XO’JALIK (TADBIRKORLIK) HUqUqIY MUNOSABATLAR

Xo’jalik (tadbirkorlik) huuquqiy munosabatlar tushunchasi, belgilari va tarkibiy qismlari

Ma`lumki ijtimoiy munosabatlarning huquq normalari bilan tartibga solinadigan qismi huquqiy munosabatlarni tashkil qiladi. O’z navbatida huquqiy munosabat o’zaro sub`ektiv huquq va majburiyatlar bilan bog’liq bo’l-gan shaxslar o’rtasidagi huquq normalari va muayyan yuridik faktlar asosidagi aloqa hisoblanadi.

Xo’jalik huquqiy munosabatlar deganda, xo’jalik (tadbirkorlik) faoliyatini amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan, tijorat hamda notijorat tusdagi xo’jalik fao-liyatini davlat tomonidan tartibga solish borasida xo’ja-lik yurituvchi sub`ektlar ishtirokida yuzaga keladigan va xo’jalik xuquqiy normalari bilan tartibga solib tu-riladigan munosabatlar tushuniladi. Xo’jalik huquqiy munosabatlar birinchidan, ijtimoiy tusdagi munosabat, ikkinchidan, bunday munosabatlar xo’jalik yurituvchi sub`ektlarning o’zaro huquqlar va yuridik majburiyatlar vositasidagi aloqalari, uchinchidan, bunday munosabatlar irodaviy bo’lsa, to’rtinchidan, xo’jalik huquqi normalarida davlat irodasi va manfaatlari aks ettirilganligi uchun davlat ularning bajarilishini nazorat qiladi va qo’-riqlaydi.

Xo’jalik xuquqiy munosabat ishtirokchilari aksariyat hollarda o’zlariga tegishli mulkka egalik qilish, foydalanish, uni tasarruf etishda muayyan mustaqillikka ega bo’lib, bir-birlariga nisbatan teng huquqli shaxslar hi-soblanadilar. Bundan tashqari, xo’jalik huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxslarning huquqlari buzilgan taq-dirda, bu huquqlar odatda sudga ariza yoxud da`vo ariza taqdim qilish yo’li bilan himoya qilinadi.

Har bir huquq sohasining huquqiy munosabatlari o’ziga xos sub`ektiga, ob`ektiga va munosabat mazmunini belgilovchi sub`ektiv huquq va majburiyatlariga

ega. Gap xo'jalik huquqi to'g'risida ketar ekan, iqtisodiy muomala ishtirokchilarining o'zaro huquqiy aloqadorligi ma`no va mazmunini aniq belgilash maqsadida lozim darajada xo'-jalik huquqiy munosabatlarning barcha yuqoridagi kabi muhim toifalarini (kategoriyalarini) chuqur tadqiq etish fan oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi[13]. Haqi-qatan, xo'jalik huquqiy munosabatlar tabiati xilma-xil hisoblanganligi uchun ham, uning tushunchasi va vujudga kelishi haqidagi fikrlar adabiyotlarda turli-tumandir.

Xo'jalik huquqi korxona va tashkilotlar o'rtasida vujudga keladigan xo'jalik faoliyatini tartibga solish va amalga oshirishda, ularning bo'linmalari o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soladi. Bu munosabatlar xo'jalik munosabatlari bo'lib, ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladi, lekin ishlab chiqarish jarayonida nafaqat xo'jalik, balki shu bilan birga mehnat munosabatlari yoki fuqarolarning tobora oshib borayotgan moddiy ehtiyojlarini qondirishga qara-tilgan boshqa munosabatlar ham vujudga keladi. Ta`kidlash joizki, xo'jalik huquqining predmetini ishlab chiqarish munosabatlarining hammasi emas, balki faqat bir qismi, u ham bo'lsa xo'jalik munosabatlari tashkil etadi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan xo'jalik fao-liyati turli mulkchilikka asoslangan sub`ektlar o'rtasida yuzaga kelmoqda. Bu sohada vujudga keladigan xo'jalik mu-nosabatlari o'z ichiga nafaqat mulkiy yoki shaxsiy mu-nosabatlarni, balki korxona va tashkilotlarni, ularning bo'linmalari faoliyatini tashkil etish, boshqarishdek mu-him jihatlarni ham qamrab oladi. Bu esa, xo'jalik fao-liyatini amalga oshirishda vujudga keladigan gorizontal xo'jalik munosabatlari bilan birga uni boshqarishda yuzaga keladigan vertikal xo'jalik munosabatlariga ham taalluqli bo'ladi. Xo'jalik huquqiy munosabatlar elementlari shu munosabat sub`ektlari, ob`-ektlari va uning mazmunidan iborat bo'ladi.

Xo'jalik huquqiy munosabatlarning sub`ektlari bo'lib ana shu munosabatlarda qatnashuvchi shaxslar hisoblanadi. Bular yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlar, shuningdek ularning bo'linmalari hisoblanadi.

Agar biz xo'jalik huquqiy munosabatlarining sub`ektlari xususidagi olimlarning adabiyotlarda berilgan fikrlariga e`tibor beradigan bo'lsak, bu borada V.V.Lap-tevning qarashlari bir muncha diqqatni o'ziga jalb etadi. Uning fikricha, xo'jalik faoliyati ishtirokchilari kor-xonalar, tashkilotlar, ishlab chiqarish birlashmalari va boshqa xo'jalik organlari hisoblanadi. Ular bir vaqtning o'zida xo'jalik huquqining sub`ektlari va xo'jalik munosabatlarining ishtirokchilari bo'lib ham hisoblanadi[14]. Professor V.V.Laptev 80-yillardagi iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib ana shu fikrini aytgan. Hozir esa bozor munosabatlari xo'jalik huquqiy munosabatlarni ham va uning ishtirokchilari-sub`ektlarining tarkibini juda ham o'zgartirib yubordi. Shunga ko'ra, xo'jalik huquqiy mu-nosabatlarning sub`ektlari qatoriga barcha turdagi kor-xonalar, jumladan fuqarolarning xususiy mulkiga asos-langan (jamoa, oila) korxonalar, ishlab chiqarish koopera-tivlari, aksiyadorlik jamiyatlari, mas`uliyati cheklangan jamiyat, o'zga xo'jalik jamiyatlari yoki shirkatlari, shu-ningdek dehqon xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari va boshqalar kiradi.

---

[13] Батафсил =аранг: Мартемьянов В.С. Хозяйственное право. Том 1. Общие положения. Курс лекций-М.: Издательство БЕК, 1994. – 34-б.

[14] Лаптев В.В. Экономика и право. М., 1981 й.

Xo'jalik huquqiy munosabatlarning su-b`ektlari faqat shular bilan cheklanib qolmaydi, balki bozor munosabatlari kundan-kunga rivojlanib, takomil-lashib borar ekan, bu jarayon tadbirkorlarning o'zga tarz-dagi guruhlarining yuzaga kelishiga va ularning fuqarolik muomalasiga yanada ko'proq jalb etilishiga olib keladi. Xo'jalik munosabatlarining yana bir muhim sub`ekti mav-jud-ki, u ham bo'lsa yuridik shaxs tuzmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar hisob-lanadi.

Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining «Tadbir-korlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi 2000 yil 25 mayda qabul qilingan qonunda[1] o'z aksini topgan[2].

Xo'jalik huquqiy munosabatlarining sub`ektlari bo'lishlari uchun tadbirkor-fuqarolar huquq va muomala la-yoqatiga ega bo'lishlari lozim.

Tadbirkor-fuqarolarning huquq layoqati ularning tug'ilishi bilan paydo bo'ladi va vafot etishi bilan bekor bo'ladi. Ularning to'la muomala layoqati 18 yoshga etishi bilan boshlanadi, ammo ayrim hollarda tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan 16 yoshga to'lgan voyaga etmagan shaxs qonunda ko'rsatilgan asoslarda to'la muomala layoqatiga ega deb hisoblanishi mumkin (FKning 28-moddasi).

Xo'jalik huquqiy munosabatlarning sub`ekti bo'lgan korxona-tashkilotlar va boshqa yuridik shaxslarning huquq va muomala layoqati ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan boshlab vujudga keladi.

**Xo'jalik huquqiy munosabat ob`ekti deb** - xo'jalik huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxslarning sub`ektiv huquqlari va majburiyatlari nimaga qaratilgan bo'lsa shunga aytiladi.

Xo'jalik huquqiy munosabatlarning ob`ekti, *birinchidan*, ashyolar, pul va qimmatli qog'ozlar, o'zga mol-mulklar*, ikkinchidan,* sub`ektning sodir etishi shart bo'lgan harakatlari, *uchinchidan*, huquq sub`ektining faoliyati, *to'rtinchidan,* xo'jalik faoliyatida foydalaniladigan nomulkiy ne`matlar (firma nomi, tovar belgisi, tijorat siri va boshqalar) hisoblanadi.

Xo'jalik huquqi bilan tartibga solinadigan **ashyoviy** munosabatlar ishlab chiqarish, tovar ayirboshlash, taqsimlash va iste`mol qilish bilan bevosita bog'liqdir. Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan, shaxsiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladigan ashyolar xo'jalik huquqiy ashyoviy munosabatlarning ob`ekti bo'la olmaydi.

Harakatlar deganda, misol uchun fuqaro va tashkilotlarga ko'rsatiladigan xizmatlarni tushunish mumkin. Bunday xizmatlar xo'jalik huquqi bilan tartibga solinadigan huquqiy munosabatlarning ob`ekti hisoblanadi. Ta-lab qilish huquqiga ega bo'lgan fuqaro yoki tashkilotlarning talablari zimmasiga majburiyat olgan shaxslarning hatti-harakatlari bilan qanoatlantiriladi. Masalan, mahsulot etkazib berish shartnomasi bo'yicha mahsulot etkazib berish bilan bog'liq hatti-harakatning amalga oshirilishi va boshqalar.

---

[1] Хал= сызи, 200 йил, 15 июнь.

[2] Хыжалик щу=у=ининг субъекти сифатида юридик шахс тузмасдан тадбиркорлик фаолияти билан шу\улланадиган жисмоний шахсларнинг щу=у=ий ма=оми ты\рисида кейинги пара-графларда батафсил тыхталинади.

Xo’jalik huquqiy munosabatlarning ob`ekti sifatida **sub`ektning mutlaq faoliyati** alohida o’rin tutadi. Mazkur munosabat ob`ektini shunday tushunmoq lozimki, xo’jalik sub`ektlari o’z xo’jalik faoliyatini qonunga muvofiq yuritadi va boshqa barcha shaxslar uning xo’jalik faoliyatini yuritishiga to’sqinlik qilishi ta`qiqlanadi.

Xo’jalik huquqiy munosabatlar ob`ektlarining yana biri xo’jalik faoliyatida foydalaniladigan **nomulkiy ne`matlar,** ya`ni firma, tovar belgisi, tijorat siri va boshqalar hisoblanadi. Bunday ne`matlardan sub`ektlarning erk-irodasidan tashqari hech bir shaxs foydalanishga, tovar ishlab chiqariladigan nomni o’zgartirishga, tijorat siri xususida axborot olishga haqli emas.

Xo’jalik huquqiy munosabatlarining **mazmunini** munosabatda ishtirok etuvchilarning sub`ektiv huquqlari va burchlari tashkil etadi. Sub`ektiv huquq deganda, muayyan huquqiy munosabatda qatnashuvchi shaxsga tegishli bo’lgan huquq tushuniladi. Sub`ektiv huquq ob`ektiv huquq normalari, ya`ni davlat tomonidan o’rnatilgan tartib-qoi-dalar asosida vujudga keladi va ularga muvofiq ra-vishda amalga oshiriladi.

Sub`ektiv huquq shaxsga o’z xohishini erkin amalga oshirish imkoniyatini beradi. Masalan, fuqaro xususiy mulk asosida ashyodan foydalanishga yoki uni qonun hujjatlariga zid bo’lmagan tarzda o’z ixtiyoricha tusarruf qilishga haqli bo’ladi. Bundan tashqari, sub`ektiv huquq shaxsning boshqalardan o’z huquqlarini buzilmasligini ta-lab qilish imkoniyatini nazarda tutadi. Masalan, mulk egasining sub`ektiv huquqi bir tomondan, o’z mulkini egallash, foydalanish va tasarruf etish bilan bog’liq huquqlarni nazarda tutsa, ikkinchi tomondan, u sub`ektiv huquq egasi sifatida o’z huquqlarining buzilmasligini har kimdan talab qila oladi. Xo’jalik huquqiy munosabat-larning mazmunini huquqlar bilan bir qatorda maj-buriyatlar ham tashkil etadi.

Majburiyat - fuqarolik huquqiy munosabat bo’lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko’rsatish, pul to’lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o’zini saqlashga majbur bo’ladi, kreditor esa - qarzdordan o’zining majburiyatlarini bajarishni talab qilishga huquqiga ega bo’ladi. Bir shaxsda sub`ektiv huquqning bo’lishi, boshqa birovda bu huquqqa yarasha, albatta majburiyat bo’lishini taqozo qiladi va aksincha, har qanday majburiyat uni bajarishni talab qilishga haqli bo’lgan shaxsning mavjud bo’lishini bildiradi. Chunonchi, mulk egasi o’ziga qarashli mol-mulkdan foydalanish huquqiga ega bo’lish bilan bir qatorda u boshqa har qanday shaxsdan bu huquqlardan foydalanishda to’sqinlik qilmasliklarini talab qila oladi.

Xo’jalik huquqiy munosabatlarning vujudga kelish asosi sifatida-**yuridik faktlar** muhim rol` o’ynaydi. Yuridik faktlar deb, fuqarolik huquqi va majburiyatlar-ning vujudga kelishi, o’zgarishi va bekor bo’lishiga qara-tilgan harakatlar tushuniladi. Shunday ekan, boshqa huquq normalari singari xo’jalik huquqi normalari ham o’z-o’zidan xo’jalik huquqiy munosabatlarni vujudga keltirmaydi. Xo’jalik huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o’zgarishi yoki bekor bo’lishi ma`lum holatlar bilan belgilanadi.

O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 8-moddasida fuqarolik huquq va burchlarning vujudga kelish asoslari o’z ifodasini topgan bo’lib, bular bevosita xo’jalik huquqi va majburiyatlarini vujudga kelish asosi ham hisoblanadi. Fuqarolik Kodeksida ko’rsatilganidek, fuqarolik huquqi va burchlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslardan, shuningdek fuqarolik va yuridik shaxslarning, garchi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bo’lmasa-da, lekin fuqarolik qonun hujjatlarining umumiy negizlari va mazmuniga ko’ra fuqarolik huquqi va burchlarini keltirib chiqaradigan harakatlardan vujudga keladi.

Xo’jalik huquqiy munosabatlar vujudga kelishi uchun huquqiy normalarda to’g’ridan-to’g’ri nazarga tutilgan, shuningdek huquqiy normalarda nazarda tutilmagan bo’lsa-da, lekin xo’jalik qonun hujjatlarining umumiy asoslari va mazmuniga muvofiq keladigan muayyan faktlar mavjud bo’lishi lozim. Xo’jalik huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradigan, o’zgartiradigan va bekor qiladigan asoslar sifatida ko’rilgan yuridik faktlar to’rt guruhga:- **ma`-muriy hujjatlar, yuridik hatti-harakatlar, hodisalar va boshqa harakatlarga bo’linishi mumkin.**

Ma`muriy hujjat-xo’jalik huquqiy munosabatlarni belgilash, o’zgartirish yoki bekor qilish to’g’risida davlatning boshqaruv organlari tomonidan chiqariladigan huquqiy hujjatlardir.[1] Bunga misol qilib davlat tasarrufidagi korxonalarni xususiy mulkka aylantirishda kim oshdi savdosi orqali yutib chiqqan shaxsga shu mulkka egalik huquqini beradigan davlat dalolatnomasi (order), yoki ayrim faoliyat bilan shug’ullanishga ruxsat berish to’g’risidagi lisenziyani ham ma`muriy hujjatlar qatoriga qo’shish mumkin.

Yuridik hatti-harakatlar deganda, muayyan huquqiy oqibatni tug’dirishga qaratilgan hatti-harakatlar tushuniladi yoki oqibatlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ma`lum hatti-harakatlar ham yuridik ma`nodagi xatti-harakatlar hisoblanadi.

Hodisalar deb, xo’jalik huquqiy munosabat sub`ektlarining erklaridan tashqari sodir bo’ladigan faktlarga aytiladi. Hodisalar faqat qonunda nazarda tutilgan hollardagina huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi. Masalan, tabiiy ofat yuz berib, yong’in bo’lgan taqdirda, sug’urta organi jabr ko’rgan shaxs zararini sug’urta haqi-dagi huquqiy qoidalarga binoan to’lashga majbur bo’ladi.

Harakatlar deb, xo’jalik huquqiy munosabatlarida qatnashuvchi shaxslarning erk irodasi bo’yicha vujudga keladigan yuridik faktlarga aytiladi. Bu tarzdagi faktlar o’z navbatida ikki turga, **birinchisi, huquq yo’l qo’ygan**, **ikkinchisi, huquq yo’l qo’ymaydigan** harakatlarga bo’linadi. Huquq yo’l qo’ygan harakatlar jumlasiga tuzilishi qonun bilan ta`qiqlanmagan bitimlar tuzilishini misol qilib keltirish mumkin. Bitimlar tashkilot va fuqarolarning xo’jalik huquqlarini yoki burchlarini belgilash, o’zgartirish va bekor qilishga qaratilgan harakatlar bo’lib, muayyan oqibatlarni tug’dirishga qaratiladi.

Huquq yo’l qo’ymaydigan harakatlar–qonun bilan ta`-qiqlangan harakatlar bo’lib, bular ikki ko’rinishda **bi-rinchisi,** boshqa sub`ektlarga zarar etkazishda, **ikkinchisi** mulkni asossiz olish yoki asossiz tejash bilan bog’liq bo’lgan harakatlarda namoyon bo’ladi.

---

[1] Зокиров И.Б. Ызбекистон Республикасининг Фу=аролик щу=у=и. 1-=исм,Тошкент, «Адолат», 1996 йил, 31-бет.

Zarar etkazish tufayli vujudga keladigan majburiyatlarga binoan zarar ko’rgan xo’jalik o’ziga etkazilgan zarar uchun javobgar bo’lgan xo’jalikdan o’zining avvalgi holatining tiklanishi yoki ko’rilgan zararning qoplani-shini talab qila oladi. Mazkur majburiyat sub`ekti bo’lib xo’jalik sub`ektiga zarar etkazgan javobgar shaxs hisob-lanadi. Bunday shaxslar xo’jalik huquqiy munosabat sub`-ektlari bo’lib, ular turli mulk shakliga asoslanib faoliyat ko’rsatadigan korxona, muassasa va tashkilotlar bo’lishi mumkin.

qonun hujjatlarida yoki bitimda belgilangan asoslarsiz boshqa shaxs (jabrlanuvchi)ning hisobidan mol-mulkni egallab olgan yoki tejab qolgan shaxs (qo’lga kirituvchi) asossiz egallab olingan yoki tejab qolingan mol-mulkni (asossiz orttirilgan boylikni) jabrlanuvchiga qaytarib berishi shart bo’ladi. qonunda to’g’ridan-to’g’ri nazarda tutilganligi sababli quyidagilar asossiz orttirilgan boylik sifatida qaytarib berilmaydi:

-ijro etish muddati to’lgunga qadar majburiyatni bajarish yuzasidan topshirilgan mol-mulk, agar majburiyatda boshqacha hol nazarda tutilgan bo’lmasa;

-da`vo muddati o’tganidan keyin majburiyatni bajarish yuzasidan topshirilgan mol-mulk;

-ish hajmi va unga tenglashtirilgan to’lovlar, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar, hayot yoki sog’liqqa etkazilgan zarar tovoni, alimentlar va fuqaroga turmush ke-chirish vositasi sifatida berilgan boshqa pul mablag’lari, uning tomonidan vijdonsizlik qilinmaganda va hisob-kitobda xato bo’lmaganda;

-mavjud bo’lmagan majburiyatni bajarish uchun berilgan pul summalari va boshqa mol-mulk, agar qo’lga kirituvchi mol-mulkni qaytarishni talab qilayotgan shaxsning majburiyati yo’qligini bilganligini yoxud mol-mulkni xayriya maqsadlarida berganligini isbotlasa. (FK-ning 1030-moddasi)

Bunday tarzdagi majburiyat quyidagi o’ziga xos belgilar bilan xarakterlanadi, **birinchidan**, bu majburiyat xo’jalik huquqiy munosabatlar sub`ektlari bo’lgan korxo-nalar, tashkilotlar va muassasalar o’rtasida vujudga kelib, buning natijasida bir tomonning mol-mulki ikkinchi tomonning mol-mulki kamayishi hisobiga ortadi. Masalan, olingan mahsulot uchun ikki marta haq olgan tashkilotning pul mablag’lari, yanglishish natijasida ortiqcha haq to’lagan tashkilot mablag’larining kamayishi hisobiga ortadi, **ikkinchidan,** mulkning olinishi yoki tejalishi uchun qonuniy yoki shartnoma bilan belgilangan asoslar bo’lmasligi kerak. Agar mulk shartnoma shartlarini buzgan holda olingan bo’lsa, masalan, sifati past mahsulot uchun yuqori navli mahsulot narxida korxona haq olgan bo’lsa, asossiz olingan ortiqcha haq shartnoma shartlarini buzganligi uchun belgilangan qoidalar bo’yicha korxonadan undirib olinishi mumkin, **uchinchidan**, mulk asosan yanglishish, xatolik bilan olinadi yoki tejaladi. Masalan, bir tashkilotga tegishli mahsulot xatolik bilan boshqa bir tashkilotga yuborilishi yoki hisobda yanglishish hollari bo’lishi mumkin va h. k. Demak, yuqorida ko’rsatib o’tilgan yuridik faktlar xo’jalik huquqiy munosabatlarning vujudga kelishiga asos bo’ladi.

Xo’jalik (tadbirkorlik) faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuzaga keluvchi huquqiy munosabatlarning turlari hamda tasnifi va ularning vujudga kelish asoslari

Xo’jalik huquqiy munosabatlarni bozor iqtisodiyoti sharoitidagi mazmuni, ob`ektiga qarab bir necha turlarga ajratish mumkin. Chunonchi:

-mutlaq ashyoviy huquqiy munosabatlar;

-mutlaq-nisbiy ashyoviy huquqiy munosabatlar (xo’jalik yuritish, operativ boshqarish);

-o’z xo’jalik faoliyatini yuritish bo’yicha mutlaq huqu-qiy munosabatlar;

-nomulkiy huquqiy munosabatlar;

-nisbiy huquqiy munosabatlar;

Mutlaq ashyoviy huquqiy munosabatning ob`ekti ashyo hisoblanib, bu tarzdagi munosabatlar uchun xarakterli xususiyat shundan iboratki, sub`ekt qonun yo’l qo’ygan asoslarda o’zining mulkka bo’lgan huquqini, ya`ni egalik, foydalanish va tasarruf etish bo’yicha xulq-atvorini belgilovchi harakatni amalga oshiradi.[1]

Xo’jalik huquqi bilan tartibga solinadigan ashyoviy munosabatlar ishlab chiqarish, tovar ayriboshlash, taqsimot va ishlab chiqarish-iste`mol bilan chambarchas bog’liqdir. Ishlab chiqarishdan tashqaridagi, shaxsiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladigan predmetlar xo’jalik huquqiy ashyoviy munosabatlar ob`ekti bo’la olmaydi. Masalan, savdo tashkilotlari tomonidan aholiga sotish uchun olingan tovarlar mulk huquqi ob`ekti bo’lib hisoblanadi. Bu tarzdagi mol-mulk fuqaro egaligiga o’tishi bilan fuqarolik huquqi qoidalari bilan tartibga solinadigan fuqaro mol-mulki ob`ektiga aylanadi.

Mutlaq-nisbiy ashyoviy huquqiy munosabatlar jum-lasiga xo’jalik yuritish va operativ boshqarishni kiritish mumkin. Bundan tashqari, umrbod meros qilib qoldiri-ladigan mulk, xo’jalik faoliyatini yurgizish uchun ijara va boshqa tartibda mulkka ega bo’lishlik munosabatlarini kiritish mumkin. Bunday mulkdorlar munosabati mutlaq-nisbiydir. Chunki, bu munosabat sub`ektlari o’zlarining mulkiy huquqlarini o’zgalarning erkisiz amalga oshira olmaydi, ular mulk egasi bilan nisbiy huquqiy muno-sabatda bo’lib, ushbu mulklarni egallaydi, foydalanadi va tasarruf etadi.

O’z xo’jalik faoliyatini yuritishdagi mutlaq huquqiy munosabatlar sub`ekt o’z faoliyatini erkin yuritishda vujudga kelib, mazkur faoliyat munosabat ob`ekti sifatida maydonga chiqadi. Bunda xo’jalik yuritishni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiradigan shaxs uchun majbur shaxs bo’lmaydi. Boshqa barcha shaxslar xo’jalik (tadbirkorlik) faoliyatini amalga oshirayotgan sub`ekt faoliyatiga to’sqinlik qilmasliklari lozim bo’ladi. Bunga misol qilib, o’z xo’jalik faoliyatini yuritayotgan xo’jalik yurituvchi sub`ekt tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotning bahosini belgilashi, tannarxini shakllantirishi, belgilangan normativ

---

[1] Тадбиркорлик щу=у=и: (Умумий =исм): Дарслик (Тащририят щайъати: Щ.Ращмон=улов, Ш.Рызиназаров, М.Ниёзов ва бош=.; Масъул мущаррир: Ш.Рызиназаров. –Т.: «Консаудтинформ», 2002.,47-бет., Мартемьянов В.С. Хозяйственное право. Том 1. Общие положения. Курс лекций-М.: Издательство БЕК, 1994. – 40-бет.

hujjatlarga binoan sanitariya, gigiena, ekologik, yong'inga qarshi talablar bo'yicha va o'zga faoliyatlarni amalga oshirishda vujudga keladigan mutlaq huquqiy munosabatlarni keltirish mumkin. Mabodo, xo'jalik yurituvchi sub`ekt belgilangan tartibga xilof ish tutsa, vakolatli davlat organi yo'l qo'yilgan huquqbu-zarlikni bartaraf etish bilan bog'liq hatti-harakatni amalga oshirishi, jumladan zararlarni undirishni talab qilishi mumkin. Bunday holda vujudga keladigan muno-sabatlar albatta nisbiy xarakterda bo'ladi.

Nomulkiy huquqiy munosabatlar xo'jalik yurituvchi sub`ektlar o'z faoliyatlarida foydalanadigan nomoddiy ne`matlar, xususan, firma nomi, tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi, tovar ishlab chiqarilgan joy nomi, tijorat siridan foydalanishda, shuningdek ishchanlik obro'sini himoya qilish kabi jarayonlarda vujudga keladigan munosabatlar hisoblanadi. Bular kabi nomulkiy huquq-larni amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan huqu-qiy munosabatlar mutlaq bo'lib hisoblanadi, chunki bunday ne`matlarga nisbatan xo'jalik yurituvchi sub`ektning mut-laq huquqi qonun bilan e`tirof etilgan va bu kabi mutlaq huquq ob`ekti bo'lgan intellektual faoliyat natijalari va o'ziga xos vositalaridan uchinchi shaxslar huquq egasining roziligi bilangina foydalanishlari mumkin, xolos.

Nisbiy huquqiy munosabatlar avvalo, majburiyatda namoyon bo'lib**,** bunda ikki yoki undan ortiq shaxslar o'zaro huquq va majburiyat sohiblari bo'ladi. Bu erda biz kreditor va qarzdor o'rtasidagi majburiyatda nisbiy munosabatlarni ko'ramiz, ammo har doim ham nisbiy huquqiy munosabatlar majburiyat huquqiy munosabatlari shaklida bo'lmasligi mumkin. Masalan, bir necha shaxslar ishtirokidagi birgalikda xo'jalik faoliyati yuritish to'g'risidagi kelishuv, shirkatga birlashish, chet el investori bilan qo'shma korxona tuzish va kapitalni sarflash to'g'risidagi bitimlarda kreditor va qarzdor ishtirok etmasligi mumkin yoki ishtirokchilarni majburiyat huquqiy munosabatlarga kirishgan deyish qiyin. Bu erda biz shaxslarning o'zaro kuch va mablag'larni sarf qilish asosida umumiy xo'jalik yuritish maqsadida birikish munosabatlarini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun nisbiy xo'jalik huquqiy munosabatlar nafaqat majburiyat huquqiy munosabatlar hisoblanmasdan, balki undan ham kengroq munosabatlarni o'z ichiga qamrab oladi. Shartnomaga asoslangan barcha munosabatlar nisbiy huquqlar jumlasiga kiradi.

Fuqarolik huquqiy munosabatlar xo'jalik huquqiy, tadbirkorlik huquqiy munosabatlaridan birmuncha kengroqdir. Xo'jalik huquqi va tadbirkorlik huquqi tartibga soladigan mulkiy va nomulkiy munosabatlar doirasi fuqarolik huquqi tartibga soladigan mulkiy va nomulkiy munosabatlar doirasi ichida turadi. Xo'jalik va tadbir-korlik huquqi sub`ektlari bir vaqtning o'zida fuqarolik huquqining sub`ekti bo'lishi mumkin, ammo fuqarolik huquqining sub`ekti xo'jalik huquqining yoki tadbirkorlik huquqining sub`ekti hisoblanmasligi mumkin. Masalan, jismoniy shaxs o'z ehtiyojlarini qondirish uchun ashyo xarid qilish jarayonida fuqarolik huquqiy munosabatga kirishar ekan, u na xo'jalik huquqiy munosabat ishtirokchisi, na tadbirkorlik huquqiy munosabat ishtirokchisi bo'ladi, ammo u tadbirkor shaxs maqomini olgan holda tadbirkorlik faoliyati yuritish maqsadida tovar sotib olar ekan, bir vaqtning o'zida ham fuqarolik, ham tadbirkorlik, ham xo'jalik huquqiy munosabat ishtirokchisi hisoblanadi. Shuni ham ta`kidlash joizki, xo'jalik huquqiy munosabatlar doirasi tadbirkorlik huquqiy munosabatlar doirasidan anchayin kengroqdir. Shu bois

har qanday tadbirkorlik huquqiy munosabat ishtirokchisi xo'jalik hu-quqiy munosabat ishtirokchisi hisoblansa-da, ammo aksincha bo'lmasligi mumkin, chunki tadbirkorlik munosabatlarida sub`ekt har doim tavakkal qilib, o'z mulkiy javobgarligi asosida foyda olishni o'z oldiga maqsad qilib ish yuritadi. Xo'jalik huquqiy munosabatlari ishtirokchilari faoliyati esa har doim ham foyda olishga qaratilgan bo'lmasligi mumkin va h.k. qolaversa, iqtisodiyotni davlat yo'li bilan tartibga solish jarayonida vujudga keladigan munosabatlarni ham xo'jalik huquqiy munosabatlar va bir vaqtning o'zida tadbirkorlik huquqiy munosabatlar deyish mumkin.

Xo'jalik xuquqiy munosabatlarda sub`ekt sifatida davlat, ma`muriy hududiy tuzilmalar, korxonalar va ularning bo'linmalari, yuridik shaxs tuzmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkor fuqarolar ishtirok etishlari mumkin. Ular barcha iqtisodiy ishlab chiqa-rish jarayonlarida, jumladan moddiy ishlab chiqarish, ayirboshlash, ishlab chiqarish, taqsimot jarayonlarida faol ishtirok etib munosabatga kirishadilar.

Xo'jalik majburiyatlari to'g'risida so'z ketar ekan, xo'jalik sub`ektlari qaysi jabhada faoliyat yuritishlaridan qat`iy nazar ularni quyidagicha turlarga ajratish mumkin:

operativ-xo'jalik majburiyatlari;
xo'jalik-boshqaruv majburiyatlari;
ichki xo'jalik majburiyatlari.

Operativ xo'jalik majburiyatlari xo'jalik huquqi sub`ektlarining mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmat ko'rsatish sohasida o'zaro shartnomaviy munosabatlari tufayli vujudga keladi. Mazkur huquqiy munosabatning sub`ekti bo'lib tadbirkor fuqarolar ham hisoblanadilar. Xo'jalik huquqi sub`ektlari xo'jalik faoliya-tini amalga oshirishda operativ xo'jalik majburiyatlarning mukammal bo'lishi uchun o'z faoliyatlarini rejalashtiradilar.

Xo'jalik huquqining sub`ektlari ichida korxona muhim o'rin tutib, o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va xom ashyo resurslari hamda materiallarning mavjudligini hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotga, bajarilayotgan ish-ga, ko'rsatilayotgan xizmatga bo'lgan talablarini hisobga olib, taraqqiyot istiqbollarini belgilaydi, shu bilan bir qatorda u davlat ehtiyojlari uchun shartnoma asosida mah-sulot ishlab chiqaradi, ishlarni bajaradi va xizmat ko'rsatadi.

Xo'jalik huquqi sub`ektlari barcha jabhalarda o'z xo'jalik faoliyatlarini amalga oshirishda boshqa sub`ektlar bilan munosabatlarini shartnomaviy majburiyat negizida quradilar. Xatto, sub`ekt davlat ehtiyojlari uchun ishlarni bajarayotgan va mahsulotni etkazib berayotgan taqdirda ham, davlat (uning organlari) bilan xo'jalik yurituvchi sub`ektlar o'rtasidagi munosabatlar shartnoma asosida o'rnatiladi va unga muvofiq mahsulotni ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yuzasidan ikkinchi tarafni davlat xom ashyo yoki texnika vositalari bilan ta`minlash majburiyatlarini olishi mumkin.

Xo'jalik-boshqaruv majburiyatlari to'g'risida so'z ketar ekan, bu turdagi majburiyatlarni avvalo davlat organlari hujjatlari, shuningdek davlatlararo bitimlar, hududlar va korxona (birlashma)lar o'rtasidagi shartnomalar asosida kelib chiqishligini ta`kidlash joiz. Masalan, davlat ehtiyojlari uchun kapital qurilishni moliyalashtirish maqsadida davlat byudjetini tasdiqlash to'g'risidagi hujjat tegishli

majburiyat keltirib chiqaradi. Mazkur hujjatga asosan davlat yoki hujjatda ko'zda tutilgan ma`-muriy-hududiy tuzilma (mahalliy byudjet) moliyalashtiruvchi hisoblansa, ishni bajaruvchi mablag'ni qabul qiluvchi hisoblanadi. Shuningdek bunday majburiyat monopoliyaga qarshi kurashuvchi organ tomonidan chiqarilgan hujjat asosida ham kelib chiqishi mumkin. Bunga asosan korxona ishlab chiqarishni hujjatda ko'zda tutilgan tarzda tashkil qilishga mas`ul bo'ladi va h.k.

Davlat idoralari va mansabdor shaxslar o'zlarining qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan vakolatlariga muvofiq tarzdagina korxonaga ko'rsatma berishlari mumkin.

Davlat idoralari yoki o'zga idoralar o'z vakolatlariga kirmaydigan yoki boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlariga xilof hujjatlarni qabul qilgan taqdirda korxona bunday hujjatni haqiqiy emas deb topishni talab qilib, ariza bilan sudga murojaat etishga haqlidir.

Korxona huquqini buzgan davlat idorasi yoxud ularning mansabdor shaxslari ko'rsatmalarini bajarish natijasida shuningdek, bunday idoralar yoki ularning mansabdor shaxslari korxonaga nisbatan qonunda ko'zda tutilgan maj-buriyatlarni tegishlicha amalga oshirmaganliklari oqi-batida korxonaga etkazilgan zararni to'laydilar. Zararni to'lash to'g'risidagi nizolarni sud yoki xo'jalik sudi o'z vakolatlariga muvofiq hal qiladi.

Ichki xo'jalik majburiyatlari bevosita ishlab chiqa-rish doirasida vujudga keladi. Ular korxonalar va boshqa xo'jalik organlari ichida paydo bo'ladi. Korxonaning ichki bo'linmalari va tuzilmaviy birliklari bunday muno-sabatlarning ishtirokchilari hisoblanadilar. Ular o'zaro va xo'jalik organi bilan birgalikda xo'jalik faoliyatini yuritish va uni boshqarish jarayonida ichki xo'jalik muno-sabatlariga kirishadilar. Xo'jalik organi ichida ham go-rizontal, ham vertikal munosabatlar vujudga keladi. Xo'-jalik organi o'z tarkibiy bo'linmalarining faoliyatini u yoki bu tarzda muvofiqlashtirib turish maqsadida turli hujjatlarni qabul qilishi mumkinligini nazarda tutmoq lozim.

Nazorat savollari:

1. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqiy munosabatlar deganda nimani tushunasiz?
2. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqiy munosabatlarning sub`ekti, ob`ektlariga tushuncha bering.
3. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqiy munosabatlarning mazmuni nimalardan iborat?
4. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqiy munosabatlarning vujudga kelish asoslari qanday?

XO’JALIK (TADBIRKORLIK) HUqUqINING SUB`EKTLARI.

Xo’jalik (tadbirkorlik) huquqi sub`ektlari tushunchasi, belgilari va tasnifi.

Xo’jalik (tadbirkorlik) huquqining sub`ektlari-bu xo’jalik (tadbirkorlik) faoliyatini amalga oshirishga vakolatli bo’lgan shaxslardir. Xo’jalik (tadbirkorlik) faoliyati sub`ektlari tushunchasi va maqomini aniqlash uchun «huquq sub`ekti» va «fuqarolik huquqi sub`ekti» tushunchalarining mohiyatini chuqur anglab olish lozim bo’ladi. Huquq sub`ekti-keng huquqiy kategoriya hisoblanib, uning tarkibiga amaldagi qonun hujjatlariga binoan huquq va majburiyatlarga ega bo’lgan ijtimoiy munosabatlarning barcha ishtirokchilari kiradi. O’z navbatida har bir huquq tarmog’ining o’z sub`ektlari (davlat huquqida–saylovchilar va saylanuvchilar, mehnat huquqida-ish beruvchi va xodim, moliya huquqida-soliq to’lovchi va soliq organi, jinoyat prosessual huquqida-surishtiruvchi, tergovchi, gumondor, ayblanuvchi, sudlanuvchi, mahkum va h.k.) bo’lganidek, xo’-jalik huquqining ham o’z sub`ektlari bor.

Fuqarolik huquqining barcha sub`ektlari fuqarolik huquqi fanida yagona «shaxslar» degan umumiy nom bilan ifodalanadi.[15] «Shaxslar» ham o’z navbatida uch guruhga bo’-linadi: **birinchisi,** fuqarolar (jismoniy shaxslar) bo’-lib, u o’z ichiga O’zbekiston Respublikasi fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo’lmagan shaxslarni oladi, **ikkinchisi**, yuridik shaxslar bo’lib, u o’z ichiga foyda olishni o’z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (ti-joratchi bo’lmagan tashkilot) larni oladi va bunday tash-kilotlar O’zbekiston Respublikasi, chet el yoki aralash (qo’shma) korxonalar shaklida bo’lishi mumkin, **uchinchisi,** davlat bo’lib, u alohida sub`ekt sifatida bevosita o’z nomidan, shuningdek uning nomidan ma`muriy hududiy tu-zilmalar yoki davlat organlari ishtirok etishlari mumkin.

Jismoniy va yuridik shaxslar fuqarolik huquqiy munosabatlarda tadbirkor sifatida, shuningdek bunday maqomga ega bo’lmasdan ham ishtirok etishlari mumkin. Shuning uchun fuqarolik huquqi sub`ektlari bir vaqtning o’zida ham xo’jalik huquqi, ham tadbirkorlik huquqi sub`-ektlari hisoblanishi mumkin, ammo xo’jalik va tadbir-korlik huquqi sub`ektlari bir-biridan farq qiladi. Farq shundaki, tadbirkorlik huquqiy munosabatlarda su-b`ekt har doim tavakkal qilib, o’z javobgarligini zim-masiga olib, foyda olishni maqsad qilgan holda faoliyat yuritadi, xo’jalik huquqi sub`ektlari esa xo’jalik yuri-tish, xo’jalikni boshqarish bilan bog’liq va iqtisodiyot-ning davlat boshqaruvi sohasidagi munosabatlarini tar-tibga soladi.

O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgunga qadar xo’jalik huquqining sub`ekti bo’lib faqatgina sosialistik tashkilotlar va ularning bo’linmalarigina bo’lishi mumkin edi, ammo fuqarolarning xususiy xo’jalik faoliyat yuritishlari man qilingan edi.

---

[15] Ызбекистон Республикасининг Фу=аролик Кодекси 2-былими щам «шахслар» деб юритилади ва у ыз ичига фу=аролар (жисмоний шахслар), юридик шахслар ва давлатни фу=аролик щу=у=ий муносабат иштирокчиси сифатида мустащкамлайди.

Xo’jalik faoliyati keng jabhalari hozirda tadbir-korlik faoliyatiga aylantirilishi bilan turli mulk sha-kllariga ega bo’lgan korxonalar xo’jalik munosabatlarining ishtirokchilari bo’lib qolmay, balki yakka tadbirkorlar ham bo’lishi mumkin. Chunki, huquqiy munosabatlarning sub`-ektlari tarkibini shu munosabatlarning xarakteri belgi-laydi. Hozirgi sharoitda esa ushbu munosabatlarning aso-siy xarakteri - foyda olish maqsadida xo’jalik faoli-yatini amalga oshirishdan iborat.

O’zbekiston Prezidenti I.A.Karimov Ikkinchi chaqiriq O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Birinchi sessiyasidagi ma`ruzasida «Biz kichik, o’rta va xususiy tadbirkorlikning yangi ichki mahsulot ishlab chiqarishda nafaqat hal qiluvchi mavqe egallashi, ayni vaqtda uning aholi farovonligi va daromadlarini orttirishda, ishsizlik muammosini echishda ham muhim omilga aylantirishga erishmog’imiz lozim»,[1] deb ta`kidlagan edi. Haqiqatan, amaldagi qonun hujjatlarimizga muvofiq holda xususiy sektorning rivojlanishiga keng yo’l ochib berilmoqda, buning natijasida esa xo’jalik faoliyatida tadbirkorlik keng qanot yoymoqda. Bu esa o’z navbatida fuqarolarning xo’jalik munosabatlarining sub`ektlari deb tan olinishiga olib keldi, ammo bu har qanday fuqaro ham xo’jalik huquqining sub`ekti bo’lishi mumkin, degan so’z emas, balki bu erda gap faqat xo’jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tadbirkor-fuqarolar ustidagina bormoqda xolos.

Professor V.V.Laptev ta`biri bilan aytganda, «Hozirgi xo’jalik huquqi – bu yakka va jamoa tadbirkorlari-ning yoki boshqacha qilib aytganda, fuqarolarning va barcha mulk shakllariga ega bo’lgan xususiy, shuningdek davlat korxonalarining professional faoliyati»[16] bo’lib qoldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xo’jalik huquqining sub`ektiga quyidagicha tushuncha berish mumkin: Xo’jalik huquqining sub`ekti–bu xo’jalik (tadbirkorlik) faoliyatini amalga oshiruvchi, o’zining mulkiga, xo’jalik huquq va majburiyatlariga ega bo’lgan, o’z faoliyati yuzasidan mus-taqil da`vogar va javobgar bo’la oladigan va o’zining huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qila ola-digan (yuridik shaxs maqomini olgan) turli mulk shakl-lariga mansub korxonalar va ularning tuzilmalari hamda yakka tadbirkor maqomiga ega bo’lgan fuqarolar hisob-lanadi.

Xo’jalik huquqining sub`ektlari tushunchasidan bunday huquqning o’ziga xos belgilarini ajratib ko’rsatish mumkin.

Xo’jalik huquqi sub`ektining eng asosiy belgisi-bu uning o’z mol-mulkiga ega bo’lishidir. O’z mol-mulkiga ega bo’lishning huquqiy shakli-mulk huquqidir.

Ba`zi xo’jalik yurituvchi sub`ektlar (masalan, unitar korxonalar, davlat korxonalari) o’z mol-mulkiga ega bo’lmasdan ashyoviy huquq asosida (xo’jalik yuritish, operativ boshqarish huquqi) o’ziga biriktirib qo’yilgan mol-mulkka ega bo’lishlari mumkin.

Mulk huquqi uning sohibiga tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanish, shuningdek, tashkil etilgan korxonaga rahbarlik qilish, ularning faoliyatini amalga oshirish shartlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Mulkdor bo’lishlik, mulkdorning shu mulkka nisbatan huquqlari shakliga ham ko’p jihatdan bog’liq, xususan xo’jalik yuritish huquqi, operativ boshqarish, ijara huquqi, ichki xo’jalik yuritishga egalik huquqi paydo bo’lmasdan turib, xo’jalik

[1] «Хал= сызи», 2000 йил 25-январь

[16] Лаптев В.В. Предпринимательское право: понятие и субъекты. М. Юристь,1997 й.

huquqi sub`ektining vujudga kelishi va taraqqiy etishi mushkul. Shaxs mulkiy baza bo'lgan taq-dirdagina sub`ekt tashkil etishga intilib, iqtisodiy man-faatdorlikka erishishga harakat qiladi va rivojlanadi.

Foyda ko'rish maqsadida, tavakkal qilib tovar ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) bilan shug'ul-lanish ixtisoslashgan faoliyatga aylangan taqdirdagina bunday faoliyatning ishtirokchilarini tadbirkorlar deb hisoblash mumkin. Agar fuqaro bunday harakatlarni alohida hollardagina (vaqti-vaqti bilan) foyda ko'rishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymay amalga oshirgan taqdirda, masalan, o'zidagi ortiqcha qishloq xo'jalik mahsulotlarini yoki keraksiz bo'lgan boshqa ashyolarni sotishi, yoki ishlarni bajarib berish uchun shartlashib va u bajarilganligi uchun haq olinadigan bo'lsa, bunday faoliyatni tadbirkorlik faoliyati deb bo'lmaydi, chunki bu kabi munosabatlar fuqa-rolik huquqi normalari bilan tartibga solinadi. Shu-ningdek, bank muassasalariga foiz olish maqsadida jam-g'arma qo'ygan fuqarolar, qimmatli qog'ozlar sotib olgan shaxslar ham tadbirkorlar hisoblanmaydi.

O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 25 mayda qabul qilingan «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi[17] qonunining 4-moddasiga ko'ra, tad-birkorlik faoliyati sub`ektlari belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan ùamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib ùisoblanadi.

Davlat ùokimiyati va boshqaruv organlari (qonun ùuj-jatlarida nazarda tutilgan ùollar bundan mustasno), ularning mansabdor shaxslari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi qonun ùujjatlarida man etilgan boshqa shaxslar tadbirkorlik faoliyatining sub`ektlari bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudining 2000 yil 28-apreldagi "Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq qonunchilikni qo'llash sud amaliyoti to'g'risida"gi 2-sonli qaroriga ko'ra, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, shu jumladan, chet el fuqarolari yoki yuridik shaxslari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tadbirkorlik faoliyati sub`ektlaridir. Tadbirkor yuridik shaxsni tashkil etgan ùolda yoki tashkil etmasdan ùam tadbirkorlik faoliyati bilan doimiy asosda shu-g'ullanuvchi jismoniy shaxsdir (yakka tartibdagi tadbirkordir)[18].

Xo'jalik huquqi sub`ektlarining asosiy belgisi ular-ning davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lishligi hamda qonun huj-jatlarida nazarda tutilgan hollarda muayyan faoliyat tur-lari bilan shug'ullanishlari uchun albatta ruxsatnoma (li-senziya)ga ega bo'lishlari lozimligi talab etiladi.

Xo'jalik huquqi sub`ektlarini yana bir belgisi bilan boshqa sub`ektlardan ajratish mumkin, bu ularning xo'jalik huquq va majburiyatlariga ega bo'lishligidir. Bunday huquq va majburiyatlarning doirasi O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan hamda ularga muvofiq qabul qilingan mazkur xo'jalik yurituvchi sub`ektlarining ta`sis hujjatlari bilan aniqlanadi.

Xo'jalik huquqi sub`ektlarining navbatdagi belgisi shuki, ular o'z faoliyatlari uchun mustaqil javobgar hisoblanadilar. Javobgarlik uning o'z mol-mulki doirasida amalga oshiriladi.

---

[17] Хал= сызи – 2000 йил 15 июнь.

[18] Ызбекистон Республикаси Олий суди ва Ызбекистон Республикаси Олий хыжалик суди Пленуми +арорларининг тыплами. Нукус, «Билим» нашриёти. 2000 йил, 237- б.

Xo’jalik huquqi sub`ektlari o’z faoliyatlariga o’zlariga tegishli mol-mulk doirasida javobgar bo’lishlari bilan birga, o’zlarining buzilgan huquqlarini va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish imkoniyatiga ega ekanliklari to’g’risidagi qoidalar qonun hujjatlarida mustahkamlangan.

**Xo’jalik huquqi sub`ektlarining turlari** to’g’risida so’z ketar ekan, avvalo, shuni aytish joizki, ularni bir necha turlarga ajratish mumkin. Sub`ektlarni turkumlash ularning mulkchilik shakliga, vakolatlariga, faoliyat turiga qarab belgilanadi.

Mulk shakllarining xilma-xilligidan kelib chiqib, xo’jalik huquqining sub`ektlarini quyidagi turlarga bo’lish mumkin:

1. Fuqarolarning xususiy mulkiga asoslangan xo’jalik yurituvchi sub`ektlar;
2. Jamoa mulki ko’rinishidagi xususiy mulkka asoslangan xo’jalik yurituvchi sub`ektlar (jamoa, oila, mahalla, ishlab chiqarish kooperativlari, aksiyadorlik jamiyatlari, ma`suliyati cheklangan jamiyatlar, shirkatlar) va boshqalar;
3. Davlat mulkiga asoslangan xo’jalik yurituvchi sub`ektlar (respublika mulkiga, ma`muriy-territorial tuzilmalarning mulkiga asoslangan);
4. To’la yoki ulush qo’shib ishtirok etishga asoslangan (qo’shma korxonalar) xo’jalik yurituvchi sub`ektlar;
5. Mulkchilikning aralash shakliga asoslangan xo’jalik yurituvchi sub`ektlar.

Xo’jalik huquqining sub`ektlaridan biri xususiy korxonalardir.

Xususiy korxona qonunda belgilangan tartibda ro’yxatdan o’tkazilgan kundan boshlab yuridik shaxs huquqini oladi.

Jamoa korxonasi, shirkat, oila, mahalla, shuningdek, kooperativlar, ijara korxonalari, aksiyadorlik jamiyatlari, diniy tashkilotlar, xo’jalik jamiyatlari va uyushmalar hamda yuridik shaxs maqomiga ega bo’lgan boshqa bir-lashmalar xo’jalik huquqi sub`ektlaridir.

Oila xo’jalik huquqi sub`ekti sifatida shu oila a`zolarining birgalikdagi ehtiyojlarini qondirish, uy-ro’zg’or va yordamchi xo’jalik yuritish hamda daromad olish maqsadidagi qonun ruxsat bergan faoliyat uchun zarur bo’lgan ishlab chiqarish vositalari, iste`mol buyumlari va yaratilgan mahsulotlarga ega bo’ladi. Oilaviy mulk o’z sub`ektlarining har biriga aynan tegishli bo’lgan shaxsiy va xususiy mulkdan iborat bo’lishi mumkin.

Mahallada istiqomat qiluvchi aholi mahalla mulkining sub`ektidir. O’zi saylab qo’ygan organlar mahalla mulkini to’la xo’jalik yuritish asosida egallaydi va tasarruf etadi.

Xo’jalik huquqining sub`ekti sifatida kooperativ, xo’jalikni birgalikda yuritish yoki boshqa faoliyat bilan shug’ullanish uchun a`zolik asosida ixtiyoriy birlashgan fuqarolarning birgalikdagi mulkiga ega bo’ladi.

Jamoa korxonasining mulki mehnat jamoasining ijaraga olingan mol-mulki, sotib olingan yoki qonunda ko’zda tutilgan boshqa usullar bilan mol-mulk qo’lga kiritilgan taqdirda vujudga keladi.

Xo’jalik jamiyati va shirkatning mulki bu yuridik shaxs hisoblangan xo’jalik jamiyatlari va shirkatlarning asosiy va oborot fondlari, pul mablag’lari, qimmatli qog’ozlar shuningdek boshqa mol-mulklardan hosil bo’lishi mumkin.

Xo’jalik huquqining sub`ekti sifatida jamoat bir-lashmalari-siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, shu jumladan, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, veteranlar, yoshlar tashkiloti, ko’ngilli jamiyatlar va boshqalardir.

Jamoat birlashmalari mulkida, shu birlashmalar mab-lag’lari hisobidan ularning ustavlarida ko’rsatilgan maq-sadlarga muvofiq vujudga keltiradigan korxonalar ham bo’lishi mumkin.

Diniy tashkilotlar xo’jalik huquqi sub`ekti sifatida binolar, diniy buyumlar, ishlab chiqarish ijtimoiy va hayriya ahamiyatiga ega bo’lgan ob`ektlar, diniy tashkilotlarning faoliyatini ta`minlash uchun zarur bo’lgan pul mablag’lari va boshqa mol-mulklarga ega bo’lishi mumkin.

Ma`lumki, O’zbekiston Respublikasining davlat mulki tarkibiga Respublika mulki, ma`muriy-hududiy tuzilmalarining mulki, ya`ni munisipal mulk kiradi. Respublika mulkining ob`ektlari bo’lib er, er osti boyliklari, ichki suvlar, respublika hududi doirasidagi havo havzasi, o’simliklar va hayvonot dunyosi, hokimiyat va davlat idoralarining mol-mulki, madaniy va tarixiy boyliklari, byudjet mablag’lari, Respublika va davlat ahamiyatidagi banklar, sug’urta, rezerv fondlari va boshqalar kiradi.

Xalq respublika mulkining sub`ekti hisoblanib, mulk huquqini xalq nomidan Oliy Majlis va mahalliy hokimiyat organlari amalga oshiradilar.

Davlat mulki bo’lgan va davlat korxonasiga biriktirib ko’yilgan mol-mulk xo’jalik yuritish huquqi asosida korxonaga tegishlidir. Korxona o’z mol-mulki bilan to’la xo’jalik yuritish huquqini amalga oshirar ekan, mazkur mulkka egalik qiladi, undan foydalanadi va tasarruf eta- di, unga nisbatan o’z xoxishi bilan qonunga zid kelmaydigan har qanday harakatlarni amalga oshiradi.

Davlat mol-mulkini boshqarish vakolati berilgan davlat idoralari har xil korxonalarni vujudga keltirish, uning faoliyat maqsadlarini aniqlash, qayta tuzish va tugatish masalalarini hal etadilar.

Xo’jalik huquqining sub`ekti sifatida xorijiy mamlakatlar fuqarolari va yuridik shaxslar ishtirokidagi qo’shma korxonalar ham faoliyat yuritadilar.

Xo’jalik huquqining sub`ekti sifatida xorijiy mamlakatlar fuqarolari O’zbekiston Respublikasi «Mulkchilik to’g’risida» gi qonunning 34-moddasining O’zbekiston Respublikasi fuqarolar mulkiga taalluqli qoidalari O’zbekiston Respublikasidagi xorijiy fuqarolarning mulkiga ham tegishlidir.

O’zbekiston Respublikasi hududida chet el investisiya-larining amalga oshirishning huquqiy va tashkiliy asos-lari xalq xo’jaligini rivojlantirishga, Respublika iqti-sodiyotining jahon iqtisodiy tizimiga qo’shilishga ko’mak-lashish maqsadida chet mamlakat moliyaviy, moddiy, intel-lektual va boshqa resurslarini xorijning zamonaviy tex-nologiyasi va boshqaruv sohasidagi tajribasini o’rganishga hamda ulardan samarali foydalanishga yo’naltirilgandir.

qo’shma korxonalar yuridik shaxs sifatida chet ellik investorning O’zbekiston Respublikasida faoliyat ko’rsatib turgan korxonada ulush qo’shish yo’li bilan barpo etiladi.

Ko’shma korxona barpo etish to’g’risidagi qarorni chet ellik investor bilan O’zbekiston Respublikasidagi korxona (mol-mulk) egasi qabul qiladilar.

qo’shma korxonalarning Ustav fondiga har bir qat-nashchining ulush qo’shish muddatlari, hajmlari, bu ulushni qo’shish va baholash tartibi ta`sis hujjatlarida nazarda tutiladi.

qo’shma korxona qatnashchilari tomonidan korxona ustav fondiga ulush sifatida qo’shadigan mol-mulkning qiy-matini qatnashchilar to’liq o’tkazilishini ta`minlashlari kerak.

qo’shma korxonalarda, jamoani ijtimoiy rivojlantirish, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash uchun zahira fondlari tuziladi.

Zahira fondi har yili so’m, chet el valyutasida pul ajratish hisobiga tashkil etiladi.

Chet ellik investor qo’shma korxona tarkibidan butunlay chiqqanida yoki bu korxonalar tugatilgan taqdirda, korxona mulkidan o’z ulushini bozor qiymatiga muvofiq pul yoki tovar shaklida qaytarib olish huquqiga ega bo’ladi.

Bundan tashqari, qatnashchilarga qo’shma korxonalardan chiqayotgan chet ellik qatnashchining ulushini sotib olishda imtiyozli huquq berilishi mumkin.

qo’shma korxona zahira fondlaridan tashqari boshqa fondlar tuzish huquqiga ham ega, bundan tashqari harajat qilish tartibini qo’shma korxona ta`sischilari o’zlari belgilaydilar.

Chet el investisiyalari ishtirokidagi qo’shma korxonalar mustaqil ravishda yoki O’zbekiston Respublikasi qo-nunlarida nazarda tutilgan tartibda qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin.

qo’shma korxona qayta tashkil etilgan yoki tugatilgan taqdirda ishdan bo’shatilgan xodimlarning huquq va manfa-atlariga rioya etilishi kafolatlanadi.

Xo’jalik huquqi sub`ektlari vakolatlariga ko’ra ham quyidagi turlarga:

1) faqat xo’jalik faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar (fermer xo’jaliklari, xususiy korxonalar va boshqalar);

2) boshqaruvni amalga oshiruvchi sub`ektlar (hokimiyat, vazirliklar, davlat organlari);

3) har ikkalasini qo’shib olib boruvchi sub`ektlar (konsern, korporasiya)ga bo’lish mumkin.

Xo’jalik yurituvchi sub`ektlarni faoliyat maqsadiga (turiga) qarab ikki turga:

1) tijoratchi tashkilot ;

2) tijoratchi bo’lmagan tashkilotga bo’lish mumkin.

Tijoratchi tashkilot bu foyda olishni o’z faoliyatining asosiy maqsadi qilib qo’ygan sub`ekt bo’lib, (xususiy korxonalar, xo’jalik jamiyatlari) tijoratchi tashki-lotlarning huquqiy holatlari O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida belgi-lab qo’yilgan. Tijoratchi bo’lmagan xo’jalik yurituvchi sub`ektlar o’z oldiga muayyan maqsadni ko’zlagan holda ha-rakat qilib, foyda ko’rishni ko’zlamaydi.

Xo’jalik (tadbirkorlik) huquqi sub`ektlari faoliyatining tashkil qilinishi va tugatilishi. Xo’jalik (tadbirkorlik) huquqi sub`ektlarini davlat ro’yxatidan o’tkazish.

Fuqarolik qonun hujjatlaridan ma`lumki, yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab tashkil etilgan hisoblanadi. Yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish uni tashkil etishdagi yakunlovchi bosqich bo'lib hisoblanadi, ammo, xo'jalik yurituvchi sub`ektlar tashkil etilishida davlat ro'yxatidan o'tkazilgunga qadar bir qancha bosqichlarni bosib o'tishi lozim. Xo'sh, xo'jalik huquqini sub`ektini tashkil etish nimadan boshlanadi?

Avvalo, muassislar o'zlarining umumiy yig'ilishlariga to'planadi. Aynan shu yig'ilishda ular o'zlarining mulklarini umumlashtirish-birlashtirish asosida yakuniy maq-sadlariga erishish uchun barcha harakatlar doirasini aniq-lab oladilar hamda ta`sis hujjatlarini ishlab chiqib, uni imzolaydilar va qaror qabul qiladilar. Shunday qilib, xo'jalik huquqi sub`ektini tashkil etish deganda, tashkilot va shartnomaviy birlashmalariga huquqiy maqom berish uchun yuridik ahamiyatga ega bo'lgan barcha tegishli huj-jatlarni qabul qilishga qaratilgan harakatlar majmui tushuniladi. Xo'jalik huquqi sub`ektlarini tashkil qi-linishi kimning xohish irodasiga va qanday tartibda amalga oshirilayotganligiga qarab ta`sis-farmoyish, ta`-sis, shartnomaviy-ta`sis usullariga bo'linadi.

**Ta`sis-farmoyish usul bilan asosan** davlat mulkiga asoslangan korxonalar tashkil qilinadi. Bu usulning xarakterli tomoni shundaki, bunda xo'jalik yurituvchi sub`ekt davlat vakil qilgan shaxs tomonidan tashkil etiladi. Misol tariqasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1999 yil 14-oktyabr 462-sonli qaror bilan O'zbekiston «O'zbekiston-Shveysariya» qo'shma korxonasi tashkil topganligini keltirish mumkin.

Ta`sis etish usuli bilan bitta shaxs ishtirokidagi tashkilotlar ham tuzilishi mumkin. Ularning faoliyati xususiy mulkka asoslangan bo'ladi.

**Shartnomaviy ta`sis usuli bilan** ikki va undan ortiq ta`sischilar tomonidan o'zlarining mulkiy ulush-larini birlashtirish asosida ta`sis shartnomasi tuzish yo'li bilan xo'jalik yurituvchi sub`ekt faoliyatining faoliyat yo'nalishlari belgilanadi va tuziladi.

Xo'jalik (tadbirkorlik) sub`ektini davlat ro'yxatidan o'tkazish yuqorida ta`kidlanganidek, ularni tashkil etishning eng so'nggi bosqichi bo'lib hisoblanadi. (Fuqarolik kodeksining 44-moddasi, «Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida»gi qonunning 3-moddasi, «Mas`uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas`uliyatli jamiyat to'g'risida»gi qonunning 5-moddasi, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonunning 11-moddasi.)

Aynan, xo'jalik sub`ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtdan boshlab yuridik shaxs maqomi belgilanib, bu yuridik fakt huquqiy munosabatni belgilovchi ahamiyatga egadir. Shu o'rinda ta`kidlab o'tish kerakki, xo'jalik (tadbirkorlik) sub`ektlarini yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun quyidagi hujjatlar talab etiladi. Avvalo, shaxs ariza taqdim etib, unda tashkil etilayotgan xo'jalik yurituvchi sub`ekti to'g'risidagi asosiy ma`lumotlarni, chunonchi, xo'jalik yurituvchi sub`ektning nomi, yuridik manzili, rahbarning ismi, sharifi, nizom jamg'armasining miqdori, muassislar, ularning nizom jamg'armasidagi ulushi, davlat ro'yxatidan o'tkazishni so'rab murojaat etgan shaxsning ismi, sharifi o'z ifodasini topgan bo'lishi lozim. Shuni ta`kidlash joizki, ariza bilan albatta ta`sischining o'zi murojaat etishi shart emas, balki uning nomidan notarial tasdiqlangan ishonchnoma

asosida barcha davlat organlarida uning huquqlarini himoya qilish uchun vakil qilingan shaxs ham murojaat qilishi mumkin.

Davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi arizaga **ta`sis hujjatlarining notarial tasdiqlangan ikki asl nusxasi** (davlat korxonalari negizida tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun notarial tasdiqlagan ta`sis hujjatlari talab etilmaydi), **xo'jalik yurituvchi sub`ektning pochta manzilini tasdiqlovchi hujjat** (fermer, dehqon xo'jaliklari davlat korxonalari negizida tashkil etiladigan aksiyadorlik jamiyatlari bun-dan mustasno), **davlat bojining yoki ro'yxatdan o'tkazish yig'imining belgilangan miqdori to'langanligi to'g'ri-sidagi bank to'lov hujjati** (dehqon xo'jaliklari, davlat korxonalari negizida tashkil etiladigan aksiyadorlik ja-miyatlari bundan mustasno**), belgilangan tartibda shaxsga (tuman) hokimlikning vakolatli organlari tomonidan berilgan firma nomi to'g'risidagi guvohnoma, muhr va shtamp eskizlari 3 nusxada** ilova qilinadi.

Yuqorida qayd etilgan hujjatlarga qo'shimcha bozorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun uni tashkil etishga shahar tuman hokimligi roziligi yoki qarori talab etiladi.

Yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatining sub`ekti ùisoblangan yakka tartibdagi tadbirkorni davlat ro'yxatidan o'tkazish xo'jalik huquqining boshqa sub`ektlarini ro'yxatga olishlikdan farq qiladi.

«Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonunning 11-moddasida tadbirkorlik faoliyati sub`ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning umumiy asoslari ko'rsatilgan. Unga binoan, jismoniy shaxs yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tish uchun tegishli organlarga ariza bergach, ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar ariza beruvchiga tadbirkorlik faoliyati sub`ekti tariqasida davlat ro'yõatidan o'tkazishni uni tashkil etish maqsadga muvofiq emas, degan vaj bilan rad etishga yoki qonun ùujjatlarida nazarda tutilmagan qo'-shimcha talablarni belgilashga ùaqli emas. Bunday talabni asossiz rad etganlik, shuningdek ro'yxatdan o'tkazish mud-datlarini buzganlik ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Bu kabi umumiy asoslardan tashqari ro'yxatga olishning maxsus asoslari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mah-kamasining 2001 yil 22 avgustda qabul qilingan "Tadbirkorlik sub`ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qororida tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshiruvchi sub`ektlarni ham davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlar ro'yxati va tartibi mustaxkamlangan. Bunga binoan shaxs tomonidan tuman (shaxar) hokimligiga ariza beriladi, ushbu arizaga 3x4 o'lchamli ikkita fotosurat, ro'yxatdan o'tkazish yig'imining belgilangan miqdorda to'langanligi to'g'risidagi bank to'lov hujjati, muxr va shtamp eskizlari uch nusxada taqdim etiladi hamda pasport ko'rsatiladi.

Jismoniy shaxs arizada tadbirkorlik faoliyati amalga oshiriladigan joy mavjudligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etilishi lozim bo'ladi.

Yuridik shaxs tuzmasdan dehqon xo'jaligi tashkil etishda ham tuman (shaxar) hokimligiga ariza taqdim etiladi. Arizaga, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) umumiy yig'ilishining yoki yuqori boshqaruv organining yoxud boshqa qishloq xo'jaligi korxonasi ish beruvchi (ma`muriyati)ning xo'jalik tashkil etish to'g'risidagi qarori ilova qilinib, pasport ko'rsatiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs tuzmasdan tashkil etilgan dehqon xo'jaliklari davlat ro'yxatidan o'tkazish haqidagi arizalarini ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan qabul qilib olinganidan so'ng, uch ish kunidan kechikmay tadbirkorlik sub`ekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilishi va hisobga qo'yilishi lozim, aks xolda shaxs sudga shikoyat qilishga haqli.

Xo'jalik faoliyatini yurittish uchun yuridik shaxslar bankda hisob raqamini ochishlari shart bo'lsa yakaa tartibdagi tadbirkorlar yuridik shaxs tuzmasdan tashkil etilgan dexqon xo'jaliklari tomonidan faoliyatning ayrim turlari amalga oshirilgan xollarda hisob raqami ochish uchun murojaat qiladilar.

Xo'jalik sub`ekti davlat ro'yxatidan o'tkazgan kunidan boshlab bir kun mobaynida ro'yxatga olinganlik ma`lumotini soliq organiga hamda muxr va shtamp eskizlarini uch nusxada ilova qilgan xolda ichki ishlar organlariga ro'yxatdan o'tkazuvchi organ rasman taqdim etadi. Soliq organlari esa, yakka tartibdaga tadbirkorni, yuridik shaxs tuzmasdan tashkil etilgan dexqon xo'jaligini hisobga qo'yadi, ularga soliq to'lovchining identifikasiya raqamini beradi va uni statistika va ro'yxatdan o'tkazuvchi organlarga rasman ma`lum qiladi

Davlat ro'yxatidan o'tkazilgan xo'jalik sub`ekti bel-gilangan tartibda soliq organlari va ijtimoiy ta`minot organlarida hisobda turishi shart. Xo'jalik sub`ekti haqida belgilab qo'yilgan tartibni buzish yoki uning ta`sis hujjatlari qonun talablariga mos kelmasligi davlat ro'yxatidan o'tkazilishining rad etilganligiga sabab bo'ladi. Ro'yxatdan o'tkaziluvchi organlar ariza beruvchiga xo'jalik sub`ekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazishni, uni tashkil etish maqsadga muvofiq emas degan vaj bilan rad etishga yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qo'shimcha talablarni belgilashga haqli emas.

Ariza beruvchi xo'jalik yurituvchi sub`ekt tariqasida davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etganlik, shuningdek ro'yxatdan o'tkazish muddatini buzganlik ustidan sudga shikoyat qilishi mumkin. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning qa-rori, shuningdek mazkur organ mansabdor shaxslarning harakatlari sud tomonidan xilof deb topilgan taqdirda, ular ro'yxatdan o'tkazishni rad etganlik yoki ro'yxatdan o't-kazish muddatini buzganlik tufayli etkazilgan zararning o'rnini qoplaydilar va ma`naviy zarar uchun tovon to'laydilar.

Xo'jalik sub`ektining qayta tashkil etilishi to'g'ri-sida so'z borar ekan, xo'jalik sub`ektining huquq va majburiyatlarini xuquqiy vorislik asosida boshqa shaxsga o't-ishi orqali uning tugatilishi tushuniladi. qayta tashkil etishning maqsadi bo'lib, yuridik shaxsning huquqiy ma-qomini o'zgartirish bo'lib hisoblanadi.

qayta tashkil etish ixtiyoriy va majburiy bo'lishi mumkin. Ixtiyoriy qayta tashkil etish to'g'risidagi qaror ta`sischilar yoxud uning ta`sis hujjatlarida vakolat be-rilgan organlar tomonidan qabul qilinishi mumkin. Majburiy qayta tashkil etish esa ta`sischilarning xohish irodasiga qarshi, ya`ni vakolati bo'lgan davlat organi yoxud sud tomonidan qabul qilingan qarorga asosan amalga oshiriladi. Bunday hollar qonun hujjatlarida to'g'ridan-to'g'ri belgilangan bo'lishi mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 2 avgustdagi 300-sonli qaroriga ilova qilingan «O'zbekiston Respublikasi monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi to'g'risida»gi Nizomda uning zimmasiga ayrim xo'jalik sub`ektlarini qo'shib yuborish, qo'shib olish, o'zgartirish shakllaridan qayta

tashkil etilishini nazorat qilish yuklatilgan. Amaldagi qonunga muvofiq yuridik shaxslarni qayta tashkil etishning 5-ta: **qo'shib yuborish; qo'shib olish; bo'lish; ajratib chiqarish; o'zgartirish usullari mavjud.**

Fuqarolik Kodeksining 50-moddasiga muvofiq qo'-shib yuborish, qo'shib olish va o'zgartirishda huquqiy vorislik topshirish hujjatida o'z aksini topishligi, bo'lish va ajratib taqsimlash balansiga muvofiq aniqlanishi mustahkamlangan.

qonun hujjatlariga binoan taqsimlash, balans va topshirish hujjatiga quyidagi talablar qo'yiladi. Topshirish hujjati va taqsimlash balansi xo'jalik sub`ekti muassislari tomonidan yoki xo'jalikni qayta tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilgan organ tomonidan tasdiq-lanadi hamda ta`sis hujjatlari bilan birga yangidan vu-judga kelgan xo'jalik sub`ektini davlat ro'yxatidan o'tka-zish yoki mavjud xo'jalik sub`ektining ta`sis hujjatlariga o'zgartishlar kiritish uchun taqdim etiladi.

Ta`sis hujjatlari bilan birga tegishli tartibda hujjatini yoki taqsimlash balansini taqdim etmaslik, shuningdek ulardan qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorislik to'g'risidagi qo-idalarning yo'qligi, vujudga kelgan yuridik shaxsning dav-lat ro'yxatidan o'tkazishning rad etilishiga sabab bo'ladi. Eng avvalo xo'jalik sub`ektini qayta tashkil etish to'g'-risida qaror qabul qilgan xo'jalik sub`ekti muassislari yoki organ qayta tashkil etilayotgan xo'jalik sub`ektining kreditorlarini bu haqda yozma ravishda xabardor qilishlari shart.

Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi sub`ektini tugatilishi uning huquq va majburiyatlarini huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o'tmasdan, balki bekor qili-nishiga olib keladi. Xo'jalik huquqi sub`ektining tuga-tilishi ixtiyoriy va majburiy asosda bo'lishi mumkin.

Tugatish uchun uni tashkil etishdan ko'zlangan maqsadga erishilganligi yoki xo'jalik yurituvchi sub`ektni tashkil qilish vaqtida qonun hujjatlari buzilishiga yo'l qo'yilgan bo'lsa va bularni bartaraf etib bo'lmasa, manfaatdor shaxslarning arizalariga muvofiq sud xo'jalik sub`ektini ro'yxatdan o'tkazishni haqiqiy emas deb topishi mumkin.

Xo'jalik (tadbirkorlik) sub`ektini tugatish tartibi O'zbekiston Respublikasi Fukarolik Kodeksida hamda O'zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3-iyundagi 327-sonli «Moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmagan va qonunchilikda belgilangan muddatga o'zlarining ustav jamg'armalarini shakllantirmagan korxonalarni tugatish tartibi to'g'risida»gi qarorida belgilangan.

Xo'jalik sub`ektlarini tugatishning alohida asosi bo'lgan bankrotlik natijasida tugatilish tartibi O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida»gi qo-nuniga muvofiq amalga oshiriladi. Xo'jalik yurituvchi sub`ektlarni qayta tashkil etish va tugatish to'g'risida darsligimizda alohida mavzu borligi bois, bu masalaga chuqurroq yondashilmadi.

Yakka tartibdagi tadbirkor xo'jalik (tadbirkorlik) huquqining sub`ekti sifatida

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga muvofiq, jismoniy shaxslarga tadbirkorlik maqomiga ega bo'lishlik imkoniyati berilib, ular ham xo'jalik huquqining sub`ektlari doirasiga kiritildi. O'zbekiston Respublikasining dastlab qabul qilingan «Mulkchilik to'g'risida»gi qonuniga binoan fuqarolarning mulklari ishlab

chiqarish–xo'jalik faoliyatida foydalanishi mumkin degan qoida belgilandi. Keyinchalik bu qoidani hamda konstitusion normalarni tadbiq qilingan holda qator qonunlar qabul qilindiki, ular fuqarolarni xo'jalik faoliyati yuritishlari (sobiq ittifoq davrida bunday faoliyatga ruxsat berilmagan edi) hamda xo'jalik huquqi sub`ektlari doirasining kengayib borishiga huquqiy zamin yaratdi.

2000 yil 25 mayda qabul qilingan «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonun shular jumlasidandir. Ushbu qonunda tadbirkorlik faoliyati sub`ektlari doirasi kengaytirilib, ular kichik va o'rta tadbirkorlik sub`ektlari shaklida, jumladan yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar ham kichik va o'rta tadbirkorlik sub`ekti sifatida mastahkamlandi. qonunga binoan har qanday fuqaro ham tadbirkor shaxs hisoblanmaydi, balki faqat belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tib, tadbirkor maqomini olgan fuqarolargina e`tirof etilishi mumkin.

qonun ayrim toifadagi fuqarolarni tadbirkor ma-qomini olishlariga monelik qiladi. Masalan, davlat ho-kimiyati va boshqaruv organlari, ularning mansabdor shaxslari, sud`yalar, prokuratura xodimlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi qonun huj-jatlarida man etilgan boshqa shaxslar shular jumla-sidandir.

«Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi qonunning 7-moddasida jismoniy shaxslarning yuridik shaxs tashkil etmagan ùoldagi birgalikdagi tadbirkorlik faoliyati shakllari mustahkamlangan. Unga ko'ra,

-er-xotinning umumiy mol-mulki negizida ular tomonidan amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik;

- oddiy shirkat;

- yuridik shaxs tashkil etmagan ùolda deùqon xo'jaligi.

Yakka tadbirkorlikning tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etib amalga oshiradigan sub`ektlardan farqlab turuvchi xususiyatlarni aniqlab olish lozim bo'ladi. Gap shundaki, yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkor o'z faoliyatini xodimlarni yollash ùuquqisiz, mulk ùuquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy ùuquq orqali o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida mustaqil ravishda amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining «Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq qonunchilikni qo'llash sud amaliyoti to'g'risida»gi 2000 yil 28 apreldagi qarorida[1] fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va manfaatdorligi uchun shart-sharoit yaratish, ularning ishchanlik faolligini oshirish, tadbirkorlik sub`ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, bu sohada qonunchilikni to'g'ri tadbiq etish va ularga qat`iy rioya qilishning ta`minlanishi lozimligi qayd etilgan.

Yuridik shaxs tashkil etmagan holda xo'jalik yuri-tadigan sub`ektlar shakllari to'g'risida so'z ketar, ekan qonun ularni quyidagi tarzda mustahkamlaganligini ta`-kidlash joiz.

1) yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan xodimlarni yollash ùuquqisiz, mulk ùuquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka

---

[1] «Хыжалик ва щу=у=» - «Хозяйство и право», 2000 - №8, 14-б.

egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo’l qo’yadigan o’zga ashyoviy ùuquq tufayli o’ziga tegishli bo’lgan mol-mulk negizida mustaqil ravishda amalga oshiriladigan yakka tartibdagi tadbirkorlik;

2) er-xotinning umumiy mol-mulki negizida ular tomonidan amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik;

3) ikki yoki undan ortiq yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan foyda olish yoki qonunga zid bo’lmagan boshqa maqsadga erishish uchun o’z ùissalarini qo’shish va yuridik shaxs tuzmasdan, birgalikda ish qilish majburiyatini olgan oddiy shirkat;

4) yuridik shaxs tashkil etmagan ùolda deùqon xo’jaligini yuritish.

Yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish (davlat ro’yxatidan o’tishi) uchun shaxs 18 yoshga to’lgan bo’lishi lozim.

O’n olti yoshga to’lgan voyaga etmagan shaxsning to’la muomalaga layoqatli deb e`lon qilish asoslari Fuqarolik kodeksining 28-moddasida ko’rsatilgan.

Voyaga etgunga qadar qonuniy asosda nikoùdan o’tgan fuqaro nikoùdan o’tgan vaqtdan e`tiboran to’la ùajmda muomala layoqatiga ega bo’ladi, nikoù tuzish shartnomasida ega bo’lingan muomala layoqati o’n sakkiz yoshga to’lmasdan turib nikoù bekor qilingan taqdirda ùam to’la saqlab qolinadi. Nikoù ùaqiqiy emas, deb topilgan taqdirda, sud voyaga etmagan er (xotin) sud belgilagan paytdan boshlab to’la muomala layoqatini yo’qotganligi ùaqida qaror qabul qilishi mumkin. Agarda qonunda nazarda tutilgan asoslarda fuqaroning muomala layoqati cheklangan bo’lsa, fuqaro tadbirkorlik maqomiga ega bo’lolmaydi. Mabodo vaqt o’tishi bilan fuqaro yana muomala layoqatini tiklasa, u tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanish ùuquqiga ega bo’ladi.

Tadbirkor fuqaroning xo’jalik huquqi sohasidagi huquqiy layoqatini fuqarolik huquqiy layoqati bilan adashtirmaslik lozim. Fuqarolik huquqida u fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga soluvchi mulkiy munosabatlarda o’zining shaxsiy ehtiyojlarini qondiruvchi shaxs sifatidagi umumiy huquqiy layoqatga ega bo’ladi. Xo’jalik huquqida esa, u maxsus xo’jalik vakolatiga ega bo’lib, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda tovarlar ishlab chiqaradi (ishlarni bajaradi, xizmat ko’rsatadi), ularni realizasiya qiladi. Shu sababli ham ular fuqarolik huquqidan farqli ravishda, foyda olish maqsadida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida ko’rilgan daromad sifatida qonunchilikda belgilangan miqdorda va tartibda soliqqa tortiladi.

Gap yakka tartibdagi tadbirkorlikni amalga oshirish to’g’risida ketar ekan, er-xotindan biri er-xotinning umumiy birgalikdagi mol-mulkidan foydalanadigan ùol-larda vujudga keladigan munosabatlarni huquqiy tartibga solish masalasi muhimdir. Chunonchi qonunlarda, nikoù shartnomasida yoki er-xotin o’rtasidagi o’zga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo’lmasa, bunday holda er (xotin)ning roziligi talab qilinadi. Bunday rozilik notarial tasdiqlangan bo’lib, qaysi mol-mulkdan foydalanishga kelishilgan bo’lsa, ushbu mol-mulkka tegishli ma`lumotlar qayd etilishi lozim.

Yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tadbirkorlikning er-xotinning umumiy mol-mulki negizida ular tomonidan amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik turida (ish muomalalarida) er-xotin nomidan erning yoki xotinning roziligi bilan ulardan biri ishtirok etadi, bu rozilik yakka tartibdagi tadbirkor ro’yxatdan o’tkazilayotganda tasdiqlanishi lozim.

Oilaviy tadbirkorlikda er-xotinning umumiy birgalikdagi mol-mulkidan foydalanishda qonun oilaning voyaga etgan boshqa a`zolarining manfaatlarini inobatga olgan, xususan, agar tadbirkorlik faoliyati ob`ekti sifatida uy-joydan foydalanish bilan bog'liq oilaviy tadbirkorlik amalga oshirilayotganda uy-joy mulkdorlaridan birining ish muomalalariga kirishishi oilaning voyaga etgan boshqa a`zolarining notarial tasdiqlangan roziligi bo'lgan taq-dirda amalga oshiriladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik va oilaviy tadbirkorlik faoliyatining negizi, mulkning shakllanish ùolati bir-biridan farq qiladi. Yakka tartibdagi tadbirkor mulk ùuquqi asosida faqat o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy ùuquq tufayli o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida faoliyat ko'rsatsa, oilaviy tadbirkorlik mol-mulk negizida umumiy birgalikdagi mulk asosida amalga oshiriladi.

Fuqarolar yuridik shaxs tashkil etmasdan xo'jalik (tadbirkorlik) faoliyatini amalga oshirishda birgalikda faoliyat ko'rsatishga eùtiyoj sezsalar, bu tarzdagi birgalikdagi faoliyat shakllaridan biri oddiy shirkat ùisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 962-moddasiga binoan, oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnoma) bo'yicha sherik (ishtirokchi) deb ataluvchi ikki yoki undan ortiq shaxs foyda olish yoki qonunga zid bo'lmagan boshqa maqsadga erishish uchun o'z hissalarini qo'shish va yuridik shaxs tuzmasdan birgalikda ish qilish majburiyatini oladi. Mazkur moddaning 2-qismiga ko'ra oddiy shirkat shartnomasining taraflari tijoratchi tashkilotlar ùam bo'lishi mumkin. Ko'rinib turibdiki, oddiy shirkat shartnomasida yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar qatori yuridik shaxs ùisoblangan tijoratchi tashkilotlar ùam ishtirok etishlari mumkin ekan.

Oddiy shirkat shartnomasi (birgalikdagi faoliyat to'g'-risidagi shartnoma) bo'yicha sheriklar (ishtirokchilar) deb ataluvchi ikki yoki undan ortiq shaxs foyda olish yoki qonunga zid bo'lmagan boshqa maqsadga erishish uchun o'z ùissalarini qo'shish va yuridik shaxs tuzmasdan, birgalikda ish qilish majburiyatini oladilar. Fuqarolik kodeksining 963-975-moddalarida yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshiriluvchi xo'jalik yuritishning ushbu turiga xos xususiyatlar va ular faoliyatining ùuquqiy asoslari belgilangan.

Sheriklar mulki ùuquqi asosida ega bo'lgan, ular tomonidan qo'shilgan mol-mulk, shuningdek birgalikdagi faoliyat natijasida ishlab chiqarilgan maùsulot va bunday faoliyat tufayli olingan ùosil ùamda daromadlar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa yoxud majburiyatning moùiyatidan boshqacha ùol kelib chiqmasa, ularning umumiy ulushli mulki ùisoblanadi, birgalikdagi faoliyatga bog'liq xarajatlar va zararlarni qoplash tartibi esa, ularning kelishuvi bilan belgilanadi. Bunday kelishuv bo'lmaganda, ùar bir sherik o'zining umumiy ishga qo'shgan ùissasi qiymatiga mutanosib ravishda xarajatlar va zararlarni zimmasiga oladi. Fuqarolik kodeksining 967-moddasi 2-qismida sheriklardan birortasini umumiy xarajatlarni yoki zararni qoplashda ishtirok etishda to'liq ozod etadigan kelishuv o'z-o'zidan ùaqiqiy emas. Sheriklarning umumiy xarajatlari va zararlariga nisbatan bunday ùuquq normasining belgilanishi sheriklarning tadbirkorlik sub`ekti sifatidagi ùuquq va burchlarining buzilishining oldini oluvchi kafolatdir.

Fuqarolik kodeksining 968-moddaga ko'ra, sheriklar tomonidan ularning birgalikdagi faoliyati natijasida olingan foyda, agar oddiy shirkat shartnomasida yoki she-

riklarning boshqa kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, sheriklarning umumiy ishga qo'shgan ùissalari qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Sheriklaridan birortasini foydada ishtirok etishdan chetlatish to'g'risidagi kelishuv o'z-o'zidan ùaqiqiy emas.

Oddiy shirkat shartnomasida sheriklardan birortasining foydaga bo'lgan ùuquqining buzib qayd etilishi Fuqa-rolik kodeksining 113 va 115-moddalariga asosan birga-likdagi faoliyat xususidagi bitimning bekor bo'lishiga, ùaqiqiy emas deb ùisoblanishiga olib keladi.

Oddiy shirkat shartnomasi ishtirokchisining kreditori Fuqarolik kodeksining 227-moddasiga muvofiq uning umumiy mol-mulkdagi ulushini ajratishni talab qilishga xaqli. Bu ùolat faqatgina ishtirokchida kreditor talabini qondiradigan boshqa mulki qolmagan bo'lsa, vujudga kelishi mumkin.

Agar ulushni natura shaklida ajratishga imkoniyat bo'lmasa yoki uning ajratilishiga boshqa sheriklar e`tiroz bildirsalar, kreditor ushbu ulushning boshqa sheriklarga bozor narxida sotilishini talab qilishga xaqli. Ushbu ùolatda ulush sotilganidan olingan qarzni qoplashga ishlatiladi.

Agarda boshqa sheriklar qarzdorning ulushini sotib olishga rozilik bersalar, bu ùolda kreditor sud orqali ulushning kim oshdi savdosida sotilishini talab qilishga ùaqlidir. Yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik fao-liyatini yurituvchi sub`ektlardan biri oddiy shirkat shaklida uning mavjudligini uchinchi shaxslarga ma`lum qilmasligi (yashirin shirkat) nazarda tutilishi mumkin. Bunday shart-nomaga nisbatan, agar qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa yoki yashirin shirkat moùiyatidan kelib chiqmasa, Fuqarolik kodeksining «Oddiy shirkat» bobi qoi-dalari qo'llaniladi.

Ushbu shirkatning xususiyatlaridan biri, uning ishtirokchilaridan ùar biri uchinchi shaxslar bilan munosabatlarda sheriklarining umumiy manfaatlarini ko'zlab o'z nomidan tuzgan bitimlar bo'yicha o'zining butun mol-mulki bilan javob berishidadir.

Yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi sub`ektlarning shakllari tartibida deùqon xo'jaliklari aloùida o'rin egallaydi. O'zbekiston Res-publikasining «Deùqon xo'jaligi to'g'risida»gi 1998 yil 30-aprelda qabul qilingan qonunning 1-moddasiga asosan deùqon xo'jaligi oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, oila a`zolarining shaxsiy meùnati asosida, meros qilib qoldi-riladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga beriladigan tomorqa er uchastkasida qishloq xo'jaligi maùsuloti etishtiradi va realizasiya qiladi.

Deùqon xo'jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi ùamda deùqon xo'jaligi a`zolarining istagiga ko'ra, yuridik shaxs tashkil etgan ùolda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.[19]

Dehqon xo'jaligi davlat ro'yxatiga olingach, unga dehqon xo'jaligi boshlig'iga er uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqini beruvchi davlat hujjati hamda davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risidagi belgilangan namunadagi guvohnoma beriladi. Bu tarzdagi xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning ro'y-xatga olish tartibi to'g'risida yuqorida ta`kidlab o'tildi. Bozor munosabatlari takomillashib borayotgan bir sharoitda Respublikamizda «fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta`minlash, davlat tuzilishini demokratlashtirish, bozor islohotlarini chuqurlashtirish, xususiy mulkni, tadbirkorlik,

[19] Ызбекистон Республикасининг Ер кодекси ва =ишло= хыжалигига оид =онун щужжатлари тыплами. -Тошкент., «Адолат» - 1999 йил, 117-б.

kichik va o’rta biznes manfaatlarini himoyalash borasida zarur kafolatlarni yaratib berishga alohida e`tibor qaratildi va ushbu yo’nalishdagi ishlar izchil davom ettirilmoqda»[20], ya`ni tadbirkorlar faoliyatini davlat yo’li bilan doimiy qo’llab-quvvatlab borishning huquqiy, ijtimoiy asoslari yaratilib kelinmoqda.

. Xo’jalik (tadbirkorlik) huquqining sub`ekti sifatida davlat

O’zbekiston bozor munosabatlariga o’tishining asosiy tamoyillaridan biri bu– davlatning bosh islohotchi ekanligidir.

«Davlatning boshqaruv sohasidagi roli inkor etilsa, ma`muriy buyruqbozlik tizimidan iqtisodiyotning bozor tamoyillariga o’tishini ta`minlash qiyin kechadi.

O’z-o’zidan ravshanki, bozor munosabatlari me`yori mustahkamlanib, islohotlarning ortga qaytmasligi ta`minlanib borgan sari davlatning ta`siri ham shunga muvofiq ravishda izchillik bilan kamayib boraveradi».[21]

Shu nuqtai-nazardan davlat iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning hamma sohalarini o’zgartirish rejalarini tuzib, uni izchillik bilan amalga oshirishni ta`minlashni o’z zimmasiga oladi. Bu esa bozor sharoitida iqtisodiyotni davlat yo’li bilan boshqarish va tartibga solish hamda ij- timoiy va iqtisodiy muammolarni bevosita huquqiy vosi-talar yordamida hal etishga imkoniyat yaratadi.

Davlat xo’jalik huquqi sub`ektlariga xos bo’lgan xususiyatlarga ega. Bular, **birinchidan,** uning o’z mulkiga egaligida, **ikkinchidan,** uning xo’jalik faoliyatini boshqa-rishligida, **uchinchidan**, bevosita xo’jalik vakolatlariga egaligida, **to’rtinchidan**, xo’jalik aloqalarida boshqa ish-tirokchilar bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishishlarida gavdalanadi.

Xo’jalik huquqining sub`ekti sifatida davlat bir vaqtning o’zida boshqa xo’jalik huquqining sub`ektlaridan farq qiladi. Bu shunda ko’rinadiki, uning faoliyatida xo’-jalik faoliyati ustidan rahbarlikni amalga oshirish anchayin ustunroq turadi. Davlat iqtisodiy munosabatlarga kirishar ekan, boshqa sub`ektlar kabi o’z faoliyatini amalga oshirishi uchun ruxsatnoma olishi talab etilmaydi. Shu bilan birga iqtisodiyotga rahbarlik qilishni yuridik kuchga ega bo’lgan normativ hujjatlar asosida amalga oshi-rilishi ham unga xos bo’lgan xususiyatlardan bo’lib hisoblanadi.

Davlatning xo’jalik huquqi sub`ektlari qatoriga qo’shmaslik, xo’jalik faoliyatiga oid masalalarni hal qi-lishda ko’pgina noaniqliklarni kelib chiqishiga, bu bora-dagi masalalarni qaysi huquq sohasi normalari bilan tartibga solinishi lozimligi to’g’risidagi masalalarda chalkashliklarni kelib chiqishiga sabab bo’lar edi. Dav-latning xo’jalik huquqining sub`ekti sifatida o’ziga xos xususiyatlarini birma-bir tahlil qilishga harakat qila-miz.

Davlatning o’z mulkiga ega ekanligi to’g’risida shuni ta`kidlash joizki, Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillarning o’zidayoq, O’zbekiston o’zining «Mulkchilik to’g’risida»gi qonunini qabul qildi va ushbu qonunga muvofiq O’zbekiston davlati mulk egasi sifatida tan olindi. 1978 yilgi O’zbekistonning

---

[20] И.А.Каримов. Ызбекистонда демократик ызгаришларни, фу=аролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йуналишлари. «Хал= сызи» газетаси, 2002 й., 30 август.

[21] И.А.Каримов. «Ызбекистон XXI аср быса\асида: хавфсизликка тащдид, бар=арорлик шартлари тара==иёт кафолатлари». Тошкент, «Ызбекистон», 1997, 189-бет

Konstitusiyasida ja-miyatning iqtisodiy negizini asosan sosialistik mulkning ikki xil shakli, ya`ni davlat va kolxoz-kooperativ mulki tashkil etilishi belgilangan edi. Endilikda mulk ommaviy va xususiy shakllarda mavjud bo'lishligi qonuniy mustahkamlanib, hatto fuqarolarning mulki qaysi shakllarda va qay maqomda mavjud bo'lishiligi qonuniy hal etilib, mulklar tengsizligiga barham berildi.

Mulkning kimga tegishli bo'lishidan qat`iy nazar, teng ravishda rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilib, ularni bab-baravar huquqiy muhofaza qilish qoidalari tegishli qonunlarda o'z ifodasini topdi.

Jamiyat iqtisodiy negizini tashkil qiluvchi asosiy masala bo'lgan mulk masalasining bunday ijobiy hal qi-linishi ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tashabbuskorlik hissiyotlarining kamol topishi uchun ishlab chiqa-rishda, xo'jalik sohasida, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda fuqarolar hamda tashkilotlar, shuningdek jis-moniy shaxslar va yuridik shaxslarning birgalikda teng manfaatdor bo'lishi, ular o'rtasida umumiy mulkdan hamkorlikda foydalanish va buning oqibatida samarali na- tijalarga erishish imkoniyatlari yaratib berildi.

Ma`lumki, O'zbekistonning mustaqillikka erishilgunga qadar amalda bo'lgan 1963 yilgi Grajdanlik kodeksiga muvofiq fuqaro bilan yuridik shaxs o'rtasida umumiy mulk bo'lishiga yo'l qo'yilmas edi. Amaldagi qonunlarimizga muvofiq, endilikda mulk ikki xil, ya`ni xususiy va ommaviy shakllarda mavjud bo'lishligi mumkinligi belgilanib qo'-yildi.

Ommaviy mulk davlat mulkidan iborat bo'lib, u ikki xil turdagi mulkdan, ya`ni O'zbekiston Respublikasi mulki va munisipial mulkdan tashkil topadi.

Ommaviy mulk davlatning barcha fuqarolariga va shuning bilan har bir fuqarosiga tegishli bo'lgan mulk bo'lib hisoblanadi, ammo u o'tmishdagi davlat mulkiga o'xshash mavhum tushuncha emas, uning muayyan ob`ektlari, uni egallab turuvchi, undan foydalanuvchi va uni tasarruf etuvchi sub`ektlar qonunlarimizda aniq ko'rsatilgan.

Ommaviy mulk davlat mulki sifatida O'zbekiston Respublikasining shaxsan o'ziga va uning ma`muriy-hududiy tuzilmalariga tegishli mulkdan (munisipial) iborat.

Fuqarolik kodeksi va boshqa tegishli qonun normalarida ommaviy mulkning vujudga kelish asoslari, bunday mulk ob`ektlarining turlari (er, er osti boyliklari suv, havo bo'shlig'i, o'simlik, hayvonot dunyosi, boshqa tabiiy boyliklar; davlat hokimiyati va boshqaruvi mol-mulki, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan madaniy va tarixiy boyliklar, O'zbekiston byudjetining mablag'lari, oltin zahirasi, davlatning valyuta fondi va boshqa fondlar, shuningdek, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, ilmiy, ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlari, intellektual faoliyat natijalari), ularning respublika va ma`muriy-hududiy tuzilmalarga (mahalliy hokimiyat va boshqa mahalliy organlarga) tegishli qismlari belgilangan bo'lib, bundan tashqari mazkur mol-mulklarni tasarruf etish huquqiga ega bo'lgan davlat organlari aniqlangan. Masalan, Respublika mulkini Oliy Majlis, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki ular maxsus vakil qilgan organlar tasarruf qiladi.

Munisipial hisoblangan mol-mulkni tasarruf qilish vakolatli davlat hokimiyati mahalliy organlari yoki ular vakil qilgan organlar zimmasiga yuklatilgan.

Davlatning barcha mol-mulkini, bu mulk Respublika yoki mahalliy davlat hokimiyati organlariga tegishli bo'lishidan qat`iy nazar, asosan ikki guruhga:

1) davlat korxonalari va muassasalariga biriktirib qo'yilgan mulk;

2) tegishli byudjet mablag'lari va davlat korxonalari, muassasalariga biriktirilmagan Respublikaning davlat xazinasini tashkil qilinadigan mol-mulklarga ajratish mumkin.

Munisipial mulk ham Respublika mulki kabi ikki xil asosiy guruhlarga bo'linishi mumkin, ular:

a) munisipial korxonalar va muassasalarga biriktirib qo'yilgan mol-mulk;

b) mahalliy byudjetni tashkil qiluvchi mablag'lar, munisipial korxonalarga va muassasalarga biriktirilmagan tegishli viloyat, shahar va boshqa munisipial g'aznalarini tashkil qiluvchi mulklardan iborat.

Davlat mulkini bunday ob`ektlarga bo'lish O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va «Davlat mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'-risida»gi qonuniga muvofiq belgilangan.

Respublika mulki ob`ektlari doirasiga kiritilgan ob`ektlar davlatimizning milliy boyligining asosini tashkil qiladi. Bu mulk davlat hokimiyat va boshqaruv organlarini amal qilish, umumdavlat vazifalarni amalga oshirish uchun (mudofaa kuchlarining, chegara qo'shinlari, milliy xavfsizlik va ichki ishlarning mulklari asosida), O'zbekiston xalq xo'jaligini rivojlantirilishini ta`minlovchi tarmoqlar (mudofaa ishlab-chiqarishiga xos korxonalar, yoqilg'i-energetika kompleksi, transport, aloqa tarmoqlari), shuningdek O'zbekiston Respublikasi ta`minoti uchun zarur bo'lgan tarmoqlar (farmasevtika, medisina-biologik preparatlarni, spirt-mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar) uchun zarur bo'lib hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan mulk ob`ektlari asosida O'zbekiston davlati xo'jalik faoliyatini amalga oshiradi. Ushbu mulklarni davlat o'z organlari orqali korxonalarning xo'jalik yuritishiga berib, yangi sub`ekt-korxonalarni tashkil etadi. Shu bilan birga bu korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish masalasini, ularning tugatilish masalalarini bevosita mulkdor bo'lgan davlat o'zining maxsus organlari vakolatiga kiritgan.

Davlat mulki bo'lgan maxsus ob`ekt - davlat xazinasiga O'zbekiston Respublikasi nomidan tushadigan soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha davlat kreditor hisoblanadi. Shuningdek, davlat nomidan tuzilgan shartnomalar bo'yicha g'azna mablag'lari hisobidan javobgar hisoblanadi. Davlatning xo'jalik vakolati tadbirkorlik va xo'jalik sub`ektlariga nisbatan boshqaruv faoliyati bo'lib hisoblanadi.

Davlat xo'jalik yurituvchi sub`ektlarga nisbatan xalq nomidan harakat qiluvchi sub`ekt sifatida qonun chiqarish orqali umumiy asosda o'z ta`sirini ko'rsatadi, bunda u davlat vazifalarini mohiyatidan kelib chiqib xo'jalik munosabatlarida ishtirok etadi, jumladan uning xo'jalik sub`ekti sifatidagi faoliyati uning o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib moddiy-texnika ta`minoti, investisiyalash kabi masalalarni hal qilishda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi.

Bu tarzdagi faoliyat ilgari davlatning iqtisodiyotni ma`muriy boshqarish shakli bo'lgan direktiv aktlarga o'xshamasdan, balki, davlat insonlarning moddiy va ma`naviy ehtiyojlarini qondirishdek ulkan vazifani bajarish maq-sadida erkinlik

asosidagi xo'jalik faoliyatini amalga oshirishi bilan bir vaqtda, hisob-kitob yuritish, moliya, soliq, sub`ektlar imtiyozlari kabi institutlarni tartibga solish ishini olib boradi va ular yagona dastur sifatida ko'rinadi. Chunonchi iqtisodiyot sohasidagi qonunlarning davlat tomonidan qabul qilinishi orqali sub`ektlar faoliyatini tartibga solinishi amalga oshiriladi.

Xo'jalik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solinishi usuli umumiy va alohida asoslarda amalga oshiriladi. Umumiy asos bo'lib qonun chiqarish bo'lib hisob-lansa, alohida asosda turli-tuman sohalar bo'yicha xo'jalik yurituvchi sub`ektlarga nisbatan o'z ta`sirini o'tkazadi, ya`ni iqtisodiy faoliyatning turli jihatlarini tartibga soladi. Masalan, davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik mahsulotlarini etkazib berish va xarid qilish, byudjet manfaatlarini ko'zlagan holda qonunlar, ekologiya masalalariga oid, tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlarni qabul qilinishi orqali sub`ekt sifatida ko'rinadi.

Xo'jalik faoliyatida davlatning ta`siri mazmuniga e`tibor beriladigan bo'lsa, bunda biz, xo'jalik yurituvchi sub`ektlarni tuzish, bekor qilish, xo'jalik faoliyatini tartibga solishni nazorat qilish faoliyatini guvohi bo'lamiz. Masalan, «Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida»gi 1993 yil 7-mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi qonuni va ushbu qonunni qo'llashdagi ba`zi masalalar haqidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1994 yil 9- sentyabrdagi qaroriga muvofiq, uy-joyni xususiylashtirish va fuqarolarga berishni mulk egasi bo'lgan davlat nomidan uy-joy fondiga xo'jalik yuritish huquqiga yoki operativ boshqarish huquqiga ega bo'lgan davlat tashkilotlari va korxonalari amalga oshiradilar. Mahalliy ma`muriyat munisipial uy-joyda yashovchi fuqarolarning arizalari bo'yicha faqat qaror qabul qiladi. «O'zbekiston Respublikasining davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Davlat qo'mitasini tashkil qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish qo'mitasiga davlat mulkini xususiylashtirish va respublikada xususiy biznesni rivojlantirishga ko'maklashish dasturini ishlab chiqish, tashkiliy va uslubiy jihatdan rahbarlik qilish, davlat mulki ob`-ektlarini boshqa mulkchilik shakllariga aylantirishdan tushgan mablag'larni iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga oid vazifalarni hal qilish uchun safarbar etish kabi tadbirlarni amalga oshirish yuklatildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, davlatning xo'jalik faoliyatini tartibga solishning quyidagi shakllarini ajratish mumkin:

1) normativ huquqiy hujjatlar chiqarish;
2) davlat buyurtmalari;
3) davlat kontrakti;
4) davlat tomonidan tartibga solishni belgilovchi hujjatlar.

Normativ xarakterdagi hujjatlar to'g'risida gap ketar ekan, bular asosan biron-bir tovarni to'g'ridan-to'g'ri realizasiya qilishga ruxsat etmaydigan hujjatlar, faoliyatni ruxsatnoma asosida olib borishni nazarda tutuvchi kabilar tushuniladi.

Bunday hujjatlar huquqni vujudga keltiradi, o'zgartiradi va bekor qilishi mumkin. Huquqlarni vujudga keltiruvchi hujjatlarga imtiyozlar beruvchi yoki ruxsat beruvchi lisenziyalarni kiritish mumkin, shuningdek, dotasiyalar, subsidiyalar, ssudalar ham shu guruh hujjatlariga kiradi.

Huquqlarni o’zgartiradigan hujjatlarga atrof mu-hitni muhofaza qiluvchi organlarning korxonalar faoliyatini cheklashga qaratilgan hujjatlarini kiritish mumkin.

Huquqlarni bekor qiladigan hujjatlarga nazorat hujjatlari kiradi. Tadbirkorlikni rivojlantirish xususiy mulk manfaatlarini muhofaza qilish, tadbirkorlik faoliyatiga davlat aralashuvini cheklash maqsadida nazorat qiluvchi organlar doirasida cheklanib, ularni nazorat qilishning qat`iy muddatlari ham belgilanib qo’yilmoqda.

Xo’jalik huquqining sub`ekti sifatida davlatning iqtisodiyotga ta`sir etishining yana bir usuli bu bozor mexanizmini tashkil etib, unda monopoliyaga yo’l qo’y-maslik, soliq tizimi orqali va har bir sub`ektining huquqini himoya qilish, iqtisodiy erkinliklarining kafolatlashni belgilashdan iborat.

Xo’jalik huquqi sub`ektlari tarkibida korxonalar alohida o’rin egallab, ular turli mulk shakllarida tashkil etilishi mumkin.

Korxonalarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatishning umumiy, ùuquqiy, iqtisodiy asoslari O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi[22], «Tadbir-korlik faoliyati erkinligining kafolatlari to’g’risida»gi[23], «Ijara to’g’risida»gi[24], «Chet el investisiyalari to’g’risi-da»gi[25], «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar ùuquq-larining kafolatlari to’g’risida»gi[26], «Mas`uliyati chek-langan va qo’shimcha mas`uliyatli jamiyat to’g’risida»gi[27], «qishloq xo’jaligi kooperativi (shirkat xo’jaligi) to’g’-risida»gi[28], «Fermer xo’jaligi to’g’risida»gi[29], «Dexqon xo’-jaligi to’g’risida»gi[30] kabi qonunlar bilan tartibga so-linadi.

Yuridik adabiyotlarda korxonaning quyida ta`kidlangan belgilari to’g’risida so’z boradi. Bular quyidagilar bo’lib, birinchidan, mulk ùuquqi yoki xo’jalik yuritish ùu-quqi asosida o’z xodimlarining kuchi bilan ishlab chiqa-rish-xo’jalik faoliyatini amalga oshiradi, ikkinchidan, mustaqil reja asosida talab va taklifni e`tiborga olib davlat eùtiyojlari uchun maùsulot ishlab chiqarish, ish ba-jarish, xizmat ko’rsatish bo’yicha faoliyat yuritadi, uchin-chidan, o’z mulkiga, xo’jalik yuritish yoki operativ bosh-qaruvda aloùida mol–mulkka ega bo’ladi, to’rtinchidan, ùu-quqiy munosabatlarda mustaqil sub`ekt sifatida qat-nashadi va yuridik shaxs ùuquqidan foydalanadi[31].

Amaldagi fuqarolik qonun hujjatlari mazmuniga nazar tashlanadigan bo’lsa, korxona tushunchasi ikki xil ma`noda, ùuquq sub`ekti va ùuquq ob`ekti sifatida tushuniladi. O’zbekiston Respublikasida bozor munosabatlari tarkib topgunga qadar

---

[22] Ызбекистон Республикасининг Фу=аролик кодекси. – Т.: Адолат. 1996

[23] Хал= сызи – 2000 йил – 15 июнь.

[24] Ызбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси – 1992 йил,1-сон, 45 – модда

[25] Ызбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси – 1998 йил, 5-6-сонлар, 91 - модда

[26] Ызбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномси-1996 й., 5-6-сонлар, 61-модда

[27] «Хал= сызи» газетаси, 2002 й., 17 январь, 12-сон

[28] Ызбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномси-1998 й., 5-6-сонлар, 84-модда

[29] Ызбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномси-1998 й., 5-6-сонлар, 86-модда

[30] Ызбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномси-1998 й., 5-6-сонлар, 88-модда

[31] +аранг: Тадбиркорлик щу=у=и: (Умумий =исм): Дарслик (Тащририят щайъати: Щ.Ращмон=улов, Ш.Рызиназаров, М.Ниёзов ва бош=.; Масъул мущаррир: Ш.Рызиназаров. –Т.: «Консаудтинформ», 2002.,60-бет., Мартемьянов В.С. Хозяйственное право. Том 1. Общие положения. Курс лекций-М.: Издательство БЕК, 1994, 70-75-бетлар., Суханов Е.А. Система юридических лиц // Государство и право, 1981 йил,11-сон, 42-50 бетлар; Караходжаева Д. О юридических лицах и их имущественных правомочиях //Давлат ва щу=у= -2000 йил, 1-сон, 34 бет; Тыраев А. Юридик шахсларнинг щу=у= лаё=ати – 1999 йил,5-сон, 37- бет.

amal qilib kelgan fuqarolik qonun hujjatlarida korxona faqatgina huquq sub`ekti ma`nosida tushunilib kelingan, chunki korxonani mol-mulk kompleksi sifatida bitimlar predmeti bo'lishi qonun bilan ta`qiqlangan. Yangi Fuqarolik Kodeksida korxona ikki xil ma`noda ifoda qilingan, ammo ta`kidlash joizki, korxona hali ùuquq ob`ekti sifatida olimlar tomonidan ilmiy tarzda lozim darajada o'rganilmagan. Shu vaqtga qadar, haqiqatan "korxonani ùuquq ob`ekti sifatida tavsiflash yuridik adabiyotlarda munozarali masalalardan biri bo'lib keldi"[32], ammo so'nggi yillarda ùuquqshunos olimlar tomonidan korxonaning ùuquq sub`ekti sifatidagi tushunchasi va moùiyatiga katta e`tibor berilmoqda[33].

Korxona ùuquq va muomala layoqatining mazmunini yoritishda uning mulk ùuquqi ob`ekti sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarni ochib berish nafaqat nazariy jiùatdan, balki amaliy nuqtai nazardan muùim aùamiyatga egadir.

Butun korxona mol-mulk kompleksi sifatida ko'chmas mulk ùisoblanar ekan, korxona egasi o'zlariga tegishli bo'lgan bunday ob`ektga nisbatan nafaqat mulk ùuquqi sub`ekti sifatida, balki mulk ùuquqi ob`ekti sifatida munosabatda bo'ladilar. Endilikda korxonani sotish va sotib olish mumkin, chunonchi korxona oldi-sotdi shartnomasining predmeti bo'lib ùisoblanishi mumkin. Amaldagi fuqarolik qonun hujjatlariga binoan butun korxona yoki uning qismi oldi-sotdi, garovga qo'yish, ijara ùamda ashyoviy ùuquqlarni belgilash, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq bitimlarning ob`ekti bo'lish bilan bir qatorda uni mol-mulkni ishonchli boshqarish ùuquqini beruvchi shartnoma asosida boshqa shaxslarga mulkni bosh-qarish vakolatini berib qo'yishi mumkin.

Xo'jalik ùuquqi sub`ektlari ichida korxonalar uyushmalari (ittifoq) va o'zga birlashmalari ùamda ularning filial va vakolatxona, bo'linmalarining ùuquqiy maqomi (statusi) o'ziga xos bo'lib, mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirishda ularning o'rni beqiyosdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta`kidlaganidek, o'tish davrida uyushmalar, konsernlar, korporasiyalar va boshqa birlashmalarning asosiy vazifasi respublika xalq xo'jaligini ishlab chiqarilayotgan mahsulotning aniq turlari bilan ta`minlash, yagona ilmiy-texnikaviy va investisiya siyosatini o'tkazish, ichki va tashqi bozorlar kon`yukturasini o'rganish, tarmoqda bozor munosabatlarini rivojlantirishdir. Shuningdek, ularning vazifasi davlat korxonalari hamda tashkilotlarini nodavlat mulkiga aylantirish ishlarini tashkil etish, tadbirkorlikni rivojlantirishni butun choralar bilan qo'l-lab-quvvatlashdan iboratdir. Bulardan tashqari, xo'ja-lik birlashmalari o'z muassislarini huquqiy himoya qi-lishni ta`minlaydi, davlat va mahalliy hokimiyat hamda boshqaruv organlarida ularning qonuniy manfaatlarini ifodalaydi, tarmoqni rivojlantirish strategiyasini bel-gilaydi.

---

[32] Якушев В.С. Юридическая личность государственного производственного предприятия. Свердловск. 1973. Ермошин Г.Н. Закон о государственном предприятии трудовой коллектив, администрация, работник, М.Московский рабочий. 1989.

[33] Тотьев К.Ю. Предприятие и его организационно-правовые формы // Государство и право. 1994, №10. 60-67 б; Зинченко С, Лапач В., Газарьян С. Парадоксы правосубъектности предприятий // Хозяйство и право, 1995 №1. 73 б; Медведев Д.А. Проблемы реализации гражданской правосубъектности государственного предприятия. Автореф. дисс… к.ю.н. Л.: 1990; Лаптев В.В. Предпринимательское право: понятие и субъекты. М. Юристь, 1997: Плиев Э.Г. Правовые проблемы предпринимательста в России. Цивилистический аспект. М.: Проспект, 1999; Бекмуродов Т. Ызбекистон Республикасида жамоа тадбиркорлиги асосидаги жамоа корхоналари // Хыжалик ва щу=у=, - 2000, - № 4-31б.

Biz quyi bo’g’in tashkilotlari va korxonalariga iqti-sodiy erkinlik berish, ularni davlat taziyqidan ozod qilish bilan yangicha ish uslubiga o’tdik. Korxonalar ishlab chiqarishni mustaqil tashkil etish, o’z maùsulotlarini sotish ùuquqini oldi. Shu bilan birga mulkchilikning turli shakllariga mansub korxonalarning xo’jalik yuritish shart-sharoitlari teng bo’lishi faqat ùuquqiy jiùatdan emas, balki amalda ùam ta`minlandi[1].

Tijorat tashkilotlari o’zlarining tadbirkorlik faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek mushtarak mulkiy manfaatlarini ifoda etish ùamda ùimoya qilish maqsadida notijorat tashkilotlar ùisoblanuvchi uyushmalar (ittifoqlar) va o’zga birlashmalarga birlashishlari mumkin.

Agar ishtirokchilarning qaroriga muvofiq uyushmaga (ittifoqqa) va o’zga birlashmaga tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanish vazifasi yuklatilsa, bunday uyushma (ittifoq) va o’zga birlashma ushbu Kodeksda nazarda tutilgan tartibda xo’jalik shirkati yoki jamiyatiga aylantirilishi kerak yoxud tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun xo’jalik jamiyatlari tuzishi yoki ularda ishtirok etishi mumkin. Notijorat tashkilotlari o’z faoliyatlarini muvofiqlashtirishi, shuningdek mushtarak manfaatlarini ifoda etish ùamda ùimoya qilish maqsadida uyushmalar (ittifoqlar) shaklida birlashmalar tuzishlari mumkin.

Uyushma (ittifoq) va o’zga birlashmalar yuridik shaxs ùisoblanadi. Uyushma (ittifoq) va o’zga birlashmalarning a`zolari o’z mustaqilliklarini va yuridik shaxs sifatidagi ùuquqlarini saqlab qoladilar. Uyushma (ittifoq) va o’zga birlashmalar o’z a`zolarining majburiyatlari bo’yicha javob bermaydi.Uyushma (ittifoq) va o’zga birlashmalarning a`zo- lari ularning majburiyatlari bo’yicha uyushma (ittifoq) va o’zga birlashmalarning ta`sis ùujjatlarida nazarda tu-tilgan miqdorda va tartibda subsidiar javobgar bo’ladilar.

Uyushma (ittif**o**q) va o’zga birlashmalarning nomi ularning asosiy faoliyatini ko’rsatishi, unga «uyushmasi» yoki «ittifoqi» so’zlari yoki birlashma turini ko’rsatadigan boshqa so’z kiritilgan bo’lishi kerak. qonun hujjatlarida yuridik shaxslar birlashmalari huquqiy mavqeining xu-susiyatlari belgilanishi mumkin. (Fuqarolik kodeksining 77-moddasi.)

Yuqorida korxonalarning ichki tuzilmalari (bo’limlari) ham xo’jalik huquqining sub`ektlari sifatida sanab o’tilgan edi. Korxona ichki tuzilmalari maqomi va uning korxona bilan munosabatlari munozarali tadqiq qilin-ganligini ta`kidlash joiz[34].

Korxona sex, ishlab chiqarish, xo’jalik, uchastka, brigada va boshqa ichki xo’jalik bo’linmalaridan iborat bo’lishi mumkin. Bular korxona tomonidan o’rnatilgan[35] o’zining ichki xo’jalik vakolatiga ega bo’lib, turli-tuman xo’jalik

---

[1] Каримов И. Ызбекистон и=тисодий ислощотларни чу=урлаштириш йылида. Т.: Ызбекистон, 1995, 84-85 б.

[34] Хозяйственное право. Общие положения. Под ред. В.В.Лаптева М.; Изд-во Наука, 1983, 64-65 б; В.К. Андреев. Правосубъектность хозяйственных органов: сущность и реализация. М: Изд-во Наука. 1996, 108-114 б; Макарова Е.В. Правовые положение внутрипроизводственных структурных подразделений государственных предприятий промышленности в условиях перехода к рыночным отношениям. Автореф. дисс… к.ю.н. М.: 1991. Черняев Г. Внутрихозяйственные отношения в сельскохозяйственных предприятиях и межфермерская кооперация. // АПК: Экономика и управление. 1995. № 2. 65 б; +ишло= хыжалик щу=у=и. Масъул мущаррирлар. Х.Р. Ращмон=улов, М.Б. Усмонов. Т.: И=тисодиёт ва щу=у= дунёси нашриёт уйи – 2000 – 184-б.

[35] Ички хыжалик былинмаларининг ваколатлари корхона томонидан ишлаб чи=илган былимлар ща=идаги Низомда белгилаб =ыйилади. Унда былинмаларнинг бош=а ички былинмалар фаолияти билан бо\ли= ички хыжалик щу=у=ий муносабатларига киришиш ва бундай щу=у=ий муносабатларсиз амалга ошириладиган

ùuquqiy munosabatlarda ishtirok etadi, ayniqsa, bozor munosabatlari takomillashib borayotgan hozirgi sharoitida bu kabi ùuquqiy munosabatlarning moùiyati, mazmuni o'z-garib bormoqda. Chunonchi, korxonalar tarkibida mustaqil yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan kichik, sho'`ba korxonalar, vakolatxonalar va boshqa ichki tuzilmalarni tashkil etil-moqda. Korxonaning xo'jalik va boshqa tusdagi faoliyati uchun u joylashgan manzildan boshqa joyda vakolatxona va filiallar tashkil etilishi mumkin. Filial vakolatxonadan farqli ravishda yuridik shaxsning ùamma yoki qisman vazifalarini amalga oshirishga ùaklidir.

Vakolatxona hamda filiallar yuridik shaxs ùisoblanmaydi va ularga korxona mol-mulkining bir qismi biriktiriladi. Uning raùbari ishonchnoma asosida yuridik shaxsning nomidan va uning manfaatlarini ko'zlab qatna-shadi. Filial va bo'limlar yuridik shaxs sifatida ta`sis etilsa, uning nomida «filial» va «bo'lim» atamalaridan foydalanmaslik lozim. Umumiy qoidagi ko'ra, yuridik shaxsning majburiyatlari bo'yicha nizo vujudga kelgan taqdira, da`vo talabi va e`tirozlar filial va vakolatxona nomidan bildirilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudining 1999 yil 5 fevraldagi «Xo'jalik sudlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining javobgarlik to'g'-risidagi qoidalarini qo'llashning ayrim masalalari ùaqi-da»gi[36] 77-sonli qarorining 15-bandiga asosan yuridik shaxs ùisoblanmagan aloùida bo'linma (vakolatxona, filial) faqatgina yuridik shaxs nomidan da`vo qilishi mumkin. Ish bo'yicha ùujjatlar da`vo arizasida ko'rsatilgan pochta manziliga yuboriladi.

Nizoning sudlovga tegishliligi yuridik shaxsning emas, balki aloùida bo'linmaning joylashgan joyi orqali belgilanadi. Aloùida bo'linmaning raùbari tomonidan imzolangan da`vo arizasiga uning yuridik shaxs nomidan da`vo arizasini imzolash vakolatini tasdiqlovchi yuridik shaxsning ishonchnomasi ilova qilinishi kerak. Shunday vakolatnoma bo'lmagan taqdirda Xo'jalik prosessual kodeksining 118-modda 2-qismiga binoan da`vo arizasi ko'rmasdan qaytariladi. Ta`kidlash joizki, filial va vako-latxona yuridik shaxsning boshqa ichki xo'jalik tuzil-malariga (bo'lim, sex va boshqalar) o'xshash bo'lsa-da, ular-dan farqli xususiyati shuki, u yuridik shaxsning u turgan erdan tashqarida joylashgan aloùida bo'linmasi ekanli-gidadir.

O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan «Chet el investisiyalari to'g'risida»gi qo-nunining 7- moddasiga asosan, chet el investisiyalari ish-tirokidagi korxona O'zbekiston Respublikasi qonun ùuj-jatlarining talablariga rioya etgan ùolda O'zbekiston Res-publikasi ùududida yuridik shaxs ùuquqiga ega bo'lgan sho'`-ba korxonalar, filiallar, shuningdek yuridik shaxs bo'l-magan vakolatxonalar va boshqa aloùida bo'linmalar tashkil etishi mumkin. Filial ùamda vakolatxona faoliyati uchun javobgarlik ularni tuzgan jamiyat zimmasida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maùkamasining 1997 yil 2 iyulda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalarni ùuquqiy ekspertizadan, davlat ro'yxatidan o'tkazish va tugatish tartibi to'g'risida»gi Nizomga ko'ra, bosh korxonasi Respublika tashqarisida joylashgan va

---

щуу= ва мажбуриятлар белгиланади. Баъзан корхона томонидан чи=ариладиган бош=а норматив щу=у=ий щужжатларда былинмаларнинг ваколатлари мустащкамланиши мумкин.

[36] Ызбекистон Республикаси Олий суди ва Олий хыжалик суди Пленуми =арорларининг тыплами, Нукус, «Билим» нашриёти, 2000. 224 б.

xo’jalik faoliyatini amalga oshiradigan sho’’ba korxonalari va filiallar, O’zbekiston Respublikasi ùududida faoliyat ko’rsatayotgan xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalarning sho’’ba korxonalar va filiallari ùam xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalar jumlasiga kiradi. Umumiy qoidaga ko’ra, muassis sho’’ba korxona ustavini tasdiqlaydi, uning raùbarini tayinlaydi va sho’’ba korxonaga nisbatan O’zbekiston Respublikasi qonun ùujjatlarida nazarda tutilgan mulk egasining boshqa ùuquqlarini amalga oshiradi. Sho’’ba korxona bosh korxonaning majburiyatlari bo’yicha javob bermaydi, bosh korxona esa o’zining sho’’ba korxonalari majburiyatlari bo’yicha javob beradi.

Sho’’ba korxona o’z faoliyatini ta`sischi bergan vakolat doirasida amalga oshiradi. Sho’’ba korxonasi qarzlari yuzasidan ta`sischi javobgar bo’lmaydi. Sho’’ba korxonasining sinishiga ta`sischi (mulkdor)ning faoliyati sabab bo’lganda kreditorlarning talabini qanoatlantirishga sho’’ba korxonaning mablag’i etarli bo’lmasa, uni ta`sischi (mulkdor) qanoatlantiradi. Sho’’ba korxonasiga biriktirilgan mulk hisobidan qarzlar qanoatlantirilishga ta`-sischining qarzlari yuzasidan faqat sho’’ba korxonasining kreditorlari talabi qanoatlantirilgandan keyingina hamda sho’’ba korxona tugatilishidagina yo’l qo’yiladi.

5-§. Xo’jalik (tadbirkorlik) huquqi sub`ekti sifatida korxonalarning ayrim turlari: unitar korxonalar; aksiyadorlik jamiyatlari; ishlab chiqarish kooperativlari; xo’jalik shirkati; mas`uliyati cheklangan va qo’shimcha mas`uliyatli jamiyatlar.

A) Aksiyadorlik jamiyatlari

Aksiyadorlik jamiyati to’g’risidagi umumiy qoidalar, aksiyadorlik jamiyati tuzish, Ustav fondi, jamiyatning aksiyalari, obligasiyalari va boshqa qimmatli qog’ozlari, jamiyatning sof aktivlari, aksiyalar va qimmatli qog’oz-larni tarqatish hamda joylashtirish, aksiyadorlar reestri va aksiyalarni saqlash, dividendlar, aksiyadorlik jami-yatini boshqaruvchi organlari, jamiyatning yirik bitim-lar tuzishi, uni qayta tashkil etish va tugatish, hisob-kitob va jamiyat faoliyatini nazorat qilish masalalari O’zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 aprelda qabul qilingan «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to’g’risida»gi qonuni va boshqa qonun hujjatlarida o’z aksini topgan. Ustav fondi ja-miyatning aksiyadorlarga nisbatan majburiyatlarini tas-diqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan xo’-jalik yurituvchi sub`ekt aksiyadorlik jamiyati hisobla-nadi.

Jamiyat yuridik shaxs hisoblanadi va o’zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka ega bo’ladi, o’z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da`vogar va javobgar bo’lishi mumkin. Ak-siyalarni chiqarish hamda ularni muomalaga kiritish- aksiyadorlik jamiyatining asosiy jihati bo’lib, bu uni boshqa tijoratchi yuridik shaxslardan farqlab turadi. Mazkur xususiyat aksiyadorlik jamiyatini boshqa tijoratchi yuridik shaxslarga nisbatan muayyan darajada ustunlikka ega ekanligidan ham dalolat beradi, ayniqsa ochiq ak-siyadorlik jamiyatida bu yaqqol namoyon bo’ladi. Ushbu us-tunliklar asosan quyidagilardan, chunonchi kapital kirib

kelishining cheklanmaganligi, uning erkin harakati, fao-liyatning barqarorligi, javobgarlikning cheklanganligi hamda professional boshqaruv va boshqalarda namoyon bo’-ladi.

Ochiq aksiyadorlik jamiyatida kapital to’planishini oddiy mexanizmi mavjud, ya`ni investorlarning mablag’lari aksiyalarni chiqarish yo’li bilan jalb etiladi va eng muhimi jamiyat ishtirokchilarining soni cheklanmagandir.

Ochiq aksiyadorlik jamiyati aksiyalarning egalari ularni erkin ravishda sotishlari yoki sotib olishlari mumkin, bu jamiyatning faoliyatiga aslo ta`sir etmaydi hamda bu uchun jamiyatning boshqa ishtirokchilarining ro-ziligi talab qilinmaydi. Bunda kapital tadbirkorlik-ning bir faoliyati sohasidan boshqasiga hech qanday qi-yinchiliksiz o’tishi mumkin, boshqa tijoratchi tashki-lotlarda esa kapitalni erkin aylanishi muayyan darajada cheklangan.

Aksiyadorlik jamiyatining asosiy ustunligi uning faoliyatini barqarorligidadir. Masalan, to’liq shirkatdan to’liq sherikni chiqib ketishi shirkatni tugatilishiga, ma`suliyati cheklangan jamiyatdan esa uning ishtirokchisini chiqib ketishi ustav kapitalining sezilarli darajada kamayishiga sabab bo’ladi. Aksiyador esa jamiyatdan chiqib ketayotganda jamiyatdan hech qanday mol-mulk talab qil-maydi, balki o’ziga tegishli bo’lgan aksiyani boshqa shaxsga sotib yuborib, o’z ulushini oladi.

Aksiyadorlik jamiyatida ishtirokchilarni jamiyat majburiyatlari bo’yicha javobgarligining o’ziga xos ko’rinishi mavjud. Agar jamiyat zarar ko’rsa, aksiyador faqat-gina aksiya sotib olish uchun sarflagan mablag’ini yo’qotadi, xolos. Ishtirokchining cheklangan javobgarligi hamda ak-siyalarni sotib yuborish orqali aksiyadorlik jamiyatidan erkin ravishda istalgan vaqtda chiqib ketishi aksiyadorlik jamiyatiga kapitalni jalb etishni osonlashtiradi.

Aksiyadorning mulki aksiyadorlik jamiyatining mul-kidan butunlay ajratilgan. Shuning uchun aksiyadorning kreditorlari va uning majburiyatlari bo’yicha talabni ja-miyat mulkiga qarata olmaydilar, biroq aksiyadorning ak-siyasiga qaratishlari mumkin.

Aksiyadorning jamiyat majburiyatlari bo’yicha javobgarligini cheklanganligi ma`suliyati cheklangan jamiyat kabi ularning kreditorlari manfaatlari himoyasini aso-siy kafolati bo’lgan ustav fondining ahamiyatini oshiradi.

Ochiq aksiyadorlik jamiyatida aksiyadorlarni jamiyatning kundalik boshqaruv faoliyatida ishtirok etishi talab etilmaydi. Aksiyadorlik jamiyatida xo’jalik shirkatidan farqli ravishda mulk bilan boshqaruv bir-biridan ajratilgan. Aksiya egasi jamiyatning kundalik boshqaruvida ishtirok etishi uchun vaqti bo’lmasligi yoki etarli darajada malakaga ega bo’lmasligi mumkin. Shuning uchun ham jamiyat maxsus bilim hamda malakaga ega bo’lgan shaxslar tomonidan boshqariladi.

Aksiyadorlik jamiyati uni yangidan ta`sis etish yoki mavjud yuridik shaxsni qayta tashkil etish orqali tashkil etilishi mumkin. Yuridik hamda jismoniy shaxslar ja-miyatning muassilari bo’lishi mumkin. Jamiyat yakka shaxs tomonidan ham ta`sis etilishi mumkin.

Agar aksiyadorlik jamiyati ikki yoki undan ortiq shaxs tomonidan tashkil etilsa, muassislar o’rtasida ta`sis shartnomasi tuziladi. Shartnomada ularning jamiyatni ta`sis etish borasida birgalikda faoliyat ko’rsatish tartibi, jamiyat ustav fondining miqdori, muassislar o’rtasida joylashtirilishi kerak bo’lgan aksiyalarning

xillari va turlari, ular uchun to’lanadigan xaq miqdori va bu xaqni to’lash tartibi, muassislarning jamiyatni tuzishga doir huquq va majburiyatlari belgilab qo’yiladi.

Jamiyat muassislari jamiyat davlat ro’yxatidan o’tkazilgunga qadar uning tuzilishi bilan bog’liq majburiyatlar yuzasidan solidar javobgar bo’ladilar. Jamiyatni ro’yxatdan o’tkazish yig’imi, ta`sis hujjatlarini tayyorlash bilan bog’liq xizmatlar, muhr va aksiyalarning sertifikatlarni tayyorlash uchun sarflangan mablag’lar hamda jamiyatni ro’yxatdan o’tkazish bilan bog’liq boshqa harajatlar aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish bilan bog’liq harajatlar kiradi. Jamiyat muassislarining uni tuzish bilan bog’liq bo’lgan majburiyatlari yuzasidan faqat ularning harakatlari keyinchalik aksiyadorlarning umumiy yig’i-lishida ma`qullangan taqdirdagina javobgar bo’ladi.

Jamiyatning ustavi uning muassislari yoki muassisi tomonidan tasdiqlanadi. Agar jamiyat ikki yoki undan ortiq
shaxslar tomonidan tashkil etilayotgan bo’lsa, uning ustavi muassislarning ta`sis yig’ilishida tasdiqlanadi. Ta`sis yig’ilishi qarorlarini oddiy ko’pchilik ovoz bilan qabul qiladi. Ta`sis shartnomasini o’zgartirish to’g’risidagi qa-rorlar qabul qilinayotganda esa barcha muassislarning roziligi talab etiladi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq chiqariladigan aksiyalar davlat ro’yxatidan o’tkazilishi lozim. Davlat ro’yxatidan o’tkazilmay chiqarilgan aksiyalar ularning egalaridan majburiy ravishda olib qo’yiladi, qimmatli qog’oz-larni sotishdan to’plangan pul emitentdan olinib, aksiya egalariga qaytariladi hamda emitentga nisbatan qonun hujjatlarida ko’rsatilgan muayyan sanksiyalar qo’llaniladi.

Jamiyatning ustav fondi aksiyadorlar sotib olgan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi. Jamiyat chiqaradigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo’lishi lozim. Jamiyat ta`sis etilayotganda uning barcha aksiyalari muassislar o’rtasida joylashtirilgan bo’-lishi kerak. Aksiyalar haqining hammasini to’lamagan ak-siyadorlar jamiyat majburiyatlari yuzasidan o’zlariga te-gishli aksiyalar qiymatining to’lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo’ladilar.

Jamiyatning ustav fondi uning mol-mulkining o’z kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan darajadagi eng kam miqdorini belgilaydi. Hozirgi paytda ochiq tur-dagi jamiyat ustav fondining eng kam miqdori jamiyat ro’yxatdan o’tkazilgan paytda eng kam ish xaqining besh yuz baravar summasidan, yopiq aksiyadorlik jamiyatida esa eng kam ish xaqining ikki yuz baravar summasidan kam bo’lmasligi kerak.

Jamiyatning ustav fondi aksiyalar nominal qiymatini oshirish yoki qo’shimcha aksiyalarni joylashtirish yo’li bi-lan ko’paytirilishi mumkin. Jamiyat ustav fondini ko’paytirish to’g’risidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yi-g’ilishi tomonidan qabul qilinadi, biroq mazkur vakolat umumiy yig’ilish qaroriga muvofiq yoki ustav bo’yicha kuzatuv kengashiga ham berib qo’yilishi mumkin.

Jamiyatning ustav fondi aksiyalarning nominal qiy-matini yoki ularning umumiy sonini qisqartirish yo’li bilan, shuningdek aksiyalarning bir qismini jamiyatning o’zi keyinchalik muomaladan chiqarish sharti bilan sotib olish orqali kamaytirilishi mumkin. Jamiyatning ustav fondini kamaytirishning eng muhim shartlaridan biri uning kreditorlarini xabardor qilishlikdir. Bunda kreditorlar jamiyatdan o’z majburiyatlarni muddatidan oldin ijro etishni va ustav fondi kamaytirilishi bilan bog’liq zararni talab qilishga haqli. Aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarning umumiy majlisi qarori bilan yoki qo-nunda ko’rsatilgan hollarda sud

qarori bilan qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin. Ochiq aksiyadorlik ja-miyatidan tashqari, tadbirkorlikni yopiq aksiyadorlik ja-miyati ko'rinishidagi tashkiliy – xuquqiy shakli ham mav-jud. Yopiq aksiyadorlik jamiyati ham asosan ochiq aksiya-dorlik jamiyatiga taalluqli qonun normalari bilan tar-tibga solinadi, biroq uni o'ziga xos jihatlari mavjud. Ochiq aksiyadorlik jamiyati o'zi chiqarayotgan aksiyalarga ochiq obuna o'tkazishi, aksiyador o'zlariga tegishli aksiya-larni boshqa aksiyadorlarning roziligisiz o'zga shaxslarga o'tkazishga haqli hamda unda ak-siyadorlarni soni cheklan-magandir. Aksiyadorlik jamiyatining ochiqligi uni har yili o'z aksiyadorlariga jamiyatning yillik hisobotini, bux-galteriya balansini, foyda va zararlar hisob varag'ini ommaviy ravishda taqdim etishi shartliligidan ham kelib chiqadi.

Yopiq aksiyadorlik jamiyatida aksiyalar oldindan belgilangan doiradagi shaxslar orasida taqsimlanadi. Bunda jamiyat o'zi chiqarayotgan aksiyalarga ochiq obuna o'tkazishga yoxud ularni cheklanmagan doiradagi shaxslarga sotib olish uchun boshqacha tarzda taklif etishga xaqli emas. Yopiq jamiyat aksiyadorlarining soni ellik nafardan ziyod bo'lishi mumkin emas. Belgilangan chegaradan ortib ketgan taqdirda, u bir yil davomida ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilishi, ushbu muddat tugagach, aksiyadorlar soni belgilangan miqdorgacha kamaymasa, sud yo'li bilan tugatilishi lozim. Demak, yopiq aksiyadorlik jamiyati kichik va o'rta biznesni tashkil etish yoki bo'lmasa ishtirokchilar tomonidan jamiyatning ishini yuritishi bilan bog'liq ma`-lumotlarni sir tutilishini ta`minlash maqsadida tuziladi.

b) Ishlab chiqarish kooperativlari

Ishlab chiqarish kooperativi xo'jalik shirkati kabi shaxslarning hamda ularning mulk bilan qo'shiladigan pay badallarini ixtiyoriy birlashmasi bo'lib, unda uning a`zolarini kooperativ faoliyatida shaxsan ishtirok etishi talab etiladi. Ishlab chiqarish kooperativida a`zolarning shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishi kooperativning asosiy belgisi bo'lib hisoblanadi. Agarda kooperativning ustavida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, daromad ham aynan a`zolarning qilgan mehnatiga muvofiq taqsim-lanadi. Chunki, xo'jalik jamiyatidan farqli ravishda ishlab chiqarish kooperativida birinchi o'rinda kapital emas, balki mehnat turadi.

Ishlab chiqarish kooperativida a`zo sifatida asosan jismoniy shaxslar ishtirok etishadi. Biroq qonunda va ishlab chiqarish kooperativining ta`sis hujjatlarida uning faoliyatida a`zolik asosida yuridik shaxslar ham ishtirok etishi nazarda tutilishi mumkin.

Kooperativning oliy boshqaruv organi bo'lib uning a`zolarning umumiy yig'ilishi hisoblanadi va uning mutlaq vakolatlariga quyidagilar kiradi:

-kooperativning ustavini o'zgartirish;

-kooperativning kuzatuv kengashi hamda ijroiya organlarini shakllantirish va bekor qilish;

-kooperativga a`zolikka qabul qilish va chiqarish;

-kooperativning yillik hisobotini, buxgalteriya balansini hamda daromad va zararlarni taqsimlanishini tasdiqlash;

- kooperativni qayta tashkil etish hamda tugatish.

Kooperativning mulki uning a`zolarini payidan iborat bo'ladi. Mulkning muayyan qismi kooperativning bo'linmas fondiga kiritilishi mumkin va u ustav bo'yicha belgilangan maqsadlar uchun sarflanadi. Pay shaxsning kooperativga a`zoligini bildiruvchi omildir. Uni boshqa shaxsga o'tkazish uchun a`zolarning umumiy yig'ilishini roziligi talab qilinadi, biroq kooperativ a`zolari payni sotib olishda imtiyozli huquqqa ega. Agarda kooperativning a`zosi vafot etsa, uning merosxo'ri unga a`zo bo'lib kirishi lozim, aks holda merosxo'rga unga tegishli bo'lgan payning qiymati to'lanadi.

Ishlab chiqarish kooperativida ham xo'jalik shirkatidagidek a`zolarning o'zgarishi qattiq nazorat qilinadi, ammo ishtirokchilar tarkibini o'zgarishi uni tugatish uchun asos bo'lmaydi. O'z majburiyatlarini bajarmagan yoki to'liq bajarmagan kooperativ a`zosi umumiy majlis qarori bilan a`zolikdan chiqarib yuborilishi mumkin. A`zolikdan chiqarish to'g'risidagi qaror ishtirokchilarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Ishlab chiqarish kooperativi uning a`zolari yoki sudning qarori bilan tugatilishi mumkin. O'zining huquqiy mavqeiga ko'ra ishlab chiqarish kooperativi xo'jalik shir-katiga o'xshab ketadi, biroq ichki munosabatlarni tartibga solishda muayyan darajada farqlar mavjud. Bu esa o'z navbatida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning tashkiliy – huquqiy shaklini ko'payishiga olib keladi.

v) Xo'jalik shirkati

Xo'jalik shirkatining xo'jalik jamiyatlaridan farqi shundaki, shirkat shaxslarning birlashuvini hamda ularni shirkat faoliyatida faol ishtirokini talab qilsa, xo'jalik jamiyatlarida mablag' (kapital) birlashtiriladi va unda ishtirokchilarning jamiyat faoliyatida shaxsan ishtiroki talab qilinmaydi. Ularning huquqiy mavqelarini belgilab berishda qonun chiqaruvchi aynan mana shu tamoyilga asoslangan. Xo'jalik shirkatining ustav kapitali xo'jalik jamiyatining ustav kapitalidan iqtisodiy hamda huquqiy jihatlari bilan farqlanadi. Xo'jalik shirkatida ustav kapitali uning ish faoliyatini boshlash uchun zarur bo'lsa, xo'jalik jamiyatida ustav kapitali uning kreditorlari oldidagi javobgarligining kafolatidir. Xo'jalik shirkatining ustav kapitali uning ta`sis hujjatlari ro'yxatga olish uchun berilgan vaqtda eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan kam bo'lmasligi zarur.

qonun xo'jalik shirkatining ustav fondini uning asosiy aktivlari bilan bevosita bog'lab qo'ygan. Agar shirkatning zarar ko'rishi natijasida uning asosiy aktivlari qiymati ustav kapitali miqdoridan kamayib ketsa, shirkat tomonidan olingan daromad uning a`zolari o'rtasida taq-simlanmaydi. Asosiy aktivlarning qiymati ustav kapitali miqdoridan oshgandagina daromadlar uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanishi mumkin. Shirkat kreditorlari manfaatlarining asosiy kafolati uning ishtirokchila-rining o'zlariga tegishli bo'lgan butun mol-mulklari bilan bo'lgan javobgarligidir.

Fuqarolik kodeksining 58-moddasida xo'jalik shir-kati quyidagi ikki xil shaklda mavjud bo'lishi mum-kinligi mustahkamlangan, bular to'liq shirkat va kommandit shirkatdir. Shirkat ishtirokchilari uning faoliyatida bevosita ishtirok etishlari shart, natijada mazkur fao-liyat shirkat ishtirokchilari harakatlarining birlash-masidan iborat bo'ladi, ya`ni ishtirokchilar shirkat no-midan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishadi.

To’liq shirkat Fuqarolik kodeksi hamda “Xo’jalik shirkatlari to’g’risida”gi qonunga muvofiq yuridik shaxs hisoblanadi.

Xo’jalik shirkati to’liq shirkat bo’lishligi uchun, uning ishtirokchilari o’z o’rtalarida tuzilgan shartnomaga muvo-fiq shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ul-lanishlari hamda uning majburiyatlari bo’yicha o’zlariga qarashli butun mol-mulki bilan javob berishlari lozim. To’liq shirkatning holati ishtirokchilarning soni uncha ko’p bo’lmagan tijorat tashkilotlariga ko’proq mos keladi. To’liq shirkatda uning ishtirokchilarining soni cheklanmagan, biroq uni ta`sis etish uchun kamida ikki ishtirokchi bo’-lishi shart. Agarda qandaydir sabablar tufayli to’liq shirkat faqatgina yagona ishtirokchidan iborat bo’lib qolsa, mazkur holat yuz bergan vaqtdan boshlab olti oy muddat ichida mazkur to’liq shirkatga yangi to’liq sheriklar qabul qilinib, u saqlab qolinishi yoki unga hissa qo’shuvchi a`zo topilib, u kommandit shirkatga aylantirilishi yoxud tuga-tilishi lozim. Mazkur holatda to’liq shirkat yagona ish-tirokchi bilan xo’jalik jamiyatiga aylantirilishi mum-kin. To’liq shirkatni ta`sis etish xo’jalik jamiyatini ta`sis etishdan ko’ra birmuncha osonroqdir, ammo to’liq shirkatning o’ziga xos “kamchiligi” mavjud. Bu, shirkat ishtirokchilarini shirkat majburiyatlari bo’yicha o’zlariga qarashli bo’lgan butun mol-mulklari bilan solidar tarzda, subsidiar tarzda javobgar bo’lishligidir. Demak, to’liq shirkatning qarzini qoplash uchun mol-mulki etarli bo’lmasa, undiruv shirkat ishtirokchilarining mulkiga qa-ratilishi mumkin. Xo’jalik jamiyatlarida esa ishti-rokchilar uning majburiyatlari bo’yicha faqatgina ustav kapitaliga qo’shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo’ladilar.

To’liq shirkat ishtirokchilari javobgarligining so-lidar xususiyati shundan iboratki, bunda shirkatning kre-ditori mulkiy talabni shirkat ishtirokchilarining bar-chasiga yoki bo’lmasa ularning istalgan biriga qo’yishi mum-kin.

To’liq shirkatning ishlarini boshqarish barcha ishti-rokchilarning o’zaro kelishuviga muvofiq amalga oshiri-ladi. Shirkatning ta`sis shartnomasida boshqa qoida na-zarda tutilgan bo’lmasa, shirkat faoliyati bilan bog’liq masalalarni hal etishda har bir ishtirokchi bitta ovozga ega bo’ladi, ya`ni ishtirokchilar ustav kapitaliga qancha hissa qo’shganligidan qat`iy nazar ular boshqaruvda tengdirlar.

Shirkatning ishtirokchisi undan o’z erki bilan chiqib ketishi mumkin. Cheklanmagan muddatga ta`sis etilgan to’liq shirkatdan uning ishtirokchilarini o’z xohishi bilan chiqib ketishini qonun man etmaydi. Ishtirokchi shirkatdan chiqib ketganligi to’g’risida hech kimga hisobot berishi shart emas, biroq u uch oy oldin bu haqda shirkatni xabardor qilishi lozim bo’ladi. Agarda to’liq shirkat muayyan muddatga tuzilgan bo’lsa, ishtirokchini undan muddatidan avval chiqib ketishiga uzrli sabab bo’lgandagina yo’l qo’yiladi. Uzrli sabablar ro’yxati esa ta`sis shartnomasida belgilab qo’-yilgan bo’lishi lozim.

To’liq shirkatning ishtirokchilari etarli asoslar mavjud bo’lganda o’z majburiyatlarini jiddiy ravishda buzayotgan hamda shirkat faoliyatida etarli darajada ishtirok etmayotgan sheriklarni sud orqali uning tarkibidan chiqarib yuborishlari mumkin.

To’liq shirkatning huquqiy holatining asosiy xususiyatlaridan biri shuki, undan chiqib ketayotgan ishtirokchilar chiqib ketayotgan yil uchun hisobot tasdiqlangan

vaqtdan boshlab ikki yil ichida shirkatning majburiyatlari bo'yicha boshqa ishtirokchilar bilan bir qatorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo'lishadi.

Ulushni o'tkazish yoki merosni qabul qilish tufayli to'liq shirkatga qabul qilingan ishtirokchilar uning avvalgi majburiyatlari bo'yicha boshqa ishtirokchilar bilan bir qatorda javobgar bo'ladilar. To'liq shirkat ta`sis etilgandan so'ng unga a`zo bo'lgan ishtirokchi faqatgina u sherik bo'lib kirgan vaqtdan boshlab vujudga kelgan majburiyatlar uchun javobgar bo'ladi.

To'liq shirkat qonun hujjatlariga muvofiq ravishda qayta tashkil etiladi. To'liq shirkat qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar vujudga kelgan taqdirda, shuningdek u yagona ishtirokchidan iborat bo'lib qolgan hol-larda tugatiladi.

Shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan hamda shirkatning majburiyatlari bo'yicha o'zlarining butun mol-mulklari bilan javob beradigan ishtirokchilar (to'liq sheriklar) bilan bir qatorda shirkat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlari qo'shgan hissalar doirasida javobgar bo'ladigan hamda shirkat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda qatnashmay-digan bir yoki bir necha ishtirokchilar (hissa qo'shuvchi, kommanditchi) mavjud bo'lsa, bunday shirkat kommandit shirkat hisoblanadi.

Kommandit shirkat o'zining huquqiy xususiyatlari bilan ham to'liq shirkatga, ham xo'jalik jamiyatlariga o'xshab ketadi. Shuning uchun uni to'liq shirkat bilan xo'jalik jamiyati oralig'idagi yuridik shaxs desa ham bo'ladi. Shuning uchun ham to'liq sheriklar bilan bog'liq munosabatlar to'liq shirkatga oid normalar bilan tartibga solinadi. Kommandit shirkatni ham to'liq shirkat kabi ishtirokchilarning soni uncha ko'p bo'lmagan tijorat tashkilotlariga o'xshatish mumkin. Bunda ishtirokchilarning eng kam miq-dori ikki shaxs (bitta to'liq sherik, bitta kommanditchi)dan iborat, eng ko'p miqdori esa qonun bilan cheklanmagan. Kommandit shirkatdagi to'liq sheriklar to'liq shirkat-dagidek shirkatning nomidan xo'jalik faoliyatini amalga oshirishadi.

Kommandit shirkatning ta`sis shartnomasi uning ta`-sis hujjati bo'lib hisoblanadi. Ta`sis shartnomasida shirkatning xo'jalik faoliyatiga oid quyidagi masalalarning barchasi yoritilgan bo'lishi lozim:

-kommandit shirkat tuzilayotganligi, uning maqsadi va faoliyat muddati;

-muassislarning tarkibi;

-shirkatning firma nomi va pochta manzili;

-ustav fondining miqdori hamda uni tashkil etish tartibi;

-har bir ishtirokchi ulushining miqdori;

-ishtirokchilar tomonidan ulushni kiritish tartibi, miqdori va tarkibi;

-shirkat ustav fondini kamaytirish yoki ko'paytirish tartibi;

-shirkat faoliyatini boshqarish tartibi;

-daromadni hamda zararni taqsimlash tartibi va qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa shartlar.

Kommanditchilar shirkat faoliyatini boshqarishga hamda uning nomidan faoliyat ko'rsatishga haqli emaslar. Shirkat nomidan vakolatnoma berilgan hollar esa bundan mustasno, shuning uchun ham kommanditchilar shirkat faoliyatida passiv ishtirok etadilar. Biroq kommanditchi to'liq shirkatga nisbatan muayyan ustunliklarga ega, ya`ni birinchidan, uning shirkat majburiyatlari buyicha javobgarligi qo'shgan

hissasi bilan cheklangan bo’lsa; ikkinchidan, shirkat tugatilayotganda kreditorlarning talabi qondi-rilgach, kommanditchilarning ham talabi qondiriladi.

Agar kommandit shirkatning firma nomiga kommanditchining nomi qo’shilgan bo’lsa, u to’liq sherikka aylanadi hamda o’ziga tegishli bo’lgan barcha mol-mulklari bilan shirkat majburiyatlari bo’yicha javobgar bo’ladi.

Yuqorida kommandit shirkat ayrim xususiyatlari bilan xo’jalik jamiyatiga o’xshab ketishligi aytilgan edi. Bu erda kommanditchini xo’jalik jamiyati a`zosi yoki aksiyadordan farqini bilib olish katta ahamiyat kasb etadi. Agarda xo’jalik jamiyatining ishtirokchi (aksiyador)lari umumiy majlis orqali jamiyat boshqaruvida ishtirok etishsa, kommanditchi esa, shirkat boshqaruvida ishtirok eta olmaydi, balki uning faoliyatini nazorat qiladi, xolos.

Kommandit shirkat kommanditchilarning barchasi undan chiqib ketganda yoki bo’lmasa to’liq shirkatni tugatish uchun asos bo’lgan holatlar vujudga kelganda tugatilishi mumkin. Kommandit shirkatda kommanditchilar qolmaganda, u to’liq shirkatga aylantirilishi mumkin. Shuning uchun Fuqarolik kodeksining 58-moddasida yakka tadbirkorlar va (yoki) tijoratchi tashkilotlar to’liq shirkatlarning ishtirokchilari hamda kommandit shirkatlarda to’liq shirkatlar bo’lishlari mumkinligi ko’rsatilgan, chunki aynan ular tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanishlari mumkin. Mazkur talab O’zbekiston Respublikasining «Xo’jalik shirkatlari to’g’risida»gi qonunida ham o’z aksini topgan.

g) Mas`uliyati cheklangan jamiyat

Mas`uliyati cheklangan jamiyat deb, bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta`sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta`sis hujjatlari bilan belgilab qo’yilgan miq-dorlardagi ulushlarga bo’lingan jamiyat tan olinadi. Mas`-uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning maj-buriyatlari bo’yicha javobgar bo’lmaydilar va jamiyat fao-liyati bilan bog’liq zarar uchun o’zlari qo’shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo’ladilar. Mas`uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek “mas`uliyati cheklangan” degan so’zlarni o’z ichiga olishi kerak. Mas`uliyati cheklangan jamiyatda:

-jamiyat muassislarning majburiyatlari bo’yicha ja-vobgar emas;

-jamiyatning o’z hissasini to’la qo’shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo’yicha har bir ishtirokchi hissasining to’lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo’ladilar. Mazkur qoidaga ko’ra kreditorlar o’z hissasini to’liq qo’shmagan ishtirokchilardan ustav fondiga qo’yilmagan miqdordagi ulushini talab qi-lishga haqli;

- mas`uliyati cheklangan jamiyatning ustav kapitalini minimal miqdori O’zbekiston Respublikasining “Mas`uliyati cheklangan va qo’shimcha mas`uliyatli jamiyatlar to’g’-risida” gi qonuni bilan belgilanadi va u jamiyat ro’yxatga olinadigan vaqtda eng kam oylik ish haqining ellik bara-varidan kam bo’lmasligi lozim;

- ustav kapitaliga ishtirokchilari tomonidan muayyan qiymatga ega bo’lgan mulk ulushi sifatida qo’shilganda, uning qiymati jamiyat ishtirokchilarining umumiy majlisi tomonidan aniqlanadi;

- jamiyatni ro’yxatga olish vaqtida har bir ishtirokchi ta`sis hujjatida ko’rsatilgan o’z ulushining kamida o’ttiz foizini to’lab qo’ygan bo’lishi kerak. Jamiyat ro’yxatga olingach, bir yil ichida ishtirokchilar ulushining qolgan qismini to’lashlari lozim;

- agarda belgilangan bir yil muddat ichida ustav ka-pitali muassislar tomonidan to’liq shakllantirilmagan bo’lsa, jamiyat o’z ustav fondini kamaytirishini e`lon qi-lishi yoki o’zini tugatishi lozim;

-mas`uliyati cheklangan jamiyatni ustav fondini oshi-rish uchun uning ishtirokchilari o’z ulushlarini to’liq ra-vishda qo’shgan bo’lishlari lozim;

-jamiyat ro’yxatga olingandan so’ng ikkinchi va undan keyingi moliya yillarda uning asosiy aktivlarining qiy-mati ustav kapitali miqdoridan kamayib ketsa, jamiyat ustav kapitalining kamaytirilishini e`lon qilishi hamda uni belgilangan tartibda ro’yxatdan o’tkazishi lozim;

- agarda jamiyatning asosiy aktivlari qiymati qonun bilan belgilab qo’yilgan ustav fondining minimal miq-doridan kamayib ketsa, jamiyat tugatilishi lozim;

- jamiyat ustav kapitalini kamaytirish uchun dastlab o’z kreditorlarini bu haqda yozma ravishda ogohlantirishi lozim, bundan maqsad kreditorlarning manfaatini himoya qilishdir.

Yuridik va jismoniy shaxslar mas`uliyati cheklangan jamiyatning muassislari bo’lishlari mumkin. qonun bilan ayrim toifadagi jismoniy shaxslarni yoki jamiyatda ishtiroki ta`qiqlanishi yoki cheklanishi mumkin. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari jamiyatda ishtirokchi bo’-lish huquqiga ega emaslar, biroq qonun hujjatlarida boshqacha tartib ham belgilanishi mumkin. Jamiyat bitta shaxs tomonidan ham ta`sis etilishi mumkin va u jamiyatning yagona ishtirokchisi bo’lib qoladi. Bir nechta ishtirokchilar tomonidan ta`sis etilgan jamiyat, keyinchalik yagona ishtirokchidan iborat bo’lgan jamiyat sifatida ham faoliyat ko’rsatishi mumkin. Bitta ishtirokchi (jismoniy shaxs) dan iborat bo’lgan xo’jalik jamiyati boshqa jamiyatining yagona ishtirokchisi bo’la olmaydi.

Mas`uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilarining soni ellik nafardan ortib ketmasligi lozim. Agar ishtirokchilarning soni yuqoridagi miqdordan ortib ketsa, ja-miyat bir yil ichida aksiyadorlik jamiyatiga yoki ishlab chiqarish kooperativiga aylantirilishi lozim. Agar belgilangan muddatda jamiyat qayta tashkil etilmasa yoki undagi ishtirokchilarning soni kamaytirilmasa, jamiyat sud orqali tugatiladi.

Ta`sis shartnomasi hamda ustav mas`uliyati cheklangan jamiyatning ta`sis hujjatlari bo’lib hisoblanadi. Agar jamiyat yagona shaxs tomonidan ta`sis etilsa, uning ustavi ta`sis hujjati sifatida qabul qilinadi. Mas`uliyati cheklangan jamiyatning ta`sis hujjatlarida barcha yuridik shaxslar uchun umumiy bo’lgan ma`lumotlardan tashqari, quyidagilarni o’zida aks ettirgan bo’lishlari lozim, chunonchi, ustav kapitalining miqdori hamda har bir ishtirokchining ulushi, ishtirokchilar tomonidan ustav kapitaliga qo’yiladigan ulushlarning tarkibi, miqdori va muddati, ishtirokchilarning o’z ulushlarini ustav kapitaliga qo’shish bilan bog’liq majburiyatlarni bajarmaganligi uchun javobgarligi, jamiyatning boshqaruv organlari tarkibi va vakolatlari hamda ular tomonidan qarorlar qabul qi-linishi tartibi, shuningdek jamiyat ishtirokchilarining barchasi yoki ko’pchiligi tomonidan qaror qabul qilinib hal etiladigan masalalar.

Jamiyatning boshqaruv organlari jamiyat ishtirok-chilarining Umumiy yig'ilishidan, Kuzatuv kengashidan hamda ijroiya organlaridan iborat. Ishtirokchilarning Umumiy yig'ilishi jamiyat boshqaruvining oliy organi bo'-lib hisoblanadi. Ustavida jamiyatning Kuzatuv kengashi tashkil etilishligi ko'rsatilishi mumkin. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik yakka boshchilik asosidagi ijroiya organi (direktor) kollegial ijroiya organ (bosh-qaruv, direksiya) tomonidan amalga oshiriladi. Ijroiya organi umumiy yig'ilish hamda Kuzatuv kengashi oldida hisobdordir.

Ma`suliyati cheklangan jamiyat bilan bir qatorda **qo'-shimcha mas`uliyatli jamiyat** ham mavjud. qo'shimcha mas`-uliyatli jamiyatning faoliyati asosan mas`uliyati cheklangan jamiyatga oid huquq normalari bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 63-moddasiga muvofiq, qo'shimcha mas`uliyatli jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "qo'shimcha mas`uliyatli" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

qo'shimcha mas`uliyatli jamiyatning o'ziga xos xususiyati uning ishtirokchilarini jamiyat majburiyatlari bo'yicha javobgarligi ularning ustav kapitaliga qo'shgan ulushlari bilan cheklanmaganligidadir, ya`ni jamiyatining ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha o'z mol-mulklari bilan qo'shgan hissalari qiymatiga nisbatan hamma uchun bir xil bo'lgan, jamiyatning ta`sis hujjatlarida belgilanadigan, karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo'ladilar.

Ishtirokchilardan biri nochor (bankrot) bo'lib qol-ganida, uning jamiyat majburiyatlari bo'yicha javobgar-ligi, agar jamiyatning ta`sis hujjatlarida javobgar-likni taqsimlashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo'lmasa, boshqa ishtirokchilar o'rtasida ularning qo'shgan hissalariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Nazorat savollari:

1. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqining sub`ektiga ta`-rif bering.
2. Tadbirkorlik faoliyati sub`ektlariga qo'yilgan talablar qanday?
3. qaysi toifadagi fuqarolarga tadbirkorlik maqo-mini berish mumkin emas?
4. Oilaviy tadbirkorlik deganda nimani tushunasiz?
5. Tadbirkorlik faoliyatining davlat tomonidan qo'l-lab-quvvatlash shakllari qanday?
6. Aksiyadorlik jamiyatlari bilan ishlab chiqarish ko-operativlari o'rtasida qanday farq mavjud?
7. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqining sub`ekti sifatida davlat boshqa xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi sub`ektlaridan qanday farq qiladi?
8. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqining sub`ektini tashkil etish jarayonini tushuntiring.

BOZOR MUNOSABATLARI ShAROITIDA KORXONALARNI DAVLAT TASARRUFIDAN ChIqARISh VA XUSUSIYLAShTIRISh

. Xususiylashtirishning mohiyati, zaruriyati va tushunchasi

Bozor munosabatlari ko'p ukladli iqtisodiyotga asoslangan bo'ladi. Ko'p ukladli iqtisodiyotda turli mulk shakllari asosida tashkil etilgan korxonalar faoliyat yuritishadi. Mulk hamda tadbirkorlik sohasida davlat monopoliyasining mavjud bo'lishi bozor iqtisodiyoti uchun xos bo'lmagan belgilardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu sababli **i**qtisodiy islohotlar birinchi bosqichining g'oyat muhim vazifasi davlat mulki monopolizmini tugatish va bu mulkni xususiylashtirish hisobiga ko'p ukladli iqti-sodiyotni real shakllantirishdan iborat edi[1].

Sobiq sosialistik tuzum uchun xususiy mulk tushunchasi yot edi. Faqatgina mulkning shaxsiy, davlat hamda kolxoz-kooperativ shakllari mavjud edi. Shaxsiy mulkdan foydalanib daromad olish qonunga zid faoliyat hisoblanardi. Davlat mulki umumxalq mulki deb atalgani bilan, ob`ektiv reallikda xalq mazkur mulkdan yiroqda edi. Natijada ushbu mulk xalq tomonidan emas, balki mavhum bo'lgan sub`ekt-davlat tomonidan, yanada aniqrog'i uning byurokratik apparati tomonidan boshqarilar edi. Shuning uchun ham xalqda, ham davlatda mazkur mulkka nisbatan mulkdorlik hissi mavjud emasdi. Bu esa uning talon-taroj qilinishiga sabab bo'lardi. Kolxoz-kooperativ mulki ham rasmiy jihatdan jamoaniki deb e`tirof etilgani bilan, amalda butunlay davlat ixtiyorida edi. Mulkka nisbatan bunday tartibning o'rnatilganligi odamlarni mulkdan begonalashib ketishiga sababchi bo'ldi. Chunki barcha ishlab chiqarish vositalari tanxo davlatning mulki edi. Ishlab chiqarishda ishtirok etayotgan odamlarning ishlab chiqarish vositalaridan mahrum bo'lishi hamda iqtisodiy manfaat-dorlikning mavjud emasligi ularda mulkka nisbatan egalik hissining yo'qolishiga olib kelgan edi.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning asosiy mohiyati jamiyatdagi mulkni haqiqiy mulkdorlar qo'liga topshirishdan iborat. Bunda mulkdor o'z mulkini avaylab-asrashga, uni o'zgalar tomonidan talon-taroj etilishiga yo'l qo'ymaydi va eng asosiysi undan daromad olish maqsadida foydalana oladi. Sosialistik tuzumda tanqid ostiga olingan xususiy mulk, bozor iqti-sodiyotiga asoslangan jamiyatda **muqaddas** deb hisoblanadi.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish-ning zaruriyati davlatning mulkchilik hamda xo'jalik yuritish sohasidagi monopoliyasiga barham berish orqali ko'p ukladli iqtisodiyotni vujudga keltirishdir. Chunki xususiylashtirish natijasida turli xil mulk shakllari vujudga keladi va ular asosida turli tashkiliy-huquqiy shaklga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub`ektlar(aksiyadorlik jamiyatlari, xo'jalik jamiyatlari, xo'jalik shirkatlari va x.k.) tashkil etiladi.

Davlat tasarrufidan chiqarish – bu davlat korxona-larini va tashkilotlarini jamoa, ijara korxonalariga, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlariga, davlatga qarashli mulk bo'lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirishdir.

---

[1] Ислом Каримов «Ызбекистон и=тисодий ислощотларни чу=урлаштириш йылида», Т.,Ызбекистон-1995й, 46-бет

Xususiylashtirish esa jismoniy shaxslarning va dav-latga taalluqli bo'lmagan yuridik shaxslarning davlat mulki ob`ektlarini yoki davlat aksiyali jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishidir.

Turli mulk shakllari hamda turli tashkiliy-huquqiy shakldagi xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning mavjud bo'lishi esa aralash iqtisodiyotning asosiy belgisi bo'lib hisoblanadi. Ular sosialistik tuzumdagidek bir-birini inkor etishmaydi, aksincha bir-birini to'ldirib borishadi. Korxonalarni xususiylashtirish orqaligina iqtiso-diyotda raqobat muhitini shakllantirish va shu orqali xo'jalik yuritish sohasida davlat monopoliyasini bartaraf etish mumkin. «Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda davlat korxonalari nodavlat korxonalari bilan raqobatga dosh bera olmayapti. Zarar ko'rib ishlayotgan va samaradorligi past korxonalarning aksariyati aynan davlat korxonalari yoki davlat ulushi yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari ekani buni amalda tasdiqlab turibdi. Bunday holatning bosh sababi-bu korxonalarda haqiqiy xo'ja-yinning yo'qligi, real iqtisodiy omil va usullarning ishga solinmaganligidir»[1].

. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning huquqiy asoslari

Iqtisodiy islohotlarni kafolatli amalga oshirishning asosiy shartlaridan biri ularning huquqiy negizini yaratishdir. Iqtisodiy islohotlar qonun hujjatlari asosida amalga oshirilgandagina ular muayyan natija beradi va orqaga chekinish ham yuz bermaydi. Shuning uchun ham islohotlarning huquqiy negizini yaratish bir qancha muhim yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi. Mazkur yo'nalishlardan biri mulkchilik munosabatlariga asos soladigan qonunlar majmuini yaratishgga qaratilgan edi. Mazkur qonunlarni qabul qilmasdan turib odamlarni mulkka bo'lgan munosabatlarini o'zgartirib bo'lmas edi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 8 dekabrdagi Konstitusiyasida xususiy mulkning daxlsizligi belgilab qo'yildi. Biroq Konstitusiya qabul qilinguniga qadar mulkchilik munosabatlariga doir boshqa qonunlar qabul qilingan edi. Ushbu qonunlarning dastlabkisi 1990 yil 31 oktyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'-risida»gi qonuni bo'ldi. Ushbu qonunga muvofiq quyidagi mulk shakllarining amalda bo'lishi e`tirof etildi:

-xususiy mulk;

-shirkat(jamoa) mulki;

-davlat mulki;

-aralash mulk;

-boshqa davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar yuridik va jismoniy shaxslarining mulki.

qonun shuningdek barcha mulk shakllarining tengligini va ularni huquqiy jihatdan muhofaza etilishini kafolatlab qo'ydi. Eng muhimi mazkur qonun mulkdorning mulkiy huquqlari doirasini belgilab berdi.

---

[1] Ислом Каримов «Одамларнинг ташвиш ва орзу-интилишлари билан яшаш фаолиятимиз мезонига айлансин», Соли= ва божхона хабарлари, 2002 йил, 23 июль, 29-сон

1991 yil 19 noyabrda esa O’zbekiston Respublikasining «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to’g’-risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunlarni birin-ketin qabul qilishdagi mantiqiy bog’liqlik shundan iborat ediki, mulkdorning mulkiy xuquqlarini kafolatlamay, xususiylashtirishni amalga oshirish jarayoni qiyin kechardi. Chunki yuridik va jismoniy shaxslarni xususiylashtirish jarayonida faol ishtirokini ta`minlashning yagona yo’li, ularning mulkiy huquqlarini kafolatlashdan iborat edi. Aynan 1991 yil 19 noyabrdagi qonun davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning shakllarini, shartlarini hamda amalga oshirish tartibini belgilab berdi. Mazkur qonunga muvofiq, davlat mulki ob`ektlari Vazirlar Mahkamasi yoki u vakolat bergan organ qarori bilan davlat tasarrufidan chiqariladigan va xususiylash-tiriladigan bo’ldi. Davlat tasarrufidan chiqarilishi va xususiylashtirilishi mumkin bo’lmagan hamda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan davlat tasarrufidan chiqa-riladigan va xususiylashtiriladigan ob`ektlar hamda kor-xonalarning ro’yxati O’zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan belgilab beriladigan bo’ldi. Aynan mazkur ro’yxatlar O’zbekiston Respublikasi Oliy Maj-lisining 1995 yil 31 avgustdagi «Ayrim korxonalar va mol-mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning ba`zi masalalari to’g’risida»gi qarori[1] bilan tasdiqlandi. Davlat tasarrufidan chiqarish va xu-susiylashtirish dasturlar asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Xususiylashtirishning birinchi bosqichi Va-zirlar Mahka-masining 1992 yil 23 sentyabrdagi qarori bilan boshlab berildi[2] hamda 1994 yilning o’rtalarigacha davom etdi. Mazkur bosqichda umumiy uy-joy fondi, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko’rsatish korxonalari va qish-loq xo’jaligi mahsulotlarini tayyorlash tizimlari xusu-siylashtirildi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 21 yanvardagi «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi hamda 1994 yil 15 martdagi «O’zbekiston Respublikasida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlari to’g’risida»gi Farmonlari xususiylashtirishning navbatdagi bosqichiga o’tish uchun turtki bo’ldi. 1994 yil 21 yanvardagi Farmon bilan Vazirlar Mahkamasiga xususiylashtirish bo’yicha davlat dasturini ishlab chiqish vazifasi yuklatildi. Mazkur dasturda sanoat va qurilish tarmoqlarida xususiylashtirishni amalga oshirilishiga, shuningdek fuqa-rolarni xusuiylashtirish jarayonida faol ishtirokini ta`minlash maqsadida yopiq aksiyadorlik jamiyatlarini ochiq aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish masalalariga ko’proq e`tibor qaratilishi lozimligi ta`kidlandi.

1994 yil 15 martdagi Farmonda qimmatbaho qog’ozlar bozorini rivojlantirish, aksiyadorlik jamiyatlarida dav-latga tegishli aksiyalar ulushini qisqartirish hamda xusu-siylashtirish cheklab qo’yilgan korxonalar sonini kamaytirish masalalari o’z aksini topgan.

Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga talluqli bo’lgan qonun hujjatlarini ularning maqsad-laridan kelib chiqqan holda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchisi, bevosita davlat mulkini xususiylashtirishga oid qonun hujjatlari bo’lsa, ikkinchisi ana shu qonun hujjatlarini samarali ijrosini ta`minlashga qaratilgan

[1] Ызбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 йил, 9-сон, 194-модда
[2] «Основы приватизации», ИПК «ШАРК», том 1,1996, стр. 7

normativ hujjatlar. Misol uchun, 1995 yil 12 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat mulki bo'lgan korxonalarni aksiyalashtirishni jadallashtirish va qimmatli qog'ozlar bozorini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni[37] qabul qilindi. Mazkur Farmonda davlat boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari hamda korxona va tashkilotlarning rahbarlari orasida xanuzgacha saqlanib qolgan boshqaruvning ma`muriy buyruqbozlik tizimi paydo qilgan boqimandalik kayfiyati davlat korxonalarini aksiyalashtirish muddatlarini cho'zib yuborishayotgani tanqid ostiga olingan.

Xususiylashtirishning ikkinchi bosqichi (1995-1996 yillar) ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarini yaratish, korxonalarning aksiyalarini muomalaga chiqarish, ko'chmas mulk hamda qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish, sanoat, qurilish va transport sohasidagi hamda agrosanoat kompleksining go'sht-sut, oziq-ovqat va paxta tozalash tarmoqlaridagi o'rta va yirik korxonalarni, shuningdek sayyohlik komplekslarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bilan xarakterlanadi[38].

1998 yildan boshlab respublika iqtisodiyotida yirik industriya gigantlarini, ya`ni yoqilg'i-energetika kompleksi, kimyo, metallurgiya va mashinasozlikning ayrim yor-damchi korxonalarini xususiylashtirish hamda mazkur ja-rayonga xorij investisiyasini keng jalb qilishning yo'-nalishlari belgilab berildi. 1998 yil xususiylashtirishdan tushgan mablag' 8 milliard 800 million so'mni tashkil etgan bo'lsa, 1999 yili 9 milliard 100 million so'mni tashkil etdi. 1999 yil sotib olingan korxona va aksiyalar uchun xorijiy investorlar tomonidan to'langan mablag' 16 million AqSh dollarini tashkil etdi[39].

Korxonalarni xususiylashtirish va aksiyalashtirishni yanada chuqurlashtiri hamda ushbu jarayonlarga xorijiy investorlarni yanada keng jalb etish maqsadida 1999 yil 26 noyabrda Vazirlar Mahkamasi tomonidan «2000-2001 yillarda xorijiy investorlarni jalb qilgan holda korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» qaror[40] qabul qilindi. Mazkur qaror bilan 2000-2001 yillarda xorijiy investorlarga turli shakllarda sotiladigan korxonalar ro'yxati tas-diqlandi.

2003 yildan boshlab xususiylashtirish jarayonida sifat jihatidan tub o'zgarish ro'y berdi. Shu vaqtgacha amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, korxonalarning nizom jamg'armasida davlat ulushining yuqori bo'lishi, ularning iqtisodiy va xo'jalik faoliyatiga davlatning bevosita aralashuviga olib kelayotgan edi. Mazkur salbiy omillarni bartaraf etish mqsadida 2003 yil 24 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon ustav fondida davlatning ulushi 25% va undan kam miqdorni tashkil etgan aksiyadorlik jamiyatlarida davlat ulushini saqlab qolish maqsadga muvofiq emasligi va mazkur ulush fond bozorida xususiy sektorga sotib

---

[37] Ызбекистон Республикаси Президентининг Фармонлари 1995-1999, 4-том, Т., «Адолат», 2000 йил, 23-бет

[38] Ислом Каримов «Ызбекистон буюк келажак сари», Тошкент, «Ызбекистон», 1998 йил, 221-бет

[39] Ислом Каримов «И=тисодиётни эркинлаштириш ва ислощотларни чу=урлаштириш- энг мущим вазифамиз», Хал= сызи, 2000 йил, 15 февраль, 32-сон

[40] Ызбекистон Республикаси Щукуматининг +арорлари Тыплами, 11-сон,1999 йил, 69-модда

yuborilish kerakligi belgilab qo'yildi. Avvallari korxonalarning davlatga te-gishli aksiya paketlari shu korxona uyushmasining ishonchli boshqaruviga topshirilar edi. Biroq mazkur holat uyush-malarni o'z vazifalarini bajarishlari o'rniga, korxona-larning moliyaviy va xo'jalik faoliyatiga asossiz ravishda aralashuviga sababchi bo'ldi. Mazkur holatni bartaraf etish maqsadida, yuqo-ridagi farmon davlatga tegishli aksiyalar paketini 2003-2004 yillarda tanlov asosida professional boshqaruvchi kompaniyalarning ishonchli boshqaruviga beri-lishi lozimligi ko'rsatib qo'yildi. Bundan tashqari fuqa-rolarni xususiylashtirish jarayonida faol ishtirok etishlarini ta`minlash maqsadida, xususiylashtirilgan korxonalar negizida tashkil etilgan xo'-jalik jamiyatlari va shirkatlari aksiyadorlarining dividenddan oladigan daromadlari besh yil muddatgacha soliqqa tortishdan ozod etildi.

Yuqoridagi farmonning ijrosini ta`minlash, xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, unga xorijiy investorlarni keng jalb etish hamda korxonalarning ustav jamg'armalarida davlatning ulushini mumkin qadar kamaytirish maqsadida 2003 yil 17 aprelda Vazirlar Maxkamasining «2003-2004 yillarda korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturi to'g'-risida»gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan davlat tasarrufidan chiqariladigan va xususiylashtiriladigan korxonalar ulardagi davlat ulushining miqdoriga qarab quyidagi to'rt guruhga ajratildi: birinchi guruhga, ustav fondida davlat ulushi 25% va undan kamni tashkil etadigan korxonalar kiritildi. Mazkur korxonalardagi davlat ulushi 2003-2004 yillar davomida birja va birjadan tashqari bozorda realizasiya qilinishi lozim; ikkinchi guruhga, hozirgi paytgacha davlat mulkida bo'lgan korxonalar kiritildi. Ular ham fond bozorida xususiy mulk sifatida butunlay sotib yuborilishi lozim; uchinchi guruhga, ustav fondida davlat ulushi 25%dan 51%gacha bo'lgan korxonalar kiritildi. Ushbu korxonalar 2003 yil davomida xususiylashtirib bo'linishi lozim. Investorlarda qiziqish uyg'otmagan yoki kelajakda iqtisodiy ahvoli yaxshilanib ketishi mumkin bo'lmagan korxonalar esa tugatilishi lozim; to'rtinchi guruhga, ustav fondida davlat ulushi 51% va undan ortiqni tashkil etgan korxonalar kiritilgan. Ular strategik ahamiyatga ega bo'lganliklari uchun ularda davlat ulushining saqlanib qolinishi maqsadga muvofiq. Biroq mazkur korxonalarni boshqarishda aksiyadorlarning rolini oshirish, kuzatuv kengashiga ko'proq vakolatlar berish hamda biznes rejalarni bajarilishini ta`minlash uchun ijroiya organlarining javobgarligini oshirish masalala-riga ko'p-roq e`tibor berilishi lozimligi nazarda tutilgan.

. Xususiylashtirishning usullari va shakllari

Bozor munosabatlari ko'p ukladli iqtisodiyot bo'lganligi uchun davlat mulkini xususiylashtirish ham bir nechta shakl va usullarda amalga oshiriladi. Xususiylashtirish bo'yicha jahon tajribasi tahlil etilganda, uni ettita usulda amalga oshirish mumkinligi aniqlandi[1].

Birinchisi, davlat korxonalari aksiyalarini erkin sotish orqali. Biroq fond bozori yaxshi rivojlanmagan davlatlarda xususiylashtirishni mazkur usulda amalga oshirish

[1] «Основы приватизации», ИПК «ШАРК», том 1, 1996, стр 16

juda qiyin kechadi, chunki ushbu aksiyalarni reklama qilish uchun ko’p mablag’ sarflanadi.

Ikkinchisi, aksiyalarni auksionlarda sotish orqali. Aksiyalarni auksionlarda sotishdan maqsad, xususiylashtirish jarayonida suiste`mollikka yo’l qo’ymaslikdir. Chunki, Meksikada xususiylashtirishning dastlabki bosqi-chida hokimiyat tepasidagi partiyaning safdoshlariga kor-xonalar arzonlashtirilgan narxda sotib yuborilganligi nizolarning kelib chiqishiga sababchi bo’lgan.

Uchinchisi, davlat korxonalariga xususiy investisiya kiritish orqali. Bunda korxona to’g’ridan-to’g’ri sotib olinadi yoki uning aksiya paketi xarid qilinadi. Biroq yirik hamda strategik ahamiyatga ega bo’lgan korxonalar uchun mazkur usul maqbul bo’lib hisoblanmaydi, chunki ularda davlat albatta o’z ulushini saqlab qolishi shart.

To’rtinchisi, korxonaning mol-mulklarini sotib yuborib, tushgan mablag’lar bilan uning qarzlarini qoplash hamda korxonani butunlay tugatish. Mazkur usul korxonaning iqtisodiy ahvolini yaxshilash imkoniyati mavjud bo’lmagan vaziyatlarda qo’llaniladi. Ayniqsa Pol`sha davlatida mazkur usuldan keng qo’llanilgan.

Beshinchisi, davlat korxonalarini turli qismlarga bo’lib yuborib, ularni alohida-alohida sotish orqali. Bunda yirik korxonalar bir nechta korxonalar majmuasidan iborat bo’ladi. Mazkur korxonalardan yaxshi daromad keltiradigani alohida korxona sifatida sotib yuborilishi mumkin.

Oltinchisi, korxonani uning rahbari yoki mehnat kol-lektivi tomonidan sotib olinishi. Xususiylashtirishning mazkur usulida ishchi bir vaqtning o’zida ham mulkdor bo’ladi, ham bozor munosabatlari sharoitida ijtimoiy jihatdan himoyalangan bo’ladi. Ushbu usul AqShda keng qo’llaniladi va mazkur korxonalarga soliqlar bo’yicha ko’proq imtiyozlar berishga harakat qilinadi.

Ettinchisi, davlat korxonasini ijaraga berish yoki uni boshqarishni shartnoma asosida muayyan xususiy korxonaga topshirish. Xususiylashtirishning ushbu usulida yangi sha-kldagi korxona o’zining imkoniyatlarini to’liq namoyon eta olmaydi.

Jahon tajribasidan hamda ichki sharoitdan kelib chiqqan holda O’zbekistonda xususiylashtirishning quyidagi usul va shakllaridan foydalanildi:

-davlat korxonasini jamoa korxonasiga, xo’jalik jamiyati yoki shirkatiga aylantirish;

-ijaraga olingan korxonani kelgusida haq to’lab sotib olish sharti bilan davlat korxonasini ijara korxonasiga aylantirish;

-davlat korxonasini tanlov yo’li bilan yoki kimoshdi savdosida davlatga taalluqli bo’lmagan yuridik va jismoniy shaxslarga sotish.

Davlat korxonasini jamoa korxonasiga aylantirish, mehnat jamoasi a`zolari tomonidan davlat mulkini sotib olinishi yoki bu mulkni ularga tekin berilishi yo’li bilan amalga oshiriladi. Bunda jamoa korxonasining ustavida har bir xodimning mol-mulkdagi hamda foydadagi ulushi belgilab qo’yiladi. Mazkur miqdor xodimlarning ish staji, maoshining miqdori va boshqa omillardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

O’zbekistonda xususiylashtirishning davlat korxonalarini xo’jalik jamiyatlari va shirkatlariga aylantirish usuli keng qo’llanildi. Xususiylashtirishning mazkur usu-lini keng qo’llashdan maqsad, bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqarolarni mulkdor qilish orqali ularni ijtimoiy jihatdan himoyalash edi. Chunki bozor munosabatlariga o’tish davrida ishsiz fuqarolarning soni ortadi hamda ularni ijtimoiy jihatdan himoyalash

dolzarb muammolardan biri bo'lib qoladi. Aynan mana shunday vaziyatda fuqaro birorta korxonaning aksiyasiga ega bo'lsa yoki uning nizom jam-g'armasida o'z ulushiga ega bo'lsa, u ijtimoiy jihatdan hi-moyalangan bo'ladi, chunki ular vaqti-vaqti bilan dividend olib turishadi. Dastlab yopiq turdagi aksiyadorlik ja-miyatlari tashkil etilgan bo'lsa, keyinchalik fuqarolarni xususiylashtirish jarayonida faol ishtirokini ta`minlash uchun, ular ochiq aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirila boshlandi. Biroq iqtisodiy tahlillar mazkur jamiyat va shirkatlarda davlat ulushining saqlanib qolishi maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatdi. Shuning uchun ham keyingi davrdagi iqtisodiy islohotlar xo'jalik jamiyatlari va shirkatlaridagi davlat ulushlarini mumkin qadar qis-qartirishga yoki bo'lmasa ularning barchasini xususiy sek-torga o'tkazib yuborishga qaratildi. Eng achinarlisi maz-kur korxonalarda aksiyadorlarning o'z huquqlarini bil-masliklari yoki ularni amalga oshirmasliklari, mulkdor sifatida ularning manfaatlariga salbiy ta`sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham korxonalarning korporativ boshqaruvini tubdan isloh etish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Davlat mulki ob`ektlarini tanlov asosida sotish xususiylashtirishning samarali usullaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bunda tanlovni o'tkazish shartlari, tartibi va muddati maxsus tanlov komissiyasi tomonidan belgilab beriladi. Tanlov shartlari **ijtimoiy** hamda **investision** shartlardan iborat bo'ladi. Ijtimoiy shartlarga avvalgi ishchi o'rinlarini saqlab qolish, qo'shimcha ishchi o'rinlarini yaratish, xodimlarning malakasini oshirib borish, mehnatni muhofaza qilish, korxonaning faoliyat sohasini o'zgartirmaslik kabilar kiradi. Investision shartlarga korxonani rekonstruksiya qilish, zamonaviy uskunalar sotib olish, ishlab chiqarishni kengaytirish va shu kabilar kiradi.

Davlat mulki ob`ektini kim oshdi savdosida sotib xususiylashtirishdan maqsad, byudjetga ko'proq mablag' tushirishdan iborat. Bunda davlat mulki ob`ekti bir muncha yuqori narxda sotiladi va uni sotib oluvchilarga hech qanday shartlar qo'yilmaydi. Agarda xususiylashtirilishi lozim bo'lgan korxona hech kimni qiziqtirmasa va unga xaridor topilmasa, u tugatiladi hamda uning balansida bo'lgan mulklar sotib yuboriladi. Xususiylashtirishni samarali amalga oshirishning asosiy shartlaridan biri xususiy-lashtirilayotgan korxonaga nisbatan xususiylashtirish usulini to'g'ri tanlay bilishdir. Masalan, aksariyat hol-larda iqtisodiy jihatdan samarasiz ishlayotgan korxonalar xususiylashtirishga xarakat qilinadi. Biroq mazkur toi-fadagi korxonalar xech kimni qiziqtirmaydi yoki ular juda past narxlarda sotib yuboriladi. Shuning uchun ham Ang-liyada dastlab daromad keltiruvchi korxonalar xususiy-lashtirilgan. Chunki bunday korxonalarning aksiyalariga talabgorlar ko'p bo'ladi va ushbu korxonalar ancha yuqori narxda sotiladi. Bu esa davlat byudjetiga katta daromad keltiradi.

Mulkni nasionalizasiya qilish

Xususiylashtirishga qarama-qarshi bo'lgan jarayonlardan biri nasionalizasiyadir. Xususiylashtirishda mulk davlat ixtiyoridan xususiy sektor tasarrufiga o'tsa, nasionalizasiyada mulk xususiy sektordan davlat ixtiyoriga o'tkaziladi.

Nasionalizasiya fuqarolarga hamda yuridik shaxslarga qarashli mol-mulkka nisbatan bo'lgan mulk huquqini haq to'lash asosida qonun hujjatlariga muvofiq davlat ixtiyoriga o'tkazishdir. Nasionalizasiya mulk huquqini vujudga kelishi va bekor bo'lishining asoslaridan biri bo'lib hisoblanadi, chunki bunda davlat mulkka nisbatan mulkiy huquqni qo'lga kiritsa, yuridik va jismoniy shaxslar esa mazkur huquqdan mahrum bo'lishadi. Uni davlat mulkini vujudga keltirishning tarixiy usullaridan biri sifatida ham qarash mumkin[1]. Nasionalizasiya **majburiy** va **erkin** ravishda amalga oshirilishi mumkin.

Majburiy nasionalizasiyada fuqarolar hamda yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan mulk davlat ixtiyoriga o'tkaziladi va qonun hujjatlariga muvofiq mulkdorlarga etkazilgan zarar qoplanadi. Jaxon tajribasida etkazilgan zarar qoplanmasdan ham mulk nasionalizasiya qilingan holatlar mavjud. Masalan, Fransiyadagi «Reno» zavodi urush yillarida fashistlarga yordam berganligi va ular bilan hamkorlik qilganligi uchun 1945 yilda haqi to'lanmasdan nasionalizasiya qilingan.

Nasionalizasiya erkin ravishda mulkdorning o'z xohishi va tashabbusi bilan amalga oshiriladi. Nasionalizasiya qilinadigan ob`ektlarni vujudga kelish asoslaridan kelib chiqqan holda uni ikkiga ajratish mumkin. Birinchisi, dastlabdan xususiy bo'lib kelgan korxonalarni nasionalizasiya qilish bo'lsa, ikkinchisi avval davlat tomonidan xususiylashtirilgan korxonalarni nasionalizasiya qilish, ya`ni **deprivatizasiyadir.** Avval nasionalizasiya qilingan mulklarni xususiylashtirish esa **denasionalizasiya** deb yuritiladi.

Nasionalizasiyani amalga oshirishdan maqsad quyi-dagilardir:

-davlat xavfsizligini ta`minlash hamda jamiyat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarni saqlab qolish;

-ekologik xavfsizlikni ta`minlash;

-tabiiy monopoliyalarni xususiy mulk bo'lishi, iste`molchilarning huquqlarini himoya qilishda suiste`molliklarga olib kelishi mumkinligini bartaraf etish;

-xalq xo'jaligini tarkibiy jihatdan qayta qurish;

-milliy rejada nazarda tutilgan ijtimoiy-iqti-sodiy vazifalarni amalga oshirilishini ta`minlash;

-bank tomonidan moliyaviy resurslar ishlatilishini nazorat qilish uchun va boshqalar.

Nasionalizasiyani amalga oshirishda quyidagilar asos bo'ladi:

-mamlakatning iqtisodiy va milliy xavfsizligiga tahdid qilish;

-jamiyat uchun zarur bo'lgan hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy sohada muhim bo'lgan korxonalarning bankrotligi;

-korxonalar tomonidan atrof-muhitni ifloslantirilishi;

-korxona tomonidan daromadni chet elga noqonuniy o'tkazish:

-xususiylashtirilgan ob`ekt sohasini o'zgartirish;

-xususiylashtirilgan mulkning qiymatini tushirish, davlatga tegishli bo'lgan aksiya paketlarini real narxlardan pastroq narxda sotish va qonun hujjatlarida ko'rsatilgan boshqa hollar.

---

[1] А.П.Сергеев, Ю.К.Толстой «Гражданское право», часть 1, М., «Проспект» 1998, стр. 362

Nazorat savollari:

1. Davlat tasarrufidan chiqarish nima?
2. Xususiylashtirishning mohiyati nimadan iborat?
3. Xususiylashtirish qanday usullarda amalga oshiriladi?
4. Mulkni nasionalizasiya qilish nima?
5. Deprivatizasiya va denasionalizasiya tushunchalarining farqi nimadan iborat?

XO’JALIK YURITUVCHI SUB`EKTLAR FAOLIYATINI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISHNING
HUQUQIY ASOSLARI

Xo’jalik (tadbirkorlik) huquqi sub`ektlarini qayta tashkil etish tushunchasi va uni amalga oshirish usullari.

Yuridik shaxsning vujudga kelishining huquqiy aha-miyati muhim hodisa bo’lganligi tufayli, fuqarolik hu-quqida yuridik shaxs faoliyatining bekor bo’lishi ham mu-him huquqiy ahamiyatga ega bo’lgan harakatlardan hisob-lanadi. Bu shunisi bilan muhimki, oqibatda bir qancha huquq va majburiyatlar yuzaga keladi.

Umumiy qoidaga ko’ra, yuridik shaxsning faoliyati qayta tashkil etish yoki tugatish natijasida bekor bo’ladi.

qayta tashkil etish, ilgari mavjud bo’lgan korxonaning bekor qilinishi va yangi huquq sub`ekti sifatida tad-birkorlik faoliyatini davom ettirilishi demakdir. Kor-xona, u yoki bu ma`noda boshqa huquq va majburiyatlar oluvchisi (yangi huquq sub`ekti), yangi yuridik shaxs to-monidan amalga oshiriladi. Tugatishdan farqli o’laroq, qayta tashkil etishda mulk saqlanadi, xo’jalik va mulkiy huquq va majburiyatlar ham mavjudligini yo’qotmaydi. Ishlab chiqarish bo’linmalari ham yo qisqargan, yoki yirik-lashgan holda faoliyatini davom ettiradi. qayta tashkil etish har doim huquqiy vorislik bilan bog’liq, ya`ni mulkiy va boshqa huquq (majburiyat)larning bekor qilingan (turini o’zgartirgan) bir huquq sub`ektidan boshqasiga, qaytadan vujudga keltirilgan korxonaga o’tadi. Yuridik shaxs qayta tashkil etilgan taqdirda, unga mulk huquqi asosida tegishli mol-mulk yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslarga o’tadi. Yuridik shaxsni tugatishdan buning asosiy farqi ham shunda ifodalanadi.

qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquqiy vorislari uning faoliyatini davom ettiradi. Shu bilan bog’liq ravishda oxir oqibatda barcha huquq va maj-buriyatlar to’liq o’tishi lozim. Ular qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning universal huquqiy vorisi, topshirish hujjati, xuddi shuningdek, taqsimlash balansida qayd qilingan yoki qilinmagan bo’lsa ham, uning barcha huquq va majburiyatlarining vorisi bo’lib qoladi.

O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 49-moddasida qayta tashkil qilishning besh shakli farqlanadi: qo’shib yuborish (ikki va undan ortiq yuridik shaxslar bir shaxsga aylanadi);

- qo’shib olish (bir yoki bir necha yuridik shaxslar boshqasiga qo’shiladi);
- bo’lish (yuridik shaxs o’z faoliyatini to’xtatib, ikki va undan ortiq yuridik shaxslarga bo’linadi);
- ajratib chiqarish (yuridik shaxs tarkibidan bir yoki bir necha yuridik shaxslar ajraladi, bunda avvalgi yuridik shaxs ham mavjud bo’lib qolaveradi);
- o’zgartirish (bir tashkiliy-huquqiy shakldagi yuri-dik shaxs boshqa shakldagi yuridik shaxsga o’zgaradi).

Ushbu holatlar yuridik shaxsning qayta tashkil etilishi jarayonida qatnashuvchi tomonlarga alohida e`tibor beri-shni taqozo etadi. Natijada qayta tashkil etilayotgan sub`ektlarning ikki ya`ni, “ichki” faqat qayta tashkil etilayotgan sub`ekt muassislari (ta`sischilari) doirasini qamrab oluvchi (bo’lish yoki ajratib chiqarish) va “tashqi” qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsning boshqa sub`-ektlar bilan aloqasini

belgilovchi (qo’shib olish, qo’shib yuborish va o’zgartirish) o’ziga xos huquqiy tartibga solish jarayoni vujudga keladi. Bunday huquqiy tartibga solish, yuridik shaxslarning qayta tashkil etilishida qatnashayotgan sub`ektlar yuridik holatini tuslovchi “huquq sub`ekt-larning majburiy-huquqiy aloqalari” ko’rinishida ham ifodalanishi mumkin.

Fuqarolik qonunchiligida muhim o’rin egallagan qayta tashkil etishning yangi shaklining qonunchilikka, amaliyotga va qolaversa, iqtisodiyotga kirib kelishi mamlakatimizda ro’y berayotgan bozor munosabatlariga o’tish jarayoni bilan bog’liq. Uning to’la huquqiy va iqtisodiy yutuqlari va kamchiliklariga batafsil to’xtalib o’tamiz.

Yuridik shaxsni qayta tashkil etish umumiy qoidalarga asosan ixtiyoriy ravishda – uning ta`sischilarining (qat-nashchilarining) yoki ta`sis etilgan hujjatlar bilan vakolatga ega bo’lgan yuridik shaxs organi, masalan a`zo-larning umumiy yig’ilish qarori asosida amalga oshi-rilishi mumkin. qo’shib olish, qo’shib yuborish yoki o’z-gartirish shakllaridagi ***ixtiyoriy*** qayta tashkil etish qo-nunda belgilanganidek, davlat organlarining oldindan olingan roziligi asosida amalga oshiriladi. Masalan, bunday rozilikni tovar bozorlarida monopolistik fao-liyatni keltirib chiqaruvchi xo’jalik sub`ektlari ustidan nazorat qiluvchi monopoliyaga qarshi davlat organidan ham olish talab qilinadi[41]. Ba`zan yuridik shaxsni qayta tashkil etishda uning xohish-irodasidan chetga chiqilishi mumkin. Bu to’g’ridan-to’g’ri qonunda belgilangan holatlarda, yuridik shaxsni qayta tashkil etishning uning tarkibidan bir yoki bir nechta yuridik shaxslarni bo’lish yoki ajratib chiqarish turlari vakolatli davlat organlari yoki sud qarori bilan ***majburiy*** amalga oshiriladi. Chunki qonunga binoan biror tovar bozorida ustun mavqeiga ega bo’lgan holda monopo-liyaga qarshi qonun hujjatlarini ust-ustiga buzsa, mono-poliyaga qarshi davlat organi raqobatni rivojlantirish maqsadida uni majburiy tartibda bo’lib yuborish yoki tarkibiy bo’linmalar negizida bir yoki bir necha yuridik shaxsni ajratib chiqarish haqida sudga da`vo arizasi berish huquqiga ega[42]. Agar yuridik shaxs muassislari (ishtirok-chilari), ular vakil qilingan organ yoki yuridik shaxsning o’z ta`sis hujjatlari bilan qayta tashkil etishga vakil qilgan organi yuridik shaxsni vakolatli davlat organining qarorida belgilangan muddatda qayta tashkil etmayotgan bo’lsa, sud mazkur davlat organining da`vosi bo’yicha yuridik shaxsning boshqaruvchisini tayinlaydi va unga ushbu yuridik shaxsni qayta tashkil etishni topshiradi. Boshqaruvchi tayinlangan paytdan boshlab unga yuridik shaxsning ish-larini boshqarish vakolatlari o’tadi. Boshqaruvchi sudda yuridik shaxs nomidan harakat qiladi, taqsimlash balan-sini tuzadi va uni yuridik shaxslarni qayta tashkil etish natijasida vujudga keladigan ta`sis hujjatlari bilan birga

---

[41] Агар юридик шахслар бирлашмаларини ташкил этиш, =ышиб юбориш ва бирлаштириш, шунингдек хыжалик юритувчи субъектларни =ышиб юбориш ва бирлаштириш,молия-саноат гурущлари, холдинг компаниялари ташкил этиш назарда тутилган щоларда хыжалик юритувчи субъектларни =ышиб юбориш ёки бирлаштириш (=ышиб олиш) ты\рисида =арор =абул =илган шахслар ёки органлар монополияга =арши давлат органига =айта ташкил этишга розилик бериш ты\рисидаги илтимоснома щамда бирлашаётган хыжалик юритувчи субъектлардан щар бирининг асосий фаолият турлари, уларнинг тегишли товар бозоридаги улуши ва бирлашмага киришга розилиги ты\рисидаги маълумотларни та=дим этадилар. Товар бозорларида монополистик фаолиятни чеклаш ва ра=обат ты\рисида Ызбекистон Республикаси =онуни // Ызбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 йил, 2-сон, 54-модда.

[42] Шу щужжат 16-модда 1 банди. Ызбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 йил, 2-сон, 54-модда.

ko’rib chiqish uchun sudga topshiradi. Sudning ushbu hujjatlarini tasdiqlashi yangidan vujudga kelayotgan yuridik shaxslarni davlat ro’yxatidan o’tkazish uchun asos bo’ladi.

qayta tashkil qilishning barcha sanab o’tilgan shakl-larini ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga, taqsimlash balansi bilan rasmiylashtiriluvchi bo’lish va ajratib chiqarish shakli kiradi. Ikkinchi guruhga, top-shirish hujjati bilan rasmiylashtiriluvchi qo’shib yubo-rish, qo’shib olish va o’zgarish shakllarini kiritish mumkin. Ushbu hujjatlar bilan yangi tashkil etilayotgan yuridik shaxsning huquq va majburiyatlarining hajmi aniqlanadi.

Yuridik shaxslarni qayta tashkil qilish jarayonida “taqsimlash balansi” va “topshirish hujjati”ning aha-miyati juda katta, chunki u qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning o’zidan oldingisiga nisbatan bo’lgan munosa-batlarida, xususan berilgan mol-mulkka egalik huquqining tarkibi va hajmiga huquqiy vorislikni tasdiqlovchi huj-jat hisoblanadi. Taqsimlash balansi va topshirish huj-jati, kimga, ayni qaysi huquq va majburiyatlar o’tishi kerakligini aniq belgilab berishi zarur. Bu hujjatlarda qayta tashkil qilingan yuridik shaxs majburiyatlarining butun majmuini, shu bilan bir qatorda bajarish muddati kelmagan, qayta tashkil qilingan shaxs bahslashayotgan majburiyatlarni ham kiritish, qayd etish kerak.

Taqsimlash balansi va topshirish hujjati qayta tashkil qilish haqida qaror qabul qilgan shaxslar tomonidan albatta tasdiqlanib, tegishli hujjatlar bilan davlat ro’yxatidan o’tkazish uchun havola qilinadi. Bular qayta tashkil qilingan shaxsning ta`sischilari, yoki uni yaxshi biladigan (o’z xohishi bilan qayta tashkil qilishda), yoki vakolatli davlat organi (qonunda ko’zda tutilgan, majburiy tashkil qilish hollarida) bo’lishi mumkin. Ushbu qoidalarga rioya qilinishi qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsning huquqiy munosabatlariga to’la aniqlik kiritib, yuridik shaxsni qayta tashkil qilish jarayonida kreditorlarining manfaatlarini ko’zda tutib, ularning talablarni yo’qolib ketmasligi uchun o’rnatilgan.

Taqsimlash balansi bo’yicha mol-mulkka kelib qo’shi-lishi (aktiv) yoki undan chiqib ketishi (passiv) mumkin bo’lgan qismlari, shuningdek joriy yilda yuridik shaxsdan topshirgunga qadar bo’lgan muddat davomida olingan daro-madlar va ko’rilgan zararlar ham hisobga olingan holda topshiriladi. Asosiy va oborotdagi mablag’lar ularni top-shirish haqida qaysi chorakda qaror qabul qilingan bo’lsa, o’sha chorakning moliyaviy rejasi ko’rsatilgan miqdorda topshiriladi. Topshirish haqida qaror qabul qilingandan keyin ularni o’zgartirish mumkin emas. qaror qabul qi-lingandan keyin o’zlashtirilgan asosiy va oborotdagi mab-lag’lar ularni qabul qilib oluvchi tarafga qaytarib be-rilishi lozim.

Topshiriladigan mol-mulk inventarizasiya qilinadi va bu topshirish hujjatida yoki taqsimlash balansida ko’rsatib qo’yiladi.

qayta tashkil qilish vaqtida qayta tashkil qilinayotgan korxona ega bo’lgan debitor va kreditorlik qarzlarining butun miqdori (shu jumladan, sotib oluvchi va ta`-minotchilarning ish haqi bo’yicha qarzlari, hisob beruvchi shaxslardan, byudjet va byudjetdan tashqari fondlar, so-liqlar va boshqa majburiy to’lovlar bo’yicha), taqsimlash balansi yoki topshirish hujjatiga muvofiq, uning huquqiy vorislariga o’tadi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarning mazmunini tashkil qiluvchi fuqarolik huquq va majburiyatlar yuridik faktlar asosida vujudga keladi. Ushbu huquq va majburiyatlarni nafaqat vujudga kelishi, shuningdek ularning o'zgartirilishi va bekor bo'lishi ham qonun va boshqa huqu-qiy hujjatlarga asosan yuridik faktlar bilan bog'liqdir. Fuqarolik Kodeksining 8-moddasida amaliyotda uchrab turadigan yuridik faktlar inobatga olingan holda, fuqa-rolik huquq va burchlarning vujudga keltirish asoslari berilgan.

qayta tashkil etish jarayonida yuqorida sanab o'tilgan huquq va majburiyatlarning yangidan vujudga kelgan yuridik shaxs(huquqiy voris)ga o'tishi masalasi mukammal o'rga-nilishi lozim bo'lgan masalalardan hisoblanadi. Ma`lumki, huquqiy munosabatlar ularning vujudga kelishidan bosh-lanib, uning bekor qilinishi bilan tugaydi. Mana shu chegara oralig'ida huquqiy munosabatlar yuzaga keladi, harakatda bo'ladi. Bu harakat davomida huquqiy munosa-batlar mazmun jihatdan o'zgarsa-da, o'zining ayrim xusu-siyatlarini saqlab qolgan holda mavjud bo'ladi va davom etadi.

Xuquqiy munosabatlarda majburiyatga ega bo'lgan sub`-ektlarning o'zgarishi kreditor almashganda (huquq sub`-ekti), qarzdor almashinuvida (fuqarolik huquqiy maj-buriyatlar sub`ekti) ro'y beradi, shuningdek sub`ektning ikki yoqlama majburiyatlarda ishtirok etishi, ya`ni bir vaqtning o'zida ham kreditor ham karzdor bo'lishi mumkin. Demak, huquqiy munosabat doirasida yuridik shaxslarning vujudga kelishi yoki bekor bo'lishigina emas balki, mavjud davr oralig'ida tarkib jihatdan yuzaga keladigan o'zga-rishlarni (qayta tashkil etish) ham hisobga olishga to'g'ri keladi.

Fuqarolik huquqi nazariyasida asosiy e`tibor huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishi va bekor bo'lishiga qara-tilib, huquqiy munosabatlarning o'zgarishi hamda qayta tashkil etish to'g'risida, ayniqsa huquqiy vorislik bilan uzviy bog'liq bo'lgan masalalar kam tadqiq qilingan muam-molardan bo'lib hisoblanadi. Huquqiy vorislik bu - sub`ektiv huquqning bir shaxsdan ikkinchi bir shaxsga o'tishidir. Huquq beruvchidan huquqiy voris (sub`ekt)ga sub`ektiv huquqning berilishi natijasida huquqiy muno-sabatlarda o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Ta`kidlash lozimki, huquqning bir shaxsdan boshqa shaxsga o'tishida, dastlabki huquq sub`ektning huquq va majburiyatlari hamda unga nisbatan qo'yilgan talablar bilan birgalikda o'tadi. Shuning uchun, huquqiy vorislik ko'lamini qo'llash keng va ko'p qirralidir. Huquqiy muno-sabatlar sub`ekti tarkibini o'zgartirishda har doim huquq bir shaxsdan ikkinchi bir shaxsga o'tadi. Bunda eski va yangi huquqiy munosabatlar o'rtasida aloqa o'rnatiladi.

Huquqiy vorislik yuridik shaxsni qayta tashkil etishda kelib chiqadi, qayta tashkil etishda yuridik shaxs o'zining huquqiy vorislari timsolida mavjud bo'ladi va harakat qiladi. Bu qayta tashkil etilgan yuridik shaxs kredi-torlari uchun birinchi darajali ahamiyatga ega.

Yuridik shaxs qayta tashkil etilib, huquqiy vorislik kelib chiqqan holatda fuqarolik-huquqiy tartibga so-lishning vazifalari qo'yidagi zaruratlardan kelib chiqadi:

1) Barcha huquq va majburiyatlarni to'liq yuklash, qayta tashkil etilgan yuridik shaxs faoliyatini, uning huquqiy vorisiga o'tishi;

2) Bu majburiyatlarni va ular buzilganligi uchun ja-vobgarlikni qayta tashkil etilgan yuridik shaxs huquqiy vorislariga, uning faoliyati qanday bo'lingan bo'lsa, shun-day aniqlikda bo'lib berish;

3) Kreditorlarga qayta tashkil etilgan yuridik shaxs majburiyatlari oldida majburiyatli va javobgar bo'lgan uning huquqiy vorislarini topishni engillashtirish. Bun-day tadbirlar zoya ketgan taqdirda, barcha huquqiy voris-larga nisbatan solidar javobgarlikni qo'llash lozim.

Huquqning ijtimoiy ahamiyati ham shundan iborat, ya`ni fuqarolik muomalasida barqarorlik bo'lishi zurur. Bunday sifatlarga faqat mustahkam qonunchilik tufayligina erishish mumkin bo'ladi. Bu esa tegishli ravishda huquqiy munosabatlar sub`ektlarining mustaqilligini, qayta tash-kil etish holatida tomonlarning o'zgarishi, korxonaga huquq va majburiyatlarning o'tishi bilan ular faoliyatini davom ettirishi huquqiy vorislik bilan aniqlashtiriladi. (O'zR FKning 50-moddasi) Fuqarolik kodeksining 82-mod-dasiga ko'ra dastlabki xuquq sub`ektiga tegishli bo'lgan "fuqarolik huquqlarining ob`ektlari erkin suratda boshqa shaxslarga berilishi yoki *universal huquqiy vorislik* (meros qilib olish, yuridik shaxsni *qayta tashkil etish*) tar-tibida yoxud boshqa usul bilan, agar ular muomaladan chiqarilmagan bo'lsa, bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishi mumkin".

Yuridik adabiyotlarda ta`kidlanganidek, huquqiy vo-rislik umumiy (universal) va qisman (singulyar) turlarga ajratiladi. Universal huquqiy vorislikda ma`lum huquq va majburiyatlarning jami o'tadi. Masalan, bir necha yuri-dik shaxslar qo'shib yuborilganda, yangi tashkil bo'lgan yuridik shaxsga universal vorislik tartibida oldingi-larning barcha huquq va majburiyatlari o'tadi. Universal huquqiy vorislikning predmetini huquqni qabul qilib oluvchi (yangi huquq sub`ekti)ga o'tadigan huquq va maj-buriyatlar yig'indisi tashkil qiladi.

Huquqiy vorislik o'z ichiga muayyan huquq va maj-buriyatlarni qamrab oladi. Huquqiy vorisga ma`lum huquq va majburiyatlar majmuasini berish bilan birga ma`lum shaxsda mavjud bo'lgan huquq va majburiyatlar yig'in-disining o'tishi, ya`ni universal huquqiy vorislik muhim o'rin egallaydi. U o'zining tub mohiyatiga ko'ra singulyar (qisman) huquqiy vorislik, ya`ni huquq va majburiyatlar bir qismining huquqiy vorisligidan farq qiladi.

Universal huquqiy vorislikda shaxs huquq va maj-buriyatlari yig'indisi sifatida, unga tegishli bo'lgan mol-mulk huquqiy vorisga yoki huquqiy vorislarga to'liq ra-vishda o'tadi. Ya`ni, mol-mulk bir korxonadan ikkinchisiga o'tganda mulk bilan birga qayta tashkil etilgan korxona zimmasidagi huquq va majburiyatlar yuklanadi. Ayni shun-day holatlar universal huquqiy vorislik holatlariga taalluqli bo'lib, bunda huquq sub`ektivligining to'liq vorisligi muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Fuqarolik kodeksining 51-moddasini quyidagicha tar-tibda ham sharhlash mumkin: ya`ni, yuridik shaxs qayta tashkil etilishi natijasida yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsning mulkka oid huquq va majburiyatlarini o'tish vaqti uning muassislari yoki qayta tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilgan organ tomondan topshirish hujjati va taqsimlash balansida imzolangan va tas-diqlangan sana hisoblanadi.

Topshirish hujjati bilan taqsimlash balansini ular yuridik tabiati va mazmuniga ko'ra korxonaning ustavi va nizomiga tenglashtirish mumkin. Shuning uchun qayta

tash-kil etishda topshirish hujjati yoki taqsimlash balansi tuzilgunga qadar inventarizasiya dalolatnomasi, buxgal-teriya balansi, mustaqil auditorning korxona tarkibi va mol-mulki to'g'risidagi xulosasini, shuningdek kredi-torlar, ular qo'yayotgan talablar xususiyati, miqdori va muddatlari ko'rsatilgan holda korxona tarkibiga kiri-tilgan barcha qarz (majburiyat)lar ro'yxatini tomonlar tuzgan va ko'rib chiqqan bo'lishi kerak.

Lekin taqsimlash balansi va topshirish hujjatini nizosiz hujjat deb bo'lmaydi. Bunday holatlar yuzasidan kelib chiqqan kelishmovchiliklar sud tartibida hal etiladi.

Ko'rib chiqilayotgan qayta tashkil etish va huquqiy vo-rislik to'g'risidagi normalar tushunchalari vaqtga va maz-muniga chambarchas bog'liqlikda tahlil qilinishi lozim. ***Birinchidan***, hech kim topshirish hujjati va taqsimlash balansini tasdiqlovchi yuridik shaxs muassisi (ishtirok-chisi)ning qayta tashkil etish haqidagi qarorini o'zgar-tirish yoki bekor qilish huquqini davlat ro'yxatidan o'tkazish vaqtigacha cheklab qo'ya olmaydi. Muassisning bu huquqi qonunga zid bo'lmaydi va qayta tashkil etishning huquqiy tabiatiga to'liq to'g'ri keladi; ***ikkinchidan***, agar topshirish hujjati va taqsimlash balansida yuridik shaxsning majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorislik to'g'-risidagi qoidalar bo'lmasa, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish rad etilishi mumkin. Shunday qilib, Fuqarolik kodeksida huquqiy vorislik ob`ektini aniqlashda qonun chiqaruvchini yondashishiga e`tiborni qaratish kerak.

qayta tashkil etilgan korxona huquqiy vorislari uni-versal huquqiy voris bo'ladilar, bu haqda topshirish huj-jati va taqsimlash balansida qayd etilgan yoki etilmagan bo'lsada, ular huquq va majburiyatlarni o'z zimmalariga oladilar. Demak, vorislik huquqining mazmunini mol-mulkni topshirish hujjati va uni taqsimlash balansi tashkil etadi.

Har bir huquqiy voris mulkdor yoki xo'jalik yuritish, operativ boshqarish tarzida o'tuvchi mol-mulk tarkibi (mulkiy huquq va majburiyatlar), mulkdor yoki ular tomo-nidan vakil etilgan organ tomonidan belgilanib, taq-simlash balansi va topshirish hujjati orqali aniq-lashtiriladi. Xuddi shunday tartibda mulkiy huquqlarning o'tish payti belgilanadi. Berilayotgan mol-mulk tarkibiga kiruvchi alohida ob`ektlar yuzasidan kelib chiqqan nizolar, mulkdorlar tomonidan mazkur hujjatlar asosida hal etiladi.

Singulyar tartibda vorislarga huquqning belgilangan ma`lum qismi o'tishi mumkin. Singulyar vorislik yuridik shaxsni qayta tashkil qilishda istisno sifatida qo'llanishi mumkin .

Huquqiy munosabatlarda ishtirokchilarning almashini-shi, ayniqsa majburiyatda shaxslarning o'zgarishi, proses-sual huquqiy vorislikka yoki boshqa prosessual oqibatlarga olib kelishi mumkin. Agar sudda xo'jalik nizolarini hal qilishda bir tomonning o'rniga boshqa tomonning prosessda ishtirok etishi lozim bo'lsa, ya`ni nizolashayotgan tarafni aniqlab javobgarlik choralarini qo'llashda prosessual hu-quqiy vorislik muhim o'rin tutadi .

Amaldagi qonunchilikka, xususan, O'zbekiston Respub-likasi XPKning 39-moddasiga muvofiq, taraflardan biri nizoli yoki xo'jalik sudining hal qiluv qarori bilan aniqlangan huquqiy munosabatdan chiqib ketgan taqdirda (***qayta tashkil etish,*** talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish, qarzning boshqa shaxsga o'tkazilishi,

fuqaroning o'limi va boshqa hollarda) sud bu tarafni uning huquqiy vorisi bilan almashtirib, bu haqda o'z ajrimi, hal qiluv qarori yoki qarorida ko'rsatadi. Huquqiy vorislik pro-sessning har qanday bosqichida amalga oshirilishi mumkin[43].

Ta`kidlash lozimki, huquqiy vorislik uchun u prosessga kirishgunga qadar amalga oshirilgan barcha harakatlar huquqiy vorislarga o'rnini bo'shatib bergan shaxsga qay darajada majburiy bo'lgan bo'lsa, prosessdagi huquqiy vorisga ham shu darajada majburiydir.

Fuqarolik kodeksining 52-moddasida "yuridik shaxs qayta tashkil etilganida kreditorlar huquqlarining ka-folatlari"ga alohida e`tibor berilgan. Chunki yuridik shaxs bo'lingach, yoki ajralib chiqqach ular mulkiy jihatdan zaif bo'lgan vorisga tushib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. qo'shib olish yoki qo'shib yuborish kreditorlar sonining ko'payishiga olib keladi. Bu esa kreditorlarga xavf soladi, qarzdor mulki ko'paymasligi, balki qarz ustiga qarz qo'shilishi mumkin. Shu sababli ham qonun qayta tashkil qilish to'g'risida qaror qabul qilgan shaxslar va organ-lardan bu haqda barcha kreditorlarni yozma ravishda xa-bardor qilishlarini talab qiladi.

O'zgartirish natijasida tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirilishi yuridik shaxs qatnashchilari (ishtirokchi-lari)ga o'z kreditorlari oldidagi qo'shimcha mas`uliyati-ning barham berilishiga olib kelishi mumkin. Hozirgi davrda halq xo'jaligidagi tarkibiy o'zgarishlar jarayonida qayta tashkil etishning o'zgartirish shaklini amaliyotda keng qo'llanilayotgani fikrimizning asosli ekanligidan dalolatdir.

Alohida ta`kidlab o'tish kerakki, yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirishda, yuridik shaxs-larni qayta tashkil etishning bo'linish (ajralib chiqish) va qo'shib olish (qo'shib yuborish) kabi shakllarida uchragandek, yuridik shaxsning soni ortib yoki kamaymasada, ushbu yuridik shaxs huquqiy holati (tashkiliy-huquqiy shakli)da mavjud o'zgartirishlar sodir bo'ladi. Bunda mulk shakllari ham o'zgartirilishi mumkin.

Yuridik shaxs qayta tashkil etilsa, qaror qabul qilgan yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari) yoki organ qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsning kreditorlarini bu haqda yozma ravishda xabardor qilishlari shart ekanligi Fuqarolik kodeksining 52-moddasi 1-bandida o'z ifo-dasini topgan. Bu qoidalar qayta tashkil qilinayotgan yuridik shaxs kreditorlarining manfaatlarini huquqiy kafolatlaydi. Bundan ma`lum bo'ladiki, yuridik shaxs mus-taqil tarzda mulk tarkibi mutanosibligi va mexani-zmini aniqlashtirishi, shuningdek tegishli ma`lumotlarni top-shirish hujjati yoki taqsimlash balansida aniq aks et-tirishi lozim.

qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsning xabar berishi, o'z o'rnida kreditorga shu yuridik shaxsning qarzdor bo'lishiga olib kelgan majburiyatlarini bekor qilishni yoki muddatidan oldin bajarishni hamda zararni to'lashni talab qilishga imkon beradi. Lekin shunday holatlar ham uchrab turadiki, bir yuridik shaxs qayta tashkil etilganda, uning zimmasidagi majburiyatlari uchun mas`ul bo'lgan shaxs to-pilmasligi mumkin. Bunda kreditor qayta tashkil etishning ma`lum bir omillar bilan emas, tegishli talablarni aniq sabablar bilan asoslashi darkor. Shuningdek, qayta tashkil etish natijasida belgilangan faoliyat turi bilan shug'ul-lanish huquqiga ruxsat ololmasligi

[43] Ызбекистон Республикаси Хыжалик процессуал кодексининг 39-моддаси.

munosabati bilan qarzdor tomonidan majburiyat bajarish imkoniyati bo'l-maslik holatlari ham bo'lishi mumkin.

Kreditorlarning talablari xuddi shu yuridik shaxsning qayta tashkil etilishiga nisbatan qo'llanib, qayta tashkil etishni olib borish faktiga asoslanadi. Shunday ekan, qayta tashkil etishni tomonlarning talabini qondirish paytigacha amalga oshirilmasligi yoki uni rad etilishiga olib kelishi mumkin (xususan, sud tartibi).

Yuridik shaxs kreditorlari tegishli arizasining mud-dati haqida gapirar ekanmiz, aytib o'tilgan kreditor ta-lablari taqsimlash balansi (topshirish hujjati) tas-diqlanishi vaqtigacha ko'rib chiqish uchun so'zsiz qabul qi-linishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik qonunchiligida bunday holatlar uchun quyidagicha qoida belgilangan. Agar taqsimlash balansi qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning huquqiy vorisini (huquq va majburiyatlar olgan yuridik shaxs)ni aniqlash imkonini bermasa, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxslar qaytadan tashkil etilgan yuridik shaxsning o'z kreditorlari oldidagi majburiyati bo'yicha solidar javobgar bo'ladilar.

Haqiqatdan ham, ba`zida yuridik shaxs qayta tashkil etilganda, ayniqsa ketma-ket ikki-uchga bo'linishida, mazkur qarz universal huquqiy vorislarning qaysi biriga o'tganligini aniqlash qiyin kechadi. Mazkur holat bo'yicha Fuqarolik kodeksining 251-moddasida belgilangan qoida qo'llaniladi. Agar ulushli maj-buriyatda bir necha kredi-tor yoki bir necha qarzdor ishtirok etsa, basharti qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib ko'zda tutilmasa, har bir kreditor majburiyatni boshqalar bilan teng ulushlarda bajarishni talab qilishga haqli, har bir qarzdor esa bu talabni bajarishi shart.

qayta tashkil etish jarayonida vujudga kelgan yuridik shaxsning o'z kreditorlari oldidagi majburiyatlari bo'yicha solidar javobgarligini belgilovchi qoidalar Fuqarolik kodeksining 252, 253, 254, 255-moddalarida ham o'z aksini topgan.

Agar kreditor bu qoidalardan foydalanmasa, qayta tashkil qilingan yuridik shaxs o'rniga boshqa, ya`ni top-shirish hujjati yoki taqsimlash balansiga ko'ra aniqlan-gan huquqiy voris yangi yuridik shaxsga o'tib qoladi. Shu sababli yuqoridagi hujjatlarning tegishli shaxs va organlar tomonidan tasdiqlanganidan keyin ular yangi paydo bo'lgan yuridik shaxsning ta`sis hujjatlariga qo'shib davlat ro'yxatidan o'tkazishga taqdim qilinadi. Bu huj-jatlar taqdim etilmasa yoki hujjatlarda qayta tashkil etilgan yuridik shaxs huquq va majburiyatlariga nisbatan huquqiy vorislikka oid qoidalar aks etmagan bo'lsa, yangidan vujudga kelgan yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazish rad etiladi. Bu ham kreditorlar manfaatini himoya qiluvchi qoidalardan biri sanaladi.

Yuridik shaxsni qayta tashkil qilish to'g'risida qaror qabul qilgan ta`sischi yoki organ, bu haqda uning kre-ditorlarini yozma ravishda xabardor etishlari kerak. Bu bildirishnomani olgan har bir kreditor, qayta tashkil qilingan yuridik shaxs qarzdor bo'lgan majburiyatlarini bajarilishini talab qilishga, shuningdek, majburiyatlarni muddatidan ilgari bajarish tufayli yuzaga kelgan zararni undirish huquqiga egadir. Ayniqsa, yuridik shaxsni qayta tashkil qilish to'g'risida qaror qabul qilgan organning

majburiyatini belgilash zarur. U soliq organlariga bu haqda 10 kun ichida xabar qilishi kerak.[44]

Agarda soliq organi, bildirishga qaramasdan qayta tashkil qilish muddati tugaguncha va taqsimlash balansi (topshirish hujjati) tuzilguncha qayta tashkil qilinayotgan yuridik shaxsning to'lanmay qolgan qarzlarini aniqlamas ekan, keyinchalik yangi tashkil etilgan yuridik shaxsga qayta tashkil qilingan yuridik shaxs tomonidan yo'l qo'yilgan va yangi yuridik shaxs tashkil qilingandan keyin aniqlangan soliq qonunlarini buzganligi uchun javobgarlikka tor-tilmaydi. Bunday hollarda yangi yuridik shaxsdan soliq qiymatigina undirib olinadi.

Masalan, agar yuridik shaxsning mol-mulki, uning qayta tashkil etilishi natijasida boshqasiga o'tayotgan bo'lsa, topshirish hujjati va taqsimlash balansida boshqa kreditorlar odidagi majburiyatlarni bajarilishi singari soliq to'lash majburiyati ham bayon qilinishi kerak. Bunda soliq to'lash majburiyatini - huquqiy vorislik ob`ekti deyish mumkin. U qonun kuchi bilan vujudga keladi va qayta tashkil etish paytida mavjud bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida, korxona mulkdori almashgan, korxona qayta tashkil etilgan, idora-viy bo'ysunuvi o'zgargan hollarda mehnat shartnomasi amal qilishining davom etishi haqidagi qoidalar belgilangan. Bunda "korxona mulkdori almashganda, xuddi shuningdek korxona qayta tashkil etilganda (qo'shib yuborilgan, bir-lashtirilgan, bo'lib yuborilgan, qayta tuzilgan, ajratil-ganda) mehnat munosabatlari xodimning roziligi bilan davom etaveradi". (O'zR. MKning 98-modda 1 qism.)

Korxona egasi almashganda, ya`ni korxona qayta tashkil etilganda xodimning roziligi bilan bo'lgan munosabat davom etadi. Ish beruvchi tomonidan mehnat shartnoma-sining to'xtatilishi ish o'rinlarining qisqarishi natija-sida amalga oshirilishi mumkin.

Amaliyotda korxona mulkdori almashganda, korxona qayta tashkil etilganda xodim bilan ish beruvchi o'rtasida har xil kelishmovchiliklar paydo bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1015-moddasida "hayot va sog'liqqa etkazilgan zarar uchun belgilangan tar-tibda javobgar deb topilgan yuridik shaxs qayta tuzilgan taqdirda, tegishli to'lovlarni to'lash majburiyati uning huquqiy vorisi zimmasiga yuklanishi hamda zararning o'rnini qoplash to'g'risidagi talabnoma ham unga taqdim etilishi" mustahkamlangan. Amaliyotda "qayta tashkil etish" tushunchasini faoliyat yuritayotgan barcha xo'jalik yurituvchi sub`ektlarga nisbatan qo'llay olmaymiz. Masalan, Fuqa-rolik kodeksining 67-moddasi mazmuniga muvofiq, asosiy xo'jalik jamiyati va shirkati sho``ba xo'jalik jamiyatining ustav fondida unga nisbatan ustunlik mavqeiga ega bo'ladi. Vaholanki, sho``ba jamiyati yuridik shaxs hisoblansa-da, o'zi mustaqil qarorlar qabul qila olmasligi uchun qayta tashkil etish taomilini qo'llab bo'lmaydi.

Shuningdek, korxona tarkibida bir yoki bir necha tar-kibiy bo'linmalarning barpo etish yo'li bilan yangi korxona tashkil etilmaydi, chunki qayta tashkil etish jarayonining sub`ekti yuridik shaxs huquqiga ega bo'lgan korxona sa-naladi.

---

[44] Соли= кодексининг 12-моддасига мувофи=, "юридик шахс манзилини ызгартирган та=дирда, бу ща=да соли= органига ын кунлик муддат ичида хабар бериш"и лозим.

Xususiy tadbirkor - jismoniy shaxs ham qayta tashkil etilmaydi. Shunday qilib, ko'rsatib o'tilgan holatlarda tadbirkorlik faoliyati tugatish yo'li bilan to'xtatiladi.[45]

Korxonani qayta tashkil etishdan uning predmet va faoliyatini o'zgartirishni farqlash zarur. Bunda u korxona mulkdori (ta`sischisi) tomonidan mavjud bo'lgan yuridik shaxsi doirasida amalga oshiriladi. Aksiyadorlik jamiyati Ustav fondining o'zgarishi korxonaning qayta tashkil etilishini anglatmaydi.

Aksiyadorlik jamiyatlarining (ochiq turdan yopiq turiga va aksincha) bir turdan ikkinchi turga o'tishi bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar haqida alohida to'xtalish lozim. Amaliyotda, bunday o'zgarishlar qayta tashkil qilishmi yoki ta`sis hujjatlariga o'zgarishlar kiritilayaptimi, degan savollar yuzaga kelmoqda. Bizga ma`lumki qayta tashkil qilishni o'zgartirish turi yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shaklining o'zgarishini anglatadi. Amaldagi qo-nunlar, xususan, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyador-larning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 5-moddasida yopiq va ochiq aksiyadorlik jamiyatlari bir tashkiliy-huquqiy shaklga kiritilib, ularga bu shaklning ikki xil turi sifatida qaraladi[46]. Shuning uchun aksiya-dorlik jamiyatlari tipidagi o'zgarishlarga qayta tashkil qilishning o'zgarish turi sifatida qaray olmaymiz. Bu o'zgarishlar ta`sis hujjatlariga muvofiq keluvchi o'zgar-tirishlar kiritish yo'li bilan rasmiylashtiriladi.

Yuridik shaxslarni qayta tashkil etish yoki tugatish to'g'risida fikr yuritgan huquqshunos olimlar har qanday vaziyatda bo'lmasin, yuridik shaxs faoliyatini bekor qi-lishga olib keluvchi bu ikki tartib haqida so'z yurita-digan bo'lsalar, albatta ularning har birini alohida eslab o'tadilar. Demak, bu ikki yuridik fakt yuridik shaxsning faoliyat yuritishiga u yoki bu darajada ta`sir etishi tu-fayli bir-biri bilan bog'liq jihatlarga ega.

qayta tashkil etish institutini xo'jalik yuritish ama-liyotida qo'llash yordamida: **birinchidan**, fuqarolik muo-malasining barqarorligi saqlanib qoladi; **ikkinchidan** barcha huquq va majburiyatlar majmuining huquqiy vo-risligi ta`minlanadi; **uchinchidan**, shartnomaviy va xo'ja-lik aloqalari erkinligi ta`min etiladi; **to'rtinchidan**, kreditorlar huquqlari maksimal darajada kafolatla-nadi; **beshinchidan**, qo'shimcha soliq to'lash zarurati yo'-qoladi; **oltinchidan,** vaqtinchalik xarajatlar qisqaradi; **ettinchidan,** ayniqsa qayta tashkil etishning o'zgartirish shaklini qo'llash samarasining yuqoriligi shundaki unda ishlab chiqarish kapitali, moddiy vositalar, asosiy va oborotdagi fondlar to'liq saqlanib qoladi.

2-§. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi sub`ektlarini tugatish tartibi va asoslari.

Respublikamizda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining shakllanishi davrida turli mulk shakllarining mavjudligi xo'jalik yuritishning ham xar xil ko'rinishlarini vujudga keltirib, xo'jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatiga alohida e`tibor berishni taqozo etmoqda. Ma`lumki, xo'jalik yuritish sub`ektlarining samarasiz faoliyat yuritishi davlat va jamiyat manfaatlariga sezilarli zarar keltiradi. Har qanday davlat va jamiyat o'z hududida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik sub`ektlarining yaxshi ishlashi tarafdoridir. Shu xususda, Prezident I.A.Karimov "eng avvalo, istiqbolsiz korxona va tashkilotlarni har qanday yo'l bilan bo'lsa-da, qo'llab-quvvatlashdek xato

[45] Ызбекистон Республикаси Хусусий тадбиркорлик ты\рисидаги Низом.Т."Ызбекистон" 1992. 16 б.
[46] Ызбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 йил, 5-6 сон. 61-модда.

yo’lga barham berish zarurligini va bu yo’l bozor talabiga mutlaqo yot va ziddir. Samarasiz ishlaydigan korxonalar karzdorlik girdobiga faqat o’zlari g’arq bo’libgina qolmay, boshqa korxonalarni ham ortidan tortib ketadi”[47] deb haq gapni aytgan edi. To’g’ri, bunday holat albatta achinarli, lekin undan qutilib bo’lmaydi. Bir so’z bilan aytganda, yuridik shaxsni tugatish masalasi haqiqatdan dolzarb mavzu bo’lib bormoqda.

Ushbu vaziyatga mamlakatimizda to’g’ri baho berilib, qonunda belgilangan tartib asosida hal qilish uchun maxsus qonun me`yorlari va chora tadbirlar ishlab chiqilgan. O’zbe-kiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining normalari yuridik shaxslarni tugatishning fuqarolik-huquqiy tar-tibga solinishini to’liq mujassamlashtirgan asosiy huqu-qiy hujjat bo’lsa, shu singari mustaqillikka erishga-nimizdan buyon qabul qilingan qishloq xo’jalik korxona-lari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar[48] da esa yuridik shaxsni tugatishda mazkur sohaning o’ziga xos xususiyatlari inobatga olinib huquq normalari belgilangan.

O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik qonunchiligida yuridik shaxslarni ikki xil usulda tugatilishini ko’-rishimiz mumkin.

Birinchisi ixtiyoriy usul bo’lib u - muassislar (ish-tirokchilari) yoki ta`sis hujjatlari bilan tugatishga va-kolat berilgan yuridik shaxs organining qaroriga muvo-fiq;

♦ yuridik shaxsning faoliyat yuritish muddatining tugashi;

♦ uni tashkil etishdan ko’zlangan maqsadga erishil-ganligi munosabati bilan;

♦ yuridik shaxsni tashkil etish chog’ida qonun huj-jatlari buzilishiga yo’l qo’yilganligi sababli, agar bu buzilishlarni bartaraf etib bo’lmasa, sud yuridik shaxsni ro’yxatdan o’tkazishni haqiqiy emas deb topganda;

♦ muassislar (ishtirokchilar) yoki yuridik shaxs organi tomonidan tashkilotni tugatish uchun etarli bo’lgan boshqa sabablarni tan olishi bilan;

Ikkinchisi - majburiy usulda sud qarori bo’yicha:

♦ faoliyatni tegishli ruxsatnomasiz (lisenziyasiz) amalga oshirish;

♦ qonun tomonidan ta`qiqlab qo’yilgan faoliyatni amalga oshirgan yoki qonun yoki huquqiy aktlarni bir necha marta va qo’pol ravishda buzish holatlarida;

♦ Fuqarolik Kodeksida nazarda tutilgan boshqa hol-larda sudning qaroriga muvofiq[49];

♦ Bozor munosabatlari mamlakat iqtisodiyotiga qancha-lik chuqurroq kirib kelishi o’z faoliyatini samarasiz olib borayotgan yuridik shaxslarga jiddiy ta`sir ko’rsatmoqda. Shu sababli 6 oy mobaynida (savdo vositachilik korxonasi esa-uch oy mobaynida) bank hisobvaraqlari bo’yicha pul operasiyalarini o’tkazish bilan bog’liq moliya-xo’jalik faoliyatini amalga oshirilmagan, (dehqon va fermer xo’jaliklari bundan mustasno) va (yoki) davlat ro’yxatidan o’tkazilgan paytdan e`tiboran bir yil ichida ustav fondi ta`sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorda shakl-lantirilmagan

---

[47] Каримов. И.А. Бар=арор тара==иётга эришиш устувор вазифа. -Т.: Ызбекистон. 1998. 29 б.

[48] +ишло= хыжалигида ислощотларни чу=урлаштиришга доир =онун ва меъёрий щужжатлар тыплами. -Т.: “Шар=” 1998. 315 б.

[49] Масалан, банкротлик щолатида, мулк щу=у=инининг бекор былиши (197 модда), мол-мулкни тугатиш ва щисобдан чи=ариш (198 модда), мол-мулкни мусодара =илиб олиб =ыйиш (199-модда), национализация (миллийлаштириш) (202 модда) былиши, зарар етказишни олдини олиш ма=садида (986 модда) амалга оширилиши мумкин.

taqdirda, ham uning tugatilishiga olib ke-lishi haqidagi norma Fuqarolik kodeksida mustahkamlab qo'yildi.[50]

O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 27 dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'-risida»gi qonuniga asosan olti oy mobaynida moliya-xo'-jalik faoliyatini amalga oshirmagan taqdirda korxona tugatiladi va soliq organlarning taqdimnomasiga binoan, sud qaroriga asosan ruyxatdan o'tkazish tartibiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda davlat hokimiyati mahalliy organlari tomonidan xo'jalik yuri-tuvchi sub`ektlar reestridan chiqariladi. Majburiy usulda yuridik shaxs sud tartibida yoki maxsus vakolat berilgan davlat boshqaruv organi qarori bilan tugatiladi. Yuridik shaxslar birlashmalari (ittifoqlari, uyushmalari), xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarining uyushmaga kirgan xo'jalik yurituvchi sub`ektlar xo'jalik faoliyatiga raqobatni chek-laydigan yoxud cheklashi mumkin bo'lgan tarzda aralashishi taqiqlanadi. Ushbu talabni buzish monopoliyaga qarshi davlat organi (o'z vakolatlari doirasida xududiy organ)ning da`vosiga binoan yuridik shaxslar birlashmasi (ittifoqi, uyushmasi)ning, xo'jalik shirkati va jamiyatining sud qarori orqali tugatishiga asos bo'lishi mumkin. "Yuridik shaxsni tugatish – murakkab va ko'p vaqt talab qiluvchi ish"[51] hisoblanadi. Shuning uchun yuridik shaxsni tugatish jara-yoni bir necha bosqichni o'z ichiga oladi.

Yuridik shaxs uning muassislari (ishtirokchilari)ning yoki ta`sis hujjatlari bilan tugatishga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qaroriga binoan tugatilishi mumkin. Odatda muassislar ham ishtirokchilar ham o'z ixtiyorlari bilan har qanday vaqtda tugatish to'g'risidagi qarorni qabul qilishlari mumkin. Bu ularga berilgan huquqdir. Lekin shu bilan birgalikda tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilish ular uchun burchni ham keltirib chiqa-radi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida sud tartibida tugatish ikki asosda umumiy va maxsus asoslarda amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Umumiy asos barcha turdagi yuridik shaxslarga, maxsus asos esa alohida turdagi yuridik shaxslar uchun taalluqlidir. Umumiy asoslarga ko'ra o'z faoliyatini ruxsatnomasiz (lisenziyasiz) amalga oshi-rayotgan yoki qonun tomonidan ta`qiqlangan faoliyat bilan shug'ullanayotgan yuridik shaxslarga nisbatan yoki Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan boshqa hollarda sudning qaro-riga muvofiq qo'llaniladi.

Maxsus asosga ko'ra tugatiladigan alohida turdagi yuridik shaxslar qatoriga O'zbekiston Respublikasi qonu-niga binoan o'z huquqiy maqomini olib, maxsus xuquq layoqatiga ega bo'lgan qishloq xo'jalik korxonalari kiradi. Odatda, har bir qishloq xo'jalik korxonasining huquqiy maqomini o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi. Ma-salan, fermer xo'jaligi: xo'jalik faoliyatini davom et-tirish istagida bo'lgan bironta ham xo'jalik a`zosi yoki merosxo'r qolmagan bo'lsa; er uchastkasini ijaraga olish huquqidan ixtiyoriy voz kechilganda; er uchastkasining ijaraga berilgan muddati tugaganda va erdan foydalanish huquqini tiklashning imkoniyati bo'lmaganda; erdan bel-gilangan maqsadda va oqilona foydalanilmaganda, olin-gan

[50] "Ызбекистон Республикасининг айрим =онун щужжатларига ызгартиришлар ва =ышимчалар киритиш ты\рисида" Ызбекистон Республикаси =онуни. «Хал= сызи», 1999 йил. 17 сентябр.

[51] Гражданское право: В 2 т. Том 1: Учебник / Отв. Ред проф. Е.А.Суханов. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Из-во БЕК, 1998. С. 203.

hosildorlik normativ kadastr bahosidan muttasil (uch yil maboynida) past bo'lganda; erlarning ekologik holati yomonlashganda; er uchastkasi belgilangan tartibda olib qo'-yilganda; fermer xo'jaligi bankrot deb e`lon qilin-ganda; ijara haqi belgilangan muddatlarda muttasil to'-lanmay kelinganda; fermer xo'jaligi er olgan paytdan e`tiboran bir yil mobaynida xo'jalik ishlab chiqarish faoliyatiga kirishmagan bo'lsa; fermer xo'jaliklari fao-liyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari bir necha marta yoki bir marta, lekin qo'pol ravishda buzilganda; shartnoma shartlari buzilganligi munosabati bilan erni ijaraga olish shartnomasi bekor qilingan hollarda tuga-tiladi. O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida"[52] gi qonunida 11 ta asosda fermer xo'jaligining faoliyati to'xtatilsa, dehqon xo'jaligi faoliyatini tugatish (faoliyatini to'xtatish) asoslar 6 ta qilib ko'rsatilgan.

"Dehqon xo'jaligi to'g'risidagi"[53] O'zbekiston Respub-likasi qonunining 27-moddasiga binoan, dehqon xo'jaligi quyidagi, ya`ni: xo'jalik faoliyatini davom et-tirish is-tagida bo'lgan bironta ham xo'jalik a`zosi yoki merosxo'r qolmagan bo'lsa; tomorqa er uchastkasiga meros qilib qol-diriladigan umrbod egalik qilish huquqidan ixtiyoriy voz kechilganda; tomorqa er uchastkasi qonunda belgilangan tartibda olib qo'yilganda; belgilangan soliqlar muttasil to'lanmaganda; agar qonun hujjatlarida boshqa muddat bel-gilangan bo'lmasa, yangi berilgan tomorqa er uchastkasidan bir yil mobaynida foydalanishga kirishmagan taqdirda; dehqon xo'jaliklari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari bir necha marta yoki bir marta, lekin qo'pol ravishda buzilgan hollarda tugatiladi.

Dehqon xo'jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo'jaligi a`zolarining istagiga ko'ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishini inobatga olgan holda, agar yuridik shaxs tashkil etib, faoliyat olib bo-rayotgan bo'lsa, uning faoliyati tugatiladi. Yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat yuritayotganda esa dehqon xo'-jaliklarining faoliyati to'xtatiladi. Yuqorida to'xtalib o'tganimizdek, bozor sharoitida yuridik shaxslarning faoliyatini to'xtatish va tugatish shartlari va usullari har xildir.

Tadbirkorlik faoliyatini sub`ekti sifatida mas`uliyati cheklangan va qo'shimcha ma`suliyatli jamiyatlar fu- qarolik huquqiy maqomiga ega bo'lib, O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 6 dekabrda qabul qilingan «Mas`uliyati cheklangan va qo'shimcha mas`uliyatli jamiyatlar to'g'-risida» gi qonunda jamiyatni tashkil etilishi, faoliyat olib borishi va tugatilishi to'g'risidagi qoidalar belgilangan. Jamiyat ushbu qonun va jamiyat ustavi talablari hisobga olingan holda qonunlarda belgilangan tartibda ixtiyoriy ravishda tugatilishi mumkin. Jamiyat qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra sudning qa-roriga binoan ham tugatilishi mumkin. Jamiyatni tugatish uning huquqlari va majburiyatlari huquqiy vorislik tar-tibida boshqa shaxslarga o'tmagan holda faoliyatining tugatilishiga sabab bo'ladi. Jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining jamiyatni ixtiyoriy ravishda tugatish hamda tugatish komissiyasini tayinlash to'g'risidagi qarori jamiyat kuzatuv kengashining, ijro etuvchi organining yoki ishtirokchisining taklifiga binoan qabul qilinadi. Ix-tiyoriy ravishda tugatilayotgan jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi

[52] Ызбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 йил, 5-6 сон, 86-модда.
[53] Ызбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 йил,5-6 сон, 88 модда.

jamiyatni tugatish va yuridik shaxslarni davlat ro’yxatidan o’tkazuvchi organ bilan kelishgan holda tugatish komissiyasini tayinlash to’g’risida qaror qabul qiladi. Tugatish komissiyasi tayinlangan paytdan e`tiboran jamiyat ishlarini boshqarish bo’yicha barcha vakolatlar unga o’tadi. Tugatish komissiyasi tugatilayotgan jamiyat nomidan sudda ishtirok etadi. Ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo’lgan jamiyatni tugatishda tugatish komissiyasining tarkibiga davlat mulkini boshqaruvchi organning vakili kiritiladi. Mazkur talab bajarilmagan taqdirda, jamiyatni davlat ro’yxatidan o’tkazgan organ tugatish komissiyasi tayinlanishiga rozilik berishga haqli emas.

Bozor munosabatlari sharoitida xo’jalik shirkatlari tadbirkorlik faoliyati sub`ektlari tarkibida alohida o’rin tutadi. Uning huquqiy maqomi Fuqarolik kodeksi va 2001 yil 6 dekabrda qabul qilingan «Xo’jalik shirkatlari to’g’risida»gi qonun bilan tartibga solinadi. qonunga ko’ra, muassislarning (ishtirokchilarning) ulushlariga (hissalariga) bo’lingan ustav fondiga (ustav kapitaliga) ega bo’lgan tijorat tashkiloti xo’jalik shirkati hisoblanadi, bunday shirkatda muassislar (ishtirokchilar) yoki ulardan ayrimlari shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati yuritishda shaxsan ishtirok etadilar. Shirkat qonunlarda nazarda tutilgan asoslarga ko’ra, shuningdek shirkatda yagona ishtirokchi qolgan taqdirda tugatiladi. Bunday ishtirokchi shir-katning yagona ishtirokchisiga aylangan paytdan e`tiboran olti oy ichida yangi ishtirokchilarni qabul qilishga va shirkatni saqlab qolishga, shirkat tomonidan amalga oshi-rilayotgan faoliyatni moliyalashtirish to’g’risida hissa qo’-shuvchilar bilan shartnoma tuzishga va kommandit shirkat tuzishga, shirkatni qayta tuzish yoki tugatishga haqlidir.

Agar shirkatning ta`sis shartnomasida yoki qolgan ishtirokchilarning kelishuvida shirkat o’z faoliyatini davom ettirishi nazarda tutilgan bo’lmasa, shirkat qayd etilgan qonun 22-moddasining birinchi qismida ko’rsatilgan hollarda ham tugatiladi. Xo’jalik shirkatlarining tashkiliy shakllaridan biri bo’lib kommandit shirkat hisoblanadi. Kommandit shirkat unda ishtirok etgan barcha hissa qo’shuvchilar shirkatdan chiqqan taqdirda, shuningdek «Xo’jalik shirkatlari to’g’risida»gi qonun 27-moddasida nazarda tutilgan to’liq shirkatni tugatish asoslari bo’yicha tugatiladi. Barcha hissa qo’shuvchilar shirkatdan chiqqan taqdirda to’liq sheriklar kommandit shirkatni tugatish o’rniga uni to’liq shirkatga aylantirishga haqlidirlar. Kommandit shirkat tugatilgan taqdirda, shu jumladan u bankrot bo’lgan taqdirda, hissa qo’shuvchilar shirkatning kreditorlarning talablari qondirilganidan keyin qola-digan mol-mulkidan hissalar olishda to’liq sheriklar ol-dida imtiyozli huquqqa egadirlar. Shirkatning shundan ke-yin qolgan mol-mulki to’liq sheriklar o’rtasida, agar ta`sis shartnomasida yoki to’liq sheriklar va hissa qo’-shuvchilarning kelishuvida boshqacha qoida belgilangan bo’l-masa, ularning shirkat ustav fondidagi (ustav kapitali-dagi) ulushlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Yuridik shaxsni tugatilishini oshkoralikda amalga oshirish tugatish jarayoni huquqiy jihatdan aniq va kam-chiliklarsiz yakunlashda muhim ahamiyat kasb etadi**.** O’zbe-kiston Respublikasi FKning 54-moddasiga ko’ra, yuridik shaxsni tugatish to’g’risidagi qaror qabul qilgan uning muassislari va ishtirokchilari yoki vakolat berilgan organ bu haqda yuridik shaxslarni davlat ro’yxatidan o’tkazuvchi organga yozma tartibda xabar berishlari lozim. Davlat ro’yxatidan o’tkazuvchi organ mana shu xabarga asosan yuridik shaxs tugatilish jarayonida ekanligi haqidagi ma`lumot-

larni yagona davlat reestriga kiritadi. Ma`lumotlar ki-ritilgandan so'ng yuridik shaxsning firma nomiga albatta "tugatilishda" degan so'z qo'shib qo'yiladi.

Bundan tashqari, bu haqda soliq organlarini ham xabardor qilib qo'yish maqsadga muvofiqdir. Chunki, har qanday xo'jalik yurituvchi sub`ekt tashkil etilgan paytda soliq to'lovchi sifatida davlat soliq organlarida ro'yxatga olinadi. Soliq kodeksining 41-moddasida yuridik shaxs tugatilgan taqdirda soliq organi soliq to'lovchidan kamroq bo'lgan davr uchun hisobotlar, xabarnoma topshirish yo'li bilan talab qilishi mumkin bo'lib, xabarnomada buning sababi va hisobotlar, taqdim etilishi lozimligi ko'rsa-tiladi. Yuridik shaxsni tugatish haqida belgilangan tartibda qaror qabul qilingan taqdirda tugatish komis-siyasi (tugatuvchi) besh kunlik muddatda bu haqda soliq organini yozma ravishda xabardor qiladi.

Yuridik shaxsni tugatish haqida qaror qabul qi-lingandan so'ng soliq to'lovchi o'n besh kun ichida soliq or-ganiga hisobotlar, soliq bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etishi shart. Daromad (foyda) solig'i bo'yicha hisobotlar, hisob-kitoblar qonun hujjatlarida belgilangan shakl va tartibda taqdim etiladi. Shuningdek, korxona tugatilganda soliqqa tortish masalalari ma`lum idoraviy yo'riqnoma asosida hal etilishi mumkin.[54] Shu bilan birga yuridik shaxsni tugatilishi to'g'risida pensiya fondlari hamda sug'urta jamg'armalarini ogohlantirib, o'zlarining hisob raqamlarini yopish choralarini ko'rishi lozim.

Tugatishda mazkur yuridik shaxs faoliyati to'liq bekor qilinib, uning ishi to'xtatiladi va mol-mulki tugatiladi. Bunday holatda tugatish komissiyasi tuziladi. Uning fikriga qisman qo'shilgan holda aytish mumkinki, hozirgi vaqtda tugatish tadbirlarini amalga oshirish maqsadida tugatish komissiyasi tuzilishi yoki shunday harakatlarni bajaruvchi tugatuvchi tayinlanishi o'zining qonuniy asosiga ega. Bu hatti-xarakatlar tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilgan shaxslar tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ bilan kelishilgan holda hal qilinadi. Davlat kor-xonalarini tugatishda tugatish komissiyasi tarkibini iq-tisodiy nochorlik bo'yicha boshqarma O'zbekiston Respub-likasi tegishli vazirlik va idoralari vakillari, mahalliy ijroiya organlari mutaxassislari va boshqalar tashkil qi-lishi mumkin. Shunday qilib, qoidaga ko'ra, amaliyotda tu-gatish komissiyasi tarkibiga muassislar (ishtirokchilar) tugatilayotgan tashkilot ma`muriyati vakillari kiradi.

Shuningdek, ular tugatish komissiyasi yoki tugatuv-chining asosiy vazifalarini aniqlashtirish bilan bir vaqtda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga mu-vofiq tugatish tartibini hamda muddatini belgilab oladilar. Tugatish komissiyasi matbuot organlarida yuridik shaxsning tugatilishi hamda uning kreditorlari tomonidan talablarni bayon etish tartibi va muddati haqida xabar e`lon qiladi. Kodeksning 55-moddasiga muvofiq bu muddat tugatish haqida xabar e`lon qilingan paytdan boshlab "ikki oydan kam bo'lishi mumkin emas". Undan oldin qabul qilingan qonun hujjatlarida esa bu muddat ikki oygacha deb ko'rsatilar edi. Lekin amaliyotda bir oy ko'rsatilib e`lon qilinar edi. Hozir ham ba`zan matbuotda bir oy ko'rsatilib xabar qilinadi. Shu bilan kreditorlar tomo-nidan o'z talablarini bayon qilish uchun zarur bo'lgan imko-niyat cheklanadi. "Ikki oydan kam bo'lishi mumkin

[54] Ызбекистон Республикаси Молия вазирлиги ва Давлат соли= =ымитаси томонидан белгиланган "Юридик шахслар даромади (фойдаси) соли=ни щисоблаш ва бюджетга тылаш тартиби ты\рисида"ги 2002 йил 14 январда =абул =илинган 1109-сонли Йыри=нома.

emas” deb ko’rsatilgan Kodeksda o’rnatilgan imperativ norma kredi-torlarning huquqlarini himoya qilish uchun tegishli kafo-lat yaratishga qaratilgan.

Tugatish komissiyasi tasdiqlangan kundan boshlab yuridik shaxsning ishlarini boshqarish sohasidagi vako-latlari uning ixtiyoriga o’tadi. Shuni alohida ta`kidlab o’tish joizki, mazkur komissiya tugatuvchi mustaqil huquq sub`ekti bo’lib hisoblanmaydi. U faqat tugatish jarayonida kreditorlar, qarzdorlar, davlat hokimiyati organlari va boshqa shaxslar bilan munosabatga kirishib, tugatilayotgan yuridik shaxs nomidan harakat qiladi.

Tugatish komissiyasi tugatilayotgan yuridik shaxs no-midan sudda ishtirok etadi. Tugatish komissiyasi tugati-layotgan yuridik shaxs hisob varaqlari ochilgan bankka tugatish komissiyasining ruxsatisiz hisobdan foydalan-maslik to’g’risida ariza yuboradi. Mana shu arizaga ko’ra bank tugatilayotgan korxona hisobi bo’yicha keyinchalik yuborilayogan ijro va boshqa hujjatlarni qabul qilishni to’xtatadi. Tugatish komissiyasi barcha kreditorlarni aniq-lash va debitorlik qarzlarini undirish, shuningdek yuridik shaxs tugatilayotganligi haqida kreditorlarni yozma xabar-dor qilish choralarini ko’rish lozim. Debitorlik qarzla-rini undirish maqsadida qarzdorlarga talab qo’yishlari zarur. Agar qarzlarni qaytarish rad qilinsa tegishli da`vo bilan sudga murojaat etish kerak. O’zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to’g’risida”gi qonuning 21- moddasiga muvofiq yuridik shaxs tugatilayotgan taqdirda moliyaviy hisobot tuziladi[55].

Agarda yuridik shaxs sud tartibida tugatilayotgan bo’lsa, sud uning muassislari va ishtirokchilari yoki vakolatli organga o’z burchlarini to’g’ri bajarish mas`uliyatini yuk-laydi. Ularning burchlari tugatishni sud qarorida belgi-langan muddatda va tartibda amalga oshirishi lozim xolos. Lekin sud qarori to’g’ri va lozim darajada bajarilmagan bo’lsa, sud tugatish komissiyasini tuzadi yoki tugatuvchini tayinlab, unga tugatishni amalga oshirish vazifalarini yuklaydi. Masalan, etkazilgan zarar zarar etkazishni davom ettirayotgan korxona, inshootdan foydalanish yoxud boshqa ishlab chiqarish faoliyatining oqibati bo’lsa, sud javob-garga zararni qoplashdan tashqari tegishli faoliyatni to’xtatib turish yoki tugatish majburiyatini yuklashga haqli. (FKning 986-moddasi 2 qismi) Bu chora tadbirlar tugatish jarayonining boshlang’ich, **birinchi bosqichini** tashkil etadi.

Tugatish jarayonining avvalida tugatish komissiyasi (tugatuvchi) yuridik shaxsning barcha kreditorlarini aniq-lash ishlarini olib boradi. Uning asosiy mazmunini kreditorlarning mavjud talablarini aniqlash va ularni qondirish tashkil etadi. Buning uchun yuridik shaxsni tuga-tish to’g’risida qaror qabul qilgan yuridik shaxs muas-sislari (ishtirokchilari) yoki vakolatli organ bu haqda yuridik shaxslarni davlat ro’yxatidan o’tkazuvchi organga darhol yozma xabar berishi lozim. Shuningdek, yuridik shaxs o’zining tugatilayotganligi haqida matbuot organlari orqali e`lon qilib, unda kreditorlari tomonidan talablarini bayon qilish tartibi va muddatini belgilab qo’yadi. Bu muddat tugatish haqida xabar e`lon qilingan paytdan boshlab ikki oydan kam bo’lishi mumkin emas. Yuqorida aytib o’tilgan ushbu tadbirlar ham avvalo kreditorlar manfaatlarining himoyasiga qaratilgan. Chunki yuridik shaxs

[55] “Бухгалтерия щисоби ты\рисида”ги 1996 йил 3 августда =абул =илинган +онун. Ызбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси, 1996 йил, 9 сон, 142-модда.

tugatilgach, qol-gan mol-mulk uning ta`sischilari va a`zolari o'rtasida taqsimlanib, ularning xususiy mulkiga aylanishi mumkin.

Kreditorlar talablarini qanoatlantirish tugatishning muhim bir bosqichlaridan hisoblanadi. Shuning uchun, O'z-bekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 55-mod-dasida tugatish komissiyasini vazifasi sifatida **ikkinchi bosqichda** kreditorlarni aniqlash va debitorlik qarz-larini olish choralarini ko'rish, shuningdek kreditorlarni yuridik shaxsning tugatilishi haqida yozma xabardor qilishi kerakligi mustahkamlangan. Amaliyotda qarzdorning maj-buriyatini bajarish muddati boshlanmagan bo'lsa, ular o'r-tasida muammo paydo bo'lishi mumkin. Mazkur holatda tugatiluvchi yuridik shaxs o'zining tugatilayotganligini asos qilgan holda, qarzdorlaridan o'z majburiyatlarini baja-rishlarini talab qilishga haqli emas. Ular bu majburiyatni tugatish muddatini belgilash chog'ida hisobga olishlari kerak edi. Mavjud vaziyatdan qutilishning birdan-bir yo'li tugatiluvchi yuridik shaxs qarzdori bilan kelishuvga erishib, unga nisbatan qo'yiluvchi talabni boshqa shaxs hisobiga bajarishi haqida kelishuvga erishish mumkin.

Kreditorlar tomonidan talablarni qo'yish uchun belgi-langan muddat tamom bo'lganidan keyin yuridik shaxsni tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan yuridik shaxs muassislari va ishtirokchilari hamda davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ bilan kelishilgan holda, tugatish komis-siyasi oraliq tugatish balansini tuzadi. Balansda tugati-layotgan yuridik shaxs mol-mulkining tarkibi, kreditorlar qo'ygan talablar ro'yxati, shuningdek ularni qo'rib chiqish natijalari to'g'risidagi ma`lumotlar qayd etiladi. Oraliq tugatish balansi yuridik shaxsni tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari) yoki organ tomonidan yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ bilan kelishgan holda tasdiqlanadi. Davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ balansning to'g'riligini, asos-lantirilganligini nazorat qilishi zarur. Agar tugati-layotgan yuridik shaxs (muassasalardan tashqari) ixtiyori-dagi pul mablag'lari kreditorlarning talablarini qon-dirish uchun etarli bo'lmasa, tugatish komissiyasi yuridik shaxsning mol mulkini kim oshdi savdosi orqali sud qarorlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda sotadi va qarzlarini to'lash uchun ishlatadi. Ya`ni qarzlarni to'lash bo'yicha kreditorlar talablari endi mazkur yuridik shaxs-ning mol-mulkiga qaratilishi mumkin. Bu tugatish ja-rayonining **uchinchi bosqichiga** xos xususiyatdir.

Agarda oraliq balansini belgilash chog'ida tugatiluvchi korxonaning mol-mulki etarli emasligi aniqlansa, bunday yuridik shaxs faqat bankrotlik yo'li bilan tugatiladi. Bankrotlik chora-tadbirlari majmuasi barcha tijorat va notijorat tashkilotlari uchun tadbiq etilishi mumkin. Tugatish jarayoni olib borilayotgan vaqtda ham, tugatish komissiyasi yoki tugatuvchi tomonidan yuridik shaxsning nochorligi (bankrotligi) aniqlansa, unga nisbatan bankrot bo'lganlikka doir ish yuritishni qo'zg'atishga asos bo'ladi. Uning tugatilish jarayonida ekanligi ish yuritishni qo'z-g'atishga to'sqinlik qila olmaydi. Bankrotlikka uchragan xo'jalik yurituvchi sub`ektlarni tugatish tartibi va xususiyatlari O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 24 aprelda qabul qilingan "Bankrotlik to'g'risida"gi (yangi tahrirdagi) qonuni bilan belgilanadi. Ushbu qonunning 4-moddasiga ko'ra qarzdorning pul majburiyatlari buyicha kreditorlar talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to'lovlar bo'-yicha o'z majburiyatini bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to'lovlar majburiyati

yuzaga kelgan kundan e`tiboran uch oy davomida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo'lsa, uning bankrotlik alomatlari deb e`tirof etiladi.

Keyingi **to'rtinchi bosqichda** tugatish komissiyasi ora-liq tugatish balansiga binoan to'lovlarni tayyorlaydi. Kreditorlarni talablarini qondirish navbati O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 56-moddasida bel-gilangan bo'lib, birinchi navbatda, fuqarolarning mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablari qondiriladi. Mazkur qoidani belgilashda mamlakatimizda fuqarolar mehnatini muhofaza qilish va Mehnat kodeksi normalari inobatga olingan[56]. Ikkinchi navbatda aliment-larni undirishdan va mualliflik shartnomalari bo'yicha mukofot to'lash haqidagi talablar, uchinchi navbatda esa tugatilayotgan yuridik shaxs javobgar bo'lgan fuqarolarning hayotiga va sog'lig'iga zarar etkazilganligi uchun berilgan talablari tegishli vaqtbay to'lovlarni kapitallashtirish yo'li bilan qanoatlantiriladi. Mana shunday hayot va sog'liqqa etkazilgan zarar uchun belgilangan tartibda ja-vobgar deb topilgan yuridik shaxs tugatilgan taqdirda, tegishli to'lovlar ularni qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarga ko'ra jabrlanuvchiga to'lash uchun kapitallash-tirilishi lozim. Tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki yo'qligi yoki etarli emasligi sababli to'lovlarni kapitallashtirish mumkin bo'lmagan hollarda, belgilangan summalar jabrlanuvchiga davlat tomonidan qonunda nazarda tutilgan tartibda to'lanadi. (1015 m.) Har bir navbatdagi talab oldingi navbatdagi talablar qanoatlantirilgandan so'ng amalga oshiriladi.

Boshqa kreditorlarning talablari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qanoatlantiriladi.(O'z.R. FK 56 modda.) Biz yuqorida qayd etib o'tgan fuqarolarning talablari to'liq qondirilgandan keyin, qolgan mol-mulk quyidagi tartibda taqsimlanadi: birinchidan, shu mol-mulk qiymatidan sud qarorida kimning talabi birinchi bo'lib qondirilishi ko'rsatilgan bo'lsa, shu kreditorlarning qarzlari to'lanadi; ikkinchidan, qolgan mol-mulk qiy-matidan talabnoma taqdim etish muddati o'tib ketgandan so'ng, berilgan talablar qondirilishi mumkin.

Barcha kreditorlar bilan hisob kitob ishlari ni-hoyasiga etkazilgandan so'ng, **tugatishning yakunlovchi bos-qichi** boshlanadi.

Tugatish komissiyasi muassislar va ishtirokchilar bi-lan kelishib, davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomo-nidan tasdiqlangan tugatish balansini tuzadi[57].

---

[56] Чунончи, Германия фу=аролик =онунчилигида щам юридик шахс тугатилаётганда, биринчи навбатда фу=ароларнинг мещнат оид муносабатларидан келиб чи=адиган талаблари =ондирилади. Сынгра соли= щу=у=ий муносабатлардан келиб чи=адиган талаблар =ондирилади. Германское право. Часть II. Германское торговое уложение и другие законы. -М. 1996. С 389.

[57] Давлат рыйхатидан ытказувчи органга =уйидаги щужжатлар тыли= топширилган та=дирдагина юридик шахс ягона давлат реестридан ычирилиши керак:

- тугатиш комиссиясининг юридик шахсни давлат реестридан чи=ариш ща=идаги аризаси.
- муассислар умумий йи\илиши баённомаси билан бирга юридик шахсни тугатиш ва тугатиш комиссиясини тузиш ты\рисидаги =арор ёки суднинг тугатиш ты\рисидаги =арори.
- юридик шахсни тугатиш ты\рисидаги матбуотда эълон берилган нашр.
- тасди=ланган тугатиш баланси;
- соли= органлари ва пенсия, ащолини иш билан таъминлаш фондлари щисобидан чи=илганлик ща=ида маълумот;
- =онунда белгиланган тартибда аудитор хулосаси;
- банклардан щисобвара=ларини ёпилганлиги ща=ида маълумотнома;
- Статистика идорасидан классификацион кодни бекор =илиш ща=идаги хат;
- кредиторлар билан щисоблашгандан сынг, =олган мол-мулкини иштирокчилар ыртасида та=симланганлиги ты\рисидаги далолатнома

Yuridik shaxsning kreditorlari talablari qondirilgandan keyin qolgan mol-mulk uning shu mol-mulkka ashyoviy huquqlarga yoki ushbu yuridik shaxsga nisbatan majburiy huquqlarga ega bo'lgan muassislariga va ishtirokchilariga topshiriladi. Shundan so'ng yuridik shaxsning tugatilishi haqidagi yozuv yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga kiritilib yuridik shaxsni tugatish tamomlangan, yuridik shaxsning maxsus huquq layoqati esa tugagan hisoblanadi.

Mazkur yuridik shaxsni tugatish bosqichlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq, biri ikkinchisini to'ldirib boradi. Birontasining to'g'ri bajarilishiga e`tibor be-rilmasa, tugatish jarayonining aniq va izchil amalga oshi-rilishiga salbiy ta`sir etishi mumkin.

Nazorat savollari:

1. Xo'jalik sub`ektini qayta tashkil etish usullarini sanab o'ting.
2. Xo'jalik sub`ektini qayta tashkil etish tartibi nimalardan iborat?

3. Xo'jalik sub`ektini tugatish asoslariga nimalar kiradi?
4. Xo'jalik sub`ekti qachondan boshlab tugatilgan hisoblanadi?

XO'JALIK YuRITUVChI SUB`EKTLARNING BANKROTLIGI

1-§. Bankrotlik tushunchasi va uning normativ huquqiy asoslari

Bankrotlik instituti–xo'jalik yurituvchi sub`ektlar o'rtasidagi munosabatlar amaliyoti va huquqiy tartibga solish tizimida nisbatan yangi institutdir. O'zbekiston Respublikasida «Bankrotlik to'g'risida»gi qonun birinchi marta 1994 yil 5 mayda qabul qilingan. Ushbu qonunning yangi tahriri Oliy Majlis tomonidan 1998 yil 28 avgustda qabul qilingan va 1 noyabrdan kuchga kirgan. Bundan tash-qari, 1999 yil 20 avgustda Oliy Majlisning navbatdagi sessiyasida ushbu qonunga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Hozirgi paytda Oliy Majlis tomonidan 2003 yil 24 aprelda yangi tahrirda qabul qilingan mazkur qonun qo'llanilmoqda.

«Bankrotlik to'g'risida»gi qonunni bir yo'sinda qo'l-lanilishini ta`minlash maqsadida O'zbekiston Respub-likasi Oliy xo'jalik sudi Plenumi tomonidan 1999 yil 16 iyulda «O'zbekiston Respublikasi «Bankrotlik to'g'risida»gi qonunini xo'jalik sudlari tomonidan qo'llashning ba`zi bir masalalari to'g'risida»gi 78-sonli qaror qabul qilindi. Shuningdek, vakolatli davlat organlari tomonidan bu borada o'nga yaqin normativ hujjatlar ham qabul qilinib, tegishli tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilgan.

■ Ички Ишлар былимидан юридик шахс мущри ва штампини йы= =илишга топширилганлиги ща=ида маълумотнома.

Yangi tahrirdagi «Bankrotlik to’g’risida»gi qonun 1994 yildagi va 1998 yildagi qonunlardan sezilarli darajada o’ziga xos qo’shimcha va o’zgartirishlar bilan farqlanadi. Amaldagi qonun 192 ta moddadan iborat, 1998 yildagi qonun 133 ta moddadan tashkil topgan, eski tahrirdagisida esa atigi 35 ta modda bor edi, xolos. Bankrotlikning asosiy belgilari o’zgardi, yuridik shaxs va yakka tartibdagi tad-birkorlarning nochorligi tushunchalari bir-biridan farqlandi. Mazkur o’zgartirishlarni hayotning o’zi, iqti-sodiyotda ro’y berayotgan islohotlar taqozo etmoqda. Shuning uchun bankrotlik instituti bozor iqtisodiyotiga o’tayotgan har qanday mamlakatning davlat huquqiy tuzilishining uzviy bo’g’ini ekanligi tabiiydir.

qarzdorning pul majburiyatlari bo’yicha kreditorlar talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to’lovlar bo’yicha o’z majburiyatlarini bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to’lov majburiyati yuzaga kelgan kundan e`tiboran uch oy davomida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo’lsa, uni bankrotlik alomati deb e`tirof etiladi.

Bankrotlik to’g’risidagi ish bankrotlik alomatlari mavjud bo’lgan taqdirda, agar qarzdor yuridik shaxsga nisbatan jami talablar eng kam ish haqining besh yuz karrasini tashkil etadigan bo’lsa, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorga nisbatan esa eng kam ish haqining kamida o’ttiz karrasini tashkil etadigan bo’lsa, xo’jalik sudi tomonidan qo’zg’atilishi mumkin.

qarzdorni bankrot deb topish to’g’risidagi ariza bilan qarzdor, kreditor va prokuror pul majburiyatlari bajarilmagan hollarda murojaat etish huquqiga ega. Majburiy to’lovlar majburiyati bajarilmaganligi natijasida esa ariza bilan xo’jalik sudiga murojaat etish huquqiga qarzdor, prokuror, davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlar ega.

qarzdorda bankrotlik alomatlari mavjud bo’lca, o’zini bankrot deb topish to’g’risidagi ariza bilan xo’jalik sudiga murojaat etishga haqli. Shuningdek, qarzdor, tugatish komissiyasi yoki tugatuvchi xo’jalik sudiga ariza berishga majbur bo’lgan hollar mavjuddir. Unga ko’ra, qarzdorning rahbari, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor - bir yoki bir necha kreditorlarning talablarini qondirish qarzdorning boshqa kreditorlar oldidagi pul majburiyatlarini va (yoki) majburiy to’lovlar bo’yicha o’z majburiyatini to’liq hajmda bajarishini imkonsiz qilib qo’yishga olib keladigan; qarzdorning ta`sis hujjatlariga muvofiq qarzdorni tugatish to’g’risida qaror qabul qilishga vakolatli bo’lgan qarzdor yuridik shaxs organi tomonidan qarzdorning arizasi bilan xo’jalik sudiga murojaat etish haqida qaror qabul qilingan; qarzdor unitar korxona mol-mulkining egasi vakolat bergan organ tomonidan qarzdorning arizasi bilan xo’jalik sudiga murojaat etish to’g’risida qaror qabul qilingan, undiruv qarzdorning mol-mulkiga qara-tilganda bunday undiruv qarzdorning xo’jalik fao-liyatini imkonsiz qilib qo’yadi, deb hisoblashga asos bo’lgan holatlar shular jumlasiga kiradi. Tugatish komissiyasi (tugatuvchi), agar yuridik shaxs tugatilayotganda kreditorlarning talab-larini to’liq hajmda qondirish imkonsizligini aniq-laganda, qarzdorning arizasi bilan xo’jalik sudiga muro-jaat etishi shart.

Ariza yuqorida qayd etilgan holatlar yuzaga kelgan paytdan e`tiboran bir oydan kechiktirilmay xo’jalik sudiga yuborilishi kerak. Ariza ushbu muddatda taqdim etil-maganda, muddat tugaganidan keyin yuzaga kelgan qarz-dorning kreditorlar oldidagi

pul majburiyatlari va (yoki) majburiy to’lovlar bo’yicha qarzdor rahbarining, tugatish komissiyasi a`zolarining yoki tugatuvchining subsidiar javobgarligiga sabab bo’ladi.

Bankrotlik taomili qo’llanilayotganda barcha kreditorlarning manfaatlarini qonunga muvofiq tashkil etiladigan kreditorlarning yig’ilishi yoki kreditorlar qo’mitasi hal qiladi va qarzdorga nisbatan sodir etiladigan harakatlarning hammasini amalga oshiradi.

Kreditorlar, majburiy to’lovlarga doir talablar qismi bo’yicha esa davlat soliq organlari va boshqa vakolatli organlar kreditorlar yig’ilishining ovoz berish huquqiga ega bo’lgan ishtirokchilari hisoblanadi. Kreditorlar yig’ilishida maslahat ovozi huquqi bilan qarzdorning xodimlari vakili, sud boshqaruvchisi, qarzdor muassislarining (ishtirokchilarining) yoki qarzdor mol-mulki egasining vakili ishtirok etadi. Agarda, ishda yagona kreditor ishtirok etayotgan bo’lsa, kreditorlar yig’ilishining mutlaq vakolatiga taalluqli qarorlarni qabul qilishni shu kreditorning o’zi amalga oshiradi. Kreditorlar yig’ilishini tashkil etish va o’tkazish sud bosh-qaruvchisi tomonidan amalga oshiriladi.

Kreditorlar yig’ilishining mutlaq vakolati doirasida qabul qilinadigan qarorlar, kreditorlar yig’ilishi bayonnomasiga ilova qilinishi lozim bo’lgan hujjatlar, kreditorlar yig’ilishini o’tkazish to’g’risida xabardor etish, uni chaqirish, qaror qabul qilish tartiblari ham aniq belgilab berilgan.

qonunga sud boshqaruvchilari (muvaqqat boshqaruvchi, sanasiya qiluvchi boshqaruvchi, tashqi boshqaruvchi, tugatish boshqaruvchisi) instituti kiritildi, ularga nisbatan bir qator talablar belgilandi. Unga ko’ra oliy ma`lumotga hamda ikki yillik ish stajiga ega bo’lgan, shuningdek bankrotlik to’g’risidagi ishlar bo’yicha davlat organida attestasiyadan o’tgan shaxslar bu lavozimga tayinlanadi hamda qonunning bu qoidasi 2004 yil 1 yanvardan e`tiboran joriy etiladi.

qarzdor yoki kreditorga nisbatan manfaatdor shaxslar; sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar; bankrotlik taomili joriy etilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar; ilgari sud boshqaruvchisi vazifasini bajarayotgan paytda qarzdorga, kreditorlarga zarar etkazib, bu zararni qoplamagan shaxslar; boshqa shaxslarning ishlarini va (yoki) mol-mulkini boshqarish bilan bog’liq faoliyatni amalga oshirishiga cheklov belgilangan shaxslar (bunday faoliyat bilan shug’ullanishdan mahrum etilgan yoki noloyiq deb topilgan shaxslar) sud boshqaruvchilari etib tayinlanishi mumkin emas.

qonunga sud boshqaruvchisi xo’jalik sudi tomonidan vazifaga tayinlangan sanadan e`tiboran o’n kun ichida bankrotlik to’g’risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxslarga zarar etkazilishi hodisasi uchun o’z javobgarligini qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda 2005 yil 1 yanvardan boshlab sug’urtalashi lozimligi haqidagi normaning kiri-tilganligi muhim axamiyatga egadir.

Sud boshqaruvchisi huquq va majburiyatlari doirasida faoliyat yuritishi lozim bo’ladi. U tomonidan zimmasiga qonun bilan yuklangan vazifalarning qarzdorga yoki kreditorga zarar etkazilishiga olib kelgan tarzda bajarganda yoki lozim darajada bajarmaganda vazifasidan ozod etishga asos bo’ladi. Bunda qarzdor, kreditorlar etkazilgan zararning o’rnini qoplanishini talab qilishga haqlidirlar.

O’zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi va bankrotlik to’g’risidagi ishlar bo’yicha davlat organi bankrotlik sohasini davlat tomonidan tartibga solib bori-

lishini ta`minlaydi. Shu bilan bir qatorda, bankrotlik to’g’risidagi ishlar bo’yicha davlat organining qoraqal-pog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hudu-diy boshqarmalari o’zlarining vakolatlari doirasida bu boradagi faoliyatni tartibga soladilar.

Kuzatuv, sud sanasiyasi, kelishuv bitimi, tashqi bosh-qaruv va tugatishga doir ish yuritish yuridik shaxsning bankrotligi to’g’risidagi ish ko’rilayotganda amalga oshiriladigan taomillar hisoblanadi. Yakka tartibdagi tadbirkorning bankrotligi to’g’risidagi ish ko’rilayotganda esa faqatgina kelishuv bitimi va tugatishga doir ish yuritish kabi taomillar qo’llaniladi. Sudgacha sanasiya qilish yoki qarzdorni ixtiyoriy ravishda tugatish suddan tashqari bajariladigan taomillar jumlasiga kiradi.

2-§. Sudgacha sanasiya qilish, kuzatuv va sud sanasiyasi.

Sudgacha sanasiya qilish qarzdorning bankrotligi to'g'risidagi ish yuritish qo'zg'atilgunga qadar amalga oshiriladi hamda qarzdorning to'lov qobiliyatini, iqtisodiy jihatdan qodirligini tiklash hamda kelgusida samarali faoliyat ko'rsatishi uchun sharoit yaratilib berilishini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Bankrotlikning oldini olish maqsadida qarzdorning muassislari, boshqaruv organi yoki qarzdor mol-mulkining egasi bankrot deb topish to'g'risidagi ariza xo'jalik sudiga taqdim etilgunga qadar qarzdorni moliyaviy jihatdan sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'radi. qarzdorni moliyaviy jihatdan sog'lomlashtirishga qara-tilgan chora-tadbirlar qarzdor bilan tuzilgan kelishuvga asosan kreditorlar yoki boshqa shaxslar tomonidan ham ko'rilishi mumkin. Bunday chora-tadbirlarga quyidagilar kiradi:

-to'lov muddati o'tkazib yuborilgan qarzlarni to'la yoki qisman sotib olish;

-ishlab chiqarishni raqobatbardosh mahsulot chiqarishga moslab qayta ixtisoslashtirish;

-chetdan yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish;

-xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;

-qarzdorning to'lov qobiliyati tiklanishi hamda faoliyatini davom ettirishidan manfaatdor bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan moliyaviy yordam ko'r-satilishi;

qarzdorning faoliyatini davom ettirishi uchun qarzdor bilan kreditorlar o'rtasida kreditorlarga to'lanadigan to'lovlar muddatini kechiktirish va (yoki) uni bo'lib-bo'lib to'lash yoxud qarzlardan siylov berish to'g'risida ahdlashuvga erishishga qaratilgan bitim;

majburiy to'lov majburiyatini bajarishni va kreditlarni qaytarishni sudgacha sanasiya qilish muddatiga kechiktirish;

qarzdor yuridik shaxsni qayta tashkil etish.

Sudgacha sanasiya qilishni davlat tomonidan yordam ko'rsatgan holda o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan organning qarori asosida amalga oshiriladi va u o'n ikki oydan yigirma to'rt oygacha muddatga joriy etiladi.

«Bankrotlik to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonunga kuzatuv va sud sanasiyasi kabi yangi institutlar alohida boblarda kiritilgan.

Kuzatuv institutining joriy etilishidan ko'zlangan maqsad kreditorlar manfaatlarini himoya qilish, qarzdor mol-mulkini talon-taroj qilinishini oldini olish va qonunda belgilangan vakolatlarni amalga oshirishdan iborat. Kuzatuv bankrotlik to'g'risidagi ish qo'zg'atilganda xo'jalik sudi qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizani ish yuritishiga qabul qilingan sanadan e`tiboran joriy etiladi va bu haqda sud ajrimida ko'rsatiladi.

Kuzatuv joriy etilgan paytdan boshlab- mulkiy undiruvlar bo'yicha ijro hujjatlarini ijro etish qonunda belgilangan tartibda to'xtatib turiladi; qarzdor yuridik shaxsning muassislari (ishtirokchilari) uning tarkibidan chiqib ketishi munosabati bilan qarzdorning mol-mulkidan ulushni (payni) ajratish haqidagi talablarini qon-dirish va emissiya qimmatli qog'ozlari bo'yicha dividendlar va boshqa to'lovlar

to’lash ta`qiqlanadi; muqobil bir xildagi talabni hisobga olish yo’li bilan qarzdorning pul majburiyatlarini tugatishga, basharti bunda kreditorlarning talablarini qondirish navbati buzilsa, yo’l qo’yilmaydi.

Kuzatuv joriy etilganda qarzdor boshqaruv organlarining qonunda belgilangan ayrim vakolatlari cheklanadi. Masalan, qarzdorning boshqaruv organlari ko’chmas mol-mulkni ijaraga, garovga berish bilan yoki shu mol-mulkni boshqa usulda tasarruf etish va qarzdorning balans qiy-mati qarzdor aktivlari balans qiymatining o’n foizdan ko’prog’ini tashkil etadigan mol-mulkini tasarruf etish bilan bog’liq bitimlarni; zayomlar (kreditlar) olish va berish, kafolat xatlari va kafolatlar berish, talab qilish huquqlaridan o’zga shaxs foydasiga voz kechish, qarzni boshqa shaxsga o’tkazish, shuningdek qarzdorning mol-mulkini ishonchli boshqarish shartnomasini tuzish bilan bog’liq bitimlarni faqat muvaqqat boshqaruvchining yozma roziligiga binoan tuzishlari mumkin. Shuningdek, ular qarz-dorni qayta tashkil etish va tugatish; yuridik shaxsni tuzish yoki boshqa yuridik shaxsning ishtiroki; vakolatxonalar ochish va filiallar tashkil etish; dividendlar to’lash yoki qarzdorning daromadini (foydasini) uning muassislari (ishtirokchilari) o’rtasida taqsimlash; qarzdor tomonidan obligasiyalar va boshqa emissiya qog’ozlarini (aksiyalardan tashqari) joylashtirish; ilgari chiqarilgan aksiyalarni aksiyadorlardan sotish olish to’g’risidagi qarorlarni qabul qilishga haqli emas.

Kuzatuv joriy etilishi munosabati bilan xo’jalik sudining ajrimi bilan muvaqqat boshqaruvchi tayinlanadi. Uning huquq va majburiyatlari qonunda aniq belgilab qo’yilgan. Jumladan, muvaqqat boshqaruvchi qarzdorning mol-mulki but saqlanishini ta`minlash choralarini ko’rishi; uning moliyaviy ahvolini tahlil qilishi; kreditorlarni aniqlashi; kreditorlarning talablari reestrini yuritishi; qarzdorga nisbatan kuzatuv joriy etilgani haqida kreditorlarni xabardor qilishi; kreditorlarni birinchi yig’ilishini chaqirishi va o’tkazishi shart.

Kreditorlarning birinchi yig’ilishi vakolatiga quyi-dagi qarorlarni qabul qilish kiradi: sud sanasiyasini yoki tashqi boshqaruvni joriy etish yoxud qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida iltimosnoma bilan xo’jalik sudiga murojaat qilish; kreditorlar qo’mitasining miqdoriy tarkibi, uning a`zolarini saylash; sanasiya qiluvchi boshqaruvchining, tashqi boshqaruvchining yoki tugatuvchi boshqaruvchining nomzod-larini ma`qullash to’g’risidagi qarorlar.

Xo’jalik sudi tomonidan qarzdor bankrot deb topil-ganda va tugatishga doir ish yuritish boshlangan yoki sud sa-nasiyasi yoxud tashqi boshqaruv joriy etilgan yoki kelishuv bitimi tasdiqlangan paytdan e`tiboran kuzatuv tugatiladi.

Sud sanasiyasi – xo’jalik sudi tomonidan qarzdor yuridik shaxsga nisbatan uning to’lov qobiliyatini tiklash hamda kreditorlar oldidagi qarzini uzish maqsadida qarzdorning ishlarini boshqarish vakolatlarini sanasiya qiluvchi boshqaruvchiga o’tkazmagan holda qo’llaniladigan bankrotlik taomilidir.

Kuzatuv jarayonida qarzdor, qarzdor muassislari (ish-tirokchilari) yoki qarzdor mol-mulkining egasi, shuningdek uchinchi shaxs (shaxslar) sud sanasiyasini joriy etish haqidagi iltimosnoma bilan kreditorlar yig’ilishiga yoxud bevosita xo’jalik sudiga murojaat qilishga haqli.

qarzdorning sud sanasiyasini joriy etish haqidagi iltimosnomasiga sud sanasiyasining taklif qilinayotgan muddati va qarzni uzish jadvali ko’rsatilgan holda qarz-dorning sud sanasiyasi rejasi ilova qilinmog’i lozim.

Xo’jalik sudi tomonidan sud sanasiyasi joriy etish to’g’risida ajrim chiqariladi. Unda sud sanasiyasining mud-dati, sud tomonidan tasdiqlangan qarzni uzish jadvali, majburiyatlarni bajarish ta`minotini bergan shaxslar haqidagi, bunday ta`minotning miqdori va shakllari, sa-nasiya qiluvchi boshqaruvchini tayinlash va unga to’lanadigan haq miqdori haqidagi ma`lumotlar bo’lishi lozim.

Mazkur ajrim ustidan shikoyat (protest) berilishi mumkin.

Sud sanasiyasi ko’pi bilan yigirma to’rt oylik muddatga joriy etiladi, bu muddat majburiyatlarni bajarish ta`-minotini bergan shaxslar kreditorlarning talablarini qondirish uchun xo’jalik sudi tomonidan ko’pi bilan olti oyga uzaytirilishi mumkin.

Sud sanasiyasi joriy etish qonunda belgilangan qu-yidagi oqibatlarga olib keladi:

kreditorlarning talablarini ta`minlash yuzasidan ilgari qabul qilingan choralar bekor qilinadi;

qarzdorning mol-mulkini xatlash va qarzdorga nis-batan uning o’ziga tegishli mol-mulkni tasarruf etish borasidagi vakolatlarini boshqacha tarzda cheklovlar faqat bankrotlik taomili doirasida joriy etilishi mumkin;

sud sanasiyasi paytida yuzaga kelgan pul majbu-riyatlarini va majburiy to’lovlar bo’yicha majburiyatni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun neustoyka va boshqa iqtisodiy sanksiyalar, to’lanishi lozim bo’ladigan foizlar qo’llanilmaydi.

Sud sanasiyasi joriy etilganda kuzatuvdagi singari qarzdor va uning boshqaruv organlari qonunda belgilangan ayrim bitimlarni tuzishga va boshqa harakatlarni qi-lishga haqli emas.

Sud sanasiyasi joriy qilinganda xo’jalik sudi to-monidan sanasiya qiluvchi boshqaruvchi tayinlanadi.

Sanasiya qiluvchi boshqaruvchining huquqlari va maj-buriyatlari qonun hujjatlarida belgilangan.

Sud sanasiyasi muddatidan ilgari tamomlanishi yoki tugatilishi mumkin. Ular bir-biridan farq qiladi. Kreditorlarning qarzni uzish jadvalida nazarda tutilgan barcha talablari sud sanasiyasining belgilangan muddati o’tishidan oldin qarzdor tomonidan qanoatlantirilganda qarzdorning rahbari sud sanasiyasi muddatidan ilgari tamomlanganligi haqida xo’jalik sudiga hisobot taqdim etadi. Xo’jalik sudi mazkur hisobotni va kreditorlarning shikoyatlarini ko’rib chiqib, - agar uzilmagan qarz qol-maganligi aniqlangan, kreditorlarning shikoyatlari esa asossiz deb topilgan bo’lsa, qarzdor rahbarining hiso-botini tasdiqlaydi va bankrotlik to’g’risidagi ish yuri-tishni to’xtatadi; - agar uzilmagan qarz borligini aniq-lagan va kreditorlarning shikoyatlari asosli deb topilgan bo’lsa, qarzdor rahbarining hisobotini tasdiqlashni rad etadi hamda bular haqida shikoyat (protest) qilinishi mumkin bo’lgan ajrim chiqaradi.

Sud sanasiyasini muddatidan ilgari tugatish uchun esa quyidagilar asos bo’ladi: kreditorlar talablarini qanoat-lantirishning qarzni uzish jadvalida belgilangan mud-datlari sud sanasiyasi jarayonida qarzdor tomonidan bir necha marta yoki bir marta

jiddiy ravishda (bir oydan ortiq muddatga) buzilganligi; qarzdor qarzni uzish jadvalini bajarishga qodir emasligidan dalolat beruvchi holat-larning mavjudligi. Xo'jalik sudiga sud sanasiyasini muddatidan ilgari tugatib, tashqi boshqaruvni joriy etish yoki qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash haqida iltimosnoma bilan kreditorlar yig'ilishi murojaat qilishi mumkin.

Sud sanasiyasi, shuningdek belgilangan muddat tugashi munosabati bilan ham tamomlanadi. Sud sanasiyasining tamomlanishi to'g'risidagi masala sud majlisida ko'rib chiqiladi va bu haqda xo'jalik sudining tegishli sud huj-jati qabul qilinadi.

Bankrotlik to'g'risidagi qonunda majburiyatlarning ta`minot bergan shaxslar tomonidan bajarilishi, ta`mi-notdan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish yakunlari to'g'risidagi hisobot hamda ta`minot bergan shaxslarning majburiyatlarni bajarmasligi oqibatlari ham batafsil yoritilgan.

3-§. Tashqi boshqaruv.

Tashqi boshqaruv-xo'jalik sudi tomonidan yuridik shaxsga nisbatan uning to'lov qobiliyatini tiklash maq-sadida qarzdorning ishlarini boshqarish vakolatlarini tashqi boshqaruvchiga o'tkazgan holda qo'llaniladigan ban-krotlik taomildir.

Kreditorlar yig'ilishining iltimosnomasi, mol-mulkida davlat ulushi bo'lgan korxonalar bo'yicha esa bankrotlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha davlat organining arizasi asosida qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklashning haqiqiy imkoniyatlari aniqlangan hollarda xo'jalik sudi tomonidan o'n ikki oydan yigirma to'rt oygacha bo'lgan muddatga joriy etildi.

Tashqi boshqaruv joriy etish taomilining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, shu paytdan boshlab qarz-dorning rahbari o'z vazifalarini bajarishdan chet-lash-tiriladi, qarzdorning ishlarini boshqarish tashqi bosh-qaruvchining zimmasiga yuklatiladi, qarzdorning boshqaruv organlari vakolatlari tugatiladi, kreditorlarning talab-larini ta`minlash yuzasidan ilgari ko'rilgan chora-tad-birlar bekor qilinadi, qarzdorning mol-mulkini xatlash va qarzdorga nisbatan uning o'ziga tegishli mol-mulkni tasarruf etish borasidagi vakolatlarini boshqacha tarzda cheklovlar faqat bankrotlik taomili doirasida qo'lla-niladi, qarzdorning pul majburiyatlari va (yoki) majburiy to'lovlar yuzasidan kreditorlar talablarining qondiri-lishiga nisbatan moratoriy joriy qilinadi.

Tashqi boshqaruvchi xo'jalik sudi tomonidan tashqi boshqaruvni joriy etish bilan bir paytda tayinlanadi va bu to'g'risida ajrim chiqariladi. Buning imkoni bo'lmasa, xo'jalik sudi tashqi boshqaruvchini tashqi boshqaruv joriy etilgan paytdan e`tiboran bir oylik muddat ichida tayinlaydi. Tashqi boshqaruvchi tayinlanganidan bir oylik muddat ichida tashqi boshqaruv rejasini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun kreditorlar yig'ilishiga taqdim etadi.

Xo'jalik sudi kreditorlar yig'ilishining tashqi bosh-qaruv rejasini tasdiqlash to'g'risidagi qarori qabul qi-linib, unda belgilangan tashqi boshqaruv muddati dast-labki muddatdan ortiq bo'lganda, agar tashqi boshqaruv muddatini uzaytirish yoki tashqi boshqaruvning tasdiqlangan rejasini amalga oshirish qarzdorning to'lov qobiliyatini tikla-nishiga olib kelishiga etarli asoslar bo'lgan taqdirda tashqi boshqaruv muddatini uzaytirish to'g'risida ajrim chiqaradi.

Tashqi boshqaruv rejasida qarzdorning to’lov qo-biliyatini tiklash yuzasidan quyidagi chora-tadbirlar nazarda tutiladi: ishlab chiqarishni qayta ixtisoslashtirish; norentabel ishlab chiqarishlarni yopish; debitorlik qarzlarini undirish; qarzdor mol-mulkini bir qismini sotish; qarzdorning talabidan o’zganing foydasiga voz kechish; uchinchi shaxslarning qarzdorning majburiyatlarini bajarishi; qarzdorning qo’shimcha aksiyalarini joylashtirish; qarzdorning korxonasini (biznesini) mulkiy majmua sifatida sotish; qarzdorning aktivlari o’rnini almashtirish.

Tashqi boshqaruvchining kreditorlar yig’ilishi tomonidan ko’rib chiqilgan hisoboti va kreditorlar yig’i-lishining bayonnomasi kreditorlar yig’ilishi o’tkazilgan sanadan keyin besh kundan kechiktirilmasdan xo’jalik sudiga yuboriladi. Hisobot va bu yuzasidan kreditorlarning shikoyatlari xo’jalik sudi tomonidan majlisda ko’rib chi-qiladi.

Xo’jalik sudi kreditorlar yig’ilishining qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni bosh-lash to’g’risidagi iltimosnomasi bo’lganda, shuningdek, tashqi boshqaruvchining hisobotini tasdiqlash rad etilganda yoki hisobot tashqi boshqaruvning belgilangan muddati tugagan paytdan e`tiboran bir oylik muddat ichida taqdim etil-maganda yoxud hisobotni ko’rib chiqish natijalari yuzasidan sud tomonidan biror bir qaror qabul qilinmagan bo’lsa, qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuri-tishni boshlash to’g’risida qaror qabul qiladi. Bu qarorda, shuningdek tashqi boshqaruvchini tayinlagan tartibda tu-gatish boshqaruvchisini tayinlaydi.

4-§. Bankrotlik to’g’risidagi ishni sudda ko’rishga tayyorlash, uni hal etish.

qonunchilikka ko’ra bankrotlik to’g’risidagi ishlar xo’jalik sudlari sudloviga taalluqlidir.

Xo’jalik sudi sud`yasi «Bankrotlik to’g’risida»gi qonun va O’zbekiston Respublikasi Xo’jalik prosessual kodeksi bilan o’rnatilgan talablarga rioya etilgan holda berilgan qarzdorni bankrot deb topish to’g’risidagi arizani qabul qilishi shart.

Bunday talablarga quyidagilar kiradi:

ariza xo’jalik sudiga murojaat qilish huquqiga ega bo’lgan shaxs tomonidan berilgan bo’lsa;

ish xo’jalik sudiga taalluqli bo’lsa yoki ariza berilgan xo’jalik sudi sudloviga tegishli bo’lsa;

ariza uni imzolashga huquqi bo’lgan shaxs tomonidan imzolangan bo’lsa;

qonunda belgilangan hollarda ariza uchun davlat boji to’langanligi, uning miqdori va tartibi to’g’risida ma`lumot;

ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ariza va unga ilova qilingan hujjatlarning nusxalari yuborilganligi to’g’-risida ma`lumot.

Agar ariza vakil tomonidan imzolangan bo’lsa, imzolashga vakolat bergan shaxsning ishonchnomasini talab qi-lish zarur. Arizaning mazmuni qonunda o’rnatilgan talablarga mos bo’lishi hamda «Bankrotlik to’g’risida»gi qo-nunning tegishli moddalariga binoan to’plangan hujjatlardan tashkil topgan ilovaga ega bo’lishi kerak.

Sud`ya qarzdorni bankrot deb topish to’g’risidagi ariza kelib tushgan paytdan e`tiboran besh kundan kechiktirmasdan arizani qabul qilish va bankrotlik ishini qo’z-g’atish yoki arizani qabul qilishni rad etish yoxud qaytarish to’g’risidagi masalani hal qiladi. Ariza ish yuritishga qabul qilingan taqdirda ariza kelib tushgan kundan e`tiboran o’n kundan kechiktirmay kuzatuvni joriy etish haqidagi ma-salani hal qiladi. Arizani ish yuritishga qabul qilish va ko’rib chiqishga tayyorlash to’g’risidagi ajrimda kredi-torlarning talablarini qondirishga doir chora-tadbir-lar ham ko’rsatib o’tilishi mumkin. Sud amaliyotida bu ikki masalani bir ajrimda ko’rsatib o’tish odat tusiga kirgan.

Agar yuqorida ko’rsatib o’tilgan talablardan birortasi buzilsa ham, sud`ya qarzdorni bankrot deb topish to’g’-risidagi arizani qabul qilishni rad etishga haqli. Ma-salan, agar qarz qarzdor tomonidan uch oydan kam bo’lgan muddatda to’lanmagan bo’lsa, ariza qabul qilinmaydi va bu to’g’rida ajrim chiqariladi. Mazkur ajrim XPKning 117-moddasiga asosan yakka tartibda sud`ya tomonidan 5 kunlik muddatda chiqariladi. Arizani qabul qilishni rad etish to’g’risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi mumkin. qarzdorni bankrot deb topish to’g’risidagi arizani qay-tarish asoslari XPKga asosan umumiy tartibda amalga oshiriladi, ya`ni:

shakli va mazmuni «Bankrotlik to’g’risida»gi qonun talablariga rioya etmagan holda tuzilgan bo’lsa;

ariza imzolanmagan yoki uni imzolash huquqiga ega bo’lmagan shaxs yoki mansab-mavqei ko’rsatilmagan shaxs tomonidan imzolangan bo’lsa;

ish mazkur xo’jalik sudi sudloviga tegishli bo’lmasa;

ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ariza va unga ilova qilingan hujjatlarning nusxalari yuborilganligi to’g’-risida ma`lumot bo’lmasa;

belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji to’langanligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmagan bo’lsa;

arizani ish yuritishga qabul qilish to’g’risidagi ajrim chiqarilgunga qadar uni qaytarib olish to’g’risida ariza-chidan ariza kelib tushgan bo’lsa.

Arizani qaytarish to’g’risidagi ajrimni sud`ya yakka tartibda chiqaradi, hujjatlar arizachiga qaytariladi, maz-kur ajrim ustidan shikoyat qilinishi mumkin. Yo’l qo’yil-gan xatolar bartaraf etilgandan keyin, ariza qaytadan umumiy asoslarga ko’ra xo’jalik sudiga qayta topshirilishi mumkin.

«Bankrotlik to’g’risida»gi qonunning 46-moddasida kreditorlar talablarini ta`minlashga doir chora-tad-birlar belgilab berilgan. Ishda ishtirok etuvchi shaxs-larning arizasiga binoan sud kreditorlarning talablarini qondirish yuzasidan choralar ko’rishga haqli. XPKning 77-moddasida ko’rsatib o’tilgan choralardan tashqari sud tashqi boshqaruvchi yoki tugatish boshqaruvchisining roziligisiz bitimlar tuzishni ta`qiqlab qo’yishi, shuningdek qarzdorni qimmatli qog’ozlarni, valyuta jamg’armalarini hamda boshqa mulklarni saqlab turish uchun uchinchi shaxslarga topshi-rishga majbur qilishi mumkin. Shuningdek qarzdorning mol-mulkini butunligicha saqlab turishga qaratilgan boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirishga haqlidir.

Kreditorlarning talablarini qondirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko’rish haqidagi ariza, u kelib tushgan kunning ertasidan kechiktirmasdan ko’rib chiqilishi shart va uning natijalari yuzasidan shikoyat qilinishi mumkin bo’lgan ajrim

chiqariladi. Ko’rilgan choralar tashqi bosh-qaruv joriy qilingunga yoki qarzdorning bankrot deb topilishiga yoxud tugatishga doir ish yuritishning yakunlanishiga yoki kelishuv bitimining tasdiqlanishiga yoki qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to’g’risidagi hal qiluv qarori chiqarilgunga qadar amalda bo’ladi.

qarzdor besh kunlik muddat ichida xo’jalik sudiga, arizachiga va ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga mazkur ariza yuzasidan yozma fikrini yuborishga, shuningdek arizada ko’rsatilmagan barcha kreditorlarni o’ziga nisbatan bankrotlik to’g’risida ish qo’zg’atilganligidan xabardor qilishga haqli, qarzdorning xo’jalik sudiga yuborayotgan yozma fikriga mazkur yozma fikrning nusxasi arizachiga hamda bankrotlik to’g’risidagi ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga yuborilganligini tasdiqlovchi dalillar ilova qilinishi kerak. qarzdorning yozma fikrining yo’q-ligi bankrotlik ishining sudda ko’rib chiqilishiga to’s-qinlik qilmaydi.

Shuningdek, qarzdorning e`tirozlari yo’q bo’lgan taq-dirda kreditorning talablari asoslantirilgan deb hisob-lanadi. Sud tomonidan qarzdorni bankrot deb topish to’g’risidagi ariza XPKning va «Bankrotlik to’g’risida»gi qonunning talablariga mos ravishda tuzilganligi tasdiq-langanidan keyin sud`ya XPKning 122-moddasida belgi-langan ishni ko’rishga tayyorlashga doir harakatlarni amalga oshirish masalasini ko’rib chiqadi. Ushbu harakatlarning qo’llanilish tartibi bankrotlik to’g’risidagi ishning xusu-siyatlarini inobatga olgan holda amalga oshi-riladi.

Sud`ya arizachi tomonidan qarzdorning to’lovlarni amalga oshira olmasligini tasdiqlovchi, asoslantirish uchun keltirgan dalillarini daxldorligini tekshiradi. Kreditor tomonidan keltirilgan talablarni asoslantiruvchi isbot-larning ham daxldorlik masalasi tekshiriladi. Sud`ya asosli qaror chiqarishi uchun materiallar etarli emas deb hisoblasa, qo’shimcha dalillarni taqdim qilishni talab etishi mumkin. Masalan, arizachi Davlat soliq inspeksiyasi bo’lsa, sud`ya nafaqa fondi va mehnat birjasidan qarz-dorning bu tashkilotlardan qarzi bor yo’qligi haqida ma`-lumot taqdim etishini so’raydi.

Ishni ko’rishga tayyorlash sud`ya tomonidan yakka tar-tibda va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga xabar bermasdan amalga oshiriladi. Ishni ko’rishga tayyorlashdan keyingi bosqich, bu arizachi yoki kreditorlarning talablariga nis-batan qarzdor tomonidan keltirilgan vajlarni tekshi-rishdir. Umumiy asoslarda ishni ko’rishga tayyorlashda vajlarning asoslantirilganligi sud tomonidan bevosita nizo ko’rilayotgan paytda tekshirilsa, bankrotlik ishlarida vajlarning asoslantirilganligi ishni mazmunan ko’rib hal qilishdan oldin tekshiriladi. qarzdorning vajlarini tekshirish bo’yicha alohida ajrim chiqarilish-chiqaril-masligi haqida qonunda alohida norma belgilanmagan, shu-ning uchun bu haqda qarzdor yoki kreditorlarni xabardor qilish maqsadga muvofiq bo’lar edi. qarzdor vajlarining asosliligini tekshirish natijalari tegishli kreditorlar yig’ilishida ovozlar sonini aniqlashga asos bo’lishi mum-kinligi uchun, sud bu vajlarni mazkur majlisning birinchi yig’ilishi bo’lib o’tgunga qadar tekshirishi lozim, chunki «Bankrotlik to’g’risida»gi qonunga muvofiq kreditor-larning birinchi yig’ilishi ishni sudda mazmunan ko’rib hal qilinishidan oldin o’tkazilishi kerak. qarzdorning vaj-larini tekshirish natijasida sud tomonidan bu haqda aj-rim chiqariladi, uning ustidan shikoyat keltirilishi mum-kin emas, chunki bu hakda XPK va «Bankrotlik to’g’risida»gi qonunda ko’rsatib o’tilmagan.

Bundan tashqari, qarzdorning moliyaviy ahvolini aniqlash uchun va ishni ko’rishga tayyorlashda, ishni ko’rishda maxsus bilimlarni talab qiladigan savollarni tushuntirib berish uchun xo’jalik sudi ekspertiza tayinlaydi. Eks-pertiza nafaqat ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ilti-mosiga ko’ra, balki xo’jalik sudining topshirig’iga asosan ham tayinlanishi mumkin, chunki bu xo’jalik prosessual huquqi normalariga zid emas.

Bankrotlik to’g’risidagi ish umumiy tartibda ko’rilganda qarzdorni bankrot deb topish to’g’risidagi ariza ish yuritishga qabul qilinganligi haqida ajrim chiqarilgan kundan e`tiboran uch oydan ortiq bo’lmagan muddatda ko’rib chiqiladi. Alohida hollardagina ishni ko’rish ikki oydan oshmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

Sud`ya qarzdorni bankrot deb topish to’g’risidagi ari-zani o’z ish yurituviga qabul qilayotgan vaqtda kuzatuvni joriy etish va muvaqqat boshqaruvchini tayinlash to’g’risida ajrim chiqarishi mumkin. Kuzatuv joriy etish to’g’risidagi masala sud`ya tomonidan ariza kelib tushgan kundan boshlab o’n kun ichida hal etiladi.

Sud`ya bankrotlik to’g’risidagi ishni ko’rib chiqish natijalari bo’yicha qo’yidagi sud hujjatlaridan birini qabul qiladi:

qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash;

qarzdorni bankrot deb topishni rad etish to’g’risidagi qaror;

sud sanasiyasini, tashqi boshqaruvni joriy etish va uning muddatini uzaytirish;

bankrotlik to’g’risidagi ish yuritishni tugatish;

qarzdorni bankrot deb topish to’g’risidagi arizani ko’rmasdan qoldirish;

kelishuv bitimini tasdiqlash to’g’risidagi ajrim.

Mazkur sud hujjatlari, agar qonun bilan boshqacha qoidalar belgilangan bo’lmasa, darhol ijro etiladi.

Tugatishga doir ish yuritish muddati bir yildan oshmagan muddatda amalga oshiriladi. Bu muddat zarurat bo’lganda sudning ajrimi bilan uzaytirilishi mumkin.

Tugatishga doir ish yuritish mobaynida qarzdorning to’lov qobiliyati tiklanishiga etarli asoslar, ya`ni moliyaviy tahlil ma`lumotlari bilan tasdiqlangan asoslar paydo bo’lsa va qarzdorga nisbatan sud sanasiyasi va (yoki) tashqi boshqaruv taomili joriy etilmagan bo’lsa, tugatish bosh-qaruvchisi mazkur holatlar aniqlangan paytdan e`tiboran bir oylik muddat ichida tugatishga doir ish yuritishni tugatish va tashqi boshqaruvga o’tish haqidagi iltimosnoma bilan xo’jalik sudiga murojaat etish to’g’risidagi masalani ko’rib chiqish maqsadida kreditorlar yig’ilishini chaqi-rishga majburdir.

Tugatish boshqaruvchisi kreditorlar bilan hisob-kitoblar tamomlanganidan keyin tugatishga doir ish yuritishni o’tkazish natijalari haqidagi hisobotni xo’jalik sudiga taqdim etadi.

Xo’jalik sudi hisobotni ko’rib chiqib, tugatishga doir ish yuritish tamomlanganligi haqida ajrim chiqaradi va tugatish boshqaruvchisi zimmasiga bu ajrimni yuridik shaxsni davlat ro’yxatidan o’tkazuvchi organga o’n kun ichida taqdim etish majburiyatini yuklaydi.

Yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga qarzdor tugatilganligi to’g’risidagi yozuv ajrim taqdim etilgan kundan e`tiboran uch kundan kechiktirmay kiritiladi. Bu paytdan boshlab, tugatish boshqaruvchisining vakolatlari tugatilgan, tugatishga doir ish yuritish tamomlangan, qarz-dor esa tugatilgan hisoblanadi.

Xo’jalik sudi tomonidan bankrotlik to’g’risidagi ishni ko’rib chiqishning har qanday bosqichida qarzdor va kreditorlar kelishuv bitimi tuzishga haqlidirlar. Kelishuv bitimini tuzish to’g’risidagi qarorni qabul qilish, uni tuzish tartibi, shakli va mazmuni, o’ziga xos xususiyatlari, haqiqiy emasligi va oqibatlari qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Kelishuv bitimi xo’jalik sudi tomonidan tasdiq-lanishi kerak, bu haqda bankrotlik to’g’risidagi ish yuri-tishni tugatish to’g’risidagi ajrimda ko’rsatib o’tiladi.

Tashqi boshqaruv jarayonida xo’jalik sudi tomonidan kelishuv bitimining tasdiqlanishi kreditorlar talab-larining qondirilishiga joriy etilgan moratoriy hamda bankrotlik to’g’risida ish yuritishning tugatilishi uchun asos bo’ladi. Agar kelishuv bitimi xo’jalik sudi tomonidan tugatishga doir ish yuritish davrida tasdiqlangan bo’lsa, xo’jalik sudining qarzdorni bankrot deb topish va tuga-tishga doir ish yuritishni boshlash to’g’risidagi qarori ijro etilmasligi kerak.

5-§. qarzdor yuridik shaxslar ayrim toifalarining bankrotligi xususiyatlari.

«Bankrotlik to’g’risida»gi qonunning alohida boblari shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxonalarning bankrotligi, qishloq xo’jaligi korxonalarining bankrotligi, banklarning bankrotligi, sug’urtalovchining bankrotligi, qimmatli qog’ozlar bozori professional ishtirokchilarining bankrotligi masalasini ko’zda tutadi. Bu toifalarga kiruvchi shaxslarning bankrotligi masalasi ko’rilganda ularning har birining o’ziga xos belgilari borligi yaqqol ko’zga tashlanadi.

Shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxona deganda xodimlari ularning oila a`zolarini ham qo’shib hisoblaganda tegishli aholi punkti aholisining kamida yarmini tashkil etuvchi yoki xodimlarining soni kamida uch ming kishi bo’lgan yoxud davlatning mudofaa qobiliyati va xavfsizligi saqlab turilishini ta`minlovchi yoki tabiiy monopoliyalar sub`ekti bo’lgan yuridik shaxs tushuniladi.

Bunday korxona bankrotligi to’g’risidagi ish, agar qarzdor kreditorlarning pul majburiyatlari bo’yicha talablarini qondirishga va majburiy to’lovlar bo’yicha o’z majburiyatlarini bajarishga qodir bo’lmasa, hamda bunday talab va majburiyatlar **olti oy ichida bajarilmagan** bo’lsa, basharti qarzdorga nisbatan bildirilayotgan talablar **eng kam ish haqining besh ming karrasi miqdorini** tashkil etsa, xo’jalik sudi tomonidan qo’zg’atilishi mumkin.

Shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxona bankrotligi to’g’risidagi ish ko’rilayotganda tegishli davlat hokimiyati organi va tegishli vazirlik, davlat qo’mitasi, idora xo’jalik boshqaruv organi ishda ishtirokchi shaxs sifatida e`tirof etiladi. Bunday korxonaga nisbatan xo’jalik sudi tomonidan tashqi bosh-qaruv kreditorlar yig’ilishining qarori asosida, bunday qaror bo’lmasa, mahalliy davlat hokimiyati organining yoki vazirlik, davlat qo’mitasi, idoraning va xo’jalik bosh-qaruvi organining iltimosnomasiga binoan, ular qarz-dorning majburiyatlari yuzasidan ta`minot bergan taq-dirda, joriy etilishi mumkin.

Shaharni tashkil etuvchi qarzdor korxona hamda unga tenglashtirilgan qarzdor korxona tashqi boshqaruv chog’ida kreditorlarning talablarini qondirish maqsadida

mulkiy majmua sifatida sotilishi mumkin. Shaharni tashkil etuvchi korxona hamda unga tenglashtirilgan korxonani sotish tanlov yoki auksion o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

qishloq xo'jaligi korxonasi deganda qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi), fermer xo'jaligi va yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi dehqon xo'jaligi, shuningdek faoliyatining asosiy turi tovar qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirishdan iborat bo'lgan boshqa yuridik shaxslar tushuniladi.

qishloq xo'jaligi korxonalarining bankrotligi to'g'-risida ish qo'zg'atilgunga qadar ularga nisbatan «qishloq xo'jaligi korxonalarini sanasiya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunida belgilangan tartibda sudgacha sanasiya qilish qo'llanilishi mumkin. Sudgacha sa-nasiya qilish muddati mobaynida tabiiy ofatlar va boshqa fors-major holatlar tufayli qishloq xo'jaligi kor-xonasining ishlab chiqarishida pasayish va moliyaviy ahvo-lida yomonlashish sodir bo'lgan bo'lsa, sudgacha sanasiya qilish o'n ikki oyga uzaytirilishi mumkin.

qishloq xo'jaligi korxonasida kuzatuv, sud sanasiyasi va tashqi boshqaruv etishtirilgan tovar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini realizasiya qilish uchun zarur vaqtni hi-sobga olgan holda qishloq xo'jaligi ishlarining tegishli davri tugagunga qadar bo'lgan muddatga joriy etiladi. Bunda kuzatuv taomili muddati uch oydan, sud sanasiyasi va tashqi boshqaruv jami muddati esa o'ttiz olti oydan oshmasligi lozim. Bu muddat qonunda belgilangan holatlarda o'n ikki oyga uzaytirilishi mumkin.

Bankrot deb topilgan qishloq xo'jaligi korxonalariga tegishli bo'lgan mol-mulk kim oshdi savdosiga mulkiy majmua sifatida sotishga qo'yilmog'i lozim.

qarzdorning mol-mulkini sotib olishda imtiyozli huquqqa, shuningdek erga egalik qilish huquqiga qishloq xo'jaligi mahsuloti etishtirish bilan shug'ullanayotgan va qarzdorning er uchastkasiga bevosita tutash er uchastkasiga egalik qiluvchi shaxslar ega bo'ladilar.

Bankni bankrot deb topish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi lisenziya qaytarib olinganidan keyingina xo'jalik sudi tomonidan qabul qilinadi.

Banklarga nisbatan tashqi boshqaruv joriy qilin-maydi. Bankning bankrotligi to'g'risidagi ish ko'rilayotganda qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Mar-kaziy banki va Fuqarolarning omonatlarini kafolatlash fondi ham ishda ishtirok etuvchi shaxslar deb hisoblanadi.

Sug'urtalovchining bankrotligiga doir ish ko'rilayotganda shuni unutmaslik kerakki, qonunda ko'rsatib o'tilgan ishda ishtirok etuvchi shaxslardan tashqari sug'urta faoliyati ustidan nazorat qiluvchi davlat organi ham ishda ishtirok etuvchi shaxs deb hisoblanadi.

Sug'urta tashkilotiga tegishli mulkiy majmuani sotish tashqi boshqaruv jarayonida ham amalga oshirilishi mumkin. Ushbu tashkilotning mulkiy majmuasini sotib olish huquqi faqatgina sug'urta tashkilotlariga tegishlidir. Sug'urta-lovchining mulkiy majmuasi tashqi boshqaruv jarayonida sotilgan taqdirda sug'urtalovchining mulkiy majmuasi so-tilayotgan sanadagi sug'urta hodisasi yuzaga kelmagan sug'urta shartnomalari bo'yicha barcha huquq va majburiyatlar maj-muani sotib olgan shaxsga o'tadi.

Tugatishga doir ish yuritish o’tkazilayotganda sug’urta-lovchining mulkiy majmuasi sotib oluvchi faqat sug’urta-lovchi bankrot deb topilgan sanaga qadar sug’urta hodisasi yuzaga kelmagan sug’urta shartnomalarini o’z zimmasiga olishga rozi bo’lganda sotilishi mumkin.

qimmatli qog’ozlar bozori professional ishtirokchilari bo’lmish shaxslarning bankrotligi to’g’risidagi ish ko’rib chiqilayotganda qimmatli qog’ozlar bozorini tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi vakolatli davlat organi ham xo’jalik sudlov ishida ishtirok etuvchi shaxs hisoblanadi.

qimmatli qog’ozlar bozori professional ishtirokchilarining bankrotligi to’g’risidagi ish bo’yicha sud bosh-qaruvchisi mazkur faoliyatni amalga oshirishi uchun sud boshqaruvchisi sifatida attestasiyadan o’tishi, shuningdek unda qimmatli qog’ozlar bozorini tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi vakolatli davlat organi tomonidan beriladigan lisenziya bo’lishi kerak.

6-§. Yakka tartibdagi tadbirkor bankrotligining xususiyatlari.

«Bankrotlik to’g’risida»gi qonunga muvofiq yakka tartibdagi tadbirkor bankrotligining asosiy belgisi bank-rotlik alomatlari mavjud bo’lgan taqdirda, yakka tartibdagi tadbirkorga nisbatan jami talablar eng kam ish haqining o’ttiz karrasini tashkil etishi va ushbu majburiyat vaqti kelgandan keyin 3 oy muddat ichida amalga oshirilmagan-ligidir.

qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish to’g’risidagi ariza xo’jalik sudiga qarzdor, yakka tartibdagi tadbirkor, kreditor, prokuror, shuningdek davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlar tomonidan berilishi mumkin.

qarzdor - yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish to’g’risida ariza berish huquqiga kreditorlar ham ega, hayoti yoki sog’ligiga etkazilgan zararning o’rnini qop-lash to’g’risidagi, alimentlarni undirish to’g’risidagi ta-lablar, shuningdek shaxsiy xususiyatdagi boshqa talablar qo’yadigan kreditorlar bundan mustasno.

qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish taomili amalga oshirilayotgan paytda hayoti yoki sog’-ligiga etkazilgan zararning o’rnini qoplash, alimentlarni undirish to’g’risidagi talablarni, shuningdek shaxsiy xu-susiyatdagi boshqa talablarni qo’yayotgan kreditorlar o’z ta-lablarini taqdim etishga haqli. Mazkur kreditorlarning talablari, agar ular bankrotlik taomili qo’llanilayotganda bildirilmagan bo’lsa, qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning bankrotligi taomili tugaganidan keyin ham o’z kuchini saqlab qoladi.

qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning bankrot deb topish to’g’risidagi arizasiga qarzlarni to’lash rejasi ilova qilinishi mumkin, rejaning nusxalari kreditor-larga va ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga jo’natiladi.

Kreditorlarning e`tirozi bo’lmasa, xo’jalik sudi qarzlarni uzish rejasini tasdiqlashi mumkin, bu esa bankrotlik to’g’risidagi ish yuritilishini uzog’i bilan ikki oygacha bo’lgan muddatga to’xtatib turish uchun asos bo’ladi.

qarzlarni uzish rejasi quyidagilarni o’z ichiga oladi:

rejani amalga oshirish muddati;

qarzdor yoki uning oila a`zolariga iste`moli uchun har oyda qoldiriladigan summa miqdori;

kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun har oyda yuborish mo'ljallanayotgan summa miqdori.

Xo'jalik sudi bankrotlik to'g'risidagi ishda ishtirok etayotgan shaxslarning asoslantirilgan iltimosnomasiga binoan qarzlarni to'lash rejasini o'zgartirishi, shu jumladan uni amalga oshirish muddatini uzaytirishi yoki qis-qartirishga, qarzdor yoki uning oila a`zolari iste`moli uchun har oyda qoldiriladigan summa miqdorini ko'paytirishga yoki kamaytirishga haqlidir.

Agar qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor qarzlarni uzish rejasini bajarishi natijasida kreditorlarning talablari to'la hajmda qanoatlantirilgan bo'lsa, bankrotlik to'g'risidagi ish yuritish tugatilishi kerak.

qarzdor bankrot deb topilgan taqdirda tugatishga doir ish yuritish boshlanadi. Yakka tartibdagi tadbirkorlarning tugatish massasiga qonun hujjatlariga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo'lmagan mol-mulklar kiritilmaydi. Xo'jalik sudi qarzdorning hamda bankrotlik to'g'risidagi ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarning asoslantirilgan iltimosnomasiga binoan yakka tartibdagi tadbirkorning qonun hujjatlariga muvofiq undiruvni qaratish mumkin bo'lgan, nolikvid mol-mulklarni yoki realizasiya qilinganda tushgan daromad kreditorlarning talablarini qondirishga mohiyatan ta`sir etmaydigan mol-mulkini tu-gatish massasidan chiqarishga haqli. Yakka tartibdagi tad-birkorning tugatish massasidan chiqariladigan mol-mulkining umumiy qiymati eng kam ish xaqining ellik baravaridan ortiq bo'lmasligi kerak. Bunday mol-mulkning ro'yxati xo'jalik sudi tomonidan tasdiqlanib, bu haqda ajrim chiqariladi.

qarzdorni bankrot deb topish to'g'risidagi ariza xo'jalik sudiga berilganidan keyin yakka tartibdagi tadbirkorning o'z mol-mulkini tasarrufidan chiqarish yoki boshqa manfaatdor shaxslarga berish bilan bog'liq bo'lgan bitimlari o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimlar hisoblanadi.

Xo'jalik sudi yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish to'g'risidagi arizani qabul qilish bilan bir paytda yakka tartibdagi tadbirkorning mol-mulkini xatlab qo'yadi, qonun hujjatlariga muvofiq undiruvni qaratish mumkin bo'lmagan mol-mulk bundan mustasno. qarzdorning pul majburiyatlari bajarilishi xususida uchinchi shaxslar tomonidan asoslantirilgan kafillik berilgan yoki boshqa kafolatlangan ta`minot taqdim etilgan taqdirda xo'jalik sudi yakka tartibdagi tadbirkorning iltimosnomasiga binoan yakka tartibdagi tadbirkorning mol-mulkini (mol-mulkining bir qismini) xatlovdan chiqarishi mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkorning arizasiga binoan xo'jalik sudi yakka tartibdagi tadbirkor kreditorlar bilan hisob-kitob qilishi yoki kelishuv bitimiga erishishi uchun bankrotlik to'g'risidagi ishni ko'rishni uzog'i bilan bir oy muddatga keyinga qoldirishi mumkin. Kreditorlar bilan hisob-kitob qilinganligi to'g'risidagi dalillar yoki kelishuv bitimi taqdim qilinmagan taqdirda, sud yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish hamda tugatishga doir ish yuritishni boshlash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkor bankrot deb topilgan vaqt-dan boshlab:

qarzdorning pul majburiyatlarini bajarish muddati boshlangan deb hisoblanadi;

qarzdorning barcha majburiyatlari bo’yicha neustoyka (jarima, penya), foizlar hisoblash va boshqa iqtisodiy (moliyaviy) sanksiyalar bekor qilinadi;

qarzdordan barcha ijro hujjatlari buyicha undiruvlar ham bekor qilinadi, alimentlar undirish to’g’risidagi talablar bo’yicha, shuningdek hayoti yoki sog’lig’iga etkazilgan zararning o’rnini qoplash to’g’risidagi talablar bo’yicha ijro hujjatlari bundan mustasno.

Yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to’g’risidagi qarorni xo’jalik sudi aniqlangan barcha kreditorlarga ular o’z talablarini taqdim etadigan muddatni ko’rsatgan holda jo’natadi, bu muddat ikki oydan oshmasligi kerak. Xo’jalik sudining ana shunday qarorini yuborish yakka tartibdagi tadbirkor hisobidan amalga oshiriladi.

Xo’jalik sudi yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish to’g’risida qaror qabul qilgan paytdan boshlab uning yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro’yxa-tidan o’tganligi o’z kuchini yo’qotadi, shuningdek faoliyatning ayrim turlari bilan shug’ullanish uchun unga berilgan lisenziyalarning amal qilishi tugatiladi.

Xo’jalik sudi yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish to’g’risidagi qaror nusxasini ayni shu shaxsni yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro’yxatga olgan organ va lisenziyalovchi organga yuboradi. Xo’jalik sudining qarzdorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to’g’risidagi qarori hamda undiruvni qarz-dorning mol-mulkiga qaratish to’g’risidagi ijro varaqasi qarzdorning mol-mulki sotilishini amalga oshirish uchun sud ijrochisiga yuboriladi.

qarzdor yakka tartibdagi tadbirkorning ko’chmas mol-mulkini yoki qimmatli ko’char mol-mulkini doimiy bosh-qaruv zarur bo’lganda xo’jalik sudi mazkur maqsadlar uchun tugatish boshqaruvchisini tayinlaydi va unga to’lanadigan haq miqdorini belgilaydi. Bu hollarda, qarzdor yakka tar-tibdagi tadbirkorning mol-mulki tugatish boshqaruvchisi tomonidan sotiladi. qarzdorning mol-mulkini sotishdan tushgan, shuningdek mavjud naqd pul mablag’lari yakka tar-tibdagi tadbirkorni bankrot deb topish to’g’risidagi qarorni qabul qilgan xo’jalik sudining depozitiga kiri-tiladi.

Kreditorlarning bildirilgan talablari asosida xo’jalik sudi kreditorlarning talablarini qondirish tartibi va miqdori to’g’risida ajrim chiqaradi. Avval bankrotlik ishini ko’rish va xo’jalik sudining yakka tartibdagi tadbirkorni bankrot deb topish to’g’risidagi qarorini bajarish bilan bog’liq xarajatlar qoplanadi, keyingi o’rinda byudjetga majburiy to’lovlar, garov bilan ta`minlangan talablar va boshqalar qoplanadi.

Kreditorlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish tugaganidan keyin sud harakatlari amalga oshirilayotgan paytda kreditorlar tomonidan qo’yilgan talablardan ozod etiladi. Hayot yoki sog’likka zarar etkazish, aliment undirish to’g’risidagi talablar bankrotlik ishi tugatilgandan keyin ham qo’yilishi mumkin. Agar qarzdor mulkini yashir-ganligi yoki uni noqonuniy ravishda uchinchi shaxslarga berganligi fakti aniqlansa, sud harakatlari davomida ta-blari qondirilmagan kreditorlar undiruvni ushbu mol-mulkka qaratilishini so’rab murojaat qilishga haqli.

7-§. Bankrotlikning soddalashtirilgan taomillari

Bankrotlikning soddalashtirilgan taomillariga yangi tahrirdagi «Bankrotlik to’g’risida»gi qonunning 11-bo-bida ko’rsatib o’tilgan tugatilayotgan va hozir bo’lmagan qarzdorning bankrotligi kiradi.

Xo’jalik sudi tomonidan moliya-xo’jalik faoliyatini olti oy mobaynida amalga oshirmayotgan (bank hisobvaraqlari bo’yicha uch oy mobaynida operasiyalarni o’tkazmagan savdo, savdo-vositachi korxonalar), shuningdek, qonunchilikda belgilangan muddatda o’z ustav jamg’ar-malarini shakllantirmagan yuridik shaxslar tugatilishi mumkin.

Mazkur yuridik shaxslarning tugatish jarayonida uning mol-mulki qiymati kreditorlarning talablarini qon-dirish uchun etarli bo’lmasa, tugatish komissiyasi (tu-gatuvchi) ushbu yuridik shaxsni bankrot deb topish to’g’risidagi ariza bilan xo’jalik sudiga murojaat qilishi yoki qonun huj-jatlarida nazarda tutilgan tegishli choralarni ko’rishi uchun davlat soliq xizmati organlariga murojaat etishi shart.

Tugatilayotgan qarzdorni bankrot deb topish to’g’ri-sidagi ariza kreditorlik qarzining miqdoridan qat`iy nazar berilishi kerak. Ushbu holatda xo’jalik sudi tomo-nidan qarzdorni bankrot deb topish to’g’risidagi qaror qa-bul qilinadi, tugatishga doir ish yuritish boshlanadi hamda tugatish boshqaruvchisi tayinlanadi.

Tugatilayotgan yuridik shaxsning bankrotligida kuzatuv, sud sanasiyasi va tashqi boshqaruv taomillari qo’llanil-maydi. Kreditorlar tugatilayotgan yuridik shaxsga bo’lgan o’z talablarini tugatilayotgan yuridik shaxsni bankrot deb topilganligi to’g’risidagi e`lon chop etilgan paytdan boshlab bir oylik muddat ichida taqdim etishga haqli.

Agar yuqorida ko’rsatib o’tilgan holatda tugatish komissiyasi xo’jalik sudiga murojaat qilmagan bo’lsa, bu yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga yuridik shaxs tugatilganligi to’g’risidagi yozuvni kiritishni rad etish uchun asos bo’ladi.

Shuningdek, tugatilayotgan yuridik shaxsni qonunda belgilangan holatda bankrot deb topish to’g’risida xo’jalik sudiga murojaat qilish talabini buzilishiga yo’l qo’ygan tugatish komissiyasining raisi yoki tugatuvchi tugatilayotgan yuridik shaxsning pul majburiyatlari va majburiy to’lovlari yuzasidan qondirilmagan talablar bo’yicha subsidiar javobgar bo’ladi.

Bankrotlikning soddalashtirilgan taomiliga hozir bo’lmagan qarzdorning bankrotligi ham kiradi.

Hozir bo’lmagan qarzdor deganda o’z faoliyatini tugatgan yakka tartibdagi tadbirkor yoki tugatilayotgan yuridik shaxsning rahbari hozir bo’lmagan va ularning turgan jo-yini (yashash joyini) aniqlashning imkoni bo’lmagan holat tushuniladi.

Bu holatda yuridik shaxs majburiy tarzda emas, balki ixtiyoriy ravishda tugatilayotgan bo’ladi. Shuning uchun ham bankrotlik taomillarining hozir bo’lmagan qarzdorga nisbatan to’liq hajmda qo’llanilishi majburiy shart qilib belgilanmagan. Hozir bo’lmagan qarzdorni bankrot deb topish to’g’risidagi ariza kreditorlik qarzining miqdoridan qat`iy nazar kreditor, bankrotlik to’g’risidagi ishlar buyicha davlat organi, soliq xizmati organi yoki boshqa vakolatli organ, shuningdek prokuror tomonidan berilishi mumkin.

Xo’jalik sudi hozir bo’lmagan qarzdorni bankrot deb topish haqidagi arizani o’z ish yurituviga qabul qilib olgan kundan e`tiboran ikki haftalik muddat ichida

qarz-dorni bankrot deb topish va tugatishga doir ish yuritishni boshlash to’g’risida qaror qabul qiladi.

Hozir bo’lmagan qarzdorning bankrotligida kuzatuv, sud sanasiyasi va tashqi boshqaruv taomillari qo’llanil-maydi. Xo’jalik sudining qarori bankrotlik to’g’risidagi ishlar bo’yicha davlat organiga yuboriladi, bu organ mazkur qarorni olgan kundan e`tiboran bir haftalik muddat ichida xo’jalik sudiga tugatish boshqaruvchiligiga nomzod taqdim etadi. Bunday nomzod bo’lmagan taqdirda xo’jalik sudi tugatish boshqaruvchisini bankrotlik to’g’risidagi ishlari bo’yicha davlat organi xodimlari orasidan tayinlashi mum-kin.

Tugatish boshqaruvchisi o’zi aniqlagan barcha kreditorlarni hozir bo’lmagan qarzdorning bankrotligi to’g’ri-sida yozma ravishda xabardor qiladi, ular bu xabarni olgan kundan e`tiboran bir oylik muddat ichida tugatish bosh-qaruvchisiga o’z talablarini taqdim etishlari mumkin. Tu-gatish boshqaruvchisi hozir bo’lmagan qarzdorning mol-mulkini aniqlagan taqdirda, xo’jalik sudi uning iltimosnomasiga binoan bankrotlikning soddalashtirilgan taomilini bekor qilish hamda ushbu qonunda nazarda tutilgan bankrotlikning umumiy taomiliga o’tish to’g’risida ajrim chiqarishi mumkin.

Xo’jalik sudlari amaliyoti shuni ko’rsatadiki, ushbu toifadagi ishlarning ko’pchiligida arizachi - bu davlat soliq xizmati organlaridir. Ushbu holatda soliq organlari o’z arizalariga xo’jalik yurituvchi sub`ekt yoki unga tegishli mol-mulkning yuridik manzil yoki oxirgi ro’yxatga olingan erda yo’qligini tasdiqlovchi va turar joyning egasi, mahalla qo’mitasi yoki binolardan foydalanish boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalarni ilova qiladilar. Shuningdek qarzdor yakka tartibdagi tadbirkor yoki amalda o’z faoliyatini tugatgan qarzdor yuridik shaxsning rahbari qaerda ekanligini aniqlashning imkoni yo’qligini tas-diqlovchi dalillar, (masalan,Toshkent shahrida ro’yxatdan o’tmaganligi haqida manzilgohlar byurosidan ma`lumotnoma) yoki turar joyidan, ro’yxatga olingan joyda yashamasligi haqida soliq va boshqa vakolatli organ vakillari tomonidan tuzilgan va tegishlicha mahalla qo’mitasi tomonidan tasdiqlangan dalolatlar ilova qilinadi.

Nazorat savollari:

1. Bankrotlikning alomatlari qanday?
2. Sudgacha sanasiyaga qanday chora-tadbirlar kiradi?
3. Bankrot deb topish to’g’risidagi arizaga qo’yiladigan talablarni aytib bering.
4. Bankrotlik to’g’risidagi ishlarning sudda ko’rilish tartibini tushuntirib bering.
5. qarzdor va kreditorning kelishuv bitimi qanday tartibda tuziladi?

8-BOB
RAqOBATNING HUqUqIY TA`MINLANIShI

1-§. Insofli va insofsiz raqobat tushunchalari hamda ularning shakllari

Tadbirkorlik faoliyatini raqobatsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham u iqtisodiyotni rivojlantiruvchi asosiy omillardan bo'lib hisoblanadi. Raqobat inson faoliyatining deyarli barcha turlarida uchraydi. Raqobatda raqobatlashayotgan taraflar yagona maqsad uchun o'zaro musobaqalashadi. Bunda xo'jalik yurituvchi sub`ektlar tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotishda bir-biridan yaxshi sharoitlarni yaratib, mumkin qadar ko'proq foyda olishga intilishadi. Raqobat muhiti mavjud bo'lgan iqtisodiyotda xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning faoliyati erkin bo'ladi, ya`ni istalgan tovar(ish,xizmat)lar bozorida faoliyat ko'rsatishlari va ulardan o'z xohishlari bo'yicha chiqib ketishlari mumkin. Raqobat rivojlangan sari odam-larning turmush darajasi yaxshilanib boradi. Raqobatni yo'q qilinishi esa iqtisodiyotni inqirozga hamda odam-larning turmush darajasini tushib ketishiga olib keladi. Chunki faqatgina raqobat vositasida narxi arzon va sifati yuqori bo'lgan tovar(ish,xizmat)lar ishlab chiqiladi hamda realizasiya qilinadi.

Raqobat – bu xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning o'zaro musobaqalashuvi bo'lib, bunda ular o'zlarining mustaqil harakatlari bilan bozorda tovarlar aylanishining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama ta`sir etish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar. Iqtisodiyotda raqobatni ta`minlash bilan bog'liq huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respub-likasining 1996 yil 27-dekabrdagi «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida»gi qonuni bilan tartibga solinadi. Raqobat sharoitida xo'-jalik yurituvchi sub`ektlar tovar bozoriga boshqa xo'ja-lik yurituvchi sub`ektlarning kirib kelishiga to'sqinlik ko'rsatishmaydi. Agarda xo'jalik yurituvchi sub`ekt tomo-nidan tovar bozoriga boshqa xo'jalik yurituvchi sub`ektni kirib kelinishiga to'sqinlik qilinsa mazkur bozorda insofsiz raqobat yoki monopolistik faoliyat mavjud bo'ladi. Aynan insofsiz raqobat va monopolistik faoliyat raqobatga zid faoliyatlar bo'lib hisoblanadi.

Insofsiz raqobat – bu xo'jalik yurituvchi sub`ektlarni tadbirkorlik faoliyatida ustunlikni qo'lga kiritib, tovar bozorida tovarlar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga ta`sir ko'rsatish maqsadida tovar-(ish, xiz-mat) larni ishlab chiqarish va sotishda qonun hujjatlariga va ish muomalasi odatlariga zid bo'lgan, mu-sobaqalashuvni istisno etadigan harakatlarni amalga oshirishdir.

Insofsiz raqobat quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

-boshqa xo'jalik yurituvchi sub`ektga zarar keltiradigan yoki uning tadbirkorlik obro'siga putur etkazadigan yolg'on, noaniq yoki buzib ko'rsatilgan ma`lumotlarni tar-qatish;

-yuridik shaxsning intellektual faoliyati natijalaridan va ularga tenglashtirilgan individuallashtirish vositalaridan qonunsiz foydalanib tovarlar sotish, ish va xizmatlar ko'rsatish;

-tovarning xususiyati, uni tayyorlash usuli va joyi, ist`emol xossalari hamda sifati xususida iste`molchilarni chalg'itish;

-xo'jalik yurituvchi sub`ektning reklamada o'zi ishlab chiqaradigan yoki sotadigan tovarlarni boshqa xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning tovarlari bilan qo'pol taqqos-lash;

-ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish yoki savdo axborotini, shu jumladan tijorat sirini egasining roziligisiz olish va undan foydalanish;

-yangi xo'jalik yurituvchi sub`ektning tovarlar va xizmatlar bozoriga kirishiga to'sqinlik qilish.

Demak, insofli raqobatda xo'jalik yurituvchi sub`ekt ahloq-odob, ish muomalasi odatlari hamda qonun hujjatlari normalariga rioya qilgan holda faoliyat yuritadi. Bunda xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning bozorda tovarlar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga ta`sir etish imkoniyati musobaqalashayotgan xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning soni ko'p bo'lganligi tufayli ob`ektiv ravishda mumkin bo'lmay qoladi. Raqobat sharoitida xo'jalik yurituvchi sub`ektlar qanchalik harakat qilishmasin ular bozorda tovarlar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga ta`sir etisha olmaydi, chunki raqobat uzluksiz kechadigan jarayon bo'lib hisoblanadi. Xo'jalik yurituvchi sub`ekt raqobatda engib chiqib, ustun mavqega ega bo'lganda ham, uni bozorda tovarlar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga ta`sir etishi antimonopol qonun hujjatlari bilan ta`qiqlab qo'yilgan. Ushbu qonun hujjatlariga rioya etmaslik xo'jalik yurituvchi sub`ektni moliyaviy, ma`muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

Shunday qilib insofli raqobatda xo'jalik yurituvchi sub`ektning bozorda tovarlar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga ta`sir etish imkoniyatlari ham ob`ektiv (raqobatchilarning ko'pligi), ham sub`ektiv (ta`sir etishning qonun hujjatlari bilan ta`qiqlanganligi) sabablarga ko'ra cheklangan bo'ladi.

Insofsiz raqobat quyidagi ikki maqsadni ko'zlab amalga oshirilishi mumkin:

birinchisi, xo'jalik yurituvchi sub`ekt bozorda o'zaro teng shart-sharoitlarda raqobatlashish imkoniyatiga ega bo'lmaydi va bozordan chiqib ketmaslik uchun insofsiz ra-qobatni amalga oshiradi(masalan, iste`molchilarni chal-g'itib o'z tovarini ularga o'tkazadi);

ikkinchisi, xo'jalik yurituvchi sub`ekt garchand raqo-batbardosh bo'lsada, u ko'proq foyda olish maqsadida in-sofsiz raqobatni amalga oshiradi (masalan, yangi xo'jalik yurituvchi sub`ektlarni tovar bozoriga kirib kelishlariga to'sqinlik qiladi). Demak, insofsiz raqobat bir tomondan raqobatbardosh bo'lmagan xo'jalik yurituvchi sub`ektlarni tovar (ish,xizmat)lar bozorida o'zlarini saqlab qolishla-rining noqonuniy vositasi bo'lsa, ikkinchi tomondan mo-nopolistik faoliyatni keltirib chiqaruvchi noqonuniy ra-qobatning bir ko'rinishidir.

2-§. Iste`molchilarning huquq va manfaatlarini insofsiz raqobatdan himoya qilish

Insofsiz raqobat nafaqat xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning, balki iste`molchilarning ham huquq va manfaatlariga salbiy ta`sir ko'rsatadi. Insofsiz raqobatni amalga oshirish shakllaridan kelib chiqqan holda iste`-molchilarning huquq

va manfaatlariga bevosita hamda bil-vosita zarar etkazilishi mumkinligini anglash mumkin.

Bevosita deyilishiga sabab, bunda insofsiz raqobatchi o'zining noqonuniy harakatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri iste`molchining huquq va manfaatlariga zarar etkazadi. Masalan, u boshqa xo'jalik yurituvchi sub`ektning individuallashtirish vositalari (tovar belgilari)dan noqonuniy foydalanib, o'zining tovarlarini sotadi. Natijada iste`molchi aldanadi, chunki tovardagi belgi obro'li xo'jalik yurituvchi sub`ektniki bo'lgani bilan, tovarning sifati tegishli darajada bo'lmasligi mumkin. Bundan tashqari tovarning xususiyati, uni tayyorlash usuli va joyi, iste`-mol xossalari hamda sifati xususida iste`molchilarni chalg'itish ham ularning huquqlarini to'g'ridan-to'g'ri buzi-lishiga olib keladi.

Bilvosita deyilishiga sabab shuki, bunda iste`molchining huquq va manfaatlariga zarar etkazish to'g'ridan-to'g'ri emas, balki insofsiz raqobatchi tomonidan boshqa xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning huquq va manfaatlariga zarar etkazish orqali amalga oshiriladi. Masalan, insofsiz raqobatchi boshqa xo'jalik yurituvchi sub`ektga zarar keltiradigan yoki uning tadbirkorlik obro'siga putur et-kazadigan yolg'on ma`lumotlarni tarqatib yoxud yangi xo'jalik yurituvchi sub`ektlarni tovarlar va xizmatlar bozoriga kirishlariga to'sqinlik qilib raqobatni sustlashtiradi. Natijada bozorda narxi arzon va sifati yaxshi tovarlar kamayib ketadi. Ushbu hol esa iste`molchilarning manfaatlariga salbiy ta`sir ko'rsatmay qolmaydi.

Raqobat hamda monopolistik faoliyatni cheklash bilan bog'liq munosabatlarda iste`molchilarning doirasi keng bo'lib, ularni quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

birinchisi, fuqarolar, ya`ni jismoniy shaxslar;

ikkinchisi, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda yuridik shaxslar.

Iste`molchilarni ikki guruhga ajratilishining saba-bi, ularning huquq va manfaatlari turli qonunlar bilan himoyalanganidadir. Masalan, fuqarolarni iste`molchi si-fatida huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq munosabatlar asosan O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 apreldagi «Iste`molchilarning huquqlarini himoya qi-lish to'g'risida»gi qonuni[58] bilan tartibga solinadi. Mazkur qonun insofsiz raqobatda ham iste`molchilarning huquq-lari himoya etilishini belgilab qo'ygan. Masalan, ushbu qo-nunga muvofiq iste`molchining asosiy huquqlaridan biri tovar (ish, xizmat) haqida, shuningdek ishlab chiqaruv-chi(sotuvchi) haqida to'g'ri va to'liq ma`lumot olishdir. Ish-lab chiqaruvchi (sotuvchi) esa o'z navbatida iste`molchiga o'zi realizasiya qilayotgan tovar (ish,xizmat)lar haqida o'z vaq-tida zarur, to'g'ri va tushunarli ma`lumot berishi shart.

Tovar (ish,xizmat) haqida noto'g'ri yoki etarli darajada to'liq bo'lmagan ma`lumotnning berilishi zarur iste`mol xossalariga ega bo'lmagan tovar (ish, xizmat) sotib olini-shiga sabab bo'lsa, iste`molchi shartnomani bekor qilishga va o'ziga etkazilgan zararni to'la miqdorda qoplanishini talab qilishga haqli. Monopoliyaga qarshi faoliyatni amalga oshiruvchi organga esa iste`molchilarning huquqlarini bu-zayotgan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida ishlab chiqaruvchilarga (sotuvchilarga) ko'rsatmalar yo'llash vakolati berilgan. Agarda ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar) mazkur ko'rsatmalarni bajarishdan bo'yin tovlashsa yoki o'z vaqtida

[58] Ызбекистон Республикаси Олий Мажлиси Ахборотномаси, 1996 йил, 5-6 сон, 59-модда

bajarishmasa ushbu organ tomonidan jarimaga tortilishlari mumkin. Monopoliyaga qarshi faoliyatni amalga oshiruvchi organ iste`molchilarning huquqlarini himoya qilib, sudga murojaat etish huquqiga ham ega. Iste`molchi si-fatida xo'jalik yurituvchi sub`ektlar (yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar)ning huquq va manfa-atlarini insofsiz raqobatdan himoya qilish O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi hamda «Xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni bilan amalga oshiriladi.

3-§. Insofsiz raqobat va reklama

Bozor munosabatlari sharoitida raqobatni reklamasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ma`lumki raqobat xo'jalik yurituvchi sub`ektlarni muayyan foydani qo'lga kiritish uchun tovar (ish,xizmat)larni ko'proq ishlab chiqarish va sotish bo'yicha o'zaro musobaqalashuvidir.

Reklama esa foyda olish maqsadida xo'jalik yurituvchi sub`ektlar, ularning tovar (ish, xizmat)lari, tovar (ish, xizmat) belgilari hamda tovarlarni ishlab chiqarish texnologiyalari to'g'risida tarqatiladigan maxsus axborotdir.

Xo'jalik yurituvchi sub`ekt qanchali sifatli va narxi arzon tovar ishlab chiqarmasin, u reklamaning yordamisiz raqobatlasha olmaydi. Chunki iste`molchi faqatgina reklama orqaligina xo'jalik yurituvchi sub`ekt hamda uning tovari (ishi,xizmati) haqida to'liq ma`lumotga ega bo'ladi. Xo'jalik yurituvchi sub`ekt aynan reklama orqali o'zining imko-niyatlarini iste`molchiga namoyish eta oladi. Reklama xo'-jalik yurituvchi sub`ektga raqobatlashish vositasi sifa-tida xizmat qiladi desa ham bo'ladi. Shuning uchun ham iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda reklamadan keng foydalaniladi. Masalan, reklama uchun sarflanadigan xarajatlar Italiyada yalpi milliy mahsulotning 0,6% tashkil etsa, AqShda 2,7% tashkil etadi.

Reklama faoliyati bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 25 dekabrdagi «Reklama to'g'risida»gi qonuni[1] hamda «Reklama to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 30 avgustdagi qonuni bilan huquqiy jihatdan tartibga solinadi. Reklama bilan bog'liq huquqiy munosabatlarda rek-lama beruvchi, reklama tayyorlovchi, reklama tarqatuvchi hamda reklamadan foydalanuvchilar ishtirok etadi. Reklama beruvchi-o'z tovari (ishi, xizmati)ni reklama qilayotgan xo'jalik yurituvch sub`ektdir. Reklama tayyorlovchi-reklama beruvchining buyurtmasiga binoan reklamani tayyorlaydigan shaxs. Reklama tarqatuvchi-reklama vositalari orqali reklama beruvchining reklamasini tarqatuvchi shaxs. Reklamadan foydalanuvchi-reklama yo'naltirilgan shaxs, ya`ni iste`molchidir.

Reklamani tarqatishda qonun hujjatlariga rioya etish, undagi ma`lumotlarning aniq va ishonchli bo'lishi hamda iste`molchiga hech qanday zarar etkazmaslik

[1] Ызбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 йил,14-модда, 1-сон

reklamaga qo’yiladigan asosiy talablar bo’lib hisoblanadi. Shuning uchun ham mazkur talablarga rioya etmagan shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar. O’z tovari (ishi,xizmati)ni reklama qilmoqchi bo’lgan shaxs reklama tayyorlovchi hamda uni tarqatuvchiga reklamadagi axborot-larning ishonchliligini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi shart. Bundan tashqari xo’jalik yurituvchi sub`ekt maxsus ruxsatnoma talab etiladigan faoliyatni reklama qilmoqchi bo’lsa tegishli lisenziyaga ega ekanligini ko’r-satishi lozim. Reklamadagi axborot hech qanday maxsus bi-limlarsiz har qanday normal qobiliyatli odamga tushunarli bo’lishi lozim.

Yuqorida reklamani xo’jalik yurituvchi sub`ektlar uchun raqobatlashuv vositasi ekanligi aytib o’tilgan edi. Raqobat qonuniy (insofli) hamda noqonuniy (insofsiz) turlarga bo’linar ekan, reklamaning ham qonuniy va no-qonuniy turlari mavjud. Aynan noqonuniy reklama orqali insofsiz raqobat amalga oshiriladi. Yuridik ada-biyotlarda noqonuniy, ya`ni lozim darajada bo’lmagan reklamaning quyidagi turlari sanab o’tilgan[1]:

-insofsiz reklama;

-ishonchsiz(shubhali) reklama;

-yolg’on reklama;

-yashirin reklama.

Insofsiz reklamada reklama qilinayotgan tovar (ish, xizmat)lardan foydalanmaydigan shaxslar kamsitiladi, reklama qilinayotgan tovar boshqa xo’jalik yurituvchi sub`-ektlarning tovarlari bilan noxolisona taqqoslanadi, ra-qobatchining obro’siga putur etkaziladigan yolg’on ma`lu-motlar aytiladi, reklaman raqobatchining reklamasiga o’xshatib, undan ko’chirib yoki taqlid qilib iste`molchini chalg’itadi yoki bo’lmasa ularning tajribasizligidan foy-dalanadi.

Ishonchsiz yoki shubhali reklamada tovar(ish,xizmat)ning turli belgilari, xususiyatlari, sifati, narxi, yaroqlilik muddati, kafolat muddati to’g’risidagi hamda boshqa ma`lumotlar haqiqatga to’g’ri kelmaydi, ya`ni ular bo’rtirib ko’rsatiladi. Ishonchsiz reklamada asosan «eng yaxshi», «mutlaqo», «yagona» va «faqat» kabi so’zlaridan keng foydalaniladi. Yolg’on (noto’g’ri) reklama orqali iste`molchilar xo’jalik yurituvchi sub`ektlar tomonidan qasddan chalg’i-tiladi.

Yashirin reklamada iste`molchining idrokiga o’zi xoh-lamagan holda ta`sir o’tkaziladi. Ushbu reklama turining yashirin deyilishiga sabab uning reklama bilan umuman bog’liq bo’lmagan ko’rsatuvlarda va nashrlarda namoyish etilishidir. Masalan, birorta davlat, fan yoki madaniyat arbobidan telejurnalistlar interv`yu olishayotganda tele-tomoshabinlarning asosiy e`tiborini ularning kiygan kiyimlariga yoki foydalanayotgan qo’l soatlariga qaratishga harakat qilishadi. Shuning uchun ham yashirin reklamani payqash juda qiyin.

Bundan tashqari etika (ahloq-odob) normalariga zid reklama ham mavjud bo’lib, S.E.Jilinskiy uni insofsiz reklamalar qatoriga kiritgan bo’lsa, I.V.Ershov, T.M.Iva- novlar unga noqonuniy reklamaning alohida turi si-fatida qaraydi. Reklamaning mazkur turida insoniylik hamda ahloq normalariga zid axborotlar mavjud bo’ladi. Mazkur axborotlar haqoratli so’zlar hamda odamlarni irqi, millati,

[1] С.Э.Жилинский «Предпринимательское право» М,. Норма-Инфра-М., 1999, стр.533-537

dini, kasbi, ijtimoiy toifasi, yoshi, til, jinsi, diniy, falsafiy, siyosiy va boshqa qarashlari bo'yicha qo'pol taqqoslashlardan iborat bo'ladi. «Reklama to'g'risida»gi qonunda yuridik adabiyotlardan farqli o'laroq noqonuniy reklama uch turga bo'lib ko'rsatilgan, ya`ni **noto'g'ri, yashirin va qiyosiy reklama.**

Noto'g'ri reklama-bu noaniqligi, ikki xil ma`noni anglatishi, bo'rttirib yuborishi, yashirib ketishi oqibatida, reklamani tarqatish vaqti, joyi va usuliga nisbatan qo'yilgan talablarni va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa talablarni buzishi natijasida reklamadan foydalanuvchilarni chalg'ituvchi yoki chalg'itishi mumkin bo'lgan, shaxslarga hamda davlatga zarar va ma`naviy zarar etkazishi mumkin bo'lgan reklamadir. Yuqorida sanab o'tilgan insofsiz, ishonchsiz, etika normalariga zid va yolg'on reklamalar qonun bilan noto'g'ri reklamalar qatoriga kiritilgan.

qiyosiy reklama esa raqobatchiga yoki u tomonidan taqdim etilayotgan muayyan bir turdagi mahsulotga bevosita yoki bilvosita aynanlashtiriladigan reklamadir. qiyosiy reklamaga quyidagi talablar bajarilgandagina yo'l qo'-yiladi:

-reklamada mahsulotning moddiy, muhim, ishonchli xossalari xolisona va insofli taqqoslansa;

-reklama undan foydalanuvchini chalg'itib qo'ymasa;

-reklama beruvchi bilan raqobatchini shaxsi, mahsuloti, tovar belgisi hamda firma nomi aralashib ketmasa;

-raqobatchining obro'siga putur etmasa.

Noqonuniy reklamaning salbiy oqibatlari aksilreklama orqali bartaraf etilishi mumkin.

Aksilreklama-avval berilgan reklamaga raddiya bildirish bo'lib, u bevosita reklama to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan shaxs tomonidan va uning hisobidan amalga oshiriladi. Aksilreklama ixtiyoriy ravishda yoki sudning qaroriga binoan amalga oshirilishi mumkin. Aksilreklama aybdor shaxsni boshqa javobgarliklardan ozod etmaydi.

Demak, insofsiz raqobat qonun hujjatlariga zid bo'lgan reklama vositasida amalga oshiriladi. Noqonuniy (noto'g'ri, qiyosiy va yashirin) reklamaga yo'l qo'ymaslik insofsiz raqobatni muayyan darajada bartaraf etishga olib keladi. Shuning uchun ham «Reklama to'g'risida»gi qonunda reklamaga oid qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik belgilab qo'yilgan.

Nazorat savollari:

1. Insofsiz raqobat nima?
2. Noto'g'ri reklama nima?
3. qachon aksilreklama beriladi?
4. Insofsiz raqobat qanday ko'rinishlarda amalga oshiriladi?

9- BOB.
XO’JALIK (TADBIRKORLIK) ShARTNOMALARI

1-§. Xo’jalik shartnomasi tushunchasi, sub`ektlari va ahamiyati

Mustaqil respublikamizda o’tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar, ma`muriy buyruqbozlik tuzimidan voz kechish ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarida tub o’zgarishlar-ni amalga oshirishni va birinchi navbatda ishlab chiqa-rish-xo’jalik aloqalari o’rnatishning bozor munosabat-lariga mos shakl va uslublarini yaratishni taqozo qiladi.

Prezident Islom Karimov ta`kidlaganidek, ilgari “Bir korxonaning ikkinchi korxonaga mahsulot etkazib berishi, ularni qaysi hududda joylashganligidan qat`i nazar markazlashtirilgan tarzda amalga oshirilar va buning uchun mablag’lar va fondlar ajratilar edi. Boshqacha qilib aytganda, mahsulot kerakmi yoki kerak emasmi, unga talab bormi yoki yo’qmi, bundan qat`i nazar, u butun Ittifoq bo’yicha mol etkazib beruvchilar va iste`molchilarga taq-simlanib chiqilar edi. Biriktirilgan is`temolchi esa bu mahsulotni olishi va o’z navbatida, o’z mahsulotini boshqa korxonalarga etkazib berishi shart edi”[59]. Ya`ni korxonalar o’rtasidagi xo’jalik munosabatlari ajratilgan limitlar, fondlar, naryadlar va buyurtmalarga asoslangan bo’lib, shartnomalar tuzilmas, tuzilsa ham ikkinchi darajali aha-miyatga ega bo’lgan hujjat sifatida qaralar edi.

Bozor munosabatlari sharoitida esa shartnomalar– barcha mulk shaklidagi korxonalar, shuningdek tadbirkorlar, hamda boshqaruv organlari o’rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni o’rnatuvchi asosiy huquqiy hujjat bo’lib hisoblanadi.

Bu haqda 2001 yil 16 fevralda Vazirlar Mahkamasida bo’lib o’tgan yig’ilishda I.A.Karimov – “bozor munosabatlarini shartnoma majburiyatlarisiz tasavvur qilib bo’lmasligini yodda tutish lozim”- deb uqtirdi. [60].

Shartnomalarning etakchilik roli va iqtisodiy muno-sabatlarni o’rnatishning yangi tamoyillari huquqiy ji-hatdan O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi;

---

[59] Каримов И.А. Ызбекистон и=тисодий ислощотларни чу=урлаштириш йылида. Т., Ызбекистон. 1995. 209-210-бетлар

[60] Хабарнома 1, Т.: 2001. 41-бет.

mulk; kooperasiya; ijara; tadbirkorlik; dehqon, fermer, shirkat xo'jaliklari; aksiyadorlik jamiyatlari va aksiya-dorlarning huquqlarini himoya qilish; banklar va bank faoliyati; chet el investisiyalari va chet ellik investor-larning kafolatlari; xo'jalik yurituvchi sub`ektlar fao-liyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risidagi va boshqa qonunlarda belgilab qo'yilgan.

Shartnoma deb ikki yoki bir necha (jismoniy yoki yuridik) shaxsning huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvga aytiladi.

Shartnoma taraflarning bitimi (kelishuvi) sifatida quyidagi belgilar bilan xarakterlanadi:

a)taraflarning erkini erkin ifodalanishi;

b) uning mazmunini tashkil etuvchi barcha muhim shart-lar bo'yicha taraflarning kelishganligi;

v) taraflarning o'z majburiyatlari bo'yicha harakat-larini (qoida tariqasida) haq evaziga bajarishi;

g) shartnoma munosabatlarida taraflarning tengligi;

d) shartnomani ijro qilishning yuridik kafolati;

j) shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun javob-garlik.

Xo'jalik yurituvchi sub`ektlar o'rtasidagi xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish vaqtida yuzaga keladigan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yuri-tuvchi sub`ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Xo'jalik shartnomasi deb taraflardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tovarlarni berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish majburiyatini oladigan, ikkinchi taraf esa tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning ha-qini to'lash majburiyatini oladigan kelishuvga aytiladi.

Yuridik shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar xo'jalik shartnomalarining sub`ektlari (taraflari) bo'ladi.

Xo'jalik shartnomasi taraflari belgilangan tartibda quyidagi huquqlarga ega:

xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish munosabati bilan zarur bo'lgan ma`lumotnomalar va boshqa hujjatlarni so'rash va olish;

xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq masalalar yuzasidan ekspertlarning yozma xulosalarini so'rash va olish, mutaxassislar bilan maslahatlashish;

davlat organlari va boshqa organlarga, mansabdor shaxslarga iltimosnomalar bilan murojaat etish hamda shikoyatlar berish va ulardan asoslantirilgan yozma ja-voblar olish;

boshqa tarafning iqtisodiy ahvoli, nufuzi va ishchanlik jihatlari xususidagi ma`lumotlarni to'plash;

xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning huquqlari va qo-nuniy manfaatlarini himoya qilishning qonunda nazarda tutilgan vositalari va usullarini qo'llash.

Xo’jalik shartnomasining taraflari qonun hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan o’zga huquqlarga ham ega bo’lishlari mumkin.

Xo’jalik shartnomasi taraflari:

xo’jalik shartnomalari to’g’risidagi qonun hujjatlarining talablariga rioya etishlari;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda xo’jalik shartnomalarining o’z vaqtida tuzilishini ta`minlash;

tuzilgan xo’jalik shartnomalari bo’yicha zimmalariga olingan majburiyatlarni o’z vaqtida va tegishli tartibda bajarishlari shart.

Xo’jalik shartnomasi taraflari qonun hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo’ladi.

Xo’jalik shartnomasi - fuqarolik-huquqiy shartnoma hisoblanib, unga nisbatan Fuqarolik kodeksining bitim-lar va shartnomalarga tegishli barcha normalari tadbiq qi-linadi.

Shu bilan bir qatorda xo’jalik shartnomasi o’ziga xos xususiyatlar ega bo’lib, ular quyidagilardir:

birinchidan – shartnoma faqat tadbirkorlik faoliyati sohasida - ya`ni foyda olish maqsadida;

ikkinchidan – shartnoma yuridik shaxslar va yakka tartibda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar o’rtasida;

uchinchidan – shartnoma tovarlar berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko’rsatish to’g’risida;

to’rtinchidan – shartnoma faqat yozma tarzda tuziladi.

Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi shartnomaviy munosabatlarning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: xo’jalik shartnomalarini tuzishning erkinligi; taraflarning o’zaro manfaatdorligi; shartnoma intizomiga rioya etish; taraflarning o’zaro mulkiy javobgarligi.

Xo’jalik shartnomalari fuqarolik-huquqiy shartnomaning bir ko’rinishi bo’lganligi sababli shartnoma tuzish erkinligi tamoyili ham Fuqarolik kodeksida belgilangan qoidalarga asoslanadi.

O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1-moddasida fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining tengligi, mulkning daxlsizligi bilan bir qatorda shartnoma erkinligi ham fuqarolik huquqining asosi sifatida ta`riflanadi. Shartnoma erkinligining mohiyati va ma`nosi kodeksning 354-moddasida ochib berilgan. Bu moddada barcha fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkin deb e`tirof etilganlar.

Shartnoma tuzishga majbur qilishga yo’l qo’yilmaydi, shartnoma tuzish burchi Fuqarolik kodeksida, boshqa qonun yoki olingan majburiyatda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Masalan, agar tegishli mahsulot turiga davlat buryutmasi berilgan bo’lsa, davlat ehtiyojlari uchun mahsulot etkazib berish shartnomasini tuzish majburiydir.

Taraflar qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan shartnomalarni, shuningdek turli shartnomalarning elementlari o’z ichiga oladigan aralash shartnomani ham tuzishlari mumkin.

Shartnomaning shartlari taraflarning xohishi bilan belgilanadi, tegishli shartning mazmuni qonun hujjatlari imperativ normalarida ko'rsatib qo'yilgan hollar bundan mustasno.

Misol uchun, qishloq xo'jaligi mahsulotlari kontraktasiya shartnomasida boshqa shartlar bilan bir qatorda xo'jalikka belgilangan foizdan kam bo'lmagan miqdorda avans to'lash nazarda tutilishi lozim.

Shunday qilib, barcha xo'jalik yurituvchi sub`ektlar shartnoma tuzishda erkindirlar, ya`ni ular nima haqda, kim bilan shartnoma tuzishni tanlashlari, majburiyatlarni, o'zaro xo'jalik munosabatlarining amaldagi qonunlarga zid bo'lmagan boshqa har qanday shartlarini mustaqil aniq-lashlari mumkin.

Demak, xo'jalik shartnomasi: – taraflar o'rtasidagi majburiyatlarni kelib chiqishining asosi hisoblanadi; xo'jalik yurituvchi sub`ektning iqtisodiy faoliyatini rejalashtirishga asos bo'ladi; taraflar o'rtasidagi mulkiy munosabatlarni huquqiy shakli hisoblanadi.

2-§ Xo'jalik shartnomalarini tuzish, o'zgartirish va bekor qilish

Xo'jalik shartnomasi, qoida tariqasida taraflardan birining oferta (shartnoma tuzish haqida taklif) yo'llashi va ikkinchi taraf uni akseptlashi (taklifni qabul qilishi) yo'li bilan tuziladi.

Agar taraflar o'rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari bo'yicha kelishuvga erishilgan bo'lsa, xo'jalik shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi.

Xo'jalik shartnomasi shartnoma predmetini, etkazib beriladigan tovarning miqdori, sifati, assortimenti va bahosini, shartnomaning bajarilish muddatlarini, hisob-kitob qilish tartibini, taraflarning majburiyatlarini, shartnoma majburiyatlari bajarilmaganda yoki lozim dara-jada bajarilmaganda taraflarning javobgarligini, nizo-larni hal etish tartibini hamda taraflarning rekvizit-larini, shartnoma tuzilgan sana va joyni va boshqa muhim shartlarni nazarda tutishi kerak.

Xo'jalik shartnomasida hisob-kitob qilish tartibi belgilanayotganda tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini qonun hujjatlarida belgilanganidan kam bo'lmagan miqdorda oldindan to'lab qo'yish albatta nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

Xo'jalik shartnomasini tuzishda taraflar tegishli turdagi shartnomalar uchun ishlab chiqilgan hamda huquqiy ekspertizadan belgilangan tartibda o'tkazilganidan so'ng e`lon qilingan o'zlarining namunaviy yoki tipovoy shartlariga (shakllariga) amal qilishlari mumkin.

Xo'jalik shartnomasini tuzilish jihatidan shartli ra-vishda to'rt qismga:

1) kirish;

2) shartnoma predmeti, taraflarning huquq va majbu-riyatlari;

3) shartnomaning qo'shimcha shartlari;

4) shartnomaning boshqa shartlariga ajratish mumkin.

Xo'jalik shartnomasining kirish qismida quyidagilar – shartnomaning nomi (mahsulot etkazib berish, kredit, transport vositalari ijarasi, qurilish pudrati va x.k.); shartnomani imzolash vaqti va joyi; shartnoma taraflarining to'liq nomi, shartnoma bo'yicha taraflarning atalishi (masalan: "mahsulot etkazib beruvchi", "pudratchi" va

sh.k.); shartnomani imzolayotgan shaxsning mansabi va nas-li-nasabining to’liq nomi, shuningdek unga shartnomani imzolash huquqini beruvchi hujjat (ustav, nizom yoki ishonchnoma) ko’rsatilishi lozim.

Yuqoridagilarni shartnomada to’liq va aniq ifodalanishi muhim ahamiyatga ega. Masalan, shartnomaning aniq nomlanishi taraflarga va boshqa shaxslarga qanday huquqiy munosabatlar haqida so’z yuritilayotganligi to’g’risida o’sha zahoti tushuncha bersa, shartnoma imzolangan vaqt (yil, oy, kun) shartnoma imzolangan paytni to’g’ri aniqlash va amal qilish muddatini qachon tugashi, ya`ni bu bilan bog’liq yuridik oqibatlarni belgilash imkoniyatini beradi.

Xo’jalik shartnomasining ikkinchi qismi uning katta ahamiyatga ega bo’lgan shartlarini o’z ichiga oladi: shartnoma predmeti; birinchi tarafning shartnoma bo’yicha huquq va majburiyatlari; ikkinchi tarafning shartnoma bo’yicha huquq va majburiyatlari; taraflarning o’z majburiyatlarini bajarish muddatlari; taraflar majburiyatlarini bajarish joyi; taraflar majburiyatlarini bajarish usullari (harakatlar tartibi, ketma-ketligi va h.k.).

Ushbu shartlarning mazmuni shartnomaning turiga va uning qanday holatga nisbatan tuzilishiga bog’liq bo’ladi va Fuqarolik kodeksi va amaldagi normativ hujjatlar qoidalari asosida shakllanadi.

Xo’jalik shartnomasining uchinchi qismi shunday shart-larni o’z ichiga oladiki, ularni shartnomada ko’zda tutish majburiy emas. Ammo, bunday shartlar mavjud bo’lgan taq-dirda taraflar huquq va majburiyatlariga, shuningdek ularni bajarish tartibiga sezilarli ta`sir qiladi.

Xo’jalik shartnomasining qo’shimcha shartlariga– shartnomani amal qilish muddati; taraflarning javobgarligi; majburiyatlarning bajarilishini ta`minlash usullari; shartnomani bir taraflama bekor qilishning asoslari va oqibatlari; shartnoma bo’yicha ma`lumotlarni sir saqlash haqidagi; nizolarni hal qilish tartibi kabilar kiradi.

Taraflarning shartnoma bo’yicha o’z majburiyatlarini bajarish muddatlari ko’rsatilgan taqdirda ham xo’jalik shartnomasining amal qilish muddati ko’rsatilishi maqsadga muvofiqdir. Bu holat shartnomani amal qilish muddati qachon tugashini bilish va taraflar shartnomani bajarishdan bosh tortganlik uchun talabnoma va da`vo qilish muddatini boshlanishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Shartnoma shartlari buzilgan taqdirda taraflarning o’z majburiyatlarini bajarishlarini ta`minlash maqsadida shartnomada tarafalarning javobgarligi ko’zda tutiladi. Odatda, har bir shartnomada javobgarlik kelishilgan shartlarning birini bajarmagan tarafga nisbatan neustoyka (jarima, penya) ko’rinishida sanksiya belgilanishi bilan ifodalanadi.

Xo’jalik shartnomasining qo’shimcha shartlaridan yana biri–bu majburiyatlarning bajarilishini ta`minlash usullaridir. Amaldagi qonunchilikka muvofiq xo’jalik shartnomasining bajarilishi neustoyka, garov, qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish, kafillik, kafolat, zakalat hamda qonun hujjatlarida yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan ta`minlanishi mumkin.

Odatda xo’jalik shartnomalari faqat taraflarning kelishuviga muvofiq bekor qilinishi mumkin, ammo taraflar shartnomada uni bir tarafning tashabbusi bilan ham bekor qilish to’g’risidagi shartlarni kiritishlariga yo’l qo’yiladi. Shuningdek

shartnomada uning qaysi shartlari sir saqla-nishi va taraflar tomonidan oshkor qilinishi mumkin emasligi belgilab qo'yilishi mumkin.

Respublikamizda iqtisodiyot va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan nizolarni hal qilish xo'jalik sudlari sudloviga taalluqlidir. Biroq, xo'jalik prosessual qonunchiligida fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan yoki kelib chiqishi mumkin bo'lgan hamda xo'jalik sudiga taalluqli bo'lgan nizo taraflarning kelishuviga binoan hakamlar sudida ko'rish uchun topshirilishi mumkinligi belgilangan. qoida tariqasida, da`volar javobgar joylashgan joydagi xo'jalik sudiga taqdim etiladi. Ammo, da`voni javobgar joylashgan joyda taqdim etish va da`-vogarning tanlashi bo'yicha sudlovga tegishlilik taraf-larning roziligi bilan o'zgartirilishi hamda nizoni hal qilishi lozim bo'lgan xo'jalik sudining nomi shartno-mada aniq belgilanishi ham mumkin.

Xo'jalik shartnomasining to'rtinchi qismi o'z ichiga - taraflar o'rtasidagi munosabatlar shartnomadan tashqari yana nimalar bilan tartibga solinishini; taraflar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish haqidagi; shartnoma tuzishdan oldin olib borilgan ishlar va ularning shartnoma imzolangandan keyingi natijalari; taraflarning rekvizitlari; shartnoma nusxalari soni haqidagi ma`lumotni; shartnoma matniga o'zgartirishlar kiritish tartibini; taraflar vakillarining imzolarini oladi.

Taraflar shartnomada o'z zimmalariga olgan aniq majburiyatlarni belgilab olishi tabiiy bir holdir. Unga shartnoma bo'yicha taraflar o'rtasidagi barcha munosabatlarni tartibga soluvchi qonun normalarini kiritishning hojati yo'q. Shuning uchun, odatda shartnomaning boshqa sharti sifatida unga quyidagi jumla kiritiladi: "Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan shartlar bo'yicha taraflar amaldagi qonunchilikka rioya qiladilar".

Taraflar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish haqidagi shartlarda – axborot berish va shartnomaning bajarilishiga taalluqli bo'lgan masalalarni hal qilishga vakolatli shaxslar (nomlari yoki mansabi), shuningdek aloqa turlari (telefon, faks va h.k) ko'rsatiladi.

Shartnoma tuzishdan oldin olib borilgan ishlar va ularning shartnoma imzolangandan keyingi natijalari to'g'risidagi bandda taraflar shartnomani tuzish bo'yicha olib borilgan barcha muloqotlar, yozishmalar, oldindan kelishib olishlar va shu maqsaddagi bayonnomalar o'z kuchini yo'qotganligi belgilanadi.

Taraflarning rekvizitlariga – pochta indeksi, manzili, hisob–kitob raqami, bank muassasaning nomi, kodi, MFO, soliq to'lovchining identifikasiya raqami, yuklash rekvizitlari kiradi va ular xo'jalik shartnomasida aniq ko'rsatilishi lozim. Shartnoma nusxalari soni va uning haqiqiyligi unda ko'rsatiladi. Shartnoma matniga o'zgar-tirishlar kiritish tartibining belgilanishi shartnomani qalbakilashtirilishini oldini oladi.

Har bir shartnomada ma`lum bir shaxsning xohish-istaklari bayon qilinishi munosabati bilan shartnoma o'sha shaxs yoki uning to'liq vakolatga ega bo'lgan vakili tomonidan imzolanadi, shuningdek, shartnomada yuridik xizmat xodimi yoki advokatning imzosi bo'lishi talab qilinadi.

Xo'jalik shartnomasi yozma shaklda tuziladi. qonun-chilikda shartnoma yozma shaklining uch xil turi ko'rsatilgan. Amaliyotda shartnomaning oddiy yozma shakli keng tarqalgan bo'lib, u taraflar imzolagan bitta hujjatni tuzish yo'li bilan tuziladi.

Xo’jalik shartnomasi, shuningdek pochta, telegraf, teletayp, telefon, elektron aloqa yoki hujjat shartnomadagi tarafdan chiqqanligini ishonchli suratda aniqlash imkonini beradigan boshqa aloqa yordamida hujjatlar almashish yo’li bilan tuzilishi mumkin. Agar qonun hujjatlariga yoki taraflardan birining talablariga zid bo’lmasa bitim tuzish chog’ida imzodan faksimile usulida nusxa ko’chirish vositalaridan foydalanishiga yo’l qo’yiladi.

Xo’jalik shartnomasining oddiy yozma shakliga rioya qilmaslik uning haqiqiy emasligiga olib keladi. Xo’jalik shartnomasi qonunda ko’rsatilgan hollarda va taraflardan birining talabi bo’yicha notarial tasdiqlanishi shart. Shartnomani notarial tasdiqlash notarius yoki bunday no-tarial harakatni amalga oshirish huquqiga ega bo’lgan boshqa mansabdor shaxs tomonidan shartnomada tasdiqlovchi ustxat yozib qo’yish yo’li bilan amalga oshiriladi.

Amaldagi qonun hujjatlarida ayrim xo’jalik shartnomalarini davlat ro’yxatidan o’tkazish belgilab qo’yilgan. Masalan, er uchastkalari va boshqa ko’chmas mol-mulk bilan bog’liq xo’jalik shartnomalari (boshqa shaxsga berish, ipoteka, uzoq muddatli ijara va boshqalar) davlat ro’yxatidan o’tkazilishi kerak. Shartnomaning notarial shakliga yoki uni davlat ro’yxatidan o’tkazish talabiga rioya qil-maslik xo’jalik shartnomasining haqiqiy emasligini kel-tirib chiqaradi. Bunday shartnoma o’z-o’zidan haqiqiy bo’lmaydi.

Xo’jalik shartnomalarini tuzishda ayrim qonunlar yoki boshqa normativ hujjatlar tomonidan o’rnatilgan muhim xususiyatlarni hisobga olish zarurdir. Masalan, O’zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to’g’risida”gi qo-nunida jamiyatning mol-mulkini olishi yoki uni tasarrufidan chiqarishi bilan bog’liq “yirik bitimlar” (shartnomalar) alohida qayd qilingan.

Unda quyidagilar yirik bitimlar (shartnomalar) deb hisoblanadi:

bitimlar tuzish haqida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat aktivlari balans qiymatining yigirma besh foizidan ortiq qiymatga ega bo’lgan mol-mulkni jamiyatning olishi yoki tasarrufidan chiqarishi bilan bog’liq yoxud jamiyat bevosita yoki bilvosita mol-mulkni tasarrufidan chiqarishi ehtimoli bilan bog’liq bitim yoki o’zaro bog’-langan bir necha bitim (oddiy xo’jalik faoliyatini yuritish asnosida sodir etiladigan bitimlar bundan mustasno);

jamiyat tomonidan ilgari joylashtirilgan oddiy (odatdagi) aksiyalarning yigirma besh foizidan ko’prog’ini tashkil etadigan oddiy (odatdagi) aksiyalarni yoki oddiy (odatdagi) aksiyalarga ayriboshlanadigan imtiyozli aksiyalarni joylashtirish bilan bog’liq bir yoki o’zaro bog’langan bir necha bitim.

Yirik bitimga sabab bo’lgan mol-mulk qiymatini aniqlash jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

qiymati bitim tuzish to’g’risida qaror qabul qilina-yotgan sanada jamiyat aktivlari balans qiymatining yigirma besh foizidan ellik foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususida bo’lgan yirik bitim tuzish to’g’risidagi qaror kuzatuv kengashi tomonidan yakdillik bilan qabul qilinadi, bunda kuzatuv kengashining tarkibdan chiqib ketgan a`zolari ovozi hisobga olinmaydi.

Yirik bitim tuzish masalasida jamiyat kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan hollarda yirik bitim tuzish to'g'risidagi masala kuzatuv kengashi qaroriga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig'ilishi hukmiga havola etilishi mumkin.

Bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat aktivlari balans qiymatining ellik foizidan ortiq qiymatni tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror aksiyadorlar umumiy yi-g'ilishi tomonidan yig'ilishda qatnashayotgan ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlarning to'rtdan uch qismdan iborat ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Shuning uchun ham xo'jalik shartnomalarini tuzish jarayonida shartnomani imzolayotgan shaxs vakolatini tekshirish muhim ahamiyatga ega.

Agar shaxsning xo'jalik shartnomasini tuzish vakolatlari shartnoma bilan yoki yuridik shaxs vakolatlari uning ta`sis hujjatlari bilan ishonchnomada, qonunda belgilab qo'yilganiga nisbatan yoinki shartnoma tuzilayotgan vaziyatdan aniq ko'rinib turgan deb hisoblanishi mumkin bo'lgan vakolatlariga nisbatan cheklab qo'yilgan bo'lsa va shartnomani tuzish paytida bunday shaxs yoki organ ana shu cheklashlar doirasidan chiqib ketgan bo'lsalar, shartnomadagi ikkinchi taraf mazkur cheklashlarni bilgan yoki oldindan bilishi lozim bo'lganligi isbotlangan hollardagina shartnoma cheklash belgilanishidan manfaatdor bo'lgan shaxsning da`vosi bo'yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Xo'jalik shartnomasi tuzilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va taraflar uchun majburiy bo'lib qoladi. Taraf-lar o'zlari tuzgan xo'jalik shartnomasining shartlarini ularning shartnoma tuzilishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga nisbatan qo'llaniladi deb belgilab qo'-yishga haqlidirlar. Xo'jalik shartnomasi shartnoma shart-lariga hamda qonun hujjatlarining talablariga muvofiq ravishda, bunday shartlar va talablar bo'lmagan hollarda esa ish muomalasi odatlariga muvofiq bajarilishi lozim. Xo'jalik shartnomasi taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin. Xo'jalik shartnomasi qanday shaklda tuzilgan bo'lsa, taraflarning uni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuvi ham shunday shaklda amalga oshiriladi.

Xo'jalik shartnomasini o'zgartirish haqidagi kelishuvda quyidagilarning ko'rsatilishi maqsadga muvofiq bo'ladi, ya`ni: qaysi shartnoma o'zgartiriladi (shartnomaning ra-qami, sanasi, nomi); shartnomani o'zgartirish sababi; o'zgartirilayotgan yoki qo'shimchalar kiritilayotgan shartlar va ularning yangi tahriri; o'zgartirish kiritilgandan keyin avvalgi shartlarning yuridik kuchini yo'qotishi haqidagi band; o'zgartirish yoki qo'shimcha kiritilishidan oldin mazkur shartlar bo'yicha yuzaga kelgan masalalarni hal qilish tartibi.

Taraflarning shartnomani bekor qilish haqidagi kelishuvida esa quyidagi ma`lumotlar kiritilishi lozim: qanday shartnoma bekor qilinayotganligi; qaysi vaqtdan shartnoma bekor qilinayotganligi; shartnoma bekor qili-nishidan oldin mazkur shartnoma yuzasidan vujudga kelgan masalalarni hal qilish tartibi; shartnoma bekor qilin-gandan keyin taraflarning mazkur shartnoma bo'yicha talab qilish huquqlari o'z kuchini yo'qotishi to'g'risidagi band.

Xo'jalik shartnomasini bajarishdan bir taraflama bosh tortishga yoki xo'jalik shartnomasining shartlarini bir taraflama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun huj-jatlarida yoki shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Taraflardan birining talabi bilan xo’jalik shartnomasi xo’jalik sudining qaroriga binoan faqat ikkinchi taraf xo’jalik shartnomasini jiddiy ravishda buzgan yoxud qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda o’zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Taraflardan birining xo’jalik shartnomasini buzishi ikkinchi tarafga u xo’jalik shartnomasi tuzishda umid qilishga haqli bo’lgan narsadan ko’p darajada mahrum bo’ladigan qilib zarar et-kazishi xo’jalik shartnomasini jiddiy buzish hisobla-nadi.

Bir taraf shartnomani o’zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdan rad javobi olganidan keyingina yoki taklifda ko’rsatilgan yoxud qonunda yoki shartnomada belgilangan muddatda, bunday muddat bo’lmaganida esa – o’ttiz kunlik muddatda javob olmaganidan ke-yin, xo’jalik shartnomasini o’zgartirish yoki bekor qilish to’g’risidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin. Demak, xo’jalik shartnomalari qonunchilik hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan hollarda bir taraflama yoki xo’-jalik sudining hal qarori bilan bekor qilinishi mumkin.

Xo’jalik shartnomasining amal qilish muddatini uzaytirish ham yozma shaklda amalga oshiriladi. O’zbekiston Respublikasining “Xo’jalik yurituvchi sub`ektlar fao-liyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to’g’risida”gi qo-nunida ichki xo’jalik shartnomalarini tuzish qoidalari ham belgilangan. Ichki xo’jalik shartnomasi, qoida tariqasida, xo’jalik yurituvchi sub`ekt va uning tarkibiy bo’linmalari o’rtasida yoki xo’jalik yurituvchi sub`ekt va uning xodimi (bir guruh xodimlari) o’rtasida tuziladi.

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda, xo’jalik yurituvchi sub`ektlar mahsulot etkazib berish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko’rsatish yuzasidan ichki xo’jalik shartnomalarining o’zlari boshqa xo’jalik yurituvchi sub`ektlar bilan tuzgan xo’jalik shartnomalaridagidan kam bo’lmagan hajmda tuzilishini ta`minlashlari shart.

Ichki xo’jalik shartnomalariga oilaviy pudrat, fermer xo’jaligi bilan shirkat xo’jaligi o’rtasidagi shartnomalar yaqqol misol bo’la oladi. Ichki xo’jalik shartnomalari o’z huquqiy tabiatiga ko’ra fuqarolik-huquqiy va mehnat-huquqiy normalar duragayidan iborat shartnoma bo’lib hisoblanadi. Agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo’lmasa, ichki xo’jalik shartno-malariga nisbatan O’zbekiston Respublikasi Fuqa-rolik kodeksi 353-385-moddalarining normalari qo’l-laniladi.

3-§ Xo’jalik shartnomalarini bajarish

Xo’jalik shartnomasi shartnoma shartlariga hamda qonun hujjatlarining talablariga muvofiq ravishda, bunday shartlar va talablar bo’lmagan hollarda esa–ish muomalasi odatlariga muvofiq bajarilishi lozim.

Xo’jalik shartnomasini bajarish jarayoni izchil amalga oshiriladigan harakatlar tizimidan iborat bo’lib, bu tizimni ikki bosqichga, ya`ni moddiy va huquqiy bos-qichlariga ajratish mumkin.

Xo’jalik shartnomasini bajarishning moddiy bosqichi ikkita o’zaro bog’liq harakatlarni: bir tarafning tovarlarni, bajargan ishi va ko’rsatgan xizmati natijalarini berishni hamda ikkinchi tarafning bu narsalarni qabul qilib olishini o’z ichiga oladi. Shartnomani bajarish mud-dati, uni bajarish joyi, shartnomaning bahosi, shartnomani bajarish usullari ana shunday talablar jumlasidandir.

Xo’jalik shartnomasida uning bajarish vaqti nazarda tutilgan yoki uni aniqlash imkoni mavjud bo’lsa, u holda shartnomaviy majburiyat o’sha vaqtda bajarilishi kerak. Umumiy qoidaga ko’ra, taraf shartnomani muddatidan ilgari bajarishi mumkin emas. Biroq, agar taraflar uchun bunday holat shartnomada nazarda tutilgan va bunga ikkinchi taraf rozilik bergan bo’lsa majburiyatni muddatidan ilgari bajarishi mumkin. Shartnomaviy majburiyatni bajarish muddati talab qilib olish payti bilan belgilab qo’yilgan bo’lsa, birinchi taraf (kreditor) har qachon ijroni talab qilishga, ikkinchi taraf (qarzdor) esa ijroni har qachon amalga oshirishga haqli bo’ladi. Xo’jalik shartnomasi bo’-yicha majburiyatni darhol bajarish vazifasi qonun yoki shartnomaning mohiyatidan anglashilmasa, qarzdor bunday majburiyatni kreditor talab qilgan kundan boshlab etti kunlik muddat ichida bajarishi shart.

Agar qonun hujjatlarida yoki xo’jalik shartnomasida majburiyatning bajarish joyi ko’rsatilmagan bo’lsa va majburiyatning mohiyatidan yoki ish muomalasi odatlaridan anglashilmasa, umumiy qoidaga ko’ra majburiyat - qarz-dorning yashash joyida, agar qarzdor yuridik shaxs bo’lsa, uning joylashgan erida bajarilishi kerak. Ammo, bu qoidaning bir nechta istisnolari mavjuddir: ko’chmas mol-mulkni topshirish majburiyatlari bo’yicha mol-mulk turgan joyda; tashishni nazarda tutadigan tovar yoki boshqa mol-mulkni topshirish majburiyatlari bo’yicha – tovarni kreditorga etkazib berish uchun uni birinchi tashuvchiga topshirish joyida; qarzdorning tovarni topshirish yuzasidan o’zga majburiyatlari bo’yicha – tovarni tayyorlash va saqlash joyida, basharti majburiyatning kelib chiqishi paytida bu joy kreditorga ma`lum bo’lgan bo’lsa; pul majburiyatlari bo’yicha–majburiyat vujudga kelgan paytda kreditor yashagan joyda, agar kreditor yuridik shaxs bo’lsa-uning maj-buriyat vujudga kelgan paytda joylashgan erida bajariladi.

Xo’jalik shartnomasida tovarning (ishning, xizmatning) narxi ko’rsatilgan bo’lsa, ikkinchi taraf tovarni (ishni, xizmatni) shartnomada ko’rsatilgan bahoda qabul qilib oladi. Shartnoma tuzilgandan keyin baholarni shartnomada nazarda tutilgan holat va shartlardagina o’zgartirish mumkin.

Xo’jalik shartnomasini bajarish usuli-bu unda belgilangan majburiyatlarni bajarish jarayonida taraflar amalga oshiradigan harakatlar tartibidir. Umumiy qoidaga ko’ra, agar majburiyatlarni qismlarga bo’lib bajarish nazarda tutilmagan bo’lsa, bir martada batamom bajarilishi kerak. Shartnoma bo’yicha taraflarning o’zaro majburiyatlari bir vaqtda bajarilishi lozim, agar shartnomada boshqa holatlar ko’rsatilgan bo’lmasa. Shuning uchun taraflar xo’-jalik shartnomasini tuzishda vujudga keladigan o’z maj-buriyatlarini bajarish tartibini aniq va puxta, qonun talablariga muvofiq ravishda bel-gilashlari shart.

Xo’jalik shartnomasini bajarish tartibining ikkinchi bosqichi, ya`ni huquqiy bosqichining mohiyati shartnoma bo’yicha bajarilgan ishni, ko’rsatilgan xizmatni, etkazilgan tovarni son va sifat jihatdan tekshirish, shuningdek, bajarish faktini hujjat bilan tasdiqlashdan iborat. Shartnoma bo’yicha bir taraf ikkinchi taraf oldida o’z majburiyatlarini moddiy jihatdan bajarishi, uning o’z majburiyatlarini yuridik jihatdan bajarganligini anglatmaydi. Boshqacha qilib aytganda, birinchi taraf o’z maj-buriyatlarini bajarganligini tasdiqlovchi hujjat bilan rasmiylashtirgandan keyingina ikkinchi taraf oldidagi ana shu majburiyatlaridan xalos bo’ladi. Demak, shartno-

madan kelib chiqadigan majburiyatni bajarilganligini tasdiqlash uni hujjat bilan rasmiylashtirilishini talab qiladi.

Xo'jalik shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar quyi-dagilar bo'lishi mumkin: a) tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni topshirish-qabul qilib olish dalolatnomasi; b) bank muassasasi tomonidan tasdiqlangan va tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqi to'langanligi haqidagi to'lov hujjati; v) transport tashkiloti tomonidan berilgan va tovar uni oluvchi manziliga jo'natilganligi haqidagi yuk xati; g) tovar sotuvchining omboriga topshirilgani-qabul qilib olingani haqidagi hujjat; d) boshqa hujjatlar va guvohnomalar.

Tovarlar odatda, hisob-faktura, ro'yxat, o'rash yorliq-lari, yuk xati va boshqa kuzatuv hujjatlari bo'yicha soniga qarab qabul qilib olinadi. Tovarni qabul qilib oluvchi taraf yuk tashish paytida tovarni saqlash qanday ta`-minlanganligi (plomba va idishlar buzilmaganligi, marka belgisi mavjudligi va h.k)ni tekshirib ko'radi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sifatiga qarab qabul qilish etkazib berilgan tovar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xiz-matlar)ning sifatini tasdiqlovchi hujjatlar– texnik pasport, sertifikat, sifat haqida guvohnoma va boshqa hujjatlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Tovarni soni va sifati haqidagi qabul qilish hujjati tovar etkazib beruvchiga nisbatan tegishli e`tirozlar bildirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tovarlarni soni va sifati bo'yicha qabul qilish qoidalarini buzilishi esa bildirilgan talabnoma va da`volarni rad qilinishiga olib keladi. Xo'jalik shartnomalari bo'yicha majburiyatlar ba-jarilganligini rasmiylashtirishning yana bir usuli – ayni bir taraflarning bir-biriga bog'lovchi ikki yoki bir necha majburiyatlarni bajarish shakli bo'lgan o'zaro ta-lablarni hisobga o'tkazishdir. Bunda bir tarafning ta-lablarini qanoatlantirish boshqa majburiyatdan kelib chiquvchi qarshi taraf talablarini bajarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

quyidagi shartlarga rioya qilinganda o'zaro talablarni hisobga o'tkazish mumkin bo'ladi: a) har ikki tarafning bir-biriga nisbatan talablari bo'lishi; b) talablar bir-biriga o'xshash bo'lishi; v) majburiyatlarni bajarish muddati kelgan bo'lishi lozim. Hisobga o'tkazish taraflarning kelishuviga muvofiq bayonnoma yoki ikki taraf o'rtasida tuziladigan boshqa hujjat yohud taraflardan birining arizasi shaklida rasmiylashtirilishi mumkin.

4-§. Shartnomaviy munosabatlarning huquqiy jihatdan ta`minlanishini tashkil etish. Xo'jalik shartnomalarini tuzish va bajarishni nazorat qilish

Shartnomaviy munosabatlarning huquqiy jihatdan ta`minlanishini tashkil etishda yuridik xizmatning vazifalari O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni, Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 2 martdagi 118-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv organlari va korxonalardagi yuridik xizmat to'g'risidagi Nizom" va boshqa bir qator qonunlar va normativ hujjatlarda belgilab qo'yilgan.

Xo’jalik shartnomasi sub`ektlariga huquqiy xizmat ko’rsatish ularning yuridik xizmatlari yoki shu maqsadda shartnoma asosida jalb etilgan advokatlar tomonidan amalga oshiriladi.

Xo’jalik yurituvchi sub`ektlarning yuridik xizmati:

- xo’jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o’zgartirish va bekor qilishning belgilangan tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;
- xo’jalik shartnomalari bajarilishi ustidan o’zaro tekshiruvlar o’tkazilishini nazorat qiladi;
- xo’jalik yurituvchi sub`ekt rahbariga imzolash uchun taqdim etilayotgan xo’jalik shartnomalari loyihalarining va ular bilan bog’liq huquqiy tusdagi boshqa hujjatlarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini tekshiradi;
- tayyorlangan xo’jalik shartnomasi va u bilan bog’liq huquqiy tusdagi boshqa hujjat loyihasi qonun hujjatlari talablariga mos emasligi aniqlangan taqdirda, o’z e`tirozini asoslagan holda uni qo’shimcha ravishda ishlab chiqish uchun qaytaradi;
- shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishda bevosita ishtirok etadi.

Xo’jalik shartnomalari ularni imzolash uchun tayyorlash jarayonida xo’jalik yurituvchi sub`ektlarning yuridik xiz-mati yoki jalb etilgan advokatlar tomonidan qonun huj-jatlariga muvofiqligi yuzasidan tekshirib ko’rilishi kerak. Shartnomalarni ularning imzolarisiz tuzishga yo’l qo’yilmaydi.

qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqi miqdorining ikki yuz baravaridan ortiq summadagi xo’-jalik shartnomalari yuridik xizmatning yoki advokatning yozma xulosasidan keyingina tuziladi.

Xulosada, qoida tariqasida, quyidagilar ko’rsatiladi:

xo’jalik shartnomasida ko’rsatilgan munosabatlar qaysi qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi;

xo’jalik shartnomasi shartlarining qonun hujjatlari talablariga mos kelish-kelmasligi;

taraflarning javobgarligi me`yori va nizolarni hal etish tartibi qonun hujjatlari talablariga mos kelish-kelmasligi.

Xo’jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatiga asossiz ara-lashuvlarning oldini olish, shuningdek shartnoma tuzish erkinligi prinsipiga rioya qilinishni ta`minlash maq-sadida amaldagi qonunlar bilan davlat hokimiyati va bosh-qaruvi organlarining xo’jalik shartnomalarini tuzish hamda bajarish jarayonidagi vakolatlari aniq belgilab qo’yilgan.

Mahalliy davlat qokimiyati organlari o’z vakolatlari doirasida:

davlat ehtiyojlari uchun tovarlar etkazib berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko’rsatish shartnomalarini, shuningdek kontraktasiya shartnomalarini tuzish va bajarish ishlarini muvofiqlashtirib boradi;

xo’jalik yurituvchi sub`ektlar o’rtasidagi shartnoma munosabatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish chora-tadbirlarini ko’radi.

Davlat boshqaruv organlari esa o’z vakolatlari doirasida:

xo’jalik shartnomalarini tuzishda yordam ko’rsatadi;

xo’jalik shartnomalari hamda ularni bajarishning ahvoli to’g’risidagi statistika ma`lumotlarini umumlashtiradi;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda xo’jalik shartnomalarining bajarilish jarayonini nazorat qilib turadi;

xo’jalik yurituvchi sub`ektlar yuridik xizmatlarining ishini tashkil etishga, yuridik maslahatchilarning malakasini oshirishga ko’maklashadi;

xo’jalik shartnomasini tuzish, bajarish, o’zgartirish va bekor qilish jarayonida qonun hujjatlarining buzilishiga yo’l qo’yilganligi fakti aniqlangan taqdirda, aybdor shaxslarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortish masalasini qo’yadi.

Xo’jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o’zgartirish va bekor qilish bilan bog’liq bo’lgan qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni qonunlarga muvofiq prokuratura organlari amalga oshiradilar. Bu organlar aybdor shaxslarni qonunda belgilangan javobgarlikka tortish, xo’jalik yurituvchi sub`ektga etkazilgan zararni qoplash yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko’radilar.

Adliya organlari xo’jalik yurituvchi sub`ektlarga shartnoma majburiyatlarini tuzish va bajarish chog’ida hu-quqiy yordam ko’rsatadilar, shuningdek o’z vakolatlari doi-rasida xo’jalik shartnomalarining bajarilish jarayonini nazorat qiladilar.

5-§ Shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Majburiyat–fuqarolik huquqiy munosabat bo’lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko’rsatish, pul to’lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o’zini saqlashga majbur bo’ladi, kreditor esa– qarzdordan o’zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega.

Majburiyatlar shartnoma shartlariga va qonun hujjatlari talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo’lmaganida esa ish muomalasi odatlari yoki odatda qo’yi-ladigan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada baja-rilishi kerak. Majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim da-rajada bajarmagan shaxs fuqarolik-huquqiy javob-garlikka tortilishi mumkin.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik vujudga kelish asosiga ko’ra, shartnomaviy va shartnomadan tashqari javobgarlikka bo’linadi.

Shartnomaviy javobgarlik deb shartnomaviy majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikka aytiladi.

Taraflardan biri shartnoma majburiyatlarini ba-jarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, bu ta-raf boshqa tarafga etkazilgan zararni to’laydi; qonun hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha tarzda javobgar bo’ladi.

Zarar deganda, shartnoma majburiyatlari bajaril-maganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi munosa-bati bilan taraf qilgan harajatlar, uning mol-mulki yo’qolishi yoki shikastlanishi **(haqiqiy zarar**), shuningdek, agar ikkinchi taraf shartnoma majburiyatlarini bajar-ganida taraf olishi mumkin bo’lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (**boy berilgan foyda)** tushuniladi (FKning 14-moddasi).

Shunday qilib, zarar tushunchasi quyidagilarni o’z ichiga oladi:

1. Mulkning yo’qolishi, jismonan yo’q qilinishi yoki xo’jalik oborotidan chiqib ketishi. Masalan, yuk saqlovchi o’z omboridagi mulkni saqlash majburiyatini bajarmasa va ashyo uning beparvoligi oqibatida o’g’irlansa.

2. Mulkning shikastlanishi va oqibatda iste`mol si-fatini, tashqi ko’rinishini yo’qotishi, qiymatining pa-sayib ketishi.

Mulkka shikast etkazilganda uning qiymatining ka-mayish miqdori yoki etkazilgan shikastni bartaraf etish harajatlari aniqlanadi. Bunday zarar shartnomaning idish va o’rash haqidagi shartlari buzilishi, etkazib berilayotgan uskunalarning sinishi, shuningdek, masalan, ijaraga oluvchi ijaraga olingan mulkdan tegishli tartibda foydalan-maganligi oqibatida uni zudlik bilan ta`mirlash talab qilinadigan holatga keltirib qo’yishi natijasida etka-zilishi mumkin.

3. Tarafning xarajatlari. Masalan, ishlab chiqarish-ning to’xtab qolishi natijasida qilingan xarajatlar, qabul qilib olingan mahsulot (bajarilgan ishlar, ko’rsatilgan xizmatlar)dagi kamchiliklarni bartaraf etish xarajatlari, to’langan neustoykalar va zararni qoplashga ketgan xara-jatlar.

4. Taraf ololmay qolgan daromad (boy berilgan foy-da)-aybdor taraf shartnoma majburiyatlarini bajargan taqdirda huquqi buzilgan shaxs olishi mumkin bo’lgan, lekin ololmay qolgan daromadlar, ya`ni aybdor taraf to’g’-ridan-to’g’ri etkazmagan bo’lsada, uning aybli harakat-lari yoki harakatsizligi natijasida olinishi mumkin bo’lgan foydani boy berish natijasida ko’rilgan zarar.

Amaldagi qonun hujjatlariga ko’ra neustoyka (jari-ma, penya) to’langanligidan qat`i nazar, shartnoma majbu-riyatlarini buzgan taraf ikkinchi tarafga ana shu zarar oqibatida o’zi etkazgan zarar qismini ham qoplaydi.

Etkazilgan zararni undirish uchun zarar ko’rgan taraf quyidagilarni: birinchidan, majburiyatning haqiqatdan bajarilmaganligini; ikkinchidan, zararning mavjudligini; uchinchidan buzilgan majburiyat bilan etkazilgan zarar o’rtasida sababiy bog’lanish borligini va, to’rtinchidan, etkazilgan zarar qancha miqdorda ekanligini isbotlab berishi zarur. Agar qonun yoki shartnomada zararni to’lashni cheklash, ya`ni kamroq miqdorda to’lash nazarda tutilmagan bo’lsa, etkazilgan zararni to’la hajmda qoplanishi zarurligi tamoyiliga amal qilinadi.

Etkazilgan zararning narxini aniqlash bo’yicha Fuqa-rolik kodeksida (324-m.) yangi qoida belgilangan. Zararni aniqlashda majburiyat bajarilishi kerak bo’lgan joyda, qarzdor kreditorning talablarini ixtiyoriy ravishda qa-noatlantirgan kunda, bordi-yu, talab ixtiyoriy qanoat-lantirilgan bo’lmasa–da`vo qo’zg’atilgan kunda mavjud bo’lgan narxlar e`tiborga olinishi nazarda tutiladi. Bu masala bo’yicha nizo sudda ko’rilgan taqdirda sud vaziyatga qarab, zararni to’lash haqidagi talabni qaror chiqarilgan kunda mavjud bo’lgan narxlarni e`tiborga olgan holda aniqlashi va qanoatlantirishi ham mumkin.

Olinmay qolgan daromad (boy berilgan foyda) ga majburiyat bajarilgan taqdirda jabr ko’rgan taraf olishi mumkin bo’lgan barcha daromadlar kiritiladi. Zararning mazkur shaklini o’ziga xos xususiyati shundaki, kreditor tomonidan daromadi haqiqatda olinmagan bo’ladi, lekin qarzdor o’z majburiyatini tegishli tarzda bajargan taq-dirda kreditor shu foydani olishi mumkinligi e`ti-borga olinadi. Olinmay qolgan daromadni undirish haqida da`vo bildirilgan taqdirda, da`vogar ushbu foydani olishi mumkinligi va bunga imkoniyat mavjud bo’lganligini, faqat javobgar o’z

majburiyatlarini buzganligi sababli foydani olishdan mahrum bo’lganligini isbotlashi shart.

Biroq, tovarlarni sotishdan tushgan pul tushumi hi-sobidan foyda olish faqat shu tovar tayyorlangan va iste`molchiga etkazib berilgan holdagina amalga oshirilishi mumkin, shu sababdan da`vogar unda ushbu tovarni sotish imkoniyati borligini va sotishdan tushgan mablag’ hisobidan nazarda tutilgan foyda olishi mumkinligini isbotlab berishi shart.

Boshqacha qilib aytganda, da`vogar ushbu foydani olish uchun haqiqatda imkoniyatlar mavjud bo’lganligini isbot-lashi shart. Boy berilgan foyda miqdorini isbotlash chog’ida da`vogarning tahminiy hisob-kitoblari yoki tahminiy farazlari hisobga olinmaydi, balki daromad olish imko-niyati mavjudligi haqida guvohlik beradigan yozma da-lillar: da`vogar bilan uning hamkorlari o’rtasida tuzilgan shartnomalar, tegishli shartnoma tuzish haqida taklif bi-lan ulardan olingan kafolat xatlari, da`vogarning shart-noma tuzish haqidagi taklifiga uning hamkorlari bergan yozma ijobiy javoblar, kelajakda niyat qilingan ishlar to’g’risida tuzilgan bayonnomalar va hokazolar talab qili-nadi.

Olinmay qolgan daromadning miqdori (boy berilgan foyda), agarda majburiyat bajarilgan bo’lganida, kreditor qilishi lozim bo’lgan oqilona harajatlar hisobga olinib aniqlanadi. Chunonchi, xom ashyo yoki butlovchi buyumlarni etkazib bermaslik natijasida olinmay qolgan foyda tarzidagi zararni qoplash haqidagi talab bo’yicha bunday foydaning miqdori u tovarlarni xaridor bilan tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan tayyor mahsulotlarni sotish bahosidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Bunda etkazib berilmagan xom ashyo yoki butlanishi lozim bo’lgan buyumlar qiymati, transport-tayyorlash ha-rajatlari va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog’liq bo’lgan boshqa harajatlar qiymati chegirib tash-lanadi. Boy berilgan foydani aniqlashda kreditor tomo-nidan uni olish uchun ko’rilgan choralar va shu maqsadda ko’rilgan tayyorgarliklar hisobga olinadi. Taraflar shart-nomada majburiyatlar bajarilmagan taqdirda aybdor taraf ikkinchi tarafga qoplashi lozim bo’lgan zarar miqdorini mustaqil belgilashlari ham mumkin.

Muddatini o’tkazib yuborish yoki shartnoma maj-buriyatlarini o’zgacha tarzda lozim darajada bajarmaslik hollari uchun belgilangan neustoykani (jarimani, penyani) to’lash hamda shartnoma majburiyatlarini lozim darajada bajarmaslik oqibatida etkazilgan zararning o’rnini qop-lash taraflarni majburiyatlarni asl holida bajarishdan ozod etmaydi, qonun hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Demak, qonun majbu-riyatni asl holida bajarish shartligi bilan birga asl holida bajarishdan ozod qilishni ham nazarda tutgan. Masalan, kechiktirib yuborish oqibatida o’zi uchun aha-miyatini yo’qotgan (FKning 337-moddasi 2-qismi) ij-roni kreditorning qabul qilishdan bosh tortishi, shu-ningdek voz kechish haqi tarzida belgilangan neustoykani to’lash (FKning 342-moddasi) qarzdorni majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qiladi.

Neustoykani qo’llash shartnomaviy javobgarlikning asosiy shakllaridan biridir. Neustoyka faqat majburiyatning bajarilishini ta`minlovchi vosita bo’lib qolmay, balki u majburiyat bajarilmay qolganida yoki lozim da-rajada bajarilmaganida qarzdorga nisbatan qo’llanishi lozim bo’lgan yuridik chora hamdir.

Neustoyka atamasi rus tilidan olingan bo’lib, ne ustoyal, ya`ni ”vzyal slovo, obyazatel`stvo, no ne vo’polnil” degan ma`noni beradi. O’zbek tilida bergan so’zing, va`-dangni ustidan chiqmading, ya`ni subutsizlik degan tushunchani bildiradi. Neustoyka jarima yoki penya shaklida bo’ladi. qarzdor majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan hollarda to’laydigan va, qoida tari-qasida, qat`iy pul summasida hisoblanadigan neustoyka **jarima** hisoblanadi.

qarzdor majburiyatlarning bajarilishini kechiktirib yuborganida to’laydigan va o’tkazib yuborilgan muddatning har bir kuni uchun majburiyatning bajarilmagan qismiga nisbatan foiz bilan hisoblanadigan neustoyka **penya** hisoblanadi.

Neustoykani etkazilgan zarardan farq qiladigan xu-susiyatlari quyidagilardan iborat:

a) neustoyka qonunda yoki shartnomada oldindan belgilanib, taraflarga ma`lum bo’lgan va majburiyat bajarilmay qolgan taqdirda qo’llanishi mumkin bo’lgan huquqiy chora (sanksiya) hisoblanadi.

Etkazilgan zararning hajmi esa avvaldan belgilanmaydi, u majburiyat buzilganidan keyin ma`lum bo’ladi va belgilanishi mumkin;

b) neustoykani undirish uchun qarzdorning harakati qonunga yoki shartnomaga muvofiq bo’lmasligining o’zi kifoyadir, zararni to’latish uchun zarur bo’lgan talablarni aniqlash shart emas.

Umumiy qoidaga ko’ra taraflarning javobgarligi va qo’llaniladigan choralar shartnomada aks ettirilishi kerak, lekin amalda shartnomada javobgarlik choralari ko’r-satilmasdan qolishi mumkin.

Bunday holatda, qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo’lmasa, xo’jalik shart-nomalarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajar-maganlik uchun “Xo’jalik yurituvchi sub`ektlar faoli-yatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to’g’risida”gi qo-nunning 25-32 moddalarida nazarda tutilgan javobgar-lik choralari qo’llaniladi.

Jumladan qonunda quyidagi xolatlar bo’yicha javob-garlik belgilangan:

-tovarlarni etkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborganlik, to’liq etkazib bermaganlik uchun;

-sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo’l-magan tovarlarni etkazib berganlik uchun;

-but bo’lmagan tovarlarni etkazib berganlik uchun;

-tovarlarni marka belgisisiz, shuningdek tovarni idishsiz yoki o’ralmagan holda etkazib berganlik uchun;

-akkreditivdan foydalanmaganlik uchun;

-to’lov, tovar-transport hujjatlarini yuborishni kechiktirganlik uchun;

-tovarlarni tanlab olmaslik yoki uni rad etganlik uchun;

-tovarlar haqini to’lamaganlik yoki o’z vaqtida to’la-maganlik uchun;

-mablag’larni akseptsiz hisobdan chiqarganlik uchun.

Shu o’rinda ko’rsatib o’tilgan javobgarlikning har biriga alohida to’xtalish lozim, chunki qonunda belgi-langan javobgarlik choralari hozirgi vaqtda sud amali-yotida keng qo’llanilmoqda.

"Xo’jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatining shart-nomaviy-huquqiy bazasi to’g’risida"gi qonunning 25-moddasi tovarlarni etkazib berish muddatlarini kechik-ti-rib yuborganlik, to’liq etkazib bermaganlik, ishlarni bajarmaganlik yoki xizmat ko’rsatmaganlik uchun tovar etkazib beruvchi (pudratchi)ning sotib oluvchiga (buyurt-machiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat ba-jarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to’lash tarzida javobgarligini belgilaydi, lekin bunda penyaning umumiy summasi etkazib berilmagan tovarlar, baja-rilmagan ishlar yoki ko’rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim. Penyani to’lash shart-noma majburiyatlarini buzgan tarafni tovarlarni etkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to’liq etkazib bermaslik yoki xizmatlarni ko’rsatmaslik oqibatida etka-zilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi. Mazkur modda xo’-jalik aloqalarining deyarli barcha sohalarida (oldi-sotdi, mahsulot etkazib berish, kontraktasiya, pudrat,haq evaziga xizmat ko’rsatish va hokazo) yuzaga keladigan shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajar-maganlik uchun javobgarlikni belgilaydi.

qonun javobgarlik chorasini belgilashda penya miq-dorini 0,5 foiz deb belgilagan bo’lsada, uning eng yuqori miqdorini 50 foizdan oshib ketmaydigan miqdorda chega-ralagan, biroq taraflar shartnomada bundan ham yuqori yoki kam miqdordagi javobgarlik choralarini belgilashlari mumkin. qonunning 26-moddasi sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo’lmagan tovarlarni (ishlarni, xiz-matlarni) etkazib berganlik uchun javobgarlikni belgi-laydi.

Bunda, etkazib berilgan tovarlar (ishlar, xizmat-lar)ning sifati, assortimenti va navi bo’yicha stan-dartlar, texnik shartlar, namunalarga (etalonlarga), qonun hujjatlarida yoki xo’jalik shartnomasida belgilangan boshqa majburiy shartlarga mos kelmagan taqdirda sotib oluvchi (buyurtmachi) quyidagi huquqlarga ega bo’ladi:

-tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko’rsatilmagan xizmatlarni qabul qilishdan bosh tortishga;

-ularning haqini to’lashni rad etishga;

-etkazib beruvchidan (pudratchidan) sifati, assorti-menti va navi lozim darajada bo’lmagan tovarlar (ishlar va xizmatlar) qiymatining 20% miqdorida jarimani undi-rib olishga;

-agar tovarlar (ishlar, xizmatlar)haqi to’lab qo’yilgan bo’lsa, to’langan summani belgilangan tartibda qaytarishni talab qilishga.

Jarimani hisobdan chiqarish to’g’risidagi to’lov ta-labnomasi etkazib beruvchi (pudratchi)ga xizmat ko’r-satuvchi bank muassasasiga lozim darajada emasligi to’g’-risida dalolatnoma tuzilgandan keyin 10 kundan kechik-tirmay taqdim etilishi lozim.

Jarimani hisobdan chiqarish to’g’risidagi to’lov ta-labnomasi belgilangan 10 kunlik muddatni buzgan holda taqdim etilgan hollarda, jarimani undirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi. But bo’lmagan tovarlar etkazib berilgan taqdirda sotib oluvchi (buyurtmachi): tovarlarni butlab berishni talab qilishga haqli. Etkazib beruvchi sotib oluvchining (buyurtmachining) talabini olgan paytdan boshlab, agar taraflarning kelishuvida o’zga muddat bel-gilangan bo’lmasa, 15 kunlik muddat ichida tovarlarni butlab berishi shart;

bundan buyon tovarlar butlab berilgunga qadar ular-ning haqini to’lashdan bosh tortishga, agar tovarlarning haqi to’lab qo’yilgan bo’lsa, belgilangan tartibda to’langan summalar qaytarilishini talab qilishga;

etishmayotgan qismlar qiymatini qo’shgan holda etkazib beruvchidan but bo’lmagan tovarlar qiymatining 20% miq-dorida jarima undirishga;

tovarlarni etkazib beruvchi belgilangan muddatda to-varlarni butlab bermasa, but bo’lmagan tovarlarni qay-tarib berish hamda but bo’lmagan tovarlarni butlangan to-varlarga almashtirishni talab qilishga haqli (qonunning 27-moddasi).

But bo’lmagan tovarlarni etkazib berganlik qaysidir jihatdan tovarlarni to’liq etkazib bermaganlikka o’xshab ketadi. Shuning uchun ham ular o’rtasidagi tafovutni aniq-lashtrish maqsadga muvofiqdir. To’liq etkazib bermagan-lik – shartnomaning amal qilish muddati davomida uning tovarlarni to’liq etkazib berish haqidagi shartlarining bajarilmasligidir.

But bo’lmagan tovarlarni etkazib berganlik esa- shartnoma, davlat standartlari, texnik shartlar va boshqa me`yoriy-texnik hujjatlar bilan nazarda tutilgan ashyo-lar, ehtiyot qismlar va boshqa elementlarsiz tayyorlangan (ishlab chiqarilgan) yoki ular bo’lgan taqdirda ham asosiy belgilanishdagi tovarga qo’shib bermagan holda tovarlarni etkazib berishdir.

qonunda tovarlarni marka belgisiz, shuningdek to-varni idishsiz yoki o’ralmagan holda etkazib berganlik uchun ham javobgarlik belgilangan. Unga ko’ra javobgarlik etka-zib beruvchi tomonidan quyidagi shartlar: marka belgisi qo’yilmagan; lozim darajada markirovkalanmagan; idishsiz yoki o’ralmagan; tegishli idishga joylanmagan; lozim dara-jada o’ralmagan holda tovarlar etkazib berilgan taqdirda kelib chiqadi.

Etkazib beruvchi tomonidan ushbu shartlar baja-rilmagan taqdirda sotib oluvchi (buyurtmachi) quyidagi hu-quqlarga ega bo’ladi: bunday tovarlar qiymatining 5% miq-dorida jarimani undirishga; tovar qabul qilingandan keyin yana jo’natilishi yoki saqlanishi kerak bo’lgan hol-larda, jarima undirishdan tashqari o’z kuchi bilan va etka-zib beruvchi hisobidan tovarlarni o’rash va idishlarga joylashga; sotib oluvchi (buyurtmachi) bilan etkazib beruvchi bir shaharda joylashgan bo’lsa, undan tovarlarni o’rab be-rishni yoki idishlarga joylab berishni talab qilishga.

Markirovka-bu tovarning o’zi yoki u joylashtiril-gan idishga tushiriladigan yozuvlar, shartli belgilar va rasmlar bo’lib, tovar sifatining o’ziga xos guvohnoma-sidir, chunki markirovkaga qarab tovarning sifati uchun javob beradigan ishlab chiqaruvchini (tayyorlovchini) aniq-lash mumkin. Lozim darajada markirovkalamaslik – stan-dartlar, texnik shartlar yoki shartnoma shartlarini buzgan holda tovarlarni markirovkalashdir, jumladan: marki-rovkada ko’rsatilishi majburiy bo’lgan bir yoki bir necha rekvizitlarning ko’rsatilmaganligi; markirovka yozuvining yoki belgisining noaniq tushirilganligi va ularni o’qish imkoniyatini bermasligi.

Tovarlarning idishi yoki o’rash vositasi (upakovka) - tovarlarni tashqi muhit ta`siridan, shikastlanishdan, ka-mayib ketishidan saqlanishini ta`minlaydigan hamda uni tashish, saqlash va realizasiya qilish jarayonini engillash-tiradigan vosita yoki vositalar yig’indisidir.

Akkreditivdan foydalanmaganlik uchun qonunda tovar etkazib beruvchining (pudratchining) javobgarligi belgi-langan.

Akkreditiv - naqd pulsiz hisob-kitoblarda qo'lla-niladigan shakllardan biri bo'lib, bunda akkreditiv och-gan bank (bank-emitent) mijoz-to'lovchining (xaridor-ning, buyurtmachining) topshirig'i bilan mablag'larni oluv-chiga (etkazib beruvchiga, pudratchiga) akkreditivda nazarda tutilgan barcha shartlar bajarilgan taqdirda to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

Fuqarolik kodeksining 797-moddasi talablariga ko'ra, akkreditivning amal qilish muddati va u bo'yicha hisob-kitob qilish tartibi pul mablag'larini to'lovchi bilan oluvchi o'rtasidagi shartnomada belgilab qo'yiladi. Shart-nomada yana quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak: bank-emitentning (akkreditiv ochgan bankning) nomi; akkre-ditivning turi va uni bajarish usuli; mablag'larni oluv-chini akkreditiv ochilganligi haqida xabardor qilish usuli; akkreditiv bo'yicha mablag'lar olish uchun oluvchi tomonidan taqdim etiladigan hujjatlarning to'liq ro'yxati va aniq tavsifi; tovarlar jo'natilganidan (xizmatlar ko'rsatilgan, ishlar bajarilganidan) keyin hujjatlarni taqdim etish muddatlari, ularni rasmiylashtirishga qo'yiladigan talab-lar.

qonunning 29-moddasiga muvofiq tovar etkazib beruvchi (pudratchi) talabiga binoan qo'yilgan akkreditiv u amal qiladigan muddat ichida foydalanilmasa, etkazib beruvchi (pudratchi) sotib oluvchiga (buyurtmachiga) akkre-ditivning foydalanilmagan summasining 5 foizi miq-dorida jarima to'laydi. qonunning 30-moddasi to'lov, to-var-transport hujjatlarini yuborishni kechiktirganlik uchun etkazib beruvchining (pudratchining) javobgarligini belgilaydi.

Har qanday holatda ham to'lov yoki tovar-transport hujjatlarining nusxasini yuborish va boshqa axborotni taqdim etish tartibi taraflar o'rtasida tuzilgan shart-nomada belgilanishi va unda quyidagi shartlar ko'rsatilgan bo'lishi lozim:

- qaysi to'lov hujjatlari yuborilishi shartligi;
- qaysi tovar-transport hujjatlari yuborilishi shartligi;
- bu hujjatlarni yuborish muddati (tovar jo'natil -gandan keyin necha kun ichida yuborilishi lozimligi);
- tovarlar jo'natilganligi to'g'risidagi axborotga ni-malar kirishi va axborot qanday tartibda (telefono-gramma, faks, xat, telegramma va h.k.) va necha kun ichida berilishi lozimligi;
- taraflar o'rtasidagi aloqa shartlari va aloqa vosi-talarining raqamlari bilan kodi.

To'lov yoki tovar-transport hujjatlarining nusxa-sini yuborish va boshqa axborotni taqdim etish tartibi taraflar uchun bajarilishi majburiy bo'lgan boshqa me`-yoriy hujjatlar (qaror, yo'riqnoma, davlat standarti yoki texnik shartlar)da belgilangan bo'lishi mumkin. Mazkur hujjatlarni vaqtida yubormaganlik yoki boshqa axborotni taqdim etmaganlik taraflar o'rtasidagi xo'jalik aloqa-larining izdan chiqishiga, sotib oluvchining (buyurt-machining) qabul qilib olingan tovarlarni vaqtida kirim qila olmasligiga, etkazib berilayotgan tovarlarni joy-lashtirish uchun tayyorgarlik ko'rilishi lozimligi sababli xabarnomasiz kelgan tovarlarni joylashtirishda muam-molar tug'ilishga sabab bo'lishi mumkin.

Shuning uchun ham etkazib beruvchi sotib oluvchiga axborot taqdim etmagan har bir holat uchun etkazib beri-layotgan tovar qiymatining 1 foizi miqdorida jarima to'laydi. qonunning 31-moddasida tovarlarni tanlab ol-maslik yoki uni rad etganlik uchun sotib oluvchining (bu-yurtmachining) javobgarligi belgilangan.

Tovarlarni tanlab olmaslik, shuningdek etkazib be-ruvchi shartnomada belgilangan muddatda (davrda) ularni etkazib berganda tovarlarni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun sotib oluvchi etkazib beruvchiga tanlab olinmagan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymatining 5 foizi miqdorida, tez buziladigan tovarlar bo'yicha esa 10 foizi miqdorida jarima to'laydi. Tovarlar tanlab olin-magan (olish asossiz rad etilgan) hollarda, etkazib beruvchi jarima undirishdan tashqari, ushbu tovarlar mavjud-ligining kafolatlarini taqdim etgan holda, tanlab olin-magan (o'z muddatida olinmagan) tovarlar qiymati to'la-nishini talab qilishga haqlidir.

Demak, qonun quyidagi har ikki holat bo'yicha sotib oluvchining javobgarligi-ni belgilagan, ya`ni: tovarlarni tanlab olmaslik uchun; etkazib beruvchi tovarlarni etkazib berganda ularni olishni asossiz ravishda rad etganlik uchun. Tanlab olmaslik-sotib oluvchining shartnomada bel-gilangan tartibda va muddatlarda etkazib beruvchining om-boridan mahsulotlarni (tovarlarni) olib ketish (qabul qilib olish) to'g'risidagi shartnomada nazarda tutilgan majburiyatini bajarmasligidir.

Har qanday holatda ham sotib oluvchi yoki buyurtmachi, shartnomani imzolab, ma`lum bir tovarni qabul qilib olish va haqini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga olgan bo'lsa, shartnomada belgilangan tartibda shu tovarni qabul qilib olishi shart.

qonun tovarlarni olishni asossiz ravishda rad et-ganlik uchungina sotib oluvchining javobgarligini bel-gilaydi va tovarlarni olishni rad etish asosli bo'lishi uchun quyidagi shartlar mavjud bo'lmog'i lozim:

a) etkazib beruvchi tomonidan tovarlarni etkazib be-rishning shartnomada belgilangan muddati o'tkazib yubo-rilgan bo'lsa (basharti, shartnomada tovarlarni etkazib be-rish muddati o'tkazib yuborilgan taqdirda keyingi davrda ularning o'rnini to'ldirish sharti nazarda tutilmagan bo'l-sa);

b) tovarlar sotib oluvchining (buyurtmachining) rozi-ligisiz muddatidan oldin etkazib berilgan bo'lsa (agarda tovarlar sotib oluvchi tomonidan qabul qilib olinsa, ular keyingi davrda etkazib berilishi lozim bo'lgan tovarlar miqdoriga kiritiladi);

v) tovarlarning shartnoma shartlariga nomuvofiqligi (miqdori kamligi, sifatsizligi, butlanmaganligi, assor-timenti lozim darajada emasligi, tovarga mansub ashyolar va hujjatlar topshirilmaganligi) aniqlangan bo'lsa, va etkazib beruvchi sotib oluvchining ushbu shartlarni baja-rish to'g'risidagi talablarini belgilangan muddatda, agar bunday muddat belgilangan bo'lmasa, oqilona muddatda ba-jarmagan bo'lsa;

g) taraflar shartnomada bajarilishi shart deb belgi-lagan shartlar etkazib beruvchi tomonidan bajarilmagan bo'lsa va shartnomada sotib oluvchiga shunday holatda to-varni qabul qilishdan voz kechish huquqi berilgan bo'lsa.

Hozirgi vaqtda shartnoma majburiyatlarini buzi-lishining keng tarqalgan turlaridan biri tovarlar (ish-lar, xizmatlar) haqini to'lamaslik yoki o'z vaqtida to'la-maslikdir. qonun unga quyidagicha ta`rif berib, javob-garlikni belgilaydi.

To'lov talabnomasi akseptini asossiz ravishda bu-tunlay yoki qisman rad etganlik, shuningdek hisob-ki-tobning boshqa shakllarida tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini to'lashdan bosh tortganlik (bank muassasasiga to'lov topshiriqnomasi taqdim etmaganlik, chekni bermaganlik, akkreditivni taqdim etmaganlik va hokazo) uchun sotib oluvchi (buyurtmachi) mahsulot etkazib beruvchiga o'zi to'-lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi. Etkazib berilgan tovarlar haqini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun sotib oluvchi (bu-yurtmachi) etkazib

beruvchiga o’tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to’lov summasining 0,4 foizi miq-dorida, ammo kechiktirilgan to’lov summasining 50 foi-zidan ortiq bo’lmagan miqdorda penya to’laydi.

qonunning 33-moddasi mablag’larni akseptsiz hi-sobdan chiqarganlik uchun quyidagi javobgarlikni belgi-laydi:

hisob varaqdan mablag’larni asossiz ravishda ak-septsiz hisobdan chiqarganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga asossiz ravishda akseptsiz hisobdan chiqarilgan summaning 10 foizi miqdorida jarima to’laydi;

akseptsiz shakl bo’yicha bank to’lovchining roziligini olmasdan ham to’lov talabida ko’rsatilgan summani mab-lag’larni oluvchiga to’lab beradi.

Mazkur moddada belgilangan javobgarlik kelib chi-qishining zaruriy sharti-mablag’larni to’lov talabi bilan akseptsiz hisobdan chiqarishning asossiz ravishda amalga oshirilgan bo’lishidir. Mablag’lar quyidagi hollarda to’lov talabi bilan akseptsiz hisobdan chiqarilishi mumkin:

-bildirilgan talabnomaga berilgan yozma javobda qarzdor talabnomani to’liq yoki qisman tan olgan bo’lsa va talabnomani tan olish to’g’risidagi javobda tan olingan summa o’tkazilishi haqida ma`lumot bo’lmasa, javob olingan kundan 20 kun o’tgach - javobda tan olingan summani;

-sifati, assortimenti va navi lozim darajada bo’l-magan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) etkazib ber-ganlik uchun sifati, assortimenti va navi lozim dara-jada bo’lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymatining 20 foizi miqdorida jarimani, bu haqda dalolatnoma tuzil-gandan keyin 10 kundan kechiktirmay;

-kommunal va aloqa xizmatlari (gaz, suv, elektr va issiqlik energiyasi, oqova suvlarni qabul qilish, telefon aloqasi, pochta va telegraf harajatlari, chiqindilarni olib ketish va hokazolar) uchun hisob-kitob qilishda-shu xiz-matlar haqini.

Lekin, amaldagi qonun hujjatlariga, jumladan FK-ning 333-moddasiga muvofiq shartnoma majburiyatini ba-jarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taraf aybi bo’lgan taqdirdagina javobgarlikka tortiladi. Agar taraf majburiyatni lozim darajada bajarish uchun o’ziga bog’liq bo’lgan hamma choralarni ko’rganligini isbotlasa, u aybsiz deb topiladi. Aybning yo’qligi majburiyatni buzgan shaxs tomonidan isbotlanadi. Basharti, qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo’lmasa, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan shaxs majburiyatni baja-rishga engib bo’lmaydigan kuch, ya`ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo’lmaydigan vaziyatlar (fors-major) tufayli (tabiiy ofat, harbiy harakatlar va h.k.) imkon bo’lmaganligini isbotlay olmasa, javobgar bo’ladi.

quyidagilar fors-major vaziyati hisoblanmaydi:

-qarzdorning shartlashuvi sheriklari tomonidan maj-buriyatlarning buzilishi;

-majburiyatni bajarish uchun zarur tovarlarning bozorda yo’qligi;

-qarzdorda zarur pul mablag’larining bo’lmaganligi.

Shartnoma majburiyatlari xo’jalik yurituvchi sub`ekt mansabdor shaxsining aybi bilan bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan, uning tomonidan xo’jalik yurituvchi sub`ektning pul mablag’lari va boshqa mol-mulki maqsadga nomuvofiq foydalanilganligi aniqlangan, to’lov intizomi buzilgan, xo’jalik yurituvchi sub`ekt bankrotlikka duchor qilingan yoki shartnoma munosabatlari sohasida boshqa

qoidabuzarliklar sodir etilgan taqdirda, xo'jalik yurituvchi sub`ektning mansabdor shaxsi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 45 va 48-moddalariga muvofiq fuqarolik-huquqiy javobgarlikka, Ma`muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 175, 176[1],176,212 va 214-moddalariga muvofiq ma`muriy javobgarlikka, shuningdek Jinoyat kodeksining 175,181, 186, 205, 207 va 209-moddalariga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 4 martdagi Farmoniga muvofiq xo'jalik sudlariga:

xo'jalik nizolarini ko'rish jarayonida jinoyat alo-matlari aniqlangan holatlarda xo'jalik yurituvchi sub`-ektlar mansabdor shaxslariga nisbatan jinoyat ishi qo'z-g'atish;

iqtisodiy huquqbuzarliklarni sodir qilgan shaxslarga nisbatan ma`muriy javobgarlik choralarini qo'llash;

xo'jalik yurituvchi sub`ektga etkazilgan mulkiy zararni aybdor mansabdor shaxslardan undirish;

pul mablag'lari va boshqa mulkdan oqilona foydalanmaslik, to'lov intizomini buzganlik, shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik va korxonalarni bankrotlik dara-jasigacha olib kelganlik uchun xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning rahbarlarini va boshqa xodimlarni egallab turgan lavozimidan ozod etishga qadar bo'lgan intizomiy javobgarlikka tortish haqida tegishli organlarga taq-dimnomalar kiritish huquqi berilgan.

Nazorat savollari:

1. Shartnoma nima, uning bozor munosabatlarida tutgan o'rni.
2. Xo'jalik shartnomalariga ta`rif bering, uning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Xo'jalik shartnomalari qaysi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi?
4. Xo'jalik shartnomasiga qo'yiladigan talablar. qanday shartnomlar haqiqiy emas deb hisoblandi?
5. Xo'jalik shartnomalari qanday hollarda va kim to-monidan bekor qilinishi mumkin?
6. Ichki xo'jalik shartnomalari haqida gapiring.
7. Shartnoma shartlarini buzganlik uchun javobgarlik turlari qanday?

10-BOB
TOVAR VA MOLIYa BOZORLARIDA MONOPOLISTIK FAOLIYaTNI ChEKLASh

1-§. Tovar va moliya bozorlarida monopolistik faoliyat tushunchasi va belgilari

Har qanday davlat bozor munosabatlariga o'tishda o'ziga hos yo'lni tanlaydi, lekin hech biri bozor qonuniyatlarini chetlab o'ta olmaydi. Bozor munosabatlarida ishtirok etuvchi tadbirkorlik sub`etlari o'z oldilariga foyda olishni maqsad qilib qo'yadilar. Bunda xo'jalik yurituvchi sub`ektlar qonun bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat turi bilan shug'ullanishlari mumkin. Biroq xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning foliyati davlat tomonidan doimo huquqiy jihatdan tartibga solinishni taqoza etadi. Aks holda xo'jalik yurituvchi sub`ektlar ayrim harakatlari bilan dav-lat iqtisodiyotining rivojlanishiga salbiy ta`sir ko'r-satishlari mumkin. Ushbu harakatlardan biri xo'jalik yurituvchi sub`ektning monopolistik faoliyatidir.

Monopolistik faoliyat–bu xo'jalik yurituvchi sub`-ektlarning hamda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining monopoliyaga qarshi qo-nunlarga zid harakati bo'lib, u raqobatga yo'l qo'ymaslik-ka, uni cheklashga yoki yo'q qilishga qaratilgan bo'ladi.

Monopolistik faoliyat tadbirkorlikka salbiy ta`sir ko'rsatadigan omillardan biri bo'lib hisoblanadi. U ishlab chiqarishga, eng muhimi esa iste`molchiga, odamlarning manfaatlariga zarar etkazadi[1]. Raqobat bilan monopolistik faoliyat bir-birlariga zid tushuncha bo'lgani bilan, ayrim holda biri ikkinchisini keltirib chiqaradi. Masalan, raqobatda engib chiqqan sub`ekt keyinchalik monopolistik faoliyatni amalga oshirishi mumkin. Shuning uchun ham mazkur munosabatlar shunday jihatdan huquqiy tar-tibga solinishi lozimki, ulardan biri ikkinchisini keltirib chiqarmasligi lozim.

Monopolistik faoliyat raqobatga to'sqinlik qilish, uni cheklash yoki butunlay yo'q qilish bilan bog'liq munosabat bo'lganligi uchun o'zining sub`ekt tarkibiga ega. Uning sub`ekt tarkibi kengroq bo'lib, unga xo'jalik yurituvchi sub`ektlar, davlat boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari kiradi.

Monopolistik faoliyatni cheklash hamda raqobatni rivojlantirish bilan bog'liq huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 27 dekabrdagi «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida»gi qonuni[1] bilan tartibga solinadi.

Monopolistik faoliyat quyidagi to'rt ko'rinishda amalga oshirilishi mumkin:

birinchisi, xo'jalik yurituvchi sub`ektning o'z ustun mavqeini suiste`mol qilishi;

ikkinchisi, ikki yoki undan ortiq xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning raqobatni cheklash maqsadidagi kelishuvi;

uchinchisi, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining raqobatni cheklashga qara-tilgan harakatlari;

---

[1] Ислом Каримов «Ызбекистон ÕÕl асрга интилмо=да» Т., «Ызбекистон», 1998 йил, 34-бет

[1] Ызбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 йил, 2-сон, 54-модда

to’rtinchisi, davlat boshqaruvi organlari bilan maxalliy davlat hokimiyati organlari hamda xo’jalik yurituvchi sub`ektlar o’rtasidagi raqobatni cheklashga qaratilgan kelishuvi.

Xo’jalik yurituvchi sub`ektning o’z ustun mavqeini suiste`mol etishi keng tarqalgan monopolistik faoliyat **turlaridan biri** bo’lib hisoblanadi.

Ustun mavqe - antimonopol qonunning asosiy tushunchalaridan biri bo’lib, u xo’jalik yurituvchi sub`ektning yoki bir qancha xo’jalik yurituvchi sub`ektlarning iste`mol uchun o’rnini bosuvchisi bo’lmagan tovar bozorida yoxud bir-birining o’rnini bosadigan tovarlar bozorida raqobatga hal qiluvchi ta`sir ko’rsatishi, boshqa xo’jalik yurituvchi sub`ektlarning bozorga kirishini qiyinlashtirish yoki ularning iqtisodiy faoliyat erkinligini o’zga tarzda chek-lash imkoniyatini beradigan hukmron mavqeidir. Hozirgi paytda bozordagi tovari(ish,xizmati)ning ulushi 65% va undan ko’pni tashkil etadigan xo’jalik yurituvchi sub`ektning mavqei ustun deb hisoblanadi. Biroq xo’jalik yurituvchi sub`ektning bozordagi ulushi 65% va undan ortiq bo’lgani bilan, uning mavqei ustun deb e`tirof etilmasligi ham mumkin.Buning uchun xo’jalik yurituvchi sub`ekt raqobatga salbiy ta`sir ko’rsatmayotganligini asoslab berishi lozim.

Bozordagi ulushi 35% dan 65% gacha bo’lgan xo’jalik yurituvchi sub`ekt ustun mavqega ega bo’lmaydi. Biroq monopoliyaga qarshi davlat organi tomonidan mazkur holat ustun mavqe deb e`tirof etilishi ham mumkin. Bunda xo’jalik yurituvchi sub`ektning bozordagi ulushining barqa-rorligi, bozordagi raqobatchilarga tegishli ulushlarning miqdori, mazkur bozorga yangi raqobatchilarning kira olishlari va boshqa mezonlar inobatga olinadi. 35% gacha bo’lgan ulush esa ustun mavqe holatini vujudga keltir-maydi.

Ustunlik mavqeini belgilab beruvchi daraja ko’rsatkichi turli davlatlarda xar hil. Bu bevosita shu davlat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi bilan bog’liq. Rivojlangan davlatlarda mazkur ko’rsatkich 10% dan 30% gacha qilib belgilab qo’yilgan. Bu bevosita shu davlatlarda raqobatning rivojlanganligidan hamda monopolistik faoliyatni yo’qligidan yoki kam darajada ekanligidan dalolat beradi.

Ustun mavqega ega bo’lishning o’zi monopolistik faoliyat deb hisoblanmaydi. Monopolistik faoliyat bo’lishi uchun xo’jalik yurituvchi sub`ekt o’zining ustunlik mavqeini suiste`mol qilishi kerak. O’z mavqeini suiste`mol qilish xo’jalik yurituvchi sub`ektning raqobatni cheklash yoki boshqa xo’jalik yurituvchi sub`ektlarning iqtisodiy manfaatlariga zarar etkazish bilan bog’liq bo’lgan harakatlarida namoyon bo’ladi.

Xo’jalik yurituvchi sub`ektning ustunlik mavqeini suiste`mol qilish bilan bog’liq harakatlarni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhda, monopolistik faoliyat xo’jalik yurituvchi sub`ektning bir tomonlama harakat-larni sodir etishi orqali amalga oshiriladi. Ushbu hara-katlarga quyidagilar kiradi:

-bozorda taqchillikni keltirib chiqarish va narxlarni oshirish maqsadida tovarlarni muomaladan olib qo’yish;

-tegishli tovarni ishlab chiqarish yoki etkazib berish imkoniyatlari mavjud bo’lganda shartnoma tuzishdan bosh tortishi;

-monopol qimmat yoki monopol arzon narxlarni belgilash;

-boshqa xo’jalik yurituvchi sub`ektlarning bozorga kirishiga to’sqinlik qilishi.

Ikkinchi guruhda, monopolistik faoliyat xo'jalik yurituvchi sub`ektning boshqa xo'jalik yurituvchi sub`ektlar bilan shartnomalar tuzishida namoyon bo'ladi. Bularga quyidagilar kiradi:

-kontragentga shartnoma mohiyatiga taalluqli bo'lmagan shartlarni majburan kiritish;

-kontragentni boshqa xo'jalik yurituvchi sub`ektlarga nisbatan teng bo'lmagan vaziyatga solib qo'yadigan kamsituvchi shartlarni shartnomaga kiritish;

-kontragent tomonidan boshqa tovarlarni sotib olish yoki sotish yoxud kontragentning boshqa xo'jalik yurituvchi sub`ektlardan tovarlar sotib olishidan yoki boshqa xo'jalik yurituvchi sub`ektlarga tovarlar sotishidan o'zini tiyish sharti bilan shartnoma tuzishga rozilik berish.

Yuqorida sanab o'tilgan uchala holatda ustun mavqega ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub`ekt o'zi uchun foydali, kontragent uchun foydali bo'lmagan shartlar asosida shartnoma tuzadi. Bu esa unga qo'shimcha daromad keltiradi va uning ustunlik mavqei yanada kuchayadi. Biroq xo'jalik yurituvchi sub`ektning monopolistik faoliyati bilan bog'-liq harakatlari ba`zi hollarda qonuniy deb topilishi ham mumkin. Buning uchun ushbu harakatlarning ijobiy hamda salbiy tomonlari taqqoslab ko'riladi.

Monopolistik faoliyatning birinchi turiga kiradigan, keng tarqalgan huquqbuzarliklardan biri monopol narxni o'rnatishdir.

Monopol narx – bu bozorning alohida narxi bo'lib, u monopol foyda olish uchun talab va taklifdan kelib chiqadigan muvozanat narxga nisbatan yuqori yoki past qilib belgilanadi. Monopol narx monopol qimmat va monopol arzon narxlarga bo'linadi.

Monopol qimmat narx - tovar bozorida ustun mavqega ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub`ektning ishlab chiqarish quvvatlaridan to'laligicha foydalanmasligi tufayli qilgan asossiz xarajatlarini qoplash yoki tovar sifatini pasaytirish natijasida qo'shimcha foyda olish maqsadida tovarga belgilanadigan narxdir. Monopol qimmat narxga sun`iy ravishda tovar defisitini vujudga keltirish, ishlab chi-qarish xajmini kamaytirish yoki xaridorlar talabini sun`iy ravishda ko'paytirish orqali erishiladi.

Monopol arzon narx esa tovar bozorida ustun mavqega ega bo'lgan xaridor yoki ustun mavqega ega bo'lgan sotuvchi tomonidan o'rnatiladi. Ustun mavqega ega bo'lgan xaridor tomonidan monopol arzon narxni o'rnatilishidan maqsad, qo'shimcha foyda olish yoki asossiz qilingan xarajatlarni sotuvchi hisobidan qoplashdir. Ustun mavqega ega bo'lgan sotuvchi tomonidan monopol arzon narxni o'rnatilishidan maqsad bozordan raqobatchilarni siqib chiqarishdir.

Monopolistik faoliyatning **ikkinchi turi** ikki yoki undan ortiq xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning bozorda raqobatni cheklashga yoki yo'q qilishga qaratilgan kelishuvlari(bitimlari) asosida amalga oshiriladi. Mazkur kelishuvlar monopolistik faoliyatni keltirib chiqarishi uchun, unda ishtirok etayotgan xo'jalik yurituvchi sub`ektlar raqobatlashish imkoniyatiga ega bo'lishlari hamda ularning bozordagi ulushi jami 35% yoki undan ortiqni tashkil etishi lozim. Shuning uchun ularni quyidagilar yuzasidan bitim tuzishlari taqiqlanadi:

-qat`iy narxlar, tariflar, chegirmalar, ustamalar, qo'shimcha to'lovlar yoki ortiqcha narxlarni belgilash yoxud ularni saqlab turish;

-erkin bozor narxlarini qaror topishiga to’sqinlik qilib, ularni sun`iy ravishda o’stirish yoki pasaytirish;

- ishlab chiqarish, mahsulot sotish bozorlari va kapi-tal qo’yilmalar ustidan nazorat o’rnatish;

-taklif xajmini sun`iy ravishda o’zgartirish maq-sadida ishlab chiqarish xajmlarini kelishib olish;

-auksionlar, birjalar va boshqa kimoshdi savdolarida narxlarni oshirish, pasaytirish yoki ushlab turish;

-narx sohasida kamsitishlarni belgilash;

-bozorni hudud bo’yicha, sotuv yoki xarid xajmi, tovarlar xillari bo’yicha, sotuvchilar, xaridorlar va buyurtmachilar doirasi bo’yicha bo’lib olish;

-muayyan tovarlarning sotuvchilari yoki ularning xaridorlari, buyurtmachilari sifatida boshqa xo’jalik yuri-tuvchi sub`ektlarning bozorga kirishini cheklab qo’yish yoki ularni bozordan chetlatish.

Mazkur mazmundagi bitimlar xo’jalik yurituvchi sub`ektlar tomonidan tuzilgan bo’lsa, ular to’liq yoki qisman haqiqiy emas deb topiladi.

Monopolistik faoliyatni keltirib chiqarishi mumkin bo’lgan bitimlar o’zaro raqobatlashmaydigan xo’jalik yuri-tuvchi sub`ektlar tomonidan ham tuzilishi mumkin. Mazkur holatda bitim xaridor bilan sotuvchi yoki mahsulot etkazib beruvchi o’rtasida tuziladi va bunda ulardan biri albatta ustun mavqega ega bo’ladi. Shuning uchun ham bunday hola-tlarda xaridorlarning hududi yoki doirasini cheklaydigan, o’zidan xaridor sotib olgan tovarlarni qayta sotish uchun narxga cheklashlar belgilaydigan hamda xo’jalik yurituvchi sub`ektlarga raqobatchilar ishlab chiqargan tovarlarni so-tishni man etadigan bitimlarni(kelishuvlarni) tuzish ta`-qiqlanadi. Agarda bunday bitimlar tuzilgan bo’lsa, ular ham to’la yoki qisman haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Xo’jalik yurituvchi sub`ektlarning yuqorida ko’rsatib o’tilgan mazmundagi bitimlari monopoliyaga qarshi davlat organi tomonidan qonuniy deb ham topilishi mumkin. Buning uchun bitim ishtirokchilari mazkur kelishuv salbiy oqibatlar keltirib chiqarmasligini asoslab berishlari talab etiladi.

«Tovar bozorida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to’g’risida»gi qonunning 6-moddasiga muvofiq yuridik shaxslarning birlashmalari(ittifoqlari, uyushma-lari)ga hamda xo’jalik shirkatlari va jamiyatlariga ularga uyushgan xo’jalik yurituvchi sub`ektlarning faoliyatiga ra-qobatni cheklash maqsadida aralashish taqiqlanadi. Aks holda mazkur birlashmalar hamda xo’jalik shirkatlari va jamiyatlari sud tartibida tugatilishi mumkin. «Bank va banklar faoliyati to’g’risida»gi qonunning[1] 40-moddasiga muvofiq esa banklarning bank operasiyalari bozorini monopoliyalash va bank ishida raqobatni cheklashga qaratil-gan bitimlarga erishish maqsadida o’z ittifoqlari, uyush-malari va boshqa birlashmalaridan foydalanishi ta`qiq-lanadi.

Monopolistik faoliyatning **uchinchi turi** bevosita davlat boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyatlari bilan bog’liqdir. Bunda

[1] Ызбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 йил, 54-модда ,5-6-сон,

ularning faoliyati raqobatni cheklashga qaratilgan bo'ladi. Ularning raqobatni cheklashga qaratilgan harakatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

-biror-bir faoliyat sohasida yangi xo'jalik yurituvchi sub`ektlarni tashkil qilishga cheklashlar joriy etish yoki muayyan bir tovarlarni ishlab chiqarishni ta`qiqlash;

-xo'jalik yurituvchi sub`ektlarga shartnomalar tuzishda kimgadir ustunlik berish, iste`molchilarning muayyan doiralariga tovarlarni birinchi navbatda etkazib berish to'g'risida ko'rsatmalar berish;

-ba`zi bir xo'jalik yurituvchi sub`ektlarga ayni bir tovar bozorining o'zida ishlaydigan boshqa xo'jalik yurituvchi sub`ektlarga nisbatan ustunlik beruvchi soliq yoki boshqa imtiyozlarni berib qo'yish;

-xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning aksiyalarini (ulushlarini) sotib olish;

-ayrim xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning faoliyati uchun boshqa kamsituvchi yoki imtiyozli shart-sharoitlarni belgilash.

Yuqorida sanab o'tilgan harakatlar tabiiy ofatlar hamda falokatlarning oqibatlarini bartaraf etish maq-sadida amalga oshiriladigan bo'lsa monopolistik faoliyat deb hisoblanmaydi va qonuniy deb topilishi mumkin. Dav-lat boshqaruvi organlari bilan mahalliy davlat hokimiyati organlarini monopolistik faoliyatga yo'l qo'yishayotgan-liklarining asosiy sababi quyidagilardan iborat:

-birinchisi, sobiq ittifoq davridagidek davlat organlarini xo'jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatiga ara-lashuvi hozir ham davom etmoqda, chunki avvalgi kadrlar davlat organlarida o'z faoliyatlarini davom ettirishayapti va ularda yangicha dunyoqarash juda sekin shakllanayapti;

ikkinchisi, iqtisodiy va huquqiy bilimlari mavjud bo'lgan kadrlarning etishmasligi yoki ularning bozor iqti-sodiyotining mohiyatini chuqur anglab etishmasliklari.

Monopolistik faoliyatning **to'rtinchi turi** boshqaruv organini boshqa bir boshqaruv organi bilan yoki xo'jalik yurituvchi sub`ekt bilan raqobatni cheklashga qaratilgan bitimlarida namoyon bo'ladi. Mazkur kelishuvlar narxlarni oshirish, pasaytirish, saqlab turishga, bozorni hududiy prinsip bo'yicha, sotuvlar va xaridlar xajmi, tovar xillari yoxud sotuvchilar, xaridorlar, buyurtmachilarning doirasi bo'yicha taqsimlab olishga, xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning bozorga kirishini cheklash va ularni bozordan chetlatishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham bunday mazmundagi bitimlarni tuzish taqiqlanadi va ular haqiqiy emas deb topiladi.

Davlat boshqaruvi organlari tomonidan monopolistik faoliyatni amalga oshirilishiga yo'l qo'ymaslik uchun ularni tovarlar ishlab chiqarish yoki sotishni monopoliyalash maq-sadida birlashishi, ularga raqobatni cheklab qo'yishi mum-kin bo'lgan vakolatlarni berish, shuningdek boshqaruv or-ganlarini vazifalarini xo'jalik yurituvchi sub`ektlar vazifalari bilan qo'shib yuborish hamda xo'jalik yurituvchi sub`ektlarga mazkur organlarning vakolatlarini berish ta`qiqlanadi.

2-§. Monopolistik faoliyatni amalga oshirishning oqibatlari va javobgarlik turlari

Monopolistik faoliyatni amalga oshirish iqtisodiyotni rivojlanishiga salbiy ta`sir ko'rsatadi va iqtisodiy islohotlar jarayonini sekinlashtirib yuboradi. Monopolistik faoliyat davlat, xo'jalik yurituvchi sub`ektlar hamda fuqarolarning huquq va manfaatlariga zarar etkazadi. Monopolistik faoliyatga yo'l qo'ymaslik yoki uni oldini olishning samarali usullaridan biri, bunday faoliyatni yuritganlik uchun javobgarlikning belgilab qo'yilishidir. Mazkur faoliyatga yo'l qo'ymaslik uchun yuridik javobgarlikning barcha turlaridan foydalaniladi. Shuning uchun ham monopolistik faoliyatni amalga oshirilishi fuqarolik huquqiy, moliyaviy, ma`muriy hamda jinoiy javobgarlik-larga tortilish uchun asos bo'ladi.

Fuqarolik huquqiy javobgarlikni vujudga kelishiga sabab, monopolistik faoliyatni amalga oshirilishi fuqa-rolarga, xo'jalik yurituvchi sub`ektlarga hamda ayrim hollarda davlatning o'ziga ham zarar etkazadi. Masalan, xo'jalik yurituvchi sub`ekt tomonidan tovarga monopol qimmat narxning o'rnatilishi, iste`molchilarning iqti-sodiy manfaatiga salbiy ta`sir ko'rsatadi, ya`ni ular asossiz ravishda qimmat narxlarda tovarlarni xarid qi-lishga majbur bo'ladilar. Ayrim iste`molchilar esa bunday qimmat narxda tovarlarni xarid qilish imkoniyatiga ega bo'lmay qoladilar. Natijada iste`molchilar ham moddiy, ham ma`naviy zarar ko'rishadi. Monopol arzon narxlarni o'rnatilishi esa raqobatchilarning iqtisodiy manfaatlariga zarar etkazadi va xatto ularni bankrotlik holatiga tushib qolishiga ham sababchi bo'ladi. Davlat organlarining monopolistik faoliyati ham huddi shu kabi salbiy oqi-batlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham monopo-listik faoliyat yuritgan har qanday xo'jalik yurituvchi sub`ekt, davlat boshqaruvi organi hamda mahalliy hokimiyat organlari o'zlarining noqonuniy harakatlari bilan boshqa xo'jalik yurituvchi sub`ektlarga hamda shaxslarga etkazgan zararlari uchun javobgardirlar.

Xo'jalik yurituvchi sub`ekt tomonidan monopoliyaga qarshi davlat organining qonunbuzarlikni to'xtatish, dastlabki holatni tiklash, shartnomalarni bekor qilish yoki o'zgartirish to'g'risidagi ko'rsatmalarini bajarmasligi uni moliyaviy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi. Shuningdek monopoliyaga qarshi davlat organiga zarur axborotlarni taqdim etmaslik yoki ataylab noto'g'ri ma`lumotlarni taqdim etish yohud ushbu organning ruxsati bilan sodir etilishi lozim bo'lgan harakatlarni uning roziligisiz amalga oshirish ham moliyaviy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Moliyaviy javobgarlik moliyaviy jarima ko'rinishida bo'ladi.

Yuqorida sanab o'tilgan harakat hamda harakatsizliklar o'z navbatida aybdor shaxslarni ma`muriy javobgarlikka tortish uchun ham asos bo'ladi. Bu bevosita O'zbekiston Respublikasining Ma`muriy javobgarlik to'g'ri-sidagi Kodeksining 178-moddasida o'z ifodasini topgan. Moliyaviy javobgarlikka xo'jalik yurituvchi sub`ekt tor-tilsa, ma`muriy javobgarlikka xo'jalik yurituvchi sub`-ektning mansabdor shaxsi tortiladi.

Yuqoridagi qoidabuzarliklarni ma`muriy javobgarlik qo'llanilgandan so'ng yana sodir etish jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Mazkur holat O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 183-moddasida aks ettirilgan. Bunda aybdor shaxs jarimaga tortilishi, muayyan huquqdan mahrum etilishi yoki ahloq tuzatish ishlariga jalb etilishi mumkin.

Demak, monopolistik faoliyatni amalga oshirish darhol moliyaviy, ma`muriy hamda jinoiy javobgarlikka tortilish uchun asos bo'la olmas ekan. Balki

monopoliyaga qarshi davlat organining monopoliyaga oid qonunbuzarlikni bar-taraf etish to'g'risidagi ko'rsatmalarini bajarmaslik mo-liyaviy, ma`muriy hamda jinoiy javobgarliklarni keltirib chiqaradi.

3-§. Tabiiy monopoliyalarni huquqiy tartibga solish

Raqobatni rivojlantirish hamda monopolistik faoliyatni cheklash har qanday davlat iqtisodiyotini rivojlantiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Biroq xalq xo'jaligida ayrim sohalar mavjud bo'lib, ularda rapqobat muhitini shakllantirib bo'lmaydi. Mazkur soha-lar yuridik va iqtisodiy adabiyotlarda **tabiiy monopoliyalar** deb yuritiladi. Tabiiy monopoliyalar bilan bog'liq huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 19 avgustdagi «Tabiiy monopoliyalar to'g'risida»gi(yangi taxrirdagi) qonuni[1] bilan tartibga solinadi.

Tabiiy monopoliya-bu tovar bozorining holati bo'lib, unda texnologik xususiyatlar tufayli muayyan tovarlar(ishlar, xizmatlar) turlariga bo'lgan talabni qondi-rishning raqobatli sharoitlarini yaratish mumkin emas yoki iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas.

Mazkur sohalarni tabiiy monopoliya deb nomlanishiga sabab, ushbu tovarlar bozorida raqobatni vujudga keltirish, odamlarning erki va xoxishiga bog'liq emas. Bunga sabab tabiiy monopoliya sharoitida ishlab chiqariladigan tovar(ish,xizmat)larning o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanliklarida. Mazkur xususiyatlar quyidagilardan iborat:

-ushbu tovarlarni ishlab chiqarish ko'p sarf-xarajatni talab etadi;

-mazkur tovarlarni iste`mol uchun boshqa tovarlar bilan almashtirib bo'lmaydi;

-bu tovarlar ko'p miqdorda va faqatgina yagona xo'jalik yurituvchi sub`ekt tomonidan ishlab chiqilganda yoki realizasiya etilgandagina qilingan sarf-xarajatlar qoplanishi mumkin;

-ushbu tovarlarga bo'lgan talab, uning narxini o'zgarishiga uncha bog'liq emas.

Hozirgi paytda tabiiy monopoliya asosan quyidagi sohalarda o'z ifodasini topgan:

-neft`, gaz kondensati, tabiiy gaz va ko'mir qazib chiqarish;

-neft`, neft` mahsulotlari va gazni magistral qu-vurlar orqali uzatish; elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish va uzatish;

-temir yo'llarda yo'lovchi, bagaj va yuk tashish;

-portlar va aeroportlarning xizmatlari;

-hamma uchun mo'ljallangan elektr va pochta aloqasi xizmatlari;

-suv quvurlari va kanalizasiya xo'jaligi xizmatlari.

Tabiiy monopoliya bilan bog'liq huquqiy munosabatlarda ishtirok etadigan sub`ektlar quyidagilardan iborat:

1) tabiiy monopoliya sub`ektlari-tabiiy monopoliya sharoitida tovarlar ishlab chiqarish va realizasiya qilish bilan band bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub`ektlar;

[1] Ызбекистон Республикаси Олий мажлисининг Ахборотномаси, 1999йил, 9-сон, 21-модда

2) iste`molchilar- tabiiy monopoliya sub`ekti ishlab chiqarayotgan tovarni olayotgan fuqarolar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar;

3) davlat va uning vakolatli organlari ular tabiiy monopoliya sub`ektlari bilan iste`molchilarning manfaatlarini mutanosibligini ta`minlab turadi.

Tabiiy monopoliya holatida raqobatni vujudga keltirish ham tabiiy monopoliya sub`ektlari, ham iste`molchilar manfaatlariga ziddir. Buni quyidagilar bilan asoslab berish mumkin:

birinchidan, raqobat tabiiy monopoliya tovarlarini ishlab chiqarish uchun yanada ko'proq mablag' sarflanishiga olib keladi, mazkur xarajatlarni qoplash iqtisodiy jihatdan mumkin emas. Shuning uchun mazkur tovarlar ko'p miqdorda va yagona xo'jalik yurituvchi sub`ekt tomonidan ishlab chiqilishi va realizasiya etilishi lozim. Chunki bunday tovarlarni ko'p miqdorda ishlab chiqarilishi mahsulot birligiga sarflanadigan xarajatlar miqdorini ka-mayishiga olib keladi;

ikkinchidan, xarajatlarning ko'payib ketishi tovar (ish,xizmat)lar narxining qimmatlashuviga olib keladi va mazkur narxlar iste`molchilar uchun maqbul bo'lmaydi. Boshqa tovar(ish,xizmat)lar bilan esa ularning extiyojini qondirishning ilojisi yo'q.

Tabiiy monopoliya sohasida suiste`mollikka yo'l qo'y-maslik uchun, u albatta davlatning alohida nazorati va boshqaruvi ostida bo'ladi. Davlat hamda uning vakolatli organlari tabiiy monopoliya sub`ektlari bilan iste`molchilar o'rtasidagi munosabatlarda har ikkala taraf manfaatlaridagi muvozanatni ta`minlab turadi. Mazkur vazifa quyidagi ikki usul bilan amalga oshiriladi:

birinchisi, tabiiy monopoliyalar sohasida davlat mulkining o'rnatilganligi;

ikkinchisi, tabiiy monopoliya sohalarini bevosta dav-lat tomonidan tartibga solinib turilishligi. Bu bevosita Vazirlar Mahkamasi hamda u vakolat bergan organlar to-monidan amalga oshiriladi.

Tabiiy monopoliya sub`ektlarining faoliyatlari esa **narx** va **narx bilan bog'liq bo'lmagan usullar** yordamida tartibga solinadi.

Narx usulida tabiiy monopoliya tovar (ish,xizmat)-lariga narxlar yoki ularning eng past hamda eng yuqori darajalari davlatning vakolatli organi tomonidan bel-gilab beriladi. Fuqarolik kodeksi normalariga muvofiq shartnomaviy-huquqiy munosabatlarda tovarning narxi taraflarning kelishuviga muvofiq belgilanadi. Biroq mazkur qoidani yuqoridagi sababga ko'ra tabiiy monopoliya tovarlari uchun tuziladigan shartnomalarga tadbiq etib bo'lmaydi. Chunki taraflar vakolatli organ tomonidan bel-gilab qo'yilgan narx yoki narxlar doirasida shartnoma tu-zishga majburlar. Mazkur narxlar tabiiy monopoliya sub`ektlari hamda iste`molchilarning manfaatlaridan kelib chiqqan holda belgilangan bo'ladi. Belgilab qo'yilgan narxdan past narxda shartnoma tuzish tabiiy monopoliya sub`ektlari manfaatlariga zid bo'lsa, yuqori narxda shart-noma tuzish iste`molchilarning manfaatlari uchun ziddir. Shuning uchun ham vakolatli davlat organi har ikkala taraf uchun maqbulroq bo'lgan narxni belgilab beradi.

Narx bilan bog'liq bo'lmagan usulda – vakolatli davlat organi xizmat ko'rsatilishi shart bo'lgan iste`molchilarni aniqlaydi va ularni tabiiy monopoliya sub`ektlari realizasiya qiladigan tovar bilan to'liq hajmda ta`-minlashning imkoni bo'lmagan taqdirda ta`minlashning eng kam darajasini belgilab qo'yadi. Mazkur

holatda davlatning vakolatli organi iste`molchining manfaatlarini ko'zlab harakat qiladi. Chunki tabiiy monopoliya tovar (ish, xiz-mat)larini ishlab chiqarish xajmi cheklangan bo'ladi va shu tufayli barcha iste`molchilarning extiyojini to'liq qon-dirishning imkoniyati mavjud emas. Bunday vaziyatda vako-latli davlat organi mazkur tovar (ish,xizmat)lar bilan ta`minlanishi shart bo'lgan iste`molchilarni aniqlaydi va ular hech bo'lmaganda ushbu tovarlar bilan minimal dara-jada ta`minlanishi kerakligi belgilab qo'yiladi. Bunda mazkur iste`molchilar uchun tovar (ish,xizmat)larni etkazib berishning minimal darajalari (limitlari) belgilab qo'-yiladi. Natijada tabiiy monopoliya sub`ekti mazkur toi-fadagi iste`molchilarga belgilab qo'yilgan limit miqdo-rida tovar (ish,xizmat)larni etkazib berishga majbur bo'-ladi. Etkazib beriladigan tovar hamda ko'rsatiladigan ish va xizmatlarning miqdori mazkur limitlardan kamayib ketmasligi lozim.

Yuqoridagi qoida asosan iste`molchi sifatida xo'jalik yurituvchi sub`ektlarga nisbatan tadbiq etiladi. Shuning uchun ham tabiiy monopoliya sub`ektlari xo'jalik yurituvchi sub`ektlarga elektr energiya, gaz, suv kabilarni vakolatli davlat organi belgilab qo'yilgan limitlarda etkazib beradi. Mazkur limit miqdori shartnomada bevosita aks ettiriladi. Unga ko'ra ta`minotchi iste`molchiga belgilangan limit miqdorida tovar etkazib berish majburiyatini olsa, iste`molchi ana shu limit miqdorida tovarlarni qabul qilib olish huquqiga ega bo'ladi. Shu bilan birgalikda is-te`molchi ham belgilab qo'yilgan limitdan ortiq tovarni iste`mol etishga haqli emas.

Tabiiy monopoliya sub`ektlari faoliyatini tartibga soluvchi vakolatli davlat organlari yuqorida ko'rsatib o'tilgan tartibga solish usullarini qo'llashda ishlab chiqa-rilayotgan tovarlar sifatini oshirish va ularga bo'lgan ta-labni qondirishni rag'batlantiruvchi jihatlarini hisobga olgan holda harakat qilishadi. Eng asosiysi ishlab chiqi-ladigan tovarlar uchun sarflanadigan xarajatlarning asosli ekanligi tahlil etiladi. Bunda bevosita quyida-gilar hisobga olinadi:

-tovarlarni ishlab chiqarish va realizasiya qilish chiqimlari (ya`ni ish haqi, xom ashyo, qo'shimcha xarajatlar va x.k.);

-soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;

-asosiy ishlab chiqarish vositalarining qiymati, amortizasiya ajratmalari hamda investisiyaga bo'lgan ehtiyoj;

-tovarlar turli narxlarda realizasiya qilinishi ehtimolidan kutilayotgan foyda;

-iste`molchilar turli guruhlarining tovarlar ishlab chiqariladigan joydan olisligi;

-ishlab chiqarilayotgan(realizasiya qilinayotgan) tovarlar sifatining iste`molchilar talabiga muvofiqligi;

-davlat dotasiyalari va yordamining zarurligi.

Tabiiy monopoliya sub`ektlarining faoliyati vakolatli davlat organlari tomonidan tartibga solinsa, monopoliyaga qarshi davlat organi tomonidan nazorat ostiga olinadi. Nazorat qilishdan maqsad tabiiy monopoliyalar faoliyati sohasida samarali davlat siyosatini amalga oshirishdir. Aynan mazkur nazorat tabiiy monopoliyalarga oid qonun hujjatlari normalarini buzilishini oldini oladi. Nazorat quyidagi ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:

birinchisi, tabiiy monopoliya tovarlari iste`molchilarining manfaatlarini himoya qilish. Bunda tabiiy monopoliya sub`ektlarini iste`molchilarning manfaatlariga zarar etkazadigan harakatlari(bitimlari) nazorat ostiga olinadi;

ikkinchisi, tabiiy monopoliyalarni monopoliyadan chi-qarishga va bu sohalarda raqobatni rivojlantirishga to’s-qinlik qilayotgan omillarni o’rganib chiqib, bartaraf etish. Bunda ana shu omillarni keltirib chiqarishi mumkin bo’lgan bitimlar nazorat ostiga olinadi.

Yuqoridagi yo’nalishlardan kelib chiqqan holda, monopoliyaga qarshi davlat organi tomonidan quyidagilar nazorat ostiga olinadi:

-tabiiy monopoliya tovarlarini ishlab chiqarish-(realizasiya qilish) bilan bog’liq bo’lmagan asosiy vosi-talarga nisbatan mulk huquqini yoki foydalanish huqu-qini qo’lga kiritadigan bitimlarni, agarda ushbu bitim-larning qiymati tabiiy monopoliya sub`ekti kapital qiymatining 10% dan ortiq bo’lsa. Bunday bitimlarni tuzilishini taqiqlashdan maqsad, tabiiy monopoliya sub`ektini boshqa, ya`ni tabiiy monopoliya sohasiga kirmaydigan tovarlarni ishlab chiqarishiga yo’l qo’ymaslik. Aks holda tabiiy monopoliya tovarlarini ishlab chiqarishga etarli darajada e`tibor qaratilmaydi. Natijada iste`molchilar o’zlari uchun zarur bo’lgan tovarlar bilan etarli darajada ta`minlanmay qolishadi;

-tabiiy monopoliya tovarlarini ishlab chiqarish uchun mo’ljallangan asosiy vositalarning bir qismini boshqa xo’jalik yurituvchi sub`ektga tasarruf etish yoki vaqtincha foydalanish uchun berib qo’yish bilan bog’liq bitimlar tuzilishini, agarda ushbu bitimlarning qiymati tabiiy monopoliya sub`ekti kapitali qiymatining 10% dan oshsa. Ushbu bitimlarni tuzilishini taqiqlashdan maqsad, tabiiy monopoliya tovarlarini ishlab chiqarish uchun mo’ljallangan vositalarni boshqa maqsadda ishlatilishiga yo’l qo’ymaslik. Chunki bu holat ham yuqoridagidek tabiiy monopoliya tovarlarini etarli bo’lmagan miqdorda ishlab chiqilishiga olib kelishi mumkin;

-iste`molchilarga realizasiya qilinadigan tovarlar xajmi bo’yicha shartnomalarga rioya etilishi ustidan. Ma`-lumki tabiiy monopoliya tovarlari taqchil bo’lganligi tufayli barcha iste`molchilarni mazkur tovarlar bilan to’-liq miqdorda ta`minlashning imkoniyati mavjud emas. Shuning uchun vakolatli davlat organi tabiiy monopoliya tovarlari bilan ta`minlanishi shart bo’lgan iste`molchilar ro’yxatini belgilab beradi. Tabiiy monopoliya sub`ektlari mazkur iste`molchilar bilan shartnoma tuzishga majburlar. Agarda tabiiy monopoliya sub`ekti muayyan iste`molchini tovar bilan ta`minlashga imkoniyati yo’qligini isbotlab bersa ham, hech bo’lmaganda belgilab qo’yilgan limit miq-dorida tovar etkazib berishga majbur. Shuningdek tovar-ning miqdori mazkur limitdan kamayib ketmasligi kerak;

-tovarlar narxini chiqarish hamda narxlarni qo’llash tartibiga rioya etish ustidan. Bunda tabiiy monopoliya tovarlariga o’rnatilgan narxlar tabiiy monopoliya sub`ekti bilan iste`molchilarning manfaatlariga mutanosibligi tekshiriladi;

-tabiiy monopoliya sub`ektlarini tashkil etilishi, qayta tashkil etilishi va tugatilishi ustidan. Bunda yangidan tashkil etilayotgan yoki qayta tashkil etilayotgan tabiiy monopoliya sub`ektlari haqiqatdan ham tabiiy monopoliyaga xos tovarlarni ishlab chiqarish uchun ta`sis etilayotganligi tekshiriladi. Agarda u ishlab chiqarmoqchi bo’l-gan tovarlarni raqobat sharoitida ishlab chiqarish imko-niyati mavjud bo’lsa unga tabiiy monopoliyaning huquqiy holati berilmaydi va u davlatning maxsus reestriga kiritilmaydi. Tabiiy monopoliya tovarlarini raqobat sharoitida ishlab chiqarish mumkin bo’lganda yoki ularga bo’lgan extiyoj yo’qolganda yoxud ularni

ishlab chiqarish imkoniyatlari mavjud bo’lmay qolganda(ya`ni neft`, gaz, ko’mir kabi tabiiy resurslarning zahiralari tugaganda) tabiiy monopoliya sub`ektlari tugatiladi.

Tabiiy monopoliya sub`ekti yuqorida aytib o’tilgan asosiy vositalarni tasarruf etish yoki xarid qilish bilan bog’liq bitimlarni tuzishi uchun monopoliyaga qarshi davlat organining roziligini olishi shart. Agarda mazkur bitimlarni tuzilishi salbiy oqibat keltirib chiqarishi mumkin bo’lsa yoki rozilik olish uchun taqdim etilgan huj-jatlar to’liq bo’lmasa, monopoliyaga qarshi davlat organi tomonidan rozilik berilmaydi.

Monopoliyaga qarshi davlat organi tabiiy monopoliya sohasida o’z vazifasini amalga oshirishi uchun quyidagi vakolatlarga ega:

-tabiiy monopoliya sub`ektlarining reestrini yuri-tadi;

-tabiiy monopoliyalar faoliyatini tartibga solish bilan bog’liq qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

-tabiiy monopoliya sub`ektlariga bajarilishi majburiy bo’lgan ko’rsatmalar beradi;

-tabiiy monopoliya sub`ektlariga jarimalar solish to’g’risida qarorlar qabul qiladi;

-mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tabiiy monopoliyaga oid qonun hujjatlariga zid hujjatlar qabul qilinganda, ularni bekor qilish yoki o’zgartirish to’g’risida ko’rsatmalar yuboradi;

-o’z vazifasini bajarishi bilan bog’liq masalalar yuzasidan sudga ariza bilan murojaat etadi.

Demak, tabiiy monopoliya uning iqtisodiy xususiyatlari inobatga olingan holda huquqiy jihatdan tartibga solinishi lozim ekan, aks holda u samarali faoliyat ko’r-satmaydi va natijada iste`molchilar zarur bo’lgan tovar (ish, xizmat)lar bilan ta`minlanmay qoladilar.

Nazorat savollari:

1. Monopolistik faoliyat nima?
2. Ustun mavqe tushunchasini izohlab bering.
3. Monopolistik faoliyat qanday ko’rinishlarda amalga oshiriladi?
4. Tabiiy monopoliyalarga kiruvchi sohalarni sanab o’ting.
5. Monopolistik faoliyat uchun qanday javobgarliklar belgilab qo’yilgan?

11-BOB
XO’JALIK (TADBIRKORLIK) FAOLIYATIGA SOLIQLAR ORQALI TA`SIR QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI

1-§. O’zbekistonda xo’jalik (tadbirkorlik) faoliyatini soliqlar vositasida boshqarish, uning asosiy funksiyalari va tamoyillari

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar olinishi – hozirgi zamon davlatlarining barchasiga xos bo'lgan xususiyatdir. Zeroki, davlatning harbiy-mudofaa, ijtimoiy-iqtisodiy, boshqaruv, madaniy-ma`naviy sohalaridagi faoliyatini moddiy-moliyaviy jihatdan ta`minlash, davlat organlari bir me`yorda ishlashiga erishishning asosiy manbai yuridik hamda jismoniy shaxslardan olinadigan turli-tuman soliqlar, majburiy to'lovlar hisoblanadi. Shu sababli davlat soliq tizimlarini aniq, samarali ish-lashi, soliq to'lovchilarning esa soliq to'lashga oid kon-stitusiyaviy majburiyatlarini o'z vaqtida, to'liq bajarishlari mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy taraq-qiyotiga ijobiy ta`sir ko'rsatuvchi qudratli omillardan sanaladi. Davlatning harbiy-mudofaa, iqtisodiy, ijti-moiy va boshqa dasturlarini muvaffaqiyatli bajarilishi, aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilinishi, madaniyat, fan va texnika taraqqiyotini ta`minlanishi ko'p jihatdan joriy etilgan soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida, to'la hajmda davlat xazinasiga kelib tushishiga, davlat byudjeti daromad qismining ijro etilishiga bog'-liqdir.

Ushbu vazifalarni bajarilishida xo'jalik sub`ekti bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar etakchi o'rinda turadi. 2003 yilda bilvosita soliqlar tushumlari 1 trillion 367,5 mlrd so'mni tashkil etib, ular byudjet daromadlarining 59 foizdan ortiqrog'ini ta`minlashi kerak. Kelgusi yilda resurs soliqlari jami byudjet daromadlaridagi ulushi 9,1 foizni tashkil etishi nazarda tutilmoqda.[61]

Soliq - yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibda, qaytarib berilmaslik sharti bilan o'zlariga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan yoki operativ boshqa-ruvlarida, xo'jalik yuritishlarida bo'lgan mablag'larni (pul shaklidagi) qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan miq-dorda, muddatlarda va tartibda davlat byudjetiga majburiy tarzda to'lab turiladigan summadan iborat.

Majburiy to'lovlar – bu yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan majburiy tartibda to'lanishi lozim bo'lgan pul summasi bo'lib hisoblanadi. Soliq sohasidagi huquqiy siyosat fiskal (davlat xazinasini to'ldirish) maqsadidan boshqa bir qator iqtisodiy, siyosiy, huquqiy funksiyalarni ham ko'zlaydi. Soliqlar vositasida iqti-sodiyotni rag'batlantirish, cheklash, tartibga solish, nazorat qilish, boshqarish kabi funksiyalar bajariladi.

Soliqlarning rag'batlantirish funksiyasi iqtiso-diyotning muayyan sektorlarini ustuvor rivojlantirish maqsadga muvofiq, deb topilganida amalga oshiriladi. Masalan, mamlakatga chet el investisiyasini kengroq jalb etish maqsadida qo'shma korxonalarda chet ellik sheriklar hissasi ko'proq bo'lishi rag'batlantiriladi va bu ko'rsat-kichning ortishi soliq imtiyozini kengayishiga sabab bo'la-di. Yoki bo'lmasa xo'jalik yurituvchi sub`ekt o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni qanchalik ko'proq eksportga yo'naltirsa, shunchalik ko'proq soliq imtiyozlaridan foydalanish imkoniga ega bo'ladi va boshqalar.

Soliqlarni cheklash funksiyasi mahsulotlar va xizmatlarning muayyan turlarini vaqtincha kamaytirish, ushbu sektordagi moddiy, moliyaviy va boshqa resurslarni boshqa yo'nalishga burish ehtiyoji tug'ilganida iqtisodiyot tar-moqlarida

[61] Хал= сызи. 2002 йил 25 декабр. № 279.

tarkibiy o’zgarishlarni amalga oshirishning iqtisodiy usuli sifatida qo’llaniladi. Masalan, chakana savdo-sotiqni juda ham keng yoyilishi va ayni paytda ishlab chiqarish tarmoqlaridagi turg’unlik, moddiy ishlab chiqarishni yanada avj oldirish zarurati tovar bozorlarida muayyan cheklashlar qo’llanilishiga, soliqlar miqdorini u erda sezilarli ko’paytirilishiga sabab bo’ldi.

Soliqlar tartibga solish funksiyasini ham bajaradi. Soliqqa oid qonun hujjatlarida tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan soliq solish ob`ektlari sanaluvchi moliyaviy va boshqa operasiyalarni hisob-kitobini yuritish, hisobotlar taqdim etish, soliqlarni to’lash tartiblarini belgilab beriladi. Soliqlarning asosiy funksiyalaridan biri ***nazorat qilish funksiyasi*** sanaladi. Xo’jalik yurituvchi sub`ektlar tomonidan xo’jalik faoliyatini, soliqqa tortiladigan ob`ektlarni to’g’ri va to’liq hisobga olib borilishi, tegishli soliqlar hamda boshqa majburiy to’lovlarni o’z vaqtida, to’la hajmda byudjetga to’lanishi davlat soliq xizmati organlari tomonidan qonun huj-jatlarida belgilangan tartibda nazorat qilib boriladi.

Soliqlar boshqarish funksiyasini ham bajaradi. Bu funksiyani ro’yobga chiqishi muayyan tuman (shahar), viloyat, butun mamlakat miqyosida davlat byudjeti daromad qismi ijrosini tashkil etish, turli soliqlar va majburiy to’lovlarni byudjetga kelib tushishini boshqarish, ushbu jarayonni umumlashtirish, tahlil qilish, zarur hollarda tegishli usullar hamda vositalar bilan unga ta`sir qilish chog’ida ko’zga tashlanadi.

Soliqlar xazinani to’ldirish (fiskal), rag’batlan-tirish, tartibga solish, nazorat qilish vositasi sifatida qo’llanilar ekan, muayyan tamoyillarga tayanilgan holda qo’llaniladi. Soliqqa oid munosabatlarda quyidagi tamo-yillarga amal qilinadi:

1. Soliqlarning umumiyligi, ya`ni bir xil iqtisodiy va yuridik statusga ega bo’lgan xo’jalik sub`ektlari umumiy asoslarda soliqqa tortiladilar, ularga imtiyozlar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar va tartiblardagina berilishi mumkin;

2. Soliqlarni qonun asosida va oshkora tarzda joriy etilishi. O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 5-moddasiga muvofiq O’zbekiston Respublikasida soliqlar va yig’imlar O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan belgilanadi. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi vakolat bergan hollarda soliqlarning ayrim turlari O’zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan ham belgilanishi mumkin.

Soliq turi, uning miqdori, to’lovchilari, to’lanish tartibi oshkora tarzda oldindan belgilanganligi, bu sohada o’zboshimchaliklarga yo’l qo’yilmasligi, soliq demokratiz-mining eng muhim kafolatlaridan bo’lib hisoblanadi;

3. Soliq to’lovchi tadbirkorlik sub`ektining xo’jalik mustaqilligiga ega ekanligi, soliq summasini hech kimning aralashuvisiz erkin ravishda hisoblab chiqishi, byudjetga to’lashi, uning soliq sohasidagi ichki ishlariga hech kimni aralashuviga yo’l qo’yilmasligi;

4. Soliqlarni joriy etish faoliyati bilan soliqlarni to’plash faoliyatini bir-biridan qat`iy ajratilganligi. Ya`ni soliqlar davlat qonunchilik hokimiyati organlari tomonidan o’rnatilishi, soliqlarni to’plash (soliqqa oid qonunlarning ijrosini ta`minlash) ijroiya organlar tomonidan amalga oshirilishi va bu davlat organlarining bir-birlarining ishlariga aralashmasliklari;

5. Soliqlar joriy etilishi, soliq qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazoratning amalga oshirilishi;

6. Soliqlar to’lanishining, soliqqa oid qonun hujjatlari buzilishi uchun javobgarlikning muqarrarligi;

7. Soliqlardan tadbirkorlikni, iqtisodiyotni rag’bat-lantiruvchi vosita sifatida keng foydalanilishi. Bulardan tashqari, soliq munosabatlarida demokratizm, insonparvarlik, qonuniylik, ijtimoiy adolatni qaror toptiri-lishi kabi umumhuquqiy tamoyillar ham to’la amal qi-ladi.

2-§. Xo’jalik faoliyatiga soliqlar orqali ta`sir etish maqsadi, tushunchasi va vositalari

Mamlakat iqtisodiy hayoti va xo’jalik faoliyatiga davlat yo’li bilan ta`sir etishning eng samarali usullaridan biri – soliqlar orqali boshqarishdir. Davlat xo’jalik-tadbirkorlik faoliyatiga ta`sir o’tkazish chog’ida ishlab chiqarishni rag’batlantirish, fiskal maqsadlarga erishish, qonunlar bilan belgilab qo’yilgan tartib qoi-dalarga rioya etilishini nazorat qilishga intiladi.

Davlatning ixtiyoridagi iqtisodiy hamda huquqiy mexanizm sifatida soliqlar orqali tartibga solish o’ziga xos belgilar hamda xususiyatlarga ega. Bunda eng avvalo soliqlarning majburiyligi, ya`ni xo’jalik sub`ekti davlatga itoat etishi lozim ekanligi va u soliq to’lash-to’lamaslik masalasini o’z xoxishiga ko’ra hal qilaolmasligi nazarda tutilmog’i lozim. Tadbirkor muayyan xususiyatlarga ega bo’lgan chog’dan boshlab (masalan, daromad (foyda) olishi, mulkka ega bo’lishi, erga egalik qilishi va boshqalar) o’z-o’zidan (avtomatik tarzda) soliq to’lovchiga aylanadi hamda soliq yuzasidan tegishli majburiyatlarga ega bo’lib qoladi.

Soliqlarning yana bir belgisi – soliqlar evaziga hech bir haq yoki imtiyoz berish ko’zda tutilmaganligidir. Davlat butun jamiyatning hayot faoliyatini moliyaviy jihatdan ta`minlar ekan, soliq to’lovchiga bevosita u to’lagan soliq evaziga biron-bir tarzda haq to’lash yoki qandaydir xizmat ko’rsatish majburiyatini o’zining zimmasiga olmaydi.

Soliqlar qaytarib olinmaslik sharti bilan soliq to’lovchilar tomonidan to’lanishi, ya`ni xo’jalik sub`ektlaridan to’plangan soliqlar shaxsi noma`lumlashtirilgani holda davlat xazinasiga, uning mutlaq egaligiga o’tadi, uni kelgusida qaytarib berilishi yoki qandaydir tarzda kompensasiya qilinishi ehtimoli mavjud bo’lmaydi.

Soliqlar ma`muriy yoki jinoiy tartibda qo’lla-niladigan jarimalardan, yuridik shaxslarga nisbatan qo’l-laniladigan iqtisodiy (moliyaviy) choralardan farq qilib, jazo bo’lib hisoblanmaydi va sodir etilgan huquqbuzarlik xatti-harakati uchun javobgarlik chorasi emas. Soliqlar bu – xo’jalik faoliyati olib borilganligi uchun xo’jalik sub`ektlari tomonidan davlat foydasiga amalga oshiri-ladigan to’lovdan iboratdir.

Xo’jalik sub`ektlariga soliqlar orqali ta`sir o’tkazish mulkni uning egasidan davlat foydasiga olishning alohida usuli sifatida xo’jalik sub`ekti tomonidan markaziy yoki mahalliy byudjetga pul shaklida to’lovlar to’lashi tarzida amalga oshiriladi.

O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 9-mod-dasiga ko’ra: «O’zbekiston Respublikasi hududida soliqlar va yig’imlar O’zbekiston Respublikasining pul birligi – so’mda hisoblab chiqariladi».

Xo’jalik faoliyatiga soliqlar orqali ta`sir qilish o’z ichiga tartibga solish hamda nazoratni ham qamrab oladi. Tartibga solish qonunchilik sohasiga taalluqli bo’lib, O’zbekistonda soliq masalalariga oid qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining ko’p sonli tizimi mavjud. Ulardan eng muhimlari qatoriga O’zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi[62], «Davlat soliq xizmati to’g’risida»gi[63] qonun, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon-lari[64], O’zbekiston Hukumati qarorlari[65], idoraviy me`yoriy hujjatlar[66] va boshqalar kiritilishi mumkin.

Xo’jalik faoliyatiga soliqlar vositasida ta`sir o’t-kazishni huquqiy tartibga solish ikki guruhni qamrab ol-uvchi yagona tizimdan iborat.

Birinchi guruhga O’zbekiston Respublikasida soliq va soliqqa tortishning umumiy qoidalariga, soliq tizimi, uning elementlari, soliq organlari, soliq to’lovchilar hamda ularning soliq munosabatlaridagi mavqeiga (huqu-qlari, majburiyatlari, javobgarliklari) va boshqa masa-lalarga taalluqli tushinchalar, prinsiplarni nazarda tu-tuvchi normalar kiritilgan.

Ikkinchi guruh esa respublika va markaziy soliq-larning ayrim turlarini joriy etilishi, hisoblab chiqa-rilishi, to’lanishi, ular yuzasidan imtiyozlar va boshqa masalalarni aks ettiruvchi qoidalarni nazarda tutadi.

O’zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi amalga kiritilgunga qadar (1998 yil 1 yanvargacha) bir qator so-liqqa oid qonunlar mavjud edi va ular vositasida so-liqlarning ayrim turlarini hisoblab chiqish, to’lash tar-tiblari, soliqqa tortishga oid boshqa munosabatlar tar-tibga solinar edi[67].

Bugungi kunda soliq va soliqqa tortish masalasiga oid o’nlab yo’riqnomalar, yuzlab xat, tushintirish, ko’rsatmalar, o’nlab farmonlar va qarorlar qabul qilingan bo’lib, ular yordamida soliqqa tortishning turli masalalari huquqiy jihatdan tartibga solib kelinmoqda. Ayrim hollarda yo’-riqnoma xususiyatiga ega bo’lgan normativ-huquqiy huj-jatlarni O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga, Soliq kodeksi va boshqa qonunlarga zid tarzda qabul qilish hol-lari mavjud[68]. Bunday hol mamlakat iqtisodiy taraq-qiyotiga soliqlar orqali ta`sir o’tkazish samaradorligini pasayishiga, qonuniylik, ijtimoiy adolat prinsiplarini buzilishiga olib kelishi mumkin.

Davlat soliqlar orqali iqtisodiyotga, xo’jalik yurituvchi sub`ektlarning tadbirkorlik faoliyatiga ta`sir o’tkazishni amalga oshirar ekan, bir necha muhim vazifalarni ko’zlagani holda harakat qiladi. Bulardan eng muhim va bosh vazifa– byudjetni mablag’ bilan to’ldirish–fiskal maq-saddir. Davlat soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarni byudjetga jalb etar ekan, o’zining boshqa yo’nalishlardagi –

---

[62] Ызбекистон Республикасининг Соли= Кодекси.-Т., «Адолат», 1999.

[63] Ызбекистон Республикасининг Янги +онунлари, №17.-Т., «Адолат»,1998.

[64] Масалан: Ызбекистон Республикаси Президентининг 1999 йил 26 июлдаги «Давлат бюджетига соли=лар ва тыловлар быйича имтиёзлар беришни тартибга солиш ты\рисида»ги Фармони.

[65] Ызбекистон Республикаси Щукуматининг 2001 йил 31 декабрдаги 490-сонли «Давлат бюджети параметрлари ты\рисида»ги +арори.

[66] ЫзР Адлия вазирлигида 2002 йил 2 мартда 1109-сон билан рыйхатга олинган «Юридик шахслар даромадлари (фойдаси)дан бюджетга соли=ни щисоблаб чи=иш ва тылаш тартиби ты\рисидаги Йыри=нома».

[67] Жумладан, =аранг: «Корхоналар, бирлашмалар ва ташкилотлардан олинадиган соли=лар ты\рисида»ги =онун ва бош=алар. Батафсилро=, =аралсин: Й.Турсунов. «Соли=лар ща=ида нималарни биласиз?» – Т., «Ызбекистон», 1993 йил.

[68] +аранг: Ызбекистон Республикаси Конституциявий судининг 2001 йил 10 октябрдаги «Ызбекистон Республикаси Соли= Кодексининг 59-моддасини шархлаш ты\рисида»ги тыхтами. Ызбекистон Республикаси +онун щужжатлари тыплами. 2001 йил, 19-сон.

mudofaa, xavfsizlikni ta`minlash, ijtimoiy sohani va boshqa yo'nalishlardagi faoliyatini moliyaviy mablag' bilan ta`minlashga erishadi, to'lov qobiliyatini zarur darajada saqlab turadi.

Tartibga solishga qaratilgan vazifaning bajaralishi soliq yukini to'lovchilar o'rtasida adolatli tarzda taq-simlash, shu yul bilan u yoki bu tarmoq yoki regionni ri-vojlantirilishi uchun sharoit yaratish, tadbirkorlarning u yoki bu guruhini qo'llab-quvvatlash maqsadlarini ko'zlaydi. Soliqlar sohasida imtiyozlar yoki cheklashlar shaklidagi muruvvatlardan oqilona foydalangani holda xo'jalik fao-liyatining ayrim turlari uchun qulay iqtisodiy sharoitlar yaratadi yoki uning muayyan turlari sur`atini pasaytirishga harakat qiladi.

O'zbekistonda soliqlar orqali iqtisodiy hayotga ta`sir o'tkazish paytida davlat manfaatlarini ayrim shaxs, butun jamiyat manfaatlaridan ustunligi prinsipiga amal qili-nadi, davlat jamiyat imkoniyatlaridan o'zining maqsad-lari yo'lida foydalanadi. Biroq, bugungi kunda bu prin-sipga asoslanuvchi munosabatlarga barham berish, davlat va jamiyat, davlat va ayrim shaxs manfaatlarini o'zaro uyg'un-lashtirish, bu manfaatlar o'rtasida antogonizm bo'lishiga yo'l qo'ymaslik dolzarb vazifalardan biriga aylanib bor-moqda. Chunki ayrim shaxs, butun jamiyat manfaatlari, im-koniyatlari hisobga olinmaydigan soliq siyosati oxir oqi-batda sosial portlashlar, ijtimoiy nobarqarorlik xavf-xatarini yuzaga keltirishi aniq. Hozirgi zamon taraqqiyoti davlatning jamiyat va shaxs manfaatlariga zid keluvchi o'zga manfaatlari bo'lishi mumkinligini taqozo etmaydi. Davlat jamiyatga zarur bo'lganligi uchungina va shu sababli jamiyat davlat qo'lida qurol bo'lib xizmat qilishi emas, aksincha, u jamiyat oldida turgan global vazifalarni bajarish quroli bo'lib xizmat qilishi lozim. Ushbu prinsiplar ro'yobga chi-qarilgan taqdirdagina normal soliq munosabatlari vujudga kelishi mumkin.

Davlat soliqlar orqali xo'jalik faoliyatiga ta`sir o'tkazish chog'ida xususiy mulk muqaddas va daxlsiz ekanligini diqqat markazida saqlashi kerak. Xo'jalik faoliyatiga soliqlar orqali ta`sir qilish bu jarayonni tartibga solish hamda nazorat qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Xo'-jalik faoliyatiga soliq yo'li bilan ta`sir qilish qo-nunchilik richaglaridan foydalanilgani holda amalga oshi-riladi. Bu jarayonni qonunchilik yo'li bilan tartibga so-lish ijroiya organlari tomonidan nazorat qilish yo'li bi-lan amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchilarga ta`sir o'tkazishning eng samarali vositalaridan biri– tekshirishdir. Tekshirishlar uch bos-qichda amalga oshirilishi belgilangan. Birinchi bosqichda soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan hisobotlar hamda hujjatlarni o'rganish – tahlil qilish orqali tekshirib chiqiladi.

Tekshirishning ikkinchi bosqichida avval to'langan so-liqlar, ular yuzasidan hisobotlar tekshiriladi. Bunda to'-langan soliqlar bilan hujjatlar o'zaro solishtiriladi, tahlil etiladi.

Tekshirishning uchinchi bosqichida soliq xizmati organi xodimlari joyga (tegishli korxona, tashkilotga) chiqib, ahvolni o'rganish, ko'zdan kechirish, hujjatlarni o'rganish ishlarini amalga oshiradi.

Keyingi yillarda xo'jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatini tekshirish ishlarini tartibga solishga qaratilgan jiddiy choralar ko'rildi va bunda davlat tekshiruvchi or-ganlari, shu jumladan soliq organlari tomonidan tekshirishlar amalga oshirilish

paytida suiiste`molliklarga yo'l qo'ymaslik, tadbirkorlar huquqlarini buzilishi oldini olish nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrdagi «Xo'jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»gi qonunida tekshirishlarning asosiy prinsiplari, tekshirishlarga qo'yiladigan talablar belgilab berildi.

Mazkur qonunning 4-moddasida xo'jalik faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish shakllari ko'rsatib qo'-yilgan. qonunning 9-moddasida esa korxonalarni tek-shirish o'tkazilishidan avval vakolatli muvofiqlashtiruvchi organdan ruxsat olinishi kerakligi aytilgan.

Xo'jalik sub`ektlariga soliqlar orqali ta`sir etish soliqlar, majburiy to'lovlar olish yo'li bilan ham amalga oshiriladi.

Soliq muayyan tarkibiy elementlarni o'z ichiga oluvchi murakkab huquqiy-iqtisodiy konstruksiyadir. Soliq ele-mentlari bo'lib quyidagilar sanaladi:

a) soliq ob`ekti;
b) soliq solish predmeti;
v) soliqqa tortish bazasi;
g) soliq manbai;
d) soliq solish birligi;
e) soliq stavkasi;
j) soliqqa tortish davri;
z) soliq to'lash muddatlari;
i) soliq to'lovchilar.

***Soliq solish ob`ekti*** – soliqqa tortish predmeti yuzasidan soliq munosabatlari sub`ektlari o'rtasidagi yuridik aloqalardan iborat. Soliq solish ob`ekti bo'lib mulkka nisbatan bo'lgan huquq, foyda, mahsulotning qiy-mati va boshqalar hisoblanadi.

Soliqqa tortish predmeti deganda, soliq to'lovchida bo'lgan muayyan huquqlar (mulkka, tovarga va boshqalar) tushuniladi.

Soliq solish bazasi bo'lib, soliqqa tortish pred-metining miqdor ko'rsatkichi, soliq solish uchun hisoblab chiqilgan ko'rsatkich hisoblanadi.

Soliq manbai – soliq to'lanadigan mulkdan iborat. Ular foyda va kapitaldir.

Soliq solish birligi soliqqa tortish paytida soliq solish bazasini aniqlashga xizmat qiluvchi moddiy ko'rsatkichlardan iborat.

Soliq stavkasi bo'lib muayyan foizlarda, aniq sum-malarda yoki boshqa ko'rsatkichlarda qonun bilan belgilangan soliq solish bazasiga nisbatan miqdordagi ko'rsatkich sanaladi.

Soliqqa tortish davri – soliq majburiyati yuzaga keladigan vaqt bo'lagidan iborat. Soliqqa tortish davri yil, yil choragi kabilardan iborat bo'lishi mumkin.

Soliq to'lash muddati deganda, soliq to'lovchi maj-buriyatini bajarishi va tegishli byudjetga soliq to'lashi lozim bo'lgan vaqt tushuniladi.

3-§. Xo'jalik faoliyatini soliqlar orqali tartibga solish yuzasidan huquqiy munosabatlar

Davlat soliqlardan foydalangani holda xo'jalik sub`ektlari faoliyatini huquqiy tartibga solar ekan, muayyan huquqiy munosabatlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bu munosabat yuridik munosabatlar bo'lib, soliqlar, boshqa majburiy to'lovlarni undirish chog'ida, ularning hisoblab chiqish, to'lash, bu faoliyat ustidan nazorat olib borish cho-g'idagi aloqalarni huquqiy boshqarish bilan bog'liq ravishda yuz beruvchi ijtimoiy aloqalardan iboratdir.

Soliqlar orqali xo'jalik faoliyatiga ta`sir o'tkazishga oid huquqiy munosabatlar ob`ektlari bo'lib soliq to'lovchilarning mulkiy yoki boshqa huquqlari, soliqqa oid majburiyatlari hisoblanadi. Bunday huquqiy munosabat sub`ektlari, bu – davlat soliq xizmati idoralari, ularning mansabdor shaxslari bir tomondan va soliq to'lovchi yuridik shaxslar, boshqa tadbirkorlar ikkinchi tomondan hisoblanadi. Soliqqa oid munosabat sub`ektlarining sub`ektiv huquqlari va majburiyatlari uning mazmunini tashkil qiladi.

Soliqlar orqali xo'jalik faoliyatini boshqarish munosabatlarida davlat nomidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va uning joylardagi organlari[69], O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi qoshidagi Soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti[70] qatnashadi. Bunday munosabatlarning ikkinchi tomoni har doim jismoniy va yuridik shaxslar - soliq to'lovchilardan iborat bo'ladi. Korxona va tashkilotlar (tijoratchi va tijoratchi bo'lmagan) o'zlari bilan mehnat munosabatida bo'lib turgan xodimlari, qimmatli qog'ozlar dividentlarini olayotgan jismoniy va yuridik shaxslarga to'lovlardan tegishli soliqlarni ushlab qolish, ularni byudjetga o'tkazish paytida fiskal agentlar sifatida ish yuritadilar, o'zga shaxs-larning daromadlaridan soliqlarni undiradilar va undi-rilgan summalarni byudjetga o'tkazadilar.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish, soliqlarni hisoblab chiqish, undirish, soliq qonunchiligiga amal qilinishini nazorat qilish sohasidagi yagona davlat organ-lari tizimini o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Toshkent shahri, qoraqalpog'iston Respublikasidagi Bosh boshqarmalari, viloyatlardagi davlat soliq boshqarmalari, tumanlar, shaharlar, shaharlardagi tumanlarda davlat soliq inspeksiyalari yagona soliq tizimini tashkil etadi.

Davlat Soliq qo'mitasi va boshqa davlat soliq xizmati organlariga o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun zarur hajmda huquqlar hamda vakolatlar berib qo'-yilgan, tegishli majburiyatlar ham yuklatilgan. «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonunning 5-moddasiga muvofiq Davlat soliq xizmati organlariga quyidagi huquqlar berilgan:

1) Soliq to'lovchilarning (shu jumladan, soliq to'lovchi bilan bog'liq bo'lgan sub`ektlarning) moliyaviy hujjatlari, shartnomalari (kontraktlari), rejalari, smetalari, daromadlar haqidagi deklarasiyalari va soliqlarni hisoblab chiqarish hamda to'lash bilan bog'liq boshqa hujjatlarini, shuningdek eksport-import operasiyalari bilan

---

[69] +аранг: Ызбекистон Республикаси Давлат соли= хизмати ты\рисидаги +онун. Ызбекистоннинг янги =онунлари, №17, «Адолат», 1998, 64-бет.

[70] +аранг: Ызбекистон Республикаси Вазирлар Мащкамасининг 2001 йил 6 июлдаги 291-сон «И=тисодиёт ва соли= сощасидаги жиноятларга =арши курашишни кучайтириш чора-тадбирлари ты\рисида»ги +арори.

bog’liq hujjatlarini tekshirish, tekshiruv vaqtida yuzaga keladigan masalalar bo’yicha axborotlar olish;

2) Yuridik va jismoniy shaxslardan soliq to’lovchi-larning faoliyatiga taalluqli axborotlar, ma`lumotno-malar, hujjatlar va ularning nusxalarini olish;

3) Belgilangan tartibda:

soliq to’g’risidagi qonun hujjatlarining buzilishiga yo’l qo’yayotgan yuridik va jismoniy shaxslardan daromadni (foydani) va soliqqa tortiladigan boshqa ob`ektlar yashirilganligidan dalolat beruvchi hujjatlarni, shuningdek huquqbuzarlik predmetlarini olib qo’yish;

tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanish tartibini buzayotgan jismoniy shaxslardan lisenziyalarini, patentlarini yoki ro’yxatdan o’tganlik to’g’risidagi guvohnomalarini olib qo’yib, so’ngra qonun buzilganlikka oid materiallarni guvohnomani bergan organga topshirish;

4) Kassalarni va tovar-moddiy boyliklar hamda hujjatlar saqlanadigan joylarni muhrlab qo’yish, tovarlar, buyumlar, materiallar, hujjatlarni olib qo’yish, ekspertizaga yuborish;

5)Savdo qoidalariga, tovarlarni berish va xizmat ko’rsatish qoidalariga rioya qilinishini tekshirish;

6) Yuridik va jismoniy shaxslar ombori, binolari, joylarni tekshirish, o’lchash ishlarini amalga oshirish;

7) Yuridik va jismoniy shaxslardan qonun buzishlikni bartaraf etishini talab qilish;

8) Yuridik va tadbirkor jismoniy shaxslarning bank-dagi operasiyalarini to’xtatib qo’yish;

9) Soliqqa oid ishlarni ko’rib chiqish va moliyaviy hamda ma`muriy jazo choralarini qo’llash;

10) Tovar-moddiy boyliklarni belgilangan tartibda musodara qilish;

11) Soliq va majburiy to’lovlar yuzasidan boqiman-dalarni so’zsiz undirib olish;

12) Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan g’ayri-qonuniy ravishda qo’lga kiritilgan mulk va boshqa boy-liklarni davlat foydasiga undirish to’g’risida sudda da`vo qo’zg’ash;

13) Tekshirishlarni muvofiqlashtirish, ularni to’xtatish haqida qaror qabul qilish.

Davlat soliq xizmati organlari quyidagi majburiyatlarni ado etishlari lozim:

- soliq qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qi-lishlari;

- yuridik va jismoniy shaxslar huquqlari va boshqa qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

-soliqlarni o’z vaqtida hisobga olinishini, tad-birkorlik faoliyati bilan shug’ullanishning qonuniyligi ustidan nazorat olib borishi;

-boshqa majburiyatlarni bajarishlari lozim.

O’zbekiston Respublikasi Prokuraturasi huzuridagi Soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti soliq sohasidagi huquqiy munosabatlarning sub`ektlaridan bo’lib hisoblanadi.

Ushbu departament va uning joylardagi organlari hu-quqiy maqomi (huquqlari, vakolatlari, majburiyatlari) O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 6 iyuldagi 291-son qarori bilan tasdiqlangan «O’zbekiston Respublikasi Prokuraturasi huzuridagi Soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti to’g’risidagi Nizom»da belgilangan. Ushbu Nizomga ko’ra ularga quyidagi huquqlar beriladi:

-davlat soliq xizmati organlari, soliq to’lovchilarning hujjatlari bilan tanishishlari;

-soliq organlari va boshqa organlar huquqbuzarlik faktini yashiryapti, deb hisoblaganlari taqdirda takroriy tekshirishlar o’tkazishlari;

-soliqqa oid jinoyatlar to’g’risidagi ishlar bo’yicha surishtiruv tekshirishlarini o’tkazish;

-O’zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqa-rolari, fuqaroligi yuq shaxslarni tushintirish berish uchun taklif qilish;

-fuqarolar va mansabdor shaxslar jinoyat sodir etganligi haqida ishonchli ma`lumotlar bo’lganida ularni ushlab turish;

-qonun hujjatlarida nazarda tutitlgan boshqa hu-quqlardan va vakolatlardan foydalanadilar.

Ularga vazifalarini bajarishlari yuzasidan muayyan majburiyatlar ham yuklatilgan va bu majburiyatlar ham Nizomda ko’zda tutilgan. Xo’jalik faoliyatini soliqlar orqali boshqarish paytidagi munosabatlarning eng ko’p sonli ishtirokchilari, bu–soliq to’lovchi hisoblanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan iboratdir. Ularda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan muayyan holatlar bilan bog’liq ravishda soliq to’lash majburiyati yuzaga keladi va bu majburiyatni yuzaga kelishi yuridik shaxsni Davlat Soliq inspeksiyasida soliq to’lovchi sifatida hisobga olinganligi, ro’yxatdan o’tkazilganligi bilan bog’lanmagan. Ya`ni tadbirkorlik sub`ektini soliq idorasida hisobda turmaganligi yoki shunday hisobda turishdan bo’yin tovlashi uni soliq to’lash majburiyatidan ozod qilmaydi.

Yuridik va jismoniy shaxs soliq to’lovchi sifatida muayyan huquqiy maqomga (statusga) ega. Bu status o’z ichiga asosan soliq to’lovchining majburiyatlarini oladi.

O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 12-moddasida soliq to’lovchining majburiyatlari ko’rsatilgan, bu majburiyatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) Belgilangan tartibda va muddatlarda soliq organ-larida ro’yxatdan o’tish, yuridik manzili o’zgargan, qayta ro’yxatdan o’tgan taqdirda o’n kunlik muddat ichida xabar berishi;

2) Soliq va yig’imlarni o’z vaqtida va to’liq to’lashi;

3) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgal-teriya hisoblari va hisobotlarini yuritish;

4) Moliyaviy va boshqa hisobotlarni o’z vaqtida soliq organlariga topshirishi;

5) Soliqlar va yig’imlarga oid hujjatlarni soliq organlariga taqdim etishi;

6) Soliq organlariga bino va inshootlarni ko’rsatishi;

7) Soliq qonunchiligini buzilish holatini bartaraf qilish to’g’risidagi soliq organi mansabdor shaxsi talablarini bajarishi lozim.

4-§. Soliqqa oid huquqbuzarlik va uning uchun javobgarlik

Soliqqa oid munosabatlarda javobgarlik deganda, soliq to'lovchi yuridik yoki jismoniy shaxsning soliq qonunchiligi talablarini o'zlarining aybli, huquqqa xilof xatti-harakatlari (harakat yoki harakatsizlik) tufayli buzganliklari uchun qo'llaniladigan davlat majburlov cho-ralari nazarda tutiladi.

Soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik asosi – bu huquqbuzarlik tarkibidir. Bu tarkib o'z ichiga huquq-buzarlik ob`ekti, ob`ektiv tomoni, sub`ekti, sub`ektiv tomonlarini oladi.

**Huquqbuzarlik ob`ekti -** qonun bilan muhofaza eti-ladigan ijtimoiy munosabatlardan iborat. Soliqqa tortish tizimlari amal qiladigan sohada yuzaga keluvchi huquqiy munosabatlar soliqqa oid huquqiy munosabat ob`ekti sa-naladi.

Soliqqa oid munosabatlarda huquqbuzarlikning ob`ektiv tomoni bo'lib soliq to'lovchining aniq hatti-harakatlarida ifodalanuvchi huquqbuzarlik sanaladi. Huquq-buzarlik sodir etilgan joy, vaqt, holatlar ham ob`ektiv tomonni aks ettiruvchi xususiyatlar hisoblanadi.

**Huquqbuzarlik sub`ekti –** bu soliq sohasida huquq-buzarlik sodir etgan va o'z xatti-harakatlari uchun javob bera oladigan yuridik yoki jismoniy shaxsdir. Bunda jismoniy shaxs tegishli javobgarlikka tortilish yoshiga etgan bo'lishi (masalan, ma`muriy javobgarlikka tortish 16 yoshga to'lgan bo'lishi) lozim. Korxona, tashkilot esa odatda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lishi kerak.

Soliqqa oid huquqbuzarliklarning sub`ekt nuqtai nazaridan olgandagi o'ziga xos jihati shundan iboratki, ularda bitta huquqbuzarlikdan ikki shaxs javobgarligi yuzaga kelishi mumkin. Masalan, korxona daromadlarining yashirilganligi ayni ushbu g'ayriqonuniy harakat uchun yuridik shaxsga iqtisodiy javobgarlikni, korxonaning mansabdor shaxslariga nisbatan esa huquqiy, (ma`muriy yoki jinoiy) javobgarlikni qo'llanilishiga olib kelishi mumkin.

Soliqqa oid huquqbuzarlikning sub`ektiv tomoni bo'lib, bunda g'ayriqonuniy harakatni sodir etgan shaxsni o'z xatti-harakatiga ruhiy munosabati, aybi (qasd yoki ehtiyotsizligi) hisoblanadi. Jismoniy shaxs (aytaylik korxona rahbari)ning ehtiyotsizligi, qonunlarni yaxshi bilmasligi tufayli huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda ham nafaqat jismoniy shaxs, balki korxona (yuridik shaxs) ham javobgarlikka tortiladi.

Ushbu yuridik tarkib mavjud bo'lgandagina soliqqa oid javobgarlik yuz berishi mumkin. Soliqqa oid huquq-buzarliklar uchun ikki shakldagi javobgarlik yuz berishi mumkin. Ular: 1) jismoniy shaxslarning huquqiy javob-garligi; 2) yuridik shaxslarning iqtisodiy (moliyaviy) javobgarligidan iborat.

Soliq to'lovchi tomonidan ortiqcha to'langan summa belgilangan tartib va muddatlarda unga qaytarilishi yoki kelgusi soliqlar hisobiga o'tkazilishi mumkin.

Soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarga nisbatan javobgarlik choralari haqida Soliq kodeksining 132-moddasida aytilgan. Unda jismoniy shaxslar va korxonalarning mansabdor shaxslari ma`muriy-huquqiy, ji-noiy, fuqarolik-huquqiy, mulkiy javobgarlikka, man-sabdor shaxslar esa shuningdek, intizomiy javobgarlikka tortilishlari mumkinligi nazarda tutilgan.

Soliq to’lovchilarga nisbatan qo’llaniladigan iqti-sodiy javobgarlik moliyaviy jazo choralari, ularning turlari, miqdorlari va qo’llanilish tartiblari Soliq kodeksining 135-moddasida belgilab qo’yilgan.

Amaldagi qonun hujjatlari soliq to’lovchilar huquq-larini himoya qilishga, shu jumladan sud orqali himoya qilishga qaratilgan samarali huquqiy mexanizmlarni na-zarda tutgan. Bunday himoya choralarining ko’rilishi soliq to’lovchi (uning vakili) tomonidan belgilangan tartib va muddatlarda taqdim etilgan shikoyat arizasi (sudga da`vo arizasi) berilishi bilan bog’langan.

O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi amalga kiritilgan vaqtdan boshlab (1998 yil 1 yanvar) soliq to’lovchilar hisobga turmaganlik yoki hisobga turish muddatini buz-ganlik, bank hisob varaqlarini ochilishi haqida xabar bermaganlik, deklarasiya (hisobotlar)ni o’z vaqtida taqdim etmaganlik, hisob-kitob ishlarini yuritmaganlik yoki no-to’g’ri yuritganlik, soliqlarni noto’g’ri hisoblab va boshqa aybli xatti-harakatlari uchun javobgar qilinishlari mumkin.

Soliq munosabatlari sohasida soliq to’lovchi sub`ektlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning keng tarqalgan ko’rinishlaridan biri – soliqdan bo’yintovlash, turli yo’llar bilan olinadigan daromadlarni yashirish hisoblanadi.

Soliqdan bo’yintovlash va uni to’lamaslikka harakat qilishning usullari, shakllari juda xilma-xil hamda bu hodisa, aytish mumkinki, jahonning deyarli barcha mamlakatlarida keng tarqalgan. Shu sababli soliqdan bo’yintovlash, daromadlarni yashirish hollarini aniqlash paytida, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar soliq xizmati organlari tajribasini o’rganish va ulardan keng foydalanish yaxshi samara berishi mumkin. Zamonaviy hisob-kitob va tahlil qilish vositalari, komp`yuter texnologiyalarini davlat soliq xizmati organlari faoliyatida keng qo’l-lanilayotganligi soliq sohasida huquqbuzarliklarni, shu jumladan soliqdan bo’yintovlashga urinish hollarini oldini olishga, bu sohadagi huquqbuzarliklarni o’z vaqtida aniqlash va bartaraf etishga yordam bermoqda.

Ammo, shu bilan birga soliqdan bo’yintovlash usullari ham tobora takomillashib bormoqda. Shu sababli soliq sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurash usullari va vositalari ham tinimsiz yaxshilanishi, uning samaradorligi oshirib borilishi talab etiladi.

Bugungi kunda soliq to’lovchi tomonidan sodir etiladigan va soliqdan bo’yintovlash» deb baholanishi mumkin bo’lgan holatlarning taxminiy ro’yxati O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 23 oktyabrdagi 483-sonli qarorida belgilab berilgan bo’lib, unga ko’ra:

hujjatlarni soxtalashtirilishi (tuzatib qo’yish);

qalbaki birlamchi buxgalteriya hujjatlaridan foydalanish;

ishlab chiqarishga sarf qilinmagan moddiy xarajatlarni asossiz hisobdan chiqarish;

korxona xodimlar shtati jadvalida ko’zda tutilgan bo’lsada, aslida ishlamayotgan xodimga ish haqi yozish hisobiga xarajatlarni ko’paytirish;

savdo-sotiq va xizmat ko’rsatishdan tushgan naqd pulni bankka topshirmasdan, keyingi hisobot oyiga o’tkazish (realizasiya va daromadlar ko’rsatkichlarini qasddan ka-maytirib ko’rsatish);

moddiy, yonilg'i-energetik resurslari sarf-xarajatlari normativlarini sun`iy ravishda oshirib ko'rsatish yoki ularni noto'g'ri tadbiq etish;

hujjatlarni yo'qotib yuborish yoki ularni taqdim etishdan bosh tortish;

savdo zali (tarqatish joylari)da buxgalteriya yoki boshqa hujjatlar bilan rasmiylashtirilmagan (kirim qi-linmagan) mahsulotlar (tovarlar) borligi;

xo'jalik sub`ekti (tadbirkor) tegishli tarzda davlat soliq xizmati organlarida hisobda turmasdan va ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat yuritishlari;

ikki va undan ortiq mustaqil manbaadan daromad oluvchi jismoniy shaxsni davlat soliq organlari tomoni-dan yozma ogohlantirilganiga qaramasdan deklarasiya taqdim etishdan bosh tortishi.

Mazkur taxminiy ro'yxat keyinchalik yanada kengaytirildi va uning tarkibiga nazorat-kassa mashinalarisiz yoki ular bo'laturib, undan foydalanmasdan savdo qilish, mijozlarga xarid cheklari yoki naqd pul qabul qilib olinganligi haqidagi hujjatni (kvitansiya, patta) bermaslik, hisobotlarni taqdim etish yuzasidan belgilangan qoidalarni buzish (noto'g'ri ma`lumotlar taqdim etish, ulgurji savdo qoidalarini buzish kabi boshqa bir qator holatlar ham soliqdan bo'yin toblash (daromadlarni yashirish) hollari qatoriga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 22 iyundagi «Naqd pul muomalasini mustahkamlash va tijorat banklari mas`uliyatini oshirish yuzasidan qo'-shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 264-son qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2001 yil 28 sentyabrda 1070-son bilan «Naqd pul tushumini yashirishga yo'l qo'ygan korxona va tashkilotlarga nisbatan jarima jazolarini qo'llash tartibi to'g'risida Nizom» ro'yxatga olingan bo'lib, unga ko'ra:

a)olingan naqd pullarni belgilangan muddatlarda bankka topshirmaslik;

b)savdo zali va tarqatish joylarida belgilangan tartibda buxgalterlik hisobiga olinmagan (kirim qilinmagan) mahsulot (tovar)larning mavjud bo'lishi ana shunday hu-quqbuzarlik sodir etilishi deb hisoblanadi va tegishli jarima jazosi qo'l-lanilishiga sabab bo'ladi.

Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 21 noyabrdagi «Xu-susiylashtirilgan savdo va xizmat ko'rsatish sohasi ob`-ektlari faoliyatidagi tartib buzilish hollari to'g'risi-da»gi qarorida ta`kidlanganidek: xususiylashtirilgan savdo ob`ektlarining 5 mingdan ortig'ida soliqqa oid qo-nun hujjatlari buzilayotganligi, 4600 tasi esa davlat ho-kimiyati organlarining tegishli ruxsatnomasisiz faoliyat yuritilayotganligi aniqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 5 sentyabrdagi «Jismoniy shaxslarning yalpi daromadlariga deklarasiyalash tizimlarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi UP-3127-son Farmoni bilan 2003-2005 yillar davomida jismoniy shaxslar daromadlarini yalpisiga deklarasiyalash tartibiga o'tilmoqda va uning mohiyati ham soliqdan bo'yin toblash hollarini bartaraf etishga qaratilgan.

Rivojlangan mamlakatlarda soliqdan bo'yintovlash, daromadlarni yashirish va norasmiy iqtisod avj olishiga yo'l qo'ymaslikning tashkiliy-huquqiy, ma`muriy maj-burlash vositalari bilan bir qatorda bozor prinsiplariga tayanuvchi iqtisodiy mexanizmlari, usullari va vositalaridan ham keng foydalaniladi. Bunda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni me`yorida, tadbirkorni noqonuniy xatti-harakatlar qilishga undamaydigan darajada bo'lishiga erishish muhim ahamiyatga egadir.

Soliq munosabatlari sohasida sodir etilgan huquq-buzarliklar yuzasidan belgilangan tartibda tekshirishlar (surishtiruv, dastlabki tergov ham) olib boriladi va vakolatli organlar tomonidan javobgarlik qo'llanilishi mumkin. Bunday tekshirishlar (shu jumladan surishtiruv, dastlabki tergov)ni amalga oshirish tartiblari tegishli qonun hujjatlarida (shu jumladan jinoyat prosessual qonunchilik normalarida) belgilab qo'yilgan.

Soliq sohasida huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni hu-quqiy javobgarlikka tortish yuzasidan javobgarlikka tortish muddatlari Soliq kodeksida belgilab qo'yilgan.

Soliq kodeksining 124-moddasi soliqqa oid munosabatlardagi da`vo qilish muddatlarini belgilaydi. Unga ko'ra:

soliq to'lovchining huquqlarini himoya qilish, ortiqcha to'langan soliqlar, yig'imlar va jarimalar summasini byudjetdan qaytarib olish uchun da`vo qilish muddati fu-qarolik qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi;

soliqlar, yig'imlar va jarimalarni byudjetga to'lash va undirishga doir e`tirozlarni taqdim etish uchun da`vo qi-lish muddati quyidagicha belgilanadi:

daromadlar to'g'risida deklarasiyalar to'ldirgan, mo-liyaviy hisobotlarni taqdim etgan soliq to'lovchilarga nisbatan – uch yil;

soliq summasi 20 foizdan ko'proq kamaytirib ko'rsatilganligi (yashirilganligi) aniqlanganda – besh yil.

Da`vo qilish muddatining o'tishi fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq to'xtatib turiladi, tugatiladi va tiklanadi.

Nazorat savollari.

1. Soliq deganda nimani tushuniladi?
2. Soliqlarning qaysi turlarini bilasiz?
3. Soliq solinadigan ob`ekt nima?
4. Soliq krediti nima?
5. Reklama solig'i deganda nima tushuniladi?
6. Soliq to'lovchining asosiy majburiyatlarini sanab ko'rsating.
7. Iqtisodiy jazo chorasi nima?
8. Soliqlarni rag'batlantiruvchi ahamiyatini so'zlab bering.

12-BOB
TAShqI IqTISODIY FAOLIYaTNI HUqUqIY TARTIBGA SOLISh

1-§. Tashqi iqtisodiy faoliyat tushunchasi va uning huquqiy asoslari

O’zbekiston Respublikasi o’z suvereniteti va milliy mustaqilligini qo’lga kiritganidan keyingi dastlabki yillardan boshlaboq, jahon xo’jalik tizimi bilan uzoq vaqt davomida uzilib qolgan aloqalarni tiklashga, xalqaro hamjamiyatga kiruvchi davlatlar bilan savdo-iqtisodiy va boshqa aloqalarni yo’lga qo’yishga kirishdi. Sobiq ittifoq davrida tashqi siyosatni, shu jumladan tashqi iqtisodiy savdo siyosatini markaz tomonidan amalga oshirilishi, davlat monopoliyasi ekanligi chet ellarga, xususan O’zbe- kiston SSR ga o’zga mamlakatlar bilan bevosita aloqa qilish imkonini bermas edi va bu hol amalda mam- lakatimizni tashqi dunyodan ajratib qo’ydi, jahon iqti-sodiy-xo’jalik tizimidan ajralib qolishiga olib keldi. Aslida bu siyosatning maqsadi, mamlakatimizni bir tomon- lama xom ashyo etkazib beruvchi regionga aylantirishga qa- ratilganligi ma`lum bo’ldi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni yo’lga qo’yilishi va keng rivojlantirilishi O’zbekistonning tashqi dunyoga chiqishi-ning asosiy usullaridan biri bo’lib qoldi.

Mustaqillik yillarida tashqi iqtisodiy aloqalar tarkibiy jihatdan o’zgartirilib, xom ashyoni chetga chiqa-rishdan tayyor mahsulotlar, tugallangan texnologiya nati-jalarini eksport qilishga o’tila boshlandi. Jumladan, agar 1991 yilda eksportda paxtaning hissasi 77,6 foizni tashkil etgan bo’lsa, 2000 yilga kelib bu ko’rsatkich 28 foizni, mashinalar va tayyor uskunalarni chetga sotish 1991 yilda bor-yo’g’i 1 foizni tashkil etgan bo’lsa, 2000 yilda bu ko’rsatkich 23 foizni tashkil qildi. 1998 yilda tashqi savdo oboroti 6,9 mlrd. AqSh dollarini, savdo balansidagi ijobiy savdo esa 240 mln. AqSh dollarini tashkil etdi.[1] Bugungi kunga kelib mamlakatimiz tashqi savdo oboroti yanada ortdi, eksport hajmi uzluksiz o’sib bormokda.

O’zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat davlat tashqi siyosatining tarkibiy qismi sifatida dav-latlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik, chegara-larning daxlsizligi, nizolarni tinch yo’l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoida-lariga va xalqaro huquqning umume`tirof etilgan qoida-lari va normalariga asoslangan holda amalga oshirilishi O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida belgilab qo’-yilgan. “O’zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to’g’risida”gi, “Investisiya faoliyati to’g’risi-da”gi, “Chet el investisiyalari to’g’risida”gi, “Chet ellik inves-torlar xuquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to’g’risida”gi qonunlar tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy negiz hisoblanadi. Bundan tashqari tashqi iqtisodiy faoliyatga u yoki bu darajada daxldor bo’lgan “Valyuta boshqaruvi to’g’risida”gi, “Bojxona ta`rifi to’g’risida”gi, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to’g’risida”gi qonunlar qabul qilingan.

“Tashqi iqtisodiy faoliyat to’g’risida”gi qonunning 3- moddasiga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyat deganda, O’zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxsla-rining, shuningdek, halqaro tashkilotlar bilan o’zaro foy-dali iqtisodiy aloqalarni

[1] “Хал= сызи”, 2000 йил 13 октябр

o’rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi", ya`ni O’zbekiston qonunchiligiga ko’ra tashqi iqtisodiy faoliyat, bu O’zbekiston Respublikasi jismoniy shaxslari bilan xorijiy dav-latlarga mansub yuridik va jismoniy shaxslar orasidagi savdo-iqtisodiy va boshqa xo’jalik aloqalaridan iborat. Ushbu nuqtai nazardan qaraganda T.M.Ivanovaning: "Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda, davlatning boshqa davlatlar bilan, savdo, iqtisodiy, texnik, madaniy, sayyohlik kabi sohalardagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatidan iboratdir"[1], degan fikriga qo’shilish qiyin. Chunki, tashqi iqtisodiy faoliyat uning ishtirokchilari bo’lgan yuridik yoki yakka tadbirkor jismoniy shaxslar to-monidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladigan faoliyatdir. Davlat bu faoliyatni huquqiy jihatdan tartibga solib borishi tashqi iqtisodiy faoliyat olib borilishi uchun zarur qulay tashkiliy, iqtisodiy va boshqacha shart-sharoitlarni yaratib berishi mumkin. Davlatning o’zi ham sub`ekt sifatida tashqi iqtisodiy fao-liyatda bevosita yoki o’zining maxsus vakolat berilgan tash-kilotlari orqali ishtirok etishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni yo’lga qo’yilishida va uning ishtirokchilari tomonidan bu faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur sharoitlar yaratilishida O’zbekiston Respub-likasining tashqi savdo iqtisodiy faoliyatiga oid milliy qonunchiligi tizimlari bilan bir qatorda halqaro shart-nomalar, shu jumladan, ko’p tomonlama va ikki tomonlama bitimlar hamda turli ahdlashuvlar muhim ahamiyatga ega bo’ladi. 1992 yil 15 maydagi “Mustaqil Davlatlar Hamdo’st-ligiga a`zo davlatlarning tashqi iqtisodiy faoliyat yo’na-lishida hamkorlik qilish haqidagi kelishuv”ni shunday ko’p tomonlama shartnoma misolida ko’rsatish mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyat aniq olingan sohalar bo’yicha ikki tomonlama xalqaro shatrnomalar asosida chuqur rivo-jlanadi. Chunki bunday shartnomalar iqtisodiy rivoj-lanishda muhim ahamiyat kasb etib, taraflarga nafaqat huquq va majburiyatlar o’rnatish, balki o’zaro hamkorlik qilishning aniq yo’nalishlarini belgilash, hamkorlik qi-lishda yuzaga keladigan muammolarni hal etishda muhim rol` o’ynaydi. Chunki savdo-iqtisodiy aloqalarda o’zaro qulay rejim (bojxona, soliq va boshqa sohalarda) asosan ikki tomonlama bitimlarga ko’ra belgilanadi.

Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish, o’z milliy xo’jalik yurituvchi sub`ektlari uchun tashqi iqti-sodiy aloqalarda qulay iqtisodiy va huquqiy rejimni yaratish sohasida o’zga davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan tuzadigan ko’p tomonlama va ikki tomonlama shartnoma munosabatlari xalqaro ommaviy huquq predmeti hisob-lansa, O’zbekiston Respublikasi milliy xo’jalik sub`-ektlari tomonidan o’zga davlatlarning yuridik hamda jis-moniy shaxslari bilan o’rnatiladigan shartnoma aloqalari xalqaro xususiy huquqning predmeti bo’lib sanaladi. Xo’-jalik huquqi esa, xo’jalik yurituvchi sub`ektlarning tad-birkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida, mam-lakatning bojxona hududidan mahsulot va tovarlarni, moliya mablag’larini, olib o’tish, yoki boshqa mamlakat hududida xizmat ko’rsatish, ish bajarish bilan yuzaga keladigan munosabatlarni o’rganadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni huquqiy tartibga so-lishning ob`ekti bo’lib, xo’jalik yurituvchi sub`ektlar o’r-tasida mahsulotlarni eksport va import qilish bo’yicha yuzaga keladigan hamda boshqa mamlakat hududida xizmatlar ko’rsatish va ish

---

[1] +аранг: “Хозяйственное право ” М, “Бек”, 1994.,2-том 253-бет

bajarish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar hisoblansa, tashqi iqtisodiy faoliyat ob`-ektlari deganda oldi-sotdi yoki ayriboshlash mumkin bo'l-gan tovarlar (ishlar, xizmatlar), har qanday mol-mulk, shu jumladan qimmatbaho qog'ozlar, valyutalar va valyuta qim-matliklari, elektr, issiqlik energiyasi va energiyaning boshqa turlari, transport vositalari, intellektual mulk ob`ektlari tushuniladi.

2-§. Tashqi iqtisodiy faoliyat sub`ektlari va ularning turlari

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari tashqi iqtisodiy faoliyat sub`ektlari hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sub`ektlarining huquqlari va majburiyatlari "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi[71] qonunda belgilangan. Ushbu qonunning 7-moddasiga ko'ra :

qonun hujjatlari doirasida tashqi iqtisodiy fao-liyatda qatnashish shakllarini mustaqil belgilash, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun o'z xoxishiga ko'ra boshqa yuridik va jismoniy shaxslarni shartnoma asosida belgilangan tartibda jalb qilish;

tashqi iqtisodiy faoliyat natijalariga , shu jumladan milliy va chet el valyutasidagi daromadga qonun hujjat-lariga muvofiq mustaqil ravishda egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish va boshqa qonuniy huquq-larga ega.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining "Tad-birkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'ri-sida"gi qonunining 22-moddasida belgilanganidek, tad-birkorlik faoliyati sub`ektlari qonun hujjatlariga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyatni mustaqil tarzda amalga oshiradilar. Tadbirkorlik faoliyati sub`ektla-rining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchisi tariqasida qo'shimcha ro'yxatdan o'tma-gan holda valyuta hisob varaqlari ochishi va tashqi iqti-sodiy faoliyatni amalga oshirishi uchun asos bo'ladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat yuridik shaxs shaklidagi tad-birkorlik sub`ektlari tomonidan ham, shuningdek yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi tadbirkor jismoniy shaxslar tomonidan ham belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy fao-liyat to'g'risida" gi qonuniga ko'ra mamlakatimizda jis-moniy shaxslar ham tashqi iqtisodiy faoliyat sub`ektlari bo'la olishi belgilangan bo'lib, ular tomonidan xorijiy mamlakatlarning yuridik va jismoniy shaxslari hamda xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali iqtisodiy munosabatlar o'rnatilib mamlakatimiz iste`mol bozori-ning to'ldirilishiga sezilarli ta`sir ko'rsatmoqda. Aynan jismoniy shaxslarning tashqi iqtisodiy faoliyat sub`-ektlari sifatida faoliyat ko'rsatishi uchun yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tishi lozimligi qonun hujjatlarida belgilangan. Davlat ro'yxatidan o'tma-gan holda bunday faoliyat bilan shug'ullanish ta`qiq-lanadi.

Tashqi bozorlarga mustaqil chiqish huquqi mulkchilik shaklidan qat`iy nazar, barcha xo'jalik yurituvchi sub`-ektlar uchun bir xil qilib belgilanishi bilan birga, mil-liy manfaatlar himoyasi maqsadida, strategik muhim re-surslar eksporti va importi

[71] Ызбекистон республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 й., 5,6-сонлар,148-модда

markazlashtirilgan tartibda amalga oshirilishi belgilangan. Ayni paytda respubli-kamizda paxta, ipak, oltin va umumdavlat eksport resurs-larini tashkil etadigan boshqa tovarlar eksportiga doir mutlaq huquq saqlanib qolindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligining xo'jalik hisobidagi bo'linmalarini davlat hissadorlik kompaniyalariga aylantirish to'g'risida"gi 1995 yil 14 av-gustdagi Farmoniga ko'ra, markazlashtirilgan eksport va davlat ehtiyojlari uchun importlar qilish, tashqi savdo operasiyalarini bajarishga oid xizmatlar ko'rsatish "O'z-markazimpeks", "O'zsanoatmashimpeks", "Innovasiya", "Mar-kazsanoateksport" davlat hissadorlik tashqi savdo kom-paniyalari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sub`ektlari ushbu faoliyatni bevosita o'zlari yoki vositachilari orqali, yoxud har ikkala shaklda amalga oshirishlari mumkin. O'z navbatida tashqi iqtisodiy faoliyatda vositachilik ishlari bilan shug'ul-lanuvchi korxonalarning o'zlari ham tashqi iqtisodiy mu-nosabatlarning mustaqil sub`ektlari sanaladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sub`ektlari tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishlari chog'ida quyidagi majbu-riyatlarga amal qilishlari lozim:

tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi hisobotni qonun hujjatlarida belgilanganidek taqdim etish; O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan tovarlarning O'zbekistonda belgilab qo'yilgan texnikaviy, farmakologiya, sanitariya, veterinariya, fitosanitariya, ekologiya stan-dartlari va talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi bel-gilangan tartibda taqdim etishi va boshqa qonun talab eta-digan majburiyatlarga ega bo'ladi. «Tashqi iqtisodiy fao-liyat to'g'risida»gi qonunning 15-moddasiga ko'ra, O'zbe-kiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat sub`ekt-larining huquqlari va qonuniy manfaatlari ta`minla-nishini kafolatlaydi.

Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tashqi iqtisodiy faoliyat sub`ektlarining qonun huj-jatlariga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga ara-lashishga haqli emas. O'zbekiston Respublikasining davlat organlari tashqi iqtisodiy faoliyat sub`ektlarining ushbu qonunda belgilangan huquqlarini buzuvchi hujjatlar qabul qilgan taqdirda, ularga etkazilgan zararning o'rni qonun hujjatlariga muvofiq qoplanadi. Tashqi iqtisodiy fao-liyat sub`ektlari tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi o'z huquqlari va manfaatlariga daxldor bo'lgan va maxfiy tusda bo'lmagan axborotlarni qonun hujjatlarida belgi-langan tartibda davlat organlaridan olishga haqlidir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi va umum majburiy tusdagi qonun hujjatlari ommaviy axborot vo-sitalarida e`lon qilinishi va tashqi iqtisodiy faoliyat sub`ektlari ulardan erkin foydalana olishlari shart.

3-§. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solinishi

Tashqi iqtisodiy faoliyat ham davlat tashqi siyosatining bir yo'nalishi sifatida, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va boshqa vositalar bilan tartibga solinib boriladi. Bunda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

tashqi iqtisodiy sub`ektlarining erkinligi va iqti-sodiy mustaqilligi ;

tashqi iqtisodiy faoliyat sub`ektlarining tengligi;

tavdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;

tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdan o'zaro manfaatdorlik;

tashqi iqtisodiy faoliyat sub`ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishi.

Davlat o'z milliy, umumjamiyat manfaatlari himoyasini ta`minlash, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta`minlash, milliy iqtisodiyot rivojini rag'batlantirish maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solib turadi va u yoki bu usullar bilan tashqi iqtisodiy faoliyat sub`ektlarini qo'llab-quvvatlashligi mumkin yoki aksincha salbiy ta`sir qilishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sub`ektlariga davlatning ta`sir etishi "bevosita" va "bilvosita" turlarda bo'lish-ligi mumkin, bevosita ta`sir etishga misol qilib, davlatning aniq bir eksporterga nisbatan boj to'lovlarini to'lashlikda imtiyozlar berish yoki ozod qilishini olsak, biron-bir mahsulot importi uchun yuqori bojlarni belgilashlik, cheklovlar joriy etishi bilan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarini bu mahsulotni emas, boshqalarini olib kirish uchun yo'naltirishga qaratilgan ta`sir choralarini bilvosita ta`sir etish deb atash mumkin.

«Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 17-moddasiga muvofiq tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

tashqi iqtisodiy faoliyatning qonunchilik negizini shakllantirish va takomillashtirish; valyuta bilan tartibga solish; soliq bilan tartibga solish; tarif va notarif tartibga solish;

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlariga rioya etilishi uchun himoya, kompensasiya va dempingga qarshi choralarni qo'llash;

tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilash, shu jumladan miqdoriy cheklashlar o'rnatish hamda tovarlarning ayrim turlari eksport va import qilinishi ustidan davlat monopoliyasini o'rnatish; qurol-yarog'lar, harbiy texnika, ikki xil maqsadda ishlatilishi mumkin bo'lgan tovarlar va texnologiyalarga nisbatan eksport nazo-ratini o'rnatish; olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlarni sertifikatlash ;

texnikaviy, farmakologiya, sanitariya, veterinariya, fitosanitariya, ekologiya standartlari va talablarini bel-gilash; Tashqi iqtisodiy faoliyat sub`ektlari uchun preferensiya va imtiyozlar berish.

Tashqi iqtisodiy faoliyatga davlat ta`siri quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Iqtisodiy taraqqiyotga, barqarorlikka erishish maq-sadida eksport-import operasiyalarini tartibga solish , bojxona va valyuta nazoratini amalga oshirish yo'li bilan.

2. Fuqarolar sog'ligini himoyalash va ekologik xavf-sizlikni ta`minlash yo'nalishida, bunda muayyan tovarlarni O'zbekistonga olib kirilishi paytida ularning sifat va kelib chiqish sertifikatlariga, veterinariya, sanitariya guvohnomalariga ega bo'lishligi talab etiladi, hamda bunday hujjatlarning mavjud bo'lmasligi ushbu

tovarlarni O’z-bekiston Respublikasining bojxona hududidan o’tkaz-masligiga sabab bo’ladi.

3. O’zbekistonlik ishlab chiqaruvchilar uchun xorijiy bozorlarga keng yo’l ochilishini ta`minlash yo’nalishi bo’-yicha, bunda O’zbekistonning xalqaro ko’p tomonlama va ikki tomonlama shartnoma va bitimlari, ayniqsa, savdo-iq-tisodiy masalalarda hamkorlikni yo’lga qo’yish hamda ri-vojlantirishga oid shartnomalar tuzilishi, ratifikasiya qilinishi, O’zbekistonning halqaro tashkilotlarga a`zo bo’lishi, ular faoliyatida ishtirok etishi ushbu maqsadlarga xizmat qiladi.

4. Davlat ehtiyojlarini ta`minlash yo’nalishi bo’yicha, bunda imtiyozli shartlarda kreditlar berish, bojxona boji va boshqa to’lovlardan ozod qilish, valyutaning bir qismini majburiy sotish majburiyatidan ozod qilish, kvotalar belgilab berish kabi qulay iqtisodiy shart-sharoitlar yaratiladi va shu yo’l bilan davlat ehtiyoji uchun mahsulot keltirilishi qo’llab- quvvatlanadi.

5. O’zbekistonlik tadbirkorlarning tashqi bozorda raqobatbardoshligini ta`minlash va oshirib borish. Ana shu maqsadda O’zbekiston Respublikasining “Boj tarifi to’g’-risida”gi qonunida kompensasiya hamda dempingga qarshi bojlar qo’llash, boshqa shakllarda qulay shart-sharoitlar yaratib berish nazarda tutilgan.

6. Ayrim tarmoqlar taraqqiyotini rag’batlantirish yo’-nalishi bo’yicha, bunda ko’proq O’zbekiston agrar-indus-trial mamlakat bo’lganligi tufayli qishloq xo’jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, fermer va dehqon xo’jaliklari, kichik va xususiy tadbirkorlik sub`ektlari har tomon-lama qo’llab-quvvatlanmoqda hamda ularga tashqi iqti-sodiy faoliyatni amalga oshirilishi sohasida qulay sharo-itlar yaratib berilmokda[1].

O’zbekiston Respublikasining “Tashqi iqtisodiy fao-liyat to’g’risida"gi qonunining 9-moddasiga muvofiq O’z-bekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo’na-lishlari quyidagilardan iborat:

xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik;

tashqi savdo faoliyati;

chet el investisiyalarini jalb qilish ;

O’zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investisiya faoliyati.

4-§. Tashqi iqtisodiy faoliyatni kvotalash, lisenziyalash, tarif va soliqlar hamda valyuta orqali tartibga olinishi

Eksport va importni kvotalash hamda lisenziyalash tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat nomidan tariflarsiz tartibga solishdan iborat bo’lib hisoblanadi.

Kvotalash deganda muayyan tovar yoki tovarlar guruhi eksporti uchun yoxud importini muayyan muddatga (yoki mud-datsiz) miqdor jihatdan cheklab qo’yilishi tushuniladi. Tashqi iqtisodiy munosabatlarda kvotalash iqtisodiy, siyosiy sharoitlar yoki to’lov munosabatlarining holati ta-qozo etgan hollarda qo’llaniladi.

Lisenziyalash deganda muayyan tovar yoki tovarlar gu-ruhini mamlakatga olib kirilishi yoki mamlakatdan olib chiqilishi uchun vakolatli davlat organi tomonidan

[1] +аранг: Масалан, Кичик ва ырта бизнес корхоналарини улар томонидан ташкил этиладиган ишлаб чи=ариш технологик жищозларга импорт божини тылашдан озод =илиш тартиби : Ызбекистон Республикаси Молия Вазирлиги ва Давлат Божхона =ымитасининг 1999 йил 25 мартдаги ЭГ 8-50 сонли щужжати “Налоговое и таможенные вести” 1999.,21-сон.

rux-satnoma berilishi nazarda tutiladi. Lisenziyalash O’zbe-kiston Respublikasi hukumatining qarori bilan tasdiq-langan «O’zbekiston Respublikasida tovarlar (ishlar, xiz-matlar) eksporti va importini lisenziyalash tartibi to’g’-risida»gi Nizomga muvofiq o’tkaziladi.

Lisenziyalar TIF TN (tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasi) ga muvofiq tovarning har bir tu-riga beriladi. Lisenziyalar bir galgi va bosh lisenziya-larga bo’linadi.

Bir galgi lisenziya bir kontrakt bo’yicha eksport yoki import operasiyasini amalga oshirish uchun 12 oy muddatga beriladi.

Bosh lisenziya eksport yoki import qilinadigan tovar-ning turi uchun uning miqdori va qiymatini yoki xarido-rini belgilamasdan beriladi va O’zbekiston Respublikasi hukumati qarori bosh lisenziya berish uchun asos hisob-lanadi.

Eksport va import qilishni tariflar yo’li bilan davlat tomonidan boshqarilishi bojxona bojlari belgilash orqa-li amalga oshiriladi.

Bojxona bojlarining belgilanish tartibi, bojxona boji turlari, bu sohadagi cheklashlar, imtiyozlar va boshqa masalalar O’zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi va 1997 yil 29-avgustda qabul qilingan ”Boj tarifi to’g’risida"gi qonunida hamda ular asosida ishlab chiqilgan boshqa qonun hujjatlarida belgilab qo’yilgan.

Bojxona bojlari-bojxona organlari tomonidan tovar davlatning bojxona hududiga olib kirilganda yoki tovar bojxona hududidan olib chiqilganda undiriladigan maj-buriy badaldir. Boj tarifi esa O’zbekiston Respubli-kasi bojxona chegarasidan olib o’tiladigan, tashqi iqti-sodiy faoliyatning tovar nomenklaturasi (TIF TN)ga muvofiq holda bir tizimga solingan tovarlarga nisbatan qo’llaniladigan boj stavkalarining to’plami hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy operasiyalarning xususiyatiga qarab import va eksport bojlari joriy qilinadi. Mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish uchun olib kiri-ladigan tovarlarga nisbatan bojlarning alohida turlarini qo’llash mumkin. Masalan, maxsus bojlar agar raqobat qi-luvchi tovarlar bojxona hududiga ichki tovar ishlab chiqa-ruvchilarga ziyon etkazadigan qilib olib kirilayotgan bo’lsa, himoya vositasi sifatida qo’llaniladi. Dempingga qarshi bojlar, tovarlar bojxona hududiga ularning olib chiqilgan davlatda ayni vaqtda amalda bo’lgan real qiymatdan past narxda olib kirilsa, agar bunday olib kirish mamlakatning shunday tovarlarni ishlab chiqaruvchilariga moddiy ziyon etkazsa yoki etkazish xavfini tug’dirsa yoxud shunday tovar-lar ishlab chiqarishni tashkil qilish va kengaytirishga to’sqinlik qilsa qo’llaniladi. Kompensasiya bojlari esa, O’zbekiston Respublikasining bojhona xududiga ishlab chiqarish yoki olib chiqish paytida subsidiyalardan foy-dalanilgan tovarlar olib kirilsa, agar bunday olib kirish O’zbekiston Respublikasining o’xshash tovarlar ishlab chi-qaruvchilariga moddiy ziyon etkazsa yoki etkazish xavfini tug’dirsa yoxud O’zbekiston Respublikasida shunday tovarlar ishlab chiqarishni tashkil qilish va kengaytirishga to’s-qinlik qilsa qo’llaniladi. Import va eksport bojlari-ning tariflari O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mah-kamasi qarorlari bilan tasdiqlanib, iqtisodiy vaziyatga qarab o’zgartiriladi va aniqlashtirilib boriladi.[1]

[1] +аранг. Масалан, Ызбекистон Республикаси Вазирлар Махкамаси 1998 йил 24 февралдаги 80-сон =арори . Импорт божларини щисоблаш ва ундириш тартиби . Ызбекистон республикаси Адлия Вазирлиги томонидан 1999 йил 27 июлда 782 – сон билан рыйхатга олинган.

O’zbekiston Respublikasida boj stavkalarining quyi-dagi turlari qo’llaniladi:

-Advalor (lotincha “qiymat”) stavkada boj undiri-ladigan tovarning bojxona qiymatiga nisbatan foiz-larda hisoblashni nazarda tutadi.

-Xos stavkalar boj undiriladigan tovar birligi uchun belgilangan miqdorda, masalan: 1 kg tovar uchun yoki 1 litr uchun.

-Aralash stavkalar bojning advalor va xos turlarini o’z ichiga oladi, masalan, TIV TN ning 2202, 2201 soniga kiritilgan suvlarga 30 foiz stavka bo’yicha, lekin 1 litr uchun kamida 0,15 evro miqdorida olib kirish boji so-linadi.

O’zbekiston Respublikasida ko’proq eng ko’p qulaylik rejimidan foydalaniladigan mamlakatlar uchun qo’lla-niladigan bojlarning o’rtacha stavkalari qo’llanilmokda. Ba`zi hamkorlik munosabatlari o’rnatilgan mamlakatlar bilan imtiyozli bojxona tariflari qo’llashlik, prefe-rensiya berishlik nazarda tutiladi. Masalan: 1993 yil 11 noyabrdagi O’zbekiston Respublikasi hukumati va Rossiya Federasiyasi hukumati o’rtasidagi o’zaro hamkorlik va yor-dam haqidagi kelishuvga muvofiq imtiyozli boj tarif-larini qo’llashlik bo’yicha ahdlashilgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni soliqlar orqali tartibga solish masalalari O’zbekiston Respublikasining 1997 yil 24 aprelda qabul qilingan Soliq kodeksida hamda uning asosida chiqarilgan turli yo’riqnoma, nizom va boshqa shakllardagi qonun xujjatlarida belgilab berilgan. Bunda tashqi iqtisodiy faoliyatga ta`sir o’tkazish maqsadida so-liq imtiyozlari yoki soliq sohasidagi cheklashlar qo’llash-lik nazarda tutilgan. Tashqi bozorlarga milliy tadbir-korlarni kengroq kirib borishligini ta`minlash maq-sadida soliq imtiyozlarini berish qonunchiligimizda keng o’rin olib bormoqda. Masalan, “Eksportga mahsulot ishlab chiqaruvchilarni rag’batlantirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 1996 yil 20 martdagi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga ko’ra, hisobot yil yakuni bo’yicha korxonalar tomonidan tovarlar eksporti o’sishidan olingan erkin almashtiriladigan valyutadagi tu-shumdan olinadigan soliq to’lashdan ozod qilinishi, eksport qilinuvchi tovarlar ishlab chiqarish uchun foydalangan moddiy resurslar uchun qo’shilgan qiymat solig’i to’lashdan ozod etilgan.

O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 65-moddasiga ko’ra, tovarlar ishlab chiqarish, ularni realizasiya qilish hamda O’zbekiston Respublikasi hududiga tovarlar(ishlar, hizmatlar) import qilish jarayonida qo’shilgan qiymat solig’i undirilishi belgilangan. Shunga ko’ra import qilib olib kirilayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)dan O’zbe-kiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat bojxona qo’mitasi va Davlat soliq qo’mitasining 1998 yil 3 ok-tyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi hududiga import qili-nadigan tovarlar, ishlar va xizmatlarga nisbatan qo’shilgan qiymat solig’ini qo’llash tartibi to’g’risida”gi Yo’riqnomaga asosan 20 foizli qo’shilgan qiymat solig’i undiriladi.

O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 81-moddasiga ko’ra esa aksiz to’lanadigan tovarlarni import qilayotgan yuridik va jismoniy shaxslar aksiz solig’i to’lashligi ham nazarda tutilgan. Shunga ko’ra , O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo’mitasining 1996 yil 6 dekabrdagi “Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan O’z-bekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan, shu-ningdek olib chiqiladigan tovarlarning ayrim turlariga aksiz solig’ini to’lash tartibi to’g’risida”gi Yo’riqnomaga binoan aksiz solig’i undiriladi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 maydagi “Jismoniy shaxslar tomonidan O’zbekiston Respublikasi hududiga tovarlar olib kelinishini tartibga solish to’g’risida”gi qaroriga muvofiq import qilinayotgan tovarlar uchun jismoniy shaxslar tomonidan soddalash-tirilgan yagona bojxona bojlarini to’lashlik joriy eti-lib ancha qulayliklar yaratilgan.

Valyuta orqali tartibga solish tashqi iqtisodiy muno-sabatlarni tartibga solishning eng ta`sirchan vositasi bo’lib, uning asosiy prinsiplari O’zbekiston Respubli-kasining 1993 yil may oyida qabul qilingan “Valyutani tartibga solish to’g’risida”gi qonunida va boshqa normativ hujjatlarda belgilangan. Ushbu qonun hujjatlariga ko’ra O’zbekistonda vakolatli davlat organlari, tijorat bank-lari tomonidan qonunda belgilab qo’yilgan tartibda valyuta nazorati amalga oshiriladi. Bunday nazorat usullari va shakllari turli tuman bo’lib, qattiq valyutaga bo’lgan davlat ehtiyojini qondirishga yo’naltirilgan bo’ladi.

O’zbekiston Respublikasida valyuta operasiyalarida ishtirok etadigan mamlakat fuqarosi va chet ellik jismo-niy shaxslar, yuridik shaxslar rezident va norezidentlarga bo’linadi. Rezidentlar-O’zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyiga ega bo’lgan, O’zbekiston Respublikasidan tashqarida vaqtincha turgan jismoniy shaxslar, O’zbekiston Respublikasi hududida tashkil etilgan yuridik shaxslar, shu jumladan chet el investisiyalari ishtirokidagi korxonalar, O’zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik, savdo va boshqa vakolatxonalari hisoblanadi. Norezidentlar - chet elda doimiy yashash joyiga ega bo’lgan, O’zbekiston Res-publikasida vaqtincha turgan jismoniy shaxslar, chet el qonun hujjatlariga muvofiq tashkil bo’lgan, joylashgan eri O’zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo’lgan yuridik shaxslar, O’zbekiston Respublikasi hududidagi chet el diplomatik, savdo va boshqa vakolatxonalar, halqaro tashkilotlar va ularning filiallari hisoblanadi.

Import va eksport kontraktlari so’mda, erkin alma-shinadigan valyutada yoki MDH mamlakatlari to’rtta valyu-tasidan birida (Rossiya rubli, qozoq tengesi, ukrain karbovanesi, belarus rubli) tuzilishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish chog’ida mulk huquqining valyuta boyliklariga o’tishi bilan bog’liq operasiyalar, valyuta boyliklarini xorijdan olib kirish va xorijga olib chiqish hamda xalqaro pul o’tkazuvlarni amalga oshirish bilan bog’liq operasiyalarga nisbatan na-zorat o’rnatiladi. Mamlakatimizda O’zbekiston Respub-likasi Milliy Banki, O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo’mitasi va Davlat bojxona qo’-mitasi valyuta nazorat organlari hisoblanadi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq chet el valyutasini olib kirish chog’ida jismoniy shaxslar olib kirilayotgan summani bojxona chegarasida deklarasiyalashi lozim bo’lib, uning miqdori cheklashlarsiz amalga oshiriladi. Rezidentlar chet el valyutasini 1500 AqSh dollariga ekvivalent summada, norezidentlar esa bojxona deklarasiyasiga muvofiq olib kirilgan valyuta miqdorida olib chiqishlari mumkin.

Hozirgi vaqtda xo’jalik yurituvchi sub`ektlarning chet el valyutasidagi eksport tushumi bir qismini Markaziy bankka majburiy sotish tartibi o’rnatilgan. Eksport kon-traktlarining turiga bog’liq ravishda quyidagi stavkalar qo’llanilishi nazarda tutiladi:

- markazlashtirilgan eksport kontraktlari bo’yicha ha-rajatlarni chegirgan xolda kelib tushgan valyutaning 100 foizi;

- markazlashtirilmagan eksport bo’yicha 30 foizi (1999 yildan boshlab 50 foiz).

Valyuta nazorat organlari tomonidan ushbu valyuta tushumlarining o’z vaqtida kelib tushishi, aks hollarda esa tegishli choralar ko’rilishi qonun hujjatlarida nazarda tutiladi.

5-§. Tashqi iqtisodiy faoliyat shartnomalari. Tashqi iqtisodiy faoliyat shartnomalari bo’yicha huquq va majburiyatlar hamda javobgarlik

Tashqi iqtisodiy faoliyat turli tuman shartnomalar (kontrakt, kelishuv, bitimlar) tuzish orqali amalga oshi-riladi.

Xo’jalik shartnomalarining, shu jumladan tashqi iqti-sodiy faoliyat sohasidagi shartnomalarni tuzish va ijro etishga oid bo’lgan asosiy prinsiplar hamda qoidalar O’z-bekiston Respublikasining Xo’jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to’g’risida"gi qonuni bilan belgilangan .

Jahondagi huquq tizimlari, shu jumladan O’zbekiston Respublikasining milliy huquq tizimi tashqi iqtisodiy faoliyat sohasi ishtirokchilariga shartnomalar tuzilishi sohasida keng imkoniyatlar bergan va shartnoma mazmuni ular tomonidan erkin belgilanadi. Bu sohadagi ayrim cheklashlar davlat ommaviy-huquqiy manfaatlari nuqtai nazaridan kelib chiqib, qonun hujjatlarining bevosita o’zida nazarda tutilishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy faoliyatga oid shartnomalar tuzi-layotganida turli huquqiy tizimga mansub sub`ektlar o’rta-sidagi aloqa o’rnatilayotganligi va bu tizimlar o’rtasidagi farqlar kelgusida muayyan ixtiloflarga olib kelishi mumkinligi, ularni bartaraf etish yo’l-yo’riqlari bel-gilab olinishi lozimligi e`tiborda tutilmog’i lozim.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi shartnomalar odatda namunaviy kontraktlar asosida, tomonlar o’zaro ke-lishib belgilaganda yozma shaklda tuzilishi lozim bo’ladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatda ko’proq qo’llaniladigan shart-nomalar – oldi-sotdi, mahsulot etkzib berish, pudrat, yuk tashish, lisenziya, vositachilik shartnomalari hisobla-nadi. Bunday kontraktlarning mazmunini uning tarkibi, taraflarning o’zaro majburiyatlari hajmi, to’lov shartlari, etkazib berish shartlari, sug’urtalash shartlari, texnik jihozlash shartlari, kontrakt shartlarini buzganlik uchun javobgarlik sanksiyalari tashkil etadi.

Shartnomalarda (ayniqsa oldi-sotdi shartnomalarida) halqaro amaliyotda tarkib topgan va keng qo’llaniladigan “Savdo atamalari” (Inkotermes-2000)dan foydalanmoq lozim (Masalan, SIF, FOB, va boshqa terminlar).

Shartnomada tomonlar javobgarligi, nizolarni hal etish tartiblari va boshqa muhim xususiyatlar batafsil aks ettirilmog’i lozim.

Import va eksport kontraktlari belgilangan tartibda davlatning vakolatli organlarida qayd etilishi hamda hisobga olinishi lozim.

Xalqaro savdo-iqtisodiy shartnomalar yuzasidan hi-sob-kitob qilish shakllari va tartiblari shartnoma ta-raflari o’zaro kelishuviga ko’ra shartnomada belgilab qo’-yiladi. Amalda ko’proq valyuta tovar narxining valyutasi bilan mos kelmasligi mumkin. Shuning uchun kontraktda qanday pul bozorining pul kursidan to’lashda

foyda-laniishi ko’rsatiladi. Bunda bank orqali pul ko’chirish, inkasso, hujjatli akkreditiv kabi shakllardan keng foy-dalaniladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatga oid shartnoma munosa-batlaridan kelib chiquvchi nizolarni hal etilishi tomonlar kelishib belgilaydigan tartibda muayyan milliy huquqiy tizim asosida yoki xalqaro vositalardan foydalanilgan holda hal etiladi. O’zbekiston Respublikasi sub`ektlari bilan tuzilgan tashqi iqtisodiy faoliyat kontraktlari bo’yicha nizolar kelib chiqqan hollarda O’zbekiston Res-publikasi xo’jalik sudlari tomonidan ham ko’rib chiqilishi O’zbekiston Respublikasi Xo’jalik prosessual kodeksi normalarida o’z ifodasini topgan.

Xalqaro amaliyotda bunday nizolarni hal etuvchi xal-qaro arbitraj organlari tizimi tarkib topgan. Kon-traktda mana shunday arbitrajlardan yoki boshqa xohlagan hakamlik sudlari nizolarni hal etilishi uchun tanlanishi mumkin. Amaliyotda shunday organlardan Stokgol`m shahri Savdo palatasi qoshidagi arbitraj, Parijdagi xalqaro savdo palatasi qoshidagi Arbitraj sudi, London xalqaro hakamlar sudi kabilar nizolar hal qilinishida ko’proq qo’llaniladi.

Respublikamizda nizolar hal qilinishida muhim bo’lgan, Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligiga a`zo va boshqa dav-latlarning xo’jalik, iqtisodiy va arbitraj sudlari hal qiluv qarorlari, xorijiy davlatlar arbitraj va hakamlik sudlarining hal qiluv qarorlari xo’jalik sudlarining ijro hujjatlari qatoriga kirishini nazarda tutuvchi "Xo’jalik sudlarining hujjatlari ijrosini amalga oshi-rish tartibi to’g’risida "gi Yo’riqnoma ham qabul qilin-gan. Ushbu hujjatga binoan boshqa davlatlar arbitraj sudlari tomonidan qabul qilingan qarorlari ham qonun-chilikda belgilangan tartibda ijro etiladi.

Nazorat savollari:

1. Tashqi iqtisodiy faoliyat tushunchasi nima?
2. Tashqi iqtisodiy faoliyat sub`ektlari kimlar bo’lishligi mumkin?
3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tar-tibga solishning qanday usullarini bilasiz?
4. Tashqi iqtisodiy faoliyatda qo’llaniladigan (kon-trakt) shartnomalarning boshqa xo’jalik shartnomalaridan farqli xususiyatlarini aniqlang.
5. Tashqi iqtisodiy faoliyat kontraktlari majburi-yatlari bo’yicha kelib chiquvchi nizolar hal etilish tar-tibini aniqlab bering.

13-BOB
INVESTISIYA FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI

1-§. Investisiya faoliyati tushunchasi, turlari. Investisiya ob`ektlari

«Investisiya» so’zi ingliz tilidan olingan bo’lib, «kapital quyilmasi» degan ma`noni anglatadi. **Investisiyalar** iqtisodiy va boshqa faoliyat ob`ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne`matlar hamda ularga doir huquqlar hisoblansa, investisiya faoliyati sub`ektlarining investisiyalarni amalga oshirish bilan bog’liq harakatlari majmui **investisiya faoliyati** deb yuritiladi. Investisiya faoliyati tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning bir ko’rinishidir, shuning uchun ham tadbirkorlikka xos bo’lgan belgilar, ya`ni mulkiy musta-qillik, tashabbuskorlik va tavakkalchilik unga ham xos bo’lgan xususiyatdir.

Investisiya faoliyatining sub`ektlaridan biri in-vestor bo’lib, u o’z mablag’larini, qarzga olingan va jalb etilgan mablag’larni, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, shuningdek intellektual mulkka doir huquq-larni investisiya faoliyati ob`ektlariga jalb etishni amalga oshiradi. Bunday o’ziga xos faoliyat sub`ektlarining yana bir katta guruhi mavjud bo’lib, ular investisiya fao-liyati ishtirokchilari deb yuritiladi va ularning asosiy vazifasi investorning buyurtmalarini bajaruvchi si-fatida investisiya faoliyatini ta`minlash bo’lib hisob-lanadi.

Investor va investisiya faoliyatining ishtirokchilari-sub`ektlari quyidagilar bo’lishi mumkin:

-O’zbekiston Respublikasining rezidentlari-fuqa-rolari, yuridik shaxslari;

-mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruvi organlari;

-xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va chet ellik yuridik shaxslar hamda fuqarolar, shuningdek fuqa-roligi bo’lmagan shaxslar va O’zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashovchi fuqarolari;

-hamkorlikda investisiya faoliyatini amalga oshi-rayotgan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek davlatlar va xalqaro tashkilotlar.

Investorlar buyurtmachi (mablag’ kirituvchi), kreditor, sotib oluvchi bo’lishlari, shuningdek investisiya faoliyati ishtirokchisi vazifasini bajaruvchi ham bo’lishlari mumkin.

Gap O’zbekiston Respublikasi hududida chet el in-vestisiyalari to’g’risida ketar ekan, ta`kidlash joizki, O’zbekiston Respublikasi hududida chet ellik investorlarning daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujatlarida ta`qiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob`ektlariga qo’shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklari hamda ularga doir hu-quqlari, shu jumladan intelektual mulkka doir hu-quqlari, shuningdek chet el investisiyalaridan olingan har qanday daromad tushuniladi.

O’zbekiston Respublikasida chet ellik investorlar quyidagilar, chunonchi:

chet el davlatlari, chet el davlatlarining ma`muriy va hududiy organlari, davlatlararo bitimlar va boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro om-maviy huquq sub`ektlari bo’lgan xalqaro tashkilotlar, chet el davlatlarining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko’rsatib kelayotgan yuridik shaxslar, boshqa har qanday shirkatlar, tashkilotlar va uyushmalar, chet el fuqarolari bo’lmish jismoniy shaxslar, fuqaroligi bo’lmagan shaxslar va chet ellarda doimiy yashaydigan O’z-bekiston Respublikasi fuqarolari bo’lishi mumkin.

Chet el investisiyalari davlat yoki xususiy investisiyalar shaklida bo’lishi mumkin. Birinchi shaklda davlat in-vestisiyalari ishtirok etib, bunda bir davlat boshqa davlatga kreditlar yoki boshqacha shakldagi qarzlar berishi mumkin. Bunday

munosabatlarga xalqaro huquq normalari qo'llaniladi. Ikkinchi shaklda esa, bir mamlakat xususiy firmalari, kompaniyalari yoki fuqarolari boshqa mam-lakatning tegishli sub`ektlariga beradigan investisiyalar tushuniladi. Investisiya munosabatlari shu darajada mu-rakkab va ko'p qirraliki, ko'pincha davlatlar o'rtasidagi munosabatlar xususiy shaxslar o'rtasidagi munosabatlar bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Bunday aloqa subrogasiyada, ya`ni investor huquq va talablarni davlatga topshirganda yaqqol ko'rinadi.[72]

Investisiya faoliyati davlat tomonidan tartibga so-linadi. Davlat investisiya faoliyatining qonunchilik negizini takomillashtirish, soliq to'lovchilar va soliq solish ob`ektlarini, soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarni tabaqalashtiruvchi soliq tizimini qo'llash, normalar, qoidalar, standartlarni belgilash, monopoliyaga qarshi choralarni qo'llash, kredit siyosati va narx siyosatini o'tkazishga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlarini belgilash, investisiya loyihalarini ekspertiza qilish mexanizmlarini belgilash va boshqa yo'llar bilan bunday faoliyatni amalga oshiradi.

Investisiya kiritishdan asosiy maqsad-daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

Investisiya kiritishda, avvalo:

-investisiya faoliyati sub`ektlarning mustaqilligi va tashabbuskorligi;

-kiritilayotgan moddiy ne`matlarga investisiya ma-qomini berish (fuqaro o'zining ehtiyojlarini qondirish uchun olgan buyumlari investisiya bo'la olmaydi) ;

-qonun bilan belgilangan investisiya faoliyatini amalga oshirish imkoniyati yaratilishi zarur bo'lib hisob-lanadi.

Investisiya faoliyatining ob`ekti-moddiy va nomoddiy ne`matlar ishlab chiqarish ob`ektlari hisoblanadi. Respublikamizda bozor munosabatlarining vujudga kelishi va rivojlanishi, tadbirkorlikning taraqqiyoti mavjud mablag'larni ixtiyoriy investisiyalash asosida faoliyat yuritishni taqozo etadi. Investisiya, shu jumladan chet el investisiyalarini huquqiy tartibga solish, birinchidan, milliy qonun hujjatlari bilan, ikkinchidan, xalqaro shartnomalar bilan amalga oshiriladi.

Investisiyaning quyidagi turlari mavjud: kapital, innovasiya va ijtimoiy investisiya. Kapital investisiya jumlasiga asosiy fondlarni vujudga keltiruvchi va takror ishlab chiqarishga, shuningdek, ishlab chiqarishning boshqa shakllarini ishlab chiqarishga qo'shiladigan investisiyalar kiradi.

Innovasiya investisiyalar jumlasiga texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish va o'zlashtirishga qo'shiladigan investisiyalar kiradi. Ijtimoiy investisiyalar jumlasiga inson salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne`matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investisiyalar kiradi.

2-§. Investisiya sohasidagi qonunchilik. Investisiya faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi

[72] Тадбиркорлик щу=у=и: (Махсус =исм): Дарслик /Тащририят щайъати: Ш.Рызиназаров, А.Саидов, К.Рашидов ва бош=.; Масъул мущаррир: Ш.Рызиназаров. –Т.: «Консаудитинформ», 2002.873-бет.

O’zbekiston Respublikasida investisiya faoliyati asosan 1998 yil 30-aprelda qabul qilingan “Chet el investisiyalari to’g’risida”gi[1], “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to’g’risida”gi[2], 1998 yil 24-dekabrda qabul qilingan “In-vestisiya faoliyati to’g’risida”gi[3] kabi maxsus qonunlar, shuningdek ushbu sohani tartibga solishga qaratilgan boshqa fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Shu bilan bir qatorda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiy islohotlarini yanada chuqur-lashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilishni ta`minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish chora tad-birlari to’g’risida”gi, “Eksport mahsulotlari ishlab chiqa-ruvchi korxonalarni rag’batlantirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi, ”Xorijiy investisiyalar ishti-rokidagi korxonalar tashkil etish va ular faoliyatini rag’batlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’-risida”gi Farmonlari, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish mexanizmini takomilashtirishga doir chora-tad-birlar to’g’risida”gi, “Import iste`mol tovarlari olib kelish va sotishni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorlari aynan investisiya jarayonini ta-komillashtirish maqsadida qabul qilingan.

Shu tariqa O’zbekistonda investisiya faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qonunchilikning milliy tizimi o’ziga xos ravishda faollik bilan shakllantirilib borilmoqda. Bunga misol sifatida “O’zbekinvest” milliy sug’urta kompaniyasini, “O’zbekinvest” tashqi iqtisodiy milliy banki, Vazirlar Mahkamasi hududida BMT (YuNI-DO) bilan birgalikdagi texnikaviy yordam loyihasi doi-rasida investisiyalarga ko’maklashish xizmati, Davlat mulk qo’mitasi huzurida ko’chmas mulk va xorijiy investisiyalar agentligini, shuningdek xalqaro moliya korporasiyalar bilan qo’shma banklarni, qo’shma lizing kompaniyalarini ko’rsatish mumkin.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida 2001 yil 5-martda Tashqi iqtisodiy aloqalar va xorijiy investisiyalar departamenti tashkil etilganligini, “2001-2002 yillarda xorijiy investorlarni jalb qilgan holda korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bo’yicha kelgusidagi chora-tadbirlar to’g’-risida” Vazirlar Mahkamasi tomonidan maxsus qaror qa-bul qilinganligini alohida ta`kidlash joiz.

Yuqoridagilar haqiqatan O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida chet el investisiyalarini keng jalb etish uchun etarli shart-sharoitlar yaratilganligi va bu sohada qonunchilik asoslari yaratilganligidan darak beradi.

Chet el investisiyalarini huquqiy himoya qilish maq-sadida 02.05.2003 yilda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “To’g’ridan-to’g’ri xorijiy inves-tisiyalarni huquqiy himoya qilishni kuchaytirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 205-sonli qarori ayniqsa diqqatga sazovordir.

Bunga binoan “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq va

---

[1] Ызбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 1998. № 5-6. 91-модда.
[2] Ызбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 1998. № 5-6. 91-модда.
[3] Ызбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. 1998. № 1.10-модда.

respublikaga to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investisiyalarni jalb qi-lish uchun investisiyalarni ishonchli huquqiy himoya qi-lishning amaliy mexanizmini barpo etish, mana shu asosda mamlakatdagi investisiya muhitini yanada yaxshilash maq-sadida Vazirlar Mahkamasi Adliya vazirligiga xorijiy investorlarni va xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalarni huquqiy himoya qilishni ta`minlash vazi-fasini topshirdi va unga quyidagi huquqlarni, chunonchi:

-xorijiy investorlari va xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalarni javobgarlikka tortishning asosliligini zarur hujjatlar, shu jumladan jinoiy, fu-qarolik, xo’jalik va ma`muriy ishlar materiallari bilan tanishish yo’li bilan o’rganib chiqish;

-vazirliklar, idoralar va nazorat organlari, shuningdek mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari rahbarlariga qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlari, qonun buzilishini va unga olib keluvchi shart-sharoitlarning sabablarini bartaraf qilish to’g’risida belgilangan muddatlarda bajarilishi majburiy bo’lgan taq-dimnomalar kiritish;

-mansabdor shaxslar tomonidan xorijiy investorlar va xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalarning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishi hollari aniqlangan hollarda, shuningdek adliya organlarining qo-nuniy talablari mansabdor shaxslar tomonidan bajarilmagan taqdirda aybdor mansabdor shaxslarni javobgar-likka tortish to’g’risidagi maslalarni tegishli organlar oldiga qo’yish;

-xorijiy investorlar va xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalarning huquqlarini buzayotgan nazorat qiluvchi hamda mahalliy hokimiyat hamda boshqaruv organlarining harakati yoki qarorlarini to’xtatib qo’yish kabilar berildi.

Mazkur qaror bilan xorijiy investisiyalar va xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalarni hu-quqiy himoya qilish boshqarmasi Adliya vazirligida tuzildi hamda boshqarma to’g’rsidagi Nizom ishlab chiqildi.

Chet el investisiyalarini huquqiy tartibga solishda davlatlar o’rtasidagi ikki va ko’p tomonlama shartnomalarning o’rni, ahamiyati ayniqsa beqiyosdir.

Bu kabi shartnomalardan biri “Investisiyalarni kafolatlash bo’yicha ko’p taraflama agentlikni ta`sis etish to’g’risida”gi Seul Konvensiyasi bo’lib, u 1988 yil 12 apreldan kuchga kirgan. O’zbekiston Respublikasi uni 1992 yil 2 sentyabrda ratifikasiya qilgan va u shu yilning 24-sentyabridan kuchga kirgan.

Ushbu Konvensiyaga a`zo bo’lishlik xususiy va davlat sug’urtalash tizimini chet el investisiyalarini sug’urtalash xalqaro ko’p tomonlama tizimi bilan uyg’unlashtirilishiga olib keldi. Chunonchi, unga binoan vazifasi chet el inves-tisiyalarini kafolatlash, investorlarni moliyalash, tavakkalchiliklarni sug’urtalash va boshqalar hisoblangan ko’p tomonlama xalqaro tashkilot (MIGA) tashkil topadi. Ko’pincha ushbu tashkilot sug’urtalovchi, chet el investori hisoblangan yuridik yoki jismoniy shaxslari esa sug’ur-talanuvchi sifatida shartnomada taraflar bo’lib qatna-shadilar.

Bu xalqaro tashkilotning o’ziga xos, boshqa tashkilotlarga o’xshamaydigan yana bir xususiyati shundaki, sug’urta holati yuz bergan hollarda, chunonchi mamlakatda chet el investor mulki nasionalizasiya etilganda, shuningdek chet el investori daromadi summasini chet elga o’tkazishi uchun ma`lum cheklovlar joriy etilganda va boshqa shunga o’xshash chet el investorining huquqlarini boshqa shakllarda poymol

etilgan hollarda ushbu tashkilot taraflar o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investor ko'rgan zararlarning to'lab berish majburiyatini oladi.

O'zbekistoning bu boradagi yana bir dadil qadami uning 1965 yil 18-martda imzolangan va 1966 yil 14-oktyabrda kuchga kirgan "Davlatlar va chet ellik shaxslar o'rtasidagi investision nizolarni hal etish tartibi to'g'risida" gi Vashington Konvensiyasini 1994 yil 6 mayda ratifikasiya qilganligidir.

Konvensiyaning maqsadi Xalqaro taraqqiyot va rivojlanish banki huzurida investisiya nizolarini hal etish bo'yicha Markazni ta`sis etish va ushbu Markazda muayyan davlat va chet davlat shaxslari o'rtasida vujudga keladigan investision nizolarni Konvensiya qoidalariga muvofiq yarashtiruv hamda arbitraj yo'li bilan hal etilishini ta`minlashdan iborat.

Markaz tarkibiga Ma`muriy kengash va Kotibiyat kiradi. Kotibiyat o'z navbatida vositachilar ro'yxati va arbitrlar ro'yxatini olib boradi. Ma`muriy kengash tarkibiga Konvensiyani imzolagan davlatlarning har biridan bittadan vakillar kiradi. Bunday vakillar etarlicha malakaga ega bo'lgan shaxslar orasidan tanlanib, ularning ro'yxati har olti yilda yangilanib turadi.

Markaz o'zi ko'rsatgan xizmatlardan tushadigan mab-lag'lar va boshqa mablag'lar hisobidan moliyalanadi, u im-munitet va imtiyozlarga ega. Immunitet deganda Ma`muriy kengash raisi va a`zolarining shaxsiy immuniteti, ar-bitrlar, vositachilar va kotibiyat xodimlarining immuniteti, hujjatlar immuniteti, arxivlarni daxlsizligi va boshqalar tushiniladi. Imtiyoz deganda shuni nazarda tutish lozimki, Markazning mulki, daromadi va boshqalardan soliq olinmaydi va hech qanday yig'imlar ularga nisbatan tadbiq etilmaydi.

Konvensiya mazmuniga binoan **arbitraj** nizoni taraflar o'rtasida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan huquq normalarini qo'llagan holda hal etadi. Taraf-larning bu haqda kelishuvi bo'lmagan taqdirda, arbitraj nizoni hal etishda shartnomaning tarafi bo'lmish Kelishilayotgan dav-lat huquqini, shuningdek qo'llanilishi mumkin bo'lgan xalqaro huquq normalarini qo'llaydi.

Mazkur Konvensiyaning muhim jihatlari yana shundaki, birinchidan, unda ishtirok etuvchi davlatlar o'z hududida qo'shiluvchi davlatlar arbitraj qarorlarini o'z hududida ijro etilishini ta`minlash majuriyatini olsa, ikkinchidan, ushbu Konvensiyaga O'zbekistonning qo'shilishi natijasida garchi ikki yoki ko'p tomonlama xalqaro bitimlar tuzmagan davlatlarning investorlari bilan O'zbe-kistondagi chet el investorlari o'rtasida vujudga keladigan nizolar hal etilishining universal tizimi yaratildi.

Investisiyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi 40 dan ortiq davlatlar bilan bitimlar tuzgan. Bu kabi bitimlarni tuzish asosan, chet el investisiyalarini nasionalizasiya va ekspropria-siyadan himoya qilish, investorga o'z daromadlari va ka-pitallarini chet elga to'sqinliksiz va moneliksiz o't-kazish imkoniyatini berish, investor bilan uning kapitali yuzasidan kelib chiqadigan nizolarni xalqaro arbitrajda ko'rib chiqish va millatga qulayroq rejim yaratishga qara-tiladi.

3-§. Investisiya faoliyatining shartnomaviy shakllari. Taraflarning huquq va majburiyatlari

Amaldagi qonunchilikka muvofiq investisiyalarni amalga oshirish shakllari bo'lib:

-yuridik shaxslar tuzish yoki ularning ustav jam-g'armalarida ulushli ishtirok etish, shu jumladan, mol- mulkni yoki aksiyalarni olish;

-qimmatli qog'ozlarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini olish;

-konsessiyalarni, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo'lgan konsessiyalarni olish;

-mulk huquqini, shu jumladan ular joylashgan er uchastkalari bilan birgalikda savdo va xizmat ko'rsatish sohalari ob`ektlariga, turar joylariga mulk huquqini, shuningdek erga hamda boshqa resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish (shu jumladan ijara asosida) hu-quqini qonun hujjatlariga muvofiq olish kabilar hi-soblanadi.

Investisiya faoliyatining sub`ektlari "Investisiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonu-nining 8-moddasiga muvofiq:

-mulk shakllaridan va faoliyat turidan qat`iy nazar, investorlar investisiya faoliyatini amalga oshirishda teng huquqqa egadirlar;

-har qanday ob`ektga (qonun bilan cheklangan yoki ta`qiqlangan ob`ektlardan tashqari) investisiyalarni kiritish investorning mutlaq huquqi hisoblanadi va qonun bilan qo'riqlanadi;

-investor investisiyalash maqsadida yo'nalish turi va hajmini mustaqil ravishda belgilaydi, buni amalga oshirish uchun shartnoma asosida, qoida tariqasida tanlov (tender) savdosini o'tkazish yo'li bilan yuridik va jismoniy shaxslarni investisiya faoliyati ishtirokchilari sifatida jalb etadi;

-qonun hujatlariga muvofiq investor investisiya ob`ektlari natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, ularni tassaruf qilishga;

-investorning qaroriga binoan investisiya ob`ektlariga va ularning natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, ularni tasarruf etish huquqi qonun hujjatlari belgilangan tartibda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga berilishi mumkin;

-agar qonun hujjatlarida boshqa tartib belgilanmagan bo'lsa, investor o'ziga zarur bo'lgan mol-mulkni yuridik va jismoniy shaxslarni o'zaro kelishuv asosida belgila-nadigan narx va shartlarda, hajmi va nomenklaturasini cheklanmagan tarzda olishga xaqli;

"Investisiya faoliyati to'g'risida" gi qonunda investor:

-investisiya loyihalarida sanitariya-gigiena, ekologiya, arxitektura, shaharsozlikka oid va boshqa talablarga rioya etilganligi xususida ekspertiza xulosasini olish, monopoliyaga qarashli qonun hujjatlarining talablariga rioya etish;

-soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lash;

-shartnoma bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi tufayli investisiya faoliyati ishtirokchisiga etkazilgan zararni qoplash;

-mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlarining o'z vakolati doirasida qo'yiladigan talablarini boshqarishi shart.

Investision faoliyatni ikki bosqichdan iborat harakatlarga ajratish mumkin, ya`ni, birinchi bosqichda investor o'zining bo'sh mablag'larini investisiya shaklida

kiritilish to'g'risidagi qarorni qabul qiladi. Bunda u tadbirkorlik faoliyat ob`ektlarini o'zgartirishi asosida foyda olishining maqbul yo'llarini izlaydi. Bu bosqichda investision shartnomasini imzolash bilan moddiy yoki nomoddiy ne`matlarga investisiya maqomi beriladi.

Investisiya faoliyatining ikkinchi bosqichida investisiyalarni realizasiya qilish bo'yicha amaliy harakatlarini amalga oshirishdan iborat. Bu bosqichning xarakterli tomoni shundan iboratki, bunda investision shartnomalarni amalga oshirish bo'yicha qator harakatlar amalga oshiriladi. Bunda investision faoliyatning har bir ish-tirokchilarining vakolatlari doirasi, shuningdek investisiya faoliyati sub`ektlari aniqlanadi.

Ikkinchi bosqich investision faoliyat ob`ektini barpo etish bilan yakunlanadi.

Investision faoliyat (ish) sub`ektlarning o'zaro munosabatlari shartnoma asosida tashkil etiladi.

Investision shartnoma yuridik, tarkibiy jihatdan murakkab shartnoma bo'lib hisoblanadi.

Prezidentimiz Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida qilgan nutqida "...mamlakat iqtisodiyotiga xorij sarmoyasini, avvalo, bevosita yo'naltirilgan sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay sharoit kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kuchaytirish taqozo etilmokda. Shunga erishish kerakki, O'zbekiston bozori mamlakatimizda biznes bilan shug'ullanishga intilishlarning barchasi uchun eng ma`qul va qulay iqtisodiy makon bo'lib qolsin"[73].

Agar xorijiy sarmoyalar uchun mumkin qadar qulaylik tug'dirib berish tartibi o'rnatilgan bo'lsa, u holda sarmoyadorlar ko'plab tarmoqlarda, chunonchi xo'jalik faoliyatini yuritish maqsadida davlat mulki xususiylashtiriliyotgan mamlakatlarda amaldagi qonunlar asosida ishtirok etishlari mumkin.

Chet el investisiyalarini ishtirokidagi xo'jalik yuri-tuvchi sub`ektlar faoliyatini huquqiy tartibga solishni rivojlantirish milliy qonunchilikni takomillashtirishga tabiiy ta`sir o'tkazadi. Bu jarayon zamirida albatta erkin shartnoma tuzish va xo'jalik munosabatlarini milliy hu-quqiy tartibga solish sohasida xalqaro me`yorlarga ustun-lik berish tamoyili yotadi.

O'zbekiston Respublikasining "Chet el investisiya to'g'-risida"gi qonunining 5-moddasida chet el investisiya-larini amalga oshirish shakllari ko'rsatilgan. Bunga bino-an, O'zbekiston Respublikasining yuridik va (yoki) jis-moniy shaxslari bilan birgalikda tashkil etilgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining, banklar, sug'urta tashki-lotlari va boshqa korxonalarning ustav jamg'armalarida va boshqa mol-mulkida ulush qo'shib qatnashish;

- chet ellik investorlarga to'liq qarashli bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarini, banklar, sug'urta tashkilotlari va boshqa korxonalarni barpo etish va ri-vojlantirish;

- mol-mulk, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini sotib olish;

---

[73] Каримов И.А «Озод ва обод ватан, фаровон щаёт-пировард максадимиз", Тошкент.: "Маърифат" нашриёти, 2000 йил.

-intellektual mulkka, shu jumladan mualliflik huquqlari, patentlar, tovar belgilari, foydali modellar, sanoat namunalari, firma nomlari va nou-xauga, shuningdek ishchanlik nufuziga (gudvillga) huquqlar kiritish;

-konsessiyalar, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo'lgan konsessiyalar olish;

-savdo va xizmat ko'rsatish sohalari ob`ektlariga, turar joy binolariga, ular joylashgan er uchastkalari bilan birgalikda mulk huquqini, shuningdek erga egalik qilish va undan foydalanish (shuningdek ijara asosida foydalanish) hamda tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqlari sotib olish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi xorijiy investisiyalarini jalb etishning yuqorida qayd etilgan shakllarida amalga oshirib borish bilan birga, investorlarning huquq va manfaatlarini har tomonlama himoya qilinishi uchun kafolatlarni qonun yo'li bilan belgilab qo'ygan. Shuningdek, xorijiy investisiyalarni jalb etish uchun imtiyozlarning keng tizimi vujudga keltirilgan.

Mamlakatimiz Prezidenti I. A. Karimovning "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" asarida: "Biz tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda iqtisodiyotimizga sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay sharoit yaratishga juda katta ahamiyat bermoqdamiz"-deyiladi.[1] Bu fikrning isboti sifatida "Chet el investisiyalari to'g'risida", "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi, "Investisiya faoliyati to'g'risida" gi kabi qonunlar va bu boradagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni misol keltirish mumkin.

Ushbu qonun hujjatlariga binoan chet ellik investorlar xalqaro huquq prinsiplari va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi huquqlarga ega:

-investisiyalashni amalga oshirishning hajmlari, turlari va yo'nalishlarini mustaqil belgilash;

-investisiya faoliyatini amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish;

-o'zining investisiyalariga va investisiya faoliyatining natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish. Chet ellik investorning qaroriga binoan investisiyalarga, ularning natijalariga egalik kilish, ulardan foydalanish, ularni tasarruf etish huquqlari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga berilishi mumkin. Huquqlar boshqa shaxsga berilganda taraflarning o'zaro munosabatlari shartnomalar asosida tartibga solinadi;

O'zbekiston Respublikasidagi investisiya faoliyati na-tijasida olingan o'ziga qarashli ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalarini chet ellarda va O'zbekiston Respublikasida patentlashtirish to'g'risida mustaqil ravishda qaror qabul qilish;

---

[1] И. А. Каримов Ызбекистон и=тисодий ислощотларини чу=урлаштириш йылида, Ызбекистон, 1995 йил, 115-бет.

-investisiya faoliyati natijasida olingan daromadni mustaqil va erkin tasarruf etish (shu jumladan uni mo-neliksiz repartasiya qilish);

O’zbekiston Respublikasiga kreditlar va qarzlar ta-riqasida pul mablag’lari jalb etish;

-o’z hisob varag’idagi milliy valyuta mablag’laridan ichki valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olish uchun foydalanish;

-qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va shartlarda er uchastkalariga doir huquqlarini sotib olish;

O’zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga mu-vofiq, o’ziga mulk huquqi asosida qarashli bo’lgan mol-mulk va har qanday mulkiy huquqlardan zimmaga olgan majburiyatlarning, shu jumladan qarz mablag’larini jalb etishga qaratilgan majburiyatlarning barcha turlari bo’yicha ta`min sifatida foydalanish;

-o’z investisiyalari va boshqa aktivlari rekvizisiya qilingan taqdirda mutanosib ravishda tovon olish;

-davlat boshqaruv organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining g’ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) va qa-rorlari natijasida etkazilgan zararlarni undirish.

Chet ellik investor O’zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ega-dirlar.

Nazorat savollari:

1. Investisiya deganda nima tushuniladi?
2. O’zbekistonda investisiyaga oid qonunchilikni shakllantirishdan asosiy maqsad nima?
3. Investisiya faoliyati sub`ektlarining huquq va majburiyatlarini aytib bering.
4. Investisiyaning bosh maqsdi nima?
5. Bozor iqtisodiyoti sharoitida investisiyaning ahamiyati qanday?

14-BOB
QIMMATLI QO/OZLAR BOZORINI DAVLAT TOMONI-DAN TARTIBGA SOLINISHI

1-§. qimmatli qog'ozlar tushunchasi

Xo'jalik faoliyatida pul bilan bir qatorda qimmatli qog'ozlar muomalasi ham muxim o'rin egallaydi. qimmatli qog'ozlarning tabiiy xususiyatlaridan kelib chiqib ularni qimmatli deb bo'lmaydi, balki u egasiga ma`lum bir qim-matliklar (ashyo, pul, moddiy va nomoddiy huquqlar)ga ega bo'lishi tasdiqlanganligi uchun ham qimmatlidir. qim-matli qog'ozlar pul kabi muomalada hamda to'lovda qulay vositadir. Ayniqsa u o'z funksiyasi bilan sug'urta polisi, qarzdorlikni tasdiqlovchi tilxat, vasiyatnoma kabi muayyan qimmatliklarga ega bo'lgan boshqa qog'ozlardan farqlanadi bozor iqtisodiyoti munosabatlarida va fuqarolik muomalasida qimmatli qog'ozlar mulkiy huquqlarning kafolati sifatida namoyot bo'ladi va sub`ektlarning oshiqcha pul zaxiralari muomalasini tezlashtirishga yordam beradi.

Mulk shakllari evalyusiyasi va kreditning rivojlanish jamiyat ishlab chiqarishi tizimida qimmatli qog'ozlarning keng qo'llanilishligiga sabab bo'lib, qimmatli qog'ozlar ishlab chiqarishga sarmoya jalb qilishning eng maqbul usuli sifatida bir qator ijobiy xususiyatga ega.

Mustaqillik va bozor iqtisodiyoti natijasida qimmatli qog'ozlarga nisbatan davlat monopoliyasining barham topishi, iqtisodiyotga tovar – pul almashinuvi va tovar muomalasi uchun xususiy mulk rivoji hamda xususiy mulkdor sinfini yaratish uchun qo'shimcha axamiyatga ega bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlarning tarixiy shakllanishi antik Rimga borib taqladi. Dastavval, og'zaki kelishuv shaklidagi qimmatli qog'ozlar, imperator Yustinian davriga kelib yozma shaklda tuzila boshlanadi. Natijada ashyoga, pulga bo'lgan haq (huquq va talab) qog'oz bilan uyg'unlashdi va bir vaqtning o'ziga ashyoga bo'lgan huquq va qog'ozga bo'lgan huquq birlashib, umumiy qog'ozga nisbatan huquq yuzaga keladi. XII asrga kelib, haq huquqlarini o'ziga ifodalovchi qog'oz turli xildagi belgi va majburiy yozuvlarga ega bo'ladi. O'sha paytlardagi qimmatli qog'oz o'z egasiga beriladigan huquqlar doirasi juda ko'p bo'lganligi tufayli, qimmatli qog'ozlar sekin-asta qo'ldan qo'lga o'ta boshladi. O'rta asrlarga kelib ko'pkina davlatlar (Angliya, Germaniya, Fransiya) o'z xarajatlarini qoplash uchun ko'chmas mulk o'rniga xazina majburiyatlari va obligasiyalar chiqara boshladilar. Faqatgina XVII asrga kelib, qimmatli qog'ozlarning orqa tomonidan imzo qo'yib, boshqa kishiga berilishi odat tusiga kirdi. Qimmatli qog'ozlarga imzo qo'yilishi ularning egalarini oson almashtirishga va qimmatli qog'ozlarning muomalada qo'llanilishini tezlatishga sabab bo'ladi. Shuningdek imzolarning paydo bo'lishi natijasida qimmatli qog'ozlar to'lov va kredit berish vositasi bo'lib xizmat qila boshladi. XVII asrga kelib xissali qimmatli qog'oz – aksiya paydo bo'ldi. XIX asrdan boshlab qimmatli qimmatli qog'ozlar o'zgarib, shakllanib va iqtisodiy hayotda keng qo'llaniladigan xolatga o'tdi.

Qimmatli qog'ozlar – mulkiy huquqlarining belgilangan shakl va majburiy rekvizitlariga amal qilgan xolda tasdiqlovchi xujjatlar hisoblanib, ularni taqdim etgan

taqdirdagina mazkur huquqlarni amalga oshirish yoki boshqa shaxslarga berish mumkin bo'ladi. (FK 96 – moddasi). Bunda tegishli huquqlarni amalga oshirish uchun qoida bo'yicha qimmatli qog'ozni taqdim etish lozim bo'ladi. Rivojlangan xo'jalik muomalasida qimmatli qog'ozlarning keng tarqalganligi, ularning belgilangan qiymatga ega ekanligi uchun pullar bilan eng ma`qul muomala va to'lov vositasi ekanligi, kredit vositasi rolining bajarilishi mumkinligi hamda turli manfaatlarga nisbatan huquqlarni o'tkaza olishi bilan belgilangan[74].

"Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida"gi Qonunning (02.09.1993 y.) 1 – moddasiga muvofiq, qimmatli qog'ozlar Ular chiqargan shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki zayom munosabatlarini tasdiqlovchi, divident yoki foizlar ko'rinishidagi daromad to'lashni hamda ushbu xujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarini boshqa shaxslarga berish imkoniyatlarini nazarda tutuvchi pul xujjatlaridir.

Qimmatli qog'ozlar – blankalar, sertifikatlar shaklida yoki schyotlardagi yozuv shaklida bo'lishi va hisob – kitob qilishda, shuningdek kredit bo'yicha garov sfatida foydalanilishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasidagi ixtiyoriylik asosida tarqatiladi. Qimmatli qog'ozlar – bu qonunda belgilangan tartibda chiqarilgan va normal[75] qiymatga ega bo'lgan pullik xujjatdir. Ular mulkchilik munosabatlarini ifodalaydi va qanday mulk yoki pul miqdoriga egalik qilish huquqini tasdiqlaydi. Qimmatli qog'ozlar divident yoki foizlar ko'rinishida daromad to'lashni hamda mazkur xujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga berish imkoniyatini nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, egalik qilish huquqini tasdiqlovchi divident yoki foizlar ko'rinishidagi daromad olishni ko'zlovchi, emissiya qiluvchi va sotib oluvchi o'rtasidagi o'zaro mulkiy munosabatlarni bildiruvchi, boshqa shaxslarga berish imkoniyatini nazarda tutuvchi barcha puli xujjatlar qimmatli qog'ozlar deb yuritiladi.

Eng muhimi, har qanday qimmatli qog'oz qonunda belgilangan shakllarda tuzilgan bo'lishi va zaruriy rekvizitlarga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari qimmatli qo-g'ozlar o'z egasi amalga oshirishi lozim bo'lgan huquqlar, ya`ni uning yuridik imkoniyatlari (dividend olish, muayyan pul summasi, ashyolar olish) hamda ularni ommaviy ravishda haqiqiy ekanligini ya`ni uni barcha rekvizitlar bilan chiqarilgan bo'lsa qarzdor (emitent) uni tan olish majburiyati bilan ham boshqa qimmatli qog'ozlardan farqlanadi.

---

[74] Grajdanskogo pravo. Uchebnik. A.P. Sergeeva, Yu.K.Tolstogo, M., Prospekt. 1998 g

[75] Pul xujjatlarida ko'rsatilgan boshlanғich nominal baҳo, umuman olganda, ramziy xarakterga ega bo'lib, xar doim ularning ҳақиқiy bozor baҳosini (қiymatini) ifodalay oladi.

2-§. qimmatli qog’ozlarning turlari, ularning emissiyasi tushunchasi va faoliyati

Qimmatli qog’ozlar bir necha asoslarga ko’ra aloxida turlarga bulinadi. Bu turlar ichida eng muhimi qog’ozlarning shaxslarga tegishliligi asosida turlarga bo’linishi hisoblanadi. Qimmatli qog’ozlar huquq subeklariga tegishli bo’lishiga qarab, taqdim etuvchi tegishli, egasi yozilgan va orderli qimmatli qog’ozlarga bo’linadi.

Basharti mulkiy xuquqlarni ularga egalik qilish bilan bog’liq holda ro’yobga chiqarish uchun qimmatli qog’ozni taqdim etishning o’zi etarli bo’lsa, qimmatli qog’ozlar taqdim etuvchiga tegishli xujjatlar deb xisoblanadi. Taqdim etuvchiga tegishli qimmatli qog’ozlar erkin muomalada bulib, ularni boshqa shaxsga berish, qimmatli qog’oza mujassamlashgan xuquqni boshqa kishiga o’tkazish, bu qimmatli qog’ozni unga taqdim qilish bilan tugatgan xisoblanai. Ularga obligatsiya zayomlari, taqdim etuvchiga deb nomlangan aksiyalar, konosament[76], oddiy ombor guvoxnomasi, taqdim etuvchiga tegishli cheklar kiradi.

Mulkiy xuquqlarni ulraga egalik qilish bilan bog’liq holda ro’yobga chiqarish uchun emitent (qimmatli qog’ozni chiqaruvchi) tomonidan yoki uning topshirig’iga binoan qimmatli qog’ozlar borasida kasb faoliyatini amalga oshirayotgan tashkilot egasining nomini qayd etish zarur bo’lsagina, qimmatli qog’ozlarda egasi yozilgan bo’ladi. Egasi yozilgan qimmatli qog’ozni bir mulkdordan ikkinchisiga berish paytida hisob – kitobdagi zaruriy yozuvlar o’zgartiriladi. Bunday turdagi qimmatli qog’ozlar bo’yicha qarzdor ma`lumotlar to’plashi, qog’ozda ko’rsatilgan shaxsni aniqlashi va boshqa har xil usulda tekshirishi shart. Ularga egasi yozilgan aksiyalar, obligasiyalar, xazina majburiyatlari, depozit sertifikatlari, veksellar, qimmatli qog’ozlar xosilalari kiradi.

Orderli qimmatli qog’ozlarga ega bo’lgan shaxslar qog’ozlar bo’yicha qarzdor bo’lganlar daftarida qayd etilgan bo’lib, qarz berish, shu qimmatli qog’oz soxibiga to’g’ri kelib qolgan bo’lsa bunday qimmatli qog’ozlar orderli qimmatli qog’ozlar hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, orderli qimmatli qog’ozlarning asosida qarzdorning qimmatli qog’ozida ko’rsatilgan shaxsga yoki u ko’rsatgan shaxsga qarzini to’lash majburiyati yotadi. Ularning quyidagi turlari mavjud: oddiy va yuboriladigan veksellar, tovar omborlarining ikki tarafli guvoxnomalari, yuk yuborgan va yukni qabul qilib oluvchi xukmiga binoan chiqarilgan konosamentlar.
“qimmatli qog’ozlar va fond birjasi to’g’risida”gi qonunning 3-moddasiga muvofiq qimmatli qog’ozlarning quyidagi turlari mavjud:

- aksiyalar;
- obligasiyalar;
- xazina majburiyatlari;
- depozit sertifikatlari;
- veksellar.

A) AKSIYaLAR

[76] Dengizda yuk tashishda қo’llaniladigan tovarning kimga tegishliligini aniқlaydigan xujjat bo’lib, konosament kimga tegishli bo’lsa shu shaxs dengizda yuk tashuvchida konosamentda ko’rsatilgan yukni olish va tasarruf etish xuқuқiga ega bo’ladi Kommentari k grajdanskomu kodeksu RF. Pod. red O.N.Sadikova. M, Yuridformsentr. 1997g, 189st.

Aksiyalar- aksiyadorlik jamiyatining ustav fondiga yuridik yoki jismoniy shaxs muayyan hissa qo'shganidan guvohlik beruvchi, aksiya egasining mazkur jamiyat mulkidagi ishtirokini tasdiqlovchi hamda unga dividend olish va qoida tariqasida ushbu jamiyatni boshqarishda qatnashish huquqini beruvchi, amal qilish muddati belgilanmagan qimmatli qog'ozlardir.

Aksiyalarning xillari (egasi yozilgan va taqdim etuvchiga deb nomlangan) va turlari (imtiyozli va oddiy aksiyalar) bo'yicha farqlanadi. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuniga muvofiq aynan shunday turkumlanadi.

Aksiyada ko'rsatilgan va jamiyat aksiyadorlarining reestriga kiritilgan jismoniy yoki yuridik shaxsgina egasi yozilgan aksiyaning sohibi bo'lmish aksiyador deb e`tirof etiladi.

Egasi yozilmagan aksiyani saqlovchi shu aksiyaning egasidir. Egasi yozilmagan aksiyalar jamiyat aksiyalarining reestriga kiritilmagan holda boshqa shaxslarga mulk qilib beriladi. Oddiy aksiyalar ovoz beruvchi bo'lib, ularning egalariga dividendlar olish, jamiyatning umumiy yig'i-lishlarida va jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huqu-qini beradi.

Aksiya egalariga dividendlarni, shuningdek aksiyadorlik jamiyati tugatilganda aksiyalarga qo'yilgan mab-lag'larni birinchi navbatda olish huquqini beradigan aksiyalar ***imtiyozli aksiyalar*** hisoblanadi. Imtiyozli aksiyalar ularning egalariga, korxona foyda ko'rish-ko'rmasligidan qat`i nazar, muayyan dividendlar olish huquqini beradi. Yopiq aksiyadorlik jamiyatining aksiyalari faqat egasi yoziladigan aksiyalar bo'lishi mumkin, ularni boshqa shaxsga o'tkazish tartibi ustavda belgilab qo'yiladi.

Yopiq aksiyadorlik jamiyatlari aksiyadorlarga aksiyalar o'rniga ularning nominal qiymatiga teng summada sertifikatlar berishi mumkin. Chiqariladigan aksiyalarning xillari, ularni tarqatish va joylashtirish, ular bo'yicha dividendlar to'lash tartibi aksiyadorlik jamiyatining ustavida qonun hujjatlariga muvofiq belgilab qo'-yiladi.

"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 24 – moddasiga muvofiq, aksiyalarning imtiyozli va oddiy kabi turlari mavjudligi belgilangan.

Odatda aksiyalar nafaqat divident olish huquqi va jamiyat likvidasiya qilinayotganda o'ziga tegishli mulkni olish, shu bilan birga aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ovoz berish huquqini ham beradi.

Ayrim qonunchilikda va ilmiy adabiyotlarda shuning uchun ham aksiya ovoz beruvchi deb ta`riflanadi. Oddiy aksiyalarning hammasi bir xil nominal qiymatga ega, shuningdek uning egalari bir xil huquqlarga ham ega. Aksiya qiymatining nominal, emmisiya, bozor va balans qiymatlari kabi turlari mavjud.[77]

Aksiyalarning nominal qiymati - aksiyada yozilgan pul summasidir. Nominal qiymati ko'rsatilgan holda ham, ko'rsatilmagan holda ham chiqarilishi mumkin. Bu summa sarmoya ulushini tavsiflasa-da, aksiyaning jamg'arma bozorida harakat qilishi uchun biron bir jiddiy ahamiyatga ega emas. Jamiyat mulki etakchi bo'lgan

[77] T.V.Kashenina E.A.Sudarkova "Aksionernoy pravo" prakticheskiy kurs. M.: "Imfra M.Norma" 1997 yil, 94 b

mamlakatlarda (AqSh) aksiyalar nominal qiymat ko'rsatilmay chiqarilishi mumkin. Uning narxi bozordagi talab va taklif asosida belgilanadi. Aksiyalarning nominal narxi turli mamlakatlarda turlicha. Masalan, O'zbekistonda 100 so'm, Germaniyada 50 marka, Fransiyada 100 frank. Mamlakatimizda chiqarilgan aksiyalarning nominal qiymatini qonun tomonidan ko'rsatilishi muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, ak-siyaning nominal qiymati uning egasiga ruhiy jihatdan ta`sir ko'rsatadi va qo'lidagi aksiya qandaydir mavxum majburiyat emas, balki xususiy mulkning guvohnomasi hisoblanishini bildiradi. Ikkinchidan, chiqarilgan ak-siyalarning nominal qiymatidan jamiyat ustav sarmoyasi vujudga keladi.

Aksiyalarning emissiya qiymati - birlamchi bozorda sotiladigan aksiyaning birlamchi narxi bo'lib, u nominal qiymatdan farq kiladi, bunda aksiya vositachi firma orqali sotiladi. Shuning uchun ham firma o'z vositachilik haqi foizlarini qo'yadi.

Aksiyalarning bozor (kurs) qiymati - ikkilamchi bozorlarda aksiyalarni sotilishi natijasida shakllanadi. Aksiya kursi deganda uni bozorda sotish va sotib olish qiymati tushiniladi. Aksiyaning kurs darajasi dividend miqdoriga, bank depozitlaridan keladigan foiz daromadlariga, kredit(karz)ga berilgan mablag'lardan keladigan foiz daromadlariga, bozorda erkin muomaladagi aksiyalarga nisbatan talab va taklif darajasiga bog'liq bo'ladi.

Aksiyalarning balans qiymati - moliyaviy hisobot hujjatlarida belgilanuvchi qiymat. Bu odatda muayyan birjalarda narx belgilashda aksiyalarni qimmatli qog'ozlar ruyxatiga kiritish uchun auditorlik tekshiruvlarida namoyon bo'ladi.

Oddiy aksiyalar ovoz beruvchi bo'lib, ularning egalariga divident olish jamiyatining umumiy yig'ilishida va jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi. Oddiy aksiyalar aksiyalarning ko'p tarqatilgan turi hisoblanib, ayrim hollarda jamiyatning barcha aksiyalar oddiy aksiya sifatida chiqarilishi mumkin. Aksiya egalari dividentlarni, shuningdek aksiyadorlik jamiyati tugatilganda aksiyalarga qo'yilgan mablag'larni birinchi navbatda olish huquqini beradigan aksiyalar – imtiyozli aksiyalar jamiyat tomonidan emissiya qilinishi mumkin. Imtiyozli aksiyalar ularning egalariga jamiyat foyda ko'rish yoki ko'rmasligidan qat`iy nazar muayan miqdorda divident olish huquqini beradi.

Bu kabi huquqlar turli xil huquq tizimlarida turlicha. Masalan, ayrim g'arb davlatlarida imtiyozli aksiya egalari ovoz berish huquqiga ega bo'lishi mumkin. Rossiya qonunchiligida imtiyozli aksiya ovoz berish huquqiga ega emas, unga beriladigan imtiyoz divident olishdir.[78]

Imtiyozli aksiyalar xorijiy mamlakatlarda preferensial aksiyalar yoki preferensiyalar deb yuritiladi. Bu kabi aksiyalar xususiylashtirish jarayoni borayotgan mamlakatlarda ko'p uchraydi. Xorijiy amaliyotda quyidagi imtiyozli aksiyalarning turlari chiqarilganligiga guvox bo'lamiz.

Chiqarib olish huquqini beruvchi aksiyalar. Bu aksiyalar aksiyadorlardan nominal narxlardan baland narxlarda qaytarib sotib olish huquqini beradi.

Kumuliyativ aksiyalar. Bu aksiyalar odatda to'lanishi lozim bo'lgan, ammo e`lon qilingan dividentlar to'planib boraverishini, lekin oddiy aksiyalar bo'yicha

[78] V.V.Laptev. "Aksionernoy pravo". M., Kontrakt 1990 yil, 60-b

to’lanadigan dividentlarni to’lash haqida e`lon chiqquncha, bu to’langan (kumulyasiya qilingan) dividendlarning to’lanishi lozim ekanligini nazarda tutadi.

Retretiv aksiyalar. Bu aksiyalar ularining egalariga aksiyalarning qiymatini emitentga qaytarib berish huquqini beradi. Aksiya qiymatini qaytarish shartlari, muddatlar bunday aksiyalarni daslab emissiyalash chog’ida belgilab qo’yiladi.

Konversiyalanuvchi aksiyalar. Bu aksiyalar o’z egalariga emitent tomonidan chiqarilgan boshqa qimmatli qog’ozlarga (odatda qoida bo’yicha oddiy aksiyalarga yoki obligasiyalarga) ma`lum muddat oralig’ida oldindan belgilangan narxlarda almashtirish huquqini **beradi.**

Suzuvchi yoki o’zgaruvchan kursli aksiyalar. Bu aksiyalar bo’yicha tshlanadigan dividentlar summasi foiz darajasiga qarab o’zgaradi.

Orderli aksiyalar. Ular o’z egasiga aksiyalarning ma`lum miqdorlarini sotib olish va shu bilan aksiya qadrini oshirish huquqini beradi.

Oddiy va imtiyozli aksiyalarni bir-birilan farqli quyidagicha: oddiy aksiya unga tegadigan dividend foydaga qarab har xil bo’ladi, uning miqdorini qat`iy kafolatlatlanmagan, ammo u egasi jamiyat yig’ilishida ovoz berib, uning ishini hal etishda ishtirok etish huquqini beradi. Bu aksiya egalari boshqa qimmatli qog’oz egalariga nisbatan ko’proq ma`suliyatni o’z zimmalariga olganliklari tufayli, aksiyalar bo’yicha olinadigan dividentlar yuqoriroq qilib belgilanadi. Oddiy aksiya bo’yicha dividendni olmay qolish havfi majud.

Imtiyozli aksiya unga tegadigan dividend foydaga qarab emas, balki zayomga to’langani kabi, oldindan belgilangan qat`iy foizlarga beriladi. Agar joriy yilda daromad tegmay qolsa, u xolda uning kelajakda olinishi kafolatlanadi. Ammo imtiyozli aksiya egalari umumiy yig’ilishida ovoz berish huquqiga ega emas. Imtiyozli qoida bo’yicha jamiyat ustav fondining 10 foizidan ortiq chiqarilishi mumkin emas. Jamiyat birinchi navbatda imtiyozli aksiya egalari bilan xisob-kitob qilganidan so’ng qolgan mablag’ oddiy aksiya egalariga taqsimlanadi.

Ularning afzallik tomonlari oddiy aksiyalar emitent uchun jamiyat jamg’armasining ortiqcha xarajatlarsiz va majburiyatlarsiz oshirish, investor uchun vaqti kelganda katta miqdorda dividend olishni, qimmatli qog’ozlar bozorida aksiyalarni qimmatroq narxlarda sotish asosida qo’shimcha foyda olishni, jamiyat boshqaruvida ishtirok etishni ta`minlaydi. Imtiyozli aksiyalar element uchun jamiyatni boshqarishda yuqori mavqe va imtiyoz bersa, investor uchun aksiya oldindan belgilangan foiz miqdorida birinchi bo’lib dividend olish imkonini beradi.

Aksiyalarni kamchiligi oddiy oddiy aksiyalar emitentuchun yakka holda xususiy mulk egalaridan marhum bo’lib,boshqa aksiyadorlar qatoriga qo’shilishi va jamiyatni boshqarishni murakkablashtiradi. Investor uchun jamiyatga qo’yilgan kapitaliga dividend olmay qolish xavfini vujudga keltiradi. Imtiyozli aksiyalar emitent uchun jamiyat joriy yilda foydaga ega bo’lmagan yo olgan foyda etarli bo’lmagan taqdirda ham aksiya egalariga belgilangan foiz miqdori birinchilar qatori dividentlar to’lash majburiyatini yuklaydi, investor uchun jamiyat boshqarish jarayoniga o’z ta`sirini ko’rsata olmaydi.

Bundan tashqari ilmiy adabiyotlarda element tomonidan quyidagi ko’rinishlardagi aksiya emissiya qilinishi mumkinligi ko’rsatilgan: ochiq obuna uchun chiqarilgan aksiyalar (ma`lum aksiyadorlar o’rtasida oldindan kelishilgan

holda taqsimlanish uchun chiqariladi), qayd etilgan aksiyalar (faqat nobirjaviy qimmatli qog'ozlar bozorida muomalada bo'ladi), muomaladagi aksiyalar, faol aksiyalar (doimo yuqori qiymatli bo'lib, birjalarda katta miqdorda doimiy muomalada bo'ladi, bularning kotirovkasi tez-tez e`lon qilinib turiladi, faol aksiyalarga maxsus indekslar belgilangan xollarda ular bozordagi vaziyatning indikatori vazifasini bajaradi) mukofotli aksiyalar (aksiyadorlar soniga proporsional summada jamiyatning joriy yildagi a`zolari uchun teinga aksiyalarning narxini tushirish maqsadida chaqiriladi), qayta baholashning huquqiga ega bo'lgan aksiyalar (emitentga aksiyadordan ma`lum sharoitlarda qo'shimcha badal mablag'larini talab qilish huquqini berib, odatda ko'p xollarda inflyasiya sharoitlarida chiqariladi), kafolatlangan aksiyalar (kafolatlangan dividendlarni olish huquqini beradi), vinkulirlashtirilgan aksiyalar (aksiyador jamiyat ruxsatisiz o'z aksiyalarini sota olmaydi), oltin aksiyalar (jamiyat ustav fondiga qo'shgan ulushidan qat`iy nazar muddatdavomida jamiyatning boshqarish huquqini oladi. Uning egalari umumiy yig'ilishda qabul qilingan qarorlarga veto qo'yish huquqiga ega), plyural (ko'p ovozli) aksiyalar (ular hukumron partiya a`zolarining ma`lum tabaqalariga, rael tarzda amalga oshirilgan investitsiyalardan qat`iy nazar, sanoatning etakchi tarmoqlarini o'z qo'lida ushlab turish huquqini bergan).[79]

Aksiyada aksiyadorlik jamiyati firma nomi, uning manzili, aksiyaning nomi, aksiyaning tartib raqami, chiqarilgan seriyasi, sanasi, aksiyaning turi, aksiyaning nominal qiymati, aksiya egasining ismi sharifi (nomi yozilgan aksiyalar uchun),akyiya chiqarilgan jamiyat ustav fondining hajmi, chiqarilgan aksiyalar miqdori, dividend to'lash muddati, jamiyat boshqaruvi raisi va bosh xisobchisining imzosi, sana va ro'yxatga oluvchi tashkilot tomonidan berilgan aksiyalar kodi kabi rekvizitlar bo'lishi talab qiladi. Yuqoridagi ma`lumotlarni birortasini ham yo'qligi aksiyaning g'ayriqonuniy deb topilishiga asos bo'ladi.

B) **OBLIGASIYaLAR**

Obligasiya qimmatli qog'oz turlaridan biridir, obligasiya chiqarish bilan tashkilotlar va boshqa davlat korxonalari o'zining pulga ehtiyojini qondiradi.

"Qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida"gi Qonunda belgilanishicha: "Obligasiyalar ularning egasi pul mablag'lari berganligini tasdiq etuvchi va qiymatini ularda ko'rsatilgan muddatda, qayd etilgan foiz to'langan holda, basharti obligasiyalarni chiqarish shartlarida o'zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, qoplash majburiyatlarini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozlardir" (qonunning 5 – moddasi) Obligasiya o'z egasiga qarz berganligidan guvohlik beradi hamda uning nominal qiymatini ko'rsatilgan mud-datda belgilangan foiz to'langan holda qoplash maj-buriyatini tasdiqlaydi. Obligasiya joriy yildagi byudjet kamomadini qoplash, emitentning faoliyatini moliya-lashtirish uchun qo'shimcha mablag' yaratish maqsadida emissiya qilinadi.

Obligasiyalarning turli belgilari va huquqiy muo-malasiga ko'ra quyidagicha: emitentlar bo'yicha (davlat, ma-halliy, korxonalar obligasiyalari), emissiya maqsadiga qa-rab (faoliyatni pul mablag'i bilan ta`minlash, qarzni to'lash), qarz uzish muddatiga qarab (qisqa, o'rta va uzoq), rasmiylashtirilishiga qarab (egasi

[79] Bu aksiya Germaniya fashizmi davrida emissiya қilingan. Yo.Abdullaev, Sh.Shoxa`zamov. "Қimmatli қoғozlar". T., "Mexnat", 1997 yil, 75bet.

yozilgan, taqdim etuv-chiga deb nomlangan), foiz daromadlarini to'lash shakliga qarab (o'zgarmas va o'zgaruvchan) tasniflash mumkin.

Emitent xususiyatiga ko'ra davlat, munisipal va korxona obligasiyalariga bo'linadi.

Davlat obligasiyalari taqdim etuvchiga deb nomlangan qimmatli qog'ozdir. Obligasiyalar o'zida kredit munosabatlarini aks ettirib davlat qarzdor, uni sotib olgan shaxs kreditor bo'ladi va u aksariyat hollarda hukumat emitent sifatida davlat byudjeti taqchilligini qoplash maqsadida amalga oshiriladi

Obligasiyalar quyidagi turda emissiya qilinadi:

- respublika ichki zayomlarining va mahalliy zayomlarning obligasiyalari;
- korxonalarning obligasiyalari.

Obligasiyalar oddiy va yutuqli, foizli va foizsiz (maqsadli), erkin muomaladi yuritiladigan yoki muomala doirasi cheklangan qilib chiqarilishi mumkin. Maqsadli obligasiyalarning rekviziti obligasiyalar qaysi tovarlar (xizmatlar) uchun chiqarilgan bo'lsa, shu tovarlarni (xizmatlarni) aks ettirish shart. Respublika ichki zayomlarining obligasiyalari taqdim etuvchiga tegishli qilib chiqariladi. Respublika ichki zayomlarining obligasiyalarini chiqarish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi va davlat xokimiyati mahalliy organlari tomonidan qabul qilinadi.[80]

Korxonalar va aksiyadorlik jamiyatlarining obligasiyalarini chiqarish to'g'risidagi qaror tegishli ma`muriyat va ijroiya organi tomonidan qabul qilinadi hamda bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Aksiyadorlik jamiyatlari chiqarilgan barcha aksiyalar haqi to'liq to'langandan keyingina ustav fondi miqdorining 20 foizdan ko'p bo'lmagan summada obligasiyalar chiqarilishi mumkin.

L.V.Torkanovskiy fikricha, obligasiya – yozma shakldagi qarz olish xujjati bo'lib, u tashuilotning aktivlariga qarshi qaratilgan. Obligasiyaning chiqarilishi – bu qarz olishning bir yo'lidir. Obligasiyani qoplash emitent tomonidan berilgan umumiy kafolat orqali amalga oshiriladi. Bu kafolat bo'yicha agar emitent, ya`ni obligasiya chiqaruvchi o'z vaqtida qarzni qoplamasa yoki bakrotlikka uchrasa, obligasiya egasi mol-mulkning bir qismiga ega bo'ladi.[81]

Obligasiya aksiyaga o'xshab pul mablag'larini jalb qilish investisiya qilish va aksiya kabi nominal va bozor bahosida sotilish xususiyatiga ega bo'lsada, lekin ular bir – biridan farqlidir. Obligasiyaning farqli jihati obligasiyador tashkilot kreditori bo'lib, tashkilot boshqaruvida qatnasha olmaydi. Obligasiyador obligasiya bo'yicha foiz oladi. Olingan foiz aniq ko'rsatilgan va qayd etilgan. Bu qimmatli qog'oz faqat aniq va unda ko'rsatilgan muddat bo'yicha foyda keltirilgan.[82]

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 26 mart kuni chiqarilgan «O'zbekiston Respublikasi qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risida»gi qaroriga ko'ra davlat qisqa muddatli obligasiyalar bozori ishlab turibdi. Jamiyatlarda obligasiya chiqarish summasini O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi

---

[80] Yu.Nazarov. O'zbekiston Respublikasida қimmatli қoғozlar to'ғrisidagi қonunchilik. "Xo'jalik va huquq - " 1996 yil, 10-11-son, 24-bet.

[81] L.V.Torkanovskiy. Pravovoy status sennix bumag. M., Statut. 1985 g.

[82] Kommentariy k Grajdanskomu kodeksu R.F. Pod.red.O.N.Sadikova M.Yuridformsentr. 1997 y 185 - bet

qoshidagi qimmatli qog’ozlar bozorini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Markazi belgilaydi.

V) XAZINA MAJBURIYaTLARI

Xazina majburiyatlari - bu egalari tomonidan byud-jetga pul mablag’larini berganliklarini tasdiqlovchi hamda ushbu qimmatli qog’ozlarga egalik qilishning butun muddati davomida belgilangan daromadni olish huquqini berishini ko’rsatuvchi egalik qiladigan davlat qimmatli qog’ozidir. O’zbekiston Respublikasida xazina majburi-yatlarining quyidagi turlari chiqariladi:

-uzoq muddatli (Vazirlar Maxkamasi tomonidan chiqa-rilgan qaror asosida besh yil va undan ortiq muddatga);

-o’rta muddatli (Vazirlar Maxkamasi tomonidan chiqa-rilgan qaror asosida bir yildan besh yilgacha va undan or-tiq);

-qisqa muddatli (Moliya vazirligi qarori asosida bir yilgacha bo’lgan muddatga chiqariladi).

G) DEPOZIT SERTIFIKATI

Depozit sertifikati bu pul mablag’lari omonatga qo’yilganligi to’g’risida omonatchiga belgilangan muddat tugagandan so’ng depozit summasi va unga tegishli foizlarni olish huquqini beruvchi kredit muassasining guvohnomasidir. Depozit sertifikati emitentning qisqa muddatli qarz majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog’oz bo’lib, uning afzalligi muddatning qisqaligi, likvidligi va inflyasiya bilan o’lchanganligidir. Ushbu xususiyatlari orqali uning egasiga belgilangan muddat ichida qo’ygan kapitalini ko’paymagan taqdirda ham, hech bo’lmaganda qo’ygan dastlabki miqdordagi kapitalini qaytarib olish imkonini beradi. Bu ayrim adabiyotlarda bank sertifikati deb ham yuritiladi

O’zbekiston Respublikasida 1994 yildan boshlab quyi-dagi turdagi sertifikatlar chiqarila boshlandi.

-depozit sertifikati yuridik shaxslar uchun bir yilgacha;

-depozit sertifikati jismoniy shaxslar uchun uch yilgacha;

Uning muomala muddati u berilgan sanadan boshlab egasi omonatni talab qilish huquqni oladigan sanagacha bo’ladi.

Sertifikatlar bir martali, seriyali, egasining nomi yozilgan va taqdim etuvchiga deb nomlangan turlarda chiqa-riladi. Faqat uni chiqaruvchi emitent Markaziy bank bilan kelishib qo’shimcha shartlar kiritishi mumkin.

Unda qimmatli qog’ozning nomi, sertifikatni berilish sababi, depozit yo jamg’arma omonatining kiritilish sanasi, depozit yo jamg’arma omonatining hajmi, bankning depozit yo omonatga kiritilgan summani qaytarish haqidagi so’zsiz majburiyati, omonatchining sertifikat bo’yicha summani talab qilish sanasi, depozit yoki omonatdan foydalanganlik uchun foiz stavkasi, tegishli foizlar summasi, emitentning pochta manzili, egasining nomi yozilgan sertifikat uchun esa omonatchining nomi, emitent tomonidan imzolash huquqi berilgan ikki shaxsning bank muhri bilan mustahkamlangan imzosi kabi majburiy rekvizitlar bo’lishi lozim.

Sertifikatni egasi boshqa shaxsga o’tkazishi mumkin. Egasining nomi yozilgan sertifikat bo’yicha talab qilish huquqining boshqa shaxsga o’tkazish, uning orqa

tomonidagi o’z huquqlaridan voz kechuvchi va bu huquqlarga ega bo’luvchining ikki tomonlama kelishuvi bilan rasmiylashtiriladi va u oddiy topshirish yo’li bilan amalga oshiriladi.

Banklar naqdsiz depo hisob raqamlari bo’yicha ham sertifikatlar chiqarishi mumkin. Bu holda ular bo’yicha operasiyalar hisobi bank depozitoriylarida yuritiladi.

Ularning sotilgan tovarlar va ko’rsatilgan xizmatlar uchun hisob-kitob yoki to’lov vositasi bo’lib xizmat qilishi ikkilamchi bozori rivoj topmaganligining sababi hisoblanadi.

Sertifikat chiqarish to’g’risida qaror emitentning rahbariy organi tomonidan o’z ustavi va qonun huj-jatlariga muvofiq chiqariladi.

Banklar depozit sertifikatlarini chiqarish, ro’yxatga olish va ularning muomalada bo’lish tartibi O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1994 yil 24 dekabrdagi 103-sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan maxsus qoidalar asosida, Markaziy Bankning depozit sertifikatlar chiqa-rish tartibi esa O’zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining ”Depozit sertifikatlari chiqarish, ularni muomalada bo’lishi va ularga xizmatlar ko’rsatish to’g’risida”gi Nizom bilan belgilanadi.

D) VEKSELLAR

Veksellar- uni beruvchining yoki vekselda ko’rsatilgan boshqa to’lovchining vekselda ko’zda tutilgan muddat kelganda veksel egasiga ma`lum miqdordagi summani to’lash haqidagi so’zsiz majburiyatni tasdiqlovchi qimmatli qog’ozdir. Ya`ni veksellar bir shaxs tomonidan ikkinchi shaxsga yozib berilgan qarz majburiyatini ifodalovchi, tijorat savdo operasiyalarida ayriboshlash va muomala vositasida pul, chek va boshqa to’lov vositalarini o’rnini qoplaydigan, qonun bilan tasdiqlangan holatda majburiy rekvizitlarga ega bo’lgan va rasmiylashtirilgan kredit - qarzdorlik tilxatidir. Vekselni boshqa turdagi qimmatli qog’ozlardan uni sotish orqali bozor va korxonalardan pul mablag’i iqtisodiy muomalaga jalb qilishda veksel depozit funksiyasini bajarishi bilan farqlanadi.

Veksel muomaladagi pul miqdorini kamaytirish, markazlashtirilgan kreditlar berishni cheklash, xalq ho’jaligida hisob kitoblarni normallashtirish va korxonalar-ning o’zaro to’lamagan qarzlarini kamaytirish maqsadida emissiya qilinadi. O’zbekiston Respublikasida veksel muomalasi 1994 yil 24 dekabrda veksellarni muomalaga kiritishni tartibga soluvchi qator normativ hujjatlar asosida keng qo’llanila boshlandi[83].

Veksellar emitentlar bo’yicha davlat va xususiy, amal-larni bajarish bo’yicha moliyaviy va hisobot, qo’llanish nuqtai nazaridan oddiy va o’tkazma veksel tarzida turkumlanadi.

O’tkazma veksel - veksel beruvchi kreditorning qarz-dorga ma`lum pul summasini ko’rsatilgan muddatda uchinchi shaxs-birinchi oluvchiga to’lash buyrug’ini ifodalovchi hujjat[84].

---

[83] 1994 йил 24 декабрдаги Ызбекистон Республикаси Марказий банкининг Векселларни хыжалик оборотида =ыллашга доир тавсиялар (31-7 "г" сонли =арори), Банкларнинг вексел операцияларини амалга ошириш =оидалари(31-7 "б" сонли =арори), тижорат банкларининг оддий векселини чи=ариш ва унинг муомалада былиш =оидалари(31-7 "в" сонли =арори)

[84] Бу ерда ытказма вексел тратта, кредитор трассант,=арздор трассат деб номланади.

Oddiy veksel veksel beruvchining muayyan pul summasini ko'rsatilgan muddatda kreditorga to'lash majburiyatini ifodalovchi hujjat.

Oddiy veksellarning majburiy rekvizitlari - qim-matli qog'ozning nomi, muayyan summani to'lash haqidagi oddiy va hech narsa bilan shartlashilmagan va`da, to'lov muddati va joyi, to'lov kimga yoki kimning buyrug'i bilan bajarilishi lozimligi xususidagi shart, tuzish sanasi va joyi, hujjat bergan shaxsning imzosini tashkil etsa, o'tkazma vekselning majburiy rekvizitlari - qimmatli qog'ozning nomi, muayyan summani to'lash haqidagi oddiy va hech narsa bilan shartlashilmagan va`da, to'lovchining nomi, to'lov muddati va joyi, to'lov kimga yoki kimning buyrug'i bilan bajarilishi lozimligi xususidagi shart, tuzish sanasi va joyi, hujjat bergan shaxsning imzosini tashkil etadi.

Jahon amaliyotida veksellarning qoplangan veksel, bronza veksel, tijorat veksel, xazina veksel kabi turlari uchraydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 19 martdagi Farmoniga muvofiq korxona va tashkilotlarning veksellarni chiqarishiga faqat ularga etkazib berilgan tovarlar, ishlar, xizmatlar uchun hisob-kitob qilishga ularda pul mablag'lari etishmovchiligini qoplash uchun xizmat ko'rsatilayotgan bank tomonidan majburiy tarzda veksel topshiriqnomasining rasmiylashtirilishi bilan ruxsat etiladi.

Veksellarning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishi o'tkazma yozuv indossament (veksel ustidan ushbu hujjat bo'yicha huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazilganligini tasdiqlovchi qimmatli qog'oz) yordamida amalga oshiriladi.

D) HOSILA QIMMATLI QO/OZLAR

Hosila qimmatli qog'ozlar - shartnoma bo'lib, ular bo'yicha bir tomon qimmatli qog'ozlarning ma`lum bir miqdorini ma`lum muddatda kelishilgan narxda sotib olish yoki sotish huquqi yoxud majburiyatini oladi, ya`ni hosilaviy qimmatli qog'ozlar birlamchi qimmatli qog'ozlarning (aksiya, obligasiya) shu bozorda amal qilishi natijasida hosil bo'lgan ikkilamchi qimmatli qog'oz hisoblanadi

O'zbekiston Respublikasida "Hosila qimmatli qog'ozlarni chiqarish va ularning muomalada bo'lishi haqida"gi Nizomga muvofiq respublika hududida faqat ularning negizida aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlari yotadigan hosila qimmatli qog'ozlari chiqariladi.

Hosila qimmatli qog'ozlar naqd va naqdsiz shakllarda chiqariladi. Hosila qimmatli qog'ozlar sinflarga (bu uning negizida bitta bazis aktivi yotadigan bir turdagi qimmatli qog'ozlarga) va seriyalarga (ijro bahosi va amal qilish muddati bir xil bo'lgan bir sinfning hosila qimmatli qog'ozlarga) bo'linadi.

Hosilaviy qimmatli qog'ozlar opsion, f`yuchers, depozit tilxatlar, varrant, privatizasiya cheklari va kuponlari ko'rinishida chiqariladi.

Opsion, bu bitimda ishtirok etayotgan tomonlarning biriga qimmatli qog'ozlar ma`lum bir miqdorini muayyan vaqt mobaynida belgilangan narxda sotib olish yoki kontragentga sotish huquqini beruvchi shartnoma bo'lib, kontragent mukofot evaziga ushbu huquqni amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Uning o'ziga xos xususiyati, egasi qimmatli qog'ozning o'zini xarid qilmay uni sotib olish yo sotish huquqiga ega bo'ladi. Uning majburiy rekvizitlari sifatida nomi (xarid qilish uchun opsion yoki sotish uchun opsion), davlat ro'yxatiga olingan sana va raqam, opsionni

ro’yxatdan chiqarish sanasi, opsion emitentining nomi, manzili va bank rekvizitlari, emitentning bazis aktivini sotish yo sotib olish majburiyati, amal qilish muddati yoki ijro sanasi, bazis aktivining o’ziga xos xususiyati, emitentning imzo va muhri e`tirof etiladi.

Opsionlarning egasi yozilgan va ko’rsatuvchi egalik qiladigan turlarda bo’lib, ular bilan bo’ladigan operasiyalar birjalar yo birjadan tashqari bozorlarda amalga oshiriladi.

Varrant bu egasi ma`lum muddatda yo ma`lum bir kunda varrantlar emitenti tomonidan dastlabki chiqarilgan qimmatli qog’ozlarni xarid qilish huquqini olganligini tasdiqlovchi hujjatdir. Varrantda uning nomi, davlat ro’yxatiga olingan sana va raqam, uni ro’yxatdan chiqarish sanasi, emitentning nomi, manzili, bank rekvizitlari, emitentning bazis aktivini sotish majburiyati, amal qilish muddati yoki ijro sanasi, bazis aktivining o’ziga xos xususiyati, xaridor nomi(egasi yozilgan varrant uchun), emitent imzosi va muhri kabi majburiy rekvizitlar bo’ladi.

F`yuchers kelishilgan miqdordagi qimmatliklarni ma`-lum vaqt mobaynida bitim tuzish vaqtida belgilangan narxda etkazib berish to’g’risidagi shartnomalarni o’zida nazarda tutadi. Uning asosiy belgisi - narxining aniq-ligi va ijro etishning majburiyligidir O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga ko’ra, f`yuchers - bu ma`lum qimmatli qog’oz va boshqa moliyaviy vositalarni shartnomada belgilangan ma`lum kelajak sanada sotib olish yo sotish majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog’oz, ya`ni u tovarlarni kelishilgan muddatda shartnoma tuzilgan kunda o’rnatilgan narxda kelajakda sotish yoki sotib olish majburiyligi to’g’risidagi shartnomadir. F`yuchersning o’z huquqini amalga oshirishdan bosh tortishni nazarda tutuvchi opsionlar va varrantlardan farqi ijro etish uchun majburiyligidir. F`yuchersning o’ziga xos xususiyati shundaki, kontrakt tuzish chog’ida sotuvchi qo’lida hech qanday qimmatli qog’oz bo’lmaydi. Bu erda shartnoma shartlari qat`iy belgilangan baho bilan oldi-sotdi bajariladigan kun bahosi o’rtasidagi farqqa asoslanadi. F`yuchersning majburiy rekvizitlari: uning nomi, davlat ro’yxatiga olingan sana va raqami, f`yuchersni ro’yxatdan chiqarish sanasi, uning turi, emitentning nomi, manzili, bank rekvizitlari, emitentning bazis aktivini sotish majburiyati, ijro sanasi, bazis aktivini o’ziga xos xususiyati, emitentning imzo va muhri hisoblanadi. F`yucherslar bilan operasiyalar faqat mamlakatimizda birjalar orqali amalga oshiriladi.

3-§. qimmatli qog’ozlar bozorini davlat tomonidan tartibga solinishi: yo’llari va vositalari

Respublikamizda qimmatli qog’ozlarni xo’jalik muomalasida bo’lishini ta`minlovchi tashkiliy-huquqiy tizim to’g’risida so’z boshlashdan oldin, ta`kidlash joizki, O’zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar mavjud bo’lgan tu-zum qimmatli qog’ozlarni faqatgina soxta kapital sifatida talqin etib, unga kapitalistik ishlab chiqarishning asosiy unsuri sifatida qarab keldi.

Respublikamizning mustaqillikka erishishi bozor qo-nuniyatlari asosida ishlab chiqarish munosabatlarini qayta ko’rib chiqilishini taqozo etib, jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishida qimmatli qog’ozlar bozorini vujudga kelishini

zaruratga aylantirdi va iqtisodiyotda ushbu bozor segmentini rivojlantirishning dolzarbligini keskin oshirdi.

O'zbekiston Respublikasining hozirgi vaqtda amalga oshirayotgan iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri, iqtisodiyotning turli sohalarida faollikni jonlantirishga qaratilgan moliyaviy barqarorlikka erishishdan iboratdir. Oxirgi yillar davomida o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida mamlakatimizda bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi bo'lgan qimmatli qog'ozlar bozorining shakllanishiga va uning xo'jalik muomalalarida bo'lishligiga erishilmoqda. Ushbu qisqa davr mobaynida O'zbekiston bozorida turli xil qimmatli qog'ozlar, jumladan, xususiylashtirilgan davlat korxonalari va yangidan yaratilgan korxonalar aksiyalari, davlat va korporativ obligasiyalar, tijorat banklarining depozit sertifikatlari, veksellar va boshqalar paydo bo'ldi.

1991 yilning oxirlaridan boshlab, qimmatli qog'ozlar chiqarish va ularning muomalasi (harakati), fond birjasi va investision institutlarning faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qator qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, 1997 yil 1-martdan kuchga kir-gan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, 1993 yil 2-sentyabrda qabul qilingan «qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida»gi, 1996 yil 25-aprelda qabul qilingan «qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatish mexanizmi to'g'risida»gi, 1996 yil 26-aprelda qabul qilingan «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi[85], 1998 yil 24-dekabrdagi «Investision faoliyat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining qabul qilinishi mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozori shakllanishi bilan bog'liq qonunchilik asoslarini yaratib berdi.

Iqtisodiyotda qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatining naqadar muhimligini nazarda tutib, mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov «...qimmatli qog'ozlar bozorining ahvoliga qarab, bozor munosabatlarining qaror topish jarayoni qay darajada jo'shqin borayotganligi haqida fikr yuritish mumkin»[2]ligi to'g'risidagi fikrni alohida ta`kidlagan edi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 96-moddasiga binoan: «mulkiy huquqlarni belgilangan shaklga va majburiy rekvizitlarga amal qilgan holda tasdiqlovchi hujjatlar qimmatli qog'ozlar hisoblanib, ularni taqdim etgan taqdirdagina mazkur huquqlarni amalga oshirish yoki boshqa shaxsga berish mumkin bo'ladi».

qimmatli qog'ozlar boshqa shaxsga berilishi bilan ular tomonidan tasdiqlanadigan hamma huquqlar ham o'sha shaxsga o'tadi.

qimmatli qog'ozlar bozori - jismoniy va yuridik shaxslarning qimmatli qog'ozlar chiqarish, ularning muomalada bo'lishi va haqini to'lash bilan bog'liq munosabatlar tizimidir.[86]

---

[85] Мазкур +онунга 27.12.1996 йил 357-1-сон +онун, 26.12.1997 йил 549-1-сон +онун, 29.08.1998 йил 681-1-сон +онун, 20.08.1999 йил 832-1-сон +онун, 15.12.2000 йил 175-11-сон +онунлари билан ызгартириш ва +ышимчалар киритилган.

[2] И.А.Каримов «Ызбекистон XXI аср быса\асида: хавфсизликка тащдид, бар=арорлик шартлари ва тара==иёт кафолатлари». Т.,Ызбекистон., 1997., 199-200-б.

[86] Каратуев А.Г. Ценные бумаги: виды и разновидности. Учебное пособие. – М.: Русская деловая литература, 1998.-11-б.

qimmatli qog’ozlar bozori qatnashchilari - qimmatli qog’ozlarning emitentlari, investorlar, investisiya ins-titutlari, shuningdek ularning birlashmalari (uyushmalari), fond birjalari (birjalarning fond bo’limlari), davlat tomonidan qimmatli qog’ozlar bozorini boshqarish va muvofiqlashtirish vakolati berilgan organlar va bosh-qalardan iborat.

qimmatli qog’ozlar muomalasi deganda, ularni sotib olish va sotish, shuningdek O’zbekiston Respublikasi qo-nunlarida nazarda tutilgan, qimmatli qog’ozlar egasining o’zgarishiga olib keladigan boshqa hatti-harakatlar bilan bog’liq faoliyat tushuniladi. Chiqarilishi davlat ro’yxatidan o’tkazilgan va belgilangan ro’yxat raqamini olgan qimmatli qog’ozlargina O’zbekiston Respublikasi hududida muomalaga kiritilishi mumkin.

4-§. Fond birjalari, ularning tuzilishi va vazifalari

Fond birjasi - qimmatli qog’ozlar bozori infratuzilmasining muhim qismlaridan biri hisoblanib, u o’zaro ulgurji amallar qilish maqsadida qimmatli qog’ozlar bozorining professional qatnashchilari tomonidan tashkil etilgan andozalarga muvofiq moliyaviy aktivlar bilan savdo-sotiq qilish uchun uyushtirilgan bozor bo’lib, uning faoliyati qimmatli qog’ozlarning bir maromda muomalada bo’lishining zarur shart-sharoitlarini ta`minlashga, ularning bozor baholarini (qimmatli qog’ozlar talab va taklifi o’rtasidagi muvozanatni aks ettiruvchi narxlarni) belgilash va ularga doir ma`lumotlarni keragicha tar-qatishga, qimmatli qog’ozlar bozori qatnashchilarining kasb mahoratini yuqori darajada bo’lishini qo’llab-quvvat-lashga qaratiladi.

Fond birjalarining vazifalari quyidagilardan ibo-rat:

-qimmatli qog’ozlarning birlamchi va keyingi sotilishi uchun markazlashtirilgan hudud yaratish;

-qimmatli qog’ozlarning bozor bahosini aniqlash;

-vaqtincha bo’sh turgan pul mablag’larini jamg’arib, uni qayta taqsimlash;

-birja savdolarini ochiqligi va uning natijalarini oshkoraligini ta`minlash;

-birja savdosi bilan bog’liq vujudga kelgan nizolarni xolis shaxslar tomonidan ko’rib chiqilishi;

-birjada tuzilgan bitimlarning ijrosini kafolatlash;

-birja savdolarini uning qatnashchilari tomonidan qat`iy o’rnatilgan tartib qoidalarga asosan o’tkazish va h.k.

«qimmatli qog’ozlar va fond birjasi to’g’risida»gi qonunning 22-moddasida fond birjasining huquqlari keltirilgan bo’lib, unga asosan fond birjasi:

investisiya muassasalarining birja a`zoligiga kirishida ularga qo’yiladigan eng kam majburiy talablarni belgilash;

birja oldi-sotdilarida birja a`zolari vakillarining malakasiga qo’yiladigan talablarni belgilash;

birja yig’ilishlarini chaqirish va o’tkazish;

ekspert, malaka va baholash komissiyalari, maslahat va ma`lumotnoma beruvchi sho’`balar hamda ularning ishlashi uchun kerakli boshqa muassasalar, shuningdek qimmatli qog’ozlar muomalasini amalga oshirishdagi nizolarni hal qiladigan komissiyalar ta`sis etish;

o’z nizomiga muvofiq birja a`zolari to’laydigan kirish va joriy badallarni undirib olish, bitimlarni ro’yxatga olganlik, texnik xizmat ko’rsatganlik uchun doimiy va bir galgi mijozlardan birjada bo’lganlik uchun haq undirib olish, shuningdek birja nizomini, birja yig’ilishlari qoidalarini buzganlik, ro’yxatdan o’tkazish yig’imini vaq-tida to’lamaganlik uchun jarima va penyalar undirib olish;

birja bukletlari, ma`lumotnomalari, to’plamlarini chop etish;

nazorat qiluvchi organlarning qonunga xilof xatti-harakatlari ustidan sud tartibida shikoyat qilishga haq-lidir.

Fond birjasi birja savdolari vaqtida bitimlar tuzish, tuzilgan bitimlar bo’yicha solishtirish va hisob-ki-toblar tartibini mustaqil ravishda ishlab chiqadi va tas-diqlaydi. Fond birjalari va fond bo’limlari o’z Nizomi (boshqa turdagi birjalarning fond bo’limi to’g’risidagi nizom), qimmatli qog’ozlarga doir bitimlarning amalga oshirishning ichki qoidalari asosida ish yuritadi.

Fond birjasida qimmatli qog’ozlarning quyidagi tur-lari, chunonchi aksiya, obligasiya, davlat xazina majburiyatlari, jamg’arish va depozit sertifikatlari, veksellar, opsionlar, f`yucherslar va boshqalar muomalada bo’lishi mumkin. Fond birjasi haqida gap ketar ekan, mazkur tashkilot alohida uyushgan ishtirokchilar bozori bo’lib, unda eng yuqori sifatli qimmatli qog’ozlar muomalada bo’lishini ta`kidlash o’rinlidir. Operasiyalarni asosan qimmatli qog’ozlar bozorining ishtirokchilari bajaradi. Fond birjasining boshqa bozorlardan farqlab turadigan belgilari mavjud bo’lib, bular asosan, savdo o’tkazilishining muayyan vaqti va joyi, ishtirokchilarning muayyan doirasi, savdo sotiqning muayyan qoidalari va ishtirokchilarning ushbu qoidalarga qat`iy amal qilishi, savdo sotiqning tegishli lisenziyaga ega bo’lgan muayyan muassasa tomonidan tashkil etilishi bilan xarakterlanadi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda qim-matli qog’ozlar muomalasini tashkil etish borasida fond birjalarining roli juda katta bo’lsada, fond boyliklari oldi-sotdisida birja va birja mexanizmlarining ahamiyati muntazam ravishda pasayib bormoqda. Aslini olganda, aloqaning yuqori samarador vositalari mavjud bo’lganda, birja unchalik zarur ham emas.[1] /arb mam-lakatlarida fond birjalari moliyaviy aktivlar savdo-sotig’i amalga oshiriladigan tashkilot sifatida o’z mav-qeini yo’qotib bormoqda. Borgan sari hisob-kitob va fond boyliklarini savdo qilish markazlariga aylanib borayotgan tijorat va investisiya banklari fond birjalarining asosiy raqiblari bo’lib maydonga chiqmoqda.

Fond birjasi O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so’ng bozor infratuzilmasi sifatida «Toshkent» tovar xom ashyo birjasining fond bo’limi sifatida 1991 yilda vujudga keldi. Keyinchalik O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 21-yanvardagi Farmoniga asosan u alohida mustaqil «Toshkent» Respublika fond birjasiga aylantirildi. 1994 yil 8-apreliga kelib, «Toshkent» Respublika fond birjasi yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyati shaklida davlat ro’yxatidan o’tkazilib, 1997 yil

[1] +имматли =о\озлар: Акциядор ва тадбиркорнинг маълумот берувчи =ылланмаси / Тузувчилар: Ш.Р./афуров, Д.И.Шаулов, У.Т.Кан; Тащрир кенгаши: Б.А.Хыжаев ва бош=.- Тылдирилган ва =айта ишланган 4-нашри.-Т.: «И=тисодиёт ва щу=у= дунёси» нашриёт уйи, 2000 й. 93-бет. («Бухгалтер кутубхонаси» туркуми. 3-чи=арилиш). Рынок ценных бумаг: Учебник. Под ред. В.А.Галанова, А.И.Басова. -М.:- Финансы и статистика, 1996.-139-б.

20-oktyabrda birjaning aksiyadorlarining umumiy yig'ilish qaroriga asosan ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilgan. Hozirgi vaqtda mazkur fond birjasida amalga oshiriladigan savdo va hisob-kitoblar tizimi elektron hisoblash mashinalari bazasidagi komp`yuter tarmog'i negizida avtomatlashtirilgan bo'lib, u birja, depozitariya filiallari va shahar mintaqaviy brokerlik idoralarini yagona majmuasi bilan aloqani ushlab turish imkonini beradigan axborot-hisoblash tizimini tashkil etadi. Butun tarmoq markaziy komp`yuterga ulangan bo'lib, ushbu tarmoqqa turli joylardan keladigan barcha axborotlar jamlanadi. Investorlar va manfaatdor shaxslar narxlar kotirovkasi to'g'risidagi ma`lumotlarni axborot tochkalari va birja axborot byulletenlari yordamida olish imkoniyatlariga egadirlar. Fond birjasida umumiy va maxsus xizmatlardan tashqari malaka komissiyasi, ekspert-kotirovkalash komissiyasi va nizo komissiyasi faoliyat ko'rsatadi. 2-son ilovada «Toshkent» Respublika fond birjasining tashkiliy tuzilmasi to'g'risidagi sxemani keltiramiz.

O'zbekiston Respublikasining «Birjalar va birja faoliyati to'g'risida»gi qonunining 11-moddasiga asosan, birjalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan har qanday tashkiliy-huquqiy shaklda tuzilishi mumkin bo'lib, uning ustav fondi ro'yxatga olingan sanadagi holatga ko'ra, eng kam ish haqining o'n ming baravari miqdoridan kam bo'lmasligi kerak.

Fond birjalari tashkiliy-huquqiy tuzilishi bo'yicha jahon miqyosida qaraydigan bo'lsak, unda turli xilda tuzilgan birjalarni uchratishimiz mumkin. Xususan, fond birjalari AqSh, Yaponiya, Kanada davlatlarida notijorat korxonalari shaklida tuzilgan bo'lsa, Buyuk Britaniya, Avstraliya davlatlarining fond birjalari ma`suliyati cheklangan jamiyatlar shaklida tuzilgan. [87]

Birjadan tashqari bozor deganda, fond birjasini chetlab o'tib qimmatli qog'ozlar bilan savdo qilish tushuniladi. qimmatli qog'ozlar bilan fond birjasida hamma vaqt va har doim muomalalar qat`iy tarzda o'rnatilgan tartib-qoidalar asosida bozorning ishtirokchilari orasidan tanlanadigan birja vositachilari o'rtasida o'tkazilsa, birjadan tashqari bozor aloqa va komp`yuter tizimlariga asoslanib o'tkaziladi va bunda bitimlar oldindan belgilab qo'yilgan joyda tuzilishi shart bo'lib hisoblanmaydi. Birjadan tashqari bozor fond birjasiga o'xshab uyushgan ham bo'lishi mumkin, ammo ko'pincha bunday bozorlar uyushmagan tarzda mavjud bo'ladi. qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari bozori bilan bir qatorda qimmatli qog'ozlarning yana bir savdo-sotiq amalga oshiriladigan bozori borki, u fanda «ko'cha» bozorlari sifatida e`tirof etiladi. qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari va «ko'cha» bozorlari bir xil toifadagi bozorlar hisob-lanmaydi. Birjadan tashqari bozor uyushgan va uyushmagan tarzda mavjud bo'lishi mumkin bo'lib, unda mayda ulgurji savdolari o'tkazilsa, «ko'cha» bozori uchun uyushmaganlik xususiyati xosdir. Birjadan tashqari bozorda fond birjalarida kotirovkada qo'yilmagan qimmatli qog'ozlar kiritiladi va ularning savdosi amalga oshiriladi. Bunday qimmatli qog'ozlar etarlicha daromadga ega bo'lmagan, ularning emitentlari zaif moliyaviy barqarorlikka ega bo'lgan qimmatli qog'ozlar bo'lib hisoblanadi. Birjadan tashqari bozorda qimmatli qog'ozlarni muomalasi bilan fond do'konlari shug'ullanadi.

---

[1] Миркин Я.М. Ценные бумаги и фондовый рынок. М.:Перспектива. 1994 г., б.418-422 .

Fond do’konlari qimmatli qog’ozlarni jismoniy shaxs-lar uchun birjadan tashqari kichik ulgurji va chakana sav-dolarni amalga oshiruvchi investision institutlarning tarkibiy bo’linmasi hisoblanadi. Fond do’konlari investision vositachilar, investision va boshqaruv kompaniyalari tomonidan tashkil etilishi mumkin.

Fond birjalari tomonidan qimmatli qog’ozlar bozorini tashkil etish bilan bog’liq talablarning kun sayin yuqorilab murakkablashib borishi fond birjalari atrofida talablari pasaytirilgan bozorlarning paydo bo’lishiga zarurat tug’diradi.

Bu holat hozirgi paytda /arb mamlakatlari bozoriga xos hodisa sifatida ko’z o’ngimizda namoyon bo’lmoqda. Jumladan, Londondagi «Kotirovka qilinmaydigan qimmatli qo-g’ozlar bozori», Parijdagi «Ikkinchi bozor», Amsterdam-dagi «Parallel bozor»lar aynan shular jumlasidandir.

Fond birjalarining a`zolari to’g’risida so’z ketar ekan, aytish joizki, qimmatli qog’ozlarni xarid qilish yoki sotishni xohlovchilarning hammasiga ham fond birjasiga kirish uchun ruxsat berilmaydi. Unda faqatgina birjaning a`zolarigina ishtirok etishlari mumkin. Har bir fond birjasi, odatda, birja a`zoligiga kirish, a`zolikni to’x-tatish, birja a`zoligidan mahrum etish tartibini, birja a`zolarining huquq va majburiyatlarini belgilab beruvchi birja a`zolari haqida nizomga ega. Fond birjasiga ushbu birjadan brokerlik joyini sotib olgan yuridik va jismoniy shaxslar a`zo bo’lishi mumkin. Birjaga shuningdek, istalgan tashkiliy-huquqiy shakldagi muassasalar a`zo bo’la oladi. Ayni paytda davlat hokimiyati va bosh-qaruvi, prokuratura, sud idoralari, ularning mansabdor shaxslari hamda mutaxassislari fond birjasiga a`zo bo’la olishmaydi.

Fond birjasi a`zolarining miqdorini birjaning boshqaruv organlari belgilaydi. Chet mamlakatlar amaliyotiga e`tibor beradigan bo’lsak, fond birjalari a`zoligiga ma`lum cheklovlar o’rnatilganligini ko’rishimiz mumkin. Ayrim mamlakatlarda, jumladan AqShda jismoniy shaxs-larni a`zo sifatida ishtirok etishda ustunlik berilsa, Yaponiya va Kanada singari mamlakatlarda yuridik shaxs-larning o’rni yuqoriligini kuzatish mumkin. Uchinchi bir mamlakatlarda birja a`zoligiga jismoniy va yuridik shaxslar bir xilda ishtirok etish imkoni beriladi.

Bundan tashqari, ko’pgina chet el mamlakatlarida birjalar faoliyatiga ajnabiy fuqarolar va yuridik shaxslar ishtirok etishiga ruxsat etilgan bir vaqtda, ayrim mamla-katlarda jumladan, Kanada va Fransiyada ajnabiy shaxslarning birjaga a`zo bo’lishligi yoki ularni ustav fondidagi ishtiroki cheklanadi.[88] Bizning mamlakatimiz qo-nunchiligida bu masalada biron bir cheklashlar kuzatilmaydi.

«Toshkent» Respublika fond birjasining a`zolari quyidagi huquqlarga ega:

qimmatli qog’ozlar bozorining mutaxassisi malaka shahodatnomasiga ega bo’lgan va birjani o’zining malaka komissiyasidan savdolarda ishtirok etish uchun ruxsat olgan o’z vakillarini birjada brokerlar sifatida akkreditlash;

brokerlik faoliyatiga taalluqli bo’lgan masalalarni hal etishda «Toshkent» RFBning a`zolari to’g’risidagi nizomda ko’zda tutilgan tartibda ishtirok etish;

birjaning xizmatlaridan amaldagi qonunchilik va birja hujjatlari bilan belgilangan chegaralarda foydalanish;

[88] Рынок ценных бумаг: Учебник. Под ред.В.А.Галанова, А.И.Басова.-М.:- Финансы и статистика,1996.-б.134

birja boshqaruviga birjaning faoliyatini takomillashtirish masalalariga doir takliflar kiritish;

brokerlik joyini ijaraga berish;

brokerlik joyini birja tomonidan belgilangan tartibda sotish.

Birjaning vaqtinchalik a`zolari ham uning to'la hu-quqli a`zosiga beriladigan huquqlarga ega, faqat broker-lik joyini sotish va ikkilamchi ijaraga berish huquq-lari bunga kirmaydi.

Fond birjasining a`zolari quyidagi majburiyatlarga ega:

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va umuman qim-matli qog'ozlar bozori to'g'risidagi boshqa me`yoriy huj-jatlarga, xususan, fond birjasining ichki hujjatla-riga, uni boshqarish organlarining qarorlariga rioya qilish;

muntazam a`zolik badallarini o'z vaqtida to'lash;

tijorat sirlarini saqlash va o'z mijozlari, kontragentlar va birja haqidagi maxfiy axborotni oshkor etmaslik;

ishdagi odob-axloq me`yorlariga rioya etish;

birjaga o'zining yuridik manzili yoki turar joyi o'zgarganligi haqida o'z vaqtida xabar berish va boshqalar.

5-§. qimmatli qog'ozlar bozorida investisiya institutlarining tarkibi va ularning faoliyati

Ma`lumki, qimmatli qog'ozlar bozorida investisiya institutlarining qator turlari faoliyat ko'rsatishi mumkin. Bular qatoriga investisiya vositachisi (moliya brokeri va dileri), investisiya maslahatchisi, investisiya kompaniyasi, investisiya fondi, boshqaruvchi kompaniya, depozitariy, hisob-kitob-kliring palatasi (tashkiloti), qim-matli qog'ozlar egalarining reestrini saqlovchi, qimmatli qog'ozlarni nominal saqlovchilar kiradi.

Investisiya fondlaridan tashqari, barcha turdagi investisiya institutlari har qanday tashkiliy-huquqiy shaklda tuzilishi mumkin. Faqat investisiya fondining ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati shaklida bo'lishi talab etiladi.

Amaldagi qonun hujjatlariga binoan, qimmatli qo-g'ozlar bozorida savdoni lisenziya asosida ish olib boradigan qimmatli qog'ozlar bozorining professional qat-nashchilaridan biri hisoblangan fond birjalari (birjalarning fond bo'limlari) va investisiya institutlari tashkil etadilar va shu joylarda qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi amalga oshirilib, qimmatli qog'ozlar muomalasi bilan bog'liq fuqarolik huquqiy bitimlar bevosita tuzi-ladi.

Barcha turdagi bozorlarda savdo qilishning o'z prin-siplari bo'lganidek, qimmatli qog'ozlarning bozorida savdo qilishning ham o'z prinsiplari bor. Bu prinsiplar quyi-dagilardan iborat:

- barcha potensial investorlar o'z mablag'larini foydali tarzda joylashtirishlari uchun ularga shart-sharoitlar yaratib berish;

-qimmatli qog'ozlar bozorida tuziladigan bitim-larning ixtiyoriyligi;

-erkin raqobat yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish;

-narxlarni real tarkib topadigan talab va taklif asosida belgilash;

-qimmatli qog’ozlar bozori to’g’risidagi qonun huj-jatlariga uning barcha qatnashchilarining qat`iy rioya etishi;

-birja va birjadan tashqari operasiyalar, kotirovkalar, emitentlarning moliyaviy holati to’g’risidagi axborotlar oshkor etilishining shartligi;

-o’z faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirayotgan barcha investorlar va emitentlar uchun bozordan foydalanish mumkinligi;

-qimmatli qog’ozlar va ularning emitentlariga doir axborotlarning to’la oshkor etilishini, oshkoralikni va axborotdan barcha qatnashchilar foydalana olishini ta`-minlash;

-investorlar va emitentlarni manfaatlarini himoya qilish;

-qimmatli qog’ozlar bozorida tovlamachilik va boshqa noqonuniy faoliyatni ta`qiqlash va ta`qib qilish va boshqalar.

Investorlar tomonidan sotib olingan qimmatli qog’oz-lar birja bozorlari va birjadan tashqari bozorlarda qayta sotilishi mumkin. Investorlar oldi-sotdilarni investisiya institutlari orqali ham, mustaqil holda ham amalga oshirishlari mumkin.

qimmatli qog’ozlar bozorida investisiya vositachisi hisoblangan brokerlik va (yoki) dilerlik faoliyatini amalga oshirayotgan institut mavjuddir. Brokerlik faoliyati shundan iboratki, bunga binoan topshiriq shartnomalari va vositachilik haqi asosida yoxud bitimlar tuzish uchun berilgan ishonchnoma asosida ish olib borib, vakolatli shaxs yoki vositachi sifatida qimmatli qog’ozlar yuza-sidan fuqarolik-huquqiy bitimlarni amalga oshirish bilan bog’liq faoliyat tushuniladi. Dilerlik faoliyati esa muayyan qimmatli qog’ozlarni sotib olish va (yoki) sotish narxlarini oshkora e`lon qilish hamda ushbu qimmatli qo-g’ozlarni e`lon qilingan narxlari bo’yicha sotib olish (yoki) sotish majburiyatini olish yo’li bilan o’z nomidan va o’z hisobidan qimmatli qog’ozlarga doir fuqarolik-huquqiy bitimlarni amalga oshirish bilan bog’liq faoliyat tushu-niladi.

qimmatli qog’ozlar bozorida maslahat berish faoliyati bilan shug’ullanuvchi investisiya instituti jismoniy yoki yuridik shaxs hisoblangan investisiya maslahatchisi hisoblanadi. Bunday maslahatchilar mijozlarga zarur axborotlar va qimmatli qog’ozlarni sotish va sotib olish bo’-yicha maslahatlar beradilar.

qimmatli qog’ozlar bozorida faoliyat yurituvchi yuridik shaxs hisoblangan investisiya kompaniyalarining vazifasi, o’rni va roli shundan iboratki, ular qimmatli qog’ozlar chiqaradigan va ularni joylashtirish bo’yicha uchinchi shaxs-lar foydasiga kafolatlar berib, qimmatli qog’ozlarga mablag’ sarflab, o’z nomidan va o’z hisobidan, shu jumladan qimmatli qog’ozlarni kotirovkalash[89] hisobidan qimmatli qog’ozlarni oldi-sotdisini amalga oshiradilar.

Investisiya institutining turi sifatida investisiya fondlarining vazifasi shundan iboratki, mazkur fondlar yuridik shaxs sifatida investorlarning pul mablag’larini ishga solish maqsadida aksiyalar sotib olish va aksiyalar chiqarish hamda mablag’larni fond nomidan qimmatli qo-g’ozlarga, banklardagi hisob varaqlarga va omonatlarga qo’-yishdan iboratdir.

---

[89] Котировкалаш - инвестиция компаниясининг сотиш ёки сотиб олиш мажбуриятини ыз зиммасига олиб, муайян =имматли =о\озларнинг сотиш нархини ва сотиб олиш нархини эълон =илишидир.

Investisiya fondlarining mablag'larni bunday qo'yish bilan bog'liq tavakkalchiligi, bu mablag'larning bozordagi qadri o'zgarishidan keladigan daromad va ko'riladigan zarar to'la-to'kis ushbu fond egalari (aksiyadorlari) hisobiga o'tkaziladi va ular tomonidan fond aksiyalarining joriy narxlari o'zgarishi hisobiga realizasiya qilinadi. Shuni alohida ta`kidlash joizki, banklar va sug'urta kompaniyalari investisiya fondlari bo'la olmaydi.

qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasining yana bir muassasasi – boshqaruvchi kompaniyalar hisoblanib, uning investisiya institutining bir turi sifatidagi roli juda muhimdir. Bu tarzdagi kompaniyalarning vazifasi asosan investisiya institutlarining, jismoniy va yuridik sha-xslarning investisiya aktivlarini boshqaradi, qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisini amalga oshirish ishi bilan shu-g'ullanadi.

qimmatli qog'ozlarni boshqarish sohasidagi faoliyat shunday faoliyatki, bunga asosan shaxs yuridik shaxsning egalik qilish uchun o'ziga berilgan va boshqa bir shaxsga te-gishli bo'lgan, mazkur shaxs yoki bu shaxs ko'rsatgan uchinchi shaxslar manfaatini ko'zlab, qimmatli qog'ozlarni, qim-matli qog'ozlarni investisiyalashga mo'ljallangan pul mab-lag'larini, qimmatli qog'ozlarni boshqarish jarayonida olinadigan pul mablag'lari hamda qimmatli qog'ozlarni haq evaziga boshqarish faoliyatini o'z nomidan amalga oshiradi.

Hisob-kitob-kliring (hisobga olish) tashkiloti investisiya instituti sifatida qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar bo'yicha hisob-kitob-kliring operasiyalarini amalga oshirish maqsadida tashkil etiladigan yuridik shaxs hisoblanib, u o'z faoliyati jarayonida qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bitimlar bo'yicha o'zaro unda ishtirok etuvchi taraflarning majburiyatlarini aniqlash, hisobga olishga doir faoliyatni olib boradi. Bu tashkilot albatta o'z fao-liyatini qimmatli qog'ozlar bozorining qatnashchisi bilan tuzgan o'z shartnomalariga asosan amalga oshiradi.

Ma`lumki, bozor sharoitida qimmatli qog'ozlarni saq-lash va (yoki) bu qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishga zarurat mav-jud bo'lib, bunday vazifani unitar korxona shaklida tashkil etilgan depozitariylar amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasining «qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatish mexanizmi to'g'risida» qonu-nining 3-moddasiga binoan, depozitariylar qimmatli qo-g'ozlar bozorida faoliyat olib borishiga ruxsat etilgan investision institutlarning biri sifatida qaralib, ushbu qonunning 13-moddasiga muvofiq, depozitariy faoliyati qimmatli qog'ozlarni saqlash va ushbu qimmatli qog'ozlarga doir huquqlarni hisobga olish bo'yicha xizmatlar taqdim etishga qaratiladi. Binobarin, depozitariya faoliyati ham qimmatli qog'ozlar bozorini infratuzilmasining muhim ajralmas tarkibiy bo'linmasi bo'lib, fond bozorida oldi-sotdi harakatlari amalga oshirilgandan so'ng, qimmatli qog'ozlar egalariga tegishli huquqlari aynan depo schyotidan ko'chirma asosida amalga oshirilishi mumkinligini ang-latadi.

qonunning 18-moddasiga muvofiq, bunday tuzilma qo-g'ozlar bozorida reestr yuritish bilan bir qatorda depozitariy xizmatlarini ko'rsatishni birgalikda amalga oshirishga ruxsat berilgan bo'lib, boshqa investision ins-titutlar uchun ikki yoki undan ortiq faoliyat sohalarini birgalikda amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Ma`lumki, qimmatli qog'ozlar muomalaga chiqarilishi bo'yicha taqdim etuvchiga va nomi yozilgan tarzda chiqarilishi mumkin. Birinchi holatda, qimmatli qog'ozlar egasining nomi yozilmagan sertifikat shaklida chiqarilsa, ikkinchi holatda qog'oz egasining nomi ko'rsatilgan va belgilangan tartibda hisobga olish ro'yxatlaridagi yozuv shaklida muomalaga chiqarilishi mumkin va ular depozitariylarda qog'oz sertifikatlari yoki komp`yuterlarda buxgalteriya yozuvlari ko'rinishida hisobga olinadi. Hozirgi vaqtda ko'pgina davlatlarda qimmatli qog'ozlarni naqd pulsiz ko'rinishda muomalaga chiqarish amaliyoti qo'llanib kelinayotgan bo'lib, bu o'z navbatida ortiqcha chiqimlarni kamayishiga olib ke-ladi.

Depozitariylarning paydo bo'lishi qimmatli qog'ozlar bozori sohasida o'ziga xos yangi davrning boshlanishiga olib keldi, chunki u nafaqat fond boyliklarini saqlash va hisobga olishning sifat ko'rsatgichlarini ko'tarish, balki taqqoslash, kliring tizimlarini jadallashtirish, tuzilgan bitimlarga asosan kelib chiqadigan majburiyatlarni ba-jarilmaslik xavfini jiddiy ravishda kamaytirish imkonini berdi.

Respublikamizda fond bozorining samarali faoliyatini ta`minlash maqsadida 1994 yilning iyunida eng zamonaviy komp`yuter uskunalari, aloqa vositalari, lisenzion dasturiy ta`minot bilan jihozlangan «Vaqt» milliy depozitariysi barpo etildi. Fond bozorining rivojlanishi va depozitariylarda amalga oshirilgan muomalalar sonining keskin oshib borishi o'z navbatida depozitariylar faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarining yanada ta-komillashtirish vazifasini ko'ndalang qilib qo'ydi. Buning natijasi o'laroq, 1998 yilning 29-avgustida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan «Depozitariylar va depozitar faoliyat to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonunning 8-moddasiga asosan, O'zbekiston Res-publikasi hududida depozitariylar tizimi ikki bos-qichli bo'lib, ular markaziy depozitariyni va depozi-tariylarni o'z ichiga oladi.

Har bir depozitariy davlat ro'yxatidan o'tib, lisenziya olgandan so'ng vakolatli davlat organi tasdiqlagan tartibda Markaziy depozitariyda vakillik hisob varag'ini ochishi lozim bo'ladi va amaldagi qonun hujjatlariga binoan ularning nizom jamg'armasi eng kam ish haqining 2000 baravaridan kam bo'lmasligi kerak.

Markaziy depozitariy o'zining tashkiliy-huquqiy ko'rinishi jihatidan qonun hujjatlariga muvofiq davlat unitar korxonasi sifatida tuzilib, o'z faoliyatini xizmat ko'rsatishdan olgan daromadlar va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa tushumlar hisobiga amalga oshiradi.

Depozitariylar o'z faoliyatlarini amalga oshirish cho-g'ida quyidagi xizmat turlarini ko'rsatadilar:

qimmatli qog'ozlarni saqlash;

naqd va naqd bo'lmagan qimmatli qog'ozlarga bo'lgan hu-quqni hisobga olish va tegishli guvohnoma bilan buni tas-diqlash;

qimmatli qog'ozlar zimmasiga majburiyatlar yuklangan holatlarni, shuningdek ular tugatilgan holatlarni hisobga olish.

Ixtisoslashtirilgan depozitariylar deponentlar (mijozlar) qimmatli qog'ozlari bilan komissiya, oldi-sotdi, topshiriq, sovg'a, ayirboshlash va ijaraga oid bitimlarni tuzish, shuningdek deponentlar bilan birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega emas.

Depozitariylar o’z mijozlari bilan «depo» schyotlarini, ya`ni qimmatli qog’ozlarni ma`suliyatli saqlash bo’yicha hisob yuritish to’g’risida yozma ravishda shartnomalar tuza-dilar. Depozitariy shartnomasini tuzish deponentning qimmatli qog’ozlarga bo’lgan mulkiy huquqlarini depozitariy ixtiyoriga o’tishini bildirmaydi. Ushbu shartnomalar unda qatnashuvchi taraflarning huquq va majburiyatlarini nazarda tutadi. Shu jumladan, depozitariyning qu-yidagi majburiyatlari ham unda albatta ko’rsatilishi lozim bo’lib hisoblanadi. Bular quyidagilar:

-o’zida saqlash uchun topshirilgan naqd va naqd bo’lmagan qimmatli qog’ozlarning saqlanishini ta`minlash;

-har bir deponentga tegishli qimmatli qog’ozlarning turlari, soni va nominal qiymatini hisobga olib borish;

- qimmatli qog’ozlar zimmasiga majburiyatlar yuklatilgan hollar hisobini yuritish;

-deponentlarning yozma topshiriqlari asosida deponentlarga emitentdan yoki reestr egasidan olingan aksiyadorlar yig’ilishi, dividendlar to’lanishi va boshqa hara-katlar to’g’risidagi axborotni etkazish;

-depo schyotlari bo’yicha operasiyalarni faqat o’z deponentlarining yozma topshiriqlari asosida amalga oshirish;

-depo schyotlari holatiga o’zgartirishlar kiritishga asos hisoblanuvchi barcha birlamchi hujjatlarni saqlash;

-deponentning qimmatli qog’ozlarga mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarini tegishli guvohnoma berish bi-lan tasdiqlash;

-depo schyotining holati va undagi o’zgarishlar to’g’-risidagi axborotning mahfiyligini ta`minlash, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

-depo schyoti bo’yicha operasiyalarni vakolatli davlat organi, monopoliyaga qarshi kurashuvchi davlat organi, shuningdek sud va huquqni muhofaza qilish organlarining qarorlari asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tugatish;

-vakolatli davlat organining talabiga binoan o’zining faoliyatiga taalluqli ma`lumotlarni qonun hujjatlarida belgilab qo’yilgan doirada taqdim etish va h.k.

Yuqoridagilardan tashqari, yana bir qator investisiya institutlari, jumladan qimmatli qog’ozlar egalari reestrini yuritish bo’yicha xizmat ko’rsatish bilan shug’ul-lanuvchi qimmatli qog’ozlar egalari reestrini saqlovchi (reestr saqlovchi)lar, qimmatli qog’ozlar egasining yoki u vakil qilgan shaxsning topshirig’i bilan va uning nomi-dan qimmatli qog’ozlar yuzasidan bitimlar tuzuvchi banklar qimmatli qog’ozlarni nominal saqlovchilari hisoblanib, ular ham investisiya institutlarini turlari xisoblanadi.

qimmatli qog’ozlar bozoridagi faoliyatlarni birga olib borishning ko’rinishlari

	INVESTISIYA VOSITACHILARI	INVESTISIYA MASLA-	INVESTISIYA KOMPA-	INVESTISIYA	REESTR SAqLOVCHILAR	DEPOZITARIYL AR	HISOB-KITOB-KLIR-ING	BOSHqARUVCHI	QIMMATLI QOGOZLAR-
INVESTISIYA VOSITACHILARI		-	q	-	-	-	-	-	q
INVESTISIYA MASLAHATCHILARI	-		-	-	-	-	-	-	-
INVESTISIYA KOMPANIYALARI	q	-		-	-	-	-	-	-
INVESTISIYA FONDLARI	-	-	-		-	-	-	-	-
REESTR SAqLOVCHILAR	-	-	-	-		q	-	-	-
DEPOZITARIYLAR	-	-	-	-	q		-	-	q
HISOB-KITOB-KLIRING TASHKILOTLARI	-	-	-	-	-	-		-	q
BOSHqARUVCHI KOMPANIYALAR	-	-	-	-	-	-	-		q
QIMMATLI qO/OZLARNING NOMINAL EGALARI	q	-	q	-	-	q	q	q	

Izoh: «q» - qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional faoliyatni birga olib borish mumkinligi.

«-» - qimmatli qog'ozlar bozoridagi professional faoliyatni birga olib borish mumkin emasligi.

Investisiya fondlari «qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyat ko'rsatish mexanizmi to'g'risida»gi qonunning 3-moddasiga binoan investision institutlar sirasiga kirib, uning faoliyati mazkur qonunning 11-moddasiga asosan tartibga solinadi, banklar va sug'urta kompaniyalariga ushbu turdagi faoliyat bilan shug'ullanish ta`qiqlanadi, shuning-dek investisiya fondlari faoliyatini faoliyatning boshqa turlari bilan qo'shib olib borishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari aksiyadorlik jamiyatlari ustavi mazmuniga qo'yadigan talablarga qo'shimcha tarzda investisiya fondlarining ustavida albatta quyidagi qoidalar bo'lishi shartligini talab etadi, chunonchi:

investisiya fondini ochiq turdagi aksiyadorlik sifatida belgilash;

investisiya fondining turi sifatida uni ochiq yoki yopiq turda bo'lishligini aniqlash;

fond faoliyatidagi cheklovlar;

kompaniya boshqaruvining huquqlari va burchlari to'g'risidagi ma`lumotlar, investisiya fondini boshqarish to'g'risida u bilan bitim tuzish tartibi, zarar ko'rilgan hollarda uning investisiya fondi va aksiyadorlar oldidagi javobgarligi;

depozitariy bilan bitim tuzish tartibi, depozitariy to'g'risidagi ma`lumotlar;

qarzga olingan mablag'larni jalb etish tartibi;

investisiya fondining barcha aksiyalari oddiy aksiyalar bo'lib, bir xil ovoz berish huquqiga egaligini va bu aksiyadorga boshqaruvda ishtirok etish imkoniyatini berishini, fond tugatilganda esa, dividend va mulk olishini ta`kidlash kerak;

aksiyadorlar reestrini yuritish tartibi;

dividend to'lash tartibi.

Investisiya fondining nomi yozilayotganda «investisiya fondi» so'zi albatta yozilishi kerak. Amaldagi qonun hujjatlariga asosan investisiya fondlaridan boshqa hech kim o'z nomiga «investisiya fondi» so'zini yoki xuddi shu ma`noni anglatadigan boshqa so'zlarni qo'shish huquqiga ega emas. Shuni aytib o'tish joizki, investisiya fondi atamasi g'arb va boshqa mamlakatlarida investisiya kompaniyalari sifatida talqin etiladi, AqShda esa, investisiya kompaniyalarini investisiya banklari sifatida talqin etishadi.[90]

Investisiya fondlarining yopiq turdagi ko'rinishi bo'lgan **xususiylashtirish investisiya fondlari (XIF)** aholining keng qatlamlarini xususiylashtirish jarayoniga jalb etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 18-iyundagi 220-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Xususiylashtirish investisiya fondlari to'g'risidagi Nizom»ga asosan tuzilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 25-sentyabrdagi 410-sonli qarori bilan XIFlar tomonidan kimoshdi savdolari orqali sotish uchun taqdim etiladigan 200 ta ochiq aksiyadorlik jamiyatlarining ro'y-xati tasdiqlanib,

[90] Миркин Я.М. Ценные бумаги и фондовый рынок., М.:Перспектива-1995 г.,368 б.

ushbu xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiyalarini xarid qilish uchun to'lovni kechiktirish yo'li bilan Davlat mulk qo'mitasi tomonidan 5 yil muddatga maxsus davlat krediti ajratilib, kredit berish shartlariga ko'ra, XIFlar xarid qilinadigan aksiyalar umumiy qiy-matining 30 foizini o'z mablag'lari hisobidan to'lashligi, aksiyalar paketi qiymatining qolgan 70 foizi esa, kredit hisobidan sotib olinishi nazarda tutiladi.

Nazarimizda bunday tarzdagi kreditlarni qaytarish muddatlari tugagandan so'ng yoki xususiylashtirish bilan bog'liq davlat vazifalarining o'zgarishi bu turdagi investision fondlarning shaklan va mazmunan o'zgarishiga olib kelishi tabiiy hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti ri-vojlangan mamlakatlarda investisiya va xususiylashti-rish fondlariga o'xshash tashkilotlar moliyaviy jihatdan barqaror sanaladi, chunki ular mablag'larining turli kor-xonalarga sarflanishi qonuniy tartibda ta`minlanadi[91], faoliyatining cheklanishi esa, XIFlarga tijorat xusu-siyatidagi faoliyat bilan shug'ullanishga yo'l qo'ymaydi[92].

Respublikamiz qonun hujjatlarida shu narsa ko'zda tutilganki, agar XIF bankrot bo'lsa yoki boshqa sabablarga ko'ra tugatilsa, uning aktivlari tugatish komissiyasi tomonidan ochiq kimoshdi savdosi shaklida tarqatiladi. Unda xususiylashtirilayotgan korxonalarning aksiyalarini har qanday shaxs savdoda xarid qilish huquqiga ega bo'lib, ishtirok etish imkoniyati ta`minlanadi.

XIFlar tashkiliy-huquqiy shakli ochiq aksiyadorlik jamiyati bo'lib, investisiya fondining turi sifatida yopiq turdagi investisiya fondi hisoblanadi. Investisiya fond-larining ochiq yoki yopiq turlarga bo'linishining asosiy mezoni shuki, buni fond chiqargan aksiyalarni aksiyador-lardan qayta sotib olish imkoniyati mavjud yoki mavjud emasligi belgilaydi. Investisiya fondlari fond aksiyalari talabiga ko'ra, o'z aksiyalarini qayta sotib olish huquqiga ega bo'lsa, XIFlar o'z aksiyalarini aksiyadorlardan qayta sotib olish huquqiga ega emaslar.

XIF kamida ikkita, ko'pi bilan yigirmata muassisga ega bo'lishlari mumkin, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, ustav fondida davlatning ulushi 25 foizdan kam bo'lgan korxonalar XIFning muassislari bo'lishlari, XIFning ustav fondi faqat pul mablag'lari kiritish hisobiga shakllantirilishi, bunda muassislar ustav fondi qiymatining 100 foizini davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab 30 kundan kechiktirilmagan muddatda to'lashi shartligi uning o'ziga xos xususiyatlari sifatida sanalishi mumkin.

XIFlar aksiyalarining birlamchi joylashtirilishida aksiyalar fond do'konlari va boshqa savdo shaxobchalari orqali nominal qiymat bo'yicha sotiladi.

Xususiylashtirish investisiya fondlari va investisiya fondlarining faoliyat ko'rsatish xususiyatlarini quyidagi tablisa orqali tushuntirish bir muncha qulaylik tug'diradi.

---

[91] Ызбекистон Республикаси Вазирлар Мащкамасининг 25.09.98 йилдаги 410-сонли =ароринининг 3-иловаси, «Хусусийлаштириш инвестиция фондлари ты\рисида Низом»нинг 5 банди 2-хат бошига асосан, ХИФлар алощида олинган битта этитентнинг =имматли =о\озларига ызининг умумий сармоясининг 10 фоиздан орти=ча =исмини йыналтиришга ща=ли эмас.

[92] Ю=орида келтирилган Низомнинг 3 бандига асосан, ХИФлар фа=атгина =имматли =о\озлар билан фаолият олиб бориши белгилаб =ыйилган былиб, бу ыз навбатида махсус рухсатнома асосида фаолият кырсатиш сирасига киради ва тижорат таваккалчилигина минимал даражага келтириш имконини яратади.

Investisiya fondi	Xususiylashtirish investisiya fondi
Tashkiliy-huquqiy tuzilishi	
Ochiq turdagi	**Yopiq turdagi**
Fondni tashkil etishdan maqsad	
Foyda(daromad) olish, qimmatli qo-g'ozlarga mablag' qo'ygan yuridik va jismoniy shaxslar mablag'larini himoya qilishni ta`minlash va qim-matli qog'ozlar bozoridagi fao-liyati natija-sida aksiyadorlar ta-vakkalchiligini ta`minlash	Xususiylashtirish jarayoniga aho-lining keng qatlamlarini jalb etish, daromad olish, aholi mablag'larini himoya qilish va tavakkalchilikni ka-maytirish
Ustav fondini shakllantirish	
Ustav fondi pul mablag'lari (kamida 75 %), shuningdek qimmatli qog'ozlar va ko'chmas mulk bilan to'lanishi mumkin	Ustav fondi 100% pul mablag'laridan shakllantiriladi
Aksiyalarni chiqarish va joylashtirish	
Aksiyalarning nominal qiymati ko'zda tutilmagan	Aksiyalarning nominali 100 so'mdan ortiq emas
Sotib olinadigan aksiyalar miq-dori cheklanmagan	Aksiyalar XIF tomonidan bir jis-moniy shaxsga nominal qiymati bo'yicha 100tadan ortiq sotilmaydi
Investisiya fondi aksiyalarni chek-lanmagan doirasi ichida joylash-tiradi	XIF o'z aksiyalarini faqat jis-moniy shaxslar orasida joylash-tiradi. Yuridik shaxslar XIF ak-siyalarini ikkilamchi bozorda bozor baholarida sotib olishlari mumkin
qarzga olingan mablag'larni jalb etish	
Maxsus imtiyozli davlat krediti nazarda tutilmagan	Maxsus imtiyozli davlat krediti olish huquqiga ega
Kreditlarni 3 oy muddatgacha jalb qilish huquqiga ega	qarz vositalarini (xususan, obli-gasiyalar ko'rinishida) jalb qilish huquqiga ega emas
Fond chiqargan aksiyalarni aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalariga almashtirish imkoni	
IF chiqargan aksiyalarni davlat ta-sarrufidan chiqarish jarayonida tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatlarining sof aktividan 5 fo-izdan ortiq summadagi aksiyala-riga (egasi O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi bo'lgan) al-mashtirish huquqiga ega emas	XIF chiqargan aksiyalarni aksiya-dorlik jamiyatlari aksiyalariga al-mashtirish huquqiga ega emas

Fond chiqargan aksiyalarni aksiyadorlardan qayta sotib olish imkoni	
IF aksiyalari egalarining tala-biga ko’ra, qayta sotib olish hu-quqiga ega	XIF o’z aksiyalarini aksiyadorlardan qayta sotib olish huquqiga ega emas

XIFlar o’z aksiyalarini chiqarish hisobiga mablag’-larni jalb etish, o’z mablag’larini hamda olingan maxsus davlat kreditlarini xususiylashtirilayotgan davlat kor-xonalarining qimmatli qog’ozlariga investisiya qilish, qimmatli qog’ozlar bilan savdo qilish, aksiyalariga ega bo’lgan korxonalarni rivojlantirish va samaradorligini oshirishda aksiyador sifatida ishtirok etishdan iborat faoliyatni amalga oshiradilar.

Nazorat savollari:

1. qimmatli qog’ozlarga umumiy tushuncha bering.
2. qimmatli qog’ozlarning qanday turlarini bilasiz?
3. O’zbekiston Respublikasida xo’jalik muomalasida bo’lgan qimmatli qog’ozlar, ularni tartibga soluvchi normativ hujjatlar.
4. Iqtisodiy islohotlarda qimmatli qog’ozlarning ahmiyati nimalardan iborat?
5. Asosiy va hosila qimmatli qog’ozlarning farqini tushuntiring.
6. qimmatli qog’ozlar muomalasini tashkil qilishda fond birjalarining roli.
7. qimmatli qog’ozlar faoliyatining ishtirokchilari va savdo qilish tamoyillarini aytib bering.
8. O’zbekiston Respublikasi hududida depozitariylar tizimi qanday tuzilgan?

15-BOB
XO’JALIK FAOLIYATINI MOLIYALASH, KREDITLASH VA HISOB-KITOB

1-§. Buxgateriya hisobi, hisobotlari, statistik va audit faoliyatini huquqiy tartibga solish tushunchasi, vazifalari

Bozor munosabatlari yuzaga kela boshlashi hamda mar-kazdan rejalashtirish usulidan voz kecha borilishi bilan xo’jalik sub`ektlarining ishlab chiqarish - xo’jalik faoliyatiga baho berishning maqsad-mohiyati tubdan o’zgara bordi va endi bu faoliyat natijalarini yuqoridan berilgan topshiriqlarni bajarilishiga ko’ra taqqoslash zaruriyati kamaya bormoqda.

Bugungi kunda korxona va tashkilotlar o’zlarining ichki tizimlari (brigada, sex, zveno) o’rtasidagi munosabat-larda oldindan topshiriqlar berilishi, ishlab chiqarishi natijalarini ushbu topshiriqlar ko’rsatkichlariga taqqos-lanishi asosida ular faoliyatiga baho berilishi muayyan darajada saqlanib qolmoqda, ammo bu sohadagi munosa-batlarni har bir korxona mustaqil ravishda va o’zi bil-ganicha tashkil etishi mumkin.

Shu bilan birga iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida korxonaning ichki (tarkibiy) aloqalari o’rnatilishi yuza-sidan O’zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan namu-naviy va tavsiyaviy yo’sindagi yo’l-yo’riqlar ishlab chi-qilgan.

Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mah-kamasining 1998 yil 15 iyuldagi "qishloq xo’jaligini isloh qilishga oid qonun hujjatlariga muvofiq qishloq xo’-jaligi kooperativlari (shirkat xo’jaliklari) tuzish chora-tadbirlari to’g’risida"gi 299-son qarorining 8-ilo-vasida "qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishda oila (jamoa) pudrati to’g’risida"gi namunaviy Nizom ko’zda tutilgan.[93] Mazkur namunaviy Nizomda buyurtmachi xo’jalik va pud-ratchi jamoa o’zaro hisob-kitoblarini hujjatlariga ko’ra amalga oshirishlari belgilab qo’yilgan.

Bugungi kunda xalq xo’jaligining boshqa tarmoqlarida ham muayyan sex, bo’limlarni uskunalari va jihozlari bilan u erda ishlayotgan sex, bo’lim xodimlari jamoasiga ijaraga berish asosidagi korxonaning ichki pudrat munosabatlari muayyan darajada saqlanib turibdi va bu munosabatlarda pudratchi jamoa bilan korxona (mulkdor) o’rtasida o’zaro munosabatlar buyurtmachi korxona tomonidan ishlab chiqarish topshiriqlarini belgilab berilishi va pudratchi jamoa ularni bajarilishi yuzasidan hisobotlar taqdim etishga asoslanadi.

Xo’jalik sub`ektlari faoliyatini baholash va uning natijalari bozor munosabatlari tobora chuqurlashib bo-rayotgan hozirgi davrda tamomila yangicha ahamiyat kasb et-moqda hamda bunday baholanishning maqsadlari boshqa-chadir.

Davlat va jamiyatning oshkora (ommaviy) extiyoji mulkchilik shakli, xo’jalik usulidan qat`iy nazar barcha korxonalarda mahsulot tannarxi shakllanishi, faoliyat na-tijalari, soliqqa tortish ob`ektlari yagona qoidalarga ko’ra aniqlanishini, turli xususiyatlarga ega xo’jalik sub`ektlari bilan davlat, korxonalar bilan maxsus jam-g’armalr, korxonalar bilan boshqa davlat, jamoat organlari o’rtasidagi moliyaviy munosabatlarda bir xillikni ta`min etilishini talab etmoqda.

---

1 +аранг: Ызбекистон Республикасининг Ер кодекси ва =ишло= хыжалигига оид =онун щужжатлари. – Т., Адолат, 1999, 189-197-бетлар.

Korxonaning xo’jalik faoliyatini hisobga olib bo-rish va baholash nafaqat davlat, jamiyat manfaatlarini ta`minlash maqsadiga, balki shu bilan birga xo’jalik sub`ektining o’zi, uning muassislari, sheriklari, u bilan shartnomaviy va boshqa tarzdagi xo’jalik aloqalarida bo’lib turgan sub`ektlar uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Chunki korxona ixtiyorida bo’lgan moddiy va boshqa resurslar, ulardan foydalanish ahvoli, xo’jalik natijalari to’g’risida ishonchli axborotlarga tayanilgani holdagina ishlab chiqarishni samarali boshqarish, uni yangilash, qayta tashkil qilish, kapital harakatini ta`minlash, korxonaning oqilona xo’jalik-ishlab chiqarishga oid strategiyasini ishlab chiqish, taktik vazifalarni to’g’ri belgilash, moliyaviy tenglik va boshqa noxush oqibatlarni prognozlash mumkin bo’ladi.

Korxonalar xo’jalik faoliyatini hisobga olish va baholashning birdan-bir rasmiy usuli bo’lib hozirgi paytda buxgalteriya hisobi sanaladi. Bozor sharoitida buxgalteriya hisobining huquqiy ahamiyati, uning asosiy tushunchalari, vositalariga yondoshuv boshqacha xususiyat kasb etib bormoqda. Huquqshunoslik fanida buxgalteriya hi-sobining barcha asosiy tushunchalari, hisob-kitob olib borish prinsiplariga nisbatan huquqiy yondoshuvni aniqlab olish extiyoji yuzaga keldi. Chunki ma`muriy buyruqbozlik va direktiv rejalashtirishiga asoslangan sobiq SSSR zamonida buxgalteriya hisobi faqat rejalarning baja-rilishini kuzatib borish, qonunlarga rioya etilishini nazorat qilish vositasi bo’lib xizmat qilib kelgan. Shu sababli yuridik sohada uning faqat o’sha jihatlari va ko’pincha jinoyatlarni tergov qilinishi bilan bog’liq nuqtai nazardangina o’rganilgan. Uzoq paytgacha yuridik o’quv yurtlarida "Sud buxgalteriyasi"dan boshqa buxgalteriyaga oid o’quv kursi bo’lmaganligi shu mulohaza bilan izohlanishi mumkin, xolos. Bugungi yurist-mutaxasis buxgalteriya hi-sobi mazmun-mohiyatini, u foydalanadigan tushunchalar, vositalar, usullarning huquqiy ahamiyatini chuqur anglab, hisob-kitob tizimlari hisobdan chiqarilishi, yo’qlov (inventarizasiya)lar o’tkazilishi va boshqa ko’plab shunga oid masalalardan xabardor bo’lishi lozim.

Korxona tomonidan turli hisobotlar taqdim etilishi, soliq organlari va boshqa byudjetdan tashqari jamg’armalar talablarini bajarilishi buxgalteriya hisobiga asoslangan holda olib boriladi. Muayyan xo’jalik sub`ektlari to-monidan (masalan, aksiyadorlik jamiyatlari, sug’urta kom-paniyalari va boshqalar) buxgalteriya natijalarini ommaviy tarzda oshkor etib turilishi majburiyati belgilab qo’-yilgan.

Buxgalteriya hisobi va hisobotlari shirkat a`zolari, korxonalarning muassislari, aksiyali jamiyatlarning ak-siyadorlari hamda korxona xo’jalik faoliyati natija-laridan manfaatdor bo’lgan boshqa shaxslar xususiy man-faatlarini ximoya qilinishiga yordam beradi, kor-xonaning ichki xo’jalik aloqalari yo’lga qo’yilishiga ko’-maklashadi..

Xususiylashtirilayotgan yoki davlat tasarrufidan chiqa-rilayotgan korxonalar ham buxgalteriya hisobi va hiso-botlari asosida baholanadi.

Xo’jalik faoliyatiga buxgalteriya hisob-kitoblari yo’li bilan baho berishning ahamiyati O’zbekiston Res-publikasining 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan "Bux-galteriya hisobi to’g’risida"gi qonunida belgilab qo’yilgan. Mazkur qonunning 2-moddasiga ko’ra: "Buxgalteriya hi-sobining maqsadi foydalanuvchilarni o’z vaqtida, to’liq hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axborotlari bilan ta`minlashdir.

Buxgalteriya hisobining vazifalari:

buxgalteriya hisobi hisob varaqlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy huquqlar va majburiyat-larning holati to'g'risidagi to'liq hamda aniq ma`lumot-larni shakllantirish;

samarali boshqarish maqsadida buxgalteriya hisobi ma`lumotlarini umumlashtirish;

moliyaviy, soliqqa doir va boshqa hisobotlarni tu-zishdan iborat."[94]

Bulardan tashqari buxgalteriya hisobi vositasida moddiy, mehnat, moliyaviy va boshqa resurslardan foy-dalanilish ahvoli ustidan nazorat olib borish, salbiy hodisalarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, xo'-jalik sub`ektiga o'z faoliyatini bevosita nazorat qilib borish ta`minlanadi.

Barcha mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan belgilangan tartib va shakllarda buxgalteriya hisob-kitobi olib borilishi, tegishli hisobotlar taqdim eti-lishi majburiyati yuqorida eslatilgan "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonundan tashqari O'zbekiston Respub-likasining 2000 yil 25 maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonunida (9, 17, 45-moddalar); O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrda qabul qilingan "Xo'jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi qonunda. (4, 5, 9 va boshqa moddalar) va boshqa normativ huquqiy hujjatlarda belgilab qo'yilgan[95].

Bulardan tashqari, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunning 5-modda 1-qismida "Buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solish, buxgalteriya hisobi stan-dartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash O'zbekiston Res-publikasi Moliya vazirligi zimmasiga yuklanadi" deb ko'rsatilgan. Shunga muvofiq ravishda bugungi kunda mamlakatimizda bir necha o'nlab buxgalteriya hisobi va hisobotlarining milliy standartlari ishlab chiqilgan, qabul qilingan hamda amal qilib turibdi. Bozor iq-tisodiy munosabatlariga o'tilishi bilan xo'jalik fao-liyatiga baho berishning yangi vositalaridan kengroq foydalanish zarurati yuzaga keldi. Ana shunday yangi vosita sifatida auditorlik tekshiruvlari keng qo'llanila boshladi. Auditorlik faoliyati (lotincha aidit - eshitish, tinglash) korxona buxgalteriya (moliya) hisobotlarini tekshirish, to'lovlar ahvolini belgilash, korxonaning umu-miy moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga baho berishga qara-tilgan.

O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 9 dekabrdagi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2000 yil 26 may kuni ushbu qonunga o'zgartirishlar va qo'shimchalar ki-ritilgani holda yangi tahrirda qabul qilinishi bilan auditorlik faoliyatining huquqiy asoslari yanada ken-gaytirildi va mustahkamlandi[96]. Ushbu qonunning 9-mod-dasiga muvofiq: «Auditorlik tekshiruvi majburiy va tashabbus tarzidagi shakllarda o'tkaziladi. 10-moddasida har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tka-zilishi lozim bo'lgan xo'jalik sub`ektlari, tekshirish ob`ektlari ro'yxati ko'rsatilgan, ya`ni xo'jalik sub`-ektining o'z tashabbusiga ko'ra, auditorlik tekshiruvi asoslari belgilangan. 15-

---

[94] Ызбекистоннинг Янги +онунлари. 14-сон. – Т., Адолат, 1997, 143-бет.

[95] +аранг: Ызбекистоннинг Янги +онунлари № 21. – Т., Адолат, 1999, 4-бет

2 +аранг: Ызбекистоннинг Янги +онунлари № 21. – Т., Адолат, 2001, 4-бет.

moddaga ko’ra esa nazorat qiluvchi organlar yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarining tashabbusi bilan tekshiruvi o’tkazilishi haqida ko’rsatib qo’yilgan.

Xo’jalik sub`ektlari belgilangan tartib, shakl va muddatlarda vakolatli davlat organlariga statistik hi-sobotni taqdim etishlari lozim bo’ladi. Buxgalteriya va statistik hisobotlarni taqdim etmaslik, kechiktirib taqdim etish yoki noto’g’ri taqdim etganlik uchun korxona rahbari va boshqa mansabdor shaxslarning javobgarligi belgilab qo’yilgan.

2-§. Buxgalteriya hisobini yuritish va uni huquqiy jihatdan tartibga solinishi

Buxgalteriya hisob-kitoblarini tashkil etilishida «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to’g’-risida»gi qonunning 9-moddasida belgilab qo’yilgan va tadbirkorlik sub`ektlarining asosiy majburiyatlaridan bo’lib hisoblanuvchi “Buxgalteriya, tezkor va statistika hisobini qonun hujjatlari talablariga muvofiq yuri-tishlari lozimligi to’g’risidagi qoida” huquqiy asos bo’lib xizmat qiladi.

Korxonada buxgalteriya hisobi umumiy uslubiy qoi-dalar doirasidan chiqmagan holda mustaqil tarzda tashkil etilishi mumkin. Buxgalteriya hisob-kitoblarini yuri-tishning yagona uslubiy (metodologik) asoslari «Buxgal-teriya hisobi to’g’risida»gi qonunda, uning asosida ishlab chiqilgan buxgalteriya hisobining Milliy standartlarida va boshqa normativ hujjatlarda belgilab qo’yilgan.

Jumladan, «Buxgalteriya hisobi to’g’risida»gi qo-nunning 6-moddasida ko’rsatilishicha: buxgalteriya hiso-bining asosiy qoidalari qo’yidagilardir:

buxgalteriya hisobini ikki yoqlama yozuv usulida yuri-tish;

uzluksizlik;

xo’jalik operasilari, aktivlar va passivlarning pulda baholanishi;

aniqlik;

hisoblash;

oldindan ko’ra bilish (ehtiyotkorlik);

mazmunning shakldan ustunligi;

ko’rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi;

moliyaviy hisobotlarning betarafligi;

hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvo-fiqligi;

aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishi.

Uzluksiz buxgalteriya hisobi barcha operasialarni ketma-ket, tanlab olmasdan hisobga olib borilishidan iborat. O’rtada uzilishlarga yo’l qo’yilgan buxgalteriya hisobi tekshiruvchi organlar tomonidan ishonchli axborot sifatida qabul qilinmaydi. Yalpisiga hisobga olish ham uzluksiz hisobga olishga o’xshash bo’lib, bunda barcha mo-liyaviy-xo’jalik operasiyalari tushirib qoldirilmasdan hisobga olib boriladi.

Hisob-kitobni hujjatlashtirish asosida amalga oshirilishi deganda, har bir moliyaviy-xo’jalik opera-siyalari tegishli tezkor va analitik hujjatlar" bilan ta`minlanganligi tushuniladi. Hisob-kitoblarning o’z-aro bog’liqligi deganda har bir hujjatni o’zidan oldingi va o’zidan keyin keladigan boshqa hujjat bilan bog’-liqligi nazarda tutiladi. Xususan buxgalteriya provod-kalari ikki tomonlama yozuv orqali amalga oshiriladi va shu yo’l bilan ularni turlicha talqin etilishi istisno etiladi.

Buxgalteriya hisobining milliy standartlarida xo’-jalik operasiyalarini hujjatlashtirishga nisbatan qo’-yiladigan talablar nazarda tutilgan.[97] Bu talablarning buzilishi hujjatni nuqsonli deb topilishiga va e`-tiborga olinmasligiga sabab bo’lishi mumkin. Buxgalteriya hisoblari va hisobotlariga oid hujjatlarga nisbatan qo’yidagi talablar qo’yilishi nazarda tutilishi lozim. Dastlabki hisob-kitob hujjatlarida uning nomi, kodi, tuzilgan vaqti, aks ettirilgan xo’jalik operasiyasining mazmuni, uning o’lchov birligi, hujjatni tuzgan va uning to’g’riligi uchun mas`ul shaxs, shaxsiy imzo va uning echimi, boshqa rekvizitlar. Dastlabki hujjatlar ularni to’plash va tizimlashtirishlik uchun asos bo’ladi.

Hujjatlarda izoh berilmagan o’zgartirishlar va tu-shunmovchiliklar bo’lmasligi kerak va tuzatishlar uni imzolagan shaxs tomonidan tasdiqlanishi lozim. Kassa va bank hujjatlariga tuzatish kiritishlikka yo’l qo’yil-maydi. Dastlabki hujjatlar, registrlar, buxgalteriya hi-sobotlari arxivga topshirilguniga qadar belgilangan tar-tibda korxonada saqlanishi lozim.

Buxgalteriya hisobi to’g’risidagi qonunchilik huj-jatlarida har qanday mol-mulk yoki xo’jalik opera-siyasini pul ko’rsatkichlarida baholash lozimligi nazarda tutilgan. Har bir ashyo amaldagi baholarda baholanishi va u o’zgarmasligi lozim. Buxgalteriya hisobi ma`lumotlari ishonchliligini ta`minlash maqsadida korxona mol-mulklari va moliyaviy majburiyatlari yo’qlama (inven-tarizasiya) qilib turiladi[98]. Yo’qlama davomida buxgal-teriya hisobotidagi mol-mulklarning mavjudligi amal-dagi mol-mulklar bilan solishtirib chiqiladi.

Buxgalteriya hisobi Milliy standartlarida yo’qlama (inventarizasiya) o’tkazilishi majburiy sanaluvchi ho-latlar ko’zda tutilgan, ular qatoriga: a) korxona mulki sotilayotgan, sotib olinayotgan mulkchilik shakli o’zgar-tirilayotgan, ijaraga berilayotganida; b) yillik bux-galteriya balansi tuzilayotganida; v) suiiste`mol, o’g’ir-liklar, nobudgarchiliklar aniqlanganida; g) yong’in yoki tabiiy (stixiyali) ofat yuz berganida; d) korxona tuga-tilayotganida.

Bunda aniqlangan ortiqcha mulklar korxonaga kirim qilinadi, kamomadlar tabiiy kamayish normasi doira-sida hisobdan chiqariladi, normadan ortiqchasi esa ayb-dor shaxs zimmasiga yuklatiladi. Buxgalteriya hisobi ti-zimida hisob rentasi katta o’rin tutadi. Bir schyot de-betidan boshqa schyot kreditiga yoki aksincha hisoblanadi.

---

1 +аранг:Ызбекистон Республикаси Бухгалтерия щисоби миллий стандарти. 3-сон. (Молиявий натижалар ща=ида щисобот). Ызбекистон Республикаси Адлия Вазирлиги томонидан 1998 йил 27 августда 484-сон билан рыйхатга олинган.

1 +аранг: Ызбекистон Республикаси Адлия вазирлигида 1999 йил 2 ноябрда 833-сон билан рыйхатга олинган 19-сон Бухгалтерия щисоби миллий стандарти (Инвентаризацияни ташкил =илиш ва ытказиш).

3-§. Xo’jalik yurituvchi sub`ektlarning mol-mulk fondlari va ularni buxgalteriya hisobi vositalari bilan xuquqiy tartibga solinishi

Xo’jalik yurituvchi sub`ektlar (korxonalar) mol-mulkining huquqiy rejimi O’zbekiston Respublika-sining Fuqarolik kodeksida "Mulkchilik to’g’risida"gi, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to’g’-risida"gi, xo’jalik faoliyatining ayrim shakllariga oid qonunlarda, (masalan, "Aksiyadorlik jamiyatlari va ak-siyadorlar huquqlarini himoya qilish to’g’risida"gi, "Fer-mer xo’jaliklari to’g’risida"gi va boshqa qonunlar), ushbu qonunlar asosida ishlab chiqilgan boshqa qonun huj-jatlarida belgilangan.

Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va oborot mab-lag’lari huquqiy rejimini aniqlash chog’ida ularning farqlanishi, baholanishi va o’z qiymatini ishlab chiqa-rilayotgan tovar qiymatiga o’tkazish tartibi e`tiborga olinishi lozim. Asosiy vositalar va oborot mablag’larni bir biridan farqlash imkonini beruvchi mezon bo’lib ularning qancha muddatda o’z qiymatlarini tovar (ish, xizmat) bahosiga to’liq o’tkazishi hisoblanadi.

Asosiy vositalar deganda o’z qiymatini bir yildan ko’p vaqt davomida ishlab chiqarilayotgan tovar (ish xizmat)lar tannarxiga o’tkazadi. Asosiy vositalar belgilab qo’yilgan yagona amortizasiya normalariga ko’ra o’z qiymatini tayyor mahsulot (ish xizmat) bahosiga nazorati. Amortizasiyaning umumiy normalari ichida asosiy vositalarning muayyan guruhlariga (mashina va uskunalar, transport vositalari) nisbatan tezlashtirilgan amortizasiya normalari qo’l-laniladi.

Kichik va xususiy tadbirkorlik sub`ektlari tomoni-dan tezlashtirilgan amortizasiyani alohida tartibda tu-tilgan. Xususan, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to’g’risda"gi qonunning 45-moddasida ko’r-satilishicha: "Kichik va xususiy tadbirkorlik sub`ektlari ishlab chiqarish chiqimlariga mo’ljallangan harajatlarni kiritib, asosiy foizlarning tezlashtirilgan amor-tizasiyasini tegishli asosiy fondlar uchun belgilangan normadan ikki martadan ko’proq oshib ketmaydigan miqdorda qo’llashga haqli". Kam qiymatli ashyolar ombordan foydalanish uchun berilgan paytidan boshlab harajatlar hisobiga chiqarib tashlanishi mumkin.

Nomoddiy aktivlar muomalasi va ularning ishlab chiqarish jarayonidagi amortizasiyasi bilan bog’liq bo’lgan qoidalar O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to-monidan 1998 yil 20 oktyabrda 506-son bilan ro’yxatga olingan 70-sonli buxgalteriya hisobi Milliy stan-dartida belgilab qo’yilgan. Unga ko’ra nomoddiy aktivlar davriy ravishda, foydalanilish muddati davomida o’z qiymatini tayyor mahsulot tannarxiga o’tkaza boradi.

Korxonalarning pul va mulkiy fondlarining huquqiy rejimi alohida buxgalteriya hisobi qoidalariga ko’ra amalga oshiriladi. Korxonalarda turli maqsadlarga mo’ljallangan zahira fondlari tashkil etilishi mumkin. Ulardan foydalanishning maxsus tartiblari tegishli lokal normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilanadi.[99] Xo’-

---

1 +аранг: Масалан, «Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг щу=у=ларини щимоя =илиш ты\рисида»ги +онуннинг 34-моддасида жамият захира фондини яратиш ва уни тасарруф =илиш акциядорлик жамияти томонидан амалга ошириши кырсатилган.

jalik yurituvchi sub`ektlarning naqd pul muomalasi, ularni saqlash, berish, qabul qilish, bankka topshirish va hokazolar bilan bog'liq operasiyalarini amalga oshirish tartiblari Adliya Vazirligi tomonidan 1998 yil 17 dekabr` 565-son bilan ro'yxatga olingan "Yuridik shaxs-lar tomonidan kassa operasiyalarini yuritish qoida-lari" bilan belgilangan.

4-§. Xo'jalik yurituvchi sub`ektlar tomonidan buxgal-teriya hisobotlari taqdim etilishini huquqiy tartibga solish

Amaldagi qonun hujjatlariga ko'ra, ("Tadbirkorlik faoliyatining erkinliklari to'g'risida"gi qonunning 9-moddasi) barcha xo'jalik sub`ektlari o'z faoliyatlari haqida hisobotlarni tegishli organlarga taqdim etishlari lozim. Buxgalteriya hisobotlari hisob-kitob ishlarining yakun-lovchi bosqichi bo'lib, korxonaga hisobot davridagi o'z faoliyatini oshkora qiluvchi, o'z xo'jalik-moliyaviy fao-liyatini tahlil qilish asosida unga o'zi tomonidan baho berilishiga imkon beradi.

Buxgalteriya hisoboti paytida xo'jalik faoliyatiga oid bo'lgan hujjatlar tegishli davlat organlariga taqdim etiladi va ular ishonarli deb qabul qilinsa hamda e`tirof etilsa, u xolda korxonaning davlat mahalliy hokimiyat organlari va to'lovlar talab qilishga haqli bo'lgan boshqa organlar bilan (byudjetdan tashqari fondlar) moliyaviy hamda moliyaviy bo'lmagan munosabatlarni amalga oshi-rilishi uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Buxgalteriya hisobotlarini taqdim etishning tar-tiblari, muddatlari va uning namunaviy shakllari O'z-bekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tas-diqlanadi. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteri hi-sobi to'g'risida"gi qonunning 5-moddasi, 1-qismiga ko'ra: "Buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solish, bux-galteriya hisobi standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi zimmasiga yuklanadi". Korxonaning buxgalteriya hisobi tarkibida korxonaning barcha mulklari, ularning manbaini (filial-lar va boshqa mustaqil balansga ega bo'lgan tarkibiy qism-lar mulki ham) aks ettirishi lozim. Korxona balansi - bu yuridik shaxs mol-mulklari tarkibi, ishlab chiqarish hujjatlari aks ettiriladigan hujjatlardan iborat.

Buxgalteriya hisobotlarini taqdim etish tartibi va muddatlari tegishli qonun hujjatlari bilan, korxona tarkibiy qismlari tomonidan, korxonaga buxgalteriya hisobotlari taqdim etish tartibi va muddatlari esa ular tomonidan mustaqil tarzda belgilanadi.

Mavjud qonunchilikka ko'ra yillik buxgalteriya hi-sobotlarini:

a) mulkdorga (ishtirokchilari, muassislariga);

b) davlat soliq inspeksiyasiga;

v) boshqa tekshiruvchi organlarga taqdim etilishi ko'zda tutiladi.

Davlat byudjetidan ta`minot oluvchi tashkilotlar tomonidan buxgalteriya hisobotlari va balanslari taqdim etilishi tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya va-zirligi tomonidan 2001 yil 22 yanvarda 13-sonli buyruq bilan tasdiqlangan va

O’zbekiston Repsublikasi Adliya vazirligida 2001 yil 13 fevralda 1005-son bilan ro’y-xatga olingan shu haqdagi Nizom bilan belgilab qo’yilgan.

Buxgalteriya hisobotlari va balanslarini taqdim etish muddatlari turli davlat organlari uchun turlicha belgi-langan. Masalan, Davlat Soliq inspeksiyasiga bunday hisobotlar soliqlarning turiga ko’ra turlicha: har oyda, yil choragida, yillik qilib topshirilishi ko’zda tutilgan. Masalan, Soliq kodeksining 41-moddasiga ko’ra, yuridik shaxs sanaluvchi tadbirkorlar ortib boruvchi yakun bilan chiqarilgan daromad (foyda) solig’i bo’yicha hisob-ki-toblarini, agar qonun hujjatlarida boshqa tartib bel-gilanmagan bo’lsa, soliq ro’yxatidan o’tgan joydagi soliq organiga yil choraklariga oid va yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatlarida topshiradilar.

Kichik va xususiy tadbirkorlar, mikrofirmalar, deh-qon-fermer xo’jaliklari uchun buxgalteriya hisobot-larini taqdim etishning soddalashtirilgan tartibi va muddatlari belgilab qo’yilgan.[100]

qonun hujjatlarida maxsus ko’rsatib qo’yilgan hol-larda yillik buxgalteriya hisobotlarini matbuotda e`lon qilish majburiy hisoblanadi.

Xususan, "Buxgalteriya hisobi to’g’risida"gi qonunning 20-moddasida aytilishicha: "Xo’jalik yurituvchi sub`-ektlarning yillik moliyaviy hisobotlari manfaatdor banklar, birjalar, investorlar, kreditorlar va bosh-qalar uchun (tanishuvi uchun) ochiq hisoblanadi.

Ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlari, sug’urta kom-paniyalari, banklar, fond birjalari, tovar birjalari, investisiya fondlari va boshqa moliya muassasalari har yilgi moliyaviy hisobotni ularda ko’rsatilgan ma`-lumotlarni to’g’riligini auditorlar tasdiqlagach hisobot yili tugagandan so’ng 1 maygacha e`lon qilishlari shart"[101].

Buxgalteriya hisobotlarini taqdim etilishidan ko’z-langan asosiy maqsadlardan biri - soliqlar va nosoliq to’lovlar miqdorini belgilash, ularni o’z vaqtida hamda to’liq hajmda byudjetga kelib tushishni ta`minlashdan iborat. Shu sababli buxgalteriya hisob-kitoblari va hisobotlariga oid talablarni bajarilmasligi, daro-madlarini yashirilishiga, soliqlarni noto’g’ri hisobla-nishiga sabab bo’ladi. Shu sabali amaldagi qonun huj-jatlarida buxgalteriya hisobi va hisobotlari qoidalarini buzganlik uchun qat`iy javobgarlik choralari belgilangan. Bu javobgarlik choralari eng avvalo Soliq kodeksi va boshqa soliqqa oid qonun hujjatlarida nazarda tutilgan.

Jumladan O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi-ning 135-moddasi, 1-qismi 3,4,5,7,9-bandlarida daro-mad (foyda)ni yashirganlik, hisobotlarni taqdim etma-ganlik, buxgalteriya hisobining yo’qligi va boshqa aybli xatti-harakatlari uchun yuridik shaxslarga, shuningdek, yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik bilan shu-g’ullanayotgan jismoniy shaxslarga qo’llaniladigan iqti-sodiy (moliyaviy) jazo choralari ko’zda tutilgan.

Boshqa byudjetdan tashqari fondlar va hisobot qabul qilish vakolatiga ega bo’lgan davlat organlariga buxgal-teriya hisobotlarini taqdim etish tartibi va muddat-larini buzganlik uchun ham tegishli moliyaviy jazo cho-ralari nazarda tutilgan.

---

1 +аранг: Ызбекистон Республикасиси бухгалтерия щисобининг 20-сонли миллий стандарти (кичик тадбиркорлик субъектлари томонидан щисоб-китобларни юритиш ва щисоботларни тузишни соддалаштириш тартиби ща=ида). Ызбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2000 йил 24 январдаги 879-сон билан рыйхатга олинган.

[101] Ызбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ты\рисида»ги +онуни, 20-модда

Bulardan tashqari, korxona rahbari va boshqa mansabdor shaxslar buxgalteriya hisob-kitobi, hisobotlarini tuzish va taqdim etish qoidalarini buzganliklari uchun huquqiy javobgarlikka, hatto jinoiy javobgarlikka tortilishlari mumkin. Tadbirkorlik sub`-ektlari va boshqa yuridik shaxslar tomonidan statistika hisobotlari taqdim etilishi lozimligi qonun hujjat-larida nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2002 yil dekabrdagi "Davlat statistikasi to'g'risida"gi qonunining 11-mod-dasiga ko'ra barcha yuridik shaxslar va yuridik shaxs tashkil etmay tadbirkorlik qilayotgan jismoniy shaxslar davlat statistik kuzatuvlari uchun zarur bo'lgan ishonchli va to'liq ma`lumotlarni belgilangan muddat hamda tartibda taqdim etishlari shart. Ushbu qonunning 16-moddasida statistik axborotlar taqdim etish tartib hamda muddatlarini buzgan mansabdor shaxslar, shuningdek yuridik shaxslar bel-gilangan javobgarlikka tortilishlari belgilab qo'yilgan.

5-§. Auditorlik faoliyatining huquqiy asoslari

Auditorlik faoliyati deganda tashkilotlarining au-ditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va boshqa shu bilan bog'liq professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati tushuniladi.

Auditorlik va auditorlik xizmatlari iqtisodiy hayo-timizga mustaqillikni qo'lga kiritilishi, bozor mu-nosabatlarini qaror topa borishi bilan bog'liq ravishda kirib kelgan ijtimoiy hodisa bo'lib, xo'jalik yurituvchi sub`ektlarga moliyaviy kuzatuv hamda tahlil qilishga oid mustaqil xizmatlarni ko'rsatishga qaratilgan faoliyatni olib boradi.

Auditorlik faoliyatining huquqiy asoslari bo'lib O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'-risida"gi, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining ka-folatlari to'g'risida"gi, "Auditorlik faoliyati to'g'ri-sida"gi va boshqa qonunlar sanaladi. Auditorlik xizmati pullik xizmatlarning bir turi bo'lganligi sababli, bu faoliyatni huquqiy tartibga solinishida O'zbekiston Res-publikasining Fuqarolik kodeksi ham muhim rol` o'ynaydi (kodeksning 38 bobi, 703-708-moddalari).

Auditorlik faoliyatini huquqiy tartibga solinishida yuqorida eslatib o'tilgan huquqiy manbalar o'rta-sida 2000 yil 26 mayda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni etakchi o'rin tutadi.[102]

Auditorlik faoliyatining ayrim jihatlarini tar-tibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi audit Milliy standartlari ishlab chiqilgan. Bugungi kunda 50 dan ortiq ana shunday Milliy standartlar O'zbekiston Res-publikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanib, Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Auditorlik tashkiloti auditorlik faoliyatini amalga oshirish lisenziyasiga ega bo'lgan yuridik shaxsdir. Audi-torlik tashkiloti o'z faoliyatini amalga oshirishda mus-taqil sanaladi. Vazirliklar, idoralar boshqa davlat va xo'jalik organlari tomonidan tuzilishi mumkin emas. Ochiq turdagi aksiyadorlik tashkiloti shaklidan boshqa istalgan tashkiliy-huquqiy shaklda (masalan, xususiy, jamoa, ma`suliyati cheklangan jamiyat va hokazo) tuzilishi mumkin.

---

1 +аранг: Ызбекистоннинг Янги +онунлари. № 23.-Т., Адолат, 2001 йил, 84-бет..

Auditorlik tashkilotiga malaka sertifikatiga ega bo’lgan jismoniy shaxslarga - auditorlar shtatda turish yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma tizim asosida bir-lashadilar. Auditor auditorlik tekshiruvini sifatsiz o’tkazganligi, tijorat sirini oshkor etganligi hamda boshqa aybli xatti-harakatlari uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo’ladi.

Auditorlik tekshiruvining asosiy maqsadlari qatoriga:

1. Xo’jalik yurituvchi sub`ektlar, buxgalteriya (moliya) hisobotlari to’g’riligini belgilash;

2. Xo’jalik yurituvchi sub`ekt tomnidan amalga oshi-rilgan moliyaviy-xo’jalik operasiyalarini qonunga mu-vofiqligini belgilash;

3. Xo’jalik yurituvchi sub`ekt davlat soliq inspek-siyasiga va boshqa davlat tekshiruv organlariga taqdim etgan hisobotlarning to’g’riligi va ishonchliligini aniqlash kabilar kiradi.

"Auditorlik faoliyati to’grisida"gi qonunning 9-moddasiga ko’ra: "Auditorlik tekshiruvi moliyaviy hiso-bot va boshqa moliyaviy axborot to’g’riligi va qonun huj-jatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo’jalik yurituvchi sub`ektning moliyaviy hisobotini hamda u bilan bog’liq moliyaviy axborotni auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirishdir". Auditorlik tekshiruvi majburiy va ix-tiyoriy tarzdagi shakllarda o’tkaziladi. O’zbekiston Res-publikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 22 sen-tyabrdagi 365-son "Auditorlik faoliyatini takomil-lashtirish va auditorlik tekshiruvlari ahamiyatini oshi-rish to’g’risida"gi qarori bilan auditorlik tekshiruv-larini takomillashtirishga qaratilgan tegishli choralar ko’rildi.

Har yili majburiy auditorlik tekshiruvlaridan o’t-kazilishi lozim bo’lgan tashkilotlar bunday tekshiruv-lardan bo’yin tovlaganlari taqdirda eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarimaga tortilishi belgilandi ("Auditorlik faoliyati to’g’risida"gi qonunning 10-moddasining 3-qismi). Bunday jarimaga tortish asoslari, jarimani undirib olish tartiblari qonun hujjatlarida belgilangan.[103]

Amaldagi qonunchilikka ko’ra auditorlik tashkiloti va auditor auditorlik faoliyatini amalga oshirishlik uchun lisenziya, auditor esa malaka sertifikatini olgandagina auditorlik tekshirishlarini amalga oshirish mumkin bo’-ladi. Auditorlik faoliyati bilan shug’ullanish uchun li-senziya berish O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mah-kamasining 2000 yil 22 sentyabrdagi 365-son qarori bilan tasdiqlangan «Auditorlik tashkilotlariga auditorlik faoliyati bilan shug’ullanish uchun lisenziya berish tartibi to’g’risida"gi Nizomga ko’ra amalga oshiriladi.

Auditorlik faoliyatini lisenziyalash orqali davlat auditorlik tashkilotlari tomonidan qonunchilik talab-lari bajarilishini nazorat qiladi, malakali va sifatli audit xizmati ko’rsatilishini tashkil qiladi. "Audi-torlik faoliyati to’g’rsida"gi qonuning 22, 23, 24-mod-dalarida nazarda tutilgan hollarda auditorlik faoliyati bilan shug’ullanish uchun berilgan lisenziya to’xtatib tu-rilishi, amal qilishi, tugatilishi, bekor qilinishi mum-kin. Lisenziyaning bekor qilinishi oqibatlari qonun hujjatlarida belgilab qo’yilgan.

---

1 +аранг: «Мажбурий аудиторлик текширувларидан быйин товлаганлиги учун хыжалик субъектларидан жарима ундириш тартиби ты\рисида»ги Низом (2000 йил 365-сон +арор, 2-илова).

Auditorga malaka sertifikatini berish, uni tugatish va bekor qilish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarda va tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respubilkasida bank auditi alohida tar-tibda amalga oshiriladi. Bu haqda "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunning 1-modda 2-qismida qayd etilgan. Shunga muvofiq ravishda O'zbekiston Respublikasi Mar-kaziy banki boshqaruvining 1998 yil 4 iyuldagi 12-4 ba-yonnomasi bilan "O'zbekiston Respublikasi banklari auditi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlangan va u 1998 yil 4 iyulda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 403-son bilan ro'yxatga olingan.

6-§. Xo'jalik yurituvchi sub`ektlarni kreditlashga oid huquqiy munosabat tushunchasi va ularni yuzagakelish asoslari

Kreditlashtirishga oid huquqiy munosabatlar deganda, xo'jalik sub`ektlariga kreditlar berish chog'ida kredit muassasalari bilan kredit iste`molchilari o'rtasida vu-judga keladigan va huquq normalari bilan tartibga so-linadigan ijtimoiy munosabatlar ko'zda tutiladi. Ammo, shu bilan birga kredit munosabatlari ko'p qirrali ij-timoiy voqelik ekanligi, masalan lizing, faktoring kabi sohalardagi munosabatlar ham aslida kredit munosa-batlari bo'lgani holda ko'pgina o'ziga xos jihatlariga ega. Bundan tashqari iqtisodchi olimlar tomonidan kreditga oid munosabatlar o'ziga xos tarzda talqin etilishi ham e`ti-borga olinishi lozim.

Huquqiy nuqtai nazardan kredit munosabatlari – bu qarz munosabatlaridan iborat va shu sababli O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 41-bobi, 1 para-grafidagi (732-743-moddalar) qarzga oid ta`rif va qoidalar aslida kredit munosabatlariga ham taalluq-lidir. Shu bilan birga qonunchilikda kredit munosabat-larining o'ziga xos jihatlari e`tiborga olinib, uning maxsus ta`rifi ham berilgan. Fuqarolik kodeksining 744-moddasida kredit shartnomasiga berilgan ta`rifga muvofiq bunday munosabatlar kredit muassasalari bilan qarz oluvchilar o'rtasida kelib chiqadi.

Kredit tashkiloti sanalmaydigan yuridik shaxslarni kredit beruvchi sifatida bunday munosabatlarda ishtirok etishlariga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hol-larda yo'l qo'yilishi ham ko'rsatilgan. Kreditga oid huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari sifatida ularni qaytarilish sharti bilan (ma`lum muddatga), to'lovli tarzda (kredit berilganligi uchun muayyan foiz haq olinishi sharti bilan) berilishini qayd etish mumkin.

Kredit munosabatlarida qatnashuvchi sub`ektlarga ko'ra bunday munosabatlar quyidagi turlarga bo'linishi mumkin:

a) bank krediti;
b) davlat krediti;
v) tijorat krediti;
g) chet el krediti;
d) xususiy shaxslar krediti; (bir fuqaroni boshqa fuqaroga qarz berishi;
e) kredit uyushmalari amalga oshiradigan kreditlar.

Bular o'rtasida bank krediti etakchi o'rinni egal-laydi. Banklar tomonidan kreditlar berishning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kode-

ksida, Banklar va bank faoliyati to'grisidagi qonunda, ular asosida qabul qilingan boshqa normativ-huquqiy huj-jatlarda belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonu-nining 4-moddasida «Kreditlarning qaytarilishi, fao-liyati va muddatliligi sharti bilan o'z mablag'lari va jalb etilgan mablag'lar hisobidan o'z nomidan kreditlar berish» bank operasiyalaridan biri ekanligi qayd etilgan[104]. Davlat krediti deganda, davlat tomonidan boshqa davlatga, o'z hududida faoliyat yuritayotgan milliy yoki horijiy yuridik shaxslarga, jismoniy shaxslarga muddatli, haq evaziga, qaytarilish sharti bilan qarz berilishi tushuniladi. Ko'pchilik hollarda davlatning o'zi qarz oluvchi sifatida kredit munosabatlarida ishtirok etish, o'zga davlatlardan, yuridik hamda jismoniy shaxslardan ma`lum muddatga qaytarilish sharti bilan qarz olishi mumkin. Soliqqa oid munosabatlarda muayyan turdagi soliq to'lovchilarga soliq to'lashni muayyan muddatga kechiktirib turish sharti bilan soliq krediti berish mumkinligi ko'zda tutilishi mumkin.

Byudjet kamomadi yuz berib turadigan bizning kun-larimizda Markaziy bank tomonidan hukumatga kredit berilish hollari tez-tez uchrab turadi. «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi qonunning 48-moddasida Markaziy bank tomonidan hukumatga kredit berilish shartlari, shakllari, tartiblari belgilab berilgan.[105] Tashqi davlat qarzlariga oid kredit munosabatlarini huquqiy tartibga solish maxsus tartibda amalga oshi-riladi.[106] Tijorat krediti xo'jalik sub`ekti tomonidan boshqa xo'jalik yurituvchi sub`ektga beriladigan kreditdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank fa-oliyati to'g'risida»gi qonunining 5-moddasiga ko'ra, bank operasiyalri Markaziy bank tomonidan beriladigan li-senziya asosida amalga oshiriladi va bu prinsiplarga ham taalluqli. Ya`ni ana shunday maxsus lisenziyaga ega bo'lmagan holda bir xo'jalik yurituvchi sub`ekt tomonidan (tijorat banklari va boshqa kredit tashkilotlardan tashqari) foiz haq olish sharti bilan boshqa shaxslarga pul shaklida kredit berilishiga yo'l qo'yilmaydi. Biroq, O'zbekiston Respub-likasi Fuqarolik kodeksining 748-moddasiga muvofiq: "Bajarilishi uchun pul summalarini yoki turga xos alo-matlari bilan belgilanadigan boshqa ashyolarni ikkinchi tarafga mulk qilib topshirish talab qilinadigan shartnomalarda, agar qonun hujjatlarida boshqacha belgilab qo'yilgan bo'lmasa, kredit berish, shu jumladan bo'nak berish, (oldindan haq to'lash) tovarlarga, ishlar yoki xizmatlarga haq, to'lashni kechiktirish va bo'lib-bo'lib to'lash shaklida kredit berish (tijorat krediti) nazarda tutilishi mumkin». Demak, xo'jalik sub`ektlari o'zaro bir-birlariga, pul shaklida qarz berishlari va uning evaziga foiz haq olishlari mumkin emas. Ammo ular sotilgan tovar qiymatini kechiktirib to'lash, oldindan bo'nak (avans) berish, mahsulotlar ko'rinishida kredit berishlariga yo'l qo'yiladi.

Banklar va boshqa kredit tashkilotlari tomonidan kre-dit berilishida oqilona kredit siyosatini amalga oshi-rilishi, maqsadga muvofiq ravishda kredit oluvchilarni qidirib topish, ularning olingan kreditni o'z vaqtida qaytara oladigan, eng ko'p

---

[104] +аранг: Ызбекистоннинг Янги +онунлари. №13.-Т., «Адолат», 1196, 4-бет.
[105] +аранг: Ызбекистоннинг Янги +онунлари. №12.-Т., «Адолат», 1196, 18-19-бетлар.
[106] +аранг: «Ызбекистон Республикасининг хориждан мабла\ жалб =илиш ты\рисида»ги 1996 йил 29 августдаги =онуни. Таш=и =арзларга хизмат кырсатишга оид Ызбекистон щукумати =арорлари.

miqdorda foiz haq to’laydi-ganlariga kredit berilishida afzallik berishni ta`-minlash muhim ahamiyatga egadir. Kredit, undan foy-dalanish muddatiga ko’ra qisqa muddatli, o’rta muddatli va uzoq muddatli bo’lishi mumkin. Kreditlardan foydalanish muddati deganda u berilgan paytidan boshlab qaytarilishi lozim bo’lgan vaqtgacha o’tadigan davr ko’zda tutiladi. Bank muassasalari tomonidan beriladigan kreditning uzoq yoki qisqa muddatli ekanligi tegishli qonun hujjatlarida belgilab qo’yiladi.[107] Kreditni ta`minlanganlik darajasiga ko’ra mulkiy ta`minlangan va ishonchga asoslangan (blan-kali) kreditlarga bo’linadi. [2]

Kredit shartnomasi bo’yicha ta`minlash vositasi bo’lib garov, kafolat, kafillik, kreditni qaytarilmasligi xavfini sug’urtalash kabilar hisoblanadi. Bankning ega-ligiga muayyan mulkni topshirish yo’li bilan ta`min-lanadigan kreditni lombard krediti deb ataladi. Ko’chmas mulklarni garovga qo’yish yo’li bilan ta`minlanadigan kredit ipoteka krediti deb ataladi. qarz oluvchi va qarz olinish maqsadlariga ko’ra iste`mol krediti, sanoat kre-diti, investisiya krediti, qimmatli qog’ozlar operasiyasi uchun beriladigan kredit, banklararo kredit, import va eksport kredit mavjud bo’ladi. qarz oluvchi va qarz olinish maqsadlariga ko’ra iste`mol krediti, sanoat krediti, investisiya krediti, qimmatli qog’ozlar operasiyasi uchun beriladigan kredit, banklararo kredit, import va eksport kredit mavjud bo’ladi. Yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi tadbirkor jismoniy shaxs ishtirokida ham kredit munosabatlari yuzaga kelishi mumkin. «Kredit uyushmalari to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi qonuni qabul qi-linishi bilan[108] kredit uyushmalari, ya`ni yuridik va jis-moniy shaxslar tomonidan kreditlar berish maqsadida ixtiyoriylik asosida tuziladigan kredit tashkiloti o’z a`-zolariga shartnoma asosida, ustavda qayd etilgan shart-larda, qonun hujjatlarida belgilangan talablarni hisobga olgan holda muddatli, qaytariladigan va haq evaziga be-riladigan kredit berishi mumkin. Kredit uyushmalari mulkiy ta`minlangan kreditlarni ham, shuningdek, o’zaro ishonchli (blankli) kreditlar ham berishi mumkin. Kredit uyushmasi a`zosiga ushbu uyushma a`zosi sanalmaydigan boshqa yuridik va jismoniy shaxslar kafolati bilan kre-dit berilishiga yo’l qo’yilmaydi. Kredit uyushmasidan ol-ingan kreditni o’z vaqtida qaytarilmasligidan umum-fuqaroviy va umumhuquqiy oqibatlar yuzaga keladi.

7-§. Kredit shartnomasi tushunchasi, taraflari, kredit shartnomasining shakli

Kredit muassasi va qarz oluvchi o’rtasidagi huquqiy munosabatlar yuzaga kelganligi, ularning o’zaro huquq-lari, majburiyatlari, javobgarlik asoslari paydo bo’l-ganligini guvohlantiruvchi eng asosiy hujjat bo’lib kredit shartnomasi hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasi Fuqa-rolik kodeksining 744-moddasiga ko’ra: «Kredit shart-nomasi bo’yicha bir taraf - bank yoki boshqa kredit tash-kiloti (kreditor) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) shart-nomada nazarda tutilgan miqdorda

---

[107] +аранг: Ызбекистон Республикасининг «Банк ва банклар фаолияти ты\рисида»ги +онуни.

[2] +аранг: Ызбекистон Республикаси Вазирлар Мащкамасининг 2001 йил 22 августдаги «И=тисодиётни кредитлаш механизмини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари ты\рисида»ги 349-сон +арори.

[108] +аранг: Ызбекистон Республикаси +онун щужжатлари тыплами. 2002 йил,9-сон,59-модда. Шунингдек,=аранг: Ызбекистон Республикаси Адлия вазирлигида 2002 йил 7 октябрда 179-сон билан рыхатга олинган «Кредит уюшмалари томонидан молия операцияларини амалга ошириш =оидалари».

va shartlar asosida pul mablag'lari (kredit) berish, qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foiz to'lash majbu-riyatini oladi».

Yuridik adabiyotlarda kredit shartnomasining huqu-qiy tabiati yuzasidan turli fikrlar bildirib kelinadi. Ayrim olimlar uni qarz shartnomasining bir ko'rinishi deb hisoblasalar,[109] boshqalari kredit shartnomasi shart-nomalarning mustaqil turidir deb uqdirib keladilar.[110]

Fuqarolik kodeksining 732-moddasi yuridik shaxs-lar o'rtasidagi (shu jumladan, bank muassasalari bilan uning mijozlari o'rtasidagi) pul qarz berish shartno-masini (ya`ni kredit shartnomasini) qarz munosabat-larining bir ko'rinishi ekanligini belgilash bilan birinchi qarash to'g'riligini tasdiqladi.

Kredit shartnomasining real yoki konsensual, bir to-monlama majburiyat yuklovchi yoki ikki tomonlama maj-buriyat tug'diruvchi shartnomasi toifasiga kiritilishi masalasida ham yuridik jamoatchilik o'rtasida yakdillik yo'q. E.T.Polonskiyning ta`kidlashiga qaraganda: «Ushbu masalani u yoki bu tarzda hal etilishi nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega. Chunki uni real va bir tomonlama deb tan olinishi o'z-o'zidan bank xo'jalik sub`ekti oldida shartnoma bilan kelishib olingan kredit summasini topshirish majburiyatiga ega emas (ya`ni «maj-buriyat faqat qarz oluvchida, huquq faqat bankda» tar-tibdagi formula bo'yicha) degan xulosaga olib kelgan bo'lar edi va bunday holat natijasida xo'jalik sub`ekt-larining huquqlari kamsitilgan bo'lar edi».[111]

Bugungi kunda bank va xo'jalik sub`ekti o'rtasidagi kredit munosabatlari ikki tomonlama tuziladigan kredit shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Bu shartnoma ham dastlabki shartnoma ham ayni paytda shunday shart-nomaning o'zi sanaladi. Kredit shartnomasi konsensual shartnoma bo'lib sanaladi. V.E.Umaralievning «Kredit shartnomasi, yuridik tabiatiga ko'ra konsensual... shartno-madir» degan fikriga[112] qo'shilsa bo'ladi. Kredit shart-nomasi bo'yicha qarz oluvchining majburiyatlari faqat tegishli kredit summasi amalda (real) olinganidan keyin-gina yuzaga keladi.

Kreditga oid bank operasiyasi boshqa turdagi bank operasiyalari singari shaxsiy va o'zaro ishonchga asos-lanadi va shu tufayli bankning kredit oluvchi mijozi o'z huquqlarini uchinchi shaxslarga ishonib topshirishi (pro-sessiya shartnomasi) mumkin emas. Bank krediti shart-nomasining tomonlari bo'lib qarz beruvchi (kreditor) va qarz oluvchi hisoblanadi.

Xo'jalik sub`ektiga kredit beruvchi bank tegishli kredit summasini uning hisob raqamiga naqd pulsiz shaklda o'tkazish yo'li bilan kredit beradi. Kredit oluv-chining hisob raqami kredit beruvchi bankda bo'lganida tegishli kredit summasini bank hisobidan o'chirilib mijoz hisob raqamiga kelib tushish o'rtasida vaqt jihatdan farq bo'lmaydi. Ammo, qarz oluvchining hisob raqami boshqa bank muassasasida bo'lgan hollarda bankning kreditni o'tkazishi va tegishli summani kredit oluvchi hisob raqamiga kelib tushishi o'rtasida muayyan vaqt o'tadi va bunday vaziyatga kredit

---

[109] Вильнянский С.И. Кредитно-расчетные правоотношения и финансовый контроль. Харьков, 1955. 43-б. Флейщик Е.А. Расчетные и кредитные правоотношения. М., 1956. 213-б.

[110] Куник Я.А. Кредитные и расчетные правоотношения в торговле. – М., 1970. 117-б.

1 +аранг: Кампанеец Е.С., Полонский Э.Г. Применение законодательства и кредитования в расчетах.-М., 1967, с.116.

2 +аранг: ЫзбекистонРеспубликасининг Фу=аролик кодексининг иккинчи =исмига шарщлар. –Т., 1998. 169-бет..

uchun foiz haq qachondan boshlab (bank o’tkazgan paytdanmi, yoki pul mijoz hisob varag’iga kelib tushgan paytdanmi) hisoblanishi lozimligini belgilanilishi mu-him ahamiyatga ega. Ayrim hollarda bunday savollarga namunaviy kredit shartnomasining o’zida javob berib qo’yiladi.

Kredit shartnomasi mijoz tegishli qarz summasini olgach tuzilgan hisoblanadi va shu paytdan boshlab qarz oluvchi bank nazoratidan bo’yin tovlamasligi, olingan kredit va uning uchun foiz haqni o’z vaqtida hamda to’liq to’lashi lozim. qarzni qaytarilganligi fakti qarzdor tomonidan tegishli summani bank hisobiga o’tkazilgan vaqti bilan bog’lanadi. qarz qarz oluvchi tomonidan ixti-yoriy tarzda yoki xo’jalik sudining qaroriga ko’ra majburiy ravishda to’lanishi mumkin.

Olingan kredit uchun oddiy yoki oshirilgan foiz haq to’lanadi. O’z muddatida qaytariladigan qarzlar bo’yicha oddiy, kechiktirilgan qarzlar uchun esa oshirilgan miq-dorda foiz haq olinishi ko’zda tutilishi mumkin. Bank krediti shartnomasi bo’yicha garov yoki boshqa kreditni ta`minlash vositasining saqlanishi tekshirib turiladi. Bank qonun hujjatlarida va kredit shartnomasida na-zarda tutilgan hollarda olingan kreditni muddati ke-lmasidan avval qaytarilishni talab qilishga haqli bo’-ladi. Kredit shartnomasi oddiy yozma shaklda (ko’pincha oldindan belgilangan tartibda tasdiqlanadigan namunavi shaklda tuziladi. Kredit shartnomasining predmeti va muddati uning muhim shartlari bo’lib, ularsiz shartnoma haqiqiy sanalmasligi mumkin.

8-§. Kredit shartnomasi yuzasidan majburiyatlarning buzilishi va uning uchun javobgarlik

Xo’jalik sub`ektlariga kredit berish bilan bog’liq munosabatlarda majburiyatlarni o’z vaqtida, to’liq, real bajarilishini ta`minlash muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki majburiyatlarni real va lozim darajada baja-rilishi fuqarolik huquqiy munosabat ishtirokchilari huquqlarini himoya qilishning muhim shartlaridan bo’lib hisoblanadi.

Bank krediti bilan bog’liq huquqiy munosabatlarda kredit shartnomasi shartlarini buzganlik uchun qo’lla-niladigan javobgarlikning asosiy shakllari bo’lib ayb-dor shaxsga neustoyka qo’llash, undan etkazilgan zararni undirib olish kabilar sanaladi. Bunday munosabatlarda neustoykaning miqdori odatda tomonlar kelishuviga ko’ra belgilanadi va shartnomada ko’zda tutiladi. Majbuiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik qo’llashning prinsiplari va umumiy shartlari O’zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi «Xo’jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to’g’risida»gi qonunida belgilab qo’yilgan.

Bank krediti bo’yicha olingan kredit o’z vaqtida qaytarilmaganligi uchun oshirilgan miqdorda foiz haq to’lash nazarda tutilishi mumkin. Oshirilgan miqdordagi foiz xaq olinishi majburiyatni buzganlik uchun jazo cho-rasi sifatida qo’llanilganida u neustoykaning bir shakli sifatida baholanishi mumkin. Biroq, tadbirkorlik sub`ektiga bank tomonidan odatdagidan qo’layroq shaklda (blankali) kredit berilganida ham oshirilgan foiz haq olinishi nazarda tutilishi mumkin. Bunday

holda oshirilgan foiz haq jazolash xususiyatiga ega bo'lmaydi va shartnoma muddatlari buzilmasa-da, qo'llanilaveradi.

Mijoz kredit shartnomasi shartlarini buzgani, berilgan kreditdan maqsadsiz foydalangani yoki uning moliyaviy-xo'jalik ko'rsatkichlari yomonlashgani taqdirda unga nisbatan javobgarlikning o'ziga xos turi kredit shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish, avval be-rilgan kredit va uning uchun foiz haqni qaytarib olish, keyinchalik kredit berishni to'xtatish chorasi qo'lla-nilishi mumkin. Ajratilgan kreditni o'z vaqtida mi-jozga bermaganlik uchun bank javobgarligi qonun huj-jatlarida va kredit shartnomasida nazarda tutib qo'yi-ladi. Kredit shartnomasi bo'yicha uning taraflari ja-vobgarligi to'liq bo'lib, aybdor taraf o'z shartnomaviy hamkoriga ko'rilgan barcha zararlarini (yo'qotilgan pul yoki mulk qiymati, olinmasdan qolgan daromad (foyda), qilingan moddiy va boshqa harakatlar) to'liq hajmda qoplab berishi lozim bo'ladi.

Tijorat banklari mijozlarga kredit berishga oid shartnoma munosabatlaridan tashqari boshqa faol mo-liyaviy operasiyalarni amalga oshirishlari mumkin. Bunday munosabatlar jumlasiga lizing, faktoring, vekselni hisobga olish, forfeyting kabilar kiradi. Ularning barchasi bankda jamlangan vaqtincha bo'sh mablag'larni uchinchi shaxslarga haq evaziga berishga qaratilgan bank faoliyatidan iboratdir.

Nazorat savollari:

1. Buxgalteriya hisobi nima?
2. Auditorlik faoliyati qanday faoliyat?
3. Kreditlashtirishga oid munosabatlar nima?
4. Kredit shartnomasiga tushuncha bering.

16-BOB
IqTISODIYoT SOHASIDAGI qILMIShLAR UChUN JINOIY JAVOBGARLIK

1-§. Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik

O'zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitimlar tuzganlik uchun javobgarlik. O'zbekis-ton Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bi-timlar tuzish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asoslariga qarshi qilingan harakatlardir. Jinoyat davlat organi, mulkchilik shaklidan qat`iy nazar korxona, muas-sasa, tashkilot, jamoat birlashmasining mansabdor shaxsi tomonidan respublika manfaatlariga ko'p miqdorda zarar etkazilishiga sabab bo'lgan, naf keltirilmasligi ayon bo'lgan bitimning tuzilishida ifodalanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 101-moddasiga ko'ra bitimlar deb, fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlariga aytiladi.

Bitim tuzish natijasida davlatning iqtisodiy manfa-atlariga katta zarar etkazadigan har qanday bitim naf keltirmaydigan bitim deb hisoblanadi. O'zbekiston Res-publikasi manfaatlariga xilof ravishda bitim tuzish natijasida ko'p miqdorda zarar etkazish jinoyatning zaru-riy belgisi hisoblanadi. Ko'p miqdordagi zararni aniq-lashda «zarar» tushunchasi jinoyatkorona qilmishdan ko'-rilgan zararnigina o'z ichiga olishini nazarda tutmoq lozim. Zarar miqdorini aniqlashda O'zbekiston Respub-likasining manfaatlariga xilof ravishda bitim tuzish tufayli boy berilgan naf e`tiborga olinmaydi. Ammo bitim tuzish davlat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar etkazilishiga sabab bo'lsagina, qilmish O'zbekiston Res-publikasi Jinoyat kodeksining 175-moddasi bilan ja-vobgar qilishga asos bo'ladi. Agarda etkazilishi mumkin bo'lgan zarar ko'p mikdorni tashkil qilmasa, ushbu moddada nazarda tutilgan jinoyatni tashkil etmaydi. Zarar eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha bo'lsa ko'p miqdor hisoblanadi.

Ushbu jinoyat faqat to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Mansabdor shaxs bitim tuzilgunga qadar uning Respublika manfaatlariga naf keltirmasligini bilishi kerak. Agar mansabdor shaxs o'zining sovuqqonligi orqasida shunday bitim tuzsa, uning hatti-xarakati Jinoyat Kodeksining 207-moddasiga binoan mansabga sovuqqonlik bilan qarash deb baholanadi. Jinoyatning motiv va maqsadi uning kva-lifikasiyasiga ta`sir qilmaydi.

Davlat organi, mulkchilik shaklidan qat`iy nazar korxona, muassasa, tashkilot yoki jamoat birlashmasining mansabdor shaxsigina ushbu jinoyatni sodir qilishda aybdor deb topilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 175-moddasi 1-qismiga ko'ra, davlat organining, mulkchilik shaklidan qat`iy nazar, korxona, muassasa, tashkilotning, jamoat birlashmasining man-sabdor shaxsi tomonidan naf keltirmasligi ayon bo'lgan bitimni tuzish respublika manfaatlariga ko'p miqdorda zarar etkazilishiga sabab bo'lsa,-eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha ahloq tuzatish ishlari yoki olti oygacha qamoq bilan jazolanadi.

O’zbekiston Respublikasining manfaatlariga xilof ravishda bitim tuzishda aybdor bo’lgan mansabdor shaxs qilmishni: a) takroran, b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib, v) juda ko’p miqdorda zarar etkazgan holda sodir etgan bo’lsa, O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 175-moddasi 2-qismi bilan javob-garlikka tortiladi hamda eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum etilib, besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Etkazilgan moddiy zarar uch karra miqdorda qoplangan taqdirda, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo’llanilmaydi.

Soxta tadbirkorlik uchun jinoiy javobgarlik.

Soxta tadbirkorlik jinoyati korxonalar yoki boshqa tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanuvchi tuzilmaning qonunda, o’z Ustavida belgilangan faoliyatini ta`min-lovchi ijtimoiy munosabatlardan kelib chiqadi.

Ushbu jinoyat tadbirkorlik Ustavida ko’rsatilgan fao-liyatni amalga oshirish maqsadini ko’zlamasdan, kor-xonalar yoki tadbirkorlik bilan shug’ullanuvchi tashki-lotlarni tuzishda ifodalanadi. O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 40-moddasiga muvofiq, foyda olishni o’z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni maqsad qilib olmagan (tijoratchi bo’lmagan tashkilot) yuridik shaxs bo’lishi mumkin. Tijoratchi tashkilot bo’lgan yuridik shaxs xo’jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish koope-rativi, unitar korxona hamda qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tuzishi mumkin.

O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 41-moddasida esa yuridik shaxs o’zining ta`sis xujjatlarida nazarda tutilgan faoliyat maqsadlariga muvofiq fuqarolik huquqi layoqatiga ega bo’ladi. Yuridik shaxsning maxsus huquq layoqati, uning ustavi, nizomi yoki qonun xujjatlari bilan belgilangan bo’ladi.

Har bir tuzilgan korxona yoki boshqa tadbirkorlik tuzilmasi faqat o’z Ustavida ko’rsatilgan faoliyat turlari bilan shug’ullanishi kerak. Soxta tadbirkorlikda esa uni tuzuvchilar o’z Ustavida ko’rsatilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadini ko’zlamaydi, balki korxona boshqa maqsadlarni ko’zlab tuziladi.

Korxonani tuzish (vujudga keltirish) faktining o’zi to’la qonunga asoslangan bo’ladi, uning Ustavi, zaruriy ta`sis hujjatlari qabul qilinadi, ro’yxatdan o’tkaziladi, biroq ishni boshlash vaqti kelganda, bunday korxona o’z Ustavida ko’rsatilgan faoliyat bilan umuman shug’ullan-maydi yoki Ustavida ko’rsatilmagan faoliyat bilan shug’ul-lanadi.

Ustavda belgilangan faoliyatni amalga oshirish maq-sadining yo’qligi ta`sis hujjatlarida ko’rsatilgan maj-buriyatlarni bajarmaslikda namoyon bo’ladi.

Ustavda ko’rsatilgan faoliyatni amalga oshirish maq-sadini ko’zlamasdan korxona yoki boshqa tadbirkorlik tuzilmasi tuzilgan paytdan e`tiboran jinoyat tamom bo’lgan deb topiladi.

Soxta tadbirkorlik jinoyati qasddan qonuniy tad-birkorlik faoliyati bilan shug’ullanmaslik va qarz- kredit olish-foydani (daromadni) soliqlardan ozod qi-lish (pasaytirish) yoki boshqa mulkiy naf ko’rish jinoyat maqsadining zaruriy alomati hisoblanadi.

Ushbu jinoyat yuzasidan 16 yoshga to'lgan va soxta tad-birkorlik bilan shug'ullangan har qanday shaxs javob-garlikka tortilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 179-moddasiga ko'ra, soxta tadbirkorlik jinoyatini sodir etgan shaxslar eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huqukdan mahrum qilish yoki uch yilgacha ahloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadi.

Bankrotlikni yashirganlik uchun jinoiy javobgarlik. Tahlil etilayotgan jinoyat bozor iqtisodiyoti sharoitida bankrotlikni amalga oshirishning belgilab qo'yilgan tar-tibini, belgilovchi hamda ta`minlovchi ijtimoiy muno-sabatlarda namoyon bo'ladi.

Ushbu jinoyat xo'jalik yurituvchi sub`ektning haqi-qatga to'g'ri kelmaydigan ma`lumot yoki hujjatlarni taq-dim etish, buxgalteriya hisobotlarini buzib ko'rsatish yo'li bilan iqtisodiy jihatdan o'zining to'lovga qodir emas-ligini yoki iqtisodiy nochorligini boshqacha tarzda qasddan yashirishi kreditorlarga ko'p miqdorda zarar etkazilishiga sabab bo'lishda ifodalanadi.

Bankrotlikni yashirish deganda, o'zining to'lovga qodir emasligi to'g'risidagi ma`lumotlarni buzib ko'rsatish yoki haqiqatga to'g'ri kelmaydigan hujjatlarni kreditorlarga taqdim etish yoxud buxgalteriya hisobotlarini buzib ko'r-satish yoxud o'zining iqtisodiy nochorligi haqidagi boshqa faktlarni berkitish tushiniladi.

Ushbu qilmish moddiy tarkibli jinoyat bo'lib, kredi-torlarga ko'p miqdorda zarar etkazilgan paytdan e`tiboran tamom bo'lgan deb topiladi, Bankrotlikni yashirish jinoyati qasddan sodir etiladi. Uni sodir etishning maqsadi va motivi jinoyatni kvalifikasiyasi uchun ahamiyat kasb etmaydi.

Bankrotlikni yashirish jinoyati bo'yicha 1b yoshga to'lgan har qanday shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin. O'zbe-kiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 181-moddasi 1-qismiga ko'ra, xo'jalik yurituvchi sub`ektning haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma`lumot va hujjatlarni taqdim etish, buxgalterlik hisobotlarini buzib ko'rsatish yuli bilan iqtisodiy jihatdan o'zining to'lovga qo-dirligini yo'qotganligi yoki iqtisodiy nochorligini bosh-qacha tarzda qasddan yashirishi kreditorlarga ko'p miqdorda zarar etkazilishiga sabab bo'lsa, eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha ahloq tuzatish ishlari yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 20 avgustda qa-bul qilingan qonuni bilan Jinoyat kodeksining 181- moddasi "Etkazilgan moddiy zarar uch karra miqdorida qoplangan taqdirda, ozodlikdan mahrum qilish tari-qasidagi jazo qo'llanilmaydi", deyilgan 2-qismi bilan to'ldirildi.

Monopoliyaga qarshi qonun xujjatlarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik.

1996 yil 27 dekabrda qabul qilingan "Tovar bozor-larida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'-risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning bozorda raqobatlanishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga soladi, monopoliya faoliyati, ya`ni monopoliyaga qarshi

qonunga zid bo’lgan faoliyatning oldini olish va uni bartaraf qilishning huquqiy asoslarini belgilaydi.

Ushbu, jinoyat xo’jalik yurituvchi sub`ektlarning tovar bozorida faoliyat ko’rsatishi bo’yicha belgilangan tartib iste`molchilar va jamiyatning qonuniy manfaatlaridir.

O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 183-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan harakatlar mono-poliyaga qarshi faoliyat olib borish vakolati berilgan organga axborot bermaslikdan yoki bila turib haqiqatga to’g’ri kelmaydigan ma`lumotlarni taqdim qilishdan ibo-rat bo’ladi.

Jinoyat kodeksining 183-moddasi 1-qismida na-zarda tutilgan jinoyat monopoliyaga qarshi faoliyat olib borish vakolati berilgan organga axborot o’tgan yoxud bu organlarga bila turib haqiqatga to’g’ri kelmaydigan ax-borot taqdim etilgan paytdan e`tiboran tamom bo’lgan deb topiladi.

Shaxsni Jinoyat kodeksining 183-moddasining 1-qismi bilan javobgar qilish uchun u xuddi shunday qil-mishni sodir etganligi uchun ma`muriy jazo qo’llanilgan bo’lishi kerak.

“Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to’g’risidagi” qonunning V-bobi 17-moddasida monopoliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzganliklari uchun javobgarlik belgilangan. Xo’jalik yurituvchi sub`-ektlar, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari monopoliyaga qarshi qonun hujjat-larini buzgan taqdirda: etkazilgan zararning o’rnini qoplashlari, jarima, penya to’lashlari shartligi ko’rsatib o’tilgan.

Jinoyat kodeksining 183-moddasi 2-qismi mono-poliyaga qarshi faoliyat olib borish vakolati berilgan organning qonunbuzarlikni to’xtatish, dastlabki holatni tiklash, shartnomalarni bekor qilish yoki o’zgartirish haqidagi talablarini yoxud boshqa qonuniy ko’rsatmalarini bajarishdan bo’yin tovlash yoki ularni o’z vaqtida bajar-maslikda ifodalanadi.

“Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni chek-lash va raqobat to’g’risida”gi qonunning V-bobida mono-poliyaga qarshi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ja-vobgarlik, V1-bobida Monopoliyaga qarshi qonun huj-jatlarini buzganlik to’g’risida monopoliyaga qarshi davlat organi tomonidan ish qo’zg’atish va ularni ko’rib chiqish asoslari ko’rsatilgan.

Mazkur qonunga muvofiq bozorda katta mavqega ega bo’lgan xo’jalik yurituvchi sub`ektlarga bozorda mahsulot taqchilligini keltirib chiqarish yoki saqlab turish maq-sadida tovarlar ishlab chiqarishni kamaytirish yoxud to’x-tatib qo’yish, shuningdek ularni muomaladan olish, mo’may foyda olish maqsadida bozorda xaddan tashqari baland narx belgilash, uni sun`iy ravishda ushlab turish, narxlarni asossiz ravishda pasaytirish, davlat tomonidan belgilanib turiladigan shartnoma tuzayotgan tomonlarga ularni boshqa xo’jalik yurituvchi sub`ektlarning zimmasiga teng bo’lmagan ahvolga solib qo’yadigan shartlarni yuklash, xo’jalik yuri-tuvchi sub`ektlarga o’zgacha to’siqlarni vujudga keltirish hamda monopolistik faoliyat va g’irrom raqobatni boshqacha cheklash hamda ta`qiqlash kabi harakatlarni sodir etish man qilinadi.

Jinoyat kodeksining 183-moddasi 2-qismida na-zarda tutilgan jinoyat ushbu qismning dispozisiyasida nazarda tutilgan harakatlardan bittasi sodir etilgan paytdan

e`tiboran tamom bo'lgan, deb topiladi. Monopo-liyaga qarshi qonun xujjatlarini buzish jinoyati qasddan sodir etiladi. Uning motiv va maqsadi jinoyatni kva-lifikasiya qilishda ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Ushbu jinoyat yuzasidan 16 yoshga to'lgan shaxs javob-garlikka tortilishi mumkin. U yakka tartibda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar, tashkilotlar yoki ular birlash-malarining rahbarlari va boshqa xo'jalik yurituvchi sub`-ektlar bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 183-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilgan shaxslar eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Soliq va boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tov-laganlik uchun jinoiy javobgarlik.

1997 yil 24 aprelda O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi qabul qilindi, unda soliq tizimining hu-quqiy asoslarini, soliq to'lovchilarning huquqlari hamda majburiyatlari soliq ishlarini yuritish tartibini va soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun ja-vobgarlik belgilangan.

Soliq va boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash jinoyati davlatning moliyaviy sohada faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarga qarshi qaratilgan tajovuzlarda ifodalanadi, soliq solinishi lozim bo'lgan ob`ektlar Soliq kodeksida belgilab qo'yiladi. O'zbekiston hududida quyidagi soliqlar va yig'imlar mavjud:

umumdavlat soliqlari, yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq, ekologiya solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

mahalliy soliqlar va yig'imlar, mol-mulk solig'i, er solig'i, reklama solig'i, avtotransport vositalarini olib sotganlik uchun yig'im, shu jumladan ayrim turlardagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi lisenziya yig'imlari, yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im, avtotransport to'xtash joyidan foydalanganlik uchun yig'im va hokazo.

Soliq kodeksining 10-moddasiga muvofiq jami da-romad bilan mazkur kodeksda belgilangan chegirmalar o'rtasidagi farq sifatida hisoblangan daromad (foyda) soliq solish ob`ektidir, Soliq solinadigan ob`ektlarni yashirish deganda, 6uxgalteriya hisobotlarida daromadlar va harajatlardan tashqari soliq solish ob`ektlarini aks ettirmaslik tushiniladi. Soliq solinadigan ob`ektlarni kamaytirib ko'rsatish deganda, soliq solinadigan manba-larni to'g'ri hisoblamaslik, uni qonunga xilof ravishda kamaytirib ko'rsatish tushiniladi.

Davlat tomonidan belgilangan soliqlar, yig'imlar, boj va boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash deganda, shu to'lovlarni to'lamaslikka qaratilgan har qanday hara-katlarni sodir etish tushiniladi. Ancha miqdordagi so-liqlar va boshqa to'lovlarni to'lashdan bo'yin tovlash tahlil qilinayotgan modda bo'yicha jinoiy javobgarlik yuzaga kelishining zaruriy sharti hisoblanadi.

Jinoyat ancha miqdordagi soliqlar yoki boshqa to'-lovlarni to'lashdan bo'yin tovlashga qaratilgan harakatlar sodir etilgan paytdan e`tiboran tamom bo'lgan deb to-

piladi. Soliq va boshqa to’lovlarni to’lashdan bo’yin tovlash jinoyati qasddan sodir etiladi. Uning motivi va maqsadi jinoyatni kvalifikasiya qilishda e`tiborga olinmaydi. Ushbu jinoyat bo’yicha 16 yoshga to’lgan har qanday shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin.

O’zbekiston Respublikasi JKning 184-moddasi 1-qismiga ko’ra, foyda (daromad) yoki soliq to’lanadigan boshqa ob`ektlarni qasddan yashirish, kamaytirib ko’rsatish, shu-ningdek, davlat tomonidan belgilangan soliqlarni, yi-g’imlarni, boj yoki boshqa to’lovlarni to’lashdan qasddan bo’yin tovlash, basharti ma`muriy jazo qo’llanilganidan keyin sodir etilgan bo’lsa va to’lanmagan summa ancha miqdorni tashkil qilsa, eng kam oylik ish haqining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari, olti oygacha qamoq bilan jazolanadi.

Ushbu qilmishning takroran, ko’p miqdorda (JK 184-moddasi 2 qismi), juda ko’p miqdorda (JK 184-moddasi 3-qismi) sodir etilishi javobgarlikni og’irlashtiruvchi holatlar hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 184-moddasi 2-qismiga ko’ra, shaxs ushbu qilmishni takroran, ko’p miqdorda sodir etgan bo’lsa, eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha ahloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodek-sining 184 moddasi 3 qismiga ko’ra, qilmish juda ko’p miqdorda sodir etilgan bo’lsa, eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi

O’zbekiston Respublikasining 1999 yil 20 avgustda qabul qilingan “O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun xujjatlariga o’zgartirishlar va qo’shimchalar kiritish to’g’risida"gi qonuniga binoan, Jinoyat kodeksining 184-moddasiga kiritilgan qo’shimcha va o’zgartirishlarga asosan qasddan yashirilgan, kamaytirib ko’rsatilgan foydalar (daromadlar) bo’yicha soliqlar va boshqa to’lovlar to’liq to’langan taqdirda, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo’llanilmaydi", degan qismi bilan to’ldirilgan.

Shuningdek O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mah-kamasining 2002 yil 6 maydagi №154 sonli «Jismoniy shaxslar tomonidan O’zbekiston Respublikasi hududiga tovarlar olib kelinishini tartibga solish to’g’risida»gi qaroriga ko’ra, jismoniy shaxslar tomonidan olib keli-nadigan tovarlardan qo’shilgan qiymat solig’i, bojxona bojlari va yig’imlar o’rniga yagona bojxona to’lovi to’lashni nazarda tutuvchi bojxona to’lovlari undirishning tartibi joriy etilib, jismoniy shaxslar tomonidan olib keli-nadigan aksiz solig’i solinadigan tovarlarga amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va stavkalar bo’yicha aksiz solig’i solinishi hamda tovarning kelib chi-qish mamlakatidan qat`i nazar tovarlarning barcha toi-falari bo’yicha bojsiz olib kirish normalari qo’lla-nilmagan holda tovarning bojxona qiymatidan:

oziq-ovqat tovarlari (undan tashqari) bo’yicha 40 foiz;

nooziq-ovqat tovarlari bo’yicha 70 foiz;

tijorat faoliyati uchun mo’ljallangan un olib kelishda nul` stavka miqdorida yagona bojxona to’lovi undirilishi belgilab qo’yilgan. Mazkur qarorga ko’ra, Davlat

soliq qo’-mitasi Nazorat-taftish bosh boshqarmasining va O’zbekiston Respublikasi Prokuraturasi huzuridagi Soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining mansabdor shaxslariga O’zbekiston Respublikasi nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika Ken-gashi bilan kelishgan holda import qiluvchi jismoniy shaxslarda tijorat faoliyati uchun mo’ljallangan tovarlarning O’zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinishini tasdiqlovchi hujjatlar mavjudligini rejadan tash-qari tekshirish huquqi berilib, tegishli hujjatlar mav-jud bo’lmagan taqdirda tovar musodara qilinishi belgi-langan.

Byudjet intizomini buzganlik uchun jinoiy ja-vobgarlik.

Byudjet intizomini buzganlik uchun jinoiy javob-garlik masalasi 1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida o’z aksini topmagan edi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov to-monidan belgilab berilgan bozor iqtisodiyotiga o’tishning asosiy tamoyillaridan biri-bozor iqtisodiyotiga bos-qichma-bosqich o’tish davrida davlat byudjeti asosiy o’rin egallashi va davlatning asosiy bo’g’inlaridan biri bo’lib qolganligi O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida byudjet intizomini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilash zaruriyatini keltirib chiqardi. Shu munosabat bilan O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1999 yil 15 aprel` kuni Jinoyat kodeksiga yangi 184^1-modda – byudjet intizomini buzish normasi moddasi ki-ritildi.

Byudjet munosabatlarini tartibga solish maqsadida 2000 yil 14 dekabr` kuni O’zbekiston Respublikasi “Byudjet tizimi to’g’risida”gi qonuni qabul qilinib, u o’z ichiga 7 bo’lim, 43 moddani olib, unda byudjet tizimining umumiy qoidalari, byudjet tizimini boshqarish, davlat byudjeti, byudjetlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlar, davlat byudjetini tayyorlash, ko’rib chiqish va qabul qilish, davlat byudjetining ijrosi va uni ijro etilishini nazorat qilish kabi normalarni o’z ichiga oladi.

O’zbekiston Respublikasi “Byudjet tizimi to’g’risida”gi qonunning 12-moddasi davlat byudjeti xarajatlari deb nomlanib, unga ko’ra davlat byudjeti xarajatlari tas-diqlangan byudjetdan mablag’ ajratish doirasida quyi-dagicha:

1)byudjet mablag’lari oluvchilarning joriy xarajatlari shaklida (byudjetdan moliyalanadigan muassasalar va tash-kilotlarga ish haqi, nafaqalar, stipendiyalar va ularga tenglashtirilgan boshqa xarajatlar);

2) joriy byudjet transfertlari shaklida;

3) kapital xarajatlar shaklida (qurilish ishlari);

asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog’liq ish-lar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarishga;

chet elda davlat ehtiyojlari uchun er va boshqa mol-mulk olishga;

davlat ehtiyoji uchun erga bo’lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olishga;

davlat zahiralarini vujudga keltirishga;

4) kapital xarajatlarni qoplash uchun yuridik shaxs-larga beriladigan byudjet transfertlari shaklida;

5) rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga beriladigan byudjet ssudalari shaklida;

6) davlat maqsadli jamg'armalariga beriladigan byudjet dotasiyalari va byudjet ssudalari shaklida;

7) davlat qarzini qaytarish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lovlar shaklida;

8) qonun hujjatlarida ta`qiqlanmagan boshqa xara-jatlar shaklida amalga oshiriladi.

Agar qonun bilan belgilangan bu qoidalar fuqarolar va mansabdor shaxslar tomonidan buzilsa, bu huquq-buzarlik byudjet intizomini buzish deb topiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 184^1—moddasiga ko'ra ushbu jinoyatlarning ob`ekti - qonun hujjatlari bilan belgilangan byudjet mablag'laridan qonuniy foydalanish tartibi hisoblanadi.

Jinoyat Kodeksining 184^1 - moddasida nazarda tu-tilgan jinoyat quyidagi harakatlarda, ya`ni:

1) byudjet mablag'larini byudjetda yoki byudjetdan mo-liyalanadigan muassasalar va tashkilotlarning smetala-rida nazarda tutilmagan harajatlarga yo'llashda;

2) shunday muassasalar va tashkilotlarda harajatlar qismi bo'yicha byudjetdan ajratilgan mablag'larning li-mitlardan ortib ketishida,

3) shtat smeta intizomini buzishda ifodalanadi.

Jinoyat mazkur moddaning dispozisiya qismida na-zarda tutilgan harakatlardan bittasi sodir etilgan payt-dan e`tiboran tamom bo'lgan, deb topiladi.

Aybdor ma`muriy javobgarlikka tortilganidan so'ng, yana byudjet intizomini buzsa, Jinoyat Kodeksining 184^1-moddasining 1-qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

Byudjet intizomini ko'p miqdorda buzish 184^1-moddaning 2-qismida, juda ko'p miqdorda buzish esa 184^1-moddaning 3-qismida ko'rsatilgan jinoyat uchun javobgarlikni keltirib chiqaradi. Ushbu modda 4-qismi byud-jetdan moliyalanadigan muassasa va tashkilotlarga ish haqi, nafaqalar, stipendiyalar va ularga tenglashtirilgan boshqa xarajatlar to'lovi uchun pul mablag'lari berishning bank rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari tomonidan asossiz ravishda kechiktirilishida ifodalanadi.

Jinoyat byudjetdan moliyalanadigan muassasa va tash- kilotlarga ish haqi, nafaqalar, stipendiyalar va boshqa harajatlar to'lovi uchun pul mablag'lari berish asossiz ravishda kechiktirilgan paytdan tamom bo'lgan deb topiladi.

JK 184^1— moddasining 4-qismida aybdor ma`muriy jazoga tortilganidan keyin jinoyatni sodir qilsagina jinoiy javobgarlik vujudga keladi. Byudjet intizomini buzish jinoyati qasddan sodir etiladi.

184^1-moddaning 1, 2, 3-qismlari bo'yicha 16 yoshga to'lgan va byudjet intizomini buzgan shaxs, 4-qismi bo'yicha esa pul mablag'larini berish haqida qaror qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan rahbarlar yoki boshqa mansabdor shaxslar javobgar bo'lishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi JK 184^1-moddasi 1-qismiga ko'ra, byudjet intizomini buzish, ya`ni byudjet mab-lag'larini byudjetda yoki byudjetdan moliyalanadigan muas-sasalar va tashkilotlarning smetalarida nazarda tutilmagan harajatlarga yo'llash, shunday muassasalar hamda tash-kilotlarda harajatlar qismi bo'yicha byudjetdan ajratilmagan mablag'larning limitlaridan ortib ketishi, shtatsmeta intizomini buzish, shunday qilmish uchun ma`-muriy jazo qo'llanilgandan keyin sodir etilgan bo'lsa,

eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki bir yilgacha ahloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi.

Jinoyat kodeksining 184^1 — moddasi 2-qismiga ko'ra esa, o'sha qilmish ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa, eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan etmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha ahloq tuzatish ishlari yoxud bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Shuningdek, Jinoyat kodeksining 184^1-moddasi 3-qismiga ko'ra, o'sha qilmish juda ko'p miqdorda sodir etilgan bo'lsa, eng kam oylik ish haqining etmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Jinoyat kodeksining 184^1-moddasi 4-qismiga ko'ra, byudjetdan moliyalanadigan muassasalar va tashkilotlarga ish haqi, nafaqalar, stipendiyalar va ularga tenglash-tirilgan boshqa harajatlar to'lovi uchun pul mablag'lari berish banklarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari tomonidan asossiz ravishda kechiktirilganligi, shunday harakatlar uchun ma`muriy jazo qo'llanilgandan keyin sodir etilgan bo'lsa, eng kam oylik ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud bir yilgacha ozodlikdan mah-rum qilish bilan jazolanadi.

2-§. Xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik

Sifatsiz mahsulot chiqarish yoki sotish uchun jinoiy javobgarlik. 1996 yil 26 aprelda O'zbekiston Respub-likasining "Iste`molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunni qabul qilish bilan bu sohadagi hu-quqiy masalalar tartibga solingan.

Ushbu jinoyat shaxsning xo'jalik faoliyati sohasidagi manfaatlari, shuningdek fuqarolarning hayoti va sog'ligiga qarshi qaratilgan tajovuzlarda ifodalanadi.

Sifatsiz mahsulot chiqarish yoki uni sotish jinoyati tovar bozoriga sifatsiz mahsulot chiqarish yoki uni so-tish natijasida iste`molchilarning badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast etkazilishida ifodalanadi.

Mahsulot chiqarish deganda, biron-bir mahsulotni buyurtmachi yoki iste`molchiga topshirish yoki jo'natish tu-shuniladi. Sotish deganda, tovarlarni bevosita iste`-molchilarga sotish nazarda tutiladi.

Tahlil qilinayotgan modda bo'yicha javobgarlik si-fatsiz mahsulotni tovar bozoriga chiqarish yoki sotish natijasida badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast etka-zilgan hollardagina vujudga keladi.

Sifatsiz mahsulot deganda, davlat standarti ta-lablariga, me`yoriy normalarga javob bermaydigan va sifat sertifikatiga ega bo'lgan mahsulotlar tushuniladi. Mah-sulot har qancha sifatsiz bo'lsada, o'rtacha og'ir yoki og'ir tan jarohati etkazish xususiyatiga ega bo'lmasa, Jinoyat ko-deksining 186-moddasida nazarda tutilgan jinoyatning predmeti bo'la olmaydi. Unday holda bunday qilmishni sodir qilgan shaxslarga ma`muriy, intizomiy va boshqacha choralar ko'riladi.

Ushbu jinoyatning predmeti sifatida har qanday oziq-ovqat mahsulotlari nazarda tutilgan. Lekin jinoiy javobgarlik yuzaga kelishning sharti sifatida jinoiy oqibat yuz

bergan bo’lishi kerak, qilmishni bevosita ushbu modda bilan kvalifikasiya qilish uchun jinoiy oqibat kelib chiqqan bo’lishi shart"[1].

Tovar bozoriga sifatsiz mahsulotni chiqarish yoki sotish natijasida fuqarolarning sog’ligi uchun mazkur moddada ko’rsatilgan oqibatlar kelib chiqmasa, jinoiy javobgarlik ham bo’lmaydi. Biroq “Iste`molchilarning huquqlarini himoya qilish to’g’risida"gi qonunning 20-moddasiga muvofiq, tovar (ish, xizmat)ning tuzilishi, ish-lab chiqarilishi, tarkibidagi va boshqa nuqsonlari, shu-ningdek iste`molchining hayoti, sog’lig’i yoki mol-mulki-ning xavfsizligini ta`min eta olmaydigan materiallar, uskunalar, asbob-anjomlar, moslamalar yoki boshqa vo-sitalar qo’llanilishi oqibatida iste`molchining hayotiga, sog’lig’i yoki mol-mulkiga etkazilgan zarar sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) tomonidan qoplanishi lozim.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) bilan shartnoma munosabatlariga kirishgan, kirishmaganligidan qat`iy nazar, har qanday iste`molchi tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni tufayli etkazilgan zararning qoplanishini ta-lab qilish huquqiga ega.

Iste`molchining hayoti, sog’ligi yoki mol-mulkiga etka-zilgan zarar, agar u normativ hujjatlarda nazarda tutilgan tovarning xizmat (yaroqlik) muddati mobaynida, bunday muddat belgilanmagan taqdirda esa, tovar ishlab chiqarilgan (ish, xizmat qabul qilingan) paytdan e`ti-boran o’n yil mobaynida yuzaga kelgan bo’lsa qoplanishi lozim.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) bartaraf qilib bo’lmaydigan kuch yoki foydalanish, uni saqlash yoxud ta-shishning belgilangan qoidalari iste`molchi tomonidan buzilishi tufayli zarar etkazilganligini isbotlasa, u javobgarlikdan ozod qilinadi.

Sifatsiz mahsulot chiqarish yoki sotish qasddan sodir etiladi, kelib chiqqan oqibatlar (sog’liqqa zarar etka-zilishi, odamlar o’limi) borasida esa shaxsning aybi ehtiyotsizlikda ifodalanadi.

O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 186-moddasi 1-qismiga ko’ra, tovar bozoriga sifatsiz mahsulot chiqarish yoki uni sotish badanga o’rtacha og’ir yoki og’ir shikast etkazilishiga sabab bo’lsa, eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha ahloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning 2-qismida odamning o’limiga sabab bo’lgan sifatsiz mahsulotni chiqarganlik yoki sotganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Unga ko’ra shaxs uch yildan etti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Tahlil qilinayotgan moddaning 3-qismida sifatsiz mahsulot chiqarganlik yoki sotganlik natijasida:

odamlar o’limiga;

boshqa og’ir oqibatlarning yuzaga kelganligi uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Boshqacha og’ir oqibatlar deganda, ikki yoki undan ortiq shaxsning badaniga o’rtacha og’ir yoki og’ir shikast etkazilishi sog’liqqa zarar etkazish, odamlarning

[1] Ф.Тохиров. Сифатсиз мащсулот чи=ариш ёки сотиш *учун* жиноий жавобгарлик. “+онун щимоясида" 2000 йил, 2-сон, 42 бет.

yalpi zaharlanishi va boshqalar tushuniladi. Unga ko’ra shaxs etti yildan o’n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug’ullanganlik uchun jinoiy javobgarlik.

Mazkur jinoyat qonunda belgilab qo’yilgan ro’yxatdan o’tish va savdo yoki vositachilik faoliyati bilan shug’ullanish tartibini buzishda namoyon bo’ladi.

Jinoyat nazorat qilinmaydigan foyda (daromad) olish maqsadida belgilangan tartibda ro’yxatdan o’tishdan bo’yin tovlab, savdo yoki vositachilik faoliyati bilan shug’ul-lanishda ifodalanadi.

qonunga xilof ravishda savdo yoki vositachilik fao-liyati bilan shug’ullanish deganda, nazorat qilinmaydigan foyda (daromad) olish maqsadida qonunda belgilangan tar-tibda ro’yxatdan o’tmasdan shunday faoliyatni amalga oshi-rish tushuniladi. Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 maydagi 154-sonli «Jismoniy shaxslar tomonidan O’zbekiston Respublikasi hududiga tovarlar olib kelinishini tartibga solish to’g’-risida»gi qaroriga ko’ra 2002 yil 1 iyundan boshlab tijo-rat faoliyati uchun mo’ljallangan tovarlarni olib keluvchi jismoniy shaxslar uchun ularni yuridik shaxs tashkil etmasdan eksport-import operasiyalarini amalga oshirish, ulgurji va chakana savdo qilish huquqi bilan yakka tar-tibdagi tadbirkorlar sifatida belgilangan tartibda majburiy ro’yxatdan o’tkazish va mazkur qarorning 1-bandiga muvofiq, yuridik shaxs tashkil etmasdan eksport-import operasiyalarini amalga oshirish, ulgurji va chakana savdo qilish huquqi bilan yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida belgilangan tartibda ro’yxatdan o’tkazilgan jismoniy shaxslar tomonidan olib kelingan tovarlarni sotish tovarlarning O’zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilganligini va bojxona to’lovlari to’langanligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo’lgan taqdirda amalga oshirish mumkinligi belgilab qo’yilgan.

Aybdor ro’yxatdan o’tmasdan savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug’ullanilgan paytdan e`tiboran jinoyat tamom bo’lgan deb topiladi.

O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 188-moddasi 1-qismiga ko’ra, aybdor ma`muriy jazo qo’l-lanilganidan keyin ham yuqoridagi qilmishni sodir etsa, mazkur moddaning ko’rib chiqilayotgan qismi bo’yicha ji-noiy javobgar bo’ladi. Mazkur jinoyat aybning qasd shakli bilan sodir etiladi. Jinoyatni sodir etish maqsadi na-zorat qilinmaydigan foyda (daromad) olish jinoyatining zaruriy belgisi hisoblanadi.

Savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug’ullangan, 16 yoshga to’lgan har qanday shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin.

O’zbekiston Respublikasi JKning 188-moddasi 1-qismiga ko’ra, nazorat qilinmaydigan ancha miqdorda foyda (daromad) olish maqsadida belgilangan tartibda ro’yxatdan o’tishdan bo’yin tovlab, savdo yoki vositachilik faoliyati bilan shug’ullanish, shunday harakatlar uchun ma`muriy jazo qo’llanilganidan keyin sodir etilgan bo’lsa, uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilib, eng kam oylik ish haqining bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha ahloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda ro’yxatdan o’tishning belgilangan tartibini buzgan holda shug’ullanish, xavfli residivist

tomonidan, ko’p miqdorda yoki bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo’lsa aybdor JK 188-moddasi 2-qismi bilan javobgar qilinadi. Unga ko’ra shaxs uch yilgacha muayyan huqukdan mahrum qilinib, eng kam oylik ish haqining bir yuz ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq bilan jazolanadi.

Mazkur moddaning 3-qismida juda ko’p miqdorda yoki uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko’zlab sodir etilgan savdo yoki vositachilik faoliyati bilan shug’ullanganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Bunday jinoyat uchun aybdor uch yilgacha muddatga muayyan huquqdan mahrum qilinib, eng kam oylik ish haqining uch yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Shaxs savdo yoki vositachilik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug’ullana turib, xaridorlar yoki buyurt-machilarni aldasa, uning qilmishlari O’zbekiston Respub-likasi JK 187, 188-moddalari bo’yicha jinoyatlar jami tariqasida javobgar qilinadi. Savdo yoki xizmat ko’rsatish qoidalarini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik.

Mazkur jinoyat fuqarolarning manfaatlari, mulk shaklidan qat`iy nazar savdo korxonalari, umumiy ov-qatlanish korxonalarining normal faoliyatini yuriti-lishiga xilof harakatlarda ifodalanadi.

Jinoyat savdo va xizmat ko’rsatish qoidalarini buzishda namoyon bo’ladi. O’zbekiston Respublikasi Oliy sudining 1996 yil 15 martdagi “Savdo sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklarga oid ishlar bo’yicha sud amaliyoti to’g’risida”gi 9-sonli Plenum qarorida, Jinoyat kodek-sining 189-moddasi va Ma`muriy javobgarlik to’g’ri-sidagi Kodeksning 164 va 168-moddalarida javobgarlik nazarda tutilgan savdo yoki xizmat ko’rsatish qoidalarini buzish deganda, savdo va xizmat ko’rsatish sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan O’zbekiston Respublikasi qonunlarining buzilishi tushunilmog’i lo-zimligi qayd qilingan.

Bunda «sud aybdor tomonidan aynan qaysi savdo qoidalari buzilganligini ko’rsatishi shart"[1], deb tu-shuntirish berilgan. Jinoyatni kvalifikasiya qilishda har bir aybdor tomonidan qaysi qoida, shu qoidalarning qaysi bandi buzilganligini aniqlash zarur. Masalan, 1995 yil 15 fevralda qabul qilingan "Aholi bilan pullik hisob-kitoblarni amalga oshirishda nazorat—kassa mashinalarini majburiy qo’llanish tartibi to’g’risidagi Nizom"ga muvo-fiq, har bir savdo shaxobchasida kassa apparati o’rnatilgan bo’lishi kerak. Uning yo’q ekanligi savdo qoidalarini buzish hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining 189-moddasining 1-qismiga ko’ra, ya`ni savdo yoki xizmat ko’rsatish qoidalarini buz-ganlik uchun jinoiy javobgarlik xuddi shunday hara-katlar uchun ma`muriy jazo qo’llanilgandan keyin yuzaga keladi.

Jinoyat kodeksining 189-moddasining 1-qismida na-zarda tutilgan jinoyat savdo yoki xizmat ko’rsatish qoi-dalarining biror-bir bandi buzilgan paytdan e`ti-boran tamom bo’lgan deb topiladi.

Savdo yoki xizmat ko’rsatish qoidalarini buzish qasddan sodir etiladi. Jinoyatning motivi va maqsadi uni kva-lifikasiya qilishda ahamiyatga ega emas. Ushbu moddaning 1-qismiga ko’ra savdo yoki xizmat ko’rsatish qoidalarini

[1] Ызбекистон Республикаси Олий суди Пленуми =арорлариннг тыплами (1991-1997), 1-жилд, *Т.,* Шар=, 1997, 97-бет.

buzganlik uchun ma`muriy jazo qo'llanilganidan keyin yana o'sha harakat ancha miqdorda sodir etilsa — eng kam oylik ish haqining bir yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima, yoki besh yilgacha muddatga muayyan huquqdan mahrum qilish yoki bir yilgacha ahloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Savdo yoki xizmat ko'rsatish sohasida ishlovchi va 16 yoshga to'lgan har qanday shaxs ushbu jinoyat bo'yicha ja-vobgarlikka tortilishi mumkin.

Ko'rib chiqilayotgan moddaning 2-qismida ko'p miq-dorda sodir etilsa, shuningdek, savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish xavfli residivist tomonidan yoki ilgari ushbu kodeksning 188 yoki 190-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan yoxud bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, eng kam oylik ish haqining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha ahloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Jinoyat Kodeksining 189-moddasi 3-qismida savdo yoki xizmat ko'rsatish juda ko'p miqdorda sodir etil-ganligi uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo'lib, aybdor eng kam oylik ish haqining uch yuz ellik baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq bilan jazolanadi.

Aybdor shaxs savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzgan va ayni paytda xaridorlar yoki buyurtmachilarni aldagan bo'lsa, uning harakatlarini jinoyatlarning jami bo'yicha ya`ni 168 va 189-moddalar bilan kvalifikasiya qilish zarur.

Agar savdo va xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish tovlamachilik yo'li bilan sodir etilgan bo'lsa, aybdorning qilmishlari, 165 va 189-moddalar 6ilan yuqorida aytil-ganidek, jinoyatlar jami bo'yicha kvalifikasiya qilinadi.

Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahka-masining 2002 yil 20 avgustdagi 295-sonli «Lisen-ziyalashni bekor qilish hamda iste`mol tovarlarini olib kelish va O'zbekiston Respublikasining ichki bozorida sotishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga ko'ra, 2002 yil 1 oktyabrdan boshlab yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tijorat faoliyati uchun O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga barcha is-te`mol tovarlari olib kelinishiga amaldagi qonun huj-jatlariga binoan majburiy tartibda muvofiqlik ser-tifikati taqdim etilgan taqdirda yo'l qo'yilishi; 2002 yil 1 sentyabrdan boshlab yuridik va jismoniy shaxslar to-monidan iste`mol tovarlari tuzilgan shartnomalar asosida faqat o'zining rasmiy e`lon qilingan distrib`yutorlariga, shuningdek nazorat-kassa mashinalaridan majburiy foy-dalanilgan taqdirda turg'un savdo shoxobchalari orqali chakana savdo qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslarga ul-gurji sotilishi, import iste`mol tovarlarini olib kelish va ularni ulgurji sotish bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar ro'yxatdan o'tkazish va bojxona ras-miylashtiruvida o'zining rasmiy distrib`yutorlari ro'y-xatini taqdim etishi shartligi, ulgurji savdo sub`-ektlarining distrib`yutorlari nazorat-kassa mashinalari bilan jihozlangan turg'un savdo shoxobchasiga ega bo'lishlari kerakligi, iste`mol tovarlari qonun hujjatlariga mu-vofiq yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan faqat naqd pulsiz hisob-kitob qilish shaklida ulgurji so-tilishi belgilab qo'yilgan.

Mazkur qarorga ko'ra, yuridik va jismoniy shaxslarning o'zlarining rasmiy distrib`yutorlari sifatida e`lon qi-linmagan, shuningdek nazorat-kassa mashinalari bilan jihozlangan turg'un savdo shoxobchalariga ega bo'lmagan jismoniy shaxslarga

iste`mol tovarlarini ulgurji so-tishi ta`qiqlanib, 2002 yil 1 sentyabrdan boshlab res-publikaning buyum bozorlarida import iste`mol tovarlari faqat yuridik shaxs tashkil etmasdan yakka tartibdagi tad-birkor sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan va eksport-import operasiyalarini hamda chakana savdoni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxslar tomonidan respub-lika hududiga tovarlar ular tomonidan olib kelingan-ligini, muvofiqlik sertifikatlarini, bojxona to'lovlari va qat`iy belgilangan soliq to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda sotilishiga belgilangan tartibda yo'l qo'yilishi va bunda ular tomonidan iste`mol tovarlarini nazorat-kassa mashinalari qo'llanilmasdan sotishga ruxsat berilishi belgilangan.

Faoliyat bilan lisenziyasiz shug'ullanganlik uchun ji-noiy javobgarlik. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 25 mayda qabul qilingan "Faoliyatning ayrim tur-larini lisenziyalash to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida lisenziyalash sohasini davlat tomonidan tartibga so-linishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda lisenziyalovchi organlar tomonidan amalga oshirishi ko'rsatib o'tilgan.

Faoliyat turlarini amalga oshirish uchun faoli-yatning lisenziyalanadigan turlarini aniqlash lozim. "Faoliyatning ayrim turlarini lisenziyalash to'g'ri-sida"gi qonunning 7-moddasida lisenziyalanadigan fa-oliyat turlari belgilangan. Bular jumlasiga, amalga oshirilishi fuqarolarning huquqlari va qonuniy man-faatlariga, sog'ligiga, jamoat xavfsizligiga zarar etka-zishi mumkin bo'lgan hamda tartibga solib turilishi lisenziyalashdan tashqari usullar bilan amalga oshiri-lishi mumkin bo'lmagan faoliyat turlari kiradi. Amalga oshirilishi uchun lisenziya talab qilinadigan faoliyat turlari qonunlar bilan belgilanadi.

Korxonaning lisenziya olinishi kerak bo'lgan fa-oliyatiga ruxsatnoma berish va bunday ruxsatnomani ha-qiqiy emas, deb topish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi[113]. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1994 yil 18 aprelda qabul qilingan qarorining ilovasida mulkchilikning barcha shaklidagi korxonalar {tashkilotlar), shu jumladan chet el korxonalari va qo'shma korxonalar faqat maxsus rux-satnoma (lisenziya) asosidagina shug'ullanishga haqli bo'lgan faoliyat turlarining ro'yxati berilgan. Masalan, portlovchi va zaharli moddasi hamda bunday moddalarni qo'llagan holda boshqa buyumlar yaratish, ishlab chiqarish, ularni tashish va sotish, ov va sportga mo'ljallangan o'q otar qurollari va uning o'q dorilarini, shuningdek tig'li qurollar (milliy pichoq turlaridan tashqari) ishlab chiqarish, ularni ta`mirlash va sotish, qimorxonalar tashkil etish, lote-reyalar va shunga o'xshash tadbirlar o'tkazish uchun albatta lisenziya olinishi lozim[114]. qonunda mustahkamlab qo'-yilganidek, mazkur jinoyat tadbirkorlik bilan shug'ul-lanishni amalga oshirilishini tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlarga qaratilgan tajovuzda namoyon bo'ladi.

Jinoyat lisenziya olinishi lozim bo'lgan faoliyat bilan maxsus ruxsatnoma olmasdan shug'ullanishda ifodalanadi, ya`ni bu jinoyat formal tarkibli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Savdo sohasidagi jinoyatlarga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorida "Amaldagi qonunlarga mu-vofiq, savdo faoliyatining ayrim turlari bilan shu-g'ullanish uchun

[113] Ызбекистон Республикаси Конун ва фармонлари тыплами. Т. 1992, 48-6ет.
[114] Ызбекистоннинг янги =онунлари тыплами. Т. 1996 йил, 10-сон. 98-99 бетлар.

maxsus ruhsatnoma (lisenziya) talab qi-linadi. Bunday ruxsatnomaning yo'qligi, aybdor muqaddam shunday harakatlar uchun bir yil mobaynida Ma`muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 176-moddasi bilan ma`muriy javobgarlikka tortilgan bo'lsa, Jinoyat ko-deksining 190-moddasi bo'yicha javobgarlikni yuzaga ke-ltiradi. Agar bunda aybdorning savdo faoliyatini faqat ruxsatnoma (lisenziya)siz amalga oshiribgina qolmay, balki ro'yxatdan o'tishdan ham bo'yin tovlaganligi aniqlansa. uning harakatlari Jinoyat kodeksining 188 va 190-mod-dalari bilan jinoyatlar jami bo'yicha kvalifikasiya qi-linmog'i lozim" deb tushuntiriladi.

Ushbu modda ma`muriy preyudisiyaga ega. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 190-mod-dasining 1-qismi bo'yicha jinoiy javobgarlik lisenziya olinishi shart bo'lgan faoliyat bilan maxsus ruxsatnoma olmasdan shug'ullangan shaxsga nisbatan ma`muriy jazo choralari qo'llanilganidan keyin sodir etilgan hollar-dagina yuzaga keladi. Faoliyat bilan lisenziyasiz shug'ul-lanish jinoyati qasddan sodir etiladi. Jinoyatning motiv va maqsadi har xil bo'lishi mumkin, ammo ular qilmishning kvalifikasiyasiga ta`sir ko'rsatmaydi. Mazkur jinoyat bo'yicha 16 yoshga to'lgan har qanday shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 190-moddasi 1-qismiga ko'ra, shaxs lisenziya olishi shart bo'lgan faoliyat bilan ruxsatnoma olmasdan shug'ullanish, shunday harakatlar uchun ma`muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etgan bo'lsa, eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravaridan etmish besh baravarigacha miq-dorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha muddatga ahloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Ushbu qilmishni xavfli residivist yoxud bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etishi faoliyat bilan lisenziyasiz shug'ullanish uchun javob-garlikni og'irlashtiruvchi holat hisoblanadi. Unga ko'ra shaxs Jinoyat kodeksining 190-moddasining 2-qismiga ko'ra eng kam oylik ish haqining etmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki olti oygacha qamoq bilan jazolanadi. Mazkur jinoyatni kvalifikasiya qi-lishda faoliyat bilan lisenziyasiz shug'ullangan shaxs soliqlarni to'lashdan ham bo'yin tovlagan bo'lsa, uning harakatlari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 190 va 184-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni tashkil qilib jinoyatlar jami tariqasida jazo tayin-lanadi.

Raqobatchini obro'sizlantirganlik uchun jinoiy ja-vobgarlik. Raqobatchini obro'sizlantirish jinoyati xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning tovar bozorida qonuniy ra-qobat qilishni tartibga soluvchi ijtimoiy munosa-batlarga qarshi qaratilgan tajovuzlarida ifodalanadi.

Jinoyat bosma yoki boshqacha usulda ko'paytirilgan matnlar yoki ommaviy axborot vositalari orqali xo'jalik yurituvchi sub`ektning ishbilarmonlik nufuziga putur etkazish maqsadida bila turib yolg'on, noaniq yoki buzib ko'rsatilgan ma`lumotlarni tarqatish harakatlari orqali sodir etilishi mumkin. Tarqatish deganda, bosma yoki boshqacha usulda kupaytirilgan matnlarni yoki ommaviy axborot vositalari orqali yolg'on, noaniq yoki buzib ko'rsatilgan ma`lumotlarni xabar qilish tushuniladi.

Agar ma`lumotlar butunlay haqiqatga mos kelmasa, ular yolg'on hisoblanadi. Noaniq ma`lumotlar esa, ularning qisman rost ekanligini bildiradi. Haqiqiy ma`lumotlarga mos kelmaydigan ma`lumotlar buzib ko'rsatilgan bo'lishi ham

mumkin. Bosma usulda ko’paytirish deganda, ma`lu-motlarni har qanday boshqacha usulda (kseronusxa olish, ko’paytirish, fotosur`atga olish, turli yozuv mashin-kalaridan foydalanish. Ma`lumotlarni qo’lda yozib olish va hokazo yul bilan) ko’paytirish tushuniladi.

Jinoyat bosma yoki boshqacha usulda ko’paytirilgan matnlarda yoki ommaviy axborot vositalari orqali bila turib yolg’on, noaniq yoki buzib ko’rsatilgan ma`lumotlar oshkor qilingan paytdan e`tiboran, ya`ni ular o’zga shaxslarga ma`lum bo’lgan paytdan tamom bo’lgan deb to-piladi. Ushbu jinoyat to’g’ri qasd bilan sodir etiladi. Aybdor yolg’on, noaniq yoki buzib ko’rsatilgan axborotni tarqatayotganini oldindan biladi.

Jinoyatni sodir etishdan maqsad-xo’jalik yurituvchi sub`ektlarning ishbilarmonlik nufuziga putur etkazish bo’lib, sub`ektiv tomonining zaruriy belgisi hisoblanadi. Bunday ma`lumotlarni tarqatgan shaxs xo’jalik yurituvchi sub`ektining ishbilarmonlik nufuziga putur etkazishni o’z oldiga maqsad qilib qo’ymagan bo’lsa, uning harakatlarida mazkur jinoyat tarkibi bo’lmaydi.

Ushbu jinoyat bo’yicha 16 yoshga to’lgan har qanday aqli raso shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 192-moddasiga ko’ra, shaxs ushbu jinoyatni sodir etganligi uchun, eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha ahloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi.

Nazorat savollari:

1. O’zbekiston Respublikasi manfaatlariga zid ravishda tuzilgan bitimlar haqida tushuncha bering.
2. Soxta tadbirkorlikning belgilari qanday va jinoiy javobgarlik turlarini tushuntiring.
3. Soliq va boshqa to’lovni to’lashdan bo’yin tovlash jinoyati nimalarda ifodalanadi?
4. Sifatsiz mahsulot chiqarish oqibatida yalpi zaharlanish sodir bo’lsa qanday jazo choralari belgilanadi?
5. Savdo yoki xizmat ko’rsatish qoidalarini buzish deganda qanday harakatlar nazarda tutiladi?

I7-BOB
XO’JALIK NIZOLARINI HAL ETISh

1-§. Xo’jalik nizolari tushunchasi va ularning kelib chiqish asoslari

Xo’jalik nizolari deganda, har qanday yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor maqomini qonunda belgi-langan tarzda olgan fuqarolar-xo’jalik yurituvchi sub`-ektlarning huquqlari yoxud qonun bilan qo’riqlanadigan manfaatlarining buzilishi natijasida ular o’rtasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar tushiniladi.

Bu nizolar-iqtisodiyot sohasidagi yuridik shaxslar, yuridik shaxs tuzmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan va yakka tartibdagi tadbirkor maqomini qonunda belgilangan tarzda olgan fuqarolar o’rtasidagi fuqaroviy. ma`muriy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadi.

Xo’jalik nizolarini quyidagi turlarga bo’lish mumkin:

tuzilishi qonunda nazarda tutilgan shartnoma yuza-sidan kelib chiqqan kelishmovchiliklar yoki shartnoma yuza-sidan kelib chiqqan bo’lib, hal etish uchun xo’jalik sudiga topshirish haqida taraflar o’zaro kelishgan ixtiloflar;

shartnoma shartlarini o’zgartirish yoki shartnomani bekor qilish haqidagi nizolar;

mulk huquqini tan olish to’g’risidagi nizolar;

majburiyatlar bajarilmaganligi yoki tegishli darajada bajarilmaganligi to’g’risidagi nizolar;

mulkdor yoki mulkning boshqa qonuniy egasi tomonidan mol-mulkni boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olish to’g’risidagi nizolar;

mulkdorning yoki mol-mulkning boshqa qonuniy egasining huquqlari egalik qilishdan mahrum etish bilan bog’liq bo’lmagan holda buzilganligi to’g’risidagi nizolar;

etkazilgan zararni qoplash to’g’risidagi nizolar. Bu turdagi nizolar davlat organlari, fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlari yoki ushbu organlar mansabdor shaxslarining g’ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi), shu jumladan davlat organi yoki fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq bo’lmagan hujjat chiqarilishi natijasida etkazilgan zarar bilan bog’liq bo’lishi ham mumkin;

sha`n, qadr-qimmat va ishchanlik obro’sini himoya qilish to’g’risidagi nizolar;

davlat organlari va fuqarolar o’zini-o’zi boshqarish organlarining qonun hujjatlariga muvofiq bo’lmagan, tashkilotlar va fuqarolarning huquqlari va qonun bilan qo’riqlanadigan manfaatlarini buzadigan hujjatlarini (butunlay yoki qisman) haqikiy emas deb topish to’g’ri-sidagi nizolar;

undirish so’zsiz (akseptsiz) tartibda amalga oshiriladigan ijro hujjatini yoki boshqa hujjatni ijro etilishi mumkin emas deb topish to’g’risidagi nizolar;

davlat ro’yxatiga olishni rad etganlik yoki belgilangan muddatda davlat ro’yxatiga olishdan bosh tortganlik ustidan berilgan shikoyatlar bilan bog’liq nizolar;

agar qonunda so’zsiz (akseptsiz) tartibda jarima undirilishi nazarda tutilmagan bo’lsa, tekshiruv vazifalarini amalga oshiruvchi davlat organlari tomonidan tashki-lotlar va fuqarolardan jarimalar undirish to’g’risidagi nizolar;

tekshiruv vazifalarini amalga oshiruvchi organlar tomonidan qonun hujjatlarining talablarini buzgan holda so’zsiz (akseptsiz) tartibda hisobdan chikarilgan pul mablag’larini byudjetdan qaytarish to’g’risidagi nizolardir.

2-§. Xo’jalik nizolarini hal qiluvchi organlar

Xo’jalik nizolarini umumiy yurisdiksiya sudlarida ko’rish tartibi.

O’zbekiston Respublikasi Xo’jalik prosessual kodeksining 23-moddasida xo’jalik sudlariga taalluqli ishlar ro’yxati berilgan bo’lib, bunga binoan iqtisodiyot sohasida vujudga keladigan nizolar, shuningdek bankrotlik ishlari xo’jalik sudlari tomonidan ko’rib chiqiladi. Gap shundaki, bunday nizolarda qatnashuvchi taraflar bo’lib yuridik shaxslar, yuridik shaxs tuzmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan va yakka tartibdagi tadbirkor maqomini qonunda belgilangan tarzda olgan fuqarolar ishtirok etishlari mumkin.

Xo’jalik sudi o’ziga taalluqli ishlarni, agar O’zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo’lmasa, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan O’zbekiston Respublikasi tashkilotlari va fuqarolari, shuningdek chet el tashkilotlari, chet el investisiyalari ishtirokidagi tashkilotlar, xalqaro tashkilotlar, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo’lmagan shaxslar ishtirokida ko’radi.

O’zaro bog’liq bo’lib, ba`zilari xo’jalik sudiga, bosh-qalari esa umumiy sudlarga taalluqli bo’lgan bir necha talab birlashtirilgan taqdirda, hamma talablar umumiy yuris-diksiya sudida ko’rilishi kerak.

Shunday ekan, xo’jalik nizolari yuqoridagi holda xo’jalik sudlari, arbitraj yoxud hakamlik sudlari tomonidan emas, balki umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan ham ko’rib chiqilishi mumkinligini nazarda tutmoq lozim.

O’zbekiston Respublikasining «Dehqon xo’jaligi to’g’-risida»gi 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan qonu-nining 1-moddasiga binoan, dehqon xo’jaligi oilaviy mayda tovar xo’jaligi bo’lib, oila a`zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig’iga beriladigan tomorqa er uchastkasida qishloq xo’jaligi mahsuloti etishtiradi va realizasiya qiladi. Dehqon xo’jaliklaridagi faoliyat tad-birkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo’jaligi a`zolarining istagiga ko’ra yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.1

Yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat yuritadigan dehqon xo’jaligi belgilangan tartibda davlat ro’yxatiga olingan paytdan e`tiboran tashkil etilgan hisoblanadi. Gap shundaki, yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat yuritadigan dehqon xo’jaliklari ishtirokidagi xo’jalik nizolari xo’jalik sudlari tomonidan ko’rib chiqilib hal etilmasdan, balki umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan ko’rib chiqib, hal etiladi, chunki XPKning 23-moddasi xo’jalik sudlarida nizolar nizolashayotgan sub`ektlar

[1] Ызбекистон Республикасининг Ер кодекси ва =ишло= хыжалигига оид +онун щужжатлари, тыплам, Т.: «Адолат»., 1999 йил, 117-бет.

tarkibiga qarab taalluqli bo'lishligini belgilab qo'ygan. Binobarin, ushbu modda mazmuniga binoan, yuridik shaxs tuzmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan va yakka tartibdagi tadbirkorlik maqomini qonunda belgilangan tarzda olgan fuqarolar iqtisodiyot sohasida vujudga keladigan xo'jalik nizolarini xo'jalik sudlarida ko'rishda taraf bo'lishlari mumkin, ammo yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati yuritadigan dehqon xo'jaligi xo'jalik nizolarini xo'jalik sudlarida ko'rishda taraf bo'la olmaydilar. Shuning uchun ular ishtirokidagi xo'jalik nizolari umumiy yurisdiksiya sudlarida ko'rib chiqiladi. Bundan kelib chiqadi-ki, yuridik shaxs tashkil etmasdan shartnoma asosida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan oddiy shirkat ishtirokidagi xo'jalik nizolari ham umumiy yurisdiksiya sudlariga taalluqli bo'lib hisoblanadi.

Nazarimizda, nizolar unda ishtirok etadigan sub`ektlar tarkibiga qarab emas, balki nizo predmetiga qarab u yoki bu sudga taalluqli bo'lishi lozim. Masalaga bunday yondashish birinchidan, sud`yalar ixtisoslashuvini takomillashtirsa, ikkinchidan, xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning sarsongarchiligini oldini oladi, uchinchidan, iqti-sodiyot sohasini tartibga solishga qaratilgan qonun huj-jatlarini unifikasiyalash ishini tezlashtiradi, to'rtin-chidan, iqtisodiyot sohasida yuz beradigan qonunbuzish-larga qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqish me-xanizmini engillashtiradi va hokazo.

Xo'jalik nizolarini ma`muriy tartibda hal etish.

Ma`lumki, korxona o'zining ichki tuzilmalari, ya`ni sex, ishlab chiqarish, xo'jalik, uchastka, brigada va boshqa xo'jalik bo'linmalaridan iborat bo'lishi mumkin. Albatta, bunday tuzilmalar o'zaro yoki tuzilma asosiy korxona bilan xo'jalik munosabatlariga kirishadi. Bu kabi xo'jalik munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolar korxona ma`muriyati tomonidan hal etilishi mumkin. Shuningdek O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida» gi qonunining[1] 25-moddasiga binoan hokim quyi turuvchi hokimlarning qarorlarini, basharti ular O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga, qonun-lariga va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining boshqa hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlariga, shu-ningdek yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashi va hokimning qarorlariga zid bo'lsa, bekor qiladi. Bu erda ham, biz, ma`muriy tartibda ayrim nizolar aynan ana shunday ma`muriy yo'l bilan bartaraf etilishi mumkinligiga guvoh bo'lamiz.

Nazarimizda, xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning hu-quqlari yoki qonuniy manfaatlariga daxl qiladigan bo'lsa, hokim quyi turuvchi hokimning qarorlarini bekor qilishi mumkinligi to'g'risidagi qoidani ham mazkur moddada mus-tahkamlash lozim.

Amaliyotga nazar solsak, o'z huquq va qonuniy manfaatiga daxl etilgan xo'jalik yurituvchi sub`ekt hokim qarorini haqiqiy emas deb topishni so'rab da`vo taqdim etgan hollarda, da`vo ariza ish yuritishga qabul qilinib, ko'rish uchun tayinlangan vaqtga qadar hokim o'z qarorini bekor qiladi va natijada nizo bartaraf etilgan hisob-lanib, ish yuritish tugatiladi.

Xo'jalik nizolarini hakamlik sudlari orqali hal etish.

[1] Мазкур =онун Ызбекистон Республикаси Олий Мажлиси томонидан 02.09.1993 йилда =абул =илинган былиб, унга 30.08.1997 йилда ва 25.12.1998 йилларда =ышимча ва ызгартиришлар киритилган.

O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining[2] 10-moddasida fuqarolik huquqlarini himoya qiluvchi organlar sifatida hakamlik sudlari ham ko’rsatilgan bo’lib, bu xo’jalik yurituvchi sub`ektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini qo’riqlashning turli-tuman shakllari ichida muhim o’rin tutadi. Hakamlik sudlari orqali xo’jalik nizolarini hal etish fuqarolik huquqlarini qo’riq-lashning nodavlat mexanizmi bo’lib, bu tarzda nizolarni hal etishning qator afzalliklari mavjud. Bu afzalliklar avvalo shunda namoyon bo’ladiki, birinchidan, nizo tez ko’rilsa, ikkinchidan, kam xarajatli bo’ladi, ya`ni davlat boji yoki boshqa sud xarajatlari davlat tomonidan o’rnatilgan tartibda va miqdorda to’lanishi talab etilmaydi, uchinchidan, nizo ma`lum ixtisosga va malakaga ega bo’lgan shaxslar tomonidan ko’rib chiqiladi, to’rtinchidan, nizo o’tkaziladigan joy va vaqt taraflar bilan kelishib belgilanadi, beshinchidan, har bir tarafning o’zi nizoni hal etish uchun hakam tanlaydi va hokazo. Bu kabi afzalliklar tadbirkorlik munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarni hakamlar sudi tomonidan hal etilishiga keng imkoniyatlar yaratadi.

Hakamlar sudi ikki turda, bir martalik, ya`ni aniq bir ishni ko’rish uchun hamda doimiy faoliyat ko’rsatish uchun tashkil etilishi mumkin.

O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 10-moddasida hakamlar sudi orqali fuqarolik huquqlarini himoya qilish imkoniyati nazarda tutilgan bo’lsa, O’zbekiston Xo’jalik prosessual kodeksining[115] 25-moddasida fuqa-rolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan yoki kelib chiqishi mumkin bo’lgan hamda xo’jalik sudiga taalluqli bo’lgan nizo taraflarning kelishuviga binoan, xo’jalik sudi qaror chiqargunga qadar hakamlar[116] sudiga ko’rish uchun topshirilishi mumkinligi to’g’risida so’z boradi, ammo mamlakatimizda iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqa-digan nizolarni hal etish maqsadida na bir martalik, na doimiy hakamlar sudlari faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy hujjat mavjud emas. Nazarimizda, bozor munosabatlari rivojlanib borayotgan bir sharoitda, tadbirkorlik sohasida vujudga keladigan nizolarni hakamlar sudlari orqali himoya qilish mexanizmini shakllantirish juda muhim vazifa sanaladi, chunki nizolarni nodavlat organ orqali himoya etishni afzalliklari juda ko’p bo’lib, bu taraflarga keng qulayliklar yaratadi[117]. Shuning uchun O’zbekiston Respublikasining «Hakamlar sudlari to’g’ri-sida»gi qonuni qabul qilinishi yuqoridagi kabi afzal-liklarga keng yo’l ochadi.

Ta`kidlash joizki, garchi O’zbekiston Respublikasida bugunga qadar iqtisodiy sohada vujudga keladigan nizolarni hal etadigan hakamlar sudlari faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qonun hujjati mavjud bo’lmasa-da, Toshkent shahrida joylashgan huquqiy muammolarni o’rganish Markazi mutaxassislari Kengashi qarori bilan

---

[2] ЫзбекистонРеспубликасининг Фу=аролик Кодекси, Т.: «Адолат», 1996 йил, 9-бет

[115] ЫзбекистонРеспубликаси Хыжалик процессуал кодексига шарщлар. Т.: «И=тисодиёт ва щу=у= дунёси» уйи., 2002 йил,54-бет

[116] Фу=аролик Кодексида «холислар суди» дейилса, Хыжалик процессуал Кодексида «щакамлар суди» деб юритилади. Назаримизда бир хил термин ишлатилса, ма=садга мувофи= былади.

[117] ЫзбекистоннингЫзбекистоннинг 1963 йилда =абул =илинган Гражданлик Кодексига 3-илова тарзида мавжуд былган «Щакамлик судлари ты\рисида» ги Низом ЫзбекистонРеспубликасининг янги Фу=аролик Кодекси =абул =илиниб, 1998 йилда 1-январдан кучга киритилгандан сынг щам амал =илиб келмо=да, аммо ушбу Низом фа=ат фу=аролар иштирокидаги умумий юрисдикция судларига таалу=ли былган фу=аролик ишларини кыриш ма=садида бир марталик щакамлик судлари ташкил этиш мумкинлигини ва имкониятини назарда тутади, холос.

Markaz huzurida hakamlar sudi tashkil etilgan va uning Reglamenti, hakamlar sudi to'g'risida Nizom, hakamlar yig'imlari va chiqimlari to'g'risidagi Nizom, shuningdek uning faoliyatini tartibga soluvchi boshqa hujjatlar tasdiqlangan.

Mazkur hakamlar sudi Reglamentiga binoan, u fuqa-rolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan, xo'jalik sudiga taalluqli bo'lgan, taraflarning kelishuvi bilan hakamlar sudi ko'rishiga kelishilgan nizolarni ko'radi. Boshqarish, mehnat, oilaviy munosabatlardan kelib chiqa-digan nizolar hakamlar sudi ko'rishiga taalluqli emas. Hakamlar sudiga yuridik shaxslar va yakka tadbirkorlar murojaat qilish huquqiga egadirlar. Sud rais, sud`yalar, ma`sul kotib va texnik xodimlardan iborat va h.k.

Doimiy faoliyat ko'rsatadigan hakamlar sudlari savdo uylari, birlashmalar, birjalar va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan korxona yoki tashkilotlar tomo-nidan tuzilishi mumkin. Doimiy faoliyat ko'rsatadigan hakamlar sudlari tomonidan nizolarni hal etishni tashkil etish, ko'rib chiqish tartiblari va boshqa faoliyat yo'na-lishlari ularning Ustavlari, Reglamentlari va boshqa ta`-sis hujjatlari bilan belgilanadi. Ustav, Reglament yoki boshqa ta`sis hujjatlari bilan tartibga solinmaydigan masalalar davlatning hakamlar sudlari faoliyatini tartibga soluvchi tegishli qonun bilan tartibga solinadi. Shu ma`noda hakamlar sudlari faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatining qabul qilinishi bu borada keng imkoniyatlarni ochgan bo'lar edi.

Doimiy faoliyat ko'rsatadigan hakamlar sudlari O'zbekiston Respublikasining 29.08.2001 yildagi «Birjalar va birja faoliyati to'g'risida»gi qonunining (yangi tahrir) 26-moddasiga binoan birjalar huzurida tuzilishi mumkin. Mazkur modda mazmuniga binoan, birja a`zolari, birja savdolarining ishtirokchilari va ularning mijozlari o'r-tasida birja savdosi qoidalarida nazarda tutilgan masalalar yuzasidan kelib chiqadigan nizolar birjaning hakamlik komissiyasi yoki sud tomonidan hal qilinadi. Nizolarni ko'rib chiqish uchun hakamlar komissiyasi tomonidan yig'im undirish ta`qiqlanadi. Ushbu modda birjalar huzurida hakamlar sudlari tashkil etish va ishtirokchilar o'r-tasida birja faoliyati yuzasidan vujudga keladigan nizolarni ko'rib chiqib, hal etish imkoniyatini beradi. qonun hujjatlari bilan bu kabi komissiya yoki hakamlar sudlari vakolatiga birja bitimlarini tuzish bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqish ham berilishi mumkin.

Bir narsani ta`kidlash joizki, birjaning hakamlar komissiyalari o'zlariga berilgan bunday vakolatlardan lozim darajada foydalana olmoqdalar, deyish qiyin.

O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik prosessual kodeksining 25-moddasi ish nafaqat xo'jalik sudi ish yurituviga qabul qilinishidan oldin, balki birinchi instansiya sudi ish yurituvining istagan bosqichida ham, xattoki, qaror qabul qilingunga qadar ham, tomonlar ishni hakamlar sudiga berish to'g'risida bitim tuzishlari mumkinligini nazarda tutadi. Bunda XPKning 88-moddasi 2-bandiga binoan, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ushbu nizoni hakamlar sudiga ko'rish uchun topshirish to'g'risidagi kelishuvi bo'lib, hakamlar sudiga murojaat qilish imkoniyati yo'qolmagan bo'lsa va agar ishning xo'jalik sudida ko'rilishiga qarshi bo'lgan javobgar birinchi arizasidan kechiktirmay nizoni mazmunan hal etishni hakamlar sudiga topshirish to'g'risida iltimosnoma bilan murojaat qilsa, xo'jalik sudi da`voni ko'rmasdan qoldiradi.

Hakamlar sudi nizolashuvchi taraflar o’rtasida nizoni hakamlar sudiga berish to’g’risidagi yozma ravishda kelishuv bo’lgandagina ishni ko’rishga haqli bo’ladi. Nizoni hakamlar sudiga berish to’g’risidagi bitim yozma ravishda alohida hakamlar (arbitraj) bitimi yoxud hakamlar (arbitraj) sharti ko’rinishidagi shartnomada kelishilishi mumkin. Bunda O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 366-moddasi 4-qismi qoidalari qo’llaniladi.

O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 22 dekabrdagi qarori bilan mamlakatimiz 1958 yil 10 iyundagi «Xorijiy mamlakatlar hakamlar qarorlarini e`tirof etish va ijro etish to’g’risida»gi N`yu-York Konvensiyasini ratifakasiya qildi. Mazkur Konvensiyaning 2-moddasida «har bir ahdlashuvchi davlat taraflarning arbitraj muhokamasining predmeti bo’lishi mumkin bo’lgan aniq bir shartnomaviy yoki boshqa huquqiy munosabatdan kelib chiqqan yoxud kelib chiqishi mumkin bo’lgan barcha yoki ba`zi nizolarni arbitrajga berish majburiyati ko’rsatilgan yozma bitimni tan oladi» deb ko’rsatilgan. Shunday ekan, mazkur Konvensiyaga qo’shilish xorijiy hakamlar qarorlarini O’zbekiston hududida va aksincha, O’zbekiston hakamlar qarorlarini xorijiy mamlakatlar hududida tan olinishiga imkoniyat yaratadi.

Investision nizolarni hal etish.

O’zbekiston Respublikasi 1965 yil 18 martda imzolangan va 1966 yil 14 oktyabrdan kuchga kirgan “Davlatlar va chet ellik shaxslar o’rtasidagi investision nizolarni hal etish tartibi to’g’risida” gi Vashington Konvensiyasini 1994 yil 6 mayda ratifakasiya qildi.

Konvensiya xalqaro Taraqqiyot va rivojlanish banki huzurida investisiya nizolarini hal etish bo’yicha Markazni ta`sis etish va ushbu Markazda muayyan davlat va xorijiy davlat shaxslari o’rtasida vujudga keladigan investision nizolarni Konvensiya qoidalariga muvofiq yarashtiruv va arbitraj yo’li bilan hal etishni ta`minlaydi.

Markaz tarkibida Ma`muriy kengash va Kotibiyat mavjud bo’lib, Kotibiyat vositachilar va arbitrlar ro’yxatini yuritadi. Ma`muriy kengash tarkibiga Konvensiyani imzolagan davlatlarning har biridan bittadan vakillar kiradi. Bunday vakillar etarlicha malakaga ega bo’lgan shaxslar orasidan tanlanib, ularning ro’yxati har yarim yilda yangilanib turadi.

Markaz o’zi ko’rsatgan xizmatlardan tushadigan mab-lag’lar va boshqa mablag’lar hisobidan moliyalanadi, u im-munitet va imtiyozlarga ega.

Immunitet deganda Ma`muriy kengash raisi va a`zolarining shaxsiy immuniteti, arbitrlar, vositachilar va ko-tibiyat xodimlarining immuniteti, hujjatlar immuniteti, arxivlarni daxlsizligi va boshqalar tushuniladi.

Imtiyoz deganda shuni nazarda tutish lozimki, Markazning mulki, daromadi va boshqalardan soliq olinmaydi hamda hech qanday yig’imlar ularga nisbatan tadbiq etilmaydi.

Konvensiyaga binoan, arbitraj nizoni taraflar o’rtasida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan huquq normalarini qo’llagan holda hal etadi. Taraflarning bu haqda kelishuvi bo’lmagan taqdirda, arbitraj nizoni hal etishda shartnomaning tarafi bo’lmish kelishilayotgan davlat hu-quqini, shuningdek qo’llanilishi mumkin bo’lgan xalqaro huquq normalarini qo’llaydi.

Mazkur Konvensiyaning muhim jihatlari yana shundaki, birinchidan, unda ishtirok etuvchi davlatlar o'z hududida qo'shiluvchi davlatlar arbitraj qarorlarini o'z hududida ijro etilishini ta`minlash majburiyatini olsa, ikkinchidan, ushbu Konvensiyaga O'zbekistonning qo'shilishi natijasida garchi ikki yoki ko'p tomonlama xalqaro bitimlar tuzmagan davlatlarning investorlari bilan O'zbekistondagi chet el investorlari o'rtasida vujudga keladigan nizolar hal etilishining universal tizimi yaratildi.

Investisiyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish borasida O'zbekiston Respublikasi ko'plab mamlakatlar bilan bitimlar tuzgan. Bu kabi bitimlarni tuzish asosan, chet el investisiyalarini nasionalizasiya va ekspropriasiyadan himoya qilish, investorga o'z daromadlari va kapitallarini chet elga to'sqinliksiz va moneliksiz o'tkazish imkoniyatini berish, investor bilan uning kapitali yuzasidan kelib chiqadigan nizolarni xalqaro arbitrajda ko'rib chiqish hamda millatga qulayroq tuzim yaratishga qaratiladi.

Xo'jalik nizolarini sudsiz hal etish

qonun hujjatlari bilan nizolarni sudsiz hal etish tartibi nazarda tutilishi mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasininng 297-sonli 2001 yil 12 iyuldagi qarori bilan tasdiqlangan «qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchilarning xizmat ko'rsa-tuvchi tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish va ularni bajarish tartibi to'g'risida»gi Nizomning «Tomonlarning javobgarligi va nizoli masalalarni hal etish» haqidagi 5-bobi 38-bandida «Kelishmovchiliklar va nizoli masa-lalar kelib chiqqan taqdirda tomonlar, qoidaga ko'ra, mastaqil ravishda yoxud bosh inspeksiya va uning hududiy organlari ishtirokida ushbu kelishmovchiliklar va nizoli masalalarni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar» deb ko'rsatilgan. Tomonlar nizoli masalalarni sudgacha hal etish jarayonida kelishishga erishmagan taqdirda, xo'jalik sudiga murojaat qilishga haqlidirlar.

Nizoni sudgacha hal etish. Da`vogarning nizoni sudgacha hal etish (talabnoma yuborish) tartibiga rioya etishi qonun va shartnomada ko'zda tutilgan hollardagina majburiydir. Agarda bu tartib Nizom va qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan bo'lsa, qonunda ularning qo'llanilishi haqida bevosita havola etilgan hollardan tashqari, taraflar uchun majburiy hisoblanmaydi. Ushbu qoida O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik prosessual kodeksining 6-moddasida mustahkamlangan bo'lib, bunga binoan, agar qonunda ayrim toifadagi nizolar uchun ularni sudgacha hal qilish (talab-noma yuborish) tartibi belgilangan yoxud bu tartib shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, taraflar o'zaro munosabatlarini ixtiyoriy ravishda hal etish choralarini ko'rgandan so'nggina, xo'jalik sudida ish qo'zg'atish mumkin. Bunda prokuror, davlat organlari va boshqa organlarning arizalari bo'yicha ish qo'zg'atishni taraflar yuqoridagi choralarni ko'rgan-ko'rmaganligidan qat`iy nazar amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 384-moddasi 2-qismiga muvofiq, shartnomani o'zgartirish va bekor qilish haqidagi talablar bo'yicha nizoni sudgacha hal etish tartibi shartnomaning o'zida ko'rsatilgan bo'lsa, taraflar talabnoma yuborish tartibini saqlagan holda sudda da`vo qo'llashga haqli bo'ladilar.

Nizoni sudgacha hal etishning qonun va shartnomada ko'zda tutilgan tartibiga rioya etilmaganda, sudlar O'zbe-kiston Respublikasi Xo'jalik prosessual kodeksining

88-moddasi 5-bandi 1-qismiga ko’ra, da`voni ko’rmasdan qoldirib, da`vogarga davlat bojini qaytarish masalasini hal etadi.

Huquqlari va qonuniy manfaatlariga putur etgan xo’-jalik yurituvchi sub`ekt o’zining huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzgan xo’jalik yurituvchi sub`ektga bil-diradigan talabnomasi yozma shaklda rasmiylashtirilishi lozim bo’lib hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasining «Xo’jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to’g’risida»gi qonunning 17-moddasida talabnoma bildirish tartibi nazarda tutilgan bo’lib, unga muvofiq talabnomada:

-talabnoma bildirgan xo’jalik yurituvchi sub`ektning va talabnoma bildirilayotgan xo’jalik yurituvchi sub`ektning nomi;

-talabnoma bildirilgan sana va uning raqami;

-talabnoma bildirish uchun asos bo’lgan holatlar;

-talabnomada bayon etilgan holatlarni tasdiqlovchi dalillar;

-arz qiluvchining talablari;

-talabnoma summasi va uning hisob-kitobi, arz qi-luvchining to’lov va pochta rekvizitlari;

-talabnoma ilova qilinayotgan hujjatlarning ro’yxati ko’rsatilgan bo’lishi lozim.

Talabnoma xo’jalik yurituvchi sub`ektning rahbari yoki rahbarning o’rinbosari tomonidan imzolanadi. Talabnoma buyurtma yoki qimmatli xat tarzida, telegraf, teletayp orqali, shuningdek, talabnoma jo’natilganligini qayd etadigan, qabul qilib oluvchini ogohlantiradigan boshqa aloqa vositalaridan foydalanilgan holda jo’natiladi yoxud tilxat olib topshiriladi.

Ta`kidlash joizki, mazkur qonunning ushbu moddasi xo’jalik shartnomasi bo’yicha talabnomalar yuborish bilan bog’liq munosabatlarnigina tartibga soladi. Binobarin, yuklarni tashish va aloqa xizmatlari ko’rsatishga doir operasiyalardan kelib chiqadigan talabnomalarni transport va aloqa xo’jalik yurituvchi sub`ektlarga bildirish tartibi va muddatlari tegishli qonun hujjatlarida belgilab qo’-yiladi.

Xo’jalik shartnomasi bo’yicha o’ziga talabnoma bildirilgan xo’jalik yurituvchi sub`ekt talabnomani olgan kundan boshlab bir oy muddat ichida unga javob qaytarishi shart.

Talabnomaga javob xo’jalik yurituvchi sub`ekt rahbari yoki rahbarning o’rinbosari tomonidan imzolanadi va muhr bilan tasdiqlanadi.

Talabnomaga javob buyurtma yoki qimmatli xat tarzida, telegraf, teletayp orqali, shuningdek talabnoma jo’natilganligini qayd etadigan, qabul qilib oluvchini ogohlantiradigan boshqa vositalardan foydalanilgan holda jo’natiladi yoki tilxat olib topshiriladi.

Talabnoma to’liq yoki qisman tan olingan taqdirda, xo’jalik yurituvchi sub`ekt arz qiluvchiga o’zi tan olgan summani ixtiyoriy ravishda o’tkazadi.

Agar talabnomani tan olish to’g’risidagi javobda tan olingan summa o’tkazilishi haqida ma`lumot bo’lmasa, talabnoma bildirilgan taraf javob olganidan so’ng yigirma kun muddat o’tgach, bank muassasiga qarzdor tan olgan summani so’zsiz tartibda o’tkazish to’g’risidagi farmoyishni taqdim etishga haqli. Farmoyishga qarzdorning javobi ilova qilinadi.

Taraflarning kelishuvi.

Nizolarni sudda hal etish jarayonida nizo taraflarning kelishuvi bilan ham hal etilishi mumkin.

O’zbekiston Respublikasi Xo’jalik prosessal kodeksining 86-moddasi 6-bandiga muvofiq, ish xo’jalik sudi ish yurituvida bo’lgan jarayonda taraflar kelushuvga erishib bitim tuzgan hollarida va kelishuv xo’jalik sudi tomonidan qabul qilingan bo’lsa, ish yuritish tugatiladi hamda bu haqda ajrim chiqariladi. Taraflar kelishuv bitimini istalgan sud instansiyasida tuzishlari mumkin. Taraflar appelyasiya, kassasiya va nazorat instansiyasilarida ham ishni kelishuv yo’li bilan hal etishlari mumkin. XPKning 40-moddasiga binoan, agar, taraflarning kelishuv bitimi qonun hujjatlariga xilof bo’lsa yoki boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo’riqlanadigan manfaatlarini buzsa, xo’jalik sudi kelishuv bitimini tasdiqlamaydi.

Kelishuvga erishilib bitim tuzilgandan so’ng, u sud tomonidan tasdiqlanib, ajrim chiqarish yo’li bilan ish yuritish tugatilar ekan, ma`lum oqibatlar kelib chiqadi. Ish yuritish tugatilgandan so’ng, da`vogar ayni o’sha predmet va ayni o’sha asoslar bo’yicha da`vo bilan sudga qayta murojaat qilish huquqidan mahrum bo’ladi.

Ish yuritishni tugatish to’g’risidagi ajrim ustidan appelyasiya, kassasiya va nazorat tartibida shikoyat qilish (protest keltirish) mumkin.

3-§. Xo’jalik nizolarini hal etish va sud hujjatlarini qayta ko’rish

O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga ko’ra, mulkning har xil shakliga asoslangan iqtisodiyot sohasida va uni boshqarish jarayonida korxona, muassasa, tashkilotlar o’rtasida, hamda tadbirkorlar o’rtasida vujudga keladigan nizolarni Oliy xo’jalik sudi va xo’jalik sudlari hal qiladi.

Xo’jalik sudi manfaatdor shaxslarning, prokurorning, qonun bo’yicha davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilish maqsadida xo’jalik sudiga murojaat qilish huquqiga ega bo’lgan hollarda davlat organlari va boshqa organlarning arizalari bo’yicha ish qo’zg’atadi.

Agar qonunda ayrim toifadagi nizolar uchun ularni sudgacha hal qilish (talabnoma yuborish) tartibi belgilangan yoxud bu tartib shartnomada nazarda tutilgan bo’lsa, taraflar o’zaro munosabatlarini ixtiyoriy ravishda hal qilish choralarini ko’rganlaridan so’nggina xo’jalik sudida ish qo’zgatish mumkin. Bunda prokuror, davlat organlari va boshqa organlarning arizalari bo’yicha ish qo’zgatish taraflar yuqoridagi choralarni ko’rgan-ko’rmaganliklaridan qat`iy nazar amalga oshiriladi.

Xo’jalik sudlarida ishlar oshkora ko’riladi. Davlat sirini yoki tijorat sirini saqlash zarur bo’lgan taqdirda ishni yopiq majlisda ko’rishga yo’l qo’yiladi. Ishni yopiq majlisda ko’rish to’g’risida ajrim chiqariladi.

Birinchi instansiyada ish yuritish.

Xo’jalik sudlarida birinchi instansiya bo’yicha ishlar, qoida tariqasida, sud`yaning yakka o’zi tomonidan ko’riladi.

Da`vo arizasini qabul qilish masalasini sud`yaning yakka o’zi hal qiladi va qonun talablarga rioya etgan holda berilgan da`vo arizasini xo’jalik sudining ish yuritishiga qabul qiladi yoki uni rad etish yoxud da`vo arizasini qaytarish to’grisida

ajrim chiqaradi. Sud`ya ishni yuritish to'g'risida manfaatdor shaxslarni xabardor qiladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslarga, boshqa tashkilotlarga, ularning mansabdor shaxslariga muayyan harakatlarni bajarishni, shu jumladan nizoni hal qilish uchun ahamiyatli hujjatlar va ma`lumotlarni taqdim etishni taklif etadi. Ushbu bosqichda sud`ya ishda qatnashuvchi shaxslarga juda xilma-xil harakatlarni bajarishni taklif etishi mumkin. Masalan, hisob-kitoblarni pul talabnomalariga solishtirib chiqish, huquqiy pozisiyani aniqlash yoki belgilash, da`vo arizasiga javob berish, boshqa tomonga yoki bir-biriga ayrim hujjatlarni berish, ekspertiza o'tkazilishida tushuntirilishi kerak bo'lgan masalalarni taqdim etish va boshqalar. U taraflarni murosaga keltirish choralarini ko'radi.

Ishni sudda ko'rishga tayyorlash to'g'risidagi ajrim chiqarilgan kundan boshlab ish bir oydan ortiq bo'lmagan muddatda ko'rilishi va hal qiluv qarori qabul qilinishi kerak.

Birinchi instansiya xo'jalik sudi nizoni mazmunan hal qilishda hal qiluv qarori qabul qiladi. Xo'jalik sudining hal qiluv qarori qonuniy va asoslantirilgan bo'lishi kerak.

Hal qiluv qarori prosessual huquq normalariga to'liq rioya qilgan holda, moddiy huquq normalariga amal qilib, shu nizoli huquqiy munosabatlarni qo'llash lozim yoki zarur bo'lgan holatlarda asosli ravishda qonunni qo'llash, mos keladigan munosabatlarni tartibga solish, yohud qonun-chilikning umumiy, bosh va mazmunidan kelib chiqadigan bo'lsa, qonuniy hisoblanadi.

Xo'jalik sudi nizolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlari, boshqa qonunchilik hujjatlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining halqaro shartnomalariga asosan hal qiladi. Agar halqaro shartnomada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgandan boshqacha qoida o'rnatilgan bo'lsa, bunday hollarda halqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Xo'jalik sudi O'zbekiston Respublikasi qonuni va halqaro shartnomalariga binoan chet el davlatlarining huquq normalarini qo'llaydi. Hal qiluv qarori qonuniy bo'lishi uchun xo'jalik sudi normativ hujjatlardan nizoli munosabatlarni tartibga soluvchi o'sha huquqiy normalarni topishi lozim. Buning uchun tomonlarning faktga asoslangan o'zaro munosabatlarini to'g'ri yuridik baholashi lozim.

Birinchi instansiya xo'jalik sudining hal qiluv qarori O'zbekiston Respublikasi nomi bilan qabul qi-linadi. Xo'jalik sudining hal qiluv qarori kirish, bayonnoma, asoslantiruvchi va xulosa qismlaridan iborat bo'ladi. Xo'jalik sudining hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan keyin ijro etiladi.

Davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining hujjatlarini haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi hal qiluv qarorlari, shuningdek kelishuv bitimini tasdiqlash to'g'risidagi ajrimlar darhol ijro etiladi.

Apellyasiya instansiyasida ish yuritish

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan xo'jalik sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan apellyasiya shikoyati berilishi mumkin.

Apellyasiya instansiyasida ish yuritish xo'jalik pro-sessual qonunchiligidagi yangi institut bo'lib, qonuniy kuchga kirmagan sud hujjatlarining qonuniyligi va asos-liligini tekshirishga mo'ljallangan.

qonunda belgilangan barcha shaxslar birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori ustidan apellyasiya shikoyati berishlari mumkin. Prokuror esa protest kiritishi mum-kin.

Hal qiluv qarori ustidan apellyasiya shikoyati bilan murojaat qilish huquqiga ishda qatnashmagan, biroq xo'ja-lik sudi uning huquq va majburiyatlariga daxldor qaror chiqargan shaxslar ham egadir. qonuniy kuchga kirmagan qaror ustidan tomonlarning huquqiy vorislari va uchinchi shaxslar ham shikoyat qilishlari mumkin.

Apellyasiya shikoyati ob`ekti sifatida faqat birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori, shu jumladan, davlat idoralarining, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish idoralarining hujjatlarini haqi-qiy emas deb topish to'g'risidagi darhol ijro etilishi kerak bo'lgan hal qiluv qarorlari ham bo'lishi mumkin.

Ishda ishtirok etuvchi shaxs apellyasiya shikoyatining nusxasini olgach, uning yuzasidan o'z yozma fikrini va yozma fikrning nusxalari ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga yuborilganini tasdiqlovchi dalillarni apellyasiya shikoyati ko'riladigan kungacha etib borishini ta`minlaydigan muddatda xo'jalik sudiga yuboradilar.

Apellyasiya instansiyasida ish yuritish xo'jalik sudlov ishlarini yuritishning tarkibiy qismidir. Shuning uchun, apellyasiya instansiyasida ishni birinchi instansiya xo'jalik sudida ko'rib chiqish qoidalari bo'yicha ko'rib chiqiladi, bunda apellyasiyani ko'rib chiqishning mohiyatidan kelib chiqadigan ayrim istisnolar bo'lishi mumkin.

Apellyasiya shikoyatini ko'rib chiqishda qonunda belgilangan ishni birinchi instansiya xo'jalik sudida ko'rib chiqishni tartibga soluvchi me`yorlar qo'llaniladi.

Birinchi instansiya sudidan farqli o'laroq, apellyasiya sudi barcha ishlarni kollegial tartibda ko'rib chiqadi, bunda qoida tariqasida sud raisi yoki uning o'rinbosari yoxud biror sud`ya raislik qiladi.

Apellyasiya sudi hal qiluv qarorini to'laligicha yoki qisman bekor qilishi va shikoyatni ko'rmasdan qoldirishi yoki ishni yuritishni tugatishi mumkin.

Birinchi instansiya sudi qonunda ko'rsatib o'tilgan holatlar bo'lgani holda ish yuritishni tugatmagan yoki da`voni ko'rmasdan qoldirmagan bo'lsa va ishni mazmunan ko'rib, hal qiluv qarori chiqargan bo'lsa, apellyasiya instansiyasi sudi bunday qarorni to'la yoki qisman bekor qilishi hamda ishni yuritishni tugatishi yoxud da`voni to'la yoki qisman ko'rmasdan qoldirishi mumkin.

Agar birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori bekor qilinmasa va o'zgartirilmasa, hal qiluv qarori qonuniy kuchga kiradi va aynan u ijro etilishi kerak.

qaror qabul qilingan kunidan e`tiboran besh kunlik muddatda ishda ishtirok etuvchi shaxslarga topshirilganligi ma`lum qilinadigan buyurtma xat orqali yuboriladi yoki tilxat bilan topshiriladi. Jo'natish uchun ajratilgan bu muddat XPKda apellyasiya shikoyatini ko'rish uchun ajratilgan bir oylik muddatga kirmaydi.

Apellyasiya instansiyasining qarori ustidan kassasiya tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

Kassasiya instansiyasida ish yuritish

Xo'jalik sudining qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori hamda apellyasiya instansiyasining qarori ustidan ishda ishtirok etuvchi shaxslar kassasiya shikoyati berishga, prokuror esa – kassasiya protesti keltirishga haqlidir.

qonunda ko’zda tutilgan tekshiruvlarning boshqa barcha shakllaridan farqli ravishda sud hujjatlari kassasiya instansiyasi tomonidan faqat qonuniyligi jihatidan tekshiriladi.

Shikoyat qilish huquqini amalga oshirish ishda ishtirok etuvchi shaxslarning erk irodalariga bog’liq. qonunda bel-gilangan tartib va muddatda kassasiya shikoyatining berilishi ishning kassasiya instansiyasi tomonidan albatta ko’rib chiqilishiga olib keladi.

qarorning moddiy va prosessual huquq normalariga to’g’ri havola qilinganligi borasidagi asoslovchi qismi; chiqarilgan qo’shimcha qaror shikoyat berish uchun mustaqil predmet bo’lishi mumkin. Ajrimlar ustidan qonunda nazarda tutilgan holatlardagina shikoyat qilinishi mumkin.

qonun hal qiluv qarori (qaror) ustidan kassasiya shikoyati berish huquqini da`vogar, javobgar, nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi yoki arz qilmaydigan uchinchi shaxslarga, shuningdek qonunda sanab o’tilgan, ishda ishtirok etuvchi barcha shaxslarga beradi.

Davlat va jamoat manfaatlarini himoya qilib da`vo qo’zg’atuvchi prokuror, davlat organlari, mahalliy o’zini-o’zi boshqarish organlari va boshqa organlar sudning hal qiluv qarori (qarori) ustidan kassasiya tartibida tegish-licha protest va shikoyat keltirishlari mumkin.

Kassasiya instansiyasi sud hujjatlarini moddiy va prosessual huquq normalarini qo’llash va ularga rioya etishning to’g’riligi nuqtai nazaridan tekshiradi.

Kassasiya shikoyati (protesti) O’zbekiston Respublikasi Oliy xo’jalik sudiga hal qiluv qarori qabul qilgan xo’jalik sudi orqali beriladi.

Kassasiya shikoyatining maqsadi javobgar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo’lib, keyinchalik bekor qilingan yoki o’zgartirilgan noqonuniy qarorni ijro etish bilan zarar etkazishning oldini oladi. Kassasiya instansiyasi hal qiluv qarori (qaror)ni o’zgartirish, yangi qaror qabul qilish huquqiga ega. Shuning uchun, agar kassasiya instansiyasi qarori birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori (yoki apellyasiya instansiyasining qarori) ijro etilganidan so’ng qabul qilinsa, mazkur sud hujjatlari bo’yicha olingan barcha narsalarni qaytarishlik faqatgina sud hujjatining qaytarma ijrosi institutidan foydalanish yo’li bilan mumkin bo’ladi. Bu esa ancha murakkab jarayondir. Bundan tashqari dastlabki da`vo bo’yicha javobgarga qaytarilish lozim bo’lgan pul mablag’i ham, mulk ham amalda qolmagan bo’lishi mumkin.

Moddiy yoki prosessual huquq normalarining buzi-lishi yoxud noto’g’ri qo’llanilishi xo’jalik sudining hal qi-luv qarorini yoki qarorini o’zgartirish yoxud bekor qilish uchun asos bo’ladi.

Prosessual huquq normalarining buzilishi yoki noto’g’ri qo’llanilishi, agar bu buzilish noto’g’ri hal qiluv qarori yoki qarorni qabul qilinishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo’lsa, hal qiluv qarorini yoki qa-rorni o’zgartirish yoxud bekor qilish uchun asos bo’ladi.

Prosessual huquq normalarining buzilishi yoki no-to’g’ri qo’llanilishi quyidagi hollarda hal qiluv qarorini yoki qarorni bekor qilish uchun asos bo’ladi:

ish xo’jalik sudi tomonidan noqonuniy tarkibda ko’rilgan bo’lsa;

ish xo’jalik sudi tomonidan ishda ishtirok etuvchi, majlis vaqti va joyi to’g’risida tegishli ravishda xabardor qilinmagan shaxslardan birontasining yo’qligida ko’rilgan bo’lsa;

ishni ko’rishda sud ishi yuritiladigan til to’g’risidagi qoidalar buzilgan bo’lsa;

xo’jalik sudi hal qiluv qarorini yoki qarorni qabul qilishda qaysi qonun hujjatlariga amal qilganligi hal qiluv qarorida yoki qarorda ko’rsatilmagan bo’lsa;

xo’jalik sudi ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatlari to’g’risida hal qiluv qarori yoki qaror qabul qilgan bo’lsa;

hal qiluv qarori yoki qaror sud`yalardan biri tomonidan imzolanmagan bo’lsa yoxud hal qiluv qarori yoki qarorda ko’rsatilganidan boshqa sud`yalar tomonidan imzolangan bo’lsa;

hal qiluv qarori ishni ko’rgan sud tarkibiga kirmagan sud`yalar tomonidan qabul qilingan bo’lsa;

ishda sud majlisining bayonnomasi bo’lmasa yoki u qonunda ko’rsatilgan shaxs tomonidan imzolanmagan bo’lsa.

Xo’jalik sudining dalillarni ta`minlash to’g’risidagi iltimosnomani qanoatlantirishni rad etish haqidagi; da`voni ta`minlash yoki da`voni ta`minlashni rad etish to’g’risidagi; da`voni ta`minlashni bekor qilish to’g’ri-sidagi; ish yuritishni to’xtatish to’g’risidagi; ish yuritishni tugatish to’g’risidagi; da`voni ko’rmasdan qoldirish to’g’ri-sidagi; o’tkazib yuborilgan prosessual muddatni tiklashni rad etish to’g’risidagi; jarima solish to’g’risidagi; da`vo arizasini qabul qilishni rad etish to’g’risidagi; da`vo arizasini qaytarish to’g’risidagi; qo’shimcha hal qiluv qarorini qabul qilishni rad etish to’g’risidagi; hal qiluv qarorini tushuntirib berish va yozuvdagi xatolar, harfiy xatolar va hisob-kitobdagi yanglishishlarni tuzatish to’g’-risidagi; yangi ochilgan holatlar bo’yicha qayta ko’rish to’g’risidagi arizani qaytarish to’g’risidagi; yangi ochilgan holatlar bo’yicha ishni qayta ko’rish to’g’risidagi arizani qanoatlantirishni rad etish haqidagi; ijro varaqasini ijroga taqdim etishning o’tkazib yuborilgan muddatini tiklash to’g’risidagi; sud hujjatining ijrosini kechik-tirish yoki uni bo’lib-bo’lib ijro etish, ijro etish usu-lini va tartibini o’zgartirish yoki arizani qanoat-lantirishni rad etish to’g’risidagi ajrimlariga kassasiya shikoyati keltirilishi mumkin.

Bundan tashqari, apellyasiya shikoyatini qaytarish to’g’-risidagi va kassasiya shikoyatini (protestini) qaytarish to’g’risidagi ajrimlari faqat kassasiya tartibida shikoyat qilinishi mumkin.

Agar apellyasiya shikoyati ajrim bilan emas, balki xat bilan qaytarilgan bo’lsa, bu ushbu xatni olgan tomonni unga nisbatan kassasiya tartibida shikoyat keltirish huquqidan mahrum etmaydi.

Amaldagi qonunda ilk bor xususiy ajrimlarga nisbatan shikoyat keltirish qoidasi nazarda tutilgan.

Ajrimga nisbatan keltirilgan kassasiya shikoyati (protest)ni ko’rib chiqish muddatlari, tartibi xo’jalik sudining hal qiluv qarori va qarorlari ustidan kassasiya shikoyati (protesti) keltirish kabidir.

Nazorat tartibida ish yuritish.

O’zbekiston Respublikasi xo’jalik sudlarining qo-nuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari va qarorlari ushbu Kodeksning 193-moddasida ko’rsatilgan

mansabdor shaxs-larning protestlari bo’yicha nazorat tartibida qayta ko’-rilishi mumkin. O’zbekiston Respublikasi Oliy xo’jalik sudi Rayosatining qarorlari bundan mustasno.

Xo’jalik sudining hal qiluv qarorlari va qarorlarini nazorat tartibida qayta ko’rib chiqish sud hujjatlarini qayta ko’rib chiqish bo’yicha ish yuritishning bir turi bo’lib hisoblanadi. Apellyasiya va kassasiya tartibida ish yuri-tishdan farq qilgan holda, nazorat tartibida qayta ko’rib chiqishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud-nazorat organi faoliyatini qo’zgatish huquqiga ega emaslar.

Sud ishlarini yuritishning mazkur bosqichida sud hujjatlarining qonuniyligi va asosliligini qo’shimcha ravishda tekshirish hamda yo’l qo’yilgan sud xatolarini tu-zatish imkoniyati ta`minlanadi. Bundan tashqari, sud ama-liyotini qonunga to’la muvofiq holda yo’naltirish, zarur holatlarda sud amaliyotiga tuzatish kiritish, moddiy va prosessual huquq normalariga qat`iy va og’ishmasdan rioya etilishini hamda xo’jalik sudlari tomonidan qonunni bir xilda va to’g’ri qo’llanishini ta`minlash nazorat tartibida qayta ko’rib chiqish institutining muhim vazifasi bo’lib hisoblanadi.

Xo’jalik sudlarining apellyasiya va kassasiya ins-tansiyalarida chiqarilgan qarorlari ham nazorat tartibida qayta ko’rilishi mumkin. Oliy xo’jalik sudi Rayosatining qarorlarigina nazorat tartibida qayta ko’rib chiqish ob`-ekti bo’la olmaydi.

Xo’jalik sudlarining qonuniy kuchga kirgan ajrimlari esa qonunda ular ustidan shikoyat qilish nazarda tutilgan, shuningdek ular ishning kelgusidagi harakatiga to’sqinlik qilgan hollarda, hal qiluv qarorida alohida nazorat tartibida qayta ko’rilishi mumkin (XPKning 203-mod-dasi).

qonun sud hujjatlarini faqatgina XPKning 193-moddasida ko’rsatilgan mansabdor shaxslarning protestlari bo’yicha nazorat tartibida qayta ko’rilishi mumkinligini belgilaydi. Shunga ko’ra, xo’jalik sudiga sud hujjatini nazorat tartibida qayta ko’rilishi yuzasidan kelib tusha-digan arizalar nazorat instansiyasida ish qo’zg’atilishi uchun prosessual vosita bo’lib hisoblanmaydi. Bunday ari-zalar mansabdor shaxs tomonidan nazorat tartibida protest keltirish uchun asoslar mavjud-ligini aniqlash maqsadida ko’rib chiqiladi.

O’zbekiston Respublikasi Oliy xo’jalik sudining Raisi va uning o’rinbosarlari, O’zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o’rinbosarlari O’zbekiston Res-pub-likasining har qanday xo’jalik sudining qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari va qarorlari ustidan protest keltirishga haqli. O’zbekiston Respublikasi Oliy xo’jalik sudi Rayosatining qarorlari bundan mustasno.

O’zbekiston Respublikasining «Sudlar to’g’risida»gi qonuni Oliy xo’jalik sudiga xo’jalik sudlari sudlov faoliyati ustidan nazorat qilish huquqini berib, Oliy xo’jalik sudi Raisi va uning o’rinbosarlarini O’zbekiston Respublikasi xo’jalik sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari ustidan protest keltirishga vakolatlagan. O’zbekiston Respublikasining «Prokuratura to’g’risida»gi qonuni prokurorning ishlarni sudda ko’-rilishidagi vakolatlari qatorida sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarorlari, hukmlari, ajrimlari va qa-rorlari ustidan protest keltirish huquqini nazarda tut-gan. Protest keltirish tartibi XPKda belgilangan.

O’zbekiston Respublikasi Oliy xo’jalik sudining Rayo-sati barcha xo’jalik sudlarining hal qiluv qarorlari va qarorlari ustidan keltirilgan protestlar bo’yicha ishlarni nazorat tartibida ko’radi.

Xo’jalik sudlari tizimida faqat bitta sud nazorat organi – O’zbekiston Respublikasi Oliy xo’jalik sudining Rayosati faoliyat ko’rsatadi. Faqat ushbu organ xo’jalik sudlarining hal qiluv qarorlari va qarorlari ustidan nazorat tartibida keltirilgan protestlar bo’yicha ishlarni ko’rib chiqishga haqlidir.

«Sudlar to’g’risida»gi qonunga muvofiq Oliy xo’jalik sudi Rayosati Oliy xo’jalik sudi sud`yalari orasidan, Oliy xo’jalik sudi Plenumi belgilagan miqdorda tashkil eti-ladi.

Oliy xo’jalik sudi Raisi, uning birinchi o’rinbosari, o’rinbosarlari mansablariga ko’ra Rayosat tarkibiga ki-radilar.

Protest keltirish uchun asoslar mavjud bo’lganda, shu jumladan ishda ishtirok etuvchi shaxsning arizasi munosabati bilan qonunda ko’rsatilgan mansabdor shaxs pro-test keltiradi va uni ish bilan birga O’zbekiston Res-publikasi Oliy xo’jalik sudi Rayosatiga yuboradi. Xo’jalik sudining qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, qaroriga protest keltirish to’g’risidagi ariza ish ko’rilgandan keyin apellyasiya yoki kassasiya instansiyasi sudiga berilishi mumkin. Protest keltirish uchun asoslar yo’qligi to’g’risida ariza bergan shaxs xabardor qilinadi.

Ishni nazorat tartibida ko’rishda O’zbekiston Respublikasining Bosh Prokurori yoki uning o’rinbosari ish-tirok etib, o’zi keltirgan protestni quvvatlaydi yoki O’zbekiston Respublikasi Oliy xo’jalik sudi Raisi yoki uning o’rinbosari keltirgan protest bo’yicha ko’rilayotgan ish yuzasidan xulosa beradi.

O’zbekiston Respublikasi Oliy xo’jalik sudining Rayo-sati ishni nazorat tartibida ko’rib:

xo’jalik sudining hal qiluv qarorini, qarorini o’zgarishsiz, protestni esa qanoatlantirmasdan qoldirishga;

hal qiluv qarorini, qarorni to’la yoki qisman bekor qilib, ishni yangidan ko’rish uchun yuborishga;

hal qiluv qarorini, qarorni o’zgartirib yoki bekor qilib, ishni yangidan ko’rishga yubormasdan yangi qaror qabul qilishga;

hal qiluv qarorini, qarorni to’la yoki qisman bekor qilib, ish yuritishni tugatishga yoxud da`voni to’la yoki qisman ko’rmasdan qoldirishga;

ish bo’yicha ilgari qabul qilingan hal qiluv qarorlari yoki qarorlardan birini kuchda qoldirishga haqli.

Agar Oliy xo’jalik sudi Rayosati hal qiluv qarori (qaror) qonuniy va asosli, protest vajlari esa ahamiyatsiz degan xulosaga kelsa, xo’jalik sudining hal qiluv qarorini (qarorni) o’zgarishsiz, protestni esa qanoatlantirmasdan qoldiradi.

qaror hozir bo’lgan Rayosat a`zolarining ko’pchiligini ochiq ovoz berishi bilan qabul qilinadi.

qaror Oliy xo’jalik sudi Raisi tomonidan, uning yo’qligida esa Raisning vazifasini bajaruvchi tomonidan imzolanadi. qaror qabul qilingan paytdan boshlab qonuniy kuchga kiradi va uning ustidan shikoyat keltirilmaydi.

4-§. Xo’jalik sudi hujjatlarining ijrosi

qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari O’zbekiston Respublikasining butun hududida barcha davlat organlari, fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlari, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan XPKda va boshqa qonunlarda belgilangan tartibda ijro etiladi.

Sud hujjatini majburiy ijro etish shu hujjatni qabul qilgan xo’jalik sudi tomonidan beriladigan ijro varaqasi asosida amalga oshiriladi.

Ijro varaqasi undiruvchiga sud hujjati qonuniy kuchga kirgandan keyin beriladi. Pul mablag’larini byudjet daromadiga undirish uchun ijro varaqasi qarzdor turadigan joydagi soliq organiga yuboriladi.

Pul mablag’larini undirish uchun ijro varaqasi undiruvchi tomonidan bankka yoki boshqa kredit muassasasiga, boshqa hollarda esa sud ijrochisiga yuboriladi.

Ijro varaqasida quyidagilar ko’rsatilishi kerak:

ijro varaqasini bergan xo’jalik sudining nomi;

ijro varaqasi berilgan ish va uning tartib raqami:

ijro etilishi lozim bo’lgan sud hujjati qabul qi-lingan sana;

undiruvchining va qarzdorning nomi, ularning man-zillari;

sud hujjatining xulosa qismi;

sud hujjati qonuniy kuchga kirgan sana;

ijro varaqasi berilgan sana va uning amal qilish muddati.

Agar xo’jalik sudi tomonidan ijro varaqasi berilguncha sud hujjatini ijro etishni kechiktirish yoki bo’lib-bo’lib ijro etishga ruxsat berilgan bo’lsa, unda ijro varaqasining muddati qachondan o’ta boshlashi ko’rsatiladi.

Ijro varaqasini sud`ya imzolaydi va u xo’jalik sudining gerbli muhri bilan tasdiqlanadi.

5-§. Xo’jalik yurituvchi sub`ektlarni ishchanlik obro’sini himoya qilishning o’ziga xos xususiyatlari

Xo’jalik (tadbirkorlik) faoliyatini amalga oshirishda ro’y beradigan turli huquqbuzarliklar natijasida nafaqat xo’jalik yurituvchi sub`ektlarning mulkiy manfaatlariga, balki ularni pok nomi, ishchanlik obro’siga ham jiddiy zarar va ziyon etishi mumkin. Shu sababli ham Fuqarolik kodeksining 100-moddasida yakka tadbirkorni va yuridik shaxslarni ishchanlik obro’sini yuridik muhofaza qilish asoslari belgilab qo’yilgan. Sha`n va qadr-qimmatdan farqli ravishda ishchanlik obro’si tadbirkorlik sub`ekti- ni tadbirkor sifatidagi xususiyatlari bilan ham, uning shaxsiy huquqlari bilan ham uzviy ravishda bog’liqdir. Odatda ishchanlik obro’si deyilganda, tadbirkorlik sub`- sub`ektini professional malakasi, saviyasi darajasi, u tomonidan ishlab chiqarilgan tovar, bajariladigan ishlar, ko’rsatiladigan xizmatlar sifati, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishida o’zining kontragentlari bilan munosabatlarni yo’lga qo’yishda qanday etik-ahloqiy tamoyillar asosida ish ko’rishi bo’yicha tasavvurlar tushuniladi. Ko’p hollarda xo’jalik yurituvchi sub`ektlar o’z mahsulotlarini yuqori sifatli bo’lishiga, boshqa sub`ekt-lar bilan bo’lgan munosabatlardan insofli, adolatli foy- dalanishga intilish, turli xayr-ehson tadbirlarini

amalga oshirish yo'li bilan o'z ishchanlik obro'sini yuqori darajada ushlab turishi, uni doimiy mustahkamlashga harakat qiladilar.

Ammo xo'jalik (tadbirkorlik) sohasida o'zaro munosa- batlar har doim ham silliq va bir maromda ketavermaydi. Bozor tizimidagi kuchli raqobat ba`zi xo'jalik yurituvchi sub`ektlarni g'ayriahloqiy va g'ayriqonuniy usullardan foydalangan holda bozorda huddi shunday turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi, ish bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi boshqa sub`ektlar bo'lgan raqibini obro'sizlantirishga, uni ish-ishchanlik obro'sini erga urib, u to'g'risida badnom qiluvchi ma`lumotlar tarqatishga undashi mumkin. Bunday harakatlar uchun amaldagi qonunchilikda tegishli ravishda jinoiy-huquqiy, ma`muriy-huquqiy va fuqarolik-huquqiy ja- vobgarlik belgilab qo'yilgan. Xalqaro tadbirkorlik ama- liyoti bo'yicha ham o'z raqibini ishchilik obro'sini g'ayriqo- nuniy usullar bilan erga urish g'irrom raqobatni (noinsof raqobatni) bir ko'rinishi hisoblanadi.

Ishchilik obro'sini fuqarolik huquqiy tartibda himoya qilishda Fuqarolik kodeksining 100-moddasida belgi- langan normalar qo'llaniladi. Bunga asosan, xo'jalik yuri- tuvchi sub`ekt o'zining ishchanlik obro'siga putur etkazuvchi ma`lumotlar yuzasidan, basharti bunday ma`lumotlarni tarqatgan shaxs ularni haqiqatga to'g'ri kelishini isbotlay olmasa, sud yo'li bilan raddiya berilishini talab qilishga haqli.

Basharti, xo'jalik yurituvchi sub`ektning ishchanlik obro'siga putur etkazuvchi ma`lumotlar ommaviy axborot vositalarida tarqatilgan bo'lsa, ayni shu ommaviy axborot vositalarida raddiya berilishi lozim.

Basharti, bunday ma`lumotlar tashkilotdan olingan hujjatda uchrasa, bunday hujjat almashtirilishi lozim.

Boshqa hollarda raddiya berish tartibi sud tomonidan belgilanadi.

Xo'jalik yurituvchi sub`ekt ommaviy axborot vosita- larida uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsi- tuvchi ma`lumotlar e`lon qilinganda, u ayni o'sha ommaviy axborot vositalari orqali chiqib, o'zini himoya qilish hu- quqiga ega.

Agar, sudning hal qiluv qarori bajarilmasa, sud qoi-dabuzarga qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda va tartibda undiriladigan jarima solishga haqlidir. Jari- mani to'lash qoidabuzarni sudning hal qiluv qarorida na- zarda tutilgan harakatlarni bajarish vazifasidan ozod etmaydi.

Xo'jalik yurituvchi sub`ektlar o'rtasida ishchanlik ob- ro'siga dahl qilinganlik bilan bog'liq nizolar O'zbekiston Respublikasi XPKning 24-moddasiga muvofiq xo'jalik sudlari tomonidan ko'rib chiqib hal etiladi. Yakka tadbir- kor bilan jismoniy shaxs o'rtasidagi bunday toifadagi nizolar fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ko'rib chiqib hal etiladi.

Ishchanlik obro'si o'z mohiyati va xarakteriga ko'ra, ham mulkiy, ham shaxsiy nomulkiy huquq hisoblanadi. Uning mulkiy xarakteri shunda namoyon bo'ladiki, ishchanlik ob- ro'siga putur etkazilganda xo'jalik yurituvchi sub`ektni mahsulot va tovarlariga bo'lgan talab keskin kamayadi yoki u bozorda o'tmay qoladi. Shuningdek, u bilan hech bir shaxs shartnomaviy munosabatlarga kirishmay qo'yadi yoki o'ta qat- tiq shartlar bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishadi. Tadbirkorlik munosabatlarida unga nisbatan ishonch keskin pasayib, uning mulkiy ahvoliga ta`sir ko'rsatishi tabiiy. Bunday holda etkazilgan moddiy zararlar O'zbekiston Res-

publikasining Fuqarolik kodeksining 14-moddasiga mu- vofiq undiriladi. Ishonchlik obro'sini mulkiy huquq si- sifatida namoyon bo'lishi yana shunda yaqqol ko'rinadiki, O'z- bekiston Respublikasining «Chet el invistisiyalari to'g'- risida»gi qonunida gudvill (ishchanlik obro'si) investisiya sifatida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga kiriti- lishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Shunga qaramasdan ishchanlik obro'si shaxsiy nomulkiy huquq ekanligini e`tirof etmoq lozim. Chunki u yuqorida ta`kidlanganidek, xo'jalik yurituvchi sub`ektlarni ahloqiy sifatlari bilan bog'liq. Binobarin, ishchanlik obro'siga putur etganda ma`naviy zarar etkazilishi ham tabiiy. Ma`naviy zarar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik ko- deksining 1022-moddasida sub`ektning jismoniy va ma`- naviy azoblari tariqasida namoyon bo'ladi. Bu holat yakka tadbirkor bo'lgan jismoniy shaxslarda to'liq namoyon bo'- ladi, ammo tijorat yuridik shaxslarida bu holat bevosi- ta emas, balki bavosita tarzida o'z ifodasini topadi. Boshqacha aytganda, yuridik shaxsga etkazilgan ma`naviy za- rar uning ishchilik obro'siga putur etkazilishi sababli uning rahbarlari, xodimlari, jismoniy shaxs bo'lgan mulkdor muassislari jismoniy og'riqlari, azob-uqubatlari ko'rinishida ro'y beradi, deb aytish mumkin.

Ma`naviy zararni qoplash miqdori xo'jalik yurituvchi sub`ektga etkazilgan jismoniy va ma`naviy azoblarning xususiyatiga, shuningdek ayb tovon to'lashga asos bo'lgan hollarda zarar etkazuvchining ayb darajasiga qarab sud tomonidan aniqlanadi. Zararni qoplash miqdorini aniq- lashda oqilonalik va adolatlilik talablari e`tiborga olinishi lozim.

Nazorat savollari:

1. Xo'jalik nizolarining kelib chiqish sabablari qanday?
2. Xo'jalik nizolarining qanday turlarini bilasiz?
3. Xo'jalik nizolarini sudlarda ko'rish tartibini tushuntirib bering.
4. Xo'jalik sudi qarorlarini qaytadan ko'rish tarti-bini tushuntiring.
5. Xo'jalik sudlari hujjatlarining ijrosini amalga oshirish tartibi qanday?

18-BOB
XO’JALIK YuRITUVChI SUB`EKTLARNING HUqUqIY HIMOYa TIZIMI

1-§. Xo’jalik yurituvchi sub`ektlarning huquqiy himoya tizimining mohiyati, shakllari va tashkiliy mexanizmi

Tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi, uni rivojlantiruvchi asosiy kuch hisoblanadi. Shu sababli tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan masalalardan biridir. Ushbu siyosatning mohiyati, uni amalga oshirishning shakl va vositalari O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Kari-mov tomonidan har tomonlama asoslab berilgan, jumladan Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 18 iyulda bo’lgan maj-lisida Prezidentimiz ma`ruzasida ham bu masalaga asosiy e`tibor qaratildi. «Tadbirkorlarning faoliyatini rag’-batlantirish, qo’llab-quvvatlash,–deb ta`kidladi yurt-boshimiz,–ular uchun qulay huquqiy va iqtisodiy shart-sharoit yaratib berish masalalari barcha darajadagi rah-barlarning, birinchi galda hududiy hokimlik va boshqaruv idoralarining doimiy diqqat markazida turishi kerak»[1]. Ushbu ma`ruzada yurtboshimiz tomonidan tadbirkorlar faoliyatini huquqiy himoya qilish tizimini yaratish va uni mustahkamlash vazifasi qo’yildi va uni amalga oshirish yo’llari ko’rsatib berildi.

Shuni ishonch bilan ta`kidlash mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlarni huquqiy himoya qilish tizimi shakllantirildi va uning tashkiliy mexanizmi yaratildi.

Bu tizimda tadbirkorning shaxsi ham muhim o’rin tutadi. Birinchi galda tadbirkor o’z huquqlarini, qonuniy manfaatlarini anglab etgan bo’lishi va huquqiy savodxon bo’lishi lozim. Aks holda uning haq-huquqlari himoya qilinishi uchun qanday tizim yaratilmasin, u samarali faoliyat ko’rsata olmaydi. Aslini olganda, tadbirkor o’z huquq va burchlarini bilmasa undan qanday foydalanishni ham, uni qanday himoya qilishni ham va hatto huquqi buzilgan hollarda o’z huquqlari buzilganligini ham anglab etmaydi. So’nggi yillarda tadbirkorlarning huquqiy sa-vodxonligini oshirish uchun bir qator ishlar amalga oshi-rildi: matbuotda maqolalar chop etilmoqda, broshyuralar, darsliklar, o’quv qo’llanmalari, ko’rgazmali tashviqot vo-sitalari tayyorlandi va aholi o’rtasida tarqatildi. Ulardan tadbirkorlar o’zlari uchun zarur barcha foydali ma`lu-motlarni olishlari mumkin.

Tadbirkorlarning huquqiy himoya tizimi keng qam-rovlik asosida amalga oshiriladi. Ushbu tizim tadbirkorlik qo’llaniladigan barcha sohalarda beistisno tarzda amalda bo’ladi. Boshqacha aytganda, huquqiy himoya tizimi nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tomonidan yoki sud orqali himoyalanish huquqi orqali, balki davlat va nodavlat, sud va nosud tuzilmalar orqali ham amalga oshi-riladi.

Huquqiy himoya yuksak darajada yuridik ta`minlangan. Boshqacha aytganda, huquqiy himoyaning usullari, vositalari, shakllari, uni amalga oshirish jarayoni qonun normalarida batafsil tartibga solingan. Bu esa huquqiy himoyaning qonuniyligini ta`minlaydi.

---

[1] Хал= сызи, 2002 йил, 19 июл

Yuqorida ta`kidlab o'tilganidek, tadbirkorlarning huquqiy himoya tizimi eng avvalo tadbirkorlarni faolligiga tayanadi. Har bir tadbirkorlik sub`ekti o'z huquq va manfaatlarini har qanday buzilishlardan eng avvalo o'zlari faol himoya qiladilar va qonunda yo'l qo'yilgan barcha vositalardan (o'zini–o'zi himoya, sud orqali himoya-lanish, operativ ta`sir usullarini qo'llash va sh.k.) foydalanishga haqli. Agar tadbirkor o'z buzilgan huquqlarini himoya qilishni o'zi xoxlamasa (agar bunda uchinchi shaxslar yoki davlat manfatlariga putur etkazilgan yoki tadbirkor himoyalanishi layoqatiga ega bo'lmagan hollar mustasno) hech kim uning huquqlarini himoya qilish to'g'risida talab qo'ya olmaydi. qonunlarda tadbirkorlarni o'z huquqlarini himoya qilishning yuridik imkoniyatlari belgilab qo'yiladi, bu imkoniyatdan foydalanish, ularni amalga oshirish tadbirkorning o'ziga bog'liq.

Tadbirkorlarning huquqiy himoya tizimi doimiylik va uzluksizlik belgisiga ham ega. Buning ma`nosi shundaki, tadbirkorlik sub`ektlarini vujudga kelish, faoliyatini amalga oshirish va bekor bo'lish jarayonlarining hamma bosqichida huquqiy himoya mavjud bo'ladi, masalan, tad-birkorlik sub`ektini ro'yxatga olishni rad etganlik uchun sudga shikoyat qilish huquqi, tadbirkorlar faoliyatiga o'z-boshimchalik bilan aralashuvlardan himoya qilish tartibi va nihoyat, tadbirkorlik sub`eklarini bankrot deb topish asoslari va tartibi (aslini olganda bankrotlik ham himoya tizimiga kiradi, ya`ni yakka tadbirkorni muayyan asoslarga ko'ra kreditorlar oldida javobgarlikni bekor bo'lishiga olib keladi va h.k.).

Huquqiy himoyaning doimiyligi va uzluksizligi tadbirkorlarni huquqiy himoya qilishi tizimining barqa-rorligini ta`minlaydi, unga yaxlitlik va qat`iylik ba-g'ishlaydi. Ushbu holatlar huquqiy himoya tizimining ta`-sirchanligini va samarasini yuqori ko'tarishga xizmat qi-ladi.

Tadbirkorlarning huquqiy himoya tizimining yana bir belgisi bo'lib tezkorlik hisoblanadi. Bu shunda yaqqol ko'rinadiki, birinchidan tadbirkorlarning buzilgan huquq-lari tezlik bilan, operativ ravishda muhofaza qilish choralari qo'llaniladi (masalan, talablarni akseptsiz qanoatlantirish, sud buyrug'i tartibida talabni qondirish, talabnoma asosida talabni qondirish va h.k.), ikkinchidan, tadbirkor huquqi buzilgan davr uchun imkon boricha boy berilgan foyda undirib beriladi.

Tadbirkorlarni huquqiy himoya qilish tizimi o'zining yaqqol ifodalangan tashkiliy – huquqiy tuzilmalariga ega. Bu tuzilmalar ichida adliya idoralari o'ziga xos o'rin egallaydi. Bu holat faqat mamlakatimiz huquq tizimi uchungina xos holatdir. Xorijiy mamlakatlarda ham tadbirkorlarning huquqiy himoya mexanizmi yaratilgan, biroq alohida, maxsus vakolatli tashkiliy tuzilmalar mavjud emas.

Tadbirkorlarni huquqiy himoya qilishda davlat idoralari (sud, prokuratura, adliya, tumanlar, viloyatlar hokimliklari) va nodavlat tizimlari (tovar ishlab chiqa-ruvchilar va tadbirkorlar palatalari, fermer va dehqon xo'jaliklari assosiasiyalari) bab-baravar faoliyat ko'r-satadilar.

Adliya organlarining bu boradagi vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17 fevral` 2000 yildagi qarori bilan belgilab qo'yilgan. Adliya vazirligi va uning hududiy boshqarmalari tarkibida tad-birkorlarni himoya qilish bo'yicha maxsus tuzilmalar mav-jud. Adliya Vazirligi va joylardagi uning idoralari tomonidan tadbirkorlar uchun ishonch telefonlari tashkil etilgan. Adliya Vazirligi tadbirkorlik huquqlariga rioya qilish bo'yicha qonunchilikka rioya qilish

ustidan barcha mintaqalarda davriy kompleks tekshiruvlarni amalga oshiradi. Ushbu tekshiruvlar viloyatlar va tumanliklar hokimliklar, soliq, bojxona, banklar, tayyorlov va ta`minot korxonalari faoliyatini qamrab oladi.

Adliya organlari tekshirishlar davomida tadbir-korlarni qonuniy huquq va manfaatlari buzilgan faktlari aniqlangan hollarda sudlarga va xo'jalik sudlariga tegishli da`vo arizalari bilan chiqadilar va ayblardan etkazilgan moddiy va ma`naviy zararni undirish talabini qo'yadilar.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda sub`ektlarning o'zaro raqobatini, sog'lom musobaqasini ta`minlash muhim ahamiyatga ega. Agar biror sub`ekt bozorda yakka-hokimlikka intilsa, u holda raqobat muhitiga putur etadi. Shu sababli ham iqtisodiyotda antimonopol qonunchilik amal qiladi va barcha xo'jalik yurituvchi sub`ektlar unga rioya qilishlari shart. O'z mohiyatiga ko'ra bozorlarda yakkahokimlikka yo'l qo'ymaslik choralari tadbirkorlikni huquqiy himoya qilish tizimining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Bunday choralar jumlasiga bozorda ustun mavqega ega bo'lgan sub`ektni o'z tovarlari, xizmatlariga o'z xohishiga ko'ra narx belgilay olmasligi, yakkahokim sub`-ektni majburiy tartibda bo'lib yuborish, in-sofsiz raqobat, ya`ni g'irrom raqobatni (boshqa raqiblarni obro'siz-lantirish, ularning nomlari va tovar belgilaridan foy-dalanib, sifatsiz tovarlarni muomalaga kiritish, tovar bozorlarini taqsimlab olish niyatida til biriktirish va sh.k.) g'ayri qonuniy deb topilishi va unga qarshi belgi-langan sanksiyalar kiradi. Antimonopol qonunchilik bo-zorda sog'lom raqobat muhitini vujudga keltiradi va muayyan muvozanatni saqlab turadi. Bu esa barcha tad-birkorlik sub`ektlari manfaatlariga muvofiqdir.

2-§. Xo'jalik (tadbirkorlik) faoliyatini huquqiy ta`minlash

Tadbirkorlarni huquqiy himoya qilish tizimining yana bir tarkibiy qismi bo'lib tadbirkorlik, xo'jalik yuri-tishni huquqiy ta`minlash hisoblanadi. Bu o'rinda shuni ta-`kidlash lozimki, xo'jalik yuritish, tadbirkolik fao-liyatini huquqiy tartibga solish darajasi boshqa faoliyat turlariga nisbatan ancha yuqori darajada yo'lga qo'yilgan. Tadbirkorlik sub`ektlarini vujudga kelish, ro'yxatga olish, faoliyatni amalga oshirish, tugatish, qayta tashkil etish jarayonlari to'la huquqiy tartibga solingan. Tad-birkorlik sub`ektlarining deyarli barcha turlari o'zining qonuniy huquqiy maqomiga ega (masalan, to'liq shirkat, kommandit shirkati, ma`suliyati cheklangan jamiyat, qo'-shimcha ma`suliyatli jamiyat, aksiyadorlik jamiyati, ishlab chiqarish kooperativlari, fermer xo'jaliklari va sh.k.). Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida tadbirkorlikni amalga oshirish ham o'z normativ-huquqiy asoslariga ega. Xo'jalik–tadbirkorlik faoliyatini huquqiy ta`minlanganlik darajasini yuqoriligi bu o'rinda kim tomonidan-dir o'zboshimchaliklar sodir etilishini kamaytiradi va oxir oqibatda huquqiy himoyani yuksak saviyasini ta`minlaydi. Albatta, tadbirkorlik faoliyatini batafsil hu-quqiy tartibga solinganligi juda muhim ijobiy holat hisoblanadi. Ayni vaqtda bu borada barcha muammolar hal etilgan deb aytish qiyin. Afsuski, tadbirkorlikning hu-quqiy asoslarini tashkil etuvchi normativ massivda aksariyat ko'pchilik turli idoralar me`yoriy xujjatlari tashkil etadi. Odatda qonunlarda mustahkamlangan normativ umumiy yo'nalish bilan idoraviy manfaatlar mustahkamlab qo'yiladi, bu esa xolislik,

adolat, oqilonalik, insoflilik kabi umumiy tamoyillar mazmuniga har doim ham to'la muvofiq kelavermaydi. Shu sababli ham rivojlangan mamlakatlar tajribasida idoraviy hujjatlar orqali huquqiy tartibga solish iloji boricha kam qo'llaniladi. Shu sababli ham kelgusida xo'jalik-tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishda idoraviy me`yoriy hujjatlar (Markaziy Bank, Moliya, Iqtisodiyot vazirliklari, Davlat bojxona qo'mitasi, Soliq qo'mitasi kabi idoralar chiqargan hujjatlar) o'rniga qonunlar bilan tartibga solishga keng o'rin berish lozim.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida tadbirkor, xo'jalik yurituvchi sub`ekt turli boshqa sub`ektlar bilan o'zaro munosabatlarga kirishadi. Bu munosabatlar ma`muriy-boshqaruv munosabatlar, shartnomaviy munosabatlar, shartnomadan tashqari (delikt) majburiyatlar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Bu munosabatlarning ba`zilarida o'zaro munosabatlar kelishmovchilik, baxs-nizo tusini olish mumkin. Binobarin, bunday holda nizolarni hal qilish tizimining mavjudligi alohida muhim ahamiyatga ega va u o'z mohiyatiga ko'ra xo'jalik yurituvchi sub`ektlar, tadbirkorlarning huquqiy himoyasini ta`minlovchi tashkiliy-xususiy kafolat hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyatida vujudga keladigan nizolarni hal qilish tizimi mavjud va u turli usullar va shakllarni o'z ichiga oladi. Amaldagi huquq-tartibotda bu borada uzviy bog'liq huqu-qiy tizim doimiy ravishda amal qiladi, aniqrog'i uni tizimlar majmui deb aytish mumkin. Ushbu majmuaga nizolarni hal etishning davlat va nodavlat, sud orqali va nosud, milliy va xalqaro tizimlar kiradi.

Nizolarni hal etish davlat tizimida xo'jalik-tadbirkorlik nizolari muayyan vakolatli davlat idoralari tomonidan hal etiladi. (Masalan, kontraktasiya shartnomasi bo'yicha nizolar tuman hokimligi huzuridagi inspeksiya, intellektual mulk ob`ektlariga huquqiy muhofaza hujjati berish bilan bog'liq nizolar Davlat patenti idorasi huzuridagi Appelyasiya Kengashi tomonidan va h.k.). Ko'p hollarda davlat idorasi qarori ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

Xo'jalik–tadbirkorlik nizolarini sud orqali hal etish tizimi ham puxta ishlab chiqilgan. Konstitusiyaning 111-moddasiga asosan mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, muasasalar, tashkilotlar o'rtasidagi, shuningdek tadbirkorlar o'rtasidagi, iqtisodiyot sohasida va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan xo'jalik nizolarini hal etish Oliy xo'jalik sudi va xo'jalik sudlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida amalga oshiriladi. Xo'jalik sudlarida nizolarni ko'rib chiqish va hal etish tartibi Xo'jalik prosessual kodeksi bilan tartibga solinadi. Xo'jalik sudlarini ish yuritish tartibi umumiy sudlarni ish yuritish tartibidan nisbatan soddaligi, tezkorligi bilan ajralib turadi. (Masalan, sud buyrug'i tartibining mavjudligi). Xo'jalik yurituvchi sub`ektlar da`vo arizasi berishda o'z pul mablag'lariga ega bo'lmasalar, davlat boji to'lashni hal qiluv qarori chiqarilgunga qadar kechiktirishga yo'l qo'yiladi. Xo'jalik nizolarini hal etish uchun alohida sud tizimining mavjudligi xo'jalik qonuniy huquq va manfaatlarini huqu-qiy himoya qilishni osonlashtiradi va real amalga oshi-rilishni o'ziga xos kafolati bo'lib hisoblanadi.

Xo'jalik–tadbirkorlik sohasida vujudga kelgan nizolarni hal etishning nosud tizimi ham mavjud. Masalan, talabnoma bildirish tartibida nizolarni hal etishga yo'l qo'yiladi. "Xo'jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunning 17-18-moddalarida talabnoma bildirish orqali xo'jalik ni-zolarini hal etish asoslari va tartibi belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari taraflar kelishuv bitimi tuzish, nizoni hakamlar sudiga berish orqali ham hal etishlari mumkin. Hakamlar sudining qarori davlatning majburlov kuchi bilan ta`minlanadi, shuningdek muayyan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda ushbu qaror ustidan sudga (xo'jalik sudiga) shikoyat qilish mumkin.

Nizolarni hal etishning xalqaro tizimi ham mavjud. Odatda xorijiy tadbirkorlar bilan shartnoma asosida hamkorlik qiluvchi xo'jalik yurituvchi sub`ektlar bu borada vujudga kelgan nizolarni hal etish uchun xorijiy davlatlar sudlariga yoki xalqaro arbitrajlarga murojaat etishlari mumkin. Bunda albatta har qanday nizolar emas, balki O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida yo'l qo'yilgan nizolar xorijiy davlatlar sudlarida yoki xalqaro arbitrajida ko'rib hal etilishi mumkin. (Masalan, bankrotlik bo'yicha ishlar, davlat byudjet oldidagi majburiyatlar bilan bog'liq nizolar, horijiy yurisdiksiya bo'la olmaydi.)

Xo'jalik yurituvchi sub`ektlar va tadbirkorlarni hu-quqiy himoya qilish tizimida Tovar ishlab chiqaruvchi va tadbirkorlar palatalari muhim o'rin egallaydi. Tovar ishlab chiqaruvchi va tadbirkorlar palatasi tarmoq xo'jalik birlashmalari tarkibiga kirmaydigan kichik, o'rta va xususiy tadbirkorlik sub`ektlarini a`zolik shart bo'lgan holda shartnoma asosida birlashtiruvchi davlatga qarashli bo'lmagan notijorat tashkilotidir. Palata O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishiga ko'maklashib, bozor infrastrukturasini yaxlit tizimini shakllantirish, tadbirkorni faoliyati uchun qulay sharoit yaratish, tadbirkorlikning barcha turlarini, O'zbekiston tadbirkorlarining boshqa mamlakatlar tadbirkorlari bilan savdo iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy aloqalarini rivojlantirish maq-sadida tuziladi. Palatalar o'z faoliyatini 1997 yil 24 ap-relda qabul qilingan "Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatalari to'g'risida"gi qonunga asosan tashkil etadi.

Palata quyidagi vazifalarni bajaradi:

-davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida, jamoat va xalqaro tashkilotlarda, shu jumladan boshqa mamlakatda tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlarning manfaatlarini ifodalaydi;

-kichik, o'rta va xususiy tadbirkorlikni rivoj-lantirish konsepsiyasini ishlab chiqishda hamda xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlarini ro'yobga chiqarishda ishtirok etadi;

-korxonalar va tashkilotlarning davlat registri asosida kichik, o'rta va xususiy tadbirkorlik sub`ektlarining registrini yuritadi;

-uch tomonlama hamkorlik (yollanma ishchilar ittifoqi, ish beruvchilar ittifoqi va hukumat) tizimini vujudga keltirishda, milliy iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni ishlab chiqish hamda olib borishda ishtirok etadi;

-tadbirkorlar faoliyati uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ishini uyushtiradi;

-tadbirkorlikning rivojlanishiga to'sqinlik qila-yotgan muammolarini aniqlaydi, tadbirkorlikni rivoj-lantirishga hamda tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlarning faoliyat yuritish sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan qonun hujjatlarini takomillashtirishda belgilangan tartibda ishtirok etadi;

-xo'jalik yurituvchi sub`ektlar o'rtasidagi nizolarni hal etishga ko'maklashadi;

-moliyaviy yordamga bo’lgan ehtiyojni aniqlashda bux-galteriya hisobi va hisobotini auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish va yuritishda palata a`zolariga yordam beradi;

-xalqaro ko’rgazmalar va yarmarkalarni O’zbekistonda va boshqa davlatlarda firmalarning taqdimotlarini uyush-tiradi;

-tovarlar va xizmatlar eksportini rivojlantirishga ko’maklashadi, tashqi bozorda operasiyalar o’tkazishda va iqtisodiy hamda ilmiy – texnikaviy hamkorlikning yangi shakllarini o’zlashtirishda kichik, o’rta va xususiy tadbirkorlik sub`ektlariga yordam ko’rsatadi.

Palata qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajaradi.

Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatalari tizimini tuman (shahar) palatalari, hududiy palatalar hamda O’zbekiston tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi tashkil etadi.

Tuman (shahar) palatasi, O’zbekiston Respublikasining ma`muriy-hududiy bo’linishiga mos ravishda tuziladi.

Tuman (shahar) hududida bitta tuman (shahar) palatasi tuzilishi mumkin. Tuman (shahar) palatasi ushbu tumandagi (shahardagi) kamida o’n nafar tovar ishlab chiqaruvchi va tadbirkorning yig’ilishi asosida ta`sis etiladi.

qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hududida, tegishli ravishda, bitta hududiy palata tuzilishi mumkin..

Hududiy palata tuman (shahar) palatalarini birlashtiradi va tuman (shahar) palatalari vakillarining konferensiyasida ta`sis etiladi.

O’zbekiston tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi hududiy palatalarni birlashtiradi.

O’zbekiston tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkor palatasi hududiy palatalar vakolatlarining qurultoyida ta`sis etiladi.

Palataga a`zolik xo’jalik yurituvchi sub`ekt va palata o’rtasida shartnoma tuzish yo’li bilan rasmiylashtiriladi.

Palataga a`zolik yakka tartibda va (yoki) birlashgan (jamoa) tarzida bo’lishi mumkin.

Palata a`zolarini hisobga olish xo’jalik yurituvchi sub`ekt joylashgan manzil bo’yicha yuritiladi.

Palataning a`zolari kirish va a`zolik badallarini palata ustavida belgilanadigan tartibda va miqdorda to’laydilar.

Yuridik shaxsga aylanmagan holda yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanayotgan shaxslar uchun kirish va a`zolik badallari yuridik shaxslar uchun palata ustavida belgilangan badal miqdorining ko’pi bilan ellik foizigacha belgilanishi mumkin.

3-§. Xo’jalik (tadbirkorlik) sub`ektlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish

Tadbirkorlarning huquqiy himoya tizimining markazida tadbirkor bilan uning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat xizmatchisi o’rtasida o’zaro hurmat, ishonch va insofga asoslangan qonuniy munosabatlarni vujudga keltirish va

uni doimiy barqaror ravishda saqlab turish yotadi. Bu vazifa ancha murakkab hisoblanadi. Uni amalga oshirishda quyidagi omillarni hisobga olmasdan iloji yo'q.

Birinchidan, tadbirkorlik faoliyati muayyan moddiy boyliklar, pul mablag'lari bilan uzviy bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Shu sababli ham ushbu moddiy qiymatliklarni muomalada bo'lish qoidalariga rioya qilish ustidan nazorat talab etiladi. Nazoratga olib, o'z majburiyatlarini bajarishda ta`magirlikka, suiiste`molliklarga yo'l qo'yilmasligi alohida muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, tadbirkorlik sub`ektlari faoliyatini nazorat qilish oqilona tashkil etilmog'i, tadbirkorlik sub`ektiga o'z xo'jalik faoliyatini amalga oshirishga aslo to'sqinlik qilmasligi lozim.

Uchinchidan, nazorat ochiq, oshkor, shaffof bo'lmog'i, nazorat asoslari, tartibi, usul va vositalari aniq–ravshan belgilab qo'yilmog'i shart. Aks holda har xil o'zboshimchaliklar kelib chiqishi mumkin.

Va nihoyat, to'rtinchidan, tadbirkorlik sub`ekti nazorat jarayonida o'z qonuniy huquq va manfaatlariga putur etgan deb hisoblagan taqdirda, sud orqali himoyalanish imkoniyatlariga ega bo'lish lozim.

Xo'jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatini davlat tomondan nazorat qilish tartibi 1998 yil, 24 dekabrda qabul qilingan "Xo'jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatini davlat tomondan nazorat qilish to'g'risida"gi qonun, shuningdek "Tadbirkorlik faoliyatining erkinliklari kafolati to'g'risida"gi qonunning 39-40-moddalari bilan qo'yilgan bunday shakllar tekshirish, taftish, muqobil tekshirishda, nazorat tartibida tekshirishda, statistik axborotlarini va boshqa axborotlarni tahlil qilish, idora qaramog'idagi organlarni tekshirishdan o'tkazishdan iborat. qonunda tekshirish, taftish, muqobil tekshirish, nazorat tartibida tekshirish tushunchalari aniq belgilab qo'yilgan. Xo'jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

nazorat qiluvchi organlar faoliyatida qonuniylik, xolislik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

xo'jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatiga aralashmaslik.

Yuridik shaxs bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatini rejali tekshirish, shu jumladan taftishdan o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

maxsus vakolatli organ yoki uning tegishli hududiy bo'linmasi tomonidan berilgan, xo'jalik yurituvchi sub`-ektlar faoliyatini tekshirishning muvofiqlashtirish rejasidan ko'chirma;

nazorat qiluvchi organlarning muvofiqlashtiruvchi reja asosida chiqargan buyrug'i yoxud maxsus vakolatli organning tekshirish, shu jumladan taftish o'tkazish to'g'-risidagi hamda tekshirish maqsadi, uni o'tkazish sanasi va tekshirishni amalga oshirish, topshirilgan mansabdor shaxslarning tarkibi ko'rsatilgan qarorlari;

prokuratura, Ichki ishlar va Milliy xavfsizlik xizmati organlari tomonidan xo'jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatini tekshirish uchun qo'zg'atilgan jinoiy ish mavjudligi.

Xo'jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatini rejali tarzda tekshirishlar maxsus vakolatli organning qaroriga binoan yiliga ko'pi bilan bir marta amalga oshirilishi mumkin.

Soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarni o’z vaqtida hamda to’la miqdorda to’lovchi, boshqa tartib va qoidalarga rioya qiluvchi, auditorlarning har yilgi tegishli xulosa-lariga ega bo’lgan xo’jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatini tekshirish nazorat qiluvchi organlar tomonidan, qoida tariqasida, ko’pi bilan ikki yilda bir marta amalga oshi-riladi.

Xo’jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatini tekshirish muddatlari o’ttiz kalendar kunidan oshmasligi lozim. Alohida hollarda maxsus vakolatli organning qaroriga binoan bu muddat uzaytirilishi mumkin.

Xo’jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatini rejadan tashqari tekshirish uchun maxsus vakolatli organning tekshirilayotgan ob`ekt nomini, tekshiruv o’tkazish maqsadi, muddatlari hamda uni o’tkazish sabablarining asosliligi ko’rsatilgan holda rejadan tashqari tekshirish o’tkazish to’g’risida chiqargan qarori, shuningdek tekshirishni amalga oshiruvchi tegishli nazorat qiluvchi organning buyrug’i asos bo’lib xizmat qiladi.

Rejadan tashqari tekshirishlar nazorat qiluvchi or-ganlar tomonidan quyidagi hollarda o’tkaziladi:

agar tekshiruvni o’tkazish zarurati O’zbekiston Res-publikasi Hukumati qaroridan kelib chiqqanda;

nazorat qiluvchi organga xo’jalik yurituvchi sub`ektlar tomonidan qonunlar va boshqa qonun hujjatlari buzil-ganligi to’g’risida qo’shimcha ma`lumotlar kelib tushganda;

favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishining oldi olinayotganda;

sanitariya-epidemiologiya vaziyati murakkablashganda, shuningdek qo’shni davlatlardan yuqumli kasalliklar kirib kelishi va tarqalishi ehtimoli vujudga kelganda.

Yakka tartibda tadbirkorlar faoliyatini tekshirish soliq organlari hamda boshqa nazorat qiluvchi organlar tomonidan ularning vakolatlari doirasida va qonun huj-jatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Xo’jalik yurituvchi sub`ektlarni ularning xo’jalik faoliyatini taftish qilish bilan bog’liq bo’lmagan holda tekshirish tegishli nazorat qiluvchi (yong’inga qarshi, ener-getika nazorati va boshqa) organlar tomonidan, qoida tariqasida, bir marta o’tkaziladigan kompleks tekshiruv davomida amalga oshiriladi.

Kompleks tekshiruvlar maxsus vakolatli organ tasdiqlagan rejalar asosida o’tkaziladi.

Nazorat tartibida tekshirish nazorat qiluvchi organlar tomonidan maxsus vakolatli organ yoki uning hududiy bo’linmalari bilan kelishilgan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

Tekshirilayotgan xo’jalik yurituvchi sub`ekt quyidagi huquqlarga ega:

o’z faoliyati tekshirilishi to’g’risidagi tegishli axborotga ega bo’lishi;

nazorat qiluvchi organning tekshiruvchi mansabdor shaxslaridan maxsus vakolatli organ yoki uning hududiy bo’linmalar qarorini, tekshirish o’tkazish uchun asos hi-soblanuvchi boshqa hujjatlarni talab qilish, tekshiruv-chilarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari bilan tani-shish;

tekshirish o’tkazish uchun asosga ega bo’lmagan shaxslarning tekshirish o’tkazishiga yo’l qo’ymaslik;

nazorat qiluvchi organlari vakolatiga kirmaydigan masalalarga oid talablarni bajarmaslik va tekshirish predmetiga taalluqli bo’lmagan materiallar bilan ularni tanishtirmaslik;

nazorat qiluvchi organning tekshiruvchi mansabdor shaxslaridan tekshirish tugagandan so’ng o’n kun muddat ichida tekshirish natijalarini aks ettiruvchi hujjatning bir nusxasini olish;

qonunda belgilangan tartibda tekshirish natijalari ustidan shikoyat qilish.

Xo’jalik yurituvchi sub`ektlar tekshiruvchilarning qonuniy talabiga binoan tekshirish o’tkazish uchun zarur bo’lgan materiallar va hujjatlarni taqdim etishga, ularni tekshirish ob`ektlariga kiritishga, tekshiruvchilarga o’z vazifalarini bajarishlari uchun ko’maklashishga majburdirlar.

Nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari xo’jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatini tekshirish chog’ida o’z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

tekshirilayotgan xo’jalik yurituvchi sub`ektlardan tekshirish o’tkazish bilan bevosita bog’liq bo’lgan zarur hujjatlar va boshqa axborotlarni talab qilish;

tekshirilayotgan xo’jalik yurituvchi sub`ektlariga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish to’g’risida bajarilishi majburiy bo’lgan ko’rsatma berish;

tegishli davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, xo’jalik yurituvchi sub`ektlar mulkdorlari oldiga aybdor shaxslarning javobgarligi to’g’risidagi masalani qo’yish;

tekshiruvga vazirliklar va idoralar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mutaxassislarini belgilangan tartibda shartnoma asosida jalb etish;

qonun xujjatlarida nazarda tutilgan hollarda moliyaviy yoki ma`muriy jazo choralarini qo’llash.

Nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslarining qonuniy talablari tekshirilayotgan xo’jalik yurituvchi sub`ektlar tomonidan bajarish uchun majburiydir.

Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslari xo’jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatini tekshirish chog’ida o’z vakolatlari doirasida quyidagilarni bajarishga majburdirlar:

tekshirilayotgan xo’jalik yurituvchi sub`ektlarga tekshirish o’tkazish huquqini beruvchi zarur hujjatlarni ko’rsatish;

davlat siri, tijorat yoki boshqa sirlar saqlanishini ta`minlash;

tekshiruv natijalarini dalolatnoma (ma`lumotnoma) bilan rasmiylashtirib, uning bir nusxasini tekshiri-layotgan xo’jalik yurituvchi sub`ekt ixtiyorida qoldirish;

huquqbuzarlik hollari aniqlangan taqdirda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni ko’rish.

Nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari xo’jalik yurituvchi sub`ektlarning qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Agar nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari xo’jalik yurituvchi sub`ektlarning faoliyatida qonun xujjatlari buzilganligini aniqlasalar, ular o’zlariga berilgan vakolat doirasida va muayyan qoidabuzarlikni bartaraf etish bilan bevosita bog’liq chora-tadbirlarni ko’rishlari mumkin. Nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari qoidabuzarlik holati mavjudligidan xo’jalik yurituvchi

sub`ektlarning boshqa qonuniy faoliyatiga aralashish yoki uni cheklash uchun asos sifatida foyda-lanishga haqli emas.

Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining noqonuniy qarorlari yoki boshqa harakatlari natijasida xo'jalik yurituvchi sub`ektga etkazilgan zararlar, shu jumladan boy berilgan foyda qonun hujjatlarida bel-gilangan tartibda qoplanadi.

Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining harakatlari va qarorlari ustidan bevosita sudga yoki bo'ysunish tartibida yuqori turuvchi organga yoxud mansabdor shaxsga shikoyat qilinishi mumkin.

Shikoyat berish nazorat qiluvchi organ mansabdor shaxsining harakatlari va qarorlari ustidan qilingan shikoyatlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va mud-datlarda ko'rib chiqiladi.

Xo'jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Xo'jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyati tekshiril-ganda birinchi galda tekshiruvchi mansabdor shaxs tekshirishlarni qayd etish kitobiga tegishli yozuvlar kiritishi lozim. Bunday kitob har bir tadbirkorlik sub`ektida bo'lish lozim. Tekshirishlarni qayd etish kitobini to'ldirmagan tekshiruvchi shaxs tekshirishga qo'yilmaydi.

Mansabdor shaxslar tomonidan xo'jalik yurituvchi sub`ektlarni o'z huzuriga chaqirtirishning ham asoslari va tartibi belgilab qo'yilgan.

Xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning huquqiy himoya tizimini yana bir bo'g'ini-bu xo'jalik yurituvchi sub`ektlar yuridik xizmat bo'linmalari hisoblanadi. Ayniqsa xo'jalik shartnomalari tuzishda yuridik xizmat bo'linmalari faol ishtirok etadi. Agar tadbirkorlik sub`ekti o'z yuridik xizmatiga ega bo'lmasa (masalan, yakka tadbirkor, fermer xo'jaligi va x.k.), u holda ular haq evaziga yuridik xizmat ko'rsatish shartnomalari orqali advokatlar xizmatidan foydalanishlari shart ("Xo'jalik yurituvchi sub`ktlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'-risida"gi qonunning 20-moddasi).

Har bir xo'jalik yurituvchi sub`ektning o'z yuridik xizmati bo'lishi uning huquqiy himoyasini tashkiliy ta`minlovchi kafolat hisoblanadi. Yuridik xizmat bo'linmalari xo'jalik yurituvchi sub`ekt faoliyatining barcha yo'nalishlarida va sanalarida, barcha bosqichlar uzluksiz va doimiy ravishda, birinchidan xo'jalik yurituvchi sub`ekt faoliyatini qonuniyligini, o'z manfaatlariga mosligini ta`minlasa, ikkinchidan, boshqa har qanday sub`ektlarni xatti-harakatlari uning qonuniy huquq va manfaatlariga xilof bo'lmasligini kuzatib boradi va zarur hollarda tegishli huquqiy himoyani tashkil etadi.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda tadbirkorlarni huquqiy himoya tizimi milliy qonunchiligimizning alohida kompleks instituti bo'lib, u tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ularga berilgan imtiyozlar, engilliklar, afzalliklar, alohida kafolatlar, tadbirkorlar huquq-larini himoya qilish majburiyati yuklatilgan davlat va nodavlat organlarining maxsus vakolatlarini, xo'jalik – tadbirkorlik sohasida vujudga kelgan nizolarni ko'rib chiqish va hal etishning alohida tartibini o'z ichiga oladi.

Nazorat savollari:

1. Xo’jalik sub`ektlarini huquqini himoya qiluvchi organlar, ularning vakolatlari, vazifalari qanday?
2. Huquqiy himoyaning doimiy va uzluksizligi nima-lardan iborat va uning ahamiyatini ayting.
3. Antimonopol qonunchilikning sog’lom raqobatni vu-judga keltirishdagi rolini tushuntiring.
4. Nizolarni hal etish tizimi qanday?
5. Xo’jalik yurituvchi sub`ektlarning yuridik xizmat bo’linmalarining huquqiy himoya tizimida tutgan o’rni haqida gapiring.

1. Tavsiya qilinayotgan rahbariy adabiyotlar

I.A.Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T., «O'zbekiston», 1992 y.

I.A.Karimov. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tish-ning o'ziga xos yo'li. T., «O'zbekiston», 1993 y.

I.A.Karimov. Iqtisodiy islohot: mas`uliyatli bosqich. T., «O'zbekiston», 1994 y.

I.A.Karimov. Dehqonchilik taraqqiyoti – farovonlik manbai. T., «O'zbekiston», 1994 y.

I.A.Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chu-qurlashtirish yo'lida. T., «O'zbekiston», 1995 y.

I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari taraqqiyot kafolatlari. // T.: «O'zbekiston», 1997 y.

I.A.Karimov. Barqaror taraqqiyotga erishish ustuvor vazifa. T., 1998 y.

I.A.Karimov. Ozod va obod Vatan, farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.: «Ma`rifat», 2000 y.

I.A.Karimov. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma`ruzasi. – «Xalq so'zi», 2000 yil 25 yanvar`.

I.A.Karimov. 2001 yil 16 fevralda Vazirlar Mahkamasida bo'lib o'tgan yig'ilishdagi nutqi. «Xabarnoma», 2001 y.

I.A.Karimov. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. // « Xalq so'zi», 2002 y., 30 avgust.

2. Normativ huquqiy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi // T.: «O'zbekiston», 2000 y.

O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik prosessual kodeksi // T.: «Adolat», 1998 y.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi // T.: «Adolat», 1996 y.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi // T.: «Adolat», 1998 y.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. (2001 yil 18 oktyabrgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan) // T.: «Sharq», 2001 y.

O'zbekiston Respublikasining Ma`muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. (2001 yil aprelgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan) // T.: «Adolat», 2001 y.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi // T.: «Adolat», 1999 y.

O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. (2000 yilning 1 yanvarigacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan) T.: // «Adolat», 2000 y.

O'zbekiston Respublikasining Er kodeksi va qishloq xo'jaligiga oid qonun hujjatlari // T.: «Adolat», 1999 y.

O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksi // O'zbekistonning Yangi qonunlari, 1994 y, 8-son.

O'zbekiston Respublikasining «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y., 43-son.

O’zbekiston Respublikasining «Ijara to’g’risida»gi qonuni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y., 1-son, 45-modda.

O’zbekiston Respublikasining «qimmatli qog’ozlar va fond birjasi to’g’risida»gi qonuni // O’zbekistonning Yangi qonunlari, 1995 y., 9-son.

O’zbekiston Respublikasining «Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlash to’g’risida»gi qonuni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994 y., 2-son, 50-modda.

O’zbekiston Respublikasining «Iste`molchilarning hu-quqlarini himoya qilish to’g’risida»gi qonuni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 5-6-sonlar, 59-modda.

O’zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to’g’risida»gi qonuni//O’zbekistonning Yangi qo-nunlari. – T.:, «Adolat».1996 y., 13-son.

O’zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to’g’risida»gi qonuni // O’zbekistonning Yangi qonunlari. – T.: «Adolat», 1997 y., 14-son.

O’zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to’g’-risida»gi qonuni//O’zbekiston Respublikasi Oliy Maj-lisining Axborotnomasi. 1996 y., 5-6-son, 61-modda.

O’zbekiston Respublikasining «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to’g’risida»gi qonuni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 2-son, 54-modda.

O’zbekiston Respublikasining «Markaziy bank to’g’-risida»gi qonuni // O’zbekistonning Yangi qonunlari. – T.: «Adolat», 1996 y., 12-son.

O’zbekiston Respublikasining «Tabiiy monopoliyalar to’g’risida»gi qonuni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 4-5-sonlar, 106-modda.

O’zbekiston Respublikasining «qishloq xo’jaligi kooperativi (shirkat xo’jaligi) to’g’risida»gi qonuni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi – 1998 y., 5-6-sonlar, 84-modda.

O’zbekiston Respublikasining «Fermer xo’jaligi to’g’-risida»gi qonuni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Maj-lisining Axborotnomasi 1998 y., 5-6-sonlar, 86-modda.

O’zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to’g’risida»gi qonuni // O’zbekistonning Yangi qonunlari.- T., «Adolat», 1998 y., 17-son

O’zbekiston Respublikasining «Dehqon xo’jaligi to’g’-risida»gi qonuni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Maj-lisining Axborotnomasi, 1998 y., 5-6-sonlar, 88-modda.

O’zbekiston Respublikasining «Investisiya faoliyati to’g’risida»gi qonuni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1998 y., 1-son, 10-modda.

O’zbekiston Respublikasining «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish to’g’-risida»gi qonuni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Maj-lisining Axborotnomasi.1998 y.,5-6-sonlar,91-modda.

O’zbekiston Respublikasining «qimmatli qog’ozlar bozorida depozitariylar faoliyati to’g’risida»gi qonuni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y., 9-son, 172-modda.

O’zbekiston Respublikasining «Tovar ishlab chiqaruv-chilar va tadbirkorlar palatalari to’g’risida»gi qonuni //O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axbo-rotnomasi, 1997 y., 1-son, 112-modda.

O’zbekiston Respublikasining «Xo’jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatini nazorat qilish to’g’risida»gi qonuni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborot-nomasi. 1999 y., 1-son, 8-modda.

O’zbekiston Respublikasining «Xo’jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyati shartnomaviy huquqiy bazasi to’g’-risida»gi qonuni // O’zbekiston Respublikasining Yangi qonunlari.- T., «Adolat», 1999 y., 21-son.

O’zbekiston Respublikasining «O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o’zgartish va qo’-shimchalar kiritish to’g’risida qonuni //«Xalq so’zi», 1999 yil, 17 sentyabr`.

O’zbekiston Respublikasining «Faoliyatning ayrim turlarini lisenziyalash to’g’risida»gi qonuni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000 y., 5-6-son, 142-modda.

O’zbekiston Respublikasining «Xo’jalik shirkatlari to’g’risida»gi qonuni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000 y.,5-6-son,142-modda.

O’zbekiston Respublikasining «Birjalar va birja faoliyati to’g’risida»gi qonuni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 9-10-son, 172-modda.

O’zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to’g’risida»gi (yangi tahrir) qonuni // O’zbekistonning Yangi qonunlari. – T.: «Adolat», 2001 y.. 23-son.

O’zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to’g’risida»gi qonuni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2000 y., 5-6-sonlar, 140-modda.

O’zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to’g’risida»gi (yangi tahrir) qonuni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2000 y., 5-6-sonlar, 148-modda.

O’zbekiston Respublikasining Konstitusiyaviy sudining 2001 yil 10 oktyabrda qabul qilingan «O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 59-moddasini sharhlash to’g’-risida»gi to’xtami. // O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2001 y., 19-son.

O’zbekiston Respublikasining «Xo’jalik shirkatlari to’g’risida»gi qonuni // «Xalq so’zi gazetasi, 2002 yil 17 yanvar`, 12-son.

O’zbekiston Respublikasining «Mas`uliyati cheklangan hamda qo’shimcha mas`uliyatli jamiyatlar to’g’risida»gi qo-nuni // «Xalq so’zi» gazetasi, 2002 yil 22 yanvar`, 15-16-son.

O’zbekiston Respublikasining «Kredit uyushmalari to’g’risida»gi qonuni. – O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2002 y., 9-son, 59-modda.

O’zbekiston Respublikasining «Davlat statistikasi to’g’risida»gi qonuni // «Xalq so’zi» gazetasi, 2002 yil 26 dekabr`.

O’zbekiston Respublikasining «Reklama to’g’risida»gi O’zbekiston Respublikasi qonuniga o’zgartishlar va qo’-shimchalar kiritish haqida»gi qonuni // «Xalq so’zi», 202-203-son, 2000 y., 20 sentyabr`.

O’zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to’g’risida»gi (yangi tahriri) qonuni // O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. 2003 y., 11-son, 80-modda.

qishloq xo’jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me`yoriy hujjatlar to’plami. – T.: «Sharq», 1998 y.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarga beriladigan qo’-shimcha rag’batlantirish omillari va imtiyozlar to’g’risida»gi Farmoni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Maj-lisining Axborotnomasi, 1997 y., 1-son, 2-modda; 1998 y., 4-son, 62-modda; 1999 y., 6-son, 155-modda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Korxonalarning bankrotligi to’g’risidagi qonunchilikni amalga oshirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar haqida»gi Farmoni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999 y., 7-son, 42-modda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat byudjetiga soliqlar va to’lovlar bo’yicha imtiyozlar berishni tartibga solish to’g’risida»gi Farmoni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1999 y., 7-son.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xo’jalik yurituvchi sub`ektlarning iqtisodiy nochorligi va shartnoma majburiyatlarini bajarilishi uchun mansabdor shaxslarning javobgarligini kuchaytirish to’g’risida» 1998 yil 4 martdagi Farmoni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1998 y., 3-son, 43-modda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Hisob-kitob mexanizmini takomillashtirish hamda respublika byudjeti va mahalliy byudjetlarga to’lovlar tushishini rag’batlantirish choralari to’g’risida» 1998 yil 4 fevraldagi Farmoni //O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1998 y., 39-modda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o’rta biznesni rivojlantirishni yanada rag’batlantirish chora-tadbirlari to’g’risida» 1998 yil 9 apreldagi Farmoni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1998 y., 4-son, 64-modda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «O’zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi Farmoni // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 y., 1-son, 12-modda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari (1995-1999) // T.: «Adolat».

O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 22 dekabrdagi «Xorijiy mamlakatlar hamkorlik qa-rorlarini e`tirof etish va ijro etish to’g’risida»gi N`yu-York Konvensiyasini ratifikasiya qilish to’g’risidagi qarori // O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 y., 12-son, 274-modda.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish va takomillashtirish choralari to’g’risida»gi 1995 yil 25 iyuldagi 287-sonli qarori // O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari to’plami, 1999 y., 7-son.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

«Investisiya fondlari faoliyatini tashkil etish tad-birlari to’g’risida»gi 1996 yil 18 iyundagi 220-sonli qarori // O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari to’plami, 1996 y., 6-son.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Import bojlarini hisoblash va undirish tartibi to’g’-risida»gi 1998 yil 24 fevraldagi 80-sonli qarori // O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari to’plami, 1998 y., 8-son.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O’zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish bo’yicha qo’shimcha tadbirlar to’g’risida»gi 1998 yil 31 martdagi 137-sonli qarori // O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari to’plami, 1999 y., 7-son.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshiruvlarni ahamiyatini oshirish to’g’risida»gi 2000 yil 22 sentyabrdagi 365-sonli qarori // O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari to’plami, 2000 y., 9-son.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Iqtisodiyotni kreditlash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi 2001 yil 22 avgustdagi 349-sonli qarori // O’zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to’plami, 2001 y.,8-son, 48-modda.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat byudjeti parametrlari to’g’risida»gi 2001 yil 31 dekabrdagi 490-sonli qarori // O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari to’plami, 2001 y., 12-son.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Tadbirkorlik sub`ektlarini davlat ro’yxatidan o’tkazish va hisobga qo’yish tizimini takomillashtirish to’g’risida»gi 2001 yil 25 avgustdagi 347-sonli qarori // O’zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to’plami, 2001 y., 8-son, 47-modda.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Iqtisodiyot va soliq sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishni kuchaytirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi 2001 yil 6 iyuldagi 291-sonli qarori // O’zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to’plami, 2001 y., 7-son, 37-modda.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sug’urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli qarori // O’zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to’plami, 2002 y.,11-son 72-modda.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Iste`molchilar huquqlarini himoya qilishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirishi chora-tadbirlari to’g’risida»gi 2002 yil 28 noyabrdagi 414-sonli qarori // O’zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to’plami, 2002 y.,11-son, 73-modda.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi faoliyatini tashkil etish to’g’risida»gi 2003 yil 8 yanvardagi 8-sonli qarori // O’zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to’plami, 2003 y., 8-son, 3-modda.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Birja faoliyatini lisenziyalash to’g’risida»gi 2003 yil 4 fevraldagi 66-sonli qarori // O’zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to’plami, 2003 y., 2-son, 14-modda

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O’zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini O’zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to’g’risida»gi 2003 yil 13 fevraldagi 75-sonli qarori //O’zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to’plami, 2003 y., 2-son, 15-modda.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xususiylashtirilgan korxonalarni korporativ boshqa-rishni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi 2003 yil 19 aprelagi 189-sonli qarori // O’zbekiston Res-publikasi Hukumatining qarorlari to’plami, 2003 y., 4-son, 32-modda.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «To’g’ridan-to’g’ri xorijiy investisiyalarni huquqiy himoya qilishni kuchaytirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi 2003 yil 2 maydagi 205-sonli qarori // O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2003 y., 9-10-son, 72-modda.

«Xo’jalik sudlari tomonidan O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining javobgarlik to’g’risidagi qoida-larini qo’llashning ayrim masalalari haqida»gi 77-son qaror // O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo’-jalik sudi Plenumi qarorlarining to’plami. Nukus, «Bi-lim» nashriyoti, 2000 y.

«O’zbekiston Respublikasi xususiy tadbirkorlik to’g’-risida»gi Nizom. – T., «O’zbekiston», 1992 y.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 25 sentyabrdagi 365-sonli qarori bilan tasdiq-langan «Xususiylashtirish investisiya fondlari to’g’ri-sida»gi Nizom // O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mah-kamasi qarorlari to’plami, 1998 y., 9-son.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 22 sentyabrdagi 365-sonli qarorining 2-ilovasi: «Majburiy auditorlik tekshiruvlaridan bo’yin tovlaganlik uchun xo’jalik sub`ektlaridan jarima undirish tartibi to’g’risida»gi Nizom // O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari to’plami, 2000 y., 9-son.

O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2002 yil 2 martda 1109-son bilan ro’yxatga olingan «Yuridik shaxslar daromadlari (foydasi)dan byudjetga soliqni hisoblab chiqish va to’lash tartibi to’g’risida»gi Yo’riqnoma. // «O’zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo’mitalari va idoralari me`yoriy hujjatlari axborotnomasi», 2000 y., 5-son.

O’zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (15-son BHMS) «Buxgalteriya balansi». // O’zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari, 2003 y., 5-son, 141-bet.

O’zbekiston Respublikasi Auditorlik faoliyatining milliy standarti (50-son AFMS) «Auditorlik dallilari» // O’zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari, 2003 y., 5-son, 92-bet.

O’zbekiston Respublikasi Auditorlik faoliyatining milliy standarti (25-son AFMS) «Auditorlik tekshiruvi o’tkazilayotganda me`yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya etilishini tekshirish» // O’zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari, 2003 y., 5-son, 129-bet.

O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi va O’zbekiston Respublikasi Oliy xo’jalik sudi Plenumi qarorlarining to’plami // Nukus, «Bilim», 2000 y.

O’zbekiston Respublikasi Oliy xo’jalik sudi Plenumi va Rayosati qarorlari to’plami (1993-2001) // T.: «Adolat», 2001 y.

Postanovlenie Gosudarstvennogo komiteta Respubliki Uzbekistan po demonopolizasii i razvitiyu konkurensii «O vnesenii izmeneniy i dopolneniy v Polojenie o razmehenii reklamo’» ot 14 fevralya 2003 g., № 1» // Byulleten` normativno’x aktov ministerstv, gosudarstvenno’x komitetov i vedomstv Respubliki Uzbekistan, 2003 g., № 5-6, str.45.

3. MAXSUS ADABIYoTLAR

Abdusalomov M. Tadbirkorlarning huquqlari va qonu-niy manfaatlarini himoya qilish // Tadbirkorlik huquqi. Maxsus qism. T.: «Konsauditinform», 2002 y.

Abdusalomov M., Otaxonov F. Kontraktasiya shartnoma-lari: Talabnoma va da`vo arizalari // T.: «Adolat», 1998 y.

Abdusalomov M., Sindarov K. qishloq xo’jaligi sohasidagi tadbirkorlik shartnomalar // T.: «Konsauditinform», 2002 y.

Andreev V.K. Pravosub`ektnost` xozyaystvenno’x organov: suhnost` i realizasiya. M.: Izd-vo «Nauka». 1996 g.

Butikov L.I. qimmatli qog’ozlar bozori. Darslik. T.: «Konsauditinform», 2001 y.

Bozor qonuniyatlari asoslari. Tuzuvchilar: Chjen V.A., X.R.Raxmonqulov, O.Oqyulov, G.N.Tansiqboeva, G.M.Figlin. Biznes-katalog, «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi. 1996 y.

Germanskoe pravo. Chast` 2. Germanskoe torgovoe ulojenie i drugie zakono’. M., 1996 g.

Grajdanskoe pravo. Tom 1: Uchebnik / Otv.red.prof.-E.A.Suxanov. 2-izd., pererab. i dop.–M.: iz-vo BEK,1998 g.

Doynikov I.V. Predprinimatel`skoe (xozyaystvennoe) pravo. M., 1998 g.

Ershov I.V., Ivanov T.N. Predprinimatel`skoe pravo. Moskva, 1999 g.

Zokirov I.B. O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi. 1-qism, Toshkent, Adolat, 1996 y.

Zokirov I.B., Baratov M. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning huquqiy asoslari. Tadbirkorlik huquqi. Darslik. (Umumiy qism) // T.: «Konsauditinform», 2002 y.

Zinchenko S., Lapach V., Gazar`yan S. Paradokso’ pravosub`ektnosti predpriyatiy // Xozyaystvo i pravo, 1995 g.,№ 1.

Ibratov B. Tadbirkorlik huquqi. T., Moliya, 2001 y.

Ibratov B. Mahsulotning, bajarilgan ishning, ko’rsatilgan xizmatning sifatini davlat tomonidan tartibga solinishi. Tadbirkorlik huquqi. Darslik. (Umumiy qism) // T.: «Konsauditinform», 2002 y.

Karatuev A.G. Senno’e bumagi: vido’ i raznovidnosti. Uchebnoe posobie. M., Russkaya delovaya literatura. 1998 g.

Karaxodjaeva D. O yuridicheskix lisax i ix imuhestvenno’x pravomochiyax // Davlat va huquq. 2000 y., 1-son.

Kruglova N.Yu. Xozyaystvennoe pravo. M.: Russkaya delovaya literatura. 1998 g.

Laptev V.V. Predprinimatel`skoe pravo:ponyatie i sub`ekto'. M.,Yurist`,1999 g.

Martem`yanov V.S. Xozyaystvennoe pravo. Tom 1. Obhie polojeniya. M., BEK, 1994 g.

Mirkin Ya.M. Senno'e bumagi i fondovo'y ro'nok. M., Perspektiva, 1995 g.

Nasriev I. «Bankrotlik to'g'risida»gi qonun va uning tabiati hamda bankrotlik to'g'risidagi ishlarni sudda ko'rishning o'ziga xos xususiyatlari // Xo'jalik va huquq,1999 y., 2-son.

Nikitinskiy V.I., Korshunova T.Yu. Pravovoe regulirovanie trudovo'x otnosheniy rabotayuhix sobstvennikov. Gosudarstvo i pravo. № 6, 1992 g.

Oqyulov O. O'zbekiston qonunlariga sharhlar. O'zbekiston Respublikasi Mulkchilik to'g'risidagi qonuni. // T.: «Adolat», 1994 y., 61-62-betlar.

Oqyulov O. Tadbirkorlarning huquqlari, burchlari, javobgarligi va huquqiy kafolatlari. Tadbirkorlik faoliyatining ob`ekti sifatida mulk. Tadbirkorlik huquqi. Darslik. (Umumiy qism) // T.: «Konsauditinform», 2002 y.

Otaxonov F.H. Aksionerlik jamiyatlari // T.:«Adolat», 1996 y.

Otaxonov F.H. Xalq xo'jaligida yuridik xizmat va talabnoma da`vo ishlarini yuritish // T.: «Adolat», 1997 y.

Otaxonov F. O'zbekiston Respublikasida yuridik xizmat. O'quv qo'llanma. // TDYuI, 2003 y.

Oleynik A.S. Predprinimatel`skoe (xozyaystvennoe) pravo. M., Yurist`, 2000 g. 1-2-tom.

Pul va moliya bozorlari. Tuzuvchilar: O.Sh.Namozov, M.A.Yusupov, J.A.Fattoxova //Biznes-katalog, «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1996 y.

Pliev E.G. Pravovo'e problemo' predprinimatel`stva v Rossii. Sivilisticheskiy aspekt. M.: Prospekt, 1999 g.

Rahmonqulov H. Mustaqillik va bozor-xo'jalik qo-nunchiligi // Xo'jalik va huquq, 1996 y., 1-son.

Ro'zinazarov Sh.N. Xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning shartnoma munosabatlari // Xo'jalik va huquq,1999 y.,5-son.

Ro'zinazarov Sh.N. Tadbirkorlik huquqi sub`ektlari va ularning huquqiy holati //Xo'jalik va huquq, 2001 y.,8-son.

Raximov D. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq qo-nunchilik. // Xo'jalik va huquq, 2001 y., 2-son.

Sbornik dokumentov po provedeniyu auksionov i konkursov.T.: Adolat,1994 g.

Strovskiy M.E. Vneshneekonomicheskaya deyatel`nost` predpriyatiya. M., YuNITI, 1999 g.

Tadbirkorlik huquqi. Umumiy qism. Darslik. Tahririyat hay`ati: H.Rahmonqulov, Sh.Ro'zinazarov, M.Niyozov va boshqa.; Mas`ul muharrir: Sh.Ro'zinazarov // T., «Konsa-uditinform», 2002 y.

Tadbirkorlik huquqi. Maxsus qism. Darslik. Tahririyat hay`ati: Sh.Ro'zinazarov, A.Saidov, K.Rashidov va boshq.; Mas`ul muharrir: Sh.Ro'zinazarov. T.: «Konsauditinform», 2002 y.

Tot`ev K.Yu. Predpriyatie i ego organizasionno-pravovo'e formo'. Gosudarstvo i pravo. 1994 g. № 10.

Toxirov F. Sifatsiz mahsulot chiqarish yoki sotish uchun jinoiy javobgarlik. // qonun himoyasida, 2000 yil, 2-son.

Tursunov Y. Mehnat huquqi. Darslik. // T.,Moliya, 2002 y.

Tursunov Y., Sarimsaqova G. Voproso' sovershenstvovaniya predprinimatel`stva na sele. // Xozyaystvo i pravo. 2002 g., № 3.

Xamedov I.A., A.M.Alimov O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. Toshkent, Adabiyot jamg'armasi, 2001 y.

Xozyaystvennoe pravo. Obhie polojeniya. Pod red. V.V.Lapteva. M.: Nauka, 1983 g.

Xo'jalik shartnomalariga oid qonun hujjatlari va shartnomalar namunaviy shakllari to'plami. Tuzuvchilar: Matrasulov D.R. va boshq., // T.: «Adolat», 1998 y.

Chuvpilo A.A. Xozyaystvennoe pravo zarubejno'x stran. Uchebnoe posobie. K.:UMKVO, 1992 g.

Shaulov D.I., Kan U.T. Buxgalterskiy uchet na predpriyatiyax na osnove izmenennogo plana schetov, vvodimogo s 2004 goda ch.1 Spravochnoe posobie // T.: «Mir ekonomiki i pra-va», 2003 g.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 2-qismiga sharhlar.T.,1998 y.

qimmatli qog'ozlar: Aksiyador va tadbirkorning ma`lumot beruvchi qo'llanmasi. Tuzuvchilar: /afurov Sh.R., Shaulov D.I., Kan U.T. Tahrir kengashi: Xo'jaev B.A. va boshqalar. To'ldirilgan va qayta ishlangan 4-nashri. // T., Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000 y.

Mualliflar jamoasi haqida qisqacha ma`lumot

Rustambaev M.H. **Toshkent Davlat yuridik instituti rektori, yuridik fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist**

Ibratov B.I. **yuridik fanlari doktori, professor**

Oqyulov O.O. **yuridik fanlari doktori.**

Otaxonov F.H. **Toshkent shahar xo'jalik sudi raisi, yuridik fanlari nomzodi**

Tohirov F. **TDYuI «Jinoyat huquqi» kafedrasi mudiri, yuridik fanlari nomzodi, dosent**

Ernazarov U **Samarqand viloyati xo'jalik sudi raisi**

Nasriev I.I. **Oliy xo'jalik sudi katta maslahatchisi, yuridik fanlari nomzodi**
Shukurullaev A.X. **Toshkent shahar xo'jalik sudi sud`yasi, yuridik fanlari nomzodi**
Burxanxodjaeva X.V. **TDYuI «Xo'jalik va mehnat huquqi» kafedrasi katta o'qituvchisi**
Tursunov Y.T. **TDYuI «Xo'jalik va mehnat huquqi» kafedrasi katta o'qituvchisi**
Do'stov U.N. **TDYuI «Xo'jalik va mehnat huquqi» kafedrasi o'qituvchisi**
Mansurov K.E. **TDYuI «Xo'jalik va mehnat huquqi» kafedrasi o'qituvchisi**
Isakov T.U. **TDYuI «Xo'jalik va mehnat huquqi» kafedrasi o'qituvchisi**
Yuldashev J.I. **TDYuI «Fuqarolik huquqi» kafedrasi o'qituvchisi**
Xaytboev M.M. **TDYuI «Xo'jalik va mehnat huquqi» kafedrasi tadqiqotchi-izlanuvchisi**
Nuriddinova A.M. **TDYuI «Xo'jalik va mehnat huquqi» kafedrasi kabinet mudiri**

M U N D A R I J A

KIRISh.....
.....3
I bob. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi tushunchasi.
1-§. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik(tadbirkorlik) huquqining roli.....6
2-§. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqining tushunchasi va uning pred-meti.....8
3-§. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqining asosiy tamoyillari.....16
4-§.Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqining boshqa huquqiy fanlardan farqi.....21

II bob. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqining manbalari.
1-§. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqining manbalari tushunchasi.....25
2-§.Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi manbalarining turlari.....26

III bob. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqiy munosabatlar.
1-§. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqiy munosabat tushunchasi, belgilari va tarkibiy qismlari.....32
2-§. Xo'jalik (tadbirkorlik) faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuzaga keluvchi huquqiy munosabatlar turlari hamda tasnifi va ularning vujudga kelish asoslari.....40

IV bob. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqining sub`ektlari.
1-§. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi sub`ektlari tushunchasi, belgilari va tas-nifi.....47
2-§. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi sub`ektlari faoliyatining tashkil qilinishi va tugatilishi. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi sub`ektlarini davlat ro'yxatidan o'tka-zish.....56
3-§. Yakka tartibdagi tadbirkor xo'jalik (tadbirkorlik) huquqining sub`ekti sifatida.....62
4-§. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi sub`ekti sifatida davlat.....69
5-§. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi sub`ekti sifatida korxonalarning ayrim turlari: unitar korxonalar; aksiyadorlik jamiyatlari; ishlab chiqarish kooperativlari; xo'jalik shirkati; mas`uliyati cheklangan va qo'shimcha mas`uliyatli jamiyatlar.....82

V bob. Bozor munosabatlari sharoitida korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish.
1-§. Xususiylashtirishning mohiyati, zarurati va tushunchasi.....98
2-§. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylash-tirishning huquqiy asos-lari.....100
3-§. Xususiylashtirishning usullari va shakllari.....105
4-§. Mulkni nasionalizasiya qilish.....109

VI bob. Xo'jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatini qayta tashkil etish va tugatishning huquqiy asoslari.
1-§. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi sub`ektlarini qayta tashkil etish tushunchasi va uni amalga oshirish usullari.....111
2-§. Xo'jalik (tadbirkorlik) huquqi sub`ektlarini tugatish tartibi va asoslari.....126

VII bob. Xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning bankrotligi.
1-§. Bankrotlik tushunchasi va uning normativ huquqiy asoslari.....141
2-§. Sudgacha sanasiya qilish, kuzatuv va sud sanasiyasi.....145
3-§. Tashqi boshqaruv.....150
4-§. Bankrotlik to'g'risidagi ishni sudda ko'rishga tayyorlash, uni hal etish.....152
5-§. qarzdor yuridik shaxslar ayrim toifalarining bankrotligi xususiyatlari.....158
6-§. Yakka tartibdagi tadbirkor bankrotligining xususiyatlari....161
7-§. Bankrotlikning soddalashtirilgan taomillari.....165

VIII bob. Raqobatning huquqiy ta`minlanishi.
1-§. Insofli va insofsiz raqobat tushunchalari hamda ularning shakllari.....169
2-§. Iste`molchilar huquq va manfaatlarini insofsiz raqobatdan himoya qilish.....171
3-§. Insofsiz raqobat va reklama.....173

IX bob. Xo'jalik (tadbirkorlik) shartnomalari.
1-§. Xo'jalik shartnomasi tushunchasi, sub`ektlari va ahamiyati...178
2-§. Xo'jalik shartnomalarini tuzish, o'zgartirish va bekor qilish.....182
3-§. Xo'jalik shartnomalarini bajarish.....190
4-§. Shartnomaviy munosabatlarning huquqiy jihatdan ta`minlanishini tashkil etish. Xo'jalik shartnomalarini tuzish va bajarishni nazorat qilish.....194
5-§. Shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik.....196

X bob. Tovar va moliya bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash.
1-§. Tovar va moliya bozorlarida monopoliyatik faoliyat tushunchasi va belgilari.....212
2-§. Monopolistik faoliyatni amalga oshirishning oqibatlari va javobgarlik turlari.....219
3-§. Tabiiy monopoliyalarni huquqiy tartibga solish.....221

XI bob. Xo'jalik (tadbirkorlik) faoliyatiga soliqlar orqali ta`sir qilishning huquqiy asoslari.
1-§. O'zbekistonda xo'jalik (tadbirkorlik) faoliyatini soliqlar vositasida boshqarish, uning asosiy funksiyalari, tamoyillari.....229
2-§. Xo'jalik faoliyatiga soliqlar orqali ta`sir etish maqsadi, tushunchasi va vositalari.....232
3-§. Xo'jalik faoliyatini soliqlar orqali tartibga solish yuzasidan huquqiy munosabatlar.....238
4-§. Soliqqa oid huquqbuzarlik va uning uchun javobgarlik.....243

XII bob. Tashqi iqtisodiy faoliyatni huquqiy tartibga solinishi.
1-§. Tashqi iqtisodiy faoliyat tushunchasi va uning huquqiy asoslari.....249
2-§. Tashqi iqtisodiy faoliyat sub`ektlari va ularning turlari.....252
3-§. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solinishi.....255
4-§. Tashqi iqtisodiy faoliyatni kvotalash, lisenziyalash, tarif va soliqlar hamda valyuta orqali tartibga solinishi.....258
5-§. Tashqi iqtisodiy faoliyat shartnomalari. Tashqi iqtisodiy faoliyat shartnomalari bo'yicha huquq va majburiyatlar hamda javobgarlik.....263

XIII bob. Investisiya faoliyatini huquqiy tartibga solish.
1-§. Investisiya faoliyati tushunchasi, turlari. Investisiya ob`ektlari.....266
2-§. Investisiya sohasidagi qonunchilik. Investisiya faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi.....269
3-§. Investisiya faoliyatini shartnomaviy shakllari. Taraflarning huquq va majburiyatlari.....274

XIV bob. qimmatli qog'ozlar bozorini davlat tomonidan tartibga solish.
1-§. qimmatli qog'ozlar tushunchasi.....280
2-§. qimmatli qog'ozlarning turlari, ularning emissiyasi tushunchasi va faoliyati.....282
3-§. qimmatli qog'ozlar bozorini davlat tomonidan tartibga solinishi: yo'llari va vositalari.....298
4-§. Fond birjalari, ularning tuzilishi va vazifalari.....300
5-§. qimmatli qog'ozlar bozorida investisiya institutlarining tarkibi va ularning faoliyati.....307

XV bob. Xo'jalik faoliyatini moliyalash, kreditlash va hisob-kitob.

1-§. Buxgalteriya hisobi, hisobotlari, statistik va audit faoliyatni huquqiy tartibga solish tushunchasi, vazifalari.....320
2-§. Buxgalteriya hisobini yuritish va uning huquqiy jihatdan tartibga solinishi.....325
3-§. Xo'jalik yurituvchi sub`ektlar mol-mulk fondlari va ularni buxgalteriya hisobi vositalari bilan huquqiy tartibga solinishi.....328
4-§. Xo'jalik yurituvchi sub`ektlar tomonidan buxgalteriya hisobotlari taqdim etilishini huquqiy tartibga solish.....329
5-§. Auditorlik faoliyatining huquqiy asoslari.....333
6-§. Xo'jalik yurituvchi sub`ektlarni kreditlashga oid huquqiy munosabat tushunchasi va ularni yuzaga kelish asoslari.....336
7-§. Kredit shartnomasi tushunchasi, taraflari, kredit shartnomasining shakli.....340
8-§. Kredit shartnomasi yuzasidan majburiyatlarning buzilishi va uning uchun javobgarlik.....342

XVI bob. Iqtisodiyot sohasidagi qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik.
1-§. Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik.....345
2-§. Xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik.....358

XVII bob. Xo'jalik nizolarini hal qilish.
1-§. Xo'jalik nizolari tushunchasi va uning kelib chiqish asoslari.....370
2-§. Xo'jalik nizolarini hal qiluvchi organlar.....371
3-§. Xo'jalik nizolarini hal etish va sud hujjatlarini qayta ko'rish.....383
4-§. Xo'jalik sudi hujjatlarining ijrosi.....393
5-§. Xo'jalik yurituvchi sub`ektlarni ishchanlik obro'sini himoya qilishning o'ziga xos xususiyatlari.....394

XVIII bob. Xo'jalik yurituvchi sub`ektlarning huquqiy himoya tizimi.
1-§. Xo'jalik yurituvchi sub`ektlar huquqiy himoya tizimining mohiyati, shakllari va uning tashkiliy mexanizmi.....398
2-§. Xo'jalik (tadbirkorlik) faoliyatini huquqiy ta`minlash.....402
3-§. Xo'jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish.....407

Tavsiya qilinayotgan rahbariy, me`yoriy huquqiy hujjatlar va maxsus adabiyotlar.....414

XO’JALIK (TADBIRKORLIK)

HUqUqI

DARSLIK

Muharrir: B.Boymoqov
Texnik musarrir: Sh. Rahimov
Komp`yuterda sasifalovchi: F.Nurlibaev

Bosishga ruxsat etildi: 29.09.03. Kogoz **x**ajmi: 65/47.
Bosma tabo**q** 26,8. Adadi: 500. Buyurtma: № 206
TDYuI kichik bosmaxonasida bosildi.
Toshkent shasar, Sayilgos 35.